$$q(z) = -\frac{1}{\mu(z)} (f''(z - z_0) - g'(z - z_0)) + \frac{1}{\mu(z)} \left(\frac{\partial^2}{\partial t^2} - \frac{\partial^2}{\partial z \partial t} \right) v_0(z, t) \Big|_{z=z_0, t=z-z_0} + \frac{1}{\mu(z)} \int_{z_0}^z k(z - \xi) \mu(z - \xi) d\xi - \frac{1}{\mu(z)} \int_{z_0}^z q(\xi) v_t(\xi, z - \xi) d\xi +$$

$$+ \frac{1}{\mu(z)} \int_{z_0}^z \int_0^{z-\xi} k(\eta) v_t(\eta, z - \xi - \eta) d\eta d\xi, z_0 < z < z_0 + t_0, (11)$$

$$q(z) = \frac{1}{\mu(z)} (-f''(z_0 - z) + g'(z_0 - z)) +$$

$$+ \frac{1}{\mu(z)} \left(\frac{\partial^2}{\partial t^2} - \frac{\partial^2}{\partial z \partial t} \right) v_0(z, t) \Big|_{z=z_0, t=z_0-z}$$

$$+ \frac{1}{\mu(z)} \int_z^{z_0} k(\xi - z) \mu(\xi - z) d\xi - \frac{1}{\mu(z)} \int_z^{z_0} q(\xi) v_t(\xi, \xi - z) d\xi +$$

$$+ \frac{1}{\mu(z)} \int_z^{z_0} \int_0^{\xi-z} k(\eta) v_t(\eta, \xi - z - \eta) d\eta d\xi, z_0 - t_0 < z < z_0, (12)$$

Bu ikki tenglamalardan $q(z)$ ni kanonik ko'rinishda topamiz:.

$$q(z) = q_0(z) - \frac{1}{\mu(z)} \int_{z_0}^z q(\xi) v_t(\xi, z - \xi) \text{sign}(z_0 - z) d\xi +$$

$$+ \frac{1}{\mu(z)} \int_{z_0}^z \int_0^{z-\xi} k(\eta) v_t(\eta, z - \xi - \eta) d\eta d\xi \text{sign}(z_0 - z) d\xi. (13)$$

(13) integral tenglamaning ozod hadi

$$q_0(z) = -\frac{1}{\mu(z)} (f''(z - z_0) - g'(z - z_0)) +$$

$$+ \frac{1}{\mu(z)} \left(\frac{\partial^2}{\partial t^2} + \text{sign}(z_0 - z) \frac{\partial^2}{\partial z \partial t} \right) v_0(z, t) \Big|_{z=z_0, t=z-z_0}$$

$$+ \frac{1}{\mu(z)} \int_{z_0}^z k(z - \xi) \mu(z - \xi) \text{sign}(z_0 - z) d\xi.$$

Qo'shimcha berilgan shartlar uchun $f_1(t) \in C^2([z_0, t_0]), f_2(t) \in C^1([z_0, t_0])$ shartlar va quyidagi kelushuvchanlik sharti bajarilsin:

$$\mu(z_0) = f(0), \mu'(z_0) = g(0)$$

$$v(z_0) = f'(0), v'(z_0) = g'(0). (14)$$

Teskari masala uchun quyidagi natija o'rinli.

Teorema. Teorema 1. ning shartlari bajarilsin, berilgan funksiyalar $f(t) \in C^2([z_0, t_0]), g(t) \in C^1([z_0, t_0])$ sinflardan, $|\mu(z)| \geq \alpha > 0, z \in [z_0 - t_0, z_0 + t_0]$ shart va kelushuvchanlik sharti (14) bajarilsin. U holda yetarlicha kichik $h > 0$ soni

uchun (5) – (9) teskari masalaning $[z_0 - h, z_0 + h]$ kesmadagi $C[z_0 - h, z_0 + h]$ sinfga tegishli $q(z)$ yechimi mavjud va yagona bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Дурдиев Д.К. Обратные задачи для сред с последствием. - Ташкент: "Turon-Iqbol", 2014. с. 240
2. Дурдиев Д.К. Многомерная обратная задача для уравнения с памятью // Сиб. матем. журн., 1994. Т. 35. №3. с. 574-582
3. Романов В. Г. Оценки устойчивости решения в задаче об определении ядра уравнения вязкоупругости // Сиб. журн. индустр. матем., 15:1 (2012), с. 86-98.
4. Романов В. Г. Обратные задачи математической физики. М.: Наука. 1984. с. 264.
5. Кабанихин С. И. Обратные и некорректные задачи. Новосибирск, 2009. с. 457.

BIR O'LCHAMLI PANJARADA KOMPAKT QO'ZG'ALISHLI BILAPLASIANNING XOS QIYMATLARI ASIMPTOTIKASI

A.M.Xalxujaev

BuxDU, fizika-matematika fanlari doktori

D.S.Rahmatova

BuxDU, Matematika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu tesizda panjarada kompakt qo'zg'alishli diskret bilaplasianning muhim spektrdan tashqarida yagona xos qiymatga ega bo'lishi isbotlangan, hamda xos qiymat uchun yaqinlashuvchi asimptotik yoyilmalar olingan.

Kalit so'zlar. Diskret bilaplasian, xos qiymat, asimptotik yoyilma.

To'rtinchi tartibli elliptik operatorlar, xususan, bigarmonik operatorlar chiziqli elastiklik nazariyasi, mustahkamlik muammolari (masalan, osma

ko'priklarni qurish) va Stoks oqimlarini tavsiflash kabi fizik modellarning keng sinfida muhim o'rin tutadi. Shu sababli qattiq jismlar fizikasi, kvant mexanikasi va elastiklik nazariyasida uchraydigan bigarmonik operatorlarning diskret va muhim spektriga oid tadqiqotlarni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Panjaradagi bir zarrachali sistema gamiltonianlariga mos qo'zg'algan bigarmonik operatorlar oilalarining spektriga oid muammolarni hal etish matematik fizikada muhim ahamiyat kasb etmoqda [3], [4]. Bilaplasianlar chiziqli elastiklik nazariyasi, mustahkamlik muammolari, optimallashtirilgan va yetarlicha siyrak saqlangan ma'lumotli tasvirlarni siqishda yuqori potensialga ega bo'ladi.

Faraz qilaylik, \mathbb{Z} - bir o'lchamli panjara, $P^2(\mathbb{Z})$ - orqali \mathbb{Z} da aniqlangan kvadrati bilan jamlanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosini belgilaymiz. $P^2(\mathbb{Z})$ Hilbert fazosida

$$\hat{h}_\mu = \hat{h}_0 - \mu \hat{v} \mu > 0,$$

formula yordamida aniqlangan o'z-o'ziga qo'shma chegaralangan operatorlar oilasini qaraymiz. Bu yerda \hat{h}_0 - diskret bilaplacion, ya'ni

$$\hat{h}_0 = \hat{\Delta}$$

bunda

$$(\Delta f)(x) = f(x) - \frac{f(x+1)+f(x-1)}{2}, f \in P^2(\mathbb{Z}),$$

diskret laplacion va \hat{v} esa rangi birga teng bo'lgan operator

$$\hat{v}(x) = \begin{cases} \frac{1}{4} (f(1) - f(-1)), & x = 1 \\ \frac{1}{4} (f(1) - f(-1)), & x = -1 \\ 0, & x \neq \pm 1 \end{cases}$$

Faraz qilaylik, $\mathbb{T} = (-\pi, \pi]$ bir o'lchamli tor, $L^2(\mathbb{T})$ - \mathbb{T} da kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosi bo'lsin. \hat{h}_μ operator impuls ko'rinish quyidagi

$$h_\mu = h_0 - \mu v, \mu > 0,$$

formula yordamida aniqlanadi, bunda h_0

$$\varepsilon(p) := (1 - \cos p)^2$$

funksiyaga ko'paytirish operatori va \mathbf{v} rangi birga teng bo'lgan operator

$$(\mathbf{v}f)(p) = \frac{1}{2\pi} \int_{\mathbb{T}} \sin p \sin q f(q) dq.$$

Tushunarliki,

$$\sigma(h_0) = \sigma_{\text{ess}}(h_0) = [0,4],$$

\mathbf{v} ning kompakt operator ekanligidan klassik Weyl teoremasiga asosan barcha $\mu > 0$

$$\sigma_{\text{ess}}(h_\mu) = \sigma_{\text{ess}}(h_0) = [0,4]$$

tenglik bajariladi.

Ma'lumki, $\mathbf{v} \geq 0$,

$$\sigma_{\text{disc}}(h_\mu) \cap (4, +\infty) = \emptyset.$$

Teorema 1. *Ixtiyoriy $\mu > 0$ uchun h_μ operator muhim spektrdan tashqarida yotadigan yagona $e(\mu) < 0$ xos qiymatga ega va unga mos xos funksiya quyidagi ko'rinishda bo'ladi*

$$f_\mu(p) := \frac{\sin p}{s(p) - e(\mu)}$$

Shuningdek:

- $\mu \in (0, +\infty) \mapsto e(\mu)$ funksiya haqiqiy analitik, qat'iy kamayuvchi, $(0, +\infty)$ da qat'iy botiq va

$$\lim_{\mu \searrow 0} e(\mu) = 0 \text{ va } \lim_{\mu \rightarrow +\infty} \frac{e(\mu)}{\mu} = -\frac{1}{2} \quad (0.3)$$

- yetarlicha kichik va musbat μ lar uchun

$(-e(\mu))^{1/4} = 2^{-3}\mu - 2^{-11}(2^8 + 1)\mu^2 - 2^{-11}(2^8 - 1)\mu^3 + \sum_{n \geq 3} D_n \mu^{n+1}$, tenglik o'rinli, bu yerda $D_n, n = 1, 2, \dots$, haqiqiy koeffitsentlar.

Adabiyotlar:

[1] S.N. Lakaev and A.M. Khalkhujayev: Spektr of the Two-Particle Schrodinger Operators on Lattices, TMF **155**(2008), 287–300

[2] Albeverio, S.N. Lakaev and A.M. Khalkhujayev: Number of Eigenvalues of the Three-Particle Schrodinger Operators on Lattices, **18** (2012), 18pp. 387-420

[3] A.Khalkhuzhaev, Sh.Kholmatov, M.Pardabaev. Expansion of eigenvalues of the perturbed discrete bilaplacian. Monatshefte für Mathematik, 2022. Vol. 197, № 4. P. 607-633.

[4] M. Ben-Artzi, G. Katriel: Spline functions, the biharmonic operator and approximate eigenvalues. Numer. Math. 141 (2019), 839–879.

[5] Klaus M. and B.Simon: Coupling constants thresholds in non-relativistic quantum mechanics. I. Short range two body case. Ann. Phys. **130**, 251–281 (1980).

[6] S.N.Lakaev: The Efimov effect in a system of three identical quantum particles. Funct. Anal. Appl. **27**, 166–175 (1993).

[7] A.Khalkhuzhaev, M.Pardabaev. Asymptotics of eigenvalues of the discrete bilaplacian with zero-range perturbation. Bulletin of the Institute of Mathematics. - Tashkent, 2021. Vol. 4, №6. P. 13-24.

“SUYUQLIKLARDA ELEKTR TOKI” MAVZUSINI NAMOYISHLI TAJRIBALAR ASOSIDA O‘QITISH.

B.E.Niyazonova,

*BuxDU fizika kafedrasi dotsenti, fizika
matematika fanlar nomzodi,*

R.I.G‘afforova,

BuxDU, Fizika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizika darslari samaradorligini oshirishda namoyishli tajribalarning o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Namoyish tajribalarni “suyuqliklarda elektr toki” mavzusi misolida o‘tkazish ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: nazorat va tajriba sinfi, elektr toki, ion, atom, o‘tkazuvchanlik, elektrod, distillangan suv.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 8-sinf fizika darsligida “Suyuqlarda elektr toki” mavzusini⁶ tushuntirishdan maqsad o‘quvchilarda suyuqliklarda elektr

⁶(Xabibullayev P., 2019)

tokining hosil bo'lishi haqida nazariy va amaliy tushunchalarni hosil qilish, fikrlash qobiliyati va tasavvur ko'lamini kengaytirishdan iborat.

Yangi mavzuni tushuntirish oldidan o'quvchilarga mavzuga oid kalit so'zlarni berildi. Kalit so'zlar quyidagilardan iborat: ion, ionli bog'lanish, katod, anod, elektrolitik dissotsatsiya, elektrolit.

Ion –elektroni yetishmaydigan yoki ortiqcha bo'lgan atom. Ionlar orasida Kulon tortishish kuchi tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog'lanishga –ion bog'lanish deyilib, bunday bog'lanishga misol qilib, natriy xlorid (NaCl)-osh tuzini keltiramiz.

Bu mavzuni tushuntirishda 2ta alohida parallel sinflar tanlanib mavzu o'tildi:

1-nazorat sinfida mavzu rasmi ko'rgazmalar asosida nazariy ma'lumotlar berildi.

2-tajriba sinov sinfida esa mavzuga doir nazariy ma'lumotlar berilib, tajriba qilib ko'rsatildi.

Ba'zi suyuqliklar elektr tokini o'tkazadi, boshqalari esa o'tkazmasligi mumkin. Suyuqliklarning elektr tokini o'tkazishi yoki o'tkazmasligini oddiygina quyidagi tajriba yordamida aniqlashimiz mumkin. Tajriba davomida tok manbai, elektr lampochka, shisha idish va unga tushirilgan ikkita ko'mir sterjen-elektrodlar va kalitdan foydalanildi. Elektrodlardan biri kalit orqali elektr manbaining musbat qutbi-anodga, ikkinchi esa manfiy qutbi-katodga ulanadi. Elektrodli shisha idishga distillangan suv solamiz va kalitni ulaymiz bunda lampochka yonmasligi ko'rildi. Demak, distillangan suv elektr tokini o'tkazmaydi. So'ngra, kalitni uzib, idishdagi suvga osh tuzi solib, natriy xlorid eritmasini hosil qilamiz. Osh tuzi suvga solinganda, qutblangan suv molekullari natriy xloridning kristal panjara tugunlarida joylashgan Na^+ va Cl^- ionlarini o'ziga tortadi. Natijada NaCl kristal panjarasi yemirilib, suvda tartibsiz erkin harakatlanuvchi Na^+ va Cl^- ionlari hosil bo'ladi. Kalitni ulasak, Na^+ ionlari katod tomon va Cl^- ionlari esa anod tomon harakatlanadi. Natijada zanjirda tok o'ta boshlab lampochka yonganini ko'rishimiz mumkin. Demak, natriy xlorid eritmasi elektr tokini o'tkazar ekan deb xulosa qilindi. Kalitni uzib, shisha idishdagi osh tuzining konsentratsiyasini oshirib yana qayta

ulaganimizda lampochkaning ravshanligi ortgani ham ko'rsatib, elektrolitda ionlar qancha ko'p bo'lsa, u elektr tokini shuncha yaxshi o'tkazishini isbotlashimiz mumkin.

Shunday xulosa qilishimiz mumkin:

Natijalar⁷ solishtirilganda birinchi nazorat sinfi o'quvchilari savol –javoblarda darslarda doimiy faol qatnashuvchi o'quvchilar javob berdi, o'zlashtirishi pastroq bo'lgan o'quvchilar qiyinchilik bilan javob berishdi va bu o'quvchilarga qo'shimcha videorolik va adabiyotlar orqali ma'lumotlar berildi. Ikkinchi tajriba sinov sinfi o'quvchilari savol –javoblarda faol qatnashishdi. Uyda qo'shimcha ravishda ishlab, turli xildagi o'zlarini qiziqtirgan savollardan berishdi, 1 ta laboratoriya jihozi maketini yasashga qiziquvchi o'quvchidan tashqari yana 3ta o'quvchi uyda mustaqil ravishda tajriba sxemasini yig'ishga urinib ko'rishdi.

Namoyishli tajriba samaradorligini belgilovchi asosiy omili bu uning ishonchliligi hisoblanadi. Chunki, bu usulda o'quvchi fizika o'qitish samaradorligining eng muhim ko'rsatkichi hisoblanuvchi- “bilimlarni qo'llash”ni o'rganadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchi tomonidan o'ylangan mavzuga oid tashkillashtirilgan namoyishli tajribalar butun sinf o'quvchilari diqqat bilan kuzatishadi. Muayyan hodisa va qonuniyatlarni o'rganishda namoyish etilayotgan o'quv tajribasi o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishini yanada orttirib, fizik qonuniyatlarni yanada chuqurroq o'zlashtirishga, hodisaga nisbatan tushuncha va tasavvur uyg'otishga va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga yordam berib, dars samaradorligini oshiradi. Shu orqali o'quvchilar mustaqil ravishda tajribalar o'tkazishga o'rganadilar. Namoyishli tajribalar davomida o'qituvchi tomonidan hodisa va qonuniyatlarga nisbatan berayotgan izohi o'quvchilar ongida fizik tushunchalarni muvaffaqiyatli tarzda shakllantirishni ta'minlab beradi.

Adabiyotlar:

1. Xabibullaev P., Boydedaev A., Baxromov A., Usarov J., Suyarov K., Yuldasheva M. Fizika 8-sinf darsligi. –T.: O'qituvchi, 2019.

⁷ (Qurbonov, 2008)

2. Mirzaaxmad Qurbonov “Fizikadan namoyish eksperimentlarining uslubiy funksiyalarini kengaytirishning nazariy asoslari”. Toshkent. “Fan” nashriyoti, 2008.

3. https://www.yottavolt.com/wp-content/uploads/2019/10/Leybold_Physics_Experiments_LD_DIDACTIC.pdf

FRENEL LINZASI ASOSIDAGI SUV NASOSINI O'RGANISH

M.I.Daminov,

BuxDU pedagogika instituti

direktori, p.f.n dotsent

S.S.Salimov,

BuxDU, Fizika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Qayta tiklanadigan energiya manbalari olimlarni diqqatini o'ziga qaratishi kundan kunga ortib bormoqda. Xususan yurtimiz serquyosh o'lkaligi va bir yilda 300 kundan ortig'i quyoshli ekanligi quyosh energiyasi bilan ishlaydigan innavatsion texnologiyalarni takomillashtirish eng katta maqsadimiz. Mazkur maqolada quyosh energiyasi asosida ishlaydigan suv nasosi atroflicha o'rganildi va tajribada olingan natijalar o'rganildi.

Kalit so'zlar: konsentrator, Frenel linzasi, nur zichligi, fokus nuqtasi, temperatura, energiya, klavn, paragenerator, zichlik.


Quyosh nuri bu – energiya manbaasidir, undan oqilona foydalanishni o'rganish insoniyatni kelajagini kafolatlaydi. Xususan quyosh energiyasidan foydalanish turli yo'llar orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, quyosh nuri energiyasidan elektr energiyaga, yorug'lik energiyasidan issiqlik energiyasiga, quyosh parniklari, quyosh pechlari, quyosh soati va hokazo. Bu uchun esa quyosh konsentratorlaridan keng foydalaniladi.

Konsentratorlar - quyosh nurlari oqimining zichligini oshiradigan optik qurilmalardir. Yuqori haroratli qurilmalar yoki "quyosh pechlari" uchun qabul qilgichdagi radiatsiya zichligining oshishi 3000°C va undan yuqori haroratni

yaratishga olib keladi, bu esa barcha o'tga chidamli materiallarni sintez qilish imkonini beradi [1].


Konsentratorlar ikkiga bo'linadi, nurni qaytarib bir nuqtaga to'plovchi konsentratorlar va nurni sindirib bir nuqtaga to'plovchi konsentratorlar. Birinchi turdagi konsentratorlar parabolik shaklga ega bo'lgan quyosh ko'zgulari kirsam, ikkinchi turga sferik sirtga ega bo'lgan linzalar va Frenel linzalari kiradi.

Frenel linzasi - bu murakkab pog'onali yuzaga ega optik jism [2]. U sharsimon va silindrsimon linzalar o'rnida ishlatilishi mumkin. Bunday linzalarning qadamlari konsentrik, spiral yoki chiziqli roluklar bilan chegaralanishi mumkin.



1-rasm. Frenel linzasi yon tomondan ko'rinishi.

Frenel linzasidan suv nasoslarda foydalanishda asosiy energiya manbasi bu quyosh nuri hisoblanadi. Quyosh nurini bir nuqtaga fokuslash natijasida, shu nuqtada yorug'lik radiatsiyasi zichligi oshib boradi va harorat oshadi. Harorat oshishi esa katta energiyani hosil qiladi (issiqlik energiyasi). Quyidagi tizimda suv nasosi tizimi keltirilgan.



2-rasm. Suv nasosini sodda sxemasi. 1-quyosh nuri, 2- Frenel linzasi, 3- paragenerator, 4- suv, 5- bir yoqlama klavn, 6- balandlik naychasi.

Quyoshdan kelayotgan yorug'lik Frenel linzasining fokusiga yig'iladi va katta temperaturani hosil qiladi. Linzaning fokusiga paragenerator joylashtiriladi va undagi temperatura ortib ichidagi suv qiziydi[3]. Qizigan suv bosimning haroratga to'g'ri muttanosibligidan bosim ham ortib klavnlariga ta'sir etadi.

$$\Delta P \sim \Delta T \quad (1)$$

Mazkur tizimda bir yoqlama klavn suvni faqat bir tomonga o'tkazadi. Birinchi klavn suvchi avvaliga to to'lgunicha kiritadi va yopiladi, suv ikki klavn orasiga qamalib qoladi, hamda temperatura ortib suvning ichki energiyasi oshishi hissasidan bosimi ham ortadi. Qizigan suv ikkinchi klavindangina chiqish imkoni bo'lganligi uchun yuqoriga katta tezlik bilan otiladi. Bu holat qayta – qayta davriy ravishda takrorlanaveradi. Tatqiqotda o'lchamlari 0.88×0.63 ishchi yuzaga ega bo'lgan Frenel linzasidan foydalanildi. Naychanning uzunligi 20 sm bo'lsam kuzatishda 1 soat davomida 75 ml o'lchamdagi suvchi 20 sm balandlikka chiqarilishga erishildi. Balki bu juda kam natijaday ko'rinsa ham, o'rganilish va takomillashtirish natijasida bu qiymatni oshirilishi mumkin.

Quyoshning yorqinligi taxminan $3,86 \cdot 10^{26}$ vatt. Bu Quyosh tomonidan kosmosga chiqarilgan umumiy quvvatdir. Ushbu nurlanishning ko'p qismi elektromagnit spektrning ko'rinadigan va infraqizil qismida bo'lib, radio, ko'rinadigan va rentgen spektral diapazonlarida 1% dan kamrog'i chiqariladi. Quyosh energiyasi barcha yo'nalishlarda bir xilda tarqaladi.

Quyosh Yerdan taxminan 150 million kilometr uzoqlikda joylashganligi va Yer radiusi bo'yicha taxminan 6300 km bo'lganligi sababli, bu quvvatning atigi 0,000000045% sayyoramiz tomonidan tutiladi. Bu hali ham katta hajmdagi $1,75 \cdot 10^{17}$ vattni tashkil qiladi. Quyosh energiyasini olish uchun biz odatda Quyoshga yuzma-yuz, Yerdan Quyoshdan uzoqda joylashgan bir kvadrat metrdan o'tadigan quyosh nuridagi quvvat miqdori haqida gapiramiz [5]. Quyoshning Yerdagi kuchi, kvadrat metr uchun quyosh doimiysi deb ataladi va kvadrat metr uchun taxminan 1370 vatt (Vt / m^2)

Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mukinki, Quyosh nasoslaridan yurtimizning cho'l sohalarida qo'llash juda samara beradi. Cho'llarni yashil hududga aylantirishda, Suv yetib borolmaydigan yer maydonlarida sug'orish muammolari uchun maqul yechim bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Д. С. Стребков, Э. В. Тверьянович. Солнечные электростанции концентраторы солнечного излучения. Москва. Юдифь. 2019, 10-15. [[Studme](#)]
2. Kenro Miyamoto, "The Phase Fresnel Lens," J. Opt. Soc. Am. **51**, 17-20 (1961) [[Google Scholar](#)]
3. Sangroya, D.; Nayak, J.K. Development of wind energy in India. *Int. J. Renew. Energy Res.* **2015**, 5, 1–13. [[Google Scholar](#)]
4. Sengar, S.H.; Khandetod, Y.P.; Mohod, A.G. New innovation of low cost solar still. *Eur. J. Sustain. Dev.* **2012**, 1, 315–352. [[Google Scholar](#)]
5. John K.; Andrew M.; Australian space weather alert system. Australia. Commonwealth of Australia. Bureau of Meteorology. 2022. 12-17. [[Bureau of Meteorology](#)]

QUYOSH KONSENTRATORLARI ENERGIYA ZICHLIGINI O'RGANISH

M.I.Daminov

BuxDU pedagogika instituti

direktori, p.f.n dotsent

U.A.Narzullayev

BuxDU pedagogika instituti,

Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: yurtimizda muqobil energiyalarga bo'lgan e'tibor kundankunga oshib bormoqda, muqobil energiyalardan eng yorqin namoyondasi bu albatta quyoshdir. Quyoshdan kelayotgan nurlarni bir nuqtaga yo'naltirib, undagi yuqori temperaturadan ko'p turdagi maqsadlarda foydalanish mumkin. Quyosh oshxonasi, quyosh suv chuchutgichi va hattoki quyosh soati. Ushbu maqolada quyosh konsentratorlarini uzunlik bo'yicha energiya zichligini nazariy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: konsentrator, nur zichligi, optik o'q, temperatura, energiya parabola fokusi.

Konsentratorlar - quyosh nurlari oqimining zichligini oshiradigan optik qurilmalardir. Yuqori haroratli qurilmalar yoki "quyosh pechlari" uchun qabul qilgichdagi radiatsiya zichligining oshishi 3000°C va undan yuqori haroratni yaratishga olib keladi, bu esa barcha o'tga chidamli materiallarni sintez qilish imkonini beradi.

Konsentratorlar energiyasini issiq davrlarda bo'lgan quyosh elektr stantsiyalari uchun ma'lum parametrlarga ega bug' ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan haroratni yaratishga imkon beradi.

Parabolani aks ettiruvchi sirtining shakli parabolani simmetriya o'qi atrofida aylantirish orqali hosil bo'ladi. Parabolaning xossalaridan biri asosiy optik o'qqa (simmetriya o'qi) parallel tushayotgan barcha yorug'lik nurlarining F fokusda birikishidir. Paraboloid fokus tekisligida uzoqdagi jismning tasvirini hosil qiladi [2].

Ko'pgina ishlar parabolik konsentratorlarning diqqat markazida energiya zichligi taqsimotini tavsiflashga bag'ishlangan. Parabola radiatsiya konsentratsiyasi 10^4 dan oshishi mumkin bo'lgan yuqori potentsial konsentratorlar toifasiga kiradi.


Paraboloidning fokus nuqtasida yorug'likning paydo bo'lishini qisqacha ko'rib chiqamiz; bu ma'lumot konsentrator sirtining sifatini baholashda, fokusli hududlarda nurlanish zichligini hisoblashda, aks ettirish va linzalar uchun nuqta shakllanishini taqqoslashda kerak bo'ladi [1].

1-rasmda paraboloid shaklda fokusli nuqta hosil bo'lishi ko'rsatilgan: burchak o'lchami $2\varphi_0$ (eng kami $2\varphi_0 = 32^\circ$ burchak yoki $2 \times 0,004654$ rad) bo'lgan elementar quyosh nuri konsentrator yuzasidan aks ettiriladi va fokus tekisligiga tushadi. Bu joy yarim o'qli elementar ellipsdir.

$$a = \frac{p\varphi_0}{(1+\cos U) \cos U}, b = \frac{p\varphi_0}{(1+\cos U)} \quad (1)$$

bu yerda $p = 2f$ — parabolaning fokal parametri; f — fokus masofasi;

U — paraboloidning ochilish burchagi.



1-rasm: Paraboloid konsentratorlar markazida fokusli nuqta hosil bo'lish sxemasi

Konsentratorning aks ettiruvchi yuzasining turli radial zonalaridan (turli xil burchaklari U bilan) ellipslar turli o'lchamlarga ega bo'lib, ular bir-birining ustiga qo'yilgan holda fokusning nurlanish zichligini hosil qiladi. Fokusda maksimal radiatsiya zichligini eng yaqin baholash formula bo'yicha hisoblash quyidagicha.

$$E_F = \rho_{aks} \frac{1}{\varphi_0^2} \sin^2 U E_m \quad (2)$$

bu yerda ρ_{aks} — konsentratorning akslantirish koeffitsiyenti; φ_0 — elementar quyosh nurining ochilish burchagi; U_m —paraboloidni yon tomonga ochishning eng katta burchagi (burchak darajasi); E_F —quyosh nurlanishining zichligi (W/m^2).


Bunday holda, konsentratorning aks ettiruvchi yuzasining nomukammalligi tasodifiy qonun bo'yicha markazlarining mos kelmasligi tufayli nuqtaning xiralashishiga olib keladi. Eng yaxshi yoritish Fokus nuqtasi (E_r) Gauss normal taqsimot egri chizig'i bilan tavsiflanadi:

$$E_r = E_{max} e^{-cr^2} \quad (3)$$

$$E_{max} = 180^2 E_0 \rho_{aks} h^2 \sin^2 U \quad (4)$$


$$c = 3.283 \cdot 10^3 \left(\frac{h}{p}\right)^2 (1 + \cos U)^2 \quad (5)$$

bu erda r - fokus tekisligidagi radius; h - konsentratorning aniqligi o'lchovidir va nurlanish taqsimotining shaklini tavsiflaydi. 2-rasmda h aniqlik o'lchovining fokus nuqtasi bo'yicha energiya taqsimotining tabiatiga ta'siri ko'rsatilgan (h = qiymatlari bilan aniqlik o'lchovining maksimal qiymati 4 grad^{-1} yoki ifoda $h_k = 229 \text{ rad}^{-1}$, $h = h_k \pi/180$ orasidagi nisbat).



2-rasm. Aniqlik o'lchovi h ning paraboloid uchun focal nuqtadagi nurlanishning taqsimlanishiga ta'siri $U = 60^\circ$

Texnologik nuqtai nazardan, konsentratorlarni ishlab chiqarish jarayonida sirt noto'g'riligini aniqlash va kiritilgan xatolar uchun individual texnologik bosqichlarni baholash uchun hisoblash markazidan nurning burilishlari yanada qulayroq bo'ladi, bu texnologiyani amalga oshirish jarayonida bevosita tekshirilishi va o'rtacha kvadrat sirt xatosini aniqlash mumkin. 3-rasmda haqiqiy nurlarning taxminiy markaz nuqtasidan va aniqlik o'lchovidan og'ishining o'rtacha kvadratik xatosi o'rtasidagi munosabatlar[3]. Quyida konsentratlar optik testlarida o'rtacha kvadratik burchak xatosini aniqlash masalalari ko'rib chiqiladi, natijalari 3-rasmda bo'yicha fokal nuqtadagi energiya xususiyatlari sifatida taqdim etilishi mumkin.



3-rasm. h_k aniqlik o'lchovini quyoshning burchak o'lchamining turli qiymatlarida paraboloid konsentratorlarning hisoblangan markazidan nur burulishlarining o'rtacha kvadrat xatosi bilan bog'lashdisk (yer uchun 16')

Eng yaxshi ko'zgu paraboloidlar sifatida prajektor usulida tayyorlangan quyosh ko'zgidir: yassi shisha qizdirilganda deformatsiyalanib, paraboloid shaklini berdi, keyin sirt ishlov berish orqali kerakli sifat va aniqlikka keltiriladi.

Konsetratorlarni o'rganish kelajak energiyasiga yaqinlashtiradi. Mazkur yo'nalishda paraboloid sirtlarni ideal ko'rinishi qurilmalarni sifatli ishlashini ta'minlaydiParaboloid sirtlarni olishning usuli suyuqlikning bir tekis aylanish jarayonida paraboloid sirtini olish xususiyatiga asoslangan. [2] Keyinchalik, aylanish jarayonida unga qattiq lashtiruvchi qatronlar qo'llash orqali simob shaklini qattiq materialga mahkamlash usullari taklif qilindi. Usulning mohiyati turli xil

o'ziga xos tortishishlarga ega bo'lgan suyuqliklarning bir xil aylanish jarayonida ekvipotensial sirtlarni hosil qilish xususiyatiga asoslanadi,

Adabiyotlar:

1. Д. С. Стребков, Э. В. Тверьянович. Солнечные электростанции концентраторы солнечного излучения. Москва. Юдифь. 2019, 10-15. [[Studme](#)]
2. Sangroya, D.; Nayak, J.K. Development of wind energy in India. *Int. J. Renew. Energy Res.* **2015**, 5, 1–13. [[Google Scholar](#)]
3. Sengar, S.H.; Khandetod, Y.P.; Mohod, A.G. New innovation of low cost solar still. *Eur. J. Sustain. Dev.* **2012**, 1, 315–352. [[Google Scholar](#)]

5A130101 – Matematika (yo'nalishlar bo'yicha)

UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODELINING SONLI TASVIRI HAQIDA

Sh.B.Ne'matova,

BuxDU, Matematika (yo'nalishlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotasiya: Fok fazosining qirqilgan ikki zarrachali qism fazosida ta'sir qiluvchi umumlashgan Fridriks modeli qaralgan. Uning sonli tasviri va xos qiymatlari orasidagi bog'lanish topilgan.

Kalit so'zlar: Umumlashgan Fridriks modeli, sonli tasvir, Fok fazosi, operatorli matrisa, xos qiymat.

Bizga H – kompleks Gilbert fazosi va $A: H \rightarrow H$ chiziqli operator berilgan bo'lib, $D(A) \subset H$ uning aniqlanish sohasi bo'lsin. U holda [1-3]

$$W(A) := \{(Ax, x): x \in D(A), \|x\| = 1\}$$

to'plamga A operatorning sonli tasviri deyiladi. Ushbu maqolada biz umumlashgan Fridriks modelining sonli tasvirini tadqiq qilamiz.

$H_0 := C$ – bir o'lchamli kompleks fazo, $H_1 := L_2[-\pi; \pi] - [-\pi; \pi]$ kesmada aniqlangan kvadrati bilan integralanuvchi (umuman olganda kompleks qiymatlarni qabul qiluvchi) funksiyalarning Gilbert fazosi, H esa H_0 va H_1

fazolarning to'g'ri yig'indisi, ya'ni $H = H_0 \oplus H_1$ bo'lsin. H fazoga Fok fazosining qirqilgan ikki zarrachali qism fazosi deyiladi. Bu fazoning ixtiyoriy f elementi $f = (f_0, f_1)$ ko'rinishida bo'lib, $f_0 \in H_0, f_1 \in H_1$.

$f = (f_0, f_1) \in H$ element normasi

$$\|f\| = (|f_0|^2 + \int_{-\pi}^{\pi} |f_1(t)|^2 dt)^{1/2}$$

kabi aniqlanadi, $f = (f_0, f_1), g = (g_0, g_1) \in H$ elementlarning skalyar ko'paytmasi esa

$$(f, g) = f_0 \cdot \bar{g}_0 + \int_{-\pi}^{\pi} f_1(t) \bar{g}_1(t) dt$$

tenglik orqali aniqlanadi.

Operatorlar nazariyasidan bizga yaxshi ma'lumki, H fazoni H fazoga o'tkazuvchi har qanday chiziqli chegaralangan A operator hamisha

$$A = \begin{pmatrix} A_{00} & A_{01} \\ A_{10} & A_{11} \end{pmatrix} \quad (1)$$

ko'rinishida tasvirlanadi, bu yerda $A_{ij}: H_j \rightarrow H_i, i, j = 0,1$ matrisaviy elementlar chiziqli chegaralangan operatorlardir. Bundan tashqari, A operator o'z-o'ziga qo'ma bo'lishi uchun $A_{ij}^* = A_{ji}, i, j = 0,1$ tengliklarning bajarilishi zarur va yetarlidir, ya'ni

$$A^* = A \Leftrightarrow A_{ij}^* = A_{ji}, i, j = 0,1.$$

Ushbu maqolada (1) operatorli matrisa elementlarini quyidagicha tanlaymiz:

$$A_{00}f_0 = \varepsilon f_0, \quad A_{01}f_1 = \int_{-\pi}^{\pi} \sin t f_1(t) dt,$$

$$(A_{11}f_1)(x) = (\varepsilon + 1 - \cos x) f_1(x), \quad f_i \in H_i, i = 0,1. \quad (2)$$

Bunda $\varepsilon > 0$ va $A_{10} = A_{01}^*$

Qo'shma operator ta'rifiga ko'ra:

$$(A_{01}f_1, f_0) = \int_{-\pi}^{\pi} \sin t \cdot f_1(t) dt = \int_{-\pi}^{\pi} f_1(t) \cdot \overline{f_0} dt = (f_1, A_{01}^* f_0)$$

Bunda

$$(A_{01}^* f_0)(x) = \sin x \cdot f_0, \quad f_0 \in H_0.$$

Yuqoridagi kabi aniqlangan A operatorli matrisa uchun quyidagi tasdiqlar o'rinli:

1) A – chiziqli operator, ya'ni ixtiyoriy $\alpha, \beta \in \mathbb{C}$ sonlari va ixtiyoriy $f, g \in H$ lar uchun $A(\alpha f + \beta g) = \alpha Af + \beta Ag$ tenglik o'rinli;

2) A – chegaralangan operator, ya'ni shunday $M > 0$ soni topilib, ixtiyoriy $f \in H$ element uchun $\|Af\| \leq M\|f\|$ tengsizlik o'rinli;

3) A – o'z-o'ziga qo'shma operator, ya'ni ixtiyoriy $f, g \in H$ elementlar uchun $(Af, g) = (f, Ag)$ tenglik o'rinli.

Odatda zamonaviy matematik fizikada elementlari (2) tenglik yordamida aniqlangan A operatorli matrisaga umumlashgan Fridriks modeli deyiladi. A_{10} operatorga yo'qotish operatori, A^* operatorga esa paydo qilish operatori deyiladi.

Chekli o'lchamli qo'zg'alishlarda muhim spektrning o'zgarmasligi haqidagi Veyl teoremasiga ko'ra A umumlashgan Fridriks modelining muhim spektri $[\varepsilon; \varepsilon + 2]$ kesma bilan ustma-ust tushadi:

$$\sigma_{ess}(A) = [\varepsilon; \varepsilon + 2].$$

Endi A umumlashgan Fridriks modelining diskret spektrini aniqlash maqsadida $Af = zf$ xos qiymatga nisbatan tenglamani qaraymiz va uni

$$\begin{cases} (\varepsilon - z)f_0 + \int_{-\pi}^{\pi} \sin t f_1(t) dt = 0 \\ \sin x \cdot f_0 + (\varepsilon + 1 - \cos x)f_1(x) = 0 \end{cases} \quad (3)$$

tenglamalar sistemasi ko'rinishida yozib olamiz. $z \notin [\varepsilon; \varepsilon + 2]$ ekanligidan barcha $x \in [-\pi; \pi]$ lar uchun $\varepsilon + 1 - \cos x - z \neq 0$ munosabat bajarilishini hosil qilamiz. (3) tenglamalar sistemasining ikkinchi tenglamasidan $f_1(x)$ uchun

$$f_1(x) = -\frac{\sin x \cdot f_0}{\varepsilon + 1 - \cos x - z} \quad (4)$$

ifodani hosil qilamiz. $f_1(x)$ uchun topilgan (4) ifodani (3) tenglamalar sistemasining birinchi tenglamasiga qo'yamiz va

$$\left(\varepsilon - z - \int_{-\pi}^{\pi} \frac{\sin^2 t dt}{\varepsilon + 1 - \cos t - z} \right) f_0 = 0 \quad (5)$$

ekanligini hosil qilamiz. Agar $f_0 = 0$ bo'lsa, u holda (4) tenglikga ko'ra $f_1(x) = 0$ bo'ladi. Bu esa $f = (f_0, f_1)$ ning xos vektor-funksiya ekanligiga zid. Demak, $f_0 \neq 0$ ekan. Bu holda (5) tenglikdan

$$\Delta(z) := \varepsilon - z - \int_{-\pi}^{\pi} \frac{\sin^2 t dt}{s+1-\cos t-z} = 0$$

tenglik kelib chiqadi.

Shunday qilib quyidagi lemma o'rinli.

1-lemma. $z \in \mathbb{C} \setminus [\varepsilon; \varepsilon + 2]$ soni A umumlashgan Fridriks modelining xos qiymati bo'lishi uchun $\Delta(z) = 0$ bo'lishi zarur va yetarlidir.

1-lemmadan quyidagi natija kelib chiqadi.

1-natija. A umumlashgan Fridriks modelining diskret spektri uchun

$$\sigma_{disc}(A) = \{z \in \mathbb{C} \setminus [\varepsilon; \varepsilon + 2] : \Delta(z) = 0\}$$

tenglik o'rinlidir.

A umumlashgan Fridriks modeli xos qiymatlarining mavjudlik masalasini qaraymiz:

$$\Delta(\varepsilon) := \varepsilon - \varepsilon - \int_{-\pi}^{\pi} \frac{\sin^2 t dt}{s+1-\cos t-s} = - \int_{-\pi}^{\pi} \frac{\sin^2 t dt}{1-\cos t} = - \int_{-\pi}^{\pi} \frac{1-\cos^2 t}{1-\cos t} dt =$$

$$= - \int_{-\pi}^{\pi} (1 + \cos t) dt = -2\pi < 0;$$

$$\Delta(\varepsilon + 2) := \varepsilon - \varepsilon - 2 - \int_{-\pi}^{\pi} \frac{\sin^2 t dt}{s+1-\cos t-s-2} = -2 + \int_{-\pi}^{\pi} \frac{\sin^2 t dt}{1+\cos t} =$$

$$= -2 + \int_{-\pi}^{\pi} \frac{1-\cos^2 t}{1+\cos t} dt = -2 + \int_{-\pi}^{\pi} (1 - \cos t) dt = -2 + 2\pi > 0;$$

$$\lim_{z \rightarrow -\infty} \Delta(z) = +\infty; \quad \lim_{z \rightarrow +\infty} \Delta(z) = -\infty. \quad (6)$$

Shunday qilib, $\Delta(\cdot)$ funksiya $(-\infty; \varepsilon)$ oraliqda uzluksiz, monoton kamayuvchi va $\Delta(\varepsilon) < 0$ hamda (6) tenglik o'rinli. Bunda esa, $\Delta(\cdot)$ funksiya $(-\infty; \varepsilon)$ oraliqda yotuvchi yagona z_0 nolga ega ekanligi kelib chiqadi. 1-lemmaga ko'ra A umumlashgan Fridriks modeli $(-\infty; \varepsilon)$ oraliqda yotuvchi yagona oddiy z_0 xos qiymatga ega bo'ladi. Huddi shuningdek, A umumlashgan Fridriks modeli $(\varepsilon + 2; +\infty)$ oraliqda yotuvchi yagona oddiy z_1 xos qiymatga ega bo'ladi. Demak,

$$\sigma(A) = \{z_0\} \cup [\varepsilon; \varepsilon + 2] \cup \{z_1\}, \quad z_0 < \varepsilon, z_1 > \varepsilon + 2.$$

Shu sababli A umumlashgan Fridriks modelining sonli tasviri uchun

$$W(A) = [z_0; z_1]$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Toeplitz O. Das algebraische Analogon zu einem Satze von Fejer. Math. Z., 2:1-2(1918), pp. 187-197.
2. Hausdor F. Der Wertvorrat einer Bilinearform. Math. Z., 3:1 (1919), pp. 314-316.
3. Wintner A. Zur Theorie der beschränkten Bilinearformen. Math. Z., 30:1 (1929), pp. 228-281.

ОЦЕНКИ ДЛЯ ЧИСЛА СОБСТВЕННЫХ ЗНАЧЕНИЙ МОДЕЛЬНОГО ОПЕРАТОРА НА РЕШЕТКЕ

Z.Y.Jalilova,

BuxDU, Matematika(yo'nalishlar bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Аннотация: рассматривается модельный оператор $h_\mu(k)$, $k \in (-\pi, \pi]$, $\mu \in {}_+R^4$, ассоциированный гамильтониану системы двух произвольных квантовых частиц на одномерной решетке, взаимодействующих с помощью некоторого короткодействующего потенциала притяжения. Получено оценки для числа собственных значений оператора $h_\mu(k)$, в зависимости энергии вектора взаимодействия частиц $\mu \in R_+^4$ и полного квазиимпульса системы двух частиц k .

Ключевые слова: модельный оператор, существенный спектр, оценки для числа собственных значений.

Пусть $T = (-\pi; \pi]$ – одномерный тор и $L_2(T)$ – гильбертово пространство всех квадратично-интегрируемых функций, определенных на T .

Рассмотрим модельный оператор $h_\mu(k)$, $k \in (-\pi, \pi]$, $\mu \in R_+^4$ (аналогичны операторам, рассмотренным в работах [1,2]), действующий в $L_2(T)$ по формуле

$$h_\mu(k) = h_0(k) - \mathbf{v}_\mu.$$

Здесь $h_0(k)$ – оператор умножения на функцию $E_k(\cdot)$, т.е.

$$(h_\mu(k)f)(p) = E_k(p)f(p), \quad E_k(p) = \varepsilon(k-p) + \varepsilon(p),$$

где $\varepsilon(\cdot)$ – вещественно-непрерывная, четная и π периодическая функция

и \mathbf{v}_μ – интегральный оператор $(\mathbf{v}_\mu f)(p) = \sum_{n=0}^3 \int_T \mu_n \cos n(p-s) f(s) ds, \quad f \in L_2(T)$.

Заметим, что из теоремы Вейля о существенном спектре [3] следует, что существенный спектр $\sigma_{ess}(h_\mu(k))$ оператора $h_\mu(k)$ не меняется при компактном возмущении \mathbf{v}_μ и совпадает со спектром невозмущенного оператора $h_0(k)$.

Следовательно,

$$\sigma_{ess}(h_\mu(k)) = \sigma(h_0(k)) = [m(k), M(k)],$$

где
$$m(k) = \min_{p \in T} E_k(p), \quad M(k) = \max_{p \in T} E_k(p).$$

Теорема: Для каждого $k \in T$ и $\mu \in R_+^4$ оператор $h_\mu(k)$ имеет не менее двух и не более семи собственных значений, с учетом кратности, лежащих левее существенного спектра.

Литературы:

1. M.I. Muminov, A.M. Khurramov. *Spectral properties of a two-particle hamiltonian on a d-dimensional lattice*. Nanosystems: Physics, Chemistry, Mathematics. 2016. **7**(5). P. 880–887.
2. Bozorov I. N., Khurramov A. M. *On the number of eigenvalues of the lattice model operator in one-dimensional case*. Lobachevskii Journal of Mathematics. 2022. **43**(2). 353–365.
3. Рид М., Саймон Б. *Методы современной математической физики*. М.: Мир. Т. 4. Анализ операторов. 1982.

BIR O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHLI DISKRET BILAPLASIANNING XOS QIYMATI UCHUN YOYILMA

A.M.Xalxujayev,
BuxDU, M.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Ushbu tesizda bir o'lchamli qo'zg'alishli diskret bilaplasianning muhim spektrdan tashqarida yagona xos qiymatga ega bo'lishi isbotlangan, hamda xos qiymat uchun yaqinlashuvchi asimptotik yoyilmalar olingan.

Kalit so'zlar: Diskret bilaplasiyan, xos qiymat, asimptotik yoyilma.

Faraz qilaylik, \mathbb{Z} - bir o'lchamli butun qiymatli panjara, $P^2(\mathbb{Z})$ - orqali \mathbb{Z} da aniqlangan kvadrati bilan jamlanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosini belgilaymiz. $P^2(\mathbb{Z})$ Hilbert fazosida

$$\hat{h}_\mu = \hat{h}_0 - \mu \hat{v} \quad \mu > 0, \quad (1.1)$$

formula yordamida aniqlangan o'z-o'ziga qo'shma chegaralangan operatorlar oilasini qaraymiz.

Bu yerda \hat{h}_0 - diskret bilaplasiyan, ya'ni: $\hat{h}_0 = \Delta$

bu yerda:

$$(\Delta f)(x) = f(x) - \frac{f(x+1)+f(x-1)}{2} \quad f \in P^2(\mathbb{Z}), \quad (1.2)$$

diskret laplasiyan va \hat{v} esa rangi birga teng bo'lgan operator

$$\hat{v}(x) = \begin{cases} \frac{1}{4} (f(1) + f(-1)), & x = \pm 1, \\ 0, & x \neq \pm 1. \end{cases} \quad (1.3)$$

Faraz qilaylik, $\mathbb{T} = (-\pi, \pi]$ bir o'lchamli tor, $L^2(\mathbb{T})$ - \mathbb{T} da kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalarning Hilbert fazosi bo'lsin:

Standart Furiye almashtirishi

$$\mathcal{F}: P^2(\mathbb{Z}) \rightarrow L^2(\mathbb{T}), \quad (\mathcal{F}f)(p) = (2\pi)^{-1/2} \sum_{x \in \mathbb{Z}} f(x) e^{ixp} \quad (2.1)$$

Dan foydalansak \hat{h}_μ operator impuls tasvirida quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$h_\mu = \mathcal{F} \hat{h}_\mu \mathcal{F}^{-1} = h_0 - \mu v, \quad \mu > 0. \quad (1)$$

Ushbu formula yordamida aniqlangan o'z-o'ziga qo'shma, chegaralangan operatorlar oilasini qaraymiz.

Bu yerda h_0

$$(h_0 f) = \Delta \Delta f(p) = (1 - \cos p)^2 f(p)$$

funksiyaga ko'paytirish operatori, v rangi birga teng bo'lgan operator

$$vf)(p) = \frac{1}{2\pi} \left(\int_{\mathbb{T}} \cos p \cos q f(q) dq \right).$$

Tushunarliki

$$\sigma(h_0) = \sigma_{ess}(h_0) = [0, 4],$$

v ning kompakt operator ekanligidan klassik Weyl teoremasiga asosan barcha $\mu > 0$ lar uchun h_μ operatorning muhim spektri h_0 operatorning muhim spektri bilan ustma-ust tushadi, ya'ni

$$\sigma_{ess}(h_\mu) = \sigma_{ess}(h_0) = [0, 4].$$

Teorema 1. *Ixtiyoriy $\mu > 0$ uchun h_μ operator muhim spektrdan tashqarida yotadigan yagona $e(\mu)$ xos qiymatga ega va unga mos xos funksiya*

$$f_\mu(p) := \frac{\cos p}{s(p) - e(\mu)}$$

ko'rinishgacha bo'ladi

Shuningdek

- barcha $\mu > 0$ larda $e(\mu) < 0$;
- $\mu \in (0, +\infty) \mapsto e(\mu)$ funksiya haqiqiy analitik, qat'iy kamayuvchi, $(0, +\infty)$ da qat'iy botiq;
- yetarlicha kichik va musbat μ lar uchun quyidagi

$$(-e(\mu))^{1/4} = \sum_{n \geq 1} C_n \mu^{n/3}$$

tenglik o'rinli, bu yerda $C_n, n = 1, 2, \dots$, - haqiqiy koeffisientlar va

$$C_1 = 2^{-1/3}, \quad C_2 = 0, \quad C_3 = 0, \quad C_4 = \frac{2^{-1/3}}{3}$$

Adabiyotlar:

- [1] S.N. Lakaev and A.M. Khalkhujayev: Spektr of the Two-Particle Schrodinger Operators on Lattices, TMF **155**(2008), 287–300
- [2] Albeverio, S.N. Lakaev and A.M. Khalkhujayev: Number of Eigenvalues of the Three-Particle Schrodinger Operators on Lattices, **18** (2012), **18**pp. 387-420
- [3] A.Khalkhuzhaev, Sh.Kholmatov, M.Pardabaev. Expansion of eigenvalues of the perturbed discrete bilaplacian. Monatshefte für Mathematik, 2022. Vol. 197, № 4. P. 607-633.
- [4] M. Ben-Artzi, G. Katriel: Spline functions, the biharmonic operator and approximate eigenvalues. Numer. Math. 141 (2019), 839–879.
- [5] Klaus M. and B.Simon: Coupling constants thresholds in non-relativistic quantum mechanics. I. Short range two body case. Ann. Phys. **130**, 251–281 (1980).
- [6] S.N.Lakaev: The Efimov effect in a system of three identical quantum particles. Funct. Anal. Appl. **27**, 166–175 (1993).
- [7] A.Khalkhuzhaev, M.Pardabaev. Asymptotics of eigenvalues of the discrete bilaplacian with zero-range perturbation. Bulletin of the Institute of Mathematics. - Tashkent, 2021. Vol. 4, №6. P. 13-24.

**KASR-RATSIONAL VA O‘ZARO NISBATI RATSIONAL SON
BO‘LGAN IRRATSIONAL SONLARNING ENG KATTA UMUMIY
BO‘LUVCHISI VA ENG KICHIK UMUMIY KARRALISI TUSHUNCHASI
HAMDA ULARNING BA‘ZI MASALALARDA QO‘LLANILISHI**

Sh.F.To‘rayev,

BuxDU, tayanch doktorant

A.M.Avazxonova

BuxDU, Fizika-matematika fakulteti talabasi.

Anotatsiya: Maqolada kasr-ratsional hamda o‘zaro nisbati ratsional son bo‘lgan irratsional sonlarning eng katta umumiy bo‘luvchisi va eng kichik umumiy karralisi tushunchasi natural sonlarning eng katta umumiy bo‘luvchisi va eng kichik

umumiy karralisi tushunchalarining geometrik ma'nosi orqali tushuntirilgan hamda ba'zi masalalar, aynan kasr-ratsional va o'zaro nisbati ratsional son bo'lgan irratsional sonlarning EKUB si va EKUK si haqida bilimga ega bo'lgan o'quvchilar tomonidan osonlik bilan yechilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: EKUB, EKUK, ratsional sonlar, irratsional sonlar.

O'quvchilar son uchun eng katta umumiy bo'luvchi(EKUB) va eng kichik umumiy karrali(EKUK) tushunchalaridan faqat natural sonlar uchun foydalanib kelishadi va asosan kasrlarni qisqartirish va kasr sonlarga umumiy maxraj berishda qo'llashadi². Biroq, maktab o'quvchilarini, abituriyentlarni matematika fanidan oliygohlarning kirish imtihonlariga tayyorlar ekanmiz, ularga maktab darsliklaridan tashqari, qo'shimcha ma'lumot sifatida kasr-ratsional va o'zaro nisbati ratsional son bo'lgan irratsional sonlarning EKUB si va EKUK si tushunchasini berishga majbur bo'lamiz. Chunki, ko'plab, ayniqsa, o'quvchilar tasavur qilishi qiyin bo'lgan elementar matematika masalalari, aynan kasr-ratsional va o'zaro nisbati ratsional son bo'lgan irratsional sonlarning EKUB si va EKUK si haqida ma'lum bilimlarga ega bo'lgan o'quvchilar tomonidan juda osonlik bilan yechiladi.

²Umumiy o'rta ta'limning matematika fanidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. 27-avgust 2017.

$K(m; n)$ va $B(m; n)$ mos ravishda m va n sonlarning EKUKsi va EKUBsi bo'lsin: $m \in N, n \in N$. Agar EKUK va EKUB tushunchalariga geometrik tomondan yondashsak quyidagi natijalarga ega bo'lamiz:

1. $K(m; n) = a$. Bu yerda a , kerakli uzunlikni m va n uzunlik birliklar bo'yicha belgilab chiqilganda bu ikki xil uzunlik birliklar oxirlarining 1-marta duch kelgan qiymati bo'ladi.

2. $B(m; n) = b$. Bu yerda b, m va n uzunlikni bir xil o'lchovlarda bo'lish mumkin bo'lgan eng katta qiymat hisoblanadi.

Natural sonlarning EKUKsi va EKUBsida umumiy ko'paytuvchini (natural son) qavsdan tashqariga chiqarish mumkin [1; 3].

Masalan:

$$K(12; 18) = 6 \cdot K(2; 3) = 6 \cdot 6 = 36,$$

$$B(12; 18) = 6 \cdot B(2; 3) = 6 \cdot 1 = 6.$$

Bu xossani to'g'ridan-to'g'ri irratsional sonlarga ko'chirsak:

$$K(12\sqrt{5}; 18\sqrt{5}) = 6\sqrt{5} \cdot K(2; 3) = 6\sqrt{5} \cdot 6 = 36\sqrt{5},$$

$$B(12\sqrt{5}; 18\sqrt{5}) = 6\sqrt{5} \cdot B(2; 3) = 6\sqrt{5} \cdot 1 = 6\sqrt{5}.$$

Agar bu xossani kasr-ratsional sonlarga qo'llasak, ixtiyoriy kasr sonlarning EKUKsi va EKUBsini umumiy maxraj berish yo'li bilan topish mumkin bo'ladi va natija natural sonlarning EKUKsi va EKUBsi tushunchalarining geometrik ma'nosi bilan ham aynan ustma-ust tushadi. Misollar:

$$K\left(\frac{1}{2}; \frac{1}{3}\right) = K\left(\frac{3}{6}; \frac{2}{6}\right) = \frac{1}{6} \cdot K(3; 2) = \frac{1}{6} \cdot 6 = 1$$
$$B\left(\frac{1}{2}; \frac{1}{3}\right) = B\left(\frac{3}{6}; \frac{2}{6}\right) = \frac{1}{6} \cdot B(3; 2) = \frac{1}{6} \cdot 1 = \frac{1}{6}.$$

Kasr-ratsional sonlarning EKUK tushunchasini trigonometrik tenglamalarda tadbig'ini ko'ramiz:

$$\cos 4x \cdot \sin^2 5x = 1$$

tenglamani yeching.

Ko'paytma qiymati birga teng bo'lishi uchun har bir ko'paytuvchi birga teng bo'lishi kerak. Demak, yuqoridagi tenglama

$$\begin{cases} \cos 4x = 1 \\ \sin^2 5x = 1 \end{cases}$$

tenglamalar sistemasiga teng kuchli [4]. Tenglamalar sistemasini yechamiz:

$$\cos 4x = 1 \Rightarrow 4x = 2\pi n, n \in Z \Rightarrow X_1 = x = \frac{\pi n}{2}, n \in Z,$$

$$\sin^2 5x = 1 \Rightarrow 5x = \frac{\pi}{2} + \pi n \Rightarrow X_2 = x = \frac{\pi}{10} + \frac{\pi n}{5}, n \in Z.$$

Albatta, tenglama yechimlar to'plami $X = X_1 \cap X_2$ bo'ladi. X_1 va X_2 yechimlar to'plami kesishmasini topish uchun boshlang'ich fazalar tenglashtirilgach har bir yechimdagi davrlar EKUKlari zarur bo'ladi. Demak, birinchi navbatda yechimlar boshlang'ich fazalarini teng ko'rinishda yozib olamiz:

$$X_1 = x = \frac{\pi n}{2} \Rightarrow x = \frac{\pi}{2} + \frac{\pi n}{2}, n \in Z$$

$$X = x = \frac{\pi}{10} + \frac{\pi n}{5} \Rightarrow x = \frac{\pi}{10} + 2 \cdot \frac{\pi}{5} + \frac{\pi}{5} = \frac{\pi}{2} + \frac{\pi n}{5}, n \in \mathbb{Z}.$$

Endi umumiy ko'paytuvchi natural va irratsional bo'lsa EKUK va EKUB belgisi ostidan chiqarib natijaga ko'paytirish mumkinligidan tenglama yechimini topamiz:

$$\begin{aligned} X = X_1 \cap X_2 &= \frac{\pi}{2} + K\left(\frac{\pi n}{2}; \frac{\pi n}{5}\right) = \frac{\pi}{2} + \pi n \cdot \left[K\left(\frac{1}{2}; \frac{1}{5}\right)\right] = \frac{\pi}{2} + \pi n \cdot \left[K\left(\frac{5}{10}; \frac{2}{10}\right)\right] \\ &= \frac{\pi}{2} + \frac{\pi n}{10} \cdot [K(5; 2)] = \frac{\pi}{2} + \pi n; \end{aligned}$$

$$\text{Javob: } x = \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning kasr-ratsional va o'zaro nisbati ratsional son bo'lgan irratsional sonlarning EKUB si va EKUK si tushunchalarini o'zlashtirishi, maktab elementar matematikasi dasturidagi bir qancha mavzulardagi masalalarni oson yechishiga va asosiysi, bu tipdagi masalalarning mohiyatini yaxshiroq anglashiga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. M.A.MIRZAAHMEDOV, A.A.RAHIMQORIYEV. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. "O'QITUVCHI" NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI, TOSHKENT 2013. 22-31betlar.
2. Umumiy o'rta ta'limning matematika fanidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. 27-avgust 2017.
3. A.U.Abduhamidov va boshq. Algebra va matematik analiz asoslari 1-qism. Akademik litseylar uchun darslik. T.: "O'QITUVCHI" NMIU, 2008. 292 b.
4. A.U.Abduhamidov va boshq. Algebra va matematik analiz asoslari 2-qism. Akademik litseylar uchun darslik. T.: "O'QITUVCHI" NMIU, 2008. 142 b.

HARDY OPERATORI NORMASI UCHUN BAHOLAR

K.D Kuliyeu,

SamDU, M-f.f.n, dotsent

M.M. Nurillayeva

BuxDU, Matematika (yo'nalishlar bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda diskret hamda integral Hardy tengsizligi ta'rifi va bu tengsizlik uchun Hardy tomonidan olingan bir nechta muhim natijalar keltirilgan. Hardy operatori normasi ta'riflangan va yuqoridan baholangan.

Kalit so'zlar: Hardy operatori, Hardy operatori normasi, Hardy tengsizligi, Klassik Hardy tengsizligi, Integral Hardy tengsizligi, Hardy operatori normasining baholari.

Asosiy matn: 1915-yilda G.X.Hardy o'z maqolalarida arifmetik tengsizliklarni yanada aniqroq baholash mumkinligini isbotladi. Ya'ni u quyidagi tengsizlikni taqdim etdi:
$$\sum_{n=1}^{\infty} \left| \frac{1}{n} A_n \right|^2 \leq C \sum_{n=1}^{\infty} |a_n|^2 \quad (1.1).$$

Bu yerda $A_n = \sum_{k=1}^n a_k$ va $a = \{a_k\}$. Hardyning asosiy maqsadi bu tengsizlik orqali Gilbert tengsizligining elementar isbotini topish edi. Keyinchalik (1.1) tengsizlik kengaytirildi:

$$\sum_{n=1}^{\infty} \left| \frac{1}{n} A_n \right|^p \leq C \sum_{n=1}^{\infty} |a_n|^p \quad 1 < p < \infty \quad (1.2)$$

va integral ko'rinishi

$$\int_0^{\infty} \left(\frac{1}{x} \int_0^x f(t) dt \right)^p dx \leq C \int_0^{\infty} f(x)^p dx \quad \text{bu yerda } f \geq 0 \quad (1.3)$$

Nihoyat Hardy 1925-yilda (1.3) tengsizlikni taqdim etdi. Ushbu (1.3) tengsizlikga Klassik Hardy tengsizligi deb ataladi. 1915- yilda Hardy $\sum_{n=1}^{\infty} a_n^2$ qatorning yaqinlashuvchiligini isbotladi. Lekin Hardy tengsizligining prototipi, ya'ni $\sum_{n=1}^{\infty} \left(\sum_{k=1}^n a_k \right)^2$ qator isbotlanmadi. Bu qator o'rniga Hardy oxirgi qatorning quyidagi qatorlar bilan ekvivalentligini isbotladi:

$$\sum_{n=1}^{\infty} \left(\frac{a_n}{n} \sum_{k=1}^{\infty} a_k \right) \text{ va } \sum_{n=1}^{\infty} \sum_{m=1}^{\infty} \frac{a_m a_n}{m+n}.$$

Hardy quyidagi taxmini aytadi:

$$\sum_{n=1}^{\infty} \left(\frac{a_n}{n} \sum_{k=1}^{\infty} a_k \right) \leq \sum_{k=1}^{\infty} \frac{1}{k^2} \sum_{n=1}^{\infty} a_n^2 < 3 \sum_{n=1}^{\infty} a_n^2$$

va integral holini ham ko'rib chiqqan. 1919-yili nashr etilgan maqolasida Hardy Hilbert operatorini ham shu yo'l bilan baholaydi.

$$\sum_{n=1}^N \left(1 - \frac{1}{n+1} \right) \left(\sum_{n=1}^{\infty} \frac{a_n}{n} \right)^2 \leq 4 \sum_{n=1}^N a_n^2, a_n \geq 0$$

va integral holatida:

$$\int_0^{\infty} \left(\int_x^1 f(t) dt \right)^2 dx \leq 4 \int_a^{\infty} f(x)^2 dx \text{ bu yerda } f(x) \geq 0.$$

Oradan bir yil o'tgach Hardy M.Rieszning isboti haqida ma'lumot berdi:

$$\sum_{n=1}^{\infty} \left(\sum_{k=1}^{\infty} \frac{a_k}{n} \right)^p \leq \frac{p^2}{p-1} \sum_{n=1}^{\infty} a_n^p \quad (a_n \geq 0 \text{ va } p > 1),$$

o'zi esa isbotsiz aytdiki agar $f(x) \geq 0, a > 0$ va $p > 1$ bo'lsa va $\int_a^{\infty} f(x)^p dx$ konvergent bo'lsa u holda

$$\int_a^{\infty} \left(\int_x^1 f(t) dt \right)^p dx \leq \left(\frac{p}{p-1} \right)^p \int_a^{\infty} f(x)^p dx \quad (1.4)$$

bo'ladi. 1925- yildagi maqolasida Hardy : "Men avvalo cheksiz qatorlarning o'rni bilan band bo'lganim uchun isbot keltirmadim. Uning asosiy maqsadi qo'shma qatorlar uchun Hilbert tengsizligining yangi elementar isbotini toppish edi va u (1.4) tengsizlikni faqatgina $a=0$ bo'lganda kelib chiqish holinigina ko'rsatdi.

$$\sum_{n=1}^N \left(\sum_{k=1}^{\infty} \frac{a_k}{n} \right)^p \leq \frac{p^2}{p-1} \sum_{n=1}^N a_n^p \quad (a_n \geq 0 \text{ va } p > 1) \quad (1.5)$$

Nihoyat 1925-yildagi maqolasida Hardy shunday yozadi:" 1921-yil 21-iyundagi maktubida professor Landau menga (1.4) ning $\left(\frac{p}{p-1} \right)^p$ to'g'ri qiymatidagi to'g'ridan to'g'ri isbotini yubordi. U shuningdek aytdiki agar (1.4) qator integral teorema $a=0$ holatda ko'rib chiqilsa, u holda $f(x)=a_1$ ($0 \leq x < 1$), $f(x)=a_2$ ($1 \leq x < 2$), to'g'ri doimiyga ega qatorga aylanadi.

Landauning (1.4) qatorni ajoyib tarzda isbotlagani(doimiy bilan) uning 1926-yilda o'zi nashr etilgan maqolasida batafsil bayon etilgan. Demak Hardy Quyidagi tengsizlikni aytadi va buni boshqalar isbotlashdi:

$$\left(\frac{p}{p-1} \right)^p \int_0^{\infty} f(x)^p dx \leq \int_0^{\infty} \left(\int_x^1 f(t) dt \right)^p dx \leq \left(\frac{p}{p-1} \right)^p \int_0^{\infty} f(x)^p dx \quad (1.6).$$

B tengsizlik Hardy integral tengsizligining umumiy muhim ko'rinishi bo'lib keyinchalik kengayib bordi. (1.6) dagi Hardy operatori

$Hf(x) = \frac{1}{p} \int_x^{\infty} f(t) dt$ da $L^p(0; \infty)$ va norma $\|H\|_{L^p \rightarrow L^p} \leq \frac{p}{p-1}$ va unig normasi $\|H\|_{L^p \rightarrow L^p} = \frac{p}{p-1}$ ya'ni agar $f=0$ bo'ladigan bo'lsa norma mavjud bo'lmaydi.

Misol: $p \geq 1$, $a > 0$, $0 < \varepsilon < \frac{1}{p}$ va $f_\varepsilon(x) = x^{-\frac{1}{p+\varepsilon}} \chi_{(0,a)}(x)$. $f_\varepsilon(x)$ kamayuvchi funksiya va $\|f_\varepsilon\|_p = a^\varepsilon (\varepsilon p)^{-\frac{1}{p}}$, $\|Hf_\varepsilon\|_p = \frac{a^\varepsilon}{1-\frac{1}{p+\varepsilon}} \left(\frac{1}{\varepsilon p} + \frac{1}{p-1}\right)$ bunda

¹²Ergashov M.Y., Ochilova M.K. Umumiy kimyo fanini o'qitishda LMS-Moodle tizimidan foydalanish. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2017, 2-son.-160-163 betlar

¹³Mirzayev Sh.M., Boltayev T.B., Qobilov B.B. Modul texnologiyasi-ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2015, 3-son.-174-179 betlar

- Izomeriya tushunchasi. Turlari (1 soat).
- Organik birikmalarning sinflanishi. Organik birikmalarga xos reaksiya turlari (1 soat).
- Alkanlar. Gomologik qatori. nomlanishi va izomeriyasi.
- Alkanlarning olinishi va fizikaviy xossalari.
- Alkanlarning kimyoviy xossalari. Ishlatilishi.

Xuddi shunday tartibda sikloalkanlar va alkenlar mavzusi ham rejalashtiriladi. Dastur bo'yicha 2 soat laboratoriya ishi ham bajarilishi lozim.

II–bosqich. Dars jarayoni uchun ma'ruza matnlari, test topshiriqlari, individual ishlash uchun tarqatma materiallari tayyorlanadi. Bu ma'lumotlar internet saytiga joylashtiriladi. Bu jarayonda moodle tizimidan foydalaniladi. O'quv maqsadlariga ko'ra modullarda axborotlar qisqa yoki mukammal (to'liq) tanlanishi mumkin.

III–bosqich. O'quvchilarga ma'ruza materiallari, test topshiriqlari, shuningdek ayni mavzuga tegishli multimedialar beriladi. Dars shakli va mazmuni tushuntiriladi. Mustaqil yechish uchun topshiriqlar beriladi.

IV–bosqich. O'qituvchi o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan ularni yo'naltiradi, o'quvchilar o'zlashtirishga qiyinchilik tug'ilganda yoki xatoliklarga yo'l qo'yilganda yordamlashadi. O'quvchiga berilgan topshiriqni bajargandan keyin navbatdagi sahifaga o'tish imkoniyati yaratiladi. Moodle tizimida joylashtirilgan testlar orqali o'z bilimlarini tekshirib boradilar. O'qituvchi esa dars davomida o'quvchilarning mustaqil o'zlashtirish qobiliyatlarini rag'batlantirib baholab boradi.

V–bosqich. Har bir dars innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etiladi. Dars oxirida test topshiriqlari, mustaqil yechish uchun berilgan mashq va masalalar natijasi orqali o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi va baholanadi.

Organik kimyo fanida xuddi shu usulda bir necha modullardan foydalanib darslarni sifatli tashkil etish mumkin. Modul dasturidan foydalanganda mavzular o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro farqli tomonlari tuushuntiriladi. Bu tushunchalar mavzuning o'quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanishini ta'minlaydi.

Modul dasturi asosida o'quvchilar mavzularni mustaqil ravishda darsliklardan foydalangan holda batafsil o'rganadilar. Qiyinchilik tug'ilganda ular o'qituvchiga murojaat qilishadi. Materialni mustahkamlash "nazorat ishi" dan foydalangan holda bajariladi. Bu ish qiziqarli o'tishi uchun juftlar va guruhlar usulidan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Modul tizimida o'qitishning afzalligi ham shundaki, u o'quvchilarga mustaqil o'qish ko'nikmasini shakllantiradib o'quvchilar bilimini muntazam va samarali nazorat qilishni ta'minlaydi.

O'quvchilarga mavzularni o'tishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish, darslarni turli shakllarini muntazam va o'zaro bog'liq holda tashkil etish ko'zlangan natijani beradi. Fanni o'qitishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligi organik kimyo darslarida ta'lim sohasidagi ishlarning tizimli tashkil etilishiga bog'liq. Shuningdek, o'qituvchi o'z faoliyatini modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etishi uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Chunki, har bir darsni o'tishdan avval uni modullarga ajratgan holda tuzilgan dars ishlanmalari asosida o'tishlari lozim. Dars ishlanmasini tuzishdan maqsad- o'qituvchi bilan o'quvchilarning dars jarayonida hamkorlikdagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmunini yoritib berish va shu orqali ta'lim samaradorligiga erishishdan iboratdir.¹⁴

Adabiyotlar:

1. Ergashov M.Y., Ochilova M.K. Umumiy kimyo fanini o'qitishda LMS-Moodle tizimidan foydalanish. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2017, 2-son.-160-163 betlar
2. Mirzayev Sh.M., Boltayev T.B., Qobilov B.B. Modul texnologiyasi-ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2015, 3-son.-174-179 betlar

¹⁴Mutalibov A., Muradov E., Masharipov S., Islomova N. O'rta ta'lim muassasalarining 10 sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. 1-nashri. T.: O'qituvchi, 2017. -158 b.

3. Mutalibov A., Muradov E., Masharipov S., Islomova N. O'rta ta'lim muassasalarining 10 sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. 1-nashri. T.: O'qituvchi, 2017. -158 b.

70510101-Biologiya (fan yo'nalishlar bo'yicha)

XIX-XX ASRLARDA BIOTEXNOLOGIYANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATI

N.H.Xasanov,

Navoiy davlat pedagogika

instituti o'qituvchisi

M.M.To'yboyev.

F.T.Valiyeva.

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabalari

"Biotexnologiya" atamasi birinchi marta 1917-yilda vengriyalik muhandis Karl Ereki tomonidan ishlatilgan. Biotexnologiyaning alohida elementlari ancha oldin paydo bo'lgan. Aslida, bu sanoat ishlab chiqarishida bir qator kimyoviy jarayonlar oqimiga hissa qo'shadigan alohida hujayralar (mikroorganizmlar) va ba'zi fermentlardan foydalanishga urinishlar edi. Biotexnologiya fanlararo soha bo'lib, u biologiya, kimyo va texnika fanlari asosida paydo bo'lgan. Biotexnologiya ob'ektlariga viruslar, bakteriyalar, zamburug'lar-mikromitsetlar va makromitsetlar, sodda organizmlar, o'simlik, hayvon, inson to'qima va hujayralari, shuningdek biogen va funksional jihatdan ularga o'xshash bo'lgan moddalar kiradi¹⁵.

Biotexnologiya tovar va xizmatlarni taqdim etish uchun biologik vositalar tomonidan materiallarni qayta ishlashga ilmiy va muhandislik tamoyillarini

¹⁵Qo'chqarov Q.Q., Tuxtaboyeva F.M. Biotexnologiyaning ekologik asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2016. – B. 4.

qo'llashdir. Biotexnologiyaning rivojlanishi insoniyatning global muammolarini hal qilish - oziq-ovqat, energiya, mineral resurslar taqchilligini bartaraf etish, aholi salomatligi va atrof-muhit sifatini yaxshilash bilan bog'liq. Biotexnologiya tashkil topgan davridan boshlab jamiyat bilan yaqin aloqalarni saqlab kelmoqda.

Mikrobiologiya fanining rivojlanish tarixini shartli ravishda bir qancha davrlarga bo'lish mumkin. Morfologik davr, bu davrlarda mikroorganizmlarning morfologiyasi (A.Levenjuk) o'rganildi. Fiziologik davr L. Paster, R.Kox ishlari bilan bog'langan. Immunologik-virusologik davrda imunitet va virusologiya nazariyasiga asos solindi¹⁶.

1814-yilda Peterburglik akademik K. S. Kirxgof biologik kataliz hodisasini kashf etdi va mavjud mahalliy xomashyodan shakarni biokatalitik yo'l bilan olishga harakat qildi (XIX asrning o'rtalarigacha shakar faqat shakarqamishdan olingan). 1891-yilda AQShda yapon biokimyogari Dz. Takamin sanoat maqsadlarida ferment preparatlarini qo'llash bo'yicha birinchi patentni oldi: olim o'simlik chiqindilarini shakarlash uchun diastazadan foydalanishni taklif qildi.

1916-1917-yillarda rus biokimyogari A. M. Kolenev tamaki ishlab chiqarish jarayonida tabiiy xomashyo tarkibidagi fermentlar ta'sirini nazorat qilish imkonini beradigan usulni ishlab chiqishga harakat qildi.

Biokimyo yutuqlaridan amaliy foydalanishga akademik A.N.Bax katta hissa qo'shdi, u biokimyoning muhim amaliy sohasini - texnik biokimyoni yaratdi. A. N. Bax va uning shogirdlari turli xil biokimyoviy xomashyoni qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish, non pishirish, pivo tayyorlash, vinochilik, choy va tamaki ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va boshqalar bo'yicha ko'plab tavsiyalar ishlab chiqdilar. Ushbu tadqiqotlarning barchasi, shuningdek, kimyo va mikrobiologiya sanoatining rivojlanishi va yangi sanoat biokimyoviy tarmoqlarining yaratilishi zamonaviy biotexnologiyaning paydo bo'lishining eng muhim sharti bo'ldi.

Ishlab chiqarish nuqtai nazaridan biotexnologiyaning shakllanishi jarayonida mikrobiologik sanoat asosini tashkil etdi. Keyingi yillarda mikrobiologiya sanoati

¹⁶ G'anixo'jayeva A.B., Nazarova H.A. Mikrobiologiya. Toshkent, 2002. – B. 7.

tubdan yangi xususiyatlarga ega bo'ldi: mikroorganizmlar nafaqat biokimyoviy jarayonlarning intensivligini oshirish vositasi sifatida, balki uning ichida eng qimmatli va murakkab kimyoviy birikmalarni sintez qilishda ham qo'llanila boshlandi. Burilish nuqtasi antibiotiklarning kashf etilishi va ishlab chiqarilishi bilan bog'liq edi.

Birinchi antibiotik penitsillin 1940-yilda yaratilgan. Penitsillindan keyin boshqa antibiotiklar topildi (bu ish hozirgi kungacha davom etmoqda). Antibiotiklarning kashf etilishi bilan darhol yangi vazifalar paydo bo'ldi: mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqarilgan dorivor moddalarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yangi dori vositalarining narxini pasaytirish va mavjudligini oshirish, ularni tibbiyot uchun zarur bo'lgan juda ko'p miqdorda olish.

1972- yilda AQShda P.Berg guruhi tomonidan birinchi gibril DNK molekulasi yaratilishi bilan gen injeneriyasining tug'ilishi rasmiy ravishda bog'liq bo'lib, u organizmlarning genetik tuzilishini shunday ongli ravishda o'zgartirishga yo'l ochdi. Bu organizmlar inson uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishi va kerakli jarayonlarni amalga oshirishi mumkin.

Genetika va biotexnologiyani birlashtiradigan davrni boshlagan ilmiy yutuqlar sifatida qaraladigan ikkita muhim voqea sodir bo'lgan. Ulardan biri 1953- yildagi Uotson va Krik tomonidan DNK molekulasining tuzilishini kashf etilishi, ikkinchisi esa 1973-yilda Koen va Boyer tomonidan rekombinant DNK E. coli bakteriyasi plazmididan DNKning bir qismi kesilib, boshqasining DNKiga o'tkaziladigan usul edi. Ushbu yondashuv, asosan, bakteriyalarga genlarni qabul qilish va boshqa organizmlarning, shu jumladan odamlarning oqsillarini ishlab chiqarishga imkon berishi mumkin. Xalq orasida "gen muhandisligi" deb nomlangan bu yangi biotexnologiyaning asosi sifatida aniqlandi.

Biotexnologiyaning bir qancha sohalari mavjud bo'lib, har birining sanoat va qishloq xo'jaligida ahamiyati salmoqlidir.

Mikrobiologik biotexnologiya mikroorganizmlar hayot faoliyatidagi jarayonlarga asoslangan bo'lib, bu sohada fermentli preparatlar, antibiotiklar, aminokislotalar, gormonlar, oqsil moddalari va xalq xo'jaligining turli tarmoqlari

uchun zarur metabolitlar sintez qilinadi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutida mikrobiologik biotexnologiya asosida o'simlik chiqindilari (g'ozapoya, somon va chiqindilar)dan chorva mollari uchun ozuqa tayyorlashga erishildi; ayrim mamlakatlar (Braziliya)da maxsus mikroblar vositasida sellyulozadan qand yoki spirt olish, mol go'ngidan metan gazi olish biotexnologiyasi (ayniqsa, Xitoy, Braziliya va Yevropa mamlakatlarida) juda yuqori iqtisodiy samara bermoqda.

Hujayra biotexnologiyasi o'simlik, hayvon va odam hujayralarining sun'iy sharoitda o'sishi hamda ko'payishi mikroorganizmlarnikiga o'xshashligiga asoslangan. Odam va hayvon hujayralarini sun'iy o'stirish nodir biologik preparatlar, antitelalar va oqsil gormonlarini sanoat miqyosida ishlab chiqarish imkonini berdi. O'simlik, hayvon va odam kasalliklarini aniqlash uchun monoklonal antitelalar asosida o'ta sezuvchan diagnostik vositalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi "Radiopreparat" korxonasi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Onkologiya va radiologiya institutida rak kasalligining ayrim turlarini oldindan aniqlaydigan biotexnologik vositalar ishlab chiqarilmoqda.

Zamonaviy biomuhandislik fani, biotexnologik ishlab chiqarishda xomashyo va produsentlar, fizik kimyoviy metodlarni ishlab chiqarishda qo'llash, maqsadli va yarim mahsulotlar olishda biosintez uslublarini qo'llash, biosensolar, biodatchiklar, biotexnologik yo'l bilan yangi materiallar (biopolimer va b.) olishga xizmat qiladi¹⁷.

Biotexnologiyaning yana bir sohasi bo'lgan bioinjeneriyaning muhim yutuqlari qatorida sun'iy bo'g'inlar, magnit-rezonans tomografiya, yurak stimulyatori, artroskopiya, angioplastika, bioinjeneriyalangan teri protezlari, buyrak dializi, yurak-o'pka apparatlarining rivojlanishini qayd etish mumkin. Shuningdek, bioinjeneriya tadqiqotining asosiy yo'nalishlaridan biri yangi xossalarga ega bo'lgan oqsillarni yaratishda kompyuter modellashtirish usullaridan foydalanish, shuningdek, yangi farmatsevtika vositalarini yaratish maqsadida turli birikmalarning hujayra retseptorlari bilan o'zaro ta'sirini modellashtirish ("dorilar dizayni")

¹⁷ Ramazonov N.Sh. Zamonaviy biomuhandislik. Toshkent, 2014. – B. 4.

hisoblanadi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida biotexnologiya sohasining kirib borishi o'simlik va hayvonlarni ko'paytirishning an'anaviy usullarini osonlashtiradi va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqadi. Ko'pgina mamlakatlarda qishloq xo'jaligi o'simliklarining yuqori samarali, zararkunandalar, kasalliklar va gerbitsidlarga chidamli navlari genetik va hujayrali muhandislik usullari bilan yaratilgan.

Biotexnologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida M. A. Aytxojin, A. A. Bayev, R. G. Butenko, G. P. Gorgiyev, Yu. Yu. Gleba., V. G. Debabov, G. K. Skryabin, J. A. Musayev, B. O. Toshmuhamedov, A. F. Xolmurodov va boshqalarning hissasi katta.

O'zbekistonda biotexnologiyaning rivojlanishi. Biotexnologiya fani mamlakatimizdagi eng kenja fanlardan biri hisoblanadi. Bu soha, asosan, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida, Toshkent Farmatsevtika institutida, Toshkent davlat agrar universitetida, Samarqand davlat universitetida va boshqa oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladi. Biotexnologiya sohasi bo'yicha iimiy va amaliy tadqiqotlar O'zbekiston Fanlar Akademiyasining qator institutlarida olib boriladi.

Hozirgi zamon biotexnologiyasi gen va hujayra injenerligi usullari asosida genetik transformatsiya qilingan obyektlarni yaratish texnologiyalari va tadqiqotlari davom ettirilmoqda. Bu sohada biologiya fanlari doktori, akademik A.Abdukarimov va u yaratgan maktabning erishgan yutuqlari hurmatga sazovordir.

O'zbekistonda biotexnologiyaning shakllanishi, uning rivojlanishida biologiya fanlari doktori, professor M.M.Raximov va u yaratgan maktabning roli beqiyosdir.

O'zbekistonda O'zRFA akademigi O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo institutining tashkil etilganligi biotexnologiyaning rivojlanishi va shakllanishida juda katta hissa qo'shdi. Ushbu institut 1977-yilda O'zR FA tarkibidagi bioorganik kimyo bo'limi (1973-y.) negizida tashkil etilgan. Institutning asosiy ilmiy mutaxassisligi hayvon va o'simliklar organizmida sodir bo'ladigan jarayonlarni, yuqori va quyi molekulyar tabiatga ega bo'lgan biologik faol moddalarning

tuzilishini, funksiyasini o'rganish hamda ularni sintetik usulda olish yo'llarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan. Ayni shu institutda birinchilardan bo'lib, tabiiy biologik faol modda - gossipolning polimorf kompleks hosil qilishi isbotlangan va uning asosida yigirmadan ortiq yangi dorivor moddalar va boshqa preparatlar ishlab chiqilgan. Bularga misol qilib, viruslarga qarshi ishlatiladigan 3% li gossipol linimenti, immunomodulyator - timoptin, qon to'xtatuvchi «Lagoden», xlamidiyaga qarshi qo'llaniladigan dorivor vosita «Polinil» va boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

Biotexnologiya sohasida, asosan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Mikrobiologiya institutida, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida hamda Respublika kimyo birlashmasiga qarashli bir qator zavodlarda qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Biotexnologiya ixtisosligi bo'yicha birinchi o'zbek akademiki A.G.Xolmurodov (1939—1996) fuzarium avlodiga mansub zamburug'lardan D vitamin, PP-nikotin amid ajratish texnologiyasini yaratgan. Bu olimning NAD ning struktura va funksional bog'liqligini o'rganish, uni hayvon va o'simliklar organlaridan ajratib olish hamda ikkilamchi mahsulotlarni qayta ishlashning jahon standartlariga mos keladigan yangi texnologiyalarini va o'simliklarni himoya qiluvchi ekologik toza vositalarni yaratish bo'yicha olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

21-asrda biotexnologiyaning fan sifatida rivojlanishining asosiy xususiyati uning amaliy fan shaklida tez o'sishidir. U allaqachon hayotning deyarli barcha sohalariga kirib bordi va ko'plab iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Xulosa qilib aytganda, biotexnologiya fan sifatida ko'p yillardan buyon shakllanib, hozirgi kunda deyarli ko'pgina sanoat va ishlab chiqarish sohalarini qamrab oldi, bu esa inson ehtiyojlarini qondirishda kerak bo'ladigan xomashyo resruslarining ko'payishiga, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolidning yuksalishida o'zining ijobiy samarasini ko'rsatdi.

Adabiyotlar:

1. Qo'chqarov Q.Q., Tuxtaboyeva F.M. Biotexnologiyaning ekologik asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2016. – B. 4.
2. G'anixo'jayeva A.B., Nazarova H.A. Mikrobiologiya. Toshkent, 2002. – B.
3. Ramazonov N.Sh. Zamonaviy biomuhandislik. Toshkent, 2014. – B. 4.

AMARANTHUS O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

A.A.Yuldashev,

*AnDUPI, biologiya
fanlari falsafa doktori*

M.A.Abduxalilova

*AnDUPI, Biologiya yo'nalishi,
1-bosqich talabasi.*

Annotatsiya. Maqolada ilmiy tibbiyotda foydalanib kelinayotgan dorivor o'simliklardan biri bo'lgan amaranthus o'simligining botanik va morfologik tasnifi, tarkibiga kiruvchi ayrim moddalarning miqdori va ushbu o'simlikning insonlar salomatligini saqlashdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Amaranthus, endokrin korreksiya, skvalen, saraton, fitosterollar.

Dorivor o'simliklar-odam va hayvonlarni davolash kasalliklarning oldini olish, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar hisoblanadi. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi ma'lum. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmokologik xususiyatlari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 7000 dan ziyod turi borligi aniqlangan bo'lib, shulardan tabiiy holda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin turlardan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning 40-47foizi o'simlik xom ashyolaridan olinadi¹⁸. O'zbekistonda keng tarqalgan dorivor o'simliklardan biri amaranthus o'simligidir. Amaranthus-amaranth turkumi dunyoning issiq va mo'tadil mintaqalarida o'sadigan 75 ga yaqin

¹⁸ Toxirov.B.B., Dorivor o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida yangi ma'lumotlar.

turni o'z ichiga oladi¹⁹. Amaranthning kelib chiqish markazi-Janubiy Amerika bo'lib, Shimoliy amerikada ham juda ham keng tarqalgan. Hindiston va Xitoy Amaranthusning ikkinchi tarqalish markazi hisoblanadi²⁰. Amaranthus juda keng maqsadlarda texnik, ozuqabop va dorivor o'simlik sifatida ishlatiladi

.Amaranthusning ozuqabop o'simlik sifatidagi ahamiyati diqqatga sazovor bo'lib, qator mamlakatlarda, xususan Sharqiy Osiyo mamlakatlarida sabzavot o'simligi sifatida yetishtiriladi.

O'simlikning bo'yi 0,5-2,3 m poya yo'g'onligi esa 0,8-7,0 sm o'simlik massasi 0,6 dan 10 kggacha borishi mumkin. Barglari yirik, cho'zinchoq uzun bandli, poyada ketma-ket o'rnashgan, asosi ponasimon va uchi o'tkir. Gullari mayda ko'rimsiz bo'lib yirik yarim metrgacha boradigan supurgisimon gul to'plamini hosil qiladi.To'pguli 0,3 dan 1,5 m gacha uzunlikdagi har xil shakl va turli zichlikdagi quyuk ro'vak.Urug'lari mayda oq, pushti, qora va jigarrang. 1000 dona urug' og'irligi 0,6-0,9 gr.Ro'vakda 0,06 dan 0,3 kg gacha urug' bo'ladi.

Iyun oyida gullaydi urug'i iyul oyida yetiladi²¹. Hozirgi kunda yurtimizda mahalliy sharoitda yaratilgan "O'zbekiston", "Marhamat", "Andijon", "Ulug'nor" nomli navlari yetishtirib kelinmoqda.Bu o'simlikning bargi, poyasi guli va urug'I tarkibida juda ko'plab foydali organik va anorganik maddalar mavjud bo'lib asosan urug'i va moyi dorivor maqsadlarda qo'llaniladi. Amaranthus bargida 30 foizgacha oqsil modda va 270-350mg/kg koratin tutadi. Ularning tarkibida riboflovin, poli vitaminlar, askorbin kislota, K,E,D vitaminlari va boshqa moddalar bo'ladi. Amaranthus urug'i tarkibida 18-20 foiz oqsil, 8-9 foiz moy va 65-75 foiz uglevodlar bo'ladi⁵. Amaranthus urug'idan qator kasalliklar-nafas olish kasalliklari(bronxit, laringit, plevrit,pnevmoniya),endokrin korreksiya(kamqonlik, avitaminoz, semizlik, qandli diabet), suyak va qon – tomir kasalliklari(ostexondroz, artroz, artritlar), onkologik kasalliklar,uyqusizlik va boshqa jinsiy kasalliklarni davolashda foydalaniladi²². Amaranthus urug'lari moy va skvalen manbai bo'lib xizmat qiladi.

¹⁹ Гусев В.Д., Обзор рода Amaranthus

²⁰ Железнов А.В., Железнова Н.Б., Бурмакина Н.В., Юдина Р,С Амарант научные основы интродукции новосибирск

²¹ Ahmedov O', Ergashev.A, Abzalov A. va boshqalar.Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya

²² <https://mushohada.uz>

Ushbu dorivor urug' tarkibidagi moyda inson salomatligi uchun zarur bo'lgan dorivor xususiyatlarga ega fitosterollar va boshqa moddalar mavjud ekanligi fanga ayon bo'lishi bilanoq amaranthus moyiga e'tibor keskin ortdi. Skvalen saraton hujayralari rivojlanishini to'xtatadi, tanani yoshartiradi, immunitetni mustahkamlaydi, organlarning gormonal tizimining faoliyatini tiklaydi va shu bilan birga sog'lom hayotning davomiyligini oshiradi. Xalqaro ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan o'tkazilgan laboratoriya tahlillari organizmda kislorod yetishmasligi erta qarishga va saraton kasalligining rivojlanishiga olib kelishini tasdiqladi. Amaranthus moyi biologik faol moddalar va mikroelementlar manbai sifatida qonni kislorod bilan ta'minlab beruvchi vosita hisoblanadi.

Amaranthus moyi tibbiyotda xolisterinni biosintez qilishda, organizmni radionukleid, og'ir metal tuzlaridan tozalashda, yuqumli kasalliklar, gerpes, psoriaz, viltiligo, neyodermit, ekzema, atopik dermatit, oshqozon-ichak yaralari, qandli diabet, jigar xastaligi, siydik-jinsiy organlarning shamollashi, ateroskleroza-nemiya, avitaminoz, gipertoniya, onkologik, yurak qon-tomir xastaliklaridagi muammolarni hal qilishda keng foydalaniladi. Immunitetni keskin oshirish xususiyatiga ega bo'lib, kamqonlikka qarshi kurashda tengi yo'q vositadir²³.

Ma'lumki, Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bu birikmalar o'simlikning turli qismlarida turli vaqtlarda har xil miqdorda to'planadi. Dorivor moddalar ba'zi o'simliklarning kurtagi, poyasi, bargida ba'zi o'simliklarning guli va mevasida ba'zi o'simliklarning ildizida to'planadi. Mazkur ma'lumotlarga asoslangan holda amaranth o'simligini vegetatsiya davrida anatomik jihatdan tahlil etib borish ushbu o'simlik haqida ko'plab ma'lumotlar berishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Toxirov.B.B., Dorivor o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida yangi ma'lumotlar. Science and education scientific journal 2022.№3-B.112-113.

²³ Asqarov I.R., Jo'rayev A.M., Qirg'izov Sh.M. va boshqalar. Tibbiyotda ishlatiladigan ayrim o'simlik moddalarini kimyoviy asosida sinflash.

2. Гусев В.Д., Обзор рода *Amaranthus* L.в СССР//Ботанический журнал. 1972.№5. С.457-464
3. Железнов А.В., Железнова Н.Б., Бурмакина Н.В., Юдина Р,С Амарант научные основы интродукции новосибирск. 2009. С.236
4. Xoshimjonova N.N., Mahalliyashtirilayotgan ayrim noan'anaviy yem-xashak o'simliklarining biologik va ozuqaviy qiymati. Science and education scientific journal.2022.№1-B. 91
5. Ahmedov O', Ergashev.A, Abzalov A. va boshqalar. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent. Tafakkur-bo'stoni.2018.-B.45-46
6. <https://mushohada.uz>
7. Атамухаммедова. М. Р; Саидова А. Я. Основные правила питания при занятиях спортом// Новая наука история становления, современное состояние, перспективы развития.2020.С.265-267.
8. Nabiyeva S.B., Adxamjonova A.A. The chemical composition and properties of chicken meat//Innovative Technologica; Methodical Research Journal.2021.-Т. 2.-№10.С. 25-28.
9. Asqarov I.R., Jo'rayev A.M., Qirg'izov Sh.M. va boshqalar. Tibbiyotda ishlatiladigan ayrim o'simlik moddalarini kimyoviy asosida sinflash. Tabiiy birikmalardan qishloq xo'jaligida foydalanish istiqbollari.Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.Guliston.2018. 25-26-may.

**BUXORO SHAHRI SUV HAVZALARINING TASNIFI VA UNDAGI
SHOXDORMO'YLOVLI (CLADOSERA) QISQICHBAQASIMONLAR
FAUNASI**

H.M. Toshov

BuxDU, B.f.f.d(PhD)

F.I. Asadova,

BuxDU, Biologiya(turlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Buxoro shahridagi mavjud (Labi-hovuz, Bolo-hovuz va “Somoniy” istirohat bog'idagi ko'l) hovuzlarning zooplanktonlaridan shoxdor mo'ylovli qisqichbaqalar turlarining tarkibi, miqdorini aniqlash, turlarning tarkibini tahlil qilish, turlarining mavsumiy o'zgarishlarini baholash va ularning amaliy ahamiyatini o'rganishga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Biomassa, harorat, turli xil suv muhiti, Cladosera, dafniya, moina, turg'un va noturg'un suv holati, Labi-hovuz, Bolo-hovuz.

Buxoro shahri Buxoro viloyatining ma'muriy markazi bo'lib unda ko'plab suv havzalari mavjud. Ushbu suv havzalarini o'zining suv saqlashi xususiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin. Ular turg'un suv miqdoriga ega suvliklar va turg'un suv miqdoriga ega bo'lmagan suvliklar. Birinchi guruhga shaharning ichki qismi muayyan hududlaridan oqib o'tuvchi zovur va kollektorlar hamda uncha katta bo'lmagan hovuzlar kirsa, ikkinchi guruhga asosan yilning turli mavsumlarida suv oqimi mavjud kanallar katta kichik ariq va boshqa suv o'tkazgich irrigatsion tizimlari kiradi. Buxoro shahri hududida 3ta hovuz bo'lib, ular Samoniylar bog'i atrofidagi hovuz, Labi hovuz tarixiy yodgorligi hududidagi hovuz va Bolo hovuz tarixiy yodgorligi hududidagi hovuzlar. Ushbu hovuzlardan Samoniylar hovuzi va Labi hovuzdagi hovuzlarda yil davomida suv bo'ladi. Bolo hovuz majmuasidagi hovuzda ba'zan qishda suv qurub qoladi. Ushbu suvliklarda qish faslida ko'pincha uncha qalin bo'lmagan muz qatlami hosil bo'lishi kuzatiladi [1].

Buxoro shahri hududidan va uning hududidan o'tib ketishini ta'minlovchi doimiy sizot suv massalarini chiqarilishiga xizmat qiluvchi katta kichik zovurlar yil davomida u yoki bu darajada sizot suvlarini saqlab suvini o'zidan keyingi bosqichdagi katta kollektorlarga quyadi.

Buxoro shahri hududidan oqib o'tuvchi aksariyat hollarda qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish paytlarida suv o'tkazish vazifasini bajaruvchi kanallarda ham bahor yoz va kuz fasllarida suvning doimiy oqimi mavjud bo'ladi. Mazkur manbalarning ahamiyatli jihati ularda zooplanktonlar rivojlanishi uchun vegetatsion davrda ularni suv muhiti bilan ta'minlaganliklaridadir. Ushbu turli xil muhit

elementlariga ega suv manbalari o'zlarining xilma-xil faunistik xususiyatlarini namoyon qiladilar[4].

Buxoro shahri turli tipli suv havzalarida shoxdormo'ylovli qisqichbaqasimonlar sifat va miqdoriy jihatdan turlicha rivojlanadi. Ko'llar va hovuzlardagi tadqiqot namunalari yig'ish, ularning biomassasini aniqlash ishlari umumqabul qilingan gidrobiologik uslublar asosida olib borildi (Jadin 1950, Ksilyov 1968, Muhammadiyev 1967, Vinberg 1968) . SHoxdormo'ylovlilarning miqdor va sifat namunalari 2020-2021 yilning barcha fasllarida hamda 2022 yilning qish va bahor faslining birinchi yarmida yig'ildi. Jami olingan namunalar soni 26 tani tashkil qildi. SHundan 11tasi sifat namunalari 15tasi miqdor numunalari. Harorat suv termometri yordamida, tiniqligi Sekki diski yordamida, suv rangi Farel-Ule shkalasi bilan, pH ko'rsatkichi LPU-01 markali laboratoriya pH- metri bilan aniqlandi. Kamerali ishlar binokulyar lupa va sterioskopik mikroskop MBS-20 da ko'rib o'rganildi².

Buxoro shahri suv havzalarida shoxdormo'ylovli qisqichbaqasimonlarning quyidagi turlari aniqlandi (1- jadval).

1-jadval

Buxoro shahri suv havzalarida shoxdormo'ylovli qisqichbaqasimonlar turlarining hovuzlar bo'yicha uchrash chastotasi.

№		Labi Hovuz	Bolo Hovuz	Samoniyalar bog'i hovuzi
1	<i>Daphnia longispina</i>	+	+	+
2	<i>D. pulex</i>	-	+	+
3	<i>D. magna</i>	+	-	-
4	<i>Ceriodaphnia reticulate</i>	-	+	+
5	<i>Ceriodaphnia quadrangula</i>	+	-	+
6	<i>Bosmina longirostris</i>	+	+	-

7	<i>Simocephalus vetatus</i>	+	-	+
8	<i>Moina meberi</i>	-	+	-
9	<i>Chydorus sphaericus</i>	-	-	+
10	<i>Alona affinis</i>	+	-	+
	Jami	6	5	7

Buxoro shahri suv havzalarida uchrovchi shoxdormo'yovlilar 4 oilaga mansub turlar hisoblanadi. Bu oilalar Dafnidae, Bosminidae, Moinidae va Chidoridae oilalari vakillaridir².

Shoxdormo'yovli qisqichbaqasimonlar shahar suv ekotizimining muhim elementlari sifatida barcha havzalarda uchraydi. Ularning o'rganilgan suv havzalarida 1- jadvaldagidek ko'rinishdagi turlarga egaligi keng tarqalgan turlardan iboratligi bilan xarakterlanadi. Yuqoridagi shoxdormo'yovli qisqichbaqasimonlar orasida dominant turlar sifatida *Daphnia longispina*, *Ceriodaphnia reticulate*, *Bosmina longirostris* lar qayd etildi.

Ushbu suv havzalarida shoxdormo'yovlilarning miqdor ko'rsatkichlari bo'lib yil davomida o'zgarib turib u o'rtacha 1,78-2,29 g/m³ ni tashkil qilsa ularning soni 36,4-49,8 ming/dona/m³ ni tashkil qilishi aniqlandi. Buxoro shahri suv havzalarida shoxdormo'yovli qisqichbaqasimonlarini o'rganish amaliy va nazariy jihatdan ahamiyatga ega bo'lib bunda suv havzalarida faunasi tarkibi o'zgarishining qonuniyatlari nazariy jihatdan ochib beriladi. Ushbu tadqiqotning amaliy tomonlari esa ushbu suv havzalarida dominant turlar sukcesiyaning dinamikasiga ko'ra baliqchilik xo'jaliklariga chavoqlar etishtirish uchun ozuqa bo'la oladigan qisqichbasimonlarning muayyan turlari biologiyasi tavsiya etiladi va amaliyotda samarali echimlarga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Niyozov D.S. Azimova D.S. Bahouddin naqshband ziyoratgohi hududidagi hovuzlarning zooplanktoni va ularningixtrotrofologik ahamiyati. Mikroskopik

suvoʻtlarni va yuksak suv oʻsimliklarini koʻpaytirish, ularni xalq xoʻjaligida qoʻllash. Buxoro, 2018. -148-151 b.

2. Sharopova Sh.R.,1 Sharipova M.U. Buxoro shahridagi hovuzlar zooplanktonining oʻrganilishiga oid baʼzi bir maʼlumotlar. Termiz, 2016. 591-592 .

3. Toshov X.M., SHodmonov F.K. Evtrofikatsionnoe polojenie ryboxozyaystvennykh ozyor Buxarskoy oblasti. Uchenyy XXI veka. Rossiya. 2017.№1.- S. 28-31

TURLI DARAJADA SHOʻRLANGAN TUPROQLARNING CHIGIT UNUVCHANLIGIGA TAʼSIRI

Sh.M Sharipova,

U.O. Gʻapurova,

G. Ostonova,

BuxDU, Biologiya mutaxassisligi magistrantlari

Annotatsiya: Tezida gʻoza chigitining unuvchanligiga turli darajada shoʻrlangan tuproqlarning taʼsiri oʻrganilgan.

Kalit soʻzlar: shoʻrlanmagan, oz hsoʻrlangan, oʻrtacha shoʻrlangan, kuchli shoʻrlangan va shoʻrxok tuproq, Firsova usuli.

Diyorimizda hozirgi kunda umumiy sugʻoriladigan yerlarning 9,6 % ning melorativ holati yomonlashishi, tuproqlarda shoʻrlanish darajasi ortishi va sizot suvlarning koʻtarilishi bilan bogʻliq. [1].

Shoʻrlangan tuproqlar – madaniy oʻsimliklarning (galofit boʻlmagan) rivojlanishi uchun zaharli taʼsir etuvchi, suvda oson eruvchi tuzlari mavjud boʻlgan tuproqlarga aytiladi. 1998-yildagi maʼlumotlarga koʻra, Buxoro viloyati sugʻoriladigan yerlari 270 ming.ga sugʻoriladigan maydonining 159 ming.ga kuchsiz, 74 ming.ga oʻrtacha va 28 ming.ga kuchli shoʻrlanganligi aniqlangan. Natijada, oʻtgan 28 yil mobaynida yerlarni oʻrtacha shoʻrlanishi 1.9 marta, kuchli shoʻrlanish esa 4 martagacha oshganli tuproqlarning ekologik holati yomonlashib borayotganligidan dark beradi. [1].

Sug'oriladigan tuproqlar sho'rlanganlik darajasiga qarab 4 ta asosiy guruhga – sho'rlanmagan, oz sho'rlangan, o'rtacha sho'rlangan, kuchli sho'rlangan va sho'rxoklarga bo'linadi. [2].

Turli darajada sho'rlangan tuproqlarda chigit unuvchanligini aniqlash maqsadida, 2022-yilda laboratoriya sharoitida tadqiqotlar olib borildi.

Chigit unuvchanligini aniqlash maqsadida firsova usulidan foydalanildi [3].

Tadqiqot 3 variantda 4 takrorda olib borildi. Har bir kyuvetalarga namlangan filt qog'oz ustiga bir xil massadagi (100 gr) sho'rlanmagan (nazorat), o'rtacha sho'rlangan va kuchli sho'rlangan tuproqlar solinib, 50 donadan suvda ivitilgan chigitlar, bir xil miqdorda suv bilan namlanib, ustiga filt qog'oz tushab, 26⁰C termostatda 7 kecha -kunduz davomida qo'yilib, kuzatuv va tahlil ishlari olib borildi.

Laboratoriya tahlillaridan shu narsa aniqlandiki, bir sutka o'tib kyuvetalarda turli darajada sho'rlangan tuproqlarda ekilgan chigitlarda hech qanday o'zgarish kuzatilmadi.

Uch sutka o'tgandan keyin, variantlardagi chigitlarda bo'rtish, nish otish, ildizchalar va boshlang'ich bargchalarning hosil bo'lishi aniqlandi.

Urug'larning rivojlanish jarayonlari bir hafta o'tib tahlil qilinganda, nazorat variantida unuvchanlik 80%, o'rtacha sho'rlangan va kuchli sho'rlangan tuproq variantlarida mos ravishda: 66; 48% ekanligi aniqlandi. Variantlar Ichida eng ijoobiy natija nazorat variantida kuzatildi (1-jadval).

1- jadval.

Laboratoriya sharoitida urug' unuvchanligini aniqlash, 2022-yil

Variantlar	Kyuveta dagi chigit, dona	Kuzatuv sanalar, kunlar					Unuvchanlik	
		27.04	30.04	01.05	02.05	03.05	%	Nazoratga nisbatan farqi, ±
		Ungan nihollar sonining takrorlar bo'yicha o'rtachasi, dona						
Nazorat	50			1	5	0	80	0,0

O'rtacha sho'rlangan	50			1	1	3	66	-14,0
Kuchli sho'rlangan	50				5	4	48	-32,0

Chigitdagi murtakning rivojlanish jarayoni gidrolitik fermentlarning faollanishi, biokolloidli moddalarning gidradatlanish, oqsillarning sintzlanishi, urug'dagi onkotik bosimning oshishi, murtakda nafas olish jarayoning tezlashishi bilan bog'liqdir. Ammo, tuproq tarkibidagi zararli ta'sir etuvchi tuzlar miqdorining ortishi urug' hujayralardagi bo'linish, cho'zilish va o'sish reaksiyalarini pasayishiga sabab bo'ladi va urug' bo'rtish, o'simta hosil qilishdan to'xtab qoladi. Demak, tuproqning sho'rlanish darajasi ortib borishi bilan murtakning rivojlanish jarayonlari ya'ni unuvchanlik pasayib borishi kuzatiladi.

Adabiyotlar :

1. Холиқулов Ш., Узоқов П., Бобохўжаев И. Тупроқшунослик. Дарслик. Тошкент, 2011.
2. Ўзбекистон Республикаси тупроқ қопламлари Атласи, 2010.
3. Фирсова М. К. Лаборатория шароитида уруғ унувчанлигини аниқлаш. Москва, 1978. - 24 б.

70530402 – Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha)

LANDSHAFT TA'LIMOTI VA AMALIYOT

X.R.Toshov,

BuxDU, ekologiya va geografiya kafedrasi dotsenti

Z.G'.Qodirova,

Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasini

tasdiqlashni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti loyihasi" dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni bajarishda landshaftshunoslik fani va unda yaratilgan ta'limotlarning ahamiyati katta. Chunki landshaftlarning negizi, yoshi, yashash holati, o'zgarishi, rivojlanishi, tarkibiy hududiy tuzilishi, resurslar imkoniyati landshaftshunoslikning o'rganish predmetidir. Fanning bosh maqsadi tabiatdan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va tavsiyalar berish hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: Landshaft, ekologik vaziyat, qishloq xo'jaligi, tadqiqot, ekologik tamoyil.

Landshaft geografik qobiqning ajralmas qismi bo'lib, boshqacha qilib aytganda, insonning yashashi, xo'jalik faoliyati ana shu kichik hududlarda kechadi, tabiat va inson munosabatlarining ijobiy va salbiy oqibatlarini ham mazkur makonda namoyon bo'ladi [1,2,3,4]. Ona yer tabiatining musaffoligi, moddiy va nomoddiy salohiyati ana shu kichik hududlarda geoekologik vaziyat bilan bevosita bog'liqdir. Buni o'z vaqtida taniqli geograf olim I.Q.Nazarov "joylardagi ekologik vaziyatni tabiiy resurslarni ayniqsa (yer, suv, biologik) baholashda landshaftlar tabiiy-hududiy asos bo'lishi zarur" – deb ta'kidlagan edi. Bundan tashqari, bu olim landshaftlarni resurs yaratuvchilik, muhit yaratuvchi va genofond tizimini saqlovchi sifatlarini ham uning xulqiga kiradi, degan edi.

Keyingi yillarda landshaft ta'limoti asosida landshaft indikasiya ishlarini olib borish, tabiiy resurslarni baholash, bashoratlash, landshaftlarni qishloq xo'jaligi, muhandislik, dam olish uchun baholash, madaniy landshaftlarni loyihalash kabi sohalarda Buxoro davlat universiteti olimlari tomonidan ham amaliy geografik tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishni rivojlanishida I.Q.Nazarov boshchiligida Buxoro davlat universiteti olimlari va ilmiy tadqiqotchilari tomonidan 1990 – 2021 yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni misol keltirish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Buxoro davlat universiteti olimlarining landshaft resursshunoslari yo'nalishida e'lon qilgan ilmiy ishlari

№	Nomi	Bosma yoki qo'lyozma	Nashriyot, jurnal (nomi, yil, soni)	Bosma taboq	Muallifdosh
1	Народный опыт как основа оптимизации природопользования в аридной зоне Узбекистана	Bosma	Ўзбекистон жану бий районлари табиати ва хўжалигини мажмуали ўрганишнинг долзарб масалалари. Қарши, 1991 й. II қисм. 295 б.	0,5	Назаров И. Аллаёров И. Тошов Х.
2	Дуабинский тугай-как объект заповедения	Bosma	Вопросы экологии вып.4.Чарджоу.	0,5	Файзиев А. Аллаёров И. Умаров К.У. Тошов Х.
3	Чўл зонасининг дам олиш ресурслари хусусида (Қуйи Зарафшон мисолида)	Bosma	География ва табиий ресурслардан фойдаланиш тўплам. Тошкент, 2001 й. 68-70 бетлар.	0,5	Назаров И. Тошов Х. Ҳалимова Г.
4	Маданий ландшафтлар яратишнинг тамойиллари хусусида	Bosma	Тоғ ва тоғолди ҳудудларидан фойдаланишнинг географик асослари. Тўплам.Самарқанд, 2002.44-46 б.	0,5	Назаров И. Аллаёров И. Тошов Х. Мавлонов А.

5	Чўл зонаси: рекультивация муаммолари	Vosma	Табиий география нинг регионал му аммолари. Тўплам. Самарқанд, 2002. 44- 46 бет.	0,5	Назаров И. Аллаёров И. Тошов Х.
6	Чўл зонасининг маҳаллий ер усти сув ресурсларидан самарали фой даланишини географик жиҳатлари (Бухоро вилояти мисолида)	Vosma	Тошкент. Инновация- 2003. 335-336 б.	0,5	Назаров И. Тошов Х.
7	Ландшафтлар ресурсшунослиг и	Vosma	Уз.ГЖ.VI-съезди материаллари. Т, 2003. 23жилд. 18-29 б.	0,5	Назаров И. Тошов Х.
8	Суғориладиган ерлар бонитети ва пахта ҳосилини режалашти риш хусусида (Бухоро вилояти мисолида)	Vosma	Қишлоқ хўжалигида экологик муаммолар. Халқаро илмий- амалий анжуман материаллари. Бухоро-2003, 26-27 б.	0,5	Назаров И. Умаров К. Аллаёров И. Тошов Х.
9	Тенденции антропогенного опустынования в Бухарском	Vosma	қишлоқ хўжалигида экологик муаммолар. Халқаро илмий-анжу ман материаллари.	0,5	Назаров И. Назарова Н. Тошов Х.

	регионе республики Узбекистан		Бухоро,2003. 165-16 бетлар.		
10	Амударё бўйи минтақаси биоло гик ресурсларидан оқилона фой даланишдаги тў сиқлар хусуси да	Vosma	Ўрта Осиё қуйи Амударё бўйи регионни экологик муаммолари. Бухоро, 2003. 58-60 б.		Назаров И. Аллаёров И. Тошов Х.
11	Табиий географик районлаштириш нинг методо логик асослари ва амалиёт	Vosma	Табиий ва иқтисодий географик районлаштиришнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция мате риаллари. Тошкент,20 04.15-18 бет.	0,5	Назаров И. Тошов Х.
12	Ландшафтларни карталаштиришд а геофенологик усулдан фойдаланиш	Vosma	Табиий ва иқтисодий географик районлаштиришнинг долзарб муаммолари. Тошкент,2004. 247- 249 б.	0,5	Назаров И. Аллаёров И. Тошов Х.
13	Чўл ландшафтла рининг маҳаллий сув ресурсларидан	Vosma	География ва бар қарор ривожла ниш. Илмий кон- ференция материаллари.	0,5	Тошов Х.

	фойдаланиш хусусида		Самарқанд, 2004. 31-32 б.		
14	Чўл ландшафтлари ва уларнинг агроимкониятларидан самарали фойдаланиш (Бухоро вилояти мисолида)	Qo'lyozma	Тошкент. 2008 йил. 24 бет	1,5 б.т.	Тошов Х.
15	Паст тоғлар сув ресурслари шаклланишининг табиий географик омиллари ва улардан самарали фойдаланиш масалалари (Қулжуқтов тизмаси мисолида)	Qo'lyozma	Тошкент. 2020 йил. 24 бет	1,5 б.т.	Ҳалимова Г.

Dotsent I.Nazarov rahbarligida X.Toshov “Cho'l landshaftlari va ularning agroimkoniyatlaridan samarali foydalanish (Buxoro viloyati mavzusida)” mavzusida nomzodlik dissertasiyasini himoya qilgan bo'lsa, 2009-2011 yillarda kafedra a'zolari (I.Nazarov, I.Allayorov, X.Toshov, G.Halimova) tomonidan “Cho'l

landshaftlarining mahalliy suv resurslari (Buxoro viloyati misolida)” mavzusida ilmiy-amaliy loyiha asosida davlat granti bajarilgan(2,3,4).

Qayd qilish joizki, tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan har qanday tadqiqotlar ekologik tamoyillarga asoslanib, bajarilishi, tabiiy resurslarni esa landshaftlar doirasida baholash va eng avvalo mintaqa, viloyatlarning tipologik landshaft xaritalarini tuzishni tuzish, bu xaritalar resurslarni baholashda hududiy asos vazifasini o'taydi (2,3). Landshaft haqidagi ta'limot esa landshaftlarning resurs imkoniyatlarini baholashda metodologik poydevor bo'lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Зокиров Ш.С. Тошов Х.Р. Ландшафтшунослик. Тошкент. Дзайн Пресс. 2013. 170 б.
2. Назаров И.Қ, Тошев Х.Р. Ландшафтлар ресурсунослиги: муаммолар ва таклифлар. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 23-жилд Тошкент, 2003 й, 18-19-бетлар.
3. Тошов Х.Р. Чўл ландшафтлари ва уларнинг агроимкониятла ридан самарали фойдаланиш (Бухоро вилояти мисолида). Автореферат. Т., 2008. 24 б.
4. Ҳалимова Г.С. Паст тоғлар сув ресурслари шаклланишининг табиий географик омиллари ва улардан самарали фойдаланиш масалалари (Кулжуктов тизмаси мисолида). Автореферат. Т., 2020. 24 б.

TALABALARDA IQLIMSHUNOSLIK FANIDAN SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA KO'RGAZMALI METODNING AFZALLIKLARI

G.S.Halimova,

BuxDU, Geografiya fanlari falsafa doktori (PhD)

M.S.Muhammadova,

Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oliy o'quv yurti talabalarida ilmshunoslik fanidan savodxonlikni oshirishda ko'rgazmali metodning afzalliklari, qulayliklari va samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: iqlimshinoslik, ta'lim metodlari, demonstratsiya, illyustratsiya, oylarning o'rtacha harorati, atmosfera yog'inlari, havo massalarining yo'nalish kartalari, atmosfera bosimi kartalari.

Har qanday davlat rivojlanish yo'liga ilm-fanni taraqqiy ettirish, yoshlarning ilm olishlari, dunyo tanishga bo'lgan urinishlarini qo'llab-quvvatlash orqali chiqadi. Yoshlarning ilmi, bilimli bo'lishga intilishi, ilm-fanni chuqur o'rganishga harakat qilishi mamlakatning intellektual boyligi hisoblanadi. Yaponiya, Koreya kabi mamlakatlar oz fursat ichida aynan intellektual zahirasi tufayli jahondagi eng rivojlangan mamlakatlarga aylangani hech kimga sir emas. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasida o'tkazilayotgan barcha islohotlar intellektual boyligimizni oshirish, yoshlarni ilm egallashga qiziqtirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishga qaratilgan [3; 57-64 b.].

Ta'lim sifatini oshirish yo'llaridan ya'na biri Oliy ta'lim muassasasi talabalariga dars berishda ko'rgazmali metodlardan foydalanishdir. Talaba o'zi o'rganayotgan mavzusiga oid ko'rgazmalar bilan hayoliy tasavvur qilib boradi. Ko'rgazmali metodlardan foydalanish metodiga hozirgi rivojlanayotgan dunyoyimizda texnologiyalardan foydalanish ham misol bo'la oladi [2; 25-34 b.].

Adabiyotlar tahliliga ko'ra: Talabalarga ta'lim berishda ko'rgazmali metodlar: 1) namoyish etish metodi; - 2) illyustratsiya metodi.

Demonstratsiya va illyustratsiya o'quv ma'lumotlarini aniq usullar orqali bevosita idrok qilish jihatidan muhim ahamiyatga ega. O'rganilayotgan buyum va hodisalarni to'liq va aniq tasavvur etgan taqdiridagina o'quvchilarning olgan bilimlari chuqur va puxta bo'ladi.


1. Ilyustratsiya metodi: - plakat, xarita, doskadagi rasm, olimlarning portretlari, suratlar va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi.

2. Namoyish qilish metodi - asboblari, tajribalar, texnik kurilmalar, turli


tipdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq. Namoyish qilish metodiga bog'liq kinofilmlar va diafilmlar xam kiradi [1; 115-124 b.].

Ta'limning ko'rgazmali metodlari talabalarning bilim faoliyatida obrazli va mantiqiy, aniq va mavhum, hissiy va aqliy jihatlar nisbatini chuqur tushunishni talab etadi. Respublikamizning barcha oliy ta'lim muassasalarida talim jarayonini sifatli tashkil etish maqsadida moddiy texnik ba'za kun sayin yaxshilanib bormoqda. Jumladan, geografiya ta'lim mutaxassisligi talabalar uchun ko'rgazmali metod alohida ahamiyatga ega. Chunki, har qanday mutaxassislik fani mavzulari kartalar yordamida tushuntirilishi lozim bo'ladi. Shu jumladan iqlimshunoslik fanini o'qitishda dunyo iqlim kartasi, O'rta Osiyo iqlim kartasi, O'zbekiston iqlim kartasi, viloyatlar iqlim kartalaridan foydalanish mavzuni o'zlashtirishda talabalarga katta yordam beradi. O'z navbatida iqlim kartalari mos ravishda oylarning o'rtacha harorati, atmosfera yog'inlari, havo massalarining yo'nalish kartalari, atmosfera bosimi kartalari va yerning iqlim mintaqalari kartasi kabi mavzuli kartalar majmuasidan iborat. Masalan, dunyoning iqlim kartasi talabalarga yer yuzasi tabiatining shakllanishida havo massalari, okean oqimlari va atmosfera bosimining ahamiyati to'g'risida kompleks tasavvurga ega bo'lishadi. Dunyoning eng issiq hududi, eng sovuq mintaqasi qayerligini kartadan ko'rib olish bilan bir qatorda, nima uchun aynan shu yerda mazkur holat yuz bergani haqida aniq tasavvurga ega bo'lishadi (1-rasm).

Hozirgi kunda kartalardan virtual foydalanish imkoniyatlari ham mavjud bo'lib, bunda kartaning axborot berish imkoniyatlari yanada ortadi. Ayniqsa, iqlim kartalarida havo massalarining yo'nalishi va tezligi, bulutlarning harakat tezligi kabi jarayonlarni modellashtirgan holda talabalarga ko'rsatish mumkin bo'ladi.



1- rasm. Dunyoning iqlim kartasi



2-rasm. Yerning iqlim mintaqalari kartasi, B.P.Alisov bo'yicha

Yerning iqlim mintaqalari yer yuzasida nafaqat tabiatning turli-tuman bo'lishiga, balki insonlarning ijtimoiy turmush tarsi xilma-xil bo'lishiga ham sabab bo'ladi. Yerning iqlim mintaqalari kartasini to'g'ri anglash orqali butun jahon

xo'jaligini to'g'ri tashkil qilish uchun asos bo'la oladigan takliflarni berish mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida qayd etish lozimki, ko'rgazmali metod har qanday fanni va mavzuni o'zlashtirishda hamda talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda alohida ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar:

1. Avazboev A.I., Ismadiyarov Y.U. Kasbiy pedagogika. - Toshkent: Cho'lpon, 2014yil.
2. Olimov Q.T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. – T.:2006.
3. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T., 2008 yil.

JONDOR TUMANI QISHLOQLARI VA ULARNI KO'KALAMZORLASHTIRILISHINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

X.R.Toshov

BuxDU, Ekologiya va geografiya kafedrasi dotsenti

D.J.Qo'chqorova

Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Jondor tumani Buxoro viloyatida joylashgan yirik iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarga ega ma'muriy hududlardan biri. U 1935-yil 17-yanvarda tashkil etilgan va o'tgan davrlar mobaynida ma'muriy chegarasi bir necha marta o'zgartirilgan va qayta tashkil etilgan. Masalan, tuman hududi 1962-yil 24 - dekabrda boshlab, Buxoro va Romitan tumanlari tarkibiga kiritilgan. 1967-yil 9-yanvarda esa qayta tashkil etilgan. Jondor tumani viloyatning 5 ta (Buxoro, Romitan, Olot, Qorako'l, Peshku) tumanlari bilan chegaradosh.

Jondor hududi to'g'risidagi ma'lumotlar Buxorolik mashhur tarixchi Narshaxiyning Buxoro tarixi asarida, shuningdek “Jondor va Jondorliklar” va “Jondor tuman tarixi” (qisqa ma'lumotnoma, 2015) nomli risolalarda keltirilgan.

Bugungi kunda Jondor tumanida viloyat aholisining (180 mingga yaqin) qaryib 10 foizi yashaydi. Ular asosan tumandagi yirik aholi manzilgohlarida yashamoqda. Ularda bir necha geografiya fani hal qilishi mumkin bo'lgan muammolar borki, ularni bartaraf etishda mazkur fan, ayniqsa landshaftshunoslik fani yutuqlaridan samarali foydalanish lozim bo'ladi. Birinchisi, qishloq manzilgohlarini oqilona tashkil etish, ikkinchisi esa ularni ko'kalamzorlashtirishdir. Demak, dastlab hukumatimiz tomonidan belgilangan qonun va qarorlar, tumanning geografik xususiyatlarini aniqlash, geografiyada yaratilgan qonun va qonuniyatlarni o'rganish, qishloq manzilgohlarining hududiy tarqalishi, tarixini bilish mazkur muammolarni oqilona bartaraf etishning metodologik asoslari bo'ladi.

Bugun O'zbekiston Respublikasida “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi, 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son “Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20-oktyabrdagi 841-son “2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror Rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarish mazkur muammoni muayyan darajada bajarishga xizmat qiladi.

Tumanning geografik xususiyatlari

1. Aholi manzilgohlari janubi – g'arqiy tomondan Yozg'oqqum va Kampirakqum cho'llariga tutashib ketgan.
2. Hudud tabiiy geografik jihatdan Zarafshon va Qizilqum okrugining Quljuqtog' rayoniga kiradi (1-jadval).
3. Ushbu maskanning reliefi turlicha gipsometrik, litologik va genetik asosga ega.
4. Bu maskan uchun O'rta Osiyoning janubiy cho'llariga xos, ya'ni subtropik belgilarga ega bo'lgan keskin kontinental cho'l iqlimiga ega. Kecha bilan kunduz, yoz bilan qish o'rtasidagi havo harorati o'ta keskin. Bahor nisbatan sernam, ba'zida ofatli (qora sovuqlar, sel, do'l yog'ishi, kuchli shamollar), yoz uzoq (V-IX oylar) quruq, jazirama va o'ta yorug'likda. Kuz qisqa (X-XI) va turg'unsiz. Qish iliq, ba'zan ayozli, muqim emas. Issiqlik manbai hisoblangan quyosh radiatsiyasining yillik miqdori 150-160 kkal. Faol haroratning ($>10^{\circ}$) yillik yig'indisi $4550-5000^{\circ}$ C atrofida. Eng sovuq oy yanvar bo'lib, o'rtacha harorat 0° va $1,0^{\circ}$ C, iyulda esa $28^{\circ}-31,5^{\circ}$ C. Eng past harorat -25° (1969, 1984), eng yuqori harorat $45-46^{\circ}$ C gacha kuzatiladi.
5. Tuman hududida tabiiy namlanish juda kam. Yillik yog'inlar 90-150 mm atrofida, mumkin bo'lgan yillik bug'lanish esa 2000 mm hamda hudud o'ta qurg'oqchil zonaga mansub. Bu yerda "qumbosti", "garmsel", "qorasovuq", "qumbo'roni" kabi o'ndan ortiq tabiiy ofatlar kuzatiladi.
6. Cho'l zonasida joylashgani uchun tuman hududini shamollarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Issiq va qurg'oqchil iqlim va yoz mavsumidagi yarim yalang'och, qaqragan yuzalar shamol eroziyasi va cho'llanish jarayoni uchun qulay imkoniyatdir. Shamollar aksariyat shimol tomondan esadi. «Faol shamollar» (4 m/s dan yuqori) yoz oylarida kuchayadi. Tezligi 15 m/s va undan ortiq bo'lgan shamollar bir yilda 9-11 kun (vegetatsiya davrida) takrorlanadi. Ular quruq va issiq garmselning salbiy ta'sir kuchini oshiradi va madaniy ekinlar hosiliga ofat keltiradi.
7. Tumanda mahalliy ichimlik suv manbalari yo'q. Yagona suv manbai, 1962-1975 yillarda qurilgan Amu-Buxoro mashina kanalining Jondor kanali tizimidir. Kanal orqali Amudaryodan suv olinadi va relief nishabligiga teskari yo'nalishda

hududlarga oqiziladi. Voha hududida hosil bo'ladigan zovur, oqava suvlar esa zovurlar orqali cho'l zonasidagi pastqamliklarga tashlanadi.

8. Mazkur hududda tuproqlarning 10 dan ortiq turlari mavjud. Cho'l zonasida cho'l-qumli, sur qo'ng'ir, taqir, taqirli, sho'rxok tuproqlar keng tarqalgan. Vohada o'tloq-madaniy-voha tuproqlari bo'lib, tumanning "oltin zahirasi" hisoblanadi. Ular doirasida shamol, suv eroziyasi, ikkilamchi sho'rlanish, kimyoviy ifloslanish jarayonlari yildan-yilga xurujlanib kelmoqda.

9. Tuman cho'l zonasida joylashgan bo'lib, organik dunyoga boy. Mazkur hududda yuksak o'simliklarning yuzdan ortiq turi uchraydi.

1-jadval

Tabiiy – geografik rayonlashtirish

O'lka	Zona	Zonacho'l	Provinsiya	Okrug	Rayon	Landshaftlar
O'rta Osiyo tekisligi	Janubiy cho'llar	Janubiy cho'llar	Zarafshon	Quy Zarafshon	Kimirakqum-Mahondaryo	Jondor cho'l-yaylov Landshaftlari
					Buxoro-Qora-ko'l	Jondor tumani antropogen landshaftlari

Ko'kalamzorlashtirish tushunchasi akademik F.N.Reymers tomonidan quyidagicha ta'riflangan: "Ko'kalamzorlashtirish – aholi manzilgohlari hududidagi yo'l va qurilish ob'ektlaridan xoli joylarni hamda yovvoyi o'simliklarni atrof-muhitni yaxshilash maqsadida kultivatsiyalashdir". Aholi manzilgohlarini ichki ko'kalamzorlashtirish va bo'ylama ko'kalamzorlashtirish tiplaridan iborat deb ko'rsatilgan. Shuningdek, olim tomonidan ko'kalamzorlashtirishni havoni ifloslanishidan muhofaza qilishi chizmada tasvirlangan [4, 318-b.]

A.G.Isachenko madaniy landshaftda ikkita sifatiy xususiyat bor bo'lishi zarurligini qayd etadi: birinchidan, u yuqori unumdorlikka va iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lishi, ikkinchidan, insonning yashashi va sog'lom, jismoniy, ma'naviy rivojlanishi uchun optimal muhit vazifasini o'tashi lozim deb, ta'kidlagan [1, 349-b.]. N.F.Reymers madaniy landshaft deb, o'zining tarkibi, vazifasining xususiyatlariga ko'ra maqsadli yaratilgan antropogen landshaft, deb ko'rsatgan [4 , 263-b.]. V.P.Maksakovskiy antropogen landshaft – bu kishilik jamiyatining xo'jalik faoliyati va tinimsiz mehnati natijasida o'zgartirilgan tabiiy landshaftni tushunish kerak deb, ta'kidlaydi [2, 82-b.]. I.Q.Nazarov esa madaniy landshaftlarni yaratishning 9 ta tamoyillarini tavsiflab, uni yaratishda joyning geografik xususiyatlariga e'tibor qaratish va mahalliy xalqning mentaliteti saqlanishi lozimligini uqtiradi [3, 145-147-b.] .

Tumanda Aleli, Dalmun, Lolo, Mirzayon, Navrabot, Oqshix, Romish, Po'loti, Samonchuq, Sepatta, Xumdanak, Xumin, Qorali singari yirik va ko'plab o'rta hamda kichik qishloqlar bor. Mazkur qishloqlar madaniy landshaftlarning tipik ko'rinishlari hisoblanadi

Ma'lumki, tuman hududini shartli ravishda 3 ta qismga ajratish mumkin. Bular voha, o'tkinchi zona va cho'l. Jumladan, tumanning bir qismi Buxoro vohasida, janubiy, g'arbiy qismlari Yozg'oqqum va Kampirakqum cho'llaridan, ular orasida esa o'tkinchi zona shakllangan. Ko'kalamzorlashtirishda, ya'ni uy-joylar arxitekturasi, o'simlik turlarini tanlashda yuqoridagi hududiy farqlanishni hisobga olish shart [5, 13 b.] .

Xulosa qilib aytganda, Jondor tumani qishloq manzilgohlarini ko'kalamzorlashtirishda hududning geografik xususiyatlarini bilish juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. М.: Высшая школа. 1991, 366 стр.
2. Максаковский В. П. Географическая культура. М.: Владос. – 1998. – 416 с.

3. Назаров И. Қ. География фанининг асосий муаммолари. Ўқув кўлланма. – Тошкент: Муҳаррир, 2013. -212 б.
4. Реймерс Ф. Н. Природопользование: Словар-справочник. – М.: Мысль, 1990. – 637 с.
5. Тошов Х.Р., Холов Ё.Д., Қўчқорова Д.Ж., Муҳаммадова М.Н., Қодирова З.Ф. Жондор тумани географияси ва экологиясини ўрганилишига оид мулоҳазалар. Тюркоязычное страны. Республиканский научно-методическая и познавательная журнал. Казахстан. Алматы № 1 2022 г. С. 10-13

BUXORO VILOYATI CHO'L LANDSHAFTLARIDA YUZAGA KELADIGAN GEOEKOLOGIK VAZIYATNI YAXSHILASH YO'LLARI

***М.О'.** Hamroqulova,
Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha)
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatining 88,6 % ini egallagan cho'l yaylovlarida vujudga kelgan geoekologik vaziyat, keltirib chiqaruvchi omillar va oldini olish chora tadbirlari haqida ayrim takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro viloyati, cho'l, geotizmlar, "Qizil kitob", Orol dengizi. Buxoro viloyatidagi hududining katta qismini tekisliklardan iborat cho'l zonasi tashkil topgan. Hududdagi cho'llar kelib chiqish tog' jinslari, relyef tuzilishi, tuproq va gidrologik xususiyatlari bilan farq qiladi. Ushbu farqlar asosida o'simlik va hayvonot dunyosi ham turlicha shakllangan. Viloyat hududidagi cho'llarda azaldan qorako'lchilik bilan shug'ullanish natijasida yaylov sifatida foydalanib kelingan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmidan neft va tabiiy gaz, qurilish materiallarining topilishi va konlarning ishga tushirilishi natijasida geotizmlarga texnogen ta'sir ortib bordi. Bu esa o'z navbatiga bir necha muammolarning birlashuvi va noqulay geoekologik vaziyatni yuzaga keltirdi.

Cho'llarda texnogen faoliyat natijasida tuproqning o'rtacha, kuchli va kuchsiz degradatsiyasi, tuproqlarning texnogen chiqindilar bilan ifloslanishi, terrikonlar, karyerlar va boshqa sun'iy relyef shakllari hosil bo'lishi, muhandis – geologik qidiruv ishlari natijasida to'zima qumlar faoliyatini kuchayishi, burg'ulash ishlari, quvurlar o'tkazish, temiryo'l va avtomobil yo'llari qurish natijasida geotizimlarning muvozanati o'zgarishi, yo'llar, kollektor va zovurlar o'tkazish natijasida mikrorelyefning o'zgartirilishi, o'simliklarni qirqish va haddan tashqari chorva mollarini ko'p boqish natijasida o'simliklar va hayvonot olami turlari va sonining kamayishi, "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simliklarning yo'qolib ketishi kabi geoekologik muammolar mavjud.

Buxoro viloyati cho'l geotizmlari X.R. Toshov ishlarda 12 ta landshaftlariga ajratiladi. Ular qumli cho'l landshaftlari, qumli-shag'lli, gilli sho'rxok, g'ovak qum toshli-gipsli, past tog` etagi qumli-shag'alli-gipsli, past tog` etagi lyossli-gilli-shag'alli, gipsli qumtoshli, past tog` suvayirg`ich qoyali-toshloqli, to`qay-ekoton, qumtoshli-shag'alli-gipsli cho'llar [4, 135-b]. Cho'llarda geoekologik vaziyatni yaxshilash uchun geotizimlarning tabiiy muvozanatini saqlash, tabiatning o`z – o`zini qayta tiklash hamda antropogen ta`sirga qarshi aks ta`sirni kamaytirish uchun maxsus chora tadbirlar tashkil etish zarur. Buning uchun eng avvalo, landshaftlarning o`ziga xos xususiyatlari va geoekologik vaziyatni keltirib chiqaruvchi har bir omilning ta`sir kuchini kamaytirish yo'llari aniqlanadi.

Cho'l geotizimlarida geoekologik vaziyatni optimallashtirish chora – tadbirlari tabiiy omillar hamda antropogen omillar ta`sir kuchini kamaytirish uchun ilmiy asoslangan maxsus tadbirlar doirasida olib boriladi. A.A.Rafiqov (2003) tavsiya qilgan geoekologik vaziyatni optimallashtirish chora – tadbirlarini cho'l geotizimlari uchun quyidagilarini keltiradi:

- ❖ *Harakatdagi qumlar bilan kurashda fitomelioratsiyani qo'llash;*
- ❖ *Barxanlar hamda uchuvchi yarim mustahkamlangan qumlarda majmualiy fitomelioratsiyani qo'llash;*
- ❖ *Yaylovlarning buzilishi bilan kurashish uchun fitomelioratsiyani qo'llash;*
- ❖ *Buzilgan yaylovlarni yem-xashak ekinlari ekish yo`li bilan yaxshilash;*

- ❖ *Texnik eroziya va yaylovlarni harakatlanuvchi vositalar bilan buzulishiga qarshi kurashish;*
- ❖ *Burg'ulash ishlari, quvurlar o'tkazish, temir va avtomobil yo'llari qurilgandan so'ng yaylovlarni rekultivatsiya qilish;*
- ❖ *Irrigatsiya kanallari bo'ylab suvni muhofaza qiluvchi o'rmonlar tashkil qilish;*
- ❖ *Magistral yo'llar bo'ylab, ularni qum bilan qoplanishini oldini olish maqsadida o'rmon ihotalarini bunyod etish;*
- ❖ *Daraxt-butali to'qaylarni qayta tiklash;*
- ❖ *Aholi yashash punktlarini qum bosishidan muhofaza qilish uchun o'rmon mintaqalarini barpo etish [2].*

Shaxsiy kuzatuv va xulosalarga tayangan holda quyidagi tadbirlarni ham cho'l geotizimlariga qo'llashni tavsiya qilamiz:

- *Qumli cho'llarda chuqurligi 30-40 sm keladigan qum jo'yaklari o'tkazib (jo'yaklar orasi 8-10 m) u qum va yumshoq jinslar bilan to'lgandan so'ng, ushbu jo'yakka o'simliklar ekish;*
- *Nishab relyefli joylarda relyef nishabligiga ko'ndalang jo'yaklar o'tkaziladi. Atmosfera yog'inlari tufayli qishda va bahorda jo'yaklarda suv-nam to'planadi va tuproqning agrofizik, agrokimyoviy sharoiti yaxshilanadi va qish faslida jo'yaklarga o'simliklar ekib mustahkamlanadi.*
- *Cho'l geotizimlarini o'simlik bilan boyitishda quyidagi o'simliklar tavsiya etiladi: qorasaksovul, cherkez, qandim (juzg'un), efedra, shuvoq, kavrak, chugon, teresken, izen, singren, qumuzum (semetryanka), selin, iloq. Ular cho'l sharoitida o'sishga moslashgan kserofit o'simliklar bo'lib tabiiy namlanish hisobiga unib rivojlanadi;*
- *Orol dengizidan kirib keladigan chang-tuz bo'ronlarini ta'sirini kamaytirish uchun viloyat g'arbida "yashil qalqon"ni tashkil etish;*
- *Foydali qazilma boyliklaridan foydalanib bo'lgandan keyin rekultivatsiya qilish va buzilgan yerlarga ishlov berish va boshqa chora tadbirlarni qo'llash lozim.*

Adabiyotlar:

1. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш. Бухоро географияси. Бухоро. 1994
2. Rafiqov A.A. “O‘zbekiston tabiatini muhofaza qilish kartasi” T.: 2003
3. Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. Geoekologiya.-T.: “Adib”, 2014
4. Тошов Х.Р. Чўл ландшафтлари ва уларнинг агроимкониятларидан самарали фойдаланиш (Бухоро вилояти мисолида). //География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Т.:2008

NAMANGAN VILOYATI IJTIMOY-IQTISODIY SALOHİYATI YOKI „BAHT INDEKSI”

U.N. Qahhorova,

Geografiya (o‘rganish obyekti bo‘yicha)

mutaxassisligi magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotining salohiyatini va aholining ijtimoiy turmush darajasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: MDH, baxt indeksi, mentalitet, moddiy ta‘minot, umr.

BMTning jahon mamalatlari farovonligini o‘rganuvchi markaz-The World Happiness Report 2018-yil 20- mart kuni Butunjahon Baxtiyorlik kuni munosabati bilan dunyoning 156 davlatining hayotiga baho berdi. Hisoblarga ko‘ra, O‘zbekiston MDH davlatlari ichida birinchi o‘rinda ekani, jahon mamalatlari orasida esa eng baxtli mamlakatlar 50 taligiga kirgan. Yurtimiz bu ko‘rsatkich bo‘yicha 44-o‘rinni egallab turibdi (2017-yili 47-o‘rinda edi)[1]. Bu , albatta, quvonarli hol. Hozirgi kunga qadar O‘zbekiston davlati uchun „Baxt indeksi” ishlab chiqilmagan. Buni biz Namangan viloyati hududi bo‘yicha aniqlashga harakat qildik. „Baxt indeksi” bo‘yicha bir qancha shablonlar bo‘lib, biz bu shablonlardan Respublikamiz uchun muqobil variantini yaratamiz. Zotan, mamlakat uchun tuzilayotgan bu shablonlarda mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy qobiliyati, mentaliteti, statistik indakatorlar va

qonuniy hujjatlar e'tiborga olinishi kerak. Quyida ikki shablonni keltirib o'tamiz (bu O'zbekiston uchun yaqinroqlari).

Galup World Poll anketa shabloni	MDH davlatlari uchun shabloni
1. Daromad;	1.Sog'lik;
2. Saxiylik;	2. Umr ko'rish davri;
3. Erkinlik ;	3.Moddiy ta'minot
4. Immigratsiya va emmigratsiya;	4. Iqlim va geografik o'rin
5. Sog'lom umr;	5. Ishsizlik darajasi;
6. Ishonch;	6.Siyosiy erkinlik;
7. Ijtimoiy-qo'llab quvvatlash.	7. Erkak va ayollar tengligi;
	8.Jamiyat hayoti;
	9.Siyosiy barqarorlik

Yuqoridagi shablonlar bir qancha mamlakatlar uchun qabul qilingan. Biz O'zbekiston uchun „ Baxt indikatorlari”ni individual tarzda ishlab chiqamiz va ularni o'zini ham bir qancha kategoriyalarga ajratamiz.

O'zbekiston uchun baxt indikator shabloni (Namangan viloyati misolida)

1. Tabiiy geografik joylashuv
- 2.Immigratsiya va emmigratsiya;
3. Aholi o'rtacha ish haqi;
4. Xizmat ko'rsatish darajasi;
5. Nikohlar davomiyligi;
- 6.Sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatdan foydalana olish darajasi.

Har bir hududning kelajakda rivojlanishi uning geografik joylashibuviga bog'liq. Tabiiy geografik joylashuv –bu ayrim mamlakat, joy yoki nuqtaning tabiiy borliqqa (obekt) nisbatan joylashishidir. Mamalakatning tabiiy geografik joylashishi uning iqtisodiy rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi[2, 23 b].Namangan viloyati mamlakatimizning sharqiy qismida, Farg'ona vodiysining

shimoli-g'arbiy qismida, Tyanshan tog' tizmasi tarmoqlari - Qurama va CHotqol tog'larining yonbag'irlarida joylashgan. Maydoni 7,44 ming km. kv. Viloyat geologik faol zonada joylashgan. Shimol va shimoli-sharqdan Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, janubiy-sharqdan Andijon viloyati, Janubiy tomondan Farg'ona viloyati, shimoliy va shimoli-g'arbdan Toshkent viloyati va Tojikistonning Sug'd viloyatlari bilan chegaradosh[5, N- h].

Insonlarning har qanday jamlanmasi miqdor va sifat o'zgarishlariga duchor bo'lishi tabiiy. Miqdor o'zgarishlar «ichki» harakat oqibatida, ya'ni ko'payish jarayoni va «tashqi» - aholi migratsiyasi oqibatida yuzaga keladi. Ikkalasi ham miqdor, ham sifat o'zgarishlariga olib kelsa-da, ijtimoiy harakat aholi xususiyatlarining faqat sifat o'zgarishlariga olib keladi, xolos. Migratsion jarayon ko'p hollarda nafaqat ijtimoiy rivojlanish, balki tabiiy harakat bilan ham bog'liq. U bilan ijtimoiy harakat ham o'zaro ta'sirlashuvga kirishadi. Haqiqatda ham inson yoshi o'sishi bilan tajribasi, malakasi ortib boradi va boshqa o'zgarishlar vujudga keladi[3,9 b]. Emmigratsiya va immigratsiya turli maqsadlarda amalga oshiriladi. Buning sabablari ishlash va pul topish, ilmiy-ta'lim maqsadida, anjuman va yig'ilishlar bo'lishi mumkin. 2018-yilgi statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston Respublikasidan emmigratsiya qilgan aholi soni 174832 kishini tashkil etgan. Bundan Namangan viloyatining salmog'i esa 5520 kishini yoki 3.1% ni tashkil etadi ko'chib kelgan soni esa 4861 nafarni tashkil etgan. Migratsiya qoldig'i manfiy 1134 ta(2017-yili manfiy-391 kishi). Emmigratsiya va immigratsiya orasida farq ham huduning iqtisodiy va ijtimoiy qudrati haqida anchagina ma'lumotlarni berishi mumkun. Namangan viloyatidagi emmigrantlarning aksariyati chet elga pul topish maqsadida mavsumiy emmigratsiyani amalga oshiradi. Eng katta manfiy qoldiqlar Namangan shahrida (manfiy- 1358 kishi), To'raqo'rg'on tumanida (manfiy-161 kishi), Norin tumani (manfiy-161 kishi), Pop (manfiy-71 kishi) tumanlari hisoblanadi. Aholining emmigratsiya saldosinging yuqori ekanligi yuqoridagi tumanlarda aholini mehnat bandligi uchun sharoitning past darajada ekanligini anglatadi. Namangan shahrining o'zida korxonalar va kichik biznes subektlari ko'p degan fikr uyg'onishi mumkin, ammo Namangan shahri aholisining

soni va zichligini ham inobatga olish lozim.(2019-yilgi 1-yanvar oyidagi ma'lumotlarga ko'ra, aholi soni 612,2 ming kishi, Namangan shahrida 1 kv.km maydonga 4181,3 kishi to'g'ri keladi). Bu vaziyat mehnat bandligi uchun konkurensiyalarni kuchaytirib yuboradi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shunday deyish mumkinki, aholi sonining ko'p bo'lishi emmigratsiya va immigratsiya o'rtasidagi farqqa katta ta'sir o'tkazadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi bugungi kunda aholining barcha qatlamini qamrab olmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidan foydalanmaydigan tarmoq yoki tuzilma qolmadi. U qaysi sohaga bo'lmasin aloqador, uning faoliyatiga bevosita va bilvosita aralashib turadi, uning samaradorligini oshiradi. Namanganda so'ngi yillarida, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, mamlakat aholisining bandligini, daromadlarini va turmush sifatini oshirishning muhim yo'nalishlari va omillaridan biri sifatida xizmatlar sohasi va servisni jadal rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda mazkur soha muhim o'rinni egallamoqda. Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida, 2017 yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 5,0 foizga oshib, 5,1 trln.so'mgacha ko'paydi. Aholi tomonidan har xil turdagi xizmat ko'rsatish turlariga bo'lgan talabning doimiy o'sishi va davlat tomonidan ushbu sohaga aloqador infratuzilmalarni (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, ta'lim va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan amaliy choralar xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlanishini ta'minladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan xizmatlar ishlab chiqarishning kengayishi xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda. hizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish doirasida, tadbirkorlik sub'ektlariga, xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yangi tashkil etiladigan korxonalarni texnologik jihozlash uchun katta miqdordagi imtiyozli kreditlar taqdim etildi. Natijada, kichik tadbirkorlikning bozor xizmatlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi 73,7 foizni tashkil etdi. Kichik tadbirkorlarning xizmat ko'rsatish sohalarida ishtirok etishi ancha samaradorlikni oshiradi. Kichik go'zallik saloni yoki


oziq-ovqat do'konidan tortib 100 kishini ish bilan ta'minlay oladigan subektlarning chekka hududlarda ham tarqoq joylashishi xalq tili bilan aytganda „ Senter”lashuv jarayonini tezlashtiradi. Bu esa aholining ijtimoiy va iqtisodiy turmush darajasini oshiradi. Bu statistik ma'lumotlardagi raqamlarga qarab, hududlarning xizmat ko'rsatish sohasi bilan ta'minlanganlik darajasiga noto'g'ri baho berishdan qochish kerak. Chunki Uchqo'rg'on tumanida joylashgan „UzTexUchkurgan” Singapur-Buyuk Britaniya-O'zbekiston qo'shma korxonasi sanoqda bitta hisoblansa-da, uning ishchi sig'imi (1000dan ziyod ishchi) va mahsulot ishlab chiqarish qudrati boshqa korxonalarga nisbatan ulkan. Mazmunan korxonalar va tadbirkorlik subektlariga faqat xizmat ko'rsatuvchi deb qaramaslik kerak. Unga aholini mehnat bilan band qiluvchi muassasa sifatida ham qarash o'rinli. Aholi bandligi doimiy maosh va sifatli turmush sharoiti degani. 2018- yil dekabr- yanvar oyi o'rtalarida FXDYO organlarida 26449 nikoh 2508 ajralishlar soni qayd etilgan. Ming aholiga nisbatan 9,7 ta nikoh (2017-yilning tegishli davrida 9,8 tni) tashkil etgan va 0,9 ta ajralishlar (2017-yilning tegishli davrida -0.9 ta) to'g'ri keladi.

2018- yilda tuzilgan nikohlar va ajrashgan nikohlar soni

	Tuzilgan nikohlar 2017-yil	Tuzilgan nikohlar 2018-yil	Ajrashganlar soni 2017-yil	Ajrashganlar soni 2018-yil
Viloyat bo'yicha	26336	26449	2518	2508
Shaharlar:				
Namangan	5658	5733	578	546
Tumanlar:				
Mingbuloq	1087	1187	90	87
Kosonsoy	1897	1878	200	205

Namangan	1651	1629	166	158
Norin	1539	1551	166	184
Pop	1999	1975	197	250
To'raqo'rg'on	2249	2382	190	186
Uychi	2108	2127	166	170
Uchqo'rg'on	1631	1564	198	167
Chortoq	1861	1816	140	182
Chust	2511	2516	244	233
Yangiqo'rg'on	2145	2091	183	140

2017-yil 1-yanvar holatiga Namangan viloyatida 418 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari mavjud bo'lib, ularning soni nisbatan 2,6 foizga kamaydi. Shifoxona muassasalari soni esa 111 ta shifoxona muassasasi faoliyat yuritgan



bo'lsa, 2016-yilga kelib 3,6 foizga oshdi, ya'ni 115 tan tashkil etdi. Bu ko'rsatkich tumanlar bo'yicha ham 2016-yilga kelib ortgan. Shifoxona va oilaviy poliklinikala sonining ortishi aholi sonining ortishi bilan bog'liq.

Bu ko'rsatkichga qarab ularni to'liq tibbiy xizmatdan foydalanadi deb aytoilmaymiz. Umuman olganda baxtiyorlik indikatorini insonlarni sog'liqni saqlash tizimidan foydalanish darajasiga ko'ra emas ularning sog'lomlik va ilk marotaba shifokor xizmatidan foydalanganlik darajasiga qarab belgilasak to'g'riroq bo'ladi. Ushbu jadvalda bolalar va 18 yoshdan katta bo'lgan aholining sog'lomlik holatiga baho berishimiz mumkin. Aholi, inson eng avvalo ijtimoiy kategoriyadir. Ammo u ayni chog'da ham yaratuvchi, o'zi yaratgan

moddiy va ma'naviy boyliklarni iste'molchisi hamdir. Ma'lumki, inson dunyoga yashash uchun keladi, lekin yashash uchun ishlash kerak. Binobarin, oilada 5 kishi bo'lsa, uning faqat 2 nafari iqtisodiy faol bo'lishi mumkin. Biroq, bu ikki kishi ham barcha oila a'zolari qatorida iste'molchi, ya'ni ijtimoiy kategoriya hisoblanadi[4, 23 b]. Ijtimoiy turmush darajasi yaxshi bo'lishi uchun doimiy ish o'rniga va oilaviy ehtiyojini qondirishi uchun yetarli darajada oylik maoshiga ega bo'lishi lozim. Quyidagi jadvalda Namangan viloyatining oylik o'rtacha haqini ko'ramiz. Eng yuqori ko'rsatkichlarni Namangan shahri, To'raqo'g'on, Namangan, Uchqo'rg'on tumanlari qayd etgan. Umuman olganda viloyat aholisi anchagina yaxshi moliyaviy daromadga ega. Aholining maoshidagi o'zgarishlarda inflyatsiya darajasiga qarab o'zgarishini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Lekin so'ngi uch yil mobaynida oylik ish haqi sezilarli darajada ko'tarildi. Bu ham ma'lum bir ma'noda aholining o'z yurtida ehtiyojlari uchun mablag'topish imkonini beradi.

O'rtacha oylik hisoblangan ish haqi [6]

so'm

	2017 yil	2018 yil	2019 yil
Jami	1 139 469,7	1434526,4	1876802,8
Namangan sh.	1348467,0	1715121,9	2222373,4
tumanlar:			
Mingbuloq	992089,0	1215978,8	1576956,3
Kosonsoy	1102788,8	1429476,2	1749810,8
Namangan	1108923,2	1401552,0	1854334,0
Norin	1088431,5	1311882,7	1642164,7
Pop	994922,1	1211702,2	1712118,6
Turaqo'rg'on	1142221,9	1442812,6	1911344,7
Uychi	957524,5	1213670,0	1678377,9
Uchqo'rg'on	1090414,2	1381699,2	1833047,4
Chortoq	971646,7	1177388,1	1543538,6
Chust	932965,4	1150185,4	1431825,2

Yang'iqo'rg'on	1058499,6	1335541,9	1713978,0
----------------	-----------	-----------	-----------

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida Namangan viloyatining ijtimoiy turmush darajasiga yuqori baho bera olaman. Bu ma'lumotlarni biz mustaqil tarzda o'rgandik. Tuzib chiqqan kategoryalar bo'yicha Namangan viloyatining ijtimoiy turmush darajasi yoki „Baxt indeksini“ 80 foizni tashkil etdi. Bunga albatta turli geografik omillar va ijtimoiy-siyosiy omillar sabab bo'lgan. Agar aholining ijtimoiy hayoti shunday o'zgarishlarda davom etsa, viloyat o'n yildan keyin o'zining ijtimoiy turmush darajasini 10 foizga oshirishi mumkin. Kelajakda viloyatda ilm-fanni rivojlantirishni yuksalishiga turtki bo'ladi. Yirik investitsion muhit yaratish lozim. Viloyatda yuqorida ko'rganimizdek kichik tadbirkorlik subektlari kop. ularni xorijiy sarmoyalar negizida birlashtirish va yirik biznes tarmog'iga keltirish, shaharning urbanistik qiyofasini yangilash va zamon talablariga mos inshootlar barpo etish lozim.

Adabiyotlar:

1. The World Happiness Report journal 2018.04.20
2. M. Tillaboyeva; H. Vahobov Iqtisodiy geografiya asoslari 1-qism Toshkent 2001 yil „O'qituvchi“ 9bet;
3. ABDURAHM01N0V Q.X. ABDURAMANOV X.X. DEM OGRAFIYA «NOSHIR» Toshkent — 2011 yil 10-bet;
4. A. Soliyev R. Mahamadaliyev Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari Toshkent 2005 yil 23-bet;
5. Haydarov Murodulla „Namangan viloyati“ O'zME. N-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil;
6. www. Namstat.uz.

II-SHO'BA

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH

70230101-Lingvistika (o'zbek tili)

“OT” LMGİ ASOSIDA SHAKLLANGAN O`ZBEK XALQ MAQOLLARINING PRAGMATİK XUSUSIYATLARI (“OT KISHNAGAN OQSHOM” ASARI MATNI ASOSIDA)

B.Jo`rayeva,

BuxDU, filologiya fanlari doktori, professor

N.Ashurova,

BuxDU, Lingvistika (o`zbek)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada “ot” LMGiga aloqador o`zbek xalq maqollarning pragmatik funksiyasi Tog`ay Murodning “OT kishnagan oqshom” qissasi matni asosida tahlilga tortilib, maqollardagi lokutiv, illokutiv, perllokutiv aktlar mohiyati ochib berilgan.

Kalit so`zlar: pragmatika, nutqiy aktlar, intensiya, implikatura, diskurs, nutqiy vaziyat, pragmatik funksiya, maqol.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon tilshunosligida mavjud lisoniy nazariyalarni amalda qo'llash bosqichidan, ya'ni nazariy tilshunoslikdan amaliy tilshunoslik bosqichiga o'tildi. Natijada, inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq sotsiopragmatika, etnolingvistika, pragmalingvistika, pragmatika, psixolingvistika kabi bir qancha sohalar vujudga keldi. Bilamizki, nutqda so`zlovchning fikri bilan bir qatorda uning dunyoqarashi, olam haqidagi nazariyasi o`z aksini topadi. Muloqot jarayonining asosli, jonli va samarali chiqishi uchun inson o`z nutqida verbal va noverbal vositalardan foydalanadi, pragmatika esa ana shu nutqiy faoliyatdagi insonning ma'naviy olami, nutq ishtirokchilarining kommunikativ niyati, maqsadi kabi masalalarni o`rganadi.

Humbolt, Sosyur, Chomskiy, Boduen de Kurtene, Sherba kabi olimlarning ta'limotlari tilshunoslik fani doirasida yangi ilmiy paradigma– kommunikativ-pragmatik tahlil yo'nalishi yuzaga kelishiga sabab bo'ldi va ushbu yo'nalish uchun tayanch vazifasini o'tadi [1]. Pragmatik tahlilda ifodaning yashirin va oshkora ko'rinishi, nutqiy aktlar nazariyasi, muallif intensiyasi kabi tushunchalar asosiy o'rin egallaydi. Nutqiy akt- so'zlovchining aniq vaziyatda, konkret maqsadda, tinglovchiga munosabatidir. Nutqiy akt uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Lokutiv akt– aytilmoqchi bo'lgan fikrning talaffuz jarayoni.
2. Illokutiv akt– lokutiv aktda so'zlovchining maqsadi, niyatining voqelanishi.
3. Perlokutiv akt– so'zlovchi nutqining tinglovchiga ta'sir o'tkazish bosqichi.

Maqollar ham umumiy yashirin ma'no ko'rinishlarini yuzaga chiqaruvchi maxsus matnlar sifatida ajratiladi. Maqollarda ham so'zlovchi nazarda tutgan umumiy yashirin ma'no shakllari o'ziga xos tarzda bayon etiladi. Masalan, “Osmon yiroq, yer qattiq”. Ushbu matndagi yashirin ma'no hech narsaning iloji yo'q” mazmuni bilan namoyon bo'lib, bunday matnlar vositasi bilan oshkora tasvir inkor etilsa-da, biroq bu yashirin mazmun hamma nutq ishtirokchisiga tushunarli bo'lgani uchun umumiy yashirin ma'no deb ajratiladi [2]. Mazkur maqolada “ot” LMGiga aloqador maqollarning pragmatik xususiyatlari Tog'ay Murod asarlari matni asosida ochib berildi.

Oti borning — qanoti bor.

Lokutiv akt: Hovli chetida oxur qildim. Bo'zni shu oxurga bog'ladim. Onamiz norozi bo'ldi. Beti burishib-burishib og'rindi. Labini burib ming'illadi:

— Otim nimam... otdan mashina yaxshi... — dedi.

— Mashinam nimam? *Oti borning — qanoti bor*, — dedim [4,68]. **Illokutiv akt:** mashinadan ko'ra ot yaxshi, ot kishiga qanot bo'ladi, hamroh bo'ladi.

Perlokutiv akt: otni onasining gapiga quloq solmay hovli chetida bog'lasa, bola maqsadiga erishgan bo'ladi. **Pragmatik funksiya:** otdan voz kechmaslik.

Ot bitdi — qanot bitdi.

Lokutiv akt: — Otga yemish qani...

— Yemish? Xudo har jonivorni o'z rizqi ro'zi bilan yaratadi. *Ot bitdi — qanot bitdi* [4,68]. **Illokutiv akt:** jonsiz matohdan ko'ra, joni, yuragi bor bo'lgan, insonga

har doim hamroh bo'ladigan ot yaxshi. **Perlokutiv akt:** ot uchun yemish topish qiyin bo'lsa-da, uni olib qolsa, so'zlovchi o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. **Pragmatik funksiya:** otni o'ziga yaqin olish.

Otga minsang — boshingni o'yla, yerga tushsang — otingni o'yla.

Lokutiv akt: podachi darvozasi xiyla past bo'ldi. Oti mo'minlar ostonadan egarga enkayib o'tdi. Oti bog'liqlar yerga tushib, yetaklab o'tdi. Birodarlar, *otga minsang — boshingni o'yla, yerga tushsang — otingni o'yla!* Chavandozlar otlarini yalang'ochladi [4,73]. **Illokutiv akt:** ot juda chopqir jonivor, ustiga mingan odamni surgab chopqirlab ketishi mumkin, otdan tushgandan so'ng uni bog'lab qoyish lozim, chunki u adashib boshqa yerlarga ketib qolishi mumkin. **Perlokutiv akt:** yuqoridagi maqolda ifodalangan fikrga amal qilinsa, perlokutiv akt sodir bo'ladi.

Pragmatik funksiya: ehtiyot bo'lish.

Ot tepkisini ot ko'taradi.

Lokutiv akt: — Safar aka, — dedim. — To'rig'ingizni xolisroqqa oling, baraka toping.

— Hech nima qilmaydi, yer keng.

— Men yerni qizg'anmayapman. To'rig'ingiz tepong'ich, shuni o'ylayapman.

— Ko'ngilni keng qiling, *ot tepkisini ot ko'taradi.* [4,74]. **Illokutiv akt:** maqolni qo'llash orqali ot bir-biriga yaqin bog'lansa ham, zarar qilmaydi. Bir-birini tepib qo'ysa ham, hech narsa qilmaydi deyilmoqchi. **Perlokutiv akt:** matnda perlokutiv akt bosqichi amalga oshgan, Safar chavandoz suhbatdoshining qarshiligiga qaramay otni Tarlon oldiga bog'lab ketgan. **Pragmatik funksiya:** beparvolik.

Ot usti behisht, og'zi do'zax.

Lokutiv akt: Tarlon tuzni kapalab-kapalab yedi. Kaftimda oq qand tutdim. Tarlon qandni lablari bilan oldi. Qars-qars yedi. Endi so'yilgan qo'y quyruqini tuzlab-tuzlab berdim... Birodarlar, *ot usti behisht, og'zi do'zax* [4,72]! **Illokutiv akt:** ot ustida yurgan odam mazza qiladi, ammo ot juda nozik jonivor, unga har narsani yemish deb beravermaslik kerak, ot uchun yoqmaydigan yemish berilsa, otni nobud qilib qo'yishi mumkin. **Perlokutiv akt:** ot ham ko'p, ham sara oziq yeydi. Otning

shu injiqliklariga chidagan odam ot boqsa bo'ladi, shu xatti- harakatlar amalga oshsa, so'zlovchi maqsadiga erishgan bo'ladi. **Pragmatik funksiya:** ogohlantirish.

Ot — yigitning yo'ldoshi.

Lokutiv akt: — Yo, ot minib bosmachi bo'lmoqchimisani? Kechirib qo'lasan! O'zi, ajdodingda bosmachi o'tmaganmi? Bir tekshirib ko'rish kerak...

— Katta, unday demang. Otam bechora Sovet tuzumini deb qurbon bo'ldi. Otaga kelsam, *ot — yigitning yo'ldoshi*, katta. Qolabersa, ot bilan ko'pkari chopamiz [4,90]. **Illokutiv akt:** ot insonga ko'p foyda keltiradi. **Perlokutiv akt:** so'zlovchi kattaning fikrini inobatga olmay ko'pkarilarda ot choptirsa, perlokutiv akt bosqichi amalga oshgan bo'ladi. **Pragmatik funksiya:** hamrohlik.

Yolg'iz otning changi chiqmaydi, changi chiqsa-da, dong'i chiqmaydi.

Lokutiv akt: endigi uloqni men olib chiqdim. Otlar oldimni oldi. Yo'limni yopib chopdi, yonlarimni yopib chopdi. Otlar meni qoralikka yo'latmadi. Birodarlar, *yolg'iz otning changi chiqmaydi, changi chiqsa-da, dong'i chiqmaydi!* Alamimdan xunob bo'ldim. O'zimizning chavandozlarga baqirdim: — Jonlaring bormi?! Kelinglar-da endi [4,86]. **Illokutiv akt:** so'zlovchi yuqoridagi maqolni aytish orqali hamjihat bo'lib uloqda poyga chopish, g'alaba qozonishni maqsad qilgan. **Perlokutiv akt:** maqsadga erishib uloqda raqibga kuch bermay g'alaba qozondi. **Pragmatik funksiya:** birdamlikka chaqirish.

Xulosa. O'zbek xalq maqollari zamirida yashiringan semantik, pragmatik ma'nolar shu qadar xilma-xilki, bu maqollarning boy va qadimiy ildizga ega ekanligidan dalolat bersa, har bir maqolni o'z o'rniga qo'yib ishlata olish mahorati esa xalqimizning naqadar dono va so'zga chechan ekanligidan darak beradi. Maqollar kontekstdan ajratilgan holda ham nutqiy aktning bir necha bosqichini o'z ichiga olishi mumkin. Ammo uning birgina pragmatik funksiyasi aniq bir matnda yaqqol namoyon bo'ladi. Birgina maqol turli nutqiy matnda turli xil pragmatik ma'nolarni ifodalay oladi. Shuningdek, badiiy kontekstda kelgan bir maqol bir necha xil maqsadni va pragmatik funksiyani ifodalashi mumkin. Shuning uchun maqollarni pragmatik jihatdan tahlil qilish tilshunoslik uchun katta ilmiy yutuq hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти , 2008. –Б. 36.
2. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б. 90.
3. Абдуллаева Н.Э. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуонимик муносабатларнинг лингвопрагматик ҳусусиятлари. Монография. –Тошкент: “Нашриёт”, 2021. –136 б.
4. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 1-жилд. От кишнаган оқшом. - Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2008.
5. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари. –Тошкент: “Akademnashr”, 2019. –224 б.

O‘ZBEK TILIDA AYRIM TARIXIY MUROJAAT SHAKLLARI XUSUSIDA

Sh.R.Atoyeva

BuxDU, Lingvisitika (o`zbek)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan murojaat birliklari haqida , jumladan, undalma va murojaat shallarining o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari haqida so‘z yuritiladi Aytish lozimki, o‘zbek tilida qo‘llanilgan murojaat shakllari o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, maqolada ularning ,asosan, tarixiy shakllari badiiy asarlar misolida tahlilga tortiladi. Murojaat shakllarining qanday shaklga ega ekanligi bevosita adresant va adresatga bog‘liqligini alohida ta`kidlash lozim.

Kalit so‘zlar: murojaat birliklari, undalma, adresant, adresat, tarixiy murojaat shakllari, nutqiy vaziyat, vazifa, alohidalik, jarayon.

Inson ma’lum bir jamiyatda yashar ekan, atrofida bilgan bilan doimiy muloqotda bo‘ladi, albatta. Tabiiyki, suhbat jarayonida turli murojaat shakllaridan

foydalanamiz. Biz kundalik muloqotimizni murojaatsiz tasavvur eta olmaymiz. Murojaatlar ham yozma, ham og'zaki nutqimizda faol qo'llanganligi sababli uni o'rganish muhim sanaladi.

O'zbek tilshunosligida "murojaat" turli atamalar bilan nomlanadi: undalma[11], vokativ kategoriya[8], vokativ so'zlar, chaqiriq so'z, chaqiriq forma, chaqiriq kelishik, undash kelishik, murojaat terminlari[1], murojaat shakllari[2], murojaat ifodalovchi vositalar va murojaat so'zlar kabi

"Murojaat" atamasi mustaqillik yillarida faol qo'llanib kelinmoqda. Shu o'rinda "undalma" va "murojaat" terminlari orasidagi tafovutni aniqlab olishimiz lozim. Chunki bu ikki atamani ba'zan biri o'rnida boshqasini almashtirib qo'llash hollari kuzatilmoqda. Tadqiqotimizning ham maqsadi shundaki, undalma va murojaat shakli orasidagi o'xshash va farqli jihatlarni yechish. Bunda ushbu ikki atama haqida manbalarda berilgan ta'riflarni ko'rib chiqib qiyoslash orqali tadqiqotimizni davom ettiramiz. Shuningdek, maqolada tarixiy murojaat shakllarining badiiy asarlar misolida tahlilini ham olib boramiz.

O'zbek tilshunosligida undalma haqidagi dastlabki qarashlar A.G'ulomov asarlarida uchraydi.

O'zbek tilining izohli lug'atida esa undalmaga quyidagicha ta'rif berilgan: "So'zlovchining nutqi qaratilgan boshqa bir shaxs yoki predmetni bildiradigan so'z yoki so'z birikmasi". Xo'sh, **Temir Mardonov**, bu gapga siz nima deysiz? [10] 1944- yilda A. G'ulomov, Z. Ma'rufov, T. Shermuhammedovlarning "O'zbek tili grammatikasi" kitobi nashr qilindi. Bu darslikda undalmaga quyidagi ta'rif berilgan: "So'zlovchining nutqi qaratilgan, shaxsni yoki predmetni bildirgan so'zlar undalma deyiladi".

Shuningdek, 2019-yilda nashr qilingan 8- sinf ona tili darsligining 129-betida undalma haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiradi. Undalmalar ba'zan jonivorlar yoki jonsiz narsalarga ham qaratiladi: *Qarg'avoy, men seni yeyman. (Ertakdan) Seni unutilmas yuragim aslo, Ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo. (G'.G'.)*

O'z navbatida , 2010-yilda nashr etilgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 3-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan darslikning 93-sahifasida ham undalma haqida yuqoridagi ta'riflar takrorlangan. *So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalab, gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan so'z yoki so'zlar birikmasiga undalma deyiladi.* Badiiy nutqda esa shaxs bildirmaydigan jonli va hatto jonsiz predmetlar ham undalma vazifasida kelishi mumkin. Masalan, *Qani, ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilkalaysan, bag'rimni, ohang* (A. Oripov).

Oliy ta'limdagi talabalarga mo'ljallangan R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva va boshqalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (Toshkent,2009, 376-bet.) darsligida undalmaga quyidagicha ta'rif berilgan: So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs, predmetni ifodalovchi so'zshakl.

Yuqoridagi izohlardan ko'rinib turibdiki, undalma so'zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi va bu ma'lum nutq vaziyatidan kelib chiqadi. Tadqiqotchi M. Qodirova o'zining ilmiy ishida D. E. Rozentalning tilshunoslik terminlari izohli lug'atida esa "murojaat" quyidagicha izohlangan: "Murojaat nutq yo'naltirilgan shaxs yoki narsani nomlash uchun qo'llanadigan ism, olmosh, otlashgan sifat yoki ularga teng keladigan ibora" deya aytib o'tadi[4]

O'zbek tilining izohli lug'atida "murojaat" so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

- 1) ko'rib chiqish , taqqoslash;
- 2) biror narsa so'rash, ishni qayta ko'rish;
- 3) birovga qarata aytilgan gap,qilingan da'vat,chaqiriq[10].

Tadqiqotchilardan S. Mo'minov, M. Sulaymonov, N. Ahmedova, Sh. Iskandarova, Z. Akbarovalar o'zlarining ilmiy ishlarida undalma va murojaatning umumiy va farqli tomonlari, ifodalash usullari haqida ma'lumot berib o'tishgan. Tadqiqotchi Z.Akbarova undalma va murojaatning farqli va o'ziga xos tomonlarini yoritish ekan ,murojaat ifodalovchi so'z ham mohiyatan grammatik aspektda yondashilsa, u undalmaga to'la mos tushadi degan fikrni aytib o'tadi. Lekin mazmunan murojaat obyektini ifodalovchi so'z murojaat shakli sifatida , so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsnigina emas, har qanday obyektini ifodalaydi.

Bundan ko'rinadiki, murojaat shakllari undalmaga nisbatan kengroq tushunchani ifodalaydi. Demak, murojaat shakllari adresant va adresat orasidagi muloqotni vujudga keltirish bilan birga, kommunikantlarning o'zaro munosabati, yoshi, jinsi, hurmati, shuningdek, muloqot shakllangan davr(zamon) va o'sha paytdagi ijtimoiy muhit, makonni ham o'zida aks ettiradi. Eng qizig'i murojaat shakllarida har bir xalqning milliy madaniyati o'z aksini topadi.

So'zlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday o'rin tutishi, yoshi, jinsi, lavozimi, kasb-koriga qarab murojaat shakllari o'zgarib boraveradi. "Murojaat birliklari kundalik hayotimizda nutq faoliyati, nutq jarayonida keng qo'llaniladigan, o'zaro aloqa-aralashuvga xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turlicha konnotativ ma'nolarni, semantik "ohanglarni" tashiydigan o'tkir ta'sirchan vositadir"[2]

Murojaat shakllari evolyutsion xususiyatga ega. Qadimgi yozma yodgorliklarimizga nazar soladigan bo'lsak, murojaatning bir qancha shakllarini ko'rishimiz mumkin. Har bir davrda turlicha ko'rinishlarda aks etgan. Jumladan, bugungi kundagi chaqiriq tarixiy murojaatdan farqlanadi. Yuqorida aytib o'tilgan ma'nolardan "birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq" ma'nosini so'zlovchi va tinglovchi nutqida qanday tarixiy shakllarda namoyon bo'lishini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ey farzand, senga zamon sitamining qo'li yetmasdan burun hushing quloqi bila ikki jahonda nom chiqarg'il (Kaykovus.Qobusnoma.Toshkent:Yangi nashr,2019. 7-bet). Ey tojir,sen bir tanganing ustida erta tongdin peshing'acha nizo qilursa, o'zga tojirlar bundoq qilma erdilar (Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent: Yangi nashr, 2019.14-bet).

Ma'lumki, Kaykovusning "Qobusnoma" asari pand-nasihat,didaktik ruhdagi yozma yodgorlikdir. Bunda "Ey,farzand", "Ey,tojir" umumiy ma'nodagi murojaat shaklini ifodalayapti. Asardagi murojaatlarning aksariyati gap boshida keltirilib, chaqirish, da'vat etish ma'nolarida qo'llangan. Shuningdek, hikoyatlarning birida keltirilishicha, Cho'pon dedi: "Ey xo'ja, men senga necha bor: Sutga suv qo'shmagil, oxirini o'ylagil, dedim " (Kaykovus.Qobusnoma.Toshkent:Yangi

nashr,2019.151-bet). Bu misolda esa “Xo‘ja” xo‘jayin , sohib ma’nolarida kelyapti. Bundan tashqari, O‘zbek tilining izohli lug‘ati orqali bu so‘zning turli ma’nolarini bilib olishimiz mumkin. Jumladan, 1 –eski. Biror kimsaning yoki narsaning egasi, xo‘jayin, 2-tarixiy. O‘zlarini choryorlarning avlodlari deb hisoblovchi musulmonlarning faxriy nomi. 3-etno. O‘rta Osiyoda ilgari ma’lum imtiyozga ega bo‘lgan oqsuyaklar va ularning avlodlari. 4-Xo‘jazoda erkaklar ismiga qo‘shiladi[10].

Saroy muhitidagi tarixiy murojaat shakllarining aksariyatida o‘sha shaxsning mansabi, lavozimi hattoki qaysi urug‘ga mansubligi ham ifodalangan. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida ham tarixiy murojaat shakllarining go‘zal namunalarini uchratamiz. Qutlu‘ Nigor xonim bolalar oldida qilingan bu kinoyadan ozorlanib:

-Qo‘ying, og‘a oyi. Bu begimda ayb yo ‘q! - dedi. (P.Qodirov.”Yulduzli tunlar”.Toshkent:G‘afur G‘ulom, 2018.29-bet.) Bunda “Og‘a oyi”, ya’ni katta oyi ma’nosida kelyapti.Fotima Sulton Umarshayx mirzoning birinchi xotini bo‘lgani uchun Qutlug‘ Nigor xonim unga shu tarzda murojaat qiladi.

Saroydagi tarixiy murojaat shaklida hukmdorlarga murojaat uning qarindoshligi,mansabiga qarab ham farqlanadi,darajalanadi. Jumladan, ahli oilasi hazratim tarzida murojaat qilgan.

-Hazratim, men munglig‘ qizingiz, sizga xudodan Shayx Sa’diyning umrini tilaymen!(O‘sha asar.34-bet).

Aksincha, hukmdorlar esa qo‘l ostidagi mulozimlariga “Janob” deyishgan.

-Janob Qosimbek, bizning navkarlarimizga siz bosh bo‘ling!(201-bet).

Ba’zi bir tarixiy murojaat shakllari esa bugungi kunda iste’moldan chiqib istorizmlarga aylanib ketgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, murojaat ifodalovchi so‘z ham mohiyatan grammatik aspektda yondashilsa, u undalmaga to‘la mos tushadi. Lekin mazmunan murojaat obyektini ifodalovchi so‘z murojaat shakli sifatida so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxsnigina emas, har qanday obyektini ifodalaydi. Bundan ko‘rinadiki, murojaat shakllari undalmaga nisbatan kengroq tushunchani

ifodalaydi. Shuningdek, tarixiy murojaatlar ham bugungi kun tilshunosligi uchun muhim sanaladi. Zero, tarixiy murojaat shakllarida o'ziga xos bo'lgan milliy madaniyatimiz va boy tariximiz o'z aksini topgan.

Adabiyotlar

1. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konotativ tadqiqi. Filol.fan.nomdiss. – T., 2008.
2. Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2007.
3. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.:, 1989.
4. Qodirova M. Turli tizimli tillarda murojaatning kommunikativ-pragmatik aspekti. Filo.fan. nom. ...diss. – T., 2021
5. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. O'zbek tili va adabiyoti. 1983, №1.
6. Rasulova Q. O'zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi. Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2008.
7. Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T , 2007
8. O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya.-Toshkent:Fan,1972.
9. O'rinboev B., Qong'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning tahlili. Toshkent: O'qituvchi , 1991. – 216 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti.-T.:2007
11. G'ulomov A, Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Sintaksis.-Toshkent:O'qituvchi,1987.-B. 150.
12. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. T., O'qituvchi, 1983.

O'ZBEK TILINING JONDOR SHEVASI

M. Sh. Boltayeva

BuxDU, Lingvistika

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu axborotda hozirga qadar tadqiq etilmagan o'zbek tilining Jondor shevasiga xos xususiyatlar tahlil etilgan. Tahlil uchun tumanning Xumin, Do'qqi qishloqlarida yashovchi aholi nutqidagi shevalari elementlari olingan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, shevashunoslik, sheva, lahja, me'yor, adabiy til, Jondor, Xumin, Do'qqi.

Adabiy tilimizni boyitish va uning taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun, avvalambor, shevalarga nazar solishimiz kerak. Adabiy til me'yorlarining tobora takomillashib borishi, ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti, san'at rivoji, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatning tenglashib borishi kabi ijtimoiy hodisalar bilan uzviy bog'liq holda shevalar ham asta-sekin adabiy tilga yaqinlashib boradi. Ammo bu jarayon uzoq muddatni o'z ichiga oladi.

Tilimizning shevalarini o'rganish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu jarayon "Devoni lug'otit turk" asari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu asar o'z sahifalarida sheva, lahja tushunchalarining ilk tavsifi va tasnifini muhrlagan. Bu holat asarning shevalarni o'rganishdagi ahamiyatini yanada oshiradi [1].

Shevalar adabiy tilimizni boyishida hamda taraqqiy etishida juda katta hissa qo'shadi. Ushbu shevaga xususiyatlarni tahlil etar ekanmiz, ko'plab qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Buxoro shevasini tadqiq etish harakati M.Mirzayev faoliyati bilan bog'liq. Olimning "O'zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari" nomli doktorlik dissertatsiyasi [2] bu boradagi ilk monografik tadqiqot sanaladi. Ushbu tadqiqotda Buxoro viloyati (jumladan Jondor tumani ham) shevasi tahlil etilgan. M.Mirzayev Buxoro dialektining qarluq lahjasiga oid ikki tilli va bir tilli shevalarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlarini atroflicha o'rgangan [3].

Buxoro viloyati hududidagi shevalar turli-tuman bo'lib, ular, asosan, o'zbek tilining qarluq chigil-uyg'ur lahjasi, shuningdek, qipchoq, o'g'uz lahjalariga mansubdir.

Biz ushbu axborotda Jondor tumani Xumin va Do'qqi qishloqlari aholisi nutqidagi ayrim lug'aviy birliklar hamda ularning mavzu guruhlarini ajratamiz.

Ushbu hududlarning sheva elementlari bir qancha mavzu guruhlariga ajratilishi mumkin:

1. Oshxona anjomlari:	
Go'shkavak (go'shko'bak)	go'sht qiymalash uchun ishlatiladigan kunda (asosan, gujum daraxtidan tayyorlanadi)
Oftova (choyjo'sh, tanqa)	qumg'on (suv qaynatish uchun idish)
Po'stak, supra	Xarim yoyish, non yasash uchun oshlangan teridan tayyorlangan buyum
Qo'ra	temirdan yasalgan o'choq
Shevan	xamirni yoyish uchun ishlatiladigan taxta
2. Taom nomlari	
Brinjova	gurunch qo'shib tayyorlangan suyuq ovqat
Biqqi	Pomidordan tayyorlangan tuzlama
Chakalak	bo'g'irsoq
Bichak	xamirni orasiga ismaloq solib tayyorlanadigan taom
Kadioshi	xamirni yoyib orasiga qovoq solib suvda qaynatiladigan taom
Obiro'g'an	oshni guruch solingunga qadar tayyorlash jarayoni
Piyoba (piyova)	piyoz bilan suvdan tayyorlanadigan taom
Bepirri (sambo'sa)	xamirni ichiga kartoshka solib, qovurib tayyorlanadigan taom
Tokoshi	do'lma
Unoshi (laxchak)	xamirli taom
3. Hayvon nomlari	
Gechchi	echki
Go'sala	sigirning bolasi
Inak	sigir
Mo'rcha	chumoli

Pishak (pishik)	mushuk
Sarka	Yirik echki
Vo‘jak (ho‘jak)	sigirning bolasi
O‘g‘loqcha	echkinging yangi tug‘ilgan bolasi
4. Shaxs xususiyatini ifodalaydigan birliklar	
Jilli	jinni
Jiltoqi	yengiltak
Majji (chakak, manag)	ko‘p gapiradigan odamga nisbatan ishlatiladi
Sumsuk	daydi
G‘undi	kam gapiradigan odamga nisbatan ishlatiladi
Napsi suyuq	ochko‘z
Qo‘li yopishgan	ishyoqmas
5. Meva va sabzavotlar	
G‘o‘lin	turshak, quritilgan o‘rik
Zaldori	o‘rik
Kadi	qovoq
Japazak	olmaning eng birinchi pishadigan turi
Boyimjon	baqlajon
Oli-boli	olxo‘ri
Gurdoli	qaroli
6. Marosim nomlari	
Gavorabandon	tug‘ilgan chaqaloqni beshikka boylash marosimi
Jomapo‘shon	to‘yda to‘n kiyish marosimi
Mushkulkushod	faqat ayollar ishtirokidagi marosim
Raxtzanon	nikoh to‘yi kuni ko‘rpa yig‘nash marosimi
Sarsho‘yan	to‘ydan keyin bosh yuvish marosimi
Challadi (challoq, challori, talbon)	yangi kelinni qarindoshlar o‘z uylari bilan tanishtiradigan marosim

Ma'lum bo'ladiki, Jondor tumani aholisi tilida turli lahjalarga oid elementlar uchraydi. Ularning yana ko'plab ma'no guruhlarini ajratish mumkin. Masalan, iboralar, o'yinchoq nomlari (qavuqcha, to'ppi, zocha, zochak), kasallik nomlari (donacha, go'mijja, semiratki, yalama), kiyim-kechak nomlari (ichik, ichikcha, jilob, kamzul, kalapo'sh, lachak, mo'kki), tikish-bichishga oid so'zlar (abrastar, laganda, lablo'ba, mag'iz) va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan jadval sheva so'zlarining izohini beruvchi maxsus lug'at namunasi hisoblanadi. Bugungi kun shevashunosligi oldida xalq tilida qo'llanadigan lug'aviy birliklarning izohli, imlo va etimologik lug'atlarini tuzish, ularni ommalashtirish kabi vazifa turibdi. Uning amalga oshirilishi, nafaqat shevashunoslik, balki tlshunoslik, qolaversa, arealogiya uchun ham ahamiyatlidir.

Adabiyotlar:

1. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. –Т.: Ўқитувчи, 1996.
2. Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари: филол.фанл.докт.диссер... –Т., 1969. – 461 б.
3. Мирзаев М. Бухоро диалектининг морфологик хусусиятларига доир. – “Ўзбек тили ва адабиёти масалалари”, 1964, 2-сон.

TOHIR MALIKNING “MURDALAR GAPIRMAydi” ASARIDA QO'LLANGAN METAFORALARING O'RNI VA PRAGMATIK TAHLILI

Sh. Niyozov,

BuxDU, Lingvistika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada adib Tohir Malikning ‘‘Murdalar gapirmaydi’’ asarida qo'llanilgan metaforalar lingvistik va pragmatic jihatdan tahlil qilingan. Ma'no ko'chish turlaridan biri bo'lgan metaforalar haqida nazariy jihatdan ma'lumotlar berilgan va misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'no ko'chish turlari, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, tag ma'no, kinoya, nomsiz narsaga nom berish.

Ma'lumki, so'zlar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noni ham anglatadi. So'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda predmet- hodisalarni atabgina qolmay, o'sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Ko'chma ma'no tildagi so'zlarning o'z ma'nosi negizida vujudga keladi. Ko'chma ma'noli so'zlar so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarda qo'llaniladi. So'zlarning ko'chma ma'nosi faqat matn (konteks) tarkibida reallashadi. Biz ushbu maqolada atoqli adib Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydi" asarida qo'llanilgan metaforalarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Yozuvchi asarlarida metafora, sinekdoxa, o'xshatish, vazifadoshlik, metonimiya, kinoya, ramz va boshqa tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Adib asarlarida keng qo'llanilgan ma'no ko'chish usullaridan biri metaforadir. Dastavval metafora o'zi nima va u qanday usullar bilan hosil qilinadi degan savolga javob berib o'taylik. Metafora – grekcha "metaphora" so'zidan olingan bo'lib, ko'chirma, ko'chirish degan ma'nolarni²⁴ anglatadi. Metafora so'zni ko'chma ma'noda qo'llashning bir turidir. Metaforada ma'lum bir narsa yoki voqea - hodisaning biror jihati yoki ayrim belgisi bilan boshqa narsa yoki voqea-hodisaning o'xshashligi aniqlanadi.

Metafora yo'li bilan ma'no ko'chirishning asosiy ko'rinishlari quyidagicha bo'ladi²⁵:

1. Bir narsaga xos harakatning nomi boshqa bir narsa harakatiga ko'chiriladi:

Oqibatda Tursunalining ildizlari chopildi-yu, sovxoz direktorligidan raykom sarkotibligiga o'taman, deb niyat qilib turgan odam egniga mahbuslarning paxtalik kalta choponini kiyib, uzoq sovuq o'lkadagi daraxt kesuvchilar safida o'zini ko'rdi

2. Bir narsaga xos belgining nomi boshqa bir narsadagi belgiga ko'chiriladi²⁶:

Tursunali ana shu og'ir dard tog'ini yelkasiga ortgan holda o'ringa cho'ziladi, sahar chog'i shu yuk bilan qaddini rostlaydi

Berilgan gapda "totli", "yuziga" va "parda" so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanilgan.

²⁴Tohir Malik. Murdalar gapirmaydi. Toshkent. 2006

²⁵Y. Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 1969

²⁶U. Tursunov., A. Muxtorov., Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 1992

Tuzini yeb tuzlig'iga tupurganlarni la'natladi.

Hozircha , Nafisaning birinchi tunda shivirlab aytgan “Munchalar yaxshi ekansiz”, degan gapi qulog'i ostida turibdi.

Bu Pachoqburunning so'xtasi bunchalar sovuq bo'lmasa.

Xohish chaqmog'i so'nib , joni ko'ziga ko'ringach, o'zini tiydi.

Xatga ko'z yugurtirgan Tengizning yuragi battar siqildi.

Ammo Tverga borgach, yana bir yarim yilni bo'ynimga ilishdi.

Yuqorida berilgan misollardagi “tuzini yeb tuzlig'iga tupurmoq”, “qulog'i ostida turmoq”, “so'xtasi sovuq”, “joni ko'ziga ko'rinmoq”, “ko'z yugurtirmoq”, “bo'yniga ilmoq” birikmalari ibora bo'lib, mantiqan bir- biriga bog'lanmaydi, ammo mana shu nutq sharoitiga mos bo'lgan iboralar orqali ham metaforik ma'no yuzaga kelgan. Masalan, tuzini yeb tuzlig'iga tupurganlarni la'natladi, jumlasida qo'llangan ibora orqali ifodalangan metaforik ma'no o'z vaqtida manfaat va yaxshilik ko'rgan odamiga yomonlik va dushmanlik qilish ma'nosini bildirish uchun xizmat qilgan. Metaforalarni qanday holatda va qaysi o'rinda ishlatish ham adib Tohir Malikning o'ziga xos ijodiy qobiliyati hisoblanadi. Agar metaforalar iboralar bilan ifodalansa, kitobxonning diqqatini darhol o'ziga jalb qiladi. Asardagi pragmatik ko'rinishlarning sirliligi, g'ayritabiiyligi, “noto'g'riligi” badiiy asar matnida lisoniy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, Tohir Malik asarlaridagi g'ayritabiiylik va jonli metaforalar qahramonlarning ruhiy holati personajlarning voqelikka munosabatini ta'sirchan ifodalash, voqea-hodisalarni yorqin va ishonarli tasvirlashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Tohir Malik. Murdalar gapirmaydi. Toshkent. 2006
2. Y.Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 1969
3. U.Tursunov., A.Muxtorov., Sh. Rahmatullayev. Hozirgi ²⁷ o'zbek adabiy tili. Toshkent. 1992

TILSHUNOSLIKDA LINGVOPOETIK TAHLIL

M. Rustamova

BuxDU, Lingvistika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu axborotda lingvopoetika xususida soʻz boradi. Unda lingvopoetika borasida jahon va oʻzbek tilshunosligida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar xususida fikr yuritiladi. Lingvopoetikaning asosiy maqsadi ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: lingvopoetika, jahon tilshunosligi, oʻzbek tilshunosligi, badiiy matn, lingvopoetik tahlili.

Tilshunoslik va badiiy adabiyot bular ikkalasi ham bir-biriga chambarchas bogʻliq tushunchalardir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborotni tashuvchi, insonlar orasida aloqa aralashuvi boʻlib qolmay, balki tinglovchiga taʼsir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Bizningcha, tilning birinchi vazifasi muloqot jarayoni uchun material vazifasini oʻtash boʻlsa, ikkinchi tomondan nutq ishtirokchilariga taʼsir qilishdir.

Lingvopoetika lingvistika va poetikaning qisqargan shakli boʻlib, badiiy asarlarda qoʻllanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va b.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ vazifalarini oʻrganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni oʻrganuvchi boʻlimidir. Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaldi.

Lingvopoetika borasida jahon tilshunosligida koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Badiiy asar tiliga kategorial yonadashuvning shakllanishi badiiy soʻzni ijodning shakl va mazmun xossalari birligida oʻrganishga harakat badiiy asarni estetik va falsafiy nuqtayi nazardan tushunish uchun asos boʻldi. Jumladan, G.E.Lessing, F.Shiller, Gumboldt, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, V.Ya.Zadornova, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba va boshqalarning ishlarida lingvopoetika masalalari ochib berildi.

A.Xolodovichning «Adabiy til uslubshunosligi», «Poetikada lisoniy usul» asarlarida, nemis olimi E.Koseriuning poetik tilning yangi izohi kabi

tushunchalarida, fransuz tilshunoslari D.Delas va J.Fiyollarning lingvistika va poetika bo'yicha yangi qo'llanmalarida, Ye.B.Artemenkoning lingvofolkloristika bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida lingvopoetikaning filologiya ilmida alohida fan sifatida o'rganilishi yuzasidan qarashlar bayon qilingan. Zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiqi bilan shug'ullangan olimlardan biri A. Lipgardir [1]

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi o'zining davrning dolzarb muammolarini aks ettirayotgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, badiiy asarlar, yetuk ijod namunalarini lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilish, o'rganish, baholashni yo'lga qo'yish bugungi o'zbek adabiyotining muhim vazifalaridan biridir.

Sh.Shoabdurahmonov, B.Turdialiyev, B.Bafojev, Q.Samadov, L.Abdullayeva, I.Mirzayev, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, M.Yo'ldoshev, B.Umurqulov, G.Muhammadjonova, R.Normurodov, M.Yoqubbekova, D.Shodiyeva, G.Jumanazarova, D.Andaniyozova kabi tadqiqotchilar tomonidan she'riy va xalq og'zaki ijodiga oid nasriy asarlar lingvistik, lingvostilistik, lingvopoetik jihatdan tahlil etilgan [2, 6]

Bu yo'nalishda o'zbek tilshunosligida ham bir qancha monografiya va dissertatsiyalar, ilmiy maqola va tezislar yaratilgan. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.Yo'ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko'rsatadi: 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv; 2) makon va zamon birligidan kelib chiqish; 3) umumxalq tili va adabiy til munosabati asosida baholash; 4) badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv; 5) badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash; 6) badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash; 7) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash [3].

Tadqiqotchi lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardan ekanligini alohida ta'kidlaydi, chunki bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish

mumkin. Chindan ham, badiiy matnning estetik qimmatini bevosita belgilash va baholashda ayni shu tamoyil qulay va boshqa tamoyillar asosida ish ko'rishda ham zamin vazifasini bajarishi mumkin.

Bundan tashqari, N.Mahmudovning bir qator maqolalarida ayrim shoir-yozuvchilar asarlari tilining lingvopoetikasi tadqiq etilgan. Badiiy asar tili, xususan, lingvopoetikasi masalalari bilan taniqli tilshunos B.Yo'ldoshev va Z. Shodiyevalarning ishida [4] bir qadar keng yoritilgan. L.Djalalova [5] tadqiqotida ham badiiy asardagi til shakllarini lingvopoetik tahlil qilgan.

Badiiy matni to'g'ri filologik talqin tahlil va idrok etish, undan maksimal estetik zavq va axborot olish malakasiga erishishda lingvopoetika asosiy omildir. Shuning uchun ham I.Mirzayev haqli ravishda ta'kidlaganidek, "... lingvopoetika bugungi kunda filologiyaning yaxlitligini tiklashi mumkin bo'lgan soha deb e'tirof etilayotgan ekan, uning maqsad hamda vazifalarini, tadqiqot obyektini boshqa tarmoq fanlari bilan munosabatini aniqlab olish va bu yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish kerak... Bu sohadagi tadqiqotlarni ko'paytirish va kuchaytirish zaruriyati keyingi yillarda filologiya ilmining eng dolzarb vazifalaridan sanalmoqda" [6],- degan edi.

O'zbek tilshunosligida lingvopoetikaning oyoqqa turishida va rivojlanishida X.Doniyorov, S.Mirzaev, Q.Samadov, I.Qo'chqorto'ev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzaev, M.Yo'ldoshev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi. Ular badiiy asar tilining stilistik, badiiy-estetik jihatlarini yozuvchining so'z tanlashi, uning o'ziga xos tili, umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, yangi so'z va iboralar yaratishi kabi omillar nuqtayi nazaridan tekshirdilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tilshunosligida ham lingvopoetika mutaxassisligi bo'yicha ahamiyatli izlanishlar mavjud. Bu boradagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlariga doir umumiy muammolarni hal etish lozim.

Adabiyotlar:

1. O'ralova Ch., Boymatov S. Zamonviy tilshunoslikda lingvopoetika taqdiqi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences

VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423.

2. Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоэтикаси. Филол.фанл.фалс.докт...(PhD) диссер.автореф. –Қарши, 2020. –Б.6.
3. Ҳо'ldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.dokt...dis. –Toshkent, 2009. –B.34.
4. Ҳо'ldoshev B., Shodiyeva Z. “Ufq” trilogiyasining lingvopoetik tahlili masalalari. – Samarqand: SanDU, 2006.
5. Джалалова Л. Абдулла Кодирийнинг “Ўтган кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол.фанл.номз.диссер... –Т., 2009.
6. Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни//Тилшуносликнинг долзарб масалалари (ЎзМУ илмий мақолалар тўплами). –Т.: Университет, 2002. –Б.22.

TINISH BELGILAR PARADIGMASI

Sh.Sh.O`dayeva,

BuxDU, lingvistika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`zbek tilida tinish belgilar sistemasi va ularning o`ziga xos xususiyatlari haqida so`z boradi. Tinish belgilarining gapda qo`llanilishi ularga mazmuniy jihatdan tugallik berishi bilan birgalikda ularning mohiyatini tubdan o`zgartirib yuborishga ham xizmat qilishi mumkin. Tinish belgilari paradigmasining o`rganilishi tilshunosligimizdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, orfoepik jihatdan ularning tadqiq etilishi ohangning to`g`ri yo`nalishga solinishiga xizmat qilsa, orfografik jihatdan esa imlo qoidalariga to`liq amal qilinishiga yordam beradi.


Kalit so`zlar: tinish belgi, paradigm, orfografiya, ohang, muammo, mazmun o`zgarishi, tugallik, sistema.

Barchamizga ma`lumki, tilshunoslik sohasi bugungi kunda rivojlanib borayotgan keng tarmoqli soha hisoblanadi. Aytish joizki, uning “bag`rida”

shakllanib borayotgan har bir tilshunoslik bo`limi o`zining taraqqiyot va rivojlanish darajasiga ega. Xususan, bu borada punktuatsiya, ya`ni tinish belgilarini o`rganuvchi fan sohasiga to`xtaladigan bo`lsak, uning hozirgi o`zbek tilida naqadar muhim ahamiyat kasb etishiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Sababi, tinish belgilarining gap mazmunining anglashilidagi ahamiyati kattadir.


Tinish belgilari ham salmoqli paradigma hisoblanadi[1]. Uning paradigm ekanligini hisobga oladigan bo`lsak, tinish belgilarini ma`lum guruhga ajratishda umumiy va xususiy vazifa paradigmalarga ajratishimiz maqsadga muvofiq vazifa hisoblanadi.

Tinish belgilari paradigmasining guruhlanishi (1-chizma).



Har ikki guruhning ma`lum vazifa bajarishi , ularning nomlaridan ko`rinib turganidek, gapda hosil qiladigan mohiyatiga ko`ra tavsiflanadi. Tinish belgilari paradigmasining umumiy vazifasi deganda ularning gapning ma`lum bir ma`noni anglatishi uchun, ulardagi ohang, tartibni ta`minlab berish uchun xizmat qiladigan vazifasi anglashilsa, xususiy vazifa deganda har bir tinish belgisining (o`zbek tilida 10 ta tinish belgisi mavjud) o`ziga xos gapda bajaradigan xususiyati nazarda tutiladi, masalan, nuqta gapni tugatish vazifasini bajarsa, so`roq belgisi gapda so`roq ohangi va so`roq mazmunini yuklashga xizmat qiladi[4].

Bundan tashqari, tinish belgilari paradigmasini nazarda tutganda, ularning o`z ichida yana bir paradigmatic munosabat hosil qilish mumkin bo`ladi, ya`ni har bir tinish belgisining bajaradigan vazifasi unga tegishli bo`lgan paradigma hisoblanishi mumkin, xususan, nuqta tinish belgisiga to`xtaladigan bo`lsak, ushbu belgi bajaradigan vazifalarni bir paradigma birliklari sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq vazifa hisoblanadi[4]:



Demak, yuqorida qayd etilgan vazifalar nuqta tinish belgisining paradigmatic munosabatdagi birliklari hisoblanadi, ya'ni ba'zi hollarda umumiylik kasb etsa, ba'zi hollarda ular o'rtasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi.

Har bir tinish belgisining o'ziga yarasha tarixi va gapda bajaradigan o'rni mavjud bo'lib, xususan , so'roq belgisining yuzaga kelish tarixiga nazar tashlasak. So'roq belgisi xalqaro tilshunoslik jamiyatida “U+003F” kodi ostida “?” belgisi yordamida ifodalanadi. Ushbu so'roq belgisining paydo bo'lishi yorqlik Alkuin nomi bilan bog'liq bo'lib, unga Lin Truss quyidagicha ta'rif beradi: “o'ngdan chapga urilgan chaqmoq”. Uning kelib chiqishini ba'zi olimlar musiqiy notalar yoki qisqartmalarni ifodalovchi belgilar bilan bog'laydilar. O'rta asrlarda esa tovush balandligini ifodalovchi ushbu element hozirda punktuatsion belgi vazifasini bajarmoqda. Uning gapdagi vazifasi so'roq ma'nosini yuzaga keltirish bo'lib, so'roq ohangi mavjud har qanday gapning oxirida ushbu tinish belgisidan foydalaniladi. Shu kabi qolgan tinish belgilarining ham o'z tarixi, qo'llanilish o'rni mavjud[5].

Shu o'rinda tinish belgilarining og'zaki va yozma nutqdagi ahamiyatini ham ta'kidlash lozim. Bir savol tug'ilishi tabiiy: og'zaki nutqda tinish belgilari ishlatilmaydi-ku? To'g'ri, og'zaki nutqda tinish belgilari qo'llanilmasligi mumkin, biroq ohang tinish belgilari bajaradigan vazifasini o'ziga yuklab oladi. Matn o'qilishida ham kontekstda qo'llanilgan tinish belgilari og'zaki aktda ohang yordamida o'zining yorqin ifodasini topadi. Orfografik jihatdan esa punktuatsion belgilar juda ham ahamiyatli sanaladi. Sababi, tinish belgilarining matnda noto'g'ri qo'llanilishi imloviy xatolikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Xulosa sifatida ta'kidlashimiz mumkinki, tinish belgilari tilshunosligimizning muhim qismi hisoblanadi. Ularsiz gapdagi ma'noning anglashilishi murakkab masalaga aylanadi. Inson suv bilan tirik bo'lgani kabi, matnlar ham, jumlar ham tinish belgilari ila "hayot".

Adabiyotlar:

1. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. Toshkent, 1976.
2. Nazarov K. Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora – imlo qoidalari. T, 1996.
3. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.2006
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.
5. www.wikipedia.org
6. www.hozir.org
7. www.kitobdunyosi.uz
8. www.google.com

5-6 SINF ONA TILI DARSLARIDA ZOOLOGIYA MAVZULARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Jo'rayeva Ch.B,

BuxDU, lingvistika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-6-sinf ona tili darslarida zoologiya mavzularidan foydalanish usullari haqida so'z boradi. Aytish lozimki, ushbu ikki fan birlashuvini dars jarayonida amalga qo'llash amalga oshirilayotgan ta'limning yanada qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. 5-6-sinf ona tili darslarida zoologiya mavzularidan foydalanishning turli usullarini qo'llay olish o'qituvchi mahoratidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: ona tili, dars, zoologiya, mavzu, uslub, qo'llash, ta'lim, uyadosh so'zlar, tasviriy.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi davrda umumiy o'rta ta'lim sohasida dars jarayonida turli usullarni qo'llash, turfa metodlardan foydalanish dars jarayonining yanada qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Xususan, fanlar kesimida hosil bo'lgan darsning turli metodik holatlari ta'lim sifatini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Biz siz bilan tadqiq qilmoqchi bo'lgan mavzu esa 5-6-sinf ona tili darslarida zoologiya mavzularidan foydalanish usullari haqidadir.

Bilamizki, 5-6-sinf ona tili darslari o'rta sinflar uchun boshlang'ich darsliklar hisoblanib, o'zining soddaligi bilan ajralib turadi[3]. Dars jarayonida ikki fan kesishmasini hamkorlikda olib borish o'quvchining o'tilayotgan ikki fanlarning oson o'zlashtirishiga yordam beradi. Aytish lozimki, zoologiya va ona tili fanlari bir-biridan tubdan farq qilib, ularni mohirlik ila ona tili darslarida tushuntira olish o'qituvchining mahoratidan dalolat beradi. Shu o'rinda bir savol tug'ilishi tabiiy: xo'sh, qanday qilib, 5-6-sinf ona tili darslarida zoologiya fani mavzularidan foydalanish mumkin? Buni ona tili darslarining turli til sathlariga moslagan holda olib borish mumkin, jumladan, leksik sath doirasida talqin qiladigan bo'lsak, uyadosh so'zlar guruhini aynan zoologiya fani doirasida keltirishimiz mumkin[7], masalan:

Demak, zoologiya fanidan tanlab olingan mavzuning tilshunoslik nuqtayi nazaridan umumlashtirilishi o'quvchining diqqatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, orfografik jihatdan ham zoologiya darslarida o'tiladigan mavzularni 5-6-sinf ona tili darslarida amalda qo'llash mumkin, ya'ni zoologiya fanidagi biror mavzudan olinadigan matniy parchani o'quvchilar e'tiboriga diktant sifatida havola etish mumkin, bu esa imlo xatolarining tuzatilishiga, orfografik jihatdan matn tahririga ko'maklashadi[9], xususan, zoologiya fanidan olingan ushbu matn parchasini diktant sifatida ko'rib chiqsak:

Keng bargli o'rmonlarda jayron, ayiq, to'ng'iz, bo'rsiq; qushlardan janna hasharotxo'ri, kaptar, mayqut, oq boshli sa'va yashaydi. Ignabargli o'rmonlarda silovsin, chiyabo'ri, tulki yashaydi.

Ushbu matnni tilshunoslik nuqtayi nazaridan orfografik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, aytish mumkinki, bu matn orqali o'quvchilar so'zlarning imloviy jihatdan to'g'ri yozilishi, tinish belgilarini to'g'ri qo'yishlarini o'rganishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu matndan o'quvchilarga sintaktik tahlilni ham o'rgatish mumkin. Masalan, "ushbu gapdagi gap bo'laklarini aniqlang" topshirig'ini berish orqali ona tili darsida quyidagi tahlil jarayonini olib borish mumkin:

Bundan tashqari, ushbu gap orqali o'quvchilarga birato'la ona tili darsida uyushiq bo'laklar haqida tushuncha ham berish mumkin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, 5-6-sinf ona tili darslarida zoologiya mavzularidan tanlab dars o'tish dars jarayonining mohiyatiga ta'sir qiluvchi muhim usul hisoblanadi. Ikki fanni o'zaro qiyoslagan holda olib borsih o'quvchilarning ikki fan doirasida dunyoqarashining o'zaro uyg'un tarzda shakllanishida yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.
2. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
3. Azizxo'jaeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.
4. Активные формы преподавания литературы. Лекции и семинары на уроках в старших классах (составитель: Р.И. Альбеткова). – М.: Просвещение
5. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000. 631 b
6. Ангеловский К. Учителя и инновации. Книга для учителя. Перевод с македонского В.П.Диденко – М.: Просвещение. 1991.
7. Анисимов В.В., Грохольская О.Г. Подготовка будущих учителей по предметам педагогического цикла // Ж.. Педагогика. – 2000. № 9 54 – 60 с
8. Ahliddinov R.S. Maktabni boshqarish san'at. – T.: Fan, 2006.
9. Баубекова Г. Педагогическое мастерство. – Т., 2000.

YOMG'IRNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI VA UNING NUTQDA AKS ETISHI

Sh.I.Akramova,

BuxDU Lingvistika

(o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yomg'irning tabiat hodisasi sifatida inson ruhiyatiga ta'siri hamda uning nutqda ifodalanishi to'g'risida fikr yuritilgan. Yomg'ir ta'sirida yuzaga kelgan ruhiy holatlarning sintaktik birliklardagi ifodasi she'riy dalillar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yomg'ir, inson ruhiyati, ruhiy holat, nutq, sintaktik birlik.

So'zlar insondagi his-tuyg'u, ehtiroslar, affekt holatlar, stresslar, kayfiyatlar kabi tushunchalar orqali muayyan tasavvur berish imkoniyatiga ega. Kishi idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonida faqat voqelikni bilib qolmaydi, balki o'zi yashayotgan muhitda sodir bo'layotgan hodisalarga qanday bo'lmasin, munosabat bildiradi. Bundan tashqari, unda voqelik va hodisalarga nisbatan muayyan his-tuyg'u paydo bo'ladi. Tabiiyki, his-tuyg'u va ruhiy kechinmalar nutq(matn)da o'z aksini topadi. Aksariyat hollarda, muloqotda hol-ahvol so'rash jarayonida kayfiyat bilan birga ob-havoni so'rash odat tusiga kirgan. Bu bevosita inson ruhiyati bilan bog'liqdir. Ob-havoning o'zgarishi inson kayfiyatining ham o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ochiq, quyoshli kunlarda har qanday ishlar silliq bitayotgandek ko'rinsa, aksincha, qahraton sovuqda yoki izg'irin shamol esib turganda ishlar yurishmayotgandek tuyuladi. Iqlim va uning o'zgarishlari, tabiiy hodisalar inson hayotida muhim o'rin tutadi va inson hayotiga bevosita ta'sir qiladi. Ta'kidlash kerakki, yomg'irning inson ruhiyatiga ta'siri va uning nutqda ifodalanishi psixolingvistik nuqtayi nazardan alohida o'rganilmagan. Shuning uchun ushbu maqolada bu tabiat hodisasining ruhiy ta'sirga egaligi va nutqda sintaktik birliklar orqali ifodalanishini tahlil qilish maqsadi belgilandi.

Diqqatimizni Rauf Parfi she'rlariga qaratdik. Chunki shoir ijodida yomg'ir mavzusi ko'p bora qalamga olingan va obraz sifatida salmoqli o'rin tutadi. Uning

“Yomg‘ir yog‘ar” she‘rida “Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar” misrasining 6 marta takrorlanishi ham fikrimizni dalillaydi. Yomg‘ir, ayniqsa, shig‘alab yog‘ayotgan yomg‘ir ostida goh mahzun, goh xushnud shoir, sochlariga tomayotgan tomchilar, yog‘ayotgan yomg‘irning lirik qahramon qayg‘usiga ham, quvonchiga ham baravar tomchilayotgani kitobxon ruhiy holatiga o‘zgacha ta‘sir o‘tkazadi. Tasvir yomg‘ir ostida turgan nozikta‘b lirik qahramon holatini his ettiradi. Shoir yomg‘ir yog‘ayotgani haqida shunchaki xabar bermaydi, balki yomg‘irni she‘rxon ko‘z oldida yog‘diradi, yomg‘irning tovushini eshitishga, yomg‘irning harakatini tasavvur etishga yordam beradi. Xo‘sh, shoir tasvirlayotgan yomg‘ir ostida qolgan “men”ning kayfiyati qanday? Lirik qahramon yomg‘irdek tabiatga butun vujudi bilan qo‘shiladi. Chunki u “Men unga ochaman bag‘rimni” deya e‘tirof etadi. Eng muhumi, bu ruhiy vaziyat ortidan she‘r tug‘iladi. Shu bois shoir “Yog‘a boshlar qog‘ozga ko‘ngil”, deb she‘rga nuqta qo‘yadi. Bundan tashqari, sarlavhalar anglatib turgan bu tabiiy hodisaning ta‘siri “Daf‘atan yomg‘ir yog‘ar, tinar daf‘atan”, “Yomg‘ir yog‘ib chiqdi tun bo‘yi”, “Yomg‘ir ham tinmadi uzun kun...”, “Yomg‘ir yog‘ganda” kabi she‘rlarning [2] shakllanishi va ularda rang-barang ruhiy kechinmalar tasvirida aks etadi.

Buni boshqa nutqiy dalillar ham tasdiqlay oladi. Masalan, Sirojiddin Sayyid she‘ridan olingan quyidagi parchada yomg‘irga murojaat qilingan:

Hasrat o‘chog‘ida o‘tinman, yomg‘ir,

Qismat qirg‘og‘ida tutunman, yomg‘ir.

Bunchalar muloyim iliq yog‘ursan,

Onam yig‘ladimi bu tun ham, yomg‘ir? [3]

Tilimizda “ham” yuklamasi kuchaytiruv-ta‘kid ma‘nosini ifodalashga xizmat qiladi. She‘rni o‘qir ekanmiz, yomg‘ir lirik qahramon xotiralarini jonlantirganligi ayonlashadi. “Yomg‘ir” so‘zi murojaat birligiga aylanganligi so‘roq gap shaklidagi “Onam yig‘ladimi bu tun ham” misrasidan anglashiladi. Muallif lirik qahramon, ya‘ni shaxsning ayni damdagi holatini “hasrat o‘chog‘i”, “qismat qirg‘og‘i” singari so‘z birikmalari yordamida tasvirlaydiki, ruhiyatdagi tushkunlik yomg‘ir ta‘sirida reallashganligi ma‘lum bo‘ladi. Muallifning boshqa bir she‘rini kuzataylik:

Ona to'plab chiqsa bardoshlaringiz,
Shuncha yillar to'kkan ko'z yoshlaringiz.
Yer-u osmon sel-u yomg'ir, do'l bo'lardi.
Bir vohani ko'mardi suv,
Bir vohani g'arq etguvchi ko'l bo'lardi.[3]

Odatda, yomg'irni ko'z yoshiga o'xshatishadi. Chindan ham, yomg'ir tomchilari ko'zdan oqqan yoshlarga o'xshaydi. Ushbu she'riy matnda yomg'ir nafaqat ko'z yoshiga, balki bardoshga qiyoslanmoqda. Tabiat hodisalarining uyushiq holda ifodalanishi ham she'riy nutqqa o'zgacha mazmun baxsh etgan. Shuningdek, gradatsiya hodisasidan ham unumli foydalanilgan: yomg'ir – sel – do'l. Bu uchala tushuncha bir-biridan shiddati, tezkorligi, ko'rinishi bilan farq qilsa-da, she'riy nutqda insonning sabr-bardoshini ifoda etgan. Aniqrog'i, onalar yomg'ir-u sellar, do'llar bilan o'lchanmas quvvat, sabr-bardoshga egaligini tasvirlash uchun xizmat qilgan.

Usmon Azimning “Qiyinaladi oftobni kutib” she'rida ham mayda-maydalab yog'ayotgan yomg'irning qahramon ruhiyatida tushkunlik, ishonchsizlik kabi ruhiy holatlarni yuzaga chiqarganligini kuzatish mumkin.

Yomg'ir yog'di mayda-maydalab,
Mayda-mayda bo'ldi yuragim.
Tong otguncha qayta-qaytalab
“Sevasanmi?” deya so'radim. [1]

Tabiat hodisalari hamisha sirliligi bilan insonlarni lol qoldirib kelgan. Lekin ularning tinimsiz takrorlanishi kishini zeriktirib qo'yishi ham mumkin. Zero, mazkur she'riy matn(nutq)da tinimsiz yog'ayotgan yomg'ir ko'ngilni g'ash qilishiga sabab bo'lishini anglash qiyin emas. Sintaktik qurilishiga ko'ra, qo'shma gapning teng tarkibli ko'rinishida va poetik nutq talabiga muvofiq shakllangan “Yomg'ir yog'di mayda-maydalab, Mayda-mayda bo'ldi yuragim” misralari buni tasdiqlaydi. Ma'lumki, inson o'zi uchun noma'lum mavzu, vaziyat yoki narsa-hodisa to'g'risida savol beradi. Lekin sintaktik jihatdan o'zga gapning «K?-m» sxemasi asosida

shakllangan «“Sevasanmi?” deya so‘radim» misrasi orqali ma’lumot olish emas, balki ishonch hosil qilish ko‘zlangan.

Tashqarida yomg‘ir yog‘ar,

Ko‘zyoshdan ham og‘ir yog‘ar.

Bu yuraksiz dunyo uzra

Yurak yog‘ar, bag‘ir yog‘ar. [1]

Umuman, dunyoda bir narsaga qarab har kim har xil narsani ko‘radi, his qiladi. Yomg‘ir kim uchundir oddiy tabiat hodisa sanalsa, kimgadir xotirani yodga soladi, yana kimgadir taskin beradi. Ushbu nutqiy vaziyatda esa yomg‘ir qahramon (shaxs) ruhiyatidagi salbiy tuyg‘u, ya’ni loqayd va hissiz odamlar yashatgan iztirobni uyg‘otadi. Bu ruhiy holat “og‘ir yog‘moq” birikmasi orqali aniqlashadi. Ko‘ngil ko‘zi yumuq, yuraksiz odamlar dunyosiga yomg‘ir emas, “yurak” va “bag‘ir” yog‘ishi obrazli tasvirni kuchaytirib, ruhiy iztiroblarni yengillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, she’riy nutq (matn)da tasvirlanayotgan tabiat hodisasi shoir, shuningdek, lirik qahramon ruhiy olami, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ularini yetarlicha ifoda etadi. Alohida qayd etish kerakki, tabiat hodisalarini, xususan, yomg‘irninginson ruhiyatiga ta’siri va uning nutqdagi ifodasini o‘rganish biz kuzatgan she’riy nutqdagi dalillar bilan cheklanmaydi. Chunki mazkur masalani o‘zbek tilining turli vazifaviy uslublari, diskurslar, muloqot shakllarida tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu esa tabiat hodisalarining inson ruhiyati va nutq faoliyatiga ta’sirini keng va atroflicha o‘rganishni, demak, maxsus tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Азим, Усмон. Сайланма. Шеърлар. –Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концернининг Бош тахририяти, 1995. – 432 б.
2. Парфи, Рауф. Сакина. Сайланма. –Т.: Muharrir, 2013. –375 б.
3. Саййид, Сирожиддин. Шеърлар, дostonлар, насрий оҳангларда. –Т.: Sharq, 2018. – 480 б.

«O'TGAN KUNLAR» ROMANIDAGI ANTROPOINDIKATORLARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI

N.Bafoyeva,

BuxDU Lingvistika

(o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada indikatorlar ishtirokida shakllangan nomlardan Abdulla Qodiriy o'zining «O'tgan kunlar» romanida ham o'rinli foydalanganligi va antroponimik indikatorlarning uslubiy-semantik xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: antroponim, antroponimik indikatorlar, nom, Abdulla Qodiriy, «O'tgan kunlar», uslubiyat, antropoindikator turlari.

Antroponimlarning vujudga kelishida antroponimik indikatorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Indikatorlar (lotincha: «ko'rsatgich») antroponimlar tizimida alohida bir guruhni tashkil etadi. Bu xususda prof. Z.Do'simovning maqolasi [1] hamda I.Xudoynazarovning nomzodlik dissertatsiyalarida atroflicha ma'lumot berilgan [2, 20-21]. Ular kishi ismlari tarkibida kelib uni biror jihatdan xarakterlab, ma'no ifodalaydi. Antroponimlarda indikatorlik vazifasini turli affiksoid va umumlashtiruvchi tavsifiy so'zlar bajaradi. Masalan, qul, bek, oy, jon, gul, beka, niso, xon kabilar.

Antroponimik indikatorning ichki va tashqi kabi ko'rinishlari mavjudligi qator tadqiqotlarda sharhlangan [3]. Ichki indikatorlar deganda, antroponim o'zining antroponim ekanligini o'z-o'zidan ko'rsatib turishi nazarda tutiladi. Chunonchi, yozuvda antroponimlarning bosh harf bilan yozilishi, antroponimlarning ma'lum bir qurshovlarda uchrashi (Otabek keldi), nutqiy qurshovlarda o'zining ma'nosiga ko'ra antroponimlarning qanday ichki guruhlariga xos ekanligini ko'rsatib turishi (Kumush, Xushro'y-ayollar ismi). Tashqi indikatorlar turli xil qo'shimcha affiksoid va ma'no umumlashgan so'zlar bo'lib, ular ko'pincha antroponimlar bilan birika oladi.

Indikatorlarning deyarli barchasi konnotativ ma'noga ega. Bunday ma'no ayrim so'z va affiksoidlarning tarkibida joylashgan bo'lib, o'zi birikib kelayotgan ismga turli xil qo'shimcha ma'nolarni kiritishga xizmat qiladi.

Bu kabi qo'shimcha ma'nolar sirasiga kichraytirish, sevish,erkalash, hurmat, iltifot,mehribonlik, yaqinlik kabi qator ijobiy baho hamda kamsitish, masxaralash,past nazar bilan qarash kabi salbiy baho ma'nolarini kiritish mumkin.Bu haqida Ya.Gremm yozadi «Erkalatish formalari faqatgina kamchilik ma'nosini emas, balki iltifot, mehribonchilik, erkalatish ma'nolarini ham ifodalaydi.Shuning uchun ham biz kichraytirish formalarini ulug', muqaddas, hatto dahshatli predmetlarga ham ularga yaqinlashish, uning muruvvatini,iltifotini qozonish uchun qo'shamiz»[4, 41-48].

«O'tgan kunlar» romanida antroponimik indikatorlarning quyidagi ko'rinishlarini uchratish mumkin:

1. Ayol ismiga xos antropoidindikator.

– bibi (yuqori sinf, aslzodalar avlodiga mansub qiz, ayol; mo`tabar, baland martabali ayol): Kumushbibi, Oltinbibi, Oyshabibi, Xonimbibi, Xushro'ybibi. Masalan, Xushro'ybibi Zaynabning egachisidir. Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo'ldi. Oyshabibi qizig'a ma'nolik qilib bir qarab oldi: – Bolam, axir ikki og'iz gap eshit-chi oldin! — dedi.

– bonu (shohlar, sultonlar avlodiga mansub ayol; aslzoda ayol):

Mohinabonu. Masalan, O'zbek oyimning ko'ngil tortar qo'shnilaridan Karima otin, Sharofat chevar va Mahinabonular ham yasanib-tusanib.

– gul (guldek ko'rkam, go'zal; zebo): Anorgul. Masalan, Anorgulning qo'lidag'i dutor «O'rtoqlar» kuyini tanlarga larza berib, tarona qildi.

– oyim (oliy nasab avlodga mansub qiz, ayol): Oftoboyim, Roziyaoyim. Masalan, – Xush kelibsiz, – dedi Oftoboyim...

2. Erkaklar ismiga xos antropoidindikator:

– boy (asli boylar, badavlatlar avlodiga mansublik; boy-badavlat, hukmron janob): Sariboy. Masalan, Albatta yodingizda bo'lsa kerak, hov, biz Sariboyning do'konida choy ichishib o'lturg'an edik-ku, yodingizga tushdimi?

– mirza (ziyoli, qalam ahli; kotib, sarkotib, munshiy): Mirzakarim. Masalan, – Bu kishi otangizning yaqin do'stlaridan Mirzakarim qutidor.

– nor 1) xol, qizil xol; 2) bir o'rkachli erkak tuya – qudratli, baquvvat; 3) o't, olov, alanga): Normuhammad. Masalan, Normuhammad qushbegiga yordamga yetib kelish uchun chopar yugurtirdi.

– oxund (turkiycha: og'a, janob; forsha: xudovand, janob, xudojo'y; ism tarkibida: o'qimishli, ilmli kishi): Solihbek oxund. Masalan, Biz Toshkand ulamo va ashrofidin domla Solihbek oxund, mulla Yusufbek hoji, sarkardalardin Qosim va Niyoz qushbegilar, Karimqul va Muhammadrajab qo'rboshi ham Qambar sharbatdorlar bir orag'a o'lturishib voqi'an Musulmonqulning zulm va taaddasi Xo'qand fuqarosi va ayni zamonda bo'lak shahar va qishloq, kent aholisi ustiga ham bag'oyat oshib borg'anlig'ini muzokara va mukolama qilishdiq.

– qul (xizmatchi, g'ulom, qul; itoatgo'y, tobe; sig'inuvchi): Karimqul, Musulmonqul kabi. Masalan, Musulmonqul qo'shinning boshida bo'ladi...

Bugungi kunda qul so'zi o'zining dastlabki ma'nosida qo'llanilmay, balki erkalash suyish ma'nolarida, shuningdek, turdosh otlarni atoqli otlarga aylantirishga ham xizmat qiladi.

– bek 1) hukmdor, hokim, boshliq; o'tmishda maxsus mansablardan birining nomi; 2) –bek/berk ma'nrsida mustahkam, himoya qilingan, kuchli, qudratli): Azizbek, Yodgorbek, Komilbek, Nusratbek, Otabek, Yusufbek kabi. Masalan, Azizbek qushbегininggapi ikki qila olmadi.

«O'tgan kunlar» asaridagi Otabek antroponimi tarixan ikki qismdan iborat bo'lgan: Ota va bek. Lekin vaqt o'tishi bilan bek «ota» o'zagi bilan to'liq qo'shilib ketgan. Shuning uchun qator nomlarda ajratilishi mumkin bo'lgan bek bo'lagi (Nusrat/bek, Komil/bek, Yodgor/bek, Aziz/bek, Yusuf/bek), Otabek antroponimida ajratilmaydi.

– jon (ruh, tiriklik, hayot): Ahmadjon, Qayumjon kabi. Masalan, Manglayim sho'rlik ekan, bolam, Saodatning Qayumjon otliq bir akasi bor edi, yoshi yettiga chiqib, otasi rahmatlik endigina to'y qilaman deb turg'anda, qizamiq degan bir

falakat kasal bilan og'rib dunyodan o'tdi, buning ustiga Saodatning otasi ham marhum bo'lib bizlarni ora yo'lda qoldirib ketdi.

– xon (hukmdor, boshliq, podshoh): Sheralixon, Murodxon, Muhammadxon, O'rmonxon kabi. Masalan, Musulmonqul o'z g'arazi yo'lida orada yo'q nizolarni qo'zg'ab, kuyavi Sheralixonni o'ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo'y kabi yovvosh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o'ldirib, o'rniga Azizbekdek zolimni belguladi va o'zini mingboshi deb e'lon qilib, aqlsiz bir go'dakni (Xudoyorni) xon ko'tarib el yelkasiga mindi.

Sanalganlardan oyim, qul, oxund kabilar hozirgi kun nuqtai nazaridan keng iste'moldan chiqayotganligi sezilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek antroponimiyasida turli indikatorlar o'tmish davrlardan beri keng qo'llanib kelinmoqda. Indikatorlar ishtirokida shakllangan nomlardan Abdulla Qodiriy o'zining «O'tgan kunlar» romanida ham o'rinli foydalangan. Bu tipdagi antroponimlar asar g'oyasini ochib berish hamda davr ruhini tasvirlashda o'ziga xos vosita sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Do'simov Z. Toponimik indikatorlar//O'zbek tili va adabiyoti, 1972, 5-son.
2. Xudoynazarov I.I. Antroponimlarning til tizimidagi o'rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari (Ergash Jumanbulbul dostonlari asosida). Filol.fanl.nomz.diss... –T.: 1998. –B.43-45.
3. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. –B.16.
4. Qo'ng'urov R. Onomastika va uning predmeti// O'zbek tilining grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. To'plam. –Samarqand, 1972. – B.41-48.
5. Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani. «Adabiy barqaror asarlar turkumi», – T., 2019.

GENDER TUSHUNCHASI VA LINGVISTIK TALQINI

Z.Y.Jo'rayeva,

BuxDU Lingvistika

(o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada gender tushunchasining ilmiy tavsifi va turli qirralariga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan. Genderning lingvistik talqiniga doir qarashlar qiyoslanib, tilshunoslikda genderning tadqiqi yuzasidan fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: gender, jins, ayol, erkak, gender belgi, gender lingvistikasi.

Bugungi kunda barcha fan tarmoqlari kabi tilshunoslik ham jadal, jahon tilshunosligi yutuqlariga hamohang ravishda rivojlanib bormoqda. Bunga mustaqilligimiz, o'zligimizni anglashimiz, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar asosiy zamin yaratmoqda. Ayniqsa, o'zbek tilshunosligida yangi yo'nalishlarning yuzaga kelayotgani, antropolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, tibbiy lingvistika kabi sohalarning keng ko'lamda taraqqiy etayotgani fikrimiz dalilidir. Bu siradan o'rin olgan gender lingvistikasi va uning muammolarini o'rganish hozirgi davrda dolzarb sanaladi.

Nutq faoliyatida genderga xos xususiyatlar til birliklari orqali ifodalanadi. Nutq yaratish jarayonida so'zlovchi, qaysi jins yoki toifa vakili bo'lishidan qat'i nazar, hamma uchun yagona bo'lgan lisoniy tizimdan foydalanadi. Ammo, ta'kidlash o'rinliki, har bir shaxsning nutqiy yoki lisoniy qobiliyati va imkoniyat darajasi turlicha bo'lishi aniq.²⁸

“Gender” termini o'tgan asrda amerikalik olim Stoller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgani ma'lum. Shuningdek, gender tushunchasi hozirga qadar turli xil talqin qilingan. Gender inglizcha “gender” – “zot” so'zidan olingan bo'lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi. Fanda erkak va ayollarni farqlovchi tabiiy biologik belgilar asosida erkak va ayollar xatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy tavsiflarini aniq tafovutlash uchun gender termini qabul qilingan. Gender erkak va ayollarga tegishli ijtimoiy belgilar,

²⁸ Ahmedov B. O'zbek tilida gender tadqiqi. Magistrlik dissertatsiyasi.– Andijon, 2012. – B.47.

ularga xos xulq-atvor, xarakter, faoliyat bilan bog'liq xususiyatlarni ifodalaydi. Gender feministik nazariyaning davomi sifatida vujudga kelgan yondashuvlar, xotin-qizlarni kamsitishlardan xalos etishni targ'ib etuvchi, ularning mavqeyini jamiyatdagi ijtimoiy voqealar hosilasi sifatida o'rganuvchi oqim ta'sirida shakllangan. Demak, inson jinsda nafaqat fiziologik jihatdan farqlanadi, balki uning atrofida bilan muomalasi, nutqi va dunyoqarashida ham jinsdagi o'ziga xos, farqli yoki mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi. S.Babayanning fikricha: “Gender – ijtimoiy tushuncha. Unda ayol yoki erkakning benuqson timsoli berilgan xronologik va geografik muhit rang-barangligi, milliy an'analari, etnopsixologiyasi, dini, tarixi va milliy mentaliteti ifodalanadi”.

Gender o'z mohiyatiga ko'ra, erkak va ayollar o'rtasidagi tafovutdir. Ikki jins vakillarining nutqiy xulqidagi tafovutni nemis olimi Joul Oates o'zining “Ayol, erkak va til” asarida ayol va erkaklar nutqidagi o'zaro farqlanuvchi jihatlar asosida ochib bergan. U ko'proq ayol va erkaklardagi salbiy va ijobiy qirralarni qiyoslab, gender nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Zero, gender ijtimoiy hodisalar belgilagan xususiyatlar yig'indisidir.

Gender jinsning madaniy niqobi, bizning ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Buning ustiga jins, faqat gender demakdir, ya'ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsni tashkil etgan narsadir. Jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oiddir, u esa hokimiyat va tilga ega.²⁹

Gender lingvistikasining shakllanishi zamonaviy falsafaning rivojlanishi va gumanitar fanlarda ilmiy yo'nalishlarning almashinuvi bilan bog'liq. Gender lingvistikasi umumiy holatda ikki guruhdagi masalalarni o'rganadi:

1. Genderning tilda yuzaga chiqishi: leksika, sintaksis, rod kategoriyasi va qator bo'limlarda namoyon bo'ladi. Bunday yondashuvning maqsadi tilda turli jinsdagi odamlar tilining ifodalanishi, erkak va ayollarga qanday baho berilishi hamda qaysi semantik qatlamlarda ularning ko'proq tarqalganligi, buning asosida qanday lingvistik mexanizm mavjudligi bilan ifodalanadi.

²⁹ Nurmonov A.Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.–T.:Akademnashr, 2011.–B.103.

2. Genderning nutqda yuzaga chiqishi: gender qanday vositalar va qanday kontekstlar yordamida ifodalanayotganligi, bu protsessga ijtimoiy faktorlar va kommunikativ vositalar qanday ta'sir ko'rsatayotganligi o'rganiladi. Hozirgi vaqtgacha bu sohada ijtimoiy determinizm nazariyasi va biodeterminizm nazariyalari raqobat qilib kelmoqda.³⁰

Yevropa tilshinosligi gender lingvistikasining tadqiqida katta tajribaga ega. Gender g'arb tillari asosida keng o'rganilgan. Bu sohada rus tilshunoslari ham ko'plab tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, K.Kirilina, A.Popov, M.Kolesnikova, I.Zikova, O.Vaskova gender belgisi til birliklari lug'atini tuzish, turli tillarda gender munosabatlarining aks etishi, tijorat va boshqa maqsadlarda gender leksikadan foydalanishga doir olib borgan tadqiqotlarni qayd etish joiz. Gender tadqiqotlar natijalari til ilmidagi muammolar, shu bilan birga, globallashtirish davrida dolzarblashgan madaniyatlararo munosabatlarda yuzaga keluvchi muammolarni yechish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda genderning til birliklari va hodisalari bilan bog'liqligini o'rganish kuchaygan. Jumladan, bu sohadagi tadqiqotlar gender va intonatsiya; gender va urg'u; gender va geminatsiya; gender va leksik qatlam; gender va ma'no ko'chishi; gender va morfologik ko'rsatkichlar; gender va sintaktik vositalar; gender va frazeologizmlar; gender va diskurs; gender va pragmatika; gender va olamning lisoniy manzarasi; gender va virtual muloqot; gender va paralingvistik vositalar³¹ kabi masalalarni o'rganish asosida amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, gender ko'p aspektli tushuncha hisoblanadi. Shu bois gender bilan bog'liq muammolar ko'plab sohalarning tekshirish obyektiga aylangan. O'zbek tilshunosligida olib borilayotgan genderologik, antropolingvistik tadqiqotlar natijasida gender ilmiy tushuncha sifatida nazariy poydevorini mustahkamlab bormoqda. Jamiyatda gender ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili bo'lgani uchun milliy yuksalish davri o'zbek tilshunosligida yangi sohalarni, xususan, gender

³⁰ Saidxonov M. Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi: Filol.fanlari nomz... dissertatsiyasi. – Toshkent, 2004. –55 b.

³¹ Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси. –Т.: Ўзбекистон, 2003. – В.87.

lingvistikasini rivojlantirish zaruriyatini belgilaydi. Shunday ekan, o'zbek xalqining milliy mentaliteti, erkak va ayollarning jamiyatdagi roli, mavqeyi va munosabatlari, shuningdek, ikki jins vakillarining o'ziga xos nutq odatlarini o'rganish zaruriyati genderga oid lingvistik tadqiqotlar uchun zamin hozirlaydi.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov B. O'zbek tilida gender tadqiqi. Magistrlik dissertatsiyasi. – Andijon, 2012. – B.47.
2. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –T.: Akademnashr, 2011. – B.103.
3. Saidxonov M. Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi: Filol. fanlari nomz... dissertatsiyasi. –Toshkent, 2004. –55 b.
4. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси. –Т.: Ўзбекистон, 2003. – B.87.

INGLIZ VA O`ZBEK TILLARI ANTROPONIMLARNING IFODALANISHI

M.A.Mustafoyeva

BuxDU, lingvistika(o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Tezida tilshunoslikning eng asosiy bo`limlaridan biri bo`lgan onomastikada ingliz va o`zbek tili qiyosida antroponimika va uning bo`limlarining tilshunoslikda tutgan o`rni haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: ism, antroponim, antroponimiya.

Kishi uchun eng yoqimli tuyg`ulardan biri bu o`zining ismi bilan atab chaqirilishdir. Ismlar hayotimizning ajralmas bir bo`lagidir. Ismlarning asosiy vazifasi bu kishini boshqa shaxslardan ajratib, farqlashga xizmat qilishdir. Shuning uchun ham dunyoning barcha xalqlari hayotida bolaga ism tanlash va qo`yish muhim urf-odatlardan biri deb hisoblanadi. Chunki ismlarda o`sha xalqning urf-odatlari,

milliy an`analari, rasm-rusumlari bilan bog`liq mazmun aks etadi. Xalqimiz tarixiga nazar solsak, o`tmishda xivaliklar bolaga 7 kundan keyin ism berishgan. Tug`ilgan bola vazirning o`g`li bo`lsa, xonning o`zi qo`ygan, bordi-yu chaqaloq mullaning farzandi bo`lsa, qozi, muftiy, raisdan birortasi nomlagan. Oddiy xalq vakillari orasida dunyoga kelgan bolaga ismni ota-onasi yoki yaqin qarindoshlaridan biri bergan, ba`zi hollarda bu masalaga mahalla oqsoqoli aralashgan.³²

Qiyoslanayotgan Angliya tarixiga nazar solsak, bolaga nom qo`yishda XVIII-XIX asrlarda quyidagi tartib amal qilgan va uzoq muddat saqlanib qolgan:

1. Birinchi o`g`il farzandga ota- bobosining;
2. Ikkinchi o`g`il farzandga ona- bobosining;
3. Uchinchi o`g`il farzandga otasining;
4. To`rtinchi o`g`il farzandga amakisining;
5. Birinchi qiz farzandga ona- buvisining;
6. Ikkinchi qiz farzandga ota- buvisining;
7. Uchinchi qiz farzandga onasining;
8. To`rtinchi qiz farzandga xolasining nomi qo`yilgan.³³

Bizda esa ko`pincha marhumlarning ismi bolaning taqdiriga va hayotiga yaxshilik keltirmaydi deb hisoblashib, vafot etgan yaqin qarindoshlarning nomi qo`yilmagan.

Kishi ismlarini o`rganuvchi tilshunoslik sohasi antroponimiya deb ataladi. U yunoncha “antros”-shaxs, “onoma”-ism so`zlaridan olingan. Qiyoslanayotgan ingliz va o`zbek tillarida antroponimika onomastikaning bir bo`limi sifatida, ismlarni va ularning turlari, jamiyatda qo`llanishi, kelib chiqishi va o`zgarishini o`rganuvchi sohadir. Taniqli tilshunos E.Begmatov keltirgan ma`lumotlarga ko`ra, o`zbek tilidagi kishi atoqli oti bo`lgan quyidagi onomastik vositalar o`zbek antroponimiyasining birliklaridir:

1. Ismlar-konkret shaxsga berilgan ismlar;
2. Laqablar;

³² Begmatov E. “Ismlarning sirli olami”.- Toshkent; O`zbekiston nashriyoti. 2014, 23-bet

³³ www.geneology.com Przecha D. “The importance of names and naming patterns”.

3. Taxalluslar;
4. O`zbeklarda shaxsni nomlashning o`tmishda mavjud bo`lgan ba`zi shakllari(qizi,o`g`li) yordamida nomlash;
5. Shaxsni uning ismiga o`tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari(ibn,binni) yordamida;
6. O`tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari.³⁴

Ingliz antroponimiyasi quyidagilarni o`z ichiga oladi:

1. kishi ismi;
2. familiyasi;
3. laqablar;
4. taxalluslar;
5. mononimlar(faqatgina ismning o`zi bilan kishining nomlanishi, masalan ko`pgina afg`onlarning familiyasi yo`q. Bunday holat Butan, Indoneziya, Myanma, Janubiy Hindistonda ham uchraydi);
6. patronimlar(ajdodlarning ya`ni bobokalonlarining ismi bilan nomlanish, inglizlarda Johnson nomi mashhur (son of John ya`ni Jonning o`g`li));
7. matronimlar(ona-buvisining nomi. Patronimlarga o`xshash, lekin bunday ismlar patronimlardek keng tarqalmagan);
8. eponimlar(kimningdir nomi bilan nomlangan shaxs ismi, joy nomi yoki narsalar, masalan qadimgi yunon qahramoni Orion nomi shu nomdagi yulduzlar turkumi nomi bilan bog`liqdir);
9. teknonimlar(farzandlarning ismi bilan ularning ota-onasini nomlash, masalan, arablarda bolaning ismi Mustafo bo`lsa, Abu Mustafo-Mustafoning otasi, ummu Mustafo- Mustafoning onasi shaklida. Bunday odat Bali, Xitoy, Koreys xalqlari hayotida ham uchraydi).³⁵

³⁴ Begmatov E. "O`zbek antroponimikasi".- Toshkent: Fan nashriyoti. 2013, 11-bet.

³⁵ en.m.wikipedia.org

Shunday qilib, ismlar hayotimizning ajralmas bir bo'lagi ekan, ularni tadqiq qilish va o'rganish qiyoslanayotgan ikki tilda ham antroponimiyaning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E. "Ismlarning sirli olami".- Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2014, 23-bet.
2. Begmatov E. "O'zbek antroponimikasi".- Toshkent: Fan nashriyoti. 2013, 11-bet.
3. www.geneology.com Przecha D. "The importance of names and naming patterns".
4. en.m.wikipedia.org

TOHIR MALIKNING FRAZEOLIGIK BIRLIKLARDAN MAHORATI ("Odamiylik mulki" asari asosida)

M.A.Tilavova,

BuxDU, lingvistika(o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tohir Malikning o'z asarlarida frazeologik birliklardan foydalanish mahorati haqida so'z boradi. Ta'kidlash lozimki, maqolada Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asari ushbu frazeologik birliklar uchun manba bo'lib hisoblanadi. Ushbu asarda qo'llanilgan frazeologik birliklar salmoqli bo'lib, ularning har biri ma'noviy jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega.

Kalit so'zlar: Tohir Malik, frazeologik birlik, "Odamiylik mulki" ma'no, talqin, asos, mahorat.

Ma'lumki, badiiy asarning mazmunini yanada oshirish uchun yozuvchi, shoirlar turli badiiy vositalardan foydalanadilar. Bu nafaqat asar ma'nosini yuksaltiradi, balki kitobxonga ekspessiv-emotsional ta'sir ham ko'rsatadi. Badiiy asarlarda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari asar qiymatini belgilaydi desak, sira mubolag'a bo'lmaydi. Biz tadqiq etmoqchi bo'lgan mavzu esa Tohir Malik

asarlaridagi, xususan, uning “Odamiylik mulki” asaridagi frazeologik birliklar hisoblanadi.

Frazeologik birliklar bu bir necha soʻzdan tashkil topsa-da, maʼnosi bir, baʼzan bir necha soʻzga teng keluvchi tasviriy vosita hisoblanadi. Frazeologik birliklar tilshunoslikning frazeologiya boʻlimida oʻrganiladi. Tohir Malik oʻz asarlarida frazeologik birliklardan mahorat ila foydalangan, bu esa uning yozuvchilik mahoratidan dalolat beradi. Qahramonlar ruhiyatini yoritishda, ularning xatti-harakatini tasvirlashda va shu kabi qator oʻrinlarda adib tomonidan qoʻllanilgan frazeologik birliklar asarning oson tushunilishiga, oʻquvchiga tezroq taʼsir qilishiga xizmat qilgan. Xususan, uning “Shaytanat” asari frazeologik birliklarga boy asar hisoblanadi: “Kesakpolvon bilan til biriktirgan fohisha bir-ikki tarsak yerdi-yu, keyin ulushini olgach, mukofotiga uning toʻshagini obod qilardi”[1]. Ushbu jumlada qoʻllangan “til biriktirmoq” iborasiga “Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati” da quyidagicha izoh beriladi: “yashirin holda kelishib olmoq, gapini bir joyga qoʻymoq”.

Bundan tashqari, Tohir Malik ijodining yorqin namunalaridan biri “Odamiylik mulki” asari frazeologik birliklarga boy asar sanalib, asar “Qurʼoni Karim” ning “Al-Isro” surasi bilan boshlanadi: “Bismillahir Rohmanir Rohiym. Darhaqiqat, Biz Odam bolalarini aziz-mukarram qildik va ularni barru-bahrda – quruqlik va dengizda (ot-ulov va kemalarga) chiqarib qoʻydik hamda ularga halol-pok narsalardan rizqu roʻz berdik va ularni Oʻzimiz yaratgan juda koʻp jonzotlardan afzal-ustun qilib qoʻydik[2]”. Asarda qoʻllanilgan frazeologik birliklar asar mohiyatidan kelib chiqib tanlangan, bu esa Tohir Malikning yozuvchi sifatidagi mahoratini yana bir bor koʻrsatadi.

“Hindistonlik donishmand esa oʻgʻliga bunday nasihat qilibdi: “Har yerda kurakda turmaydigan soʻzlar soʻzlab yurishdan yiroq boʻl[2]”, - “Odamiylik mulki” asaridan olingan ushbu parchada qoʻllanilgan frazeologik birlik bu “kurakda turmaydigan” birligi hisoblanadi. Ushbu birlikka “Oʻzbek tilining iboralar lugʻati” da quyidagicha taʼrif beriladi: “aytib boʻlmas darajada nomunosib[4]”.

“Bosh aql va ilmga to'la bo'lsa ham, axloqni sira unutmash kerak; inson o'zidagi ma'naviy jihatlarni, vijdon va nafsi tarbiyalashi, ehtirosini boshqara olishi, xunuk odatlarni tark etishi, ilmiy yutuqlarini insoniyat foydasiga yo'naltirishi kerak. Yo'qsa, u to'g'ri yo'ldan ozishi mumkin”[2], - tarbiyaviy xususiyatlar ilgari surilgan ushbu parchada qo'llanilgan “yo'ldan ozmoq” birligi ibora hisoblanadi va “to'g'ri yo'ldan adashmoq[4]” ma'nosiga ega.

“Ortiqcha bir narsadek qabul qildi, og'ir tuyuldi[4]” ma'nosiga ega “malol keldi” iborasi ushbu birlik tarkibida qo'llanilgandir: “Birovlarga nasihat qilsang, malol keladi, hatto g'azablanadi”[2].

Hazrat Hofiz Sheroziy deydilarkim, “Dono qariyalarning nasihatiga baxtli yoshlargina quloq soladilar”[2], - sintaktik birlik tarkibidagi qo'llanilgan “quloq solmoq” birligi ibora sifatida qo'llanilib, “O'zbek tilining iboralar lug'ati” da ikki ma'noga ega ekanligi ta'kidlanadi:

- 1) tingladi;
- 2) aytganini qildi[4].

Yuqorida keltirigan gapda ifodalagan ma'nosi “aytganini qilmoq” ma'nosiga teng hisoblanadi.

Asarda bundan tashqari yana ko'plab iboralar ishtirok etgan bo'lib, quyidagi gapda qo'llanilishiga ham e'tibor bering: “Tosh ustiga yomg'ir yog'ib, suv tushsada, o't chiqib ko'karmagani kabi ko'ngli qotgan kishilarga qanchalik o'gitlar qilsang ham quloqlariga olmaslar[2]” – “quloqlariga olmaslar” iborasi “qulog'iga olmoq” birligining antonim shakli hisoblanib, unga frazeologik lug'atda quyidagicha izoh beriladi - “kimningdir fikriga amal qilib ish tutdi”[3].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, axloq, ta'lim-tarbiya haqida so'z boruvchi “Odamiylik mulki” asari frazeologik birliklarga boy asar hisoblanib, unda foydalanilgan har bir frazeologik birlik matn ifodalagan ma'nosiga ko'ra muallif tomonidan mahorat ila qo'llangan. Asarda ishtirok etgan birliklarning matnga xos tanlanishi kontekstning yanada ta'sirchanroq bo'lishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Tohir Malik. “Shaytanat” 1-kitob.
2. Tohir Malik. “Odamiylik mulki”
2. Shavkat Rahmatullayev. “O`zbek tili frazeologizmlarning izohli lug`ati”
3. B. Mengliyev va boshq. “O`zbek tili iboralari lug`ati”
4. Bekiyeva, M. (2020). Ingliz va o`zbek tillaridagi frazeologik birliklarning dunyoning kognitiv tasviridagi o`rni.
5. Bekiyeva, M. (2020). Frazeologizmlarni o`rganishinteraktiv usullarning biri sifatida.
7. Bekiyeva M (2020). Педагогик махоратни шакллантиришнинг муҳим хусусиятлари
8. www.ziyouz.com
9. www.wikipedia.org
10. www.google.com

“MUHABBAT” KONSEPTIDA METAFORIZATSIIYA

M.Q.Sa'dullayeva,

BuxDU, Lingvistika (o`zbek tili)

ta'lim mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: O`zbek millati hech bir narsani shunchaki aytmaydi. Ayniqsa, tarbiya masalasida obrazlilik kuchayadi. Paremlar shaxs tarbiyalovchisi hisoblanadi. Bunda turli ma`no ko`chirmalardan, ayniqsa, metaforalardan keng foydalaniladi. Metaforalarning vazifasi tushunchani aniq, obrazli tasvirlashdan iborat bo`lib, uning vositasida fikr oydinlashadi. Metaforalardan maqollarning g`oyasini ochib berishda, tinglovchiga ta`sirchan ruh bag`ishlashda foydalaniladi.

Kalit so`zlar: parema,leksema, metafora, xarakter-xususiyat, muhabbat, obraz, tuyg`u.

Metafora – bu matni boyroq va hissiyotli qilishga imkon beruvchi adabiy uslub. Metafora deganda, o'xshashlik asosida bir ob'yekt yoki hodisani boshqasi bilan yashirin taqqoslash tushuniladi. Masalan, oy “samoviy pishloq” deb nomlanadi, chunki pishloq dumaloq, sarg'ish tusga ega va teshiklar bilan qoplangan [2,226]. Shunday qilib, metafora orqali bir obyekt yoki harakat xususiyatlarini boshqasiga o'tkazish mumkin bo'ladi. Metafora bo'lishi uchun tashqi o'xshashlik lozim, bir-biridan uzoq tushunshalarda kinoya sifatida metaforadan foydalaniladi. Masalan, erkak kishining mardligiga nisbat berilib “Alp qomat” sifati keltiriladi, ammo erkak kishining surati-yu siyratida mardlik belgilari bo'lmasa, biz keltirgan o'xshashlik unga mos kelmaydi va “achchiq” kesatiq ma'nosini ifodalaydi. Paremalarda metaforalar ikki jins vakilining xarakter-xususiyati, tashqi ko'rinishini tasvirlash bilan hamohanglikda salbiy va ijobiy fazilatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Metafora mavzuni obrazli tushuntirishga yordam beradi. Inson o'y-xayollaridagi ma'lum o'xshatishlar vositasida qaytadan jonlanadi. Masalan, “Yondashmagin yomonga, ranging o'xshar – somonga” ushbu maqolda yomonning hajrida kuygan kishini rangi-ro'yi “somon”, “sariq bo'lishini ko'rsatish uchun metaforadan foydalanilgan. Bunda ham ifodaviylik bor, shu bilan birga maqolning o'quvchiga tez ta'sir qilishini ta'minlaydi. Metaforalar badiiy matnda baholovchi vazifani bajaradi. Obyektning ijobiy va salbiy xatti-harakatlarini baholab borish bilan hamohanglikda obyektning subyektga munosabatini taqqoslash vazifasini ham o'taydi. Masalan: “Muhabbat – uy poydevori, Vafo – ustuni”. Xalqimiz tomonidan oila doimo “muqaddas qo'rg'on” sifatida ulug'lanib kelinadi. Muhabbat – oilani barpo etuvchi, mustahkamligini ta'minlovchi vosita. Unga yengil munosabatda bo'lish qoralanadi. Paremalar, komil shaxs tarbiyalovchisi vazifasini bajaradi, shuning uchun ham maqollarda ijobiylik bilan parallel ravishda antonim xarakterdagi qarashlarni ifodalovchi metaforalar ham uchraydi: “Muhabbat baloyi shaydir, Giriftor bo'lmagan bilmas” kabi.

Paremalaridagi qarama-qarshi ma'noli metaforalarni quyidagicha aks ettirish mumkin:

Bu kabi qarama-qarshi ma'noli metaforalardan yaxshi va yomonni taqqoslash maqsadida foydalanilgan.

“Muhbbat” konseptini ifodalovchi metaforalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Muhabbat mavzusini ifodalovchi metaforalar: “Muhabbat – dil mevasi”, “Ish – muqaddas o't, havas – loyqa suv”, “Muhabbat – uy poydevori, Vafo – ustuni”, “Muhabbatsiz umr – o't olmas ko'mir”, “O'choqdagi o't boshqa, yurakdagi o't boshqa”, “Muhabbat – o't-olov”, kabi maqollarda muhabbat: “ uy poydevori”, “dil mevasi”, “baloyi-shay”, “yurakdagi o't”ga o'xshatilgan bo'lib, oshiqning mardligi, ahdiga vafosi sinovdan o'tishiga ishora qilinadi.

Shu bilan birga o'zbek millati uchun muhabbat ko'ngilxushlik vositasi emas, balki millat genafonini ta'minlovchi vosita sifatida talqin qilinadi. U “baloyi shay” bo'lib joningni og'ritishi, “o't” bo'lib jismingni kuydirishi mumkin, ammo hayot davomiyligini ta'minlovchi vosita sanaladi. Xalqimiz shuning uchun yosh avlodni sevish va sevilishga chaqiradi, unga yengil qaramaslik kerakligini uqtiradi.

Muhabbatni ifodalovchi metaforalarni quyidagicha tasvirlaymiz:

2. Ikki jins vakilining tashqi ko'rinishini ifodalovchi metaforalar:

“Chiroying borida chinoringni top”, “Gul – bahona, diydor – g'animat”, “Har kim suyganining quli” kabi maqollarda oshiqning tashqi go'zalligi gul, chinor, bulbul, qul, Majnunga qiyoslanadi. Ikki jins vakilining tashqi ko'rinishini ifodalovchi metaforalar genetik jihatdan farq qiladi. Erkak kishini “chinor”ga o'xshatish o'zbek adabiyotida keng uchraydi [4, 241]. . Bu oshiqning mardligi, qatiyatini, sevgisi yo'lida har qanday qiyinchilikni yenga oluvchi shaxs ekanligini bildirib turadi. Paremalarda “bulbul” metaforasi ham erkaklarga xos xarakter-xususiyatni ifodalovchi birlik sanaladi. Erkak kishining jafokashligi “qul”ga qiyoslanadi: “Vafoli qul – jafoli qul kabi. “Qul” obrazi muhabbati yo'lida har narsaga tayyor, xojasining buyruqlarini og'rinmay bajaruvchi timsol hisoblanadi. Bundan tashqari oshiqqa nisbatan “Majnun” sifatining berilishi ham maqollarda keng qo'llaniladi. Bu ham oshiqlardagi ruhiy belgining bir timsoli sifatida gavdalaniladi.

3. Mamatov E. Zamonaviy tilshunoslik – T.: 2019. – 95 b
4. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik korxonasi Bosh tahririyati, 2005. – 257 b.

O‘ZBEK TILIDA SO‘ROQ GAPLARINING TASNIFLANISHI

H.Hodiyeva

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu axborotda o'zbek tilidagi so'roq gaplar haqida fikr yuritilgan. So'roq gaplarning turlari, ularni shakllantiradigan vositalar, so'roq gaplar tarkibidagi so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari hamda intonatsiya masalasi bilan bog'liq qarashlar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, sintaksis, gap, gap turlari, gapning ifoda maqsadi, so'roq gap, so'roq olmoshi, so'roq yuklamasi, intonatsiya.

O'zbek tilidagi gap sintaksisi atroflicha o'rganilgan masalalardan sanaladi. Bu borada atoqli tilshunoslarning turlicha tasniflari mavjud. Biz ushbu axborotimizda o'zbek tilida so'roqlarning tasniflanishi bilan bog'liq holatni tavsiflashga harakat qilamiz.

G'.Abdurahmonov umumiy tahriri ostida nashr ettirilgan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” 2-qism (Toshkent 1966) kitobida “Mazmun va intonatsiyaga ko'ra gap turlari” qismida “...har bir gapda qandaydir bir maqsad ifodalanadi. So'zlovchi biror narsa haqida xabar qiladi yoki o'ziga noma'lum bo'lgan predmet, voqea-hodisalar to'g'risida ma'lumot olishni istaydi, yoki turli ichki tuyg'ularni (iltimosi, g'azabi, shodligi va boshqalar) ifodalaydi.

Sodda gaplarni mazmun va intonatsiyasiga ko'ra, to'rt turga bo'lish mumkin: 1) darak gaplar; 2) so'roq gaplar; 3) buyruq gaplar; 4) undov gaplar. Har bir gap turi o'z mazmuni, grammatik belgilari va intonatsiyasi bilan boshqa gap turlaridan ajralib turadi.

Darak, so'roq, buyruq va undov gaplar yig'iq va yoyiq, sodda yoki qo'shma gap shaklida bo'lishlari mumkin. Har bir gap turi o'ziga xos grammatik belgilarga

ega bo'lish bilan birga, har xil mazmunni ham ifodalaydi. Turli mazmunning ifodalanishida, asosan, intonatsiya va ayrim so'z hamda qo'shimchalar xizmat qiladi [1, 38], deya qayd etilgan.

Demak, muallif sodda gaplarni mazmun va intonatsiyasi nuqtayi nazaridan bir guruhga birlashtirib, darak, so'roq va buyruq gaplarni undov gaplar bilan yonma-yon qo'yadi.

Ushbu manbada so'roq gaplar, ularning shakllanishi, mazmuni haqida batafsil ma'lumot berilgan. So'roq gaplarda so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan biror narsa, harakat-holat haqida ma'lumot berilishi ko'zda tutiladi. So'roq gaplarda suhbatdoshni o'z fikrini anglatishga yoki ifodalanayotgan fikrga bo'lgan munosabatini bildirishga chaqiriladi. So'roq gaplar quyidagi grammatik vositalar yordami bilan tuziladi:

1. So'roq yuklamalari -a, -ya, -da, -ku, nahotki yordami bilan tuzilgan so'roq gaplarda so'roq intonatsiyasining roli katta bo'ladi; -mi, -chi yuklamalarida esa intonatsiya u qadar kuchli bo'lmaydi: Ha, nafasing ichingga tushib ketdi-a? Xatni topshirgandan keyin ko'ksini kerib o'tirdi-ya? Seni ilgari ko'rmas edim-ku? Nahotki, amir uning ham hayot gulshanini mamot gulxaniga otgan bo'lsa? Nahotki, toj-u taxt, shon-u shavkat odamni shu qadar buzsa? Sening vazifang mening shu rejamni ro'yobga chiqarishga yordam berishdan iboratdir, tushundingmi? Bu xotinlarning erlari rashk nima ekanini bilmasalar kerak. Tavba, ayol kishi ham qurol taqadimi? Ajabo, Ma'mun aning kuyovimi edi? [2].

Yuklamalar so'zlashuv nutqida, shuningdek, badiiy uslubda keng qo'llanadi. So'roq yuklamalari so'zlashuv nutqining dialogik shaklida, ayniqsa, nutq ishtirokchilarining savol-javoblarda ko'p uchraydi.

2. So'roq olmoshlari:

Shaxs, narsa, holat, belgi-sifat, miqdor, vaqt kabilar haqida so'ralganda so'roq olmoshlari qo'llanadi. Bu olmoshlar turli kelishikda bo'lishi mumkin: Nima, uning xotinlari o'lib o'zi so'qqabosh bo'lib qoldimi? Sen sho'rlik nima gunoh qilib eding? Kim u? Ul zotning kimlari bo'ladilar? O'zimiz yemoqchi bo'lgan ovqatga nega zahar solaylik? [2].

Predmetlarning belgi-xususiyatlarini aniqlash lozim bo'lgan so'roq gaplarda qanday, qaysi, qancha, necha olmoshlari ishtirok etadi: Xo'sh, ularni tor mor qilmoq uchun qanday choralar ko'rishni tavsiya etasiz? Onamning oldiga qaysi yuz bilan boraman? Oting nima? Necha yoshdasan? [2].

Harakat-holatning bajarilishi yoki predmetning mavjudlik o'rni, payti, holati, sababi, maqsadini aniqlash uchun qayerda, qachon, qanday, qanday qilib, nechuk, nima uchun, nima sababdan, nima maqsadda kabi olmoshlar xizmat qiladi: – Iye, sen bularning nomini qayoqdan bilasan? Qachon kelding? Yuking qani? Qobus qanday odam ekan? Nima uchun bir kecha yotib ketmoqchisan? Nima maqsadda ruxsatsiz shahardan chiqib ketting?[2].

So'roq gaplarning hamma turida o'ziga xos intonatsiya bo'ladi. Bu intonatsiya darak, undov gaplarning intonatsiyasidan tamoman farqlanib turadi. Odatda, so'roq gaplarda biror narsa, uning belgisi, harakatning bajarilish o'rni, payti, holati, sababi, maqsadi so'raladi. So'roq intonatsiyasi aniqlanishi zarur bo'lgan bo'lakda ko'tariladi.

3. So'roq gaplarni tuzishda xizmat qilgan vositalar (yuklamalar, so'roq olmoshlari) ayrim so'roq gaplarda bo'lmasligi ham mumkin. Bu xil so'roq gaplar so'roq intonatsiyasi yordami bilan tuziladi va ko'pincha suhbatdoshning so'zini takrorlash yo'li bilan hosil bo'ladi: – Xo'sh dardi? – Muhabbat. – Muhabbat? – Muhabbat! [3].

Ba'zi hollarda so'roq intonatsiyasi bilan tuzilgan gaplar suhbatdoshning so'zi yoki gapini qaytarish yo'li bilan tuzilmasligi ham mumkin: – Amirga bahona topilibdur-da, Abu Alini ozod etmoqni bahona qilib, qilich yalang'ochladi, deng? – Xo'sh, xizmat? – E shohi zamon, menga boshqa savol bering? – dedi.[2]

Ba'zan so'roq gaplarning kesim sostavida -a(r) affiksi va kerak, shekilli, muncha, balki kabi so'zlar bo'ladi. Bu xil gaplarning so'roq gaplarga aylanishida so'rash intonatsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, bunda mazmunidan gumon ma'nosi anglashilib turgan yuqoridagi elementlarning roli ham kattadir: – Gurganjga birinchi kelishing, shekilli? – Balki, sen shu ulug' zotlarga ishonmassan? – Aftidan buni u hisobga olgan? – Ehtimol, safarga otlanmoq uchun sizga uch kun

ruxsat berilur? – Ko'nglingizga yomon gap keldi chog'i?– Bir oz kutib turaylik, zora zamona tinchib ketar?.. [2]

So'rash ma'nosi yanada ta'kidlangan so'roq gaplarda grammak vositalar birdan ortiq bo'lishi ham mumkin: Bunday qilsak, xorazmiylar, Yaksartning naryog'idagi shaklar nima deydilar, bilasizmi? – Nima, o'zimizga o'zimiz dushmanimizmi? – Qani so'yla, Xorazmdan na xabarlar bor? – Hoy odam, o'zing kimsan, oting nima va qaysi urug'dansan? [2]

So'roq gaplarning ma'nolari. So'roq gaplar turli-tuman ma'nolarni, his-tuyg'ularni va so'zlovchining voqelikka bo'lgan turlicha munosabatini ifodalaydi:

1. Sof so'roq: – Quloq-burningni nega kesdilar? – Siz...kimlari bo'lasiz? Kelib mening istirohatimni buzmoqdan maqsading nadir?[2]

2. Ritorik so'roq. Bu xil so'roq gaplarning mazmunidan tasdiq ma'nosi anglashilib turadi, shu sababli ritorik gaplar adabiy tilda emotsional ma'nolarni ifodalash uchun stilistik vosita bo'ladi: Axir sizning amakivachchangiz Xoja Hasanning xizmatkori-ku, bilsangiz kerak, mulla Qiyomiddin? Emdi nima degan odam bo'ldilaring, – dedi xirillab. Nima qilay, podshoning muqarribiga e'tiroz bildirib bo'lurmi? [2]

Ritorik so'roq gaplarning maxsus turini aytmayisizmi! bo'ladimi! so'zlari bilan kelgan gaplar tashkil etadi.

Ritorik so'roq gaplarda turli emotsional ottenka (kinoya, zorlanish, ta'kid, norozilik, achinish, tanbeh, sevinch, kesatish) ifodalanadi. Ritorik so'roqning quyidagi muhim ma'no tiplari mavjud: a) taajjub: Tavakkal qilib, falon eshikdan chiqib ketasiz, deb yozsa-yu, taxmini tasodifan to'g'ri chiqib qolsa, unda Mahmudning o'zi mot bo'lib qoladi-ku?! b) tashvish, g'amxo'rlik: – Shundoq yurtimizni, sizdek aziz ustozni tashlab ketamanmi, a? d) g'azab: Ha, qo'lga tushdingmi? e) gumon: Ajabo, sen o'shal kuni amrimni bajarmaganmi eding? f) kuchli hayajon: Yosh joningga muncha jabr qilmasang?

Qo'shma gap tarkibidagi ayrim so'roq gaplar intonatsiya jihatdan boshqa gaplar bilan kirishib ketadilar. Bu holat so'roq gaplarga alohida ahamiyat berilmay, javob talab etilmagan yoki so'roq gapdan so'ng kelgan gapda so'roq gap mazmuniga

javob anglashilib turadigan o‘rinlarda yuz beradi: Ba’zi yoshlar, tahsil ko‘rmoqdan murod nima ekanligini, nimaga intilayotganlarini bilmaydurlar. Oqibatda ilimning gardini ham yuqtirmay, madrasadan quruq chiqadurlar.

So‘roq gapning ma’nosiga alohida ahamiyat berilib, so‘roq intonatsiyasi bilan talaffuz etish lozim topilsa, har bir so‘roq gapdan so‘ng so‘roq belgisi ishlatiladi: Hozir seni boqayotgan ayol o‘z onangmi?

Xullas, so‘roq gaplar o‘ziga xos jihatlari bilan nutqda namoyon bo‘ladi. Nutq jarayonida ulardan turli maqsadlardan foylaniladi. So‘roq gaplar turli uslubiy xususiyatlari bilan nutqni rang-barang qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Хозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 2-қисм. –Т.: Фан, 1966. – Б.38.
2. Миркарим Осим. Карвон йўлларида. Сайланма. Тарихий қиссалар, – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
3. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. Roman, –Т.: “Sharq”, 2012.

INTERNET TARMOG‘IDA OT TURKUMIGA OID SO‘ZLAR TARAQQIYOTI

X.F.Saidova

*BuxDU, Lingvistika (o‘zbek tili)
ta’lim mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlarda taraqqiy etayotgan ot turkumidagi ayrim faol so‘zlar xususida bo‘lib, maqolada hozirgi kundalik turmushimizda deyarli har kuni foydalanayotgan sayt, faol dastur nomlari, shu ijtimoiy tarmoqlarda o‘z faoliyatini olib boruvchi yangi paydo bo‘lgan ayrim shaxs oti nomlari keltirilgan. Maqolada so‘nggi 20 yil ichida ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘lgan faol ,ot turkumiga tegishli so‘zlar izohlangan.

Kalit so‘zlar: internet, google, qidiruv sistemasi, xabar almashish vositasi, telegram, instagram, facebook, tiktok, bloger, tiktok, you-tuber.

Yurtimiz mustaqillikka erishib har sohada taraqqiy eta boshladi. Ayniqsa, internet rivoji bevosita mamlakat taraqqiyoti bilan uzviy bog'lanadi. U o'zida zamonaviy davlat va aholi turmush tarziga xos barcha bosqichlarni aks ettiradi. Internet olamining taraqqiy topishi yangi-yangi tushunchalarni ,shu tushunchalarni nomlash uchun yangi so'zlarni ham olib keldi. Mustaqillik davrida yurtimizga ilk kirib kelgan so'zlardan biri internet so'zining o'zi: **internet**-[inglizcha. Internet<inter +ingl. net-to'r, o'rgimchak to'ri: umumjahon tarmog'i]. Umumjahon kompyuter tarmog'i; butun dunyo bo'ylab tarqalgan va telefon hamda optik tolali liniyalar, modemlar bilan o'zaro bog'langan, har qanday axborot o'zaro almasha oladigan katta miqdordagi kompyuterlar majmui.³⁶ Zamonamizda quyidagilar deyarli ko'pchilikka tanish,ko'pchilikning bu tarmoqlardan foydalanishi ,yangi tushunchalarni hosil bo'lishiga, taraqqiy etishi va ommalashishiga sabab bo'lmoqda.

Google – qidiruv sistemasi bo'lib, bunda foydalanuvchilar o'ziga kerakli bo'lgan so'z(matn)ni kiritishadi va shu asosida qidiruv sistemalari foydalanuvchi matni uchragan saytlar ro'yxatini chiqarib beradi.

Brauzer- internetga kirish uchun ishlatiladigan dastur. Saytlarga kirish multimedia, video ko'rish, maqola o'qish, boshqa saytga bog'lanish ,chop etish, elektron xabar yuborish va qabul qilish imkonini beradi.

Elektron pochta(e-mail) –ma'lumotlarni bir foydalanuvchi elektron pochtasidan ikkinchi foydalanuvchi elekton pochtaga uzatish tarmog'i.

Telegram- internet orqali tezkor xabar almashish vositasi. Foydalanuvchilar matn xabarlashuvidan tashqari bir-birlariga 2 GBgacha bo'lgan tasvir, video, audio,har xil fayllar yuborishlari hamda ovozli va video ko'rinishli qo'ng'iroqlarni amalga oshirishlari, kanal va guruhlarda ovozli va video chatlarda qatnashishlari mumkin.

Instagram – “instant camera” va “telegram” so'zlarining birlashishidan hosil bo'lgan.Rasm va videolarni ulashish uchun mo'ljallangan ijtimoiy tarmoq nomi.

³⁶“ O'zbek tilining izohli lug'ati ”. -Toshkent : “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.5 tomli, 2006-2008-y, II tom.

Instagramda videolar uchun maksimal davomiylik 60 soniyadir.³⁷ Ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalgan, instabloger so'zining yaratilishi ham shundan.

Facebook (talaffuzi: feysbuk)- ijtimoiy tarmoq veb-sayt va foydalanuvchilarning xabarlari, fotosuratlari va yangiliklari mavjud bo'lgan tarmoq. Saytda o'yin o'ynashlari, jonli suhbatlashishlari va jonli videolarni yuklab olishlari mumkin.³⁸

Odnaklassniki — sinfdoshlar, kursdoshlar, sobiq bitiruvchilar, hamda qarindosh va yaqinlarni izlab topish va ular bilan muloqot qilish uchun yaratilgan ko'p tilli ijtimoiy tarmoq.

Yuqoridagilar hozirda eng ommabop ijtimoiy tarmoq nomlari hisoblanadi. Zamonamizda ushbu nom ostidagi tarmoqlarni eshitmagan yoki undan foydalanmayotgan inson bo'lmasa kerak.

YouTube – katta hajmdagi video fayllar to'plangan sayt. Bu saytga ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar video fayllarni joylashlari mumkin. Istalgan foydalanuvchi esa bu videolarni ko'rishi mumkin.

Yandex-(talaffuzi: yandeks) Internet qidiruv sistemasi va eng katta internet sayti hisoblanadi..

WhatsApp- “vatsap” deb o'qiladi. Bepul xabarlar ,internet orqali video va audio jo'natish imkonini beradi.

Twitter- “ twitter” deb talaffuz qilinadi. Inglizchadan , “trill” yoki “chirp” ma'noni anglatuvchi fe'l ,qushlar chiqaradigan tovush. Yangiliklar va ma'lumotlarni tarqatish mahalliy yoki dunyo voqealaridan xabardor bo'lish, boshqa foydalanuvchilar bilan muloqot qilish, bahslashish , fikr alamashish yoki qiziqishlarni bo'lishishi mumkin.³⁹

TikTok- qisqa musiqali videofilmlar yaratish va ko'rish dasturi.Videoni tezlashtirish ,sekinlashtirish ,filtlash mumkin . Eng tez rivojlanayotgan va yuklab olingan dasturlardan biriga aylanmoqda.

³⁷<https://web.archive.org/web/20170818124109/http://blog.instagram.com/post/53448889009/video-on-instagram>

³⁸ <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Facebook>

³⁹ “Twtittet”ozodlik .org.

Likee- bunda foydalanuvchilar video yaratishlari ,yuklab olish va ulashishlari mumkin. Hozirda internet tarmog'ida yoshlar orasida keng tarqalgan dastur.⁴⁰

Play market- “o'yin bozori,” ushbu dasturda internet orqali dastur va o'yinlar o'rnatish mumkin . Filmlar,kitoblar, musiqa va boshqa dasturlarni internet trafigi sarflab sotib olish mumkin .

Zoom- videokonferensiyalar uyushtirish imkonini beruvchi dastur. Pandemiya davrida masofadan ishlovchilar, masofadan ta'lim oluvchilar, yig'ilish o'tkazuvchilar va internet orqali jamoaviy suhbatlar uyushtiruvchilar soni oshgani sababli ushbu dastur ancha ommalashdi.

Snapchat- ham xabar platformasi, ham ijtimoiy tarmoq. Foydalanuvchilar 10 soniyagacha fotosuratlar,videolar yuborish orqali o'z do'stlari bilan : “chat” qilishlari mumkin.

Yuqoridagi so'zlar bilan bir o'rinda, internet tarmog'idagi ba'zi sayt, qiziqarli dasturlarda o'z faoliyatini olib boruvchi, o'z iqtidorini namoyish etayotgan , ma'lum bir maqsadda internetdan foydalanuvchi shaxs oti nomlari ham taraqqiylashmoqda . Ular, ayniqsa, yoshlar orasida zamonaviy ko'rinish kasb etmoqda

Blogger-o'z sahifasida(blogida) ajoyib,qiziqarli ma'lumotlar, ,videolar,suratlarini namoyish etadigan va maslahatlar berib boradigan shaxs. Blog so'zi inglizcha “Web –log” –“veb-kundalik” birikmasidan kelib chiqqan, web log - web blog holiga kelgan bo'lib, blog onlayn –kundalik.Blogger esa uni yuritadigan odam. Masalan, Xushnudbek.uz blogini yurituvchi Xushnudbek blogger.

Xakker-(ingliz tilida hack-yorib tashlash ,chopish,buzish degan ma'nolarni anglatadi)Haddan ziyod malakali va ixtisosli axborot texnologiyalari mutaxassisi hamda kompyuter texnologiyalarini puxta biluvchi inson. Facebook ijtimoiy tarmog'i eng ko'p xakkerlik hujumlari uyushtiriladigan saytlar ro'yxatiga kiradi.Ularning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda g'araz kimsalarning boshini qovushtirish, terroristik harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan.Internet maydonida ular “kiber o'g'rilar” deb nolanadi.

⁴⁰ “Likee to pay you for,2019.

Vayner(Vaynchi)- yumor va satira yo'nalishida qisqa video oluvchilar.Ular taqdim etayotgan yumorning o'ziga xos tagma'nosi bo'lib,o'zida jamiyatning og'riqli muammolarini aks ettiradi. Uch rezident qizlardan iborat “Afandining qizlari” vayner guruhi ,Ozod Xurramov,Ozoda,Dili.me' kabi mashhur vaynerlar.

Tiktoker-tiktok dunyosida musiqali videochiqishlari bilan tanilgan insonlar.

You-tuber(youtuber)- internetda videolarni tomosha qilishga odatlangan odam.

Broker- turli ko'rinishdagi amallarda vositachi . Inson bilan bir qatorda ,elektron brokerlar ham faoliyat ko'rsatadi.⁴¹

Obunachi(kuzatuvchi)- o'ziga yoqqan shaxsning sahifasidagi yuklanmalarni birinchi bo'lib ko'radigan va doim kuzatib boruvchi insonlar.

Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari,raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalar,internetni nafaqat mamlakat ,litsey ,kollej va oliy o'quv yurtlariga ,balki har bir oilaga joriy qilish harakatlari bugungi kunda tobora kuchayib bormoqda , bularning barchasi yangi tushunchalarning xalq orasida tez kirib borishi, ommalashishiga va yangi –yangi so'zlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. “O'zbek tilining izohli lug'ati”. -Toshkent :
“O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 5 tomli, 2006-2008-y, II tom .
2. “Axborot kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati”.- Toshkent:, 2010, 90-bet yoki www.undp.uz va www.ictp.uz sayti.
3. <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Facebook>.
4. <https://web.archive.org/web/20170818124109/http://blog.instagram.com/post/53448889009/video-on-instagram>
5. “Twittet”ozodlik .org.
6. “Likee to pay you for bringing friends on boards”. The Siasat Daily,2019
7. www.vikipediya.org

⁴¹“ Axborot kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati”.- Toshkent:, 2010,48-bet.

TILSHUNOSLIKDA “MEHNAT” KONSEPTI

N.Q.Yo'ldosheva

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Konseptga oid bir qator izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, hali bu borada bir yechimga kelinmagan. Garchi bu termin rus tilidan aynan tarjima qilinganda tushuncha ma'nosini ifodalasa-da, ular aslida umimiylik va xususiylik jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ushbu maqolada “mehnat” konseptining ayrim qirralarini ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar. Konsept, tushuncha, “mehnat” konsepti, konseptsiya, kognitiv.

“Konsept” termini lotin tilida *conceptus* “*ibtidoiy, boshlang'ich holat*” ma'nolarida qo'llangan. Italyan va ispan tillarida konsept (*concetto, concepto*) badiiy matnlarda azaldan uchray kelgan va ko'pgina idiomalarda uchraydi. Nemis tilida esa konsept (*konzept, koncept*) termini “*xom qolip*”, ya'ni rus tilidagi “*konspekt*” ma'nosida qo'llangan. Ingliz tilida esa konsept (*concept*) falsafiy termin sifatida ishlatiladi. Rus tilida konsept 1920-yillardan boshlab, 1970-yillargacha “*tushuncha*” terminining sinonimi sifatida qo'llangan [1, 21]. Shuni aytib o'tish joizki, “tushuncha” va “konsept” so'zlari ma'no jihatdan bir-biriga juda yaqin. Ammo zamonaviy ijtimoiy fanlarda bu so'zlar turli ma'noda qo'llaniladi.

Tushuncha — narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushuncha bilish mahsulidir. Bu bilish oddiydan murakkabga ko'tarilib borib, eski tushunchalarni mukammallashtiradi, aniqlashtiradi va yangilarini shakllantiradi. Tushunchaning asosiy mantiqiy vazifasi biron narsani boshqa narsadan fikran ajratishdan iborat... Tushunchalarning o'zaro aloqadorligi va bir-biriga o'tib turishi dialektik mantiqning tushuncha haqidagi qoidasining muhim tomonlaridan biridir [6]. U ijtimoiy amaliyot nuqtayi nazaridan muhim belgi va xususiyatlarning natijasidir. Shu va boshqa barcha turli xil ruhiy tuzilmalar tushuncha nomi ostida birlashadi. M.M. Angelova

talqinicha, bu termin havoladan tashqari barcha kommunikativ ahamiyatga ega ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, u tilning lug'aviy tizimda tutgan o'rnini ko'rsatib, paradigmatic, sintagmatik va hosilaviy bog'lanishlari bilan bog'liq bo'lgan lingvistik belgining barcha pragmatik ma'lumotlarini o'z ichiga oladi [2, 3]. F.Sossyur *tushunchaga* “bir tilning lisoniy qiymatini aks ettiruvchi ekstralingvistik obyekt” deb ta'rif bergan. R.Pavilens fikricha, *tushunchalar* “fikr va bilimning kognitiv asosiy quyi tizimlarini tashkil etuvchi ma'nolardir”. V.Z.Demyankovning ta'kidlashicha, *tushuncha* tafakkurning mantiqiy shakllaridan biri hisoblanib, insonlar uning yordamida voqelikni anglaydilar. Balki shuning uchun ham “tushuncha” atamasi fanda bir ma'noli talqinga ega emas.

Konsept o'z tuzilishiga ega. Abstraktlikning bosqichlarini tashkil qilgan tushuncha ham uning funksiyasini bajarishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, konsept keng doirada bo'lib, u tushuncha atamasini ham o'z ichiga oladi. Umumiylik va xususiylik jihatidan bir-biridan farqlanadi. S.A.Askoldov konseptga bejizga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir” [1, 12] deb izoh bermagan edi.

V.Maslova konsept lingvomadaniy o'ziga xos ekanligi va muayyan etnomadaniyat egalarini tavsiflovchi semantik birlik ekanligini ta'kidlaydi [1, 14].

D.Abdurazzoqova talqinicha, rus tilshunosi L.V.Adonina konsept terminiga bag'ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 ta ta'rifini keltiradi. Shuningdek, uning ma'lumotiga ko'ra, konsept termini o'n nuqtai nazardan tasnif qilingan. Masalan, konsept standartlashishiga ko'ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qo'llanishiga ko'ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko'ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga bo'linadi va h.k [1, 15].

Konsept termini o'zbek tilshunoslari N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan batafsil izohlab berilgan. Fikrimizcha, konsept ko'p qirrali va ko'p qatlamli tizimdir.

Tilshunosligimizda o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar hanuz o'z yechimini kutib turmoqda. Chunonchi, *mehnat* konsepti rus tilshunosligida L.V.

Basova tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek paremiologiyasida hozirga qadar alohida tadqiq obyekti bo'lgan emas. L.V.Basova “Rus tilida mehnat konsepti (maqol va matallar asosida)” [3, 43] nomli dissertatsiyasida mavzuni yoritish uchun ko'plab rus maqol va matallarini o'rgangan, ish davomida ularni tahlilga tortgan. Xuddi shuningdek, V.G. Tokarev “Rus tilida mehnat konsepti verballashuvining nazariy muammolari” nomli dissertatsiyasida *mehnat* kontseptidagi birliklarni madaniy belgilar bilan reallashtirgan, ayni paytda bir-biri bilan ma'lum semantik munosabatga kirishadigan ko'rinishlarni tahlil qilgan.

“Mehnat” konseptini o'rganishga bag'ishlangan M.A.Yereminaning monografiyasi ham nashr etilgan. D.Bikov, S.Y.Danilov, A.Yeremina, V.I.Karasik, N.A.Kupina, K.V.Muratova, V.A.Maslova, A.D.Shmelev va boshqalarning shaxsiy kuzatuvlari esa lingvistik tadqiqotlar tavsifning turli jihatlariga taalluqlidir.


Bilamizki, o'zbeklar azal-azaldan mehnatkash, zahmatkash, o'z mehnati bilan kun ko'radigan xalqdir. Ota-bobolarimiz o'z bilak kuchi bilan imorat solgan, farzandlarini kamol toptirgan. Suv kelsa simirib, tosh bo'lsa kemirib o'z maqsadiga erishgan. To'rt fasl: o'n ikki oy, 365 kun qora terga botib, ziroat qilib, bog' qilib, ekin ekib ro'zg'or tebratgan, bola-chaqasini boqqan. Shuning uchun maqollarning ko'pchiligida mehnatsevarlik, ish, harakat ulug'lanadi. Zero, mehnat insonning hurmatini, obro'-e'tiborini oshiradi: “Daryo suvini bahor toshirar, Odam qadrini mehnat oshirar”, “Obro'ning onasi - mehnat, otasi - sa'yi-harakat”; “Odamni ish tanitadi”; “Odamning bahosi - qilgan ishi bilan o'lchanadi” va h.k. Aksincha, dangasalik, ishyoqmaslik esa qattiq qoralanadi. O'zi ishlamay, harakat qilmay, bekor yuruvchi shaxslar ustidan ayovsiz kulinadi, ishyoqmaslikning oqibati yomon bo'lishi uqtiriladi: “Ishyoqmas itga ham yoqmas”, “Ishlagan yerni yashnatar, Ishlamagan — qaqshatar”, “Erinchoqning og'zini it yalar”, “Erinchoq ikki ishlar, Oxiri barmog'ini tishlar”.

Mehnat konsepti matnda quyidagi semalarda reallashadi:

1. **Rohatlanish.** Mehnat qancha og'ir bo'lsa, Ketii shuncha shirin bo'lar [5, 16].
2. **Tayanch, asos.** Mehnat — rohatning poydevori [5, 16].
3. **Boylik.** Charx yigirsam pul bo'lar, Boshim dasta gul bo'lar [5, 18].

4. **Uzoq umr ko'rish garovi.** Obro' topaman desang, kamtar bo'l, Qarimay desang, mehnat qil [5, 17].
5. **Husn-tarovat.** Elning ko'rki — yer bilan, Erning ko'rki — ter bilan [5, 18]. Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam, Odam — mehnati bilan [5, 18].
6. **Baquvvatlik.** Yigit degan er bo'lar, Mehnat ko'rsa, sher bo'lar [5, 19]. Mardning mard maydonda sinalar, Yigitning yigiti — mehnatda.
7. **Mavjudlik.** Qush qanoti bilan tirik, Odam — mehnati bilan [5, 19].
8. **G'urur.** Mehnat qilsang, ko'ksing tog', Hurmat qilsang, diling bog' [5, 19].
9. **Erkinlik.** Mehnat qilsang qaram bo'lmasan [5, 19].
Mehnat qilsang qirga, Qaram bo'lmassan qo'lga [5, 19].
Bundan tashqari mehnat konseptidagi semalarni yana quyidagicha ifodalash

mumkin:



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insonning go'zalligi, kuchi – mehnatda. Ana shu mehnatda shaxsning iste'dodi, ilhomi shakllanadi va namoyon bo'ladi. Mehnatga munosabat insonning jamiyatdagi o'rnini, uning mavqeyini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Abdurazzoqova G.J. O'zbek tilida non, osh, tuz konseptlarini ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi:dis. – Namangan, 2018.

2. Ангелова М.М. "Концепт" в современной лингвокультурологии / М.М. Ангелова // Актуальные проблемы английской лингвистики и лингводидактики. Сборник научных трудов. Выпуск 3. - М., 2004.
3. Басова Л.В. Концепт труд в русском языке (на материале пословиц и поговорок): Автореф. дис. канд. филол. наук.10.02.01. – Тюмень, 2004.
4. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – T.: "Sharq" NMAK, 2013.
5. Токарев, Григорий Валериевич. Теоретические проблемы вербализации концепта "труд" в русском языке: дис. доктор филологических наук: 10.02.01 - Русский язык. Волгоград. 2003.
6. <http://ru.wikipedia.org/wiki/zoonym>

TILSHUNOSLIKDA TIL VA MADANIYAT MASALASI

L.J.Jo'rayeva,

*BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)
ta'lim mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada til va madaniyat, ularning o'zaro bog'liqligi masalasi xususida fikr yuritilgan. Til madaniyatni o'zida aks ettiruvchi muhim vosita ekanligini asoslovchi qarashlar dalillar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, jamiyat, milliy ruh, xalq.

Tilshunoslikka oid ilmiy manbalar va o'quv adabiyotlarida til va madaniyat o'zaro aloqador hodisalar sifatida uzoq davrlardan buyon talqin qilinadi. Bu talqinlar bir-biriga o'xshamasa ham, bir nuqtada birlasha oladi. U ham bo'lsa, til madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, umumbashariy tamaddun bilan barobar taraqqiy etishi, madaniy yuksalish darajasini belgilovchi tamoyillardan biri, zaruriy mezon, muhim vosita sanalishi e'tirof etiladi. Shu bilan birga, bu masala tahlilida "til" va "madaniyat" tushunchalarini izohlash, qisqacha ta'riflash o'rinli bo'ladi.

Til ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilar o'rtasida axborot uzatish va shu axborotni qabul qilish vazifasini bajaruvchi beqiyos vositadir. Tillarning kelib chiqishi

haqidagi xulosalar insoniyatning ibtidoiy davriga borib taqaladi. Insoniyatning bir-biri bilan aloqa uchun ehtiyoji tilning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan. Demak, til deb, murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi.

Til kommunikatsiya jarayonida ijtimoiy vazifalarini to'laligicha namoyon etadi. U konseptual olam manzarasiga oid ma'naviy bilimlarni to'plash va saqlash, obyektiv voqelikni idrok qilish vositasi hisoblanadi. Inson o'zi mansub millat so'zlaydigan til hamda milliy-madaniy mentallik va voqelikni individual idrok etish usuli bo'lgan o'z "tili"ning egasidir. Tilda inson mental, ichki dunyosi, aqliy saviyasi aks etgan lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun keyingi yillarda tilshunoslikda inson va olam munosabati, lisoniy shaxs ruhiyati, o'y-kechinmalari, orzu-umidlarini ifodalashda til birliklarining vazifasi va o'rnini antroposentrik yo'nalishda tahlil qilishga e'tibor kuchaydi.

Madaniyat insoniyat faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuyi bo'lib, kishilar hayoti va faoliyatini turli ko'rinishlarda, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi.

Til va madaniyat masalasi ko'p qirrali bo'lganligi bois unga tilshunos, madaniyatshunos, tarixchi, faylasuf, ruhshunos, etnograf va adabiyotshunos turli tomondan yondashadi. Bu ikki tushunchani o'zaro qiyoslaydigan bo'lsak, ikkalasi ham umuminsoniy, butun jamiyatga, insoniyatga daxldor hodisalar ekanligi ma'lum bo'ladi.

Bir qator olimlar "til" va "madaniyat" tushunchalariga o'z qarashlari asosida fikr-mulohazalarini bildirib o'tishgan. Jumladan, rus tilshunosi G.O.Vinokurning "tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi" degan fikrlari hali ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunonchi, I.Gerderning fikricha, inson faoliyatidagi to'rt asosiy hodisa, ya'ni til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh bir-biri bilan bog'langan. Olim "tilning madaniyat bilan organik bog'liqligi uni milliy ruhning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi", deb e'tirof etadi. [3, 31-32] Bundan kelib

chiqadiki, til madaniyat bilan bog'liq bo'lganligi uchun jamiyat bilan birga takomillashib boradi.

Shuningdek, til va madaniyatning o'zaro munosabati V.fon Humboldtning ta'limotida batafsil yoritilgan. Uning qarashlari to'rt jihatga asoslanadi:

1. Moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashadi.
2. Har qanday madaniyat milliydir, uning miliy xarakteri tilda dunyoni o'ziga xos ko'rishda xarakterlanadi.
3. Tilga har bir xalq uchun o'ziga xos bo'lgan ichki shakl xosdir, tilning ichki shakli – xalq ruhi va madaniyatining ifodasi.
4. Til inson va uni o'rab olgan dunyo orasidagi halqa hisoblanadi.

Humboldtning qarashlari undan keyingi tadqiqotchilar faoliyatida ham o'ziga xos tarzda davom ettirildi. Ularning hech biri amerikalik tilshunos va madaniyatshunos Eduard Sepirchalik ko'p va xo'b shug'ullanmagan deyish mumkin. Chunki E.Sepirning "Tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo'yicha tanlangan asarlari"da til va madaniyat aloqadorligiga doir ko'plab masalalar atroflicha yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida til va madaniyat muammolariga doir samarali tadqiqotlar olib borgan olimlar sirasida professor Nizomiddin Mahmudov alohida o'rin tutadi. Jumladan, olim o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida til va madaniyat xususida shunday yozadi: "...til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi..." [1, 9-10]

Ma'lumki, V.fon Humboldt birinchilar safida "tilda xalq ruhi aks etishi" haqidagi g'oyani ilgari surgan va o'z asarlarida asoslagan edi. Uning qarashlari o'zbek tilshunosligida til va madaniyat aloqadorligi masalasi tadqiqiga sezilarli ta'sir qilgan. Professor N.Mahmudovning quyidagi fikrlari buni dalillaydi: "...tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning bor-budi, bo'y-basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uni butun borlig'ini anglash demakdir. Muayyan xalq tilining mazmun-u mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixi-yu kelajagini idrok etish demakdir. Til xalqning bebaho va muqaddas boyligidir,

xalqning har bir asl farzandi o'z tilida sobit va o'z tiliga sodiq bo'lmog'i azal-abad ham qarz, ham farz". [1,10]

Xalq madaniyatining har bir jihati uning tilida namoyon bo'lib, azaliy qadriyatlarning kelajak avlodga meros bo'lib qolishida muhim ahamiyat kasb etadi. Til madaniyatni saqlash hamda kelgusi avlodga yetkazish vazifasini bajaradi, milliy mentalitetni ifodalovchi vosita sifatida olam tasvirini ham milliy qadriyatlar asosida gavdalantiradi.[2,57]

Demak, til madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini-o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar aks etadi.

Umuman, til va madaniyat munosabati, ularning o'zaro bog'lanishi lingvomadaniyatshunoslik paradigmasida tadqiq qilinadigan asosiy masaladir. Dunyoda qancha xalq va millat mavjud bo'lsa, ularning har biriga xos milliy va madaniy, qadimiy va zamonaviy rasm-rusumlari, urf-odatlar, an'analari, qadriyatlari til orqali namoyon bo'ladi. Til va madaniyat munosabati olamning lisoniy manzarasini har bir millat tiliga xos xususiyatlari bilan aks ettiradi. Shunday ekan, bu masalaning yechimlari bir til doirasida emas, balki bir necha tillarda madaniy konseptlarning qiyosiy tahlili natijasida aniqlanishi shubhasizdir.

Adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти.– Тошкент, 2012. –№ 5. –Б.10.
2. Тошева Д. Лингвомаданий тадқиқот усули ва унинг муаммолари// Вухоро davlat universiteti ilmiy axboroti. –Вухоро, 2017.– №1. –Б.56-60.
3. Худойбердиева З.Н., Мамаражабов М.М. Тил ва маданият: ўзаро муносабат ва ўзаро таъсир масаласи//Замонавий таълим.– Тошкент, 2016. –№1. –Б.30-34.

TIBBIY NUTQDA TASVIRIY VOSITALARDAN FOYDALANISH (METAFORALAR MISOLIDA)

S.T.Toshtemirova,

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy nutqda tasviriy vositalardan foydalanish, fikrni tushunarli, obrazli va ixcham tarzda yetkazib berishda tibbiy matnlarda tasviriy vositalarning muhim o'rin egallashi, shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotni shakllantirishga xizmat qilishi metaforalar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy vositalar, sintaktik figuralar, troplar, tibbiy nutqda metaforalar.

Tinglovchiga aytilmoqchi bo'lgan fikrni tushunarli va obrazli tarzda yetkazish uchun nutqning jozibador, ta'sirchan bo'lishi talab etiladi. Bu talab bevosita bemorlar bilan kundalik muloqotga kirishuvchi shifokorlar uchun ham birdik taalluqlidir. Til aloqa jarayonida doimo qisqalikka, ixchamlikka intiladi. So'zlovchi yoki yozuvchi o'z fikrini ifodalashda uzundan-uzun jumlar tuzilishidan qochib, o'z fikrlarini ixcham tarzda, tildagi o'xshatish, sifatlash kabi turli-tuman vositalardan foydalanadi. Ana shu qayd etilgan vositalar tilimizda ifoda-tasvir vositalari deb yuritiladi.

Nutqda tasvir vositalaridan o'rinli tarzda foydalanish haqida to'xtalar ekanmiz, bu xususida Alibek Rustamov "So'z xususida so'z" asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Tilda bir narsaning o'zini turlicha atash imkoniyati ham ko'pdir. Bunda ma'nodosh so'zlardan, so'zlarning ko'p ma'noliligidan va yangi so'z yasash imkoniyatlaridan foydalaniladi. Turlicha ta'bir birikma, gap, fasl, bob va kitob doirasida ham amalga oshiriladi va bu bilan san'atning muhim asoslaridan biri bo'lmish turlilik, rang-baranglik vujudga keladi. San'atga zavqi bor kishi tilning

mazkur imkoniyatlaridan foydalanib, o'z nutqiga yoki adabiy asariga badiiylik, eshituvchi yoki o'quvchiga lazzat bag'ishlaydi"⁴².

Til birliklarini nutqning turli ko'rinishlarida bajaradigan vazifasi, eng avvalo, so'zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ maqsadiga bog'liq bo'ladi. Bunda nutq yo'naltirilgan shaxsga birgina ma'lumot yetkazishgina emas, balki unga ta'sir etish, voqelik faktlariga nisbatan subyektiv munosabat uyg'otish ham ko'zda tutiladi. Ifoda-tasvir vositalari fikrlarning emotsional-ekspressiv tarzda ifodalanishini ta'minlash vazifasini bajaradi. Tilimizda qo'llaniluvchi ifoda-tasvir vositalari troplar va sintaktik figuralar kabi turlarga ajratiladi.

A.Shomaqsudov va boshqalar hamkorligida yaratilgan "O'zbek tili stilistikasi" kitobida sintaktik figuralarga quyidagicha ta'rif beriladi: "Sintaktik figuralar muzika va takrorlanuvchi muzikal frazalar kabi nutqni ohangdor, ta'sirchan va jozibador qilish, shu yo'l bilan uning tinglovchi tomonidan osonlik bilan qabul qilinishida muhim stilistik vositadir. Mana shuning uchun ham sintaktik figuralarni ma'lum darajada nutq muzikasi deb atash mumkin".⁴³ Sintaktik figuralarga quyidagilar kiradi: anafora, epifora, kompozitsion bog'lanish, takror, sintaktik parallelizm, antetiza, gradatsiya, ritorik so'roq gap.

Bir narsaning nomini, belgisini boshqasiga ko'chirish yoki nutqda so'z va iboralarning ko'chma ma'noda ishlatilishiga troplar deb aytiladi. Ongimizda qandaydir xususiyatlari bilan, belgilari bilan bir-biriga yaqin ikki shaxsni, tushunchani, narsani, hodisani va ularning belgisini chog'ishtirish, o'xshatish troplarga asos qilib olinadi. Ya'ni biror predmet yoki voqea hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa predmet yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi.⁴⁴ Troplarning quyidagi asosiy turlari mavjud: metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, o'xshatish, ironiya, antifraza, sarkazm, perifriza, mubolag'a, litota, allegoriya, simvol, jonlantirish, apostrofa.

⁴² Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – В.17.

⁴³ Шомақсудов А., Расулов И. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – В.228.

⁴⁴ Шомақсудов А., Расулов И. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – В.236.

Professional mulohazaning turli sohalarida bo'lgani kabi tibbiyot sohasida ham metaforalardan foydalanish muhim sanaladi. Metaforalar tibbiyot xodimlari tomonidan tibbiyot mutaxassislari o'rtasida ham, mutaxassis-bemor o'rtasida ham qo'llaniladigan professional aloqa vositalaridan biri hisoblanadi. Metafora tibbiy nutqning ajralmas qismidir. Quyida tibbiy nutqqa xos metaforalarni keltirishimiz mumkin:

Inson tana a'zolari bilan bog'liq metaforalar:

Organizm ildizi – ingichka ichak. Sharq tabobatiga ko'ra ingichka ichak *organizmning ildizi* hisoblanadi. Ildiz qurib qolsa, butun daraxt quriganidek, salomatligimizga jiddiy shikast yetishi mumkin.⁴⁵

Oyoq gumbazi – oyoqning pastki qismining yuza sohasi. Uch yoshdan keyin bolalarda *oyoq gumbazi* shakllana boshlaydi va bolalarning deyarli hammasida yassioyoqlik uchrashi mumkin.⁴⁶

Tizza qopqog'i – inson tizzasining ustki sohasi. *Tizza qopqog'ining* joyidan siljishi (bunda og'riq tizza harakatlanganda zo'rayadi), suyak jarohatlanishida hamda tizza bo'g'imining yallig'lanish holatlarida odam kuchli og'riqdan bezovtalanadi.⁴⁷

Yolg'on bo'g'im – inson organizmdagi bo'g'im turi. Osteomielitga uchragan naysimon suyaklarda patalogik sinish, katta hajmda suyak to'qimasining chirishi, suyak defekti, *yolg'on bo'g'im*, suyak to'qimasining o'sishdan to'xtashi va suyak hosil qiladigan bo'g'imlarning tiklanishida og'ir o'zgarishlar paydo bo'lishi mumkin.⁴⁸

Tabiiy ustun – umurtqa pog'onasi. Qomatini ushlab turuvchi *tabiiy ustunni* vaqtida asrab-avaylamagan, osteoxondrozdandan tortib, umurtqa churrasigacha bo'lgan noxush kasalliklar orttirishi mumkin.⁴⁹

Tabiiy to'siqlar – teri, shilliq qavatlar.⁵⁰

⁴⁵ Шифо-инфо. № 30(649) 2017. – Б. 9.

⁴⁶ Sihat-salomatlik.2019-yil.3-son. –Б. 12.

⁴⁷ Шифо-инфо. № 6(573) 2016. –Б. 39.

⁴⁸ https://darakchi.uz.suyak_kasalliklari.

⁴⁹ Шифо-инфо. № 40(503) 2014. –Б. 5.

⁵⁰ Шифо-инфо. № 30(649) 2017. – Б. 28

Mitti nasos – yurak. Kichik matorcha – yurak. Qatiq yurak faoliyatini mustahkamlaydi. U kichik matorchani quvvatlab, unga tushuvchi zo'riqishni kamaytiradi.⁵¹

Ko'krak qafasi – to'sh suyagi yordamida ko'krak umuurtqalariga qovurg'alar birikishidan hosil bo'lgan bir butun tuzilma. Odamda *ko'krak qafasi* yassi konusga o'xshaydi. *Ko'krak qafasining* yon, old, orqa devori bor.⁵²

Ko'z kosasi – kallaning yuz qismidagi bir juf chuqurcha.

Jigar kaliti – ko'z.

Shox parda –ko'zning old qismidagi tiniq gumbaz. Ko'pgina odamlarda *shox parda* bir oz oval shaklga ega va u markazga qaraganda qirralarda qalinroq bo'ladi.⁵³

Kasallik bilan bog'liq metaforalar:

Quyvon lab – og'iz tirtig'i. Yarim labga tarixan "*quyon labi*" deb ataladi. Ushbu moniker quyvonlarning yuqori labida mavjud tabiiy bo'linishi tufayli yuzaga kelgan.⁵⁴

Bo'ri og'iz – og'izning bo'rinikiga o'xshashligi. Xalq tilida bo'rining tish joylashuviga o'xshab chiqqan joyi bo'ri og'iz sanaladi. Bo'ri og'iz – bunday tug'ilgan bolaning tanglayi bo'lingan yoki og'iz bo'shlig'ining tepa qismida odatdan tashqari bo'lgan tirtiq joyi.⁵⁵

Pushti ko'z –o'tkir yuqumli ko'z kasalligi. *Pushti ko'z* ko'zning oq qismini qoplaydigan, odatda shaffof tashqi qoplama membranasining yallig'lanishi hisoblanadi.⁵⁶

Ko'k suv –ko'z kasalliklaridan biri. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, buguni kunda ko'zi ojizlik va ko'rlikka olib keluvchi kasalliklarning eng ko'p qismini *ko'k suv* kasalligi tashkil qiladi.⁵⁷

Fil kasalligi –oyoq panjasining kattalashib yo'g'onlashishi.

⁵¹ Шифо-инфо. № 30(649) 2017. –Б. 16.

⁵² https://www.wikiwand.co/uz/Ko%BBkrak_qafasi

⁵³ <https://uz.m-almahdi.com/cornea-anatomy-48006c-46c02a>

⁵⁴ <https://uz.approbly.com>.

⁵⁵ Verner D., Tuman K. Hammapob tibbiyot qo'llanmasi. – Bishkek: 2013. –B.763.

⁵⁶ <https://www.nweyes.com/uz/medical-eye-care-seattle/pink-eye-conjunctivitis/>

⁵⁷ <https://avitsinna.uz/glaukoma-kasalligi/>

Fil kasalligi yomon sifatli kasallik bo'lib kam tuzatiladi, agar u aziyat bermasa uni o'z holiga tashlab qo'yish kerak. Agar u yaralanishga boshlab, yel tutish xavfi tug'ilsa, a'zoni tagidan kesishdan boshqa chora yo'q.⁵⁸

Bundan tashqari tibbiy nutqda ko'k shish(yurak yetishmovchiligi natijasida yuzga keladi shish), sariq kasallik(jigardagi o'zgarishlar natijasida yuzga keluvchi kasallik), pushti puffer(o'pka kasalligi), piyoz terisi, qurtlarni qazish(varikoz tomirlarini olib tashlash), tili chuchuklik, o'tkir gepotiza, o'tkir prostatit, o'lat tayoqchasi, qizilcha, qizamiq, suvchechak kabi ko'plab metaforalarni uchratishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, nutqda tasvir vositalaridan foydalanish tibbiy atamalarning mohiyatini ochishda, tibbiy nutqning tushunarli bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Абу Али Ибн Сино. Тиб Қонунлари. 3 жилдлик. – Тошкент: А.Қодирий, 1992. 3 жилд. – 312 б.
2. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987.– 155 б.
3. Шомақсудов А., Расулов И. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 228 б.
4. Verner D., Tuman K. Наммароб tibbiyot qo'llanmasi. – Bishkek. 2013. – 776 б.
5. “Шифо-инфо”. 2014-2021.
6. “Sihat-salomatlik”. 2019. 3-son.
7. <https://darakchi.uz.suyak.kasalliklari>
8. https://www.wikiwand.co/uz/Ko%BBkrak_qafasi
9. <https://uz.m-almahdi.com/cornea-anatomy-48006c-46c02a>
10. <https://uz.approby.com>.
11. <https://www.nweyes.com/uz/medical-eye-care-seattle/pink-eye-conjunctivitis/>

⁵⁸ Абу Али Ибн Сино. Тиб Қонунлари. 3 жилдлик. – Тошкент: А.Қодирий, 1992. 3 жилд. – Б. 68.

SO‘ROQ GAPNING PRAGMATIK VAZIYATGA BOG‘LIQ XUSUSIYATLARI

G.A.Salimova,

BuxDU, Lingvistika (o‘zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘roq gap va uning pragmatik vaziyatga bog‘liq xususiyatlari tahlil qilingan. So‘roq gapning pragmatik vaziyatga muvofiq mazmun kasb etishi nasriy va nazmiy nutq ko‘rinishlari asosida dalillangan.

Kalit so‘zlar: so‘roq gap, lingvopragmatika, pragmatik vaziyat, adresant, adresat, pragmatik intensiya.

Har qanday millatning o‘zligi uning tilida yaqqol aks etadi. Til jamiyatda muhim aloqa vositasi bo‘lib, uning amaliy faoliyati ham shu til yordamida aloqa qiluvchilar hayotida asosiy o‘rinni egallaydi. Tilning amaliy faoliyati inson nutqiy faoliyatida ko‘rinadi. Shuning uchun so‘zlovchining nutqida lisoniy bilim zaxirasidan foydalanish qobiliyati, milliy madaniyati, milliy qadriyatlarini, tafakkuri va ruhiy olamida ifodalanadi. Ma’lumki, so‘zlovchi nutqiy muomalaga kirishar ekan, kommunikativ maqsadini amalga oshiradi. Bu hodisaning ahamiyati gap turlarini belgilashda, xususan, so‘roq gaplarni hosil qilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. So‘roq gapda ifodalangan maqsad noma’lum axborotni aniqlashdan iborat bo‘lib, nutqda so‘zlovchiga noma’lum narsa, hodisa, predmet, shaxs haqida ma’lumot olish ehtiyoji tufayli vujudga keladi. [5, 382] Inson nutqiy muloqotga kirishar ekan, barcha uchun umumiy bo‘lgan konsept va tushunchalardan keng foydalanadi. Bularga zamon va makondan tashqari hurmat, haqiqat, muhabbat, burch, adolat, yolg‘on, nafrat, ikkiyuzlamachilik, qasd, g‘azab kabilar kiradi.

Axborot almashinuvining mazmuniy negizini tashkil etuvchi konseptual tuzilmalar pragmatik vaziyatlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. [3, 55; 4] Muloqot faoliyat bilan bog‘liq nutq mahsuli bo‘lganligi sababli so‘roq gaplarning muloqotda qo‘llanishi ularning grammatik tabiatidan farqli turli xil pragmatik mazmun kasb etishi va pragmatik vazifaga xoslanishini ko‘rsatadi. Buni Tog‘ay Murodning “Bu

dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romani matnida so‘roq gaplar qo‘llangan quyidagi pragmatik vaziyatda kuzatish mumkin:

“ – Ammo-lekin! – dedi. – Aytinglar qani, men kimman?

Dehqonlar o‘zaro qarashib oldi. Bilamiz, demishday, bosh irg‘adi. Hazil demishday, miyiqalarida kuldi.

– Kim bo‘lardingiz, o‘zimizni Botir qo‘shchi-da, -dedi.

Qo‘shchi yo‘q qorinni olg‘a siltadi.

–Yo‘q! – dedi. –Ammo-lekin topolmadilaring!

Dehqonlar burchakda bet burib kuldi. Dehqonlar og‘iz ushlab kuldi.

– *Kolxoz tuzilgani qachon edi?* – dedi qo‘shchi. – *Sizlarga qachon aql kiradi?*

Topinglar, men kimman?

Dehqonlar yuzidan kulgich qochdi. Bari o‘ylab qoldi. Oxiri chidab o‘tirolmadi.

– *Unda, o‘zingiz ayting?*

– *Biz bir dalada yurgan dehqon bo‘lsak?*

–*Siz tuman borib keldingiz, siz ayting?*”[2, 6-7]

Ushbu parchada muloqot ishtirokchilari tomonidan hosil qilingan so‘roq gaplar yettita, lekin ularning pragmatik xususiyatlari ham shunday miqdoriy ko‘rsatkichga egami? Bu esa muloqotda so‘roq gaplar bajargan vazifalarni aniqlash natijasida ma’lum bo‘ladi.

– *Ammo-lekin! – dedi. – Aytinglar qani, men kimman?* Bunda so‘zlovchi (Botir firqa) o‘zi uchun noma’lum bo‘lgan shaxs haqida ma’lumot olishni ko‘zlamaydi. So‘roq berish orqali o‘zini qayta ta’kidlaydi. Atrofidagilarni o‘zi eshitishni istagan javobni aytishga undaydi.

–*Kolxoz tuzilgani qachon edi?* – *dedi qo‘shchi.* Ushbu so‘roq gap orqali so‘zlovchi o‘ziga ma’lum axborotni atrofdagilariga tasdiqlatishga urinadi. Holbuki, kolxoz tuzilgan davrni va o‘sha paytdan beri firqalik qilayotganini o‘zi yaxshi biladi. So‘roq ohangi esa eslatish, yodga solish uchun xizmat qiladi.

–*Sizlarga qachon aql kiradi?* Mazkur gapda so‘zlovchi savoliga javob kutmaydi. Chunki verbal vosita “Sizlarga aql kirmaydi” mazmuniga ega. Ayni vaziyatda darak gapdan ko‘ra so‘roq gapning qo‘llanilishi illokutiv akti

kuchaytirish, “aql kirmaslik”ni ta’kidlash, anglamaslik holatini bo’rttirish uchun zarur bo’lgan. Bu esa so‘roq gapning nutqiy, pragmatik imkoniyatlari darak gapga nisbatan kengligidan dalolat beradi. Zero, pragmatik vaziyat axborotni ifodalash uchun tagma’noli so‘roq gapga “ustunlik” bergan.

Topinglar, men kimman? Bu nutqiy tuzilma adresatlarning diqqatini tortish o‘ziga jalb etish uchun shakllangandek ko‘rinadi. Ammo so‘roq gap bu vaziyatda adresant (Botir qo‘shchi)ning “kim ekanligini tanitib qo‘yish” maqsadini, o‘ziga yuqori baho berishi, ya’ni subyektiv bahosini ifodalagan.

Nutqiy muloqotda pragmatik vaziyat ma’lumot olish, tasdiqlash, undash, ta’kidlash, e’tiborni jalb etish, ta’sirchanlikni kuchaytirish, subyektiv bahoni ifodalash kabi pragmatik mazmundagi so‘roq gaplarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Bundan tashqari, so‘roq gaplar badiiy asarda qo‘llanib, turli muloqot ko‘rinishlarini shakllantiruvchi verbal vositaga aylanadi. So‘roq gaplar badiiy diskurs variantlarida ham pragmatik vaziyatga xoslanishini, asosiysi, pragmatik mazmun doirasi kengayishini kuzatish mumkin. Masalan, Usmon Azim she’rlaridan tanlangan quyidagi misollar so‘roq gaplar she’riy asarda qanday pragmatik mazmun kasb etishini ko‘rsatadi:

“O‘zi seni nega sevdim?” (so‘roq-afsuslanish);

“Dilingdan menimi tamom o‘chirding?” (so‘roq-hayratlanish);

“O‘sha o‘q kimgadir, menga tegsa ne gumon?” (so‘roq-gumon);

“Xudoyim, qovrildim, tugaydi qachon?” (so‘roq-iltijo);

“Vatan, senga bu tanho jonim,

Ulgurdimi qorishmoqlikka?”(so‘roq-ishonch);

“Tangrim, nechun yaratding,

Ne a‘mol bor ro‘zimda?” (so‘roq-taajjub);

“Tugab borar sabotim,

Bu ne tiriklik, tangrim?” (so‘roq-norozilik);

“Bu senmi istiqbol – chevar ollohning,

Izmida borlig‘in etayotgan bunyod?”(so‘roq-mamnunlik) [1]

Ko'rinib turibdiki, muallif so'roq gaplar orqali pragmatik intensiyani yashirin holda, bu sintaktik birlikning mazmun qavatlarida mohirona ifodalagan.

Umuman, tahlillardan ma'lum bo'ladiki, so'roq gaplar muloqot birligi sifatida faqat so'roq mazmuninigina ifodalamaydi. So'roq gaplar nutqda pragmatik vaziyat talabiga muvofiq, shaxsning kommunikativ maqsadi, niyati, subyektiv munosabati va bahosi, ruhiy holati va ichki kechinmalari yuzaga keltiradigan turli pragmatik mazmun qirralari bilan o'z mazmun mundarijasini kengaytirib boradi.

Adabiyotlar:

1. АЗИМ, Усмон. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1995. – 432 б.
2. Murod, Tog'ay. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. Roman. –Т.: Ziyo nashr, 2019. – 204 b.
3. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O'zbek tili va adabiyoti. –Т., 2001. –№4. – B. 54-58.
4. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. –Samarqand, 2013. –104 b.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Т.: Fan va texnologiya, 2009. – 414 b.

SAMANDAR VOHIDOV SHE'RIYATI FONOSTILISTIKASI XUSUSIDA⁵⁹

T.H. Asadov,

BuxDU, o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.n.

A.O'. Azimova,

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

ta'lim mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro farzandi Samandar Vohidov ijodining ayrim xususiyatlari – shoir she'rlari fonostilistikasi, ushbu hodisani ta'minlovchi til

⁵⁹ Tahlilga tortilgan misollar manbasi: Vohidov Samandar. Qatralarda nur yonar: she'rlar. –Т.: "Yosh gvardiya", 1978. 40 b.

va nutq vositalari haqida so'z boradi. Har bir nazariy fikr shoir ijodidan saralab olingan materiallar bilan keng dalillangan va munosabat bildirilgan.

Tayanch so'zlar: lingvostilistika, fonostilistika, fonografiya, alliteratsiya, assonans, geminatsiya, konnotativ ma'no.

Bugungi kunda lingvopoetika va uning tarkibiy qismlari – lingvostilistika, lingvodidaktika, lingvosemantika, lingvostilistika, lingvostatistika va h.k. sohalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ko'lami son va sifat jihatdan ancha oshdi. Hatto nasriy va nazmiy asarlarni lingvopoetik nuqtayi nazardan alohida-alohida tahlil etish, lingvistik poetika, lingvopoetik tahlil jarayonlarini baholash[4], lingvopoetik tahlil tamoyillarini belgilash[5;8] borasidagi ishlar va shunga yondosh tadqiqotlarning son va sifat jihatdan oshib borayotganligi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi kesimida lingvopoetikaning nazariy jihatdan ancha yetilib ulgurganligini ko'rsatadi.

Bilamizki, badiiy asar tili, til hodisalarining uslubiy, badiiy-estetik jihatlari, ijodkorlarning badiiy til vositalari (fonetik, leksik-grammatik vositalar)dan foydalanish mahoratini tadqiq etish shu tilni har tomonlama rivojlantirishda qo'l keladi.

Ko'pgina iste'dodli ijodkorlar singari Buxoroning suyuqli farzandi Samandar Vohidov ham til hodisalarini chuqur his qilgan holda qalam tebratdi, natijada jozibador, teran she'riy misralar yaratdi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir Samandar Vohidov ijodi ko'hna va navqiron Buxoroyi sharif, shu mo'tabar maskan xalqi, yurt istiqloli, vatanga muhabbat, mehr-oqibat haqidadir. "...Samandar Vohidov she'rlarida qadim bobolardan qolgan falsafa mavjlanib turadi. Bunga esa shoir avvalo mumtoz adabiyotimizni mutolaa va mushohada etish orqali erishdi..."⁶⁰. Taniqli adib va shoir Omon Muxtorbir maqolasida qalamkash do'stini shunday ta'riflaydi: "...Samandarni hayotida biron lahza she'r xayoli tark etgani yo'q. Samandar Vohid viloyatda yashab ijod qilayotgan, adabiyot muxlislari orasida obro'-e'tibor qozongan shoirlardan biridir. Ko'p yillardan buyon shaxsan men ham uning she'riyati muxlisiman".

⁶⁰ Samandar Vohidov. G'azallar. www.kh-davron.uz

Samandar Vohidov qalami o'tkir ijodkorlar qatorida til hodisalari, mazkur hodisalarning badiiylikni ta'minlashdagi vazifalaridan o'rinli foydalana oldi. Bu uning barcha ijod namunalari, xususan, she'riyatida yaqqol ko'rinadi. Biz mazkur tadqiqotimizda shoir she'rlarining ayrim fonopoetik xususiyatlarini tahlil etishni maqsad qilib oldik.

Ma'lumki, til birliklarining denotativ ma'nosiga konnotativ ma'no yulqalash nafaqat leksik-grammatik shakllarda, balki fonetik va grafik belgilar orqali ham amalga oshiriladi. Fonetik vositalar bilan yuzaga chiqadigan rang-baranglik nutq tovushlarining so'zda paradigmatic va sintagmatic munosabatga kirishganida ro'yobga chiqib, uslubiy ahamiyat kasb etadi[3,5]. Talaffuzda tovushlarni ikkilantirish, takror qo'llash, tushirib qoldirish turlicha qo'shimcha ma'no bo'yoqlarini yuzaga chiqaradi. Bu hol nutq tovushlarining ematsional-ekspressiv xususiyati bilan bog'liq jarayon sanaladi. Bu borada o'zbek tilshunosligida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan[1;3;6;7]. Quvonarlisi shundaki, o'zbek tilshunosligida ham grafik, ham fonetik vositalarning matniny imkoniyatlari monografik tadqiq etilgan[3;7]. Ijodkorlar o'z badiiy niyatini amalga oshirish maqsadida grafik vositalarning turli shakllaridan foydalanishga harakat qilishadi. Natijada fonografik vositalar fonopoetika uchun material bo'lib xizmat qiladi, badiiy uslub me'yorlari ta'minlanishiga ko'mak beradi. Bunda fonetik vosita sifatida alliteratsiya, assonans, geminatsiya asosiy o'rin tutadi[8,29-31]. Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan shoir Samandar Vohidov ijodida fonografik vositalar, jumladan, alliteratsiya, assonans, geminatsiyaning yorqin ko'rinishlari kuzatiladi.

Alliteratsiya fonostilistik hodisa sifatida O.Axmanova tomonidan birmuncha aniq izohlanganligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur hodisa bir xil yoki talaffuziga ko'ra bir-biriga yaqin tovushlarning, tovush birikmalarining so'z boshida, bo'gin boshida takrorlanib kelishi hamda ohangdorlikni hosil qilishi sifatida sharhlanadi[2,40]. Bundan esa muayyan bir poetik maqsad ko'zlangan bo'ladi, albatta. Tadqiqotlarda mazkur hodisaning vertikal, gorizontallik ko'rinishlari ham talqin etiladi[8,30]. Samandar Vohidov ijodida gorizontallik (misra yoki jumla ichida) alliteratsiya namunalari ko'p uchraydi. Misollarni kuzatamiz: 1. *Tashvishlar tuzog'i fikrim etsa*

band/ Taskin, tasalliga qalbim qolsa zor. (“Sizni qo’msab”) Bu misralarda t tovushining uyg’unligi o’zaro ohangdorlikni ta’minlaganligiga guvoh bo’lamiz.

2. *Bizga tanish edi kampir qo’shig’i/ To’tiday chuldirab etardik takror/ Kampir ko’zlariga cho’kardi qayg’u/ Yig’lardi... Qo’shilib yig’lardik zor-zor.* (“Ijobatsiz duolar”) Bu she’riy parchada esa t va k tovushlarining uyg’unligi ohangdorlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

3. *“...Billur ishqqa qaydan qo’nib qoldi chang/ Hijron toshi sindirdimi tishingiz”..*

4. *Men yana sevgingga sig’inib shu on/ Sarbador singari ko’targum isyon...* (“Senga”)

Ko’rinadiki, mazkur misralarda ayrim tovushlar musiqiylikni ta’minlab, ritmni yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Shoir so’z qo’llash bilan bog’liq imkoniyatdan mohirona foydalana olgan.

Ma’lumki, so’zda bir undoshni atayin ikkilantirib keltirish konnotativ ma’noni hosil qiladi[3 31]. Mazkur hol, ya’ni geminatsiya fonostilistik hodisasidan Samandar Vohidov ham unumli foydalangan. Shoir ayrim misralarida ma’lum bir estetik maqsad bilan, ya’ni ko’ngil ifodalarini to’laqonli yetkazish (ma’noni kuchaytirish, belgining me’yordan ortiqqligini ko’rsatish, harakatning davomiyligini ifoda etish) maqsadida unga murojaat etadi: 1. Eshiging ortida xo’rsinadi kuz:/ “**He-e-y**, men ketmoqdaman... Xayr, yaxshi qol!”

Ushbu misralarda grafik belgilar bilan bog’liq konnotatsiya ifodaning ta’sir quvvatini kuchaytiruvchi vosita (geminatsiya) mavjud *he-e-y* so’zi orqali yuzaga chiqqan.

Bilamizki, fonostilistika uchun xilma-xil grafik belgilar ham xizmat qila oladi[7]. Bu hol zamonaviy adabiyot rivoji bilan birga yanada rango-rang tus kasb eta boryapti. O’quvchi e’tiborini jalb etish maqsadi bilan ijodkor fono-grafik vositalar (jumladan, so’zda tovushlarni bir necha bor qo’llash, bo’g’inlarga ajratib yozish, misra ichida bosh harf yoki bosh harflarda yoki qalin shiriftda yozish)dan unumli foydalanishga harakat qiladi. Samandar Vohidov she’riyati ham bundan

istesno emas, albatta: 1. *Men yayragan bog'larni ekkan qo'lga tashakkur/ Men zavq olgan she'rlarni to'kkan dilga tasanno.*

2. *Uzib tashlagandi, yo'qday keragi/ **Muhabbat** oloviga tushdi yuragi.*

3. *Va... bir kun qarasa/ Bosh uzra nurfosh –/ Yurak yonar edi.../ Yurakmas,*

QUYOSH...

Tahlilga tortilgan she'riy misralarda *tashakkur, tasanno, muhabbat, quyosh* so'zlari ma'lum bir shakllarda ifodalanib, uslub yaratishga xizmat qilgan.

Xullas, Samandar Vohidov ijodi badiiyligini ta'minlashda leksik vositalar bilan birga fonografik vositalar ham faol qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur hodisalarning qo'llanishida hech qanday sun'iylik sezilmaydi. Fonostilistikaning materiali bo'lib xizmat qilgan har bir vositadan ijodkor o'rinli va mohirona foydalanganligiga guvoh bo'lamiz.

Adabiyotlar:

1. Абдуазизов А. Фоностилистик воситаларнинг ўрганилишига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. 1985, №2, 24-28-б.
2. Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969.
3. Хайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши. Монография. –Т.: Наврўз, 2017.
4. Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни. Илмий тўплам. –Т.: Университет, 2002, 20-23-б.
5. Мирзаев И. Лингвопоэтик таҳлил–ижодий тафаккур соҳибини тайёрлашнинг бирламчи омили эканлиги ҳақида. Илмий тўплам 3-том. –Т.: ЎзМУ нашри, 2006, 81-83-б.
6. Қобилова З. Ўзбек тилининг фоносемантик воситалари. НДА. – Т., 2008.
7. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. НД. – Т., 1996.
8. Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009.

BOLA NUTQINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI(6-7 YOSH)

N.B. Obloberdiyeva,

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari va ularga psixolingvistik jihatdan yondashuv tasvirlangan. Ta'kidlash lozimki, bola har bir yoshida ma'lum gapirish ko'nikmasini o'zida shakllantirib, ulg'aygani sari lug'at boyligining yanada oshib borishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Aytish o'rinliki, maqolaga tadqiq manbasi sifatida 6-7 yoshli bolalar nutqining psixolingvistik jihatlari tanlab olindi va misollar yordamida izohlandi.

Kalit so'zlar: bola nutqi, psixolingvistik jihat, xususiyat, so'z boyligi, foydalanish, ko'nikma, tadqiq.

Inson yer yuzidagi boshqa mavjudotlardan o'zining nutqi, tafakkuri ila ajralib turuvchi Alloh taoloning buyuk yaratig'idir. Alloh taolo basharning nutq irod eta olishi uchun unga nutqiy qobiliyat ato etdi. Ana shu nutqiy ko'nikma insonning ijtimoiy holatidan, ong-u tafakkuridan, ta'lim-tarbiyasidan darak beruvchi eng muhim omil sanaladi[7]. Zero, shoirlarning sultoni Alisher Navoiy aytganlaridek:

Oldiga qo'yganni yemoq – hayvonning ishi,

Og'ziga kelganni demoq – nodonning ishi.

Bilamizki, inson tug'ilishi bilanoq gapirish ko'nikmasiga birdan ega bo'lib keta olmaydi, buning uchun yillar lozim. Bosqichma-bosqich nutqiy qobiliyatga va lug'at fondiga ega bo'lgan bola gapirish jarayonida ana shu ko'nikmani ishga solishi bilan ahamiyatlidir. Biz siz bilan tadqiq qilmoqchi bo'lgan ushbu maqolada bola nutqining psixolingvistik omillari aynan 6-7 yosh oralig'idagi bolalar misolida ko'rib chiqiladi[1].

Bolalar nutqini bir necha bosqichga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq masala hisoblanadi:

Go'daklik davri – bu davr “gugulash” davri deb ham nomlanadi;

Bir yoshlik davri – ushbu davrda bola axborotni qabul qilishni, ya`ni nutqni eshitish ko`nikmasini o`zida rivojlantiradi;

Ikki yosh – bolalarda amaliy muloqot davrining boshlanishi. Ushbu davrning muhim xususiyati shundan iboratki, bola bu yoshda tovushlarning takrorlanishi va ma`lum jismlarning nomlanishini alohida o`rgana boshlaydi;

a) Uch yosh – bola nutqining jadal shakllanish, so`zlarni bir-biriga bog`lash ko`nikmasiga ega bo`ladi;

b) 4-5 yosh – ushbu yoshda bola kattalar bilan bemalol muloqotga kirisha oladi, o`ziga mos ravishda lug`at boyligiga ega bo`ladi va shu kabi yoshga muvofiq ravishda bola nutqining o`sishi kuzatiladi[1].

Shuni ta`kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan yosh davrlar nutqiy ko`nikmasi aynan hamma bolalarda ham bir xil tarzda kechadi, deb aytish, mutlaqo xato. Ba`zi genetik jihatlar, orttirma kasalliklar va tashqi omillar hisobiga bola nutqining kechroq chiqishi holatlarining ham kuzatilganligiga guvoh bo`lishimiz mumkin.

Maqolamizning asosiy subyekti hisoblanmish 6-7 yoshli bolalarning nutqi ham o`ziga xos psixolingvistik xususiyatlarga ega bo`lib, ularning nutqi o`z yoshiga monand ravishda nutqiy ko`nikma va so`z boyligi jamlanmasidan iborat bo`ladi. Bu yoshdagi bolalar topshiriq sifatida beriladigan matnni mantiqiy, ba`zi hollarda uzilishlar bilan aytib bera olish ko`nikmasiga ega bo`ladi. Aynan shu yoshda bolalarda ichki nutq shakllana boshlaydi. Bundan tashqari, 6-7 yoshli bolalar so`zlarning birinchi tovushlarini ham ajratib ko`rsata olish xususiyatiga ham ega bo`la oladilar[3].

Xususan, ushbu holatni Madiyeva Komila (6 yosh) bilan tarjiba tarzida o`tkazganimizda unga berilgan olma, kitob, daftar so`zlaridagi birinchi tovushlarni qiyinchiliklarsiz ajratib ko`rsata oldi:

1	Olma	O
2	Kitob	K
3	Daftar	D


6 yoshli bolalar nutqining o`ziga xos jihati shundan iboratki, ular, asosan, berilgan rasm asosida matn tuzishga harakat qiladilar, bu esa ularda hikoya tuzish

qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. 6 yoshli bolalar nutqida 2000 dan ortiq soʻz boyligi mavjud boʻlib, ularda kuzatiladigan asosiy savol turi sifatida “nima uchun” soʻzi qayd etiladi[4].

7 yoshli bolalar nutqiy holatiga toʻxtaladigan boʻlsak, ularning nutqi 6 yoshli bolalar nutqidan bir qator jihatlari bilan farqlanishining guvohi boʻlishimiz mumkin, yaʼni 7 yoshli bolalar nutqi izchil, meʼyoriy jihatdan tartibga solingan, grammatik jihatdan 6 yoshli bolaning nutqidan ustuvor, tovushlar talaffuzi ham aniq va ravon. 7 yoshli bolalar berilgan matnni biroz boʻlsa-da ifodali oʻqishga intiladilar, bu esa, albatta, oʻqituvchi tomonidan oʻrgatiladigan malakaga bogʻliq hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, 7 yoshli bolaning nutqi kamchiliklardan ham xoli emas, yaʼni murakkab birliklarni tuzishda qiyinchilikka duch kelishadi. Leksikonida mavjud boʻlmagan soʻzlarning maʼnolarini anglashda qator qiyinchiliklarni boshdan oʻtkazadilar. 7 yoshli bolalar nutqi lugʻat boyligi 3500 dan ortiq soʻzni tashkil etadi[1].

Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, 6-7 yoshli bolalar nutqini yaxshi va ravon shakllantirish uchun toʻgʻri uslublardan foydalanish lozim, bunda ota-ona va pedagogning taʼsiri kattadir. Xususan, 6-7 yoshli bolalar bilan ishlaganda quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

- a) Toʻgʻri talaffuz mashqi , bu mashqni tez aytishlar yordamida bajarish nutqning sifatli va samarador boʻlishiga yordam beradi. Bola yoshiga mos tez aytish tanlanishi maqsadga muvofiq vazifadir: “Lak-lak elak, elakka un kerak”, “Gʻani gʻildirakni gʻildiratdi” va hokazo.
- b) Surat asosida matn tuzdirish (bunda kalit soʻzlardan foydalanish) – ushbu jarayon 6-7 yoshli bolalarning lugʻat boyligini oshirishdagi asosiy usul hisoblanadi;
- c) “Davomini toping!” mashqi . Ushbu mashqda bola soʻz va harakat uygʻunligini amalga oshirishi lozim. Buni klaster uslubida bajarish maqbulroq:



Ushbu mashqqa bola o`z leksikonida mavjud so`zlardan foydalangan holda javob beradi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bola nutqining rivojlanishi o`ziga xos murakkab jarayon bo`lib, ularning bosqichma-bosqich shakllanishi nutq jarayonining yanada mukammal, yanada ravon bo`lishiga yordam beradi. 6-7 yosh bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari yosh davrlar psixologiyasidan kelib chiqqan holda amaliy shug`ullantirilsa, bolaning kelgusidagi nutq malakasining yanada yuqorilashuviga va lug`at boyligining yanada oshishiga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М. : Учитель, 1975.
2. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. –М.: Учитель, 1977.
3. Рождественский Ю.В. Типология слова. – М.: Ленин, 1969.
4. Кодухов В.И. Общее языкознание. – М.: Боровской, 2010.
5. Амирова Т., Олховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. –М.: Ленин, 1975.
6. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –Т.: Yangi asr avlodi, 2009.
7. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –Т.: Atlantic academy, 1972.

8. Baskakov N.A. va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, O'qituvchi, 1979.

KOSMETOLOGIYAGA OID TERMINLAR

D.R.Qahhorova,

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kosmetologiyaga oid terminlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ta'kidlash lozimki, kosmetologiyaga oid terminlarning o'ziga xos tarixi mavjud bo'lib, ularning bugungi kunda badiiy asarlarda qo'llanilishi kosmetologik atamalarning badiiy qiymatini oshiradi. Aytish o'rinliki, kosmetologiyaga oid terminlarning etimologiyasini aniqlashda qator manbalarga murojaat qilindi va ularning qo'llanilish o'rnini lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: kosmetologiya, termin, badiiy qiymat, asar, nazariy tahlil, etimologiya, tilshunoslik nuqtayi nazaridan.

Ma'lumki, har bir sohaning o'ziga xos terminlar lug'ati mavjud bo'lib, ushbu terminlar lug'atini shakllantirishda sohaning vazifaviy ustuvorligi asos qilib olinadi[1]. Xuddi shunday kosmetologiya sohasining ham o'ziga yarasha atamalari mavjud bo'lib, ushbu maqolamizda kosmetologik atamalarning sifatlariga to'xtalib o'tamizⁱ.

Kosmetologik terminlar – bu kosmetologiya sohasida qo'llaniladigan atamalar sanalib, ularga misol sifatida xina, o'sma, surma va shu kabi qator so'zlarni kiritishimiz mumkin[8]. Bevosita kosmetologik atamalarni milliylik doirasidan kelib chiqqan holda ikki yirik guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

- a) Zamonaviy kosmetologik terminlar;
- b) Milliy kosmetologik terminlar[6].

Zamonaviy kosmetologik terminlar hozirgi kunda faol qo'llanilayotgan, asosan, chet tillaridan kirgan atamalar sanaladi, milliy terminlar esa qadim-qadimdan o'z nutqimizda qo'llanilib kelayotgan atamalar foniga nisbatan ishlatiladi.

Adabiyotimizning yetuk vakili Furqatning “Surmadin...” deya boshlanuvchi g`azali milliy kosmetologik atamalarga boy manba hisoblanadi:

*Surmadin ko`zlar qaro, qo`llar xinodin lolarang,
G`ozadin yuzlarda tobu, o`smadin qoshlar tarang*[8].

Yuqoridagi baytda qo`llanilgan surma, xino, g`oza, o`sma kabi so`zlar kosmetologiyaga oid so`zlar sifatida qayd etiladi. Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, ushbu sohaga oid terminlarning paydo bo`lish tarixi, ya`ni etimologiyasi mavjud bo`lib, taxminimizcha, ularning atama sifatidagi paydo bo`lishi Qadimgi Misr davlatlariga borib taqaladi.

Dastavval, surma so`ziga to`xtalib o`tsak. Surma – kosmetologiya sohasiga oid atama sanalib, izohli lug`atlarda ushbu so`zga quyidagicha ta`rif beriladi:

Surma – bu maydalanib, kastor yog`i bilan aralashtirilgan qora toshdir[7].

Ushbu so`zning etimologiyasiga ham so`z ma`nosi ila uyg`unlik hosil qilgan. Surma so`zi turk tilida qo`llaniladigan “syurme” so`zidan olingan bo`lib, “surish”, “qoshlarni qoraytirish” ma`nosiga ega bo`lgan. O`zbek xalq maqollari orasida ham “surma” leksemasi ishtirok etgan maqollar mavjud: “O`sma ketar – qosh qolar, *Surma* ketar – ko`z qolar”. Yoki bo`lmasa, badiiy asarlarda ham “surma” ishtirok etgan o`rinlar mavjud. Xususan, Xayriddin Sultonovning “Bir oqshom ertagi” asarida “surma” leksemasi qatnashgan o`rin bor: “Salomatning *surma* tortilgan ko`zlari ola-kula bo`lib ketdi”. Hamza asarlarida ham xuddi shunday holatni kuzatishimiz mumkin: “Bir juft quralay ko`zi *surma* bosganday qora, bir qarashi bilanoq yuragimni taka-puka qilib tashladi”[6].

Endi xina leksemasiga lingvistik nuqtayi nazardan yondashsak. Xina arabcha so`zdan olingan bo`lib, xalq shevalarida yoki o`zbek mumtoz adabiyotida xina so`zining “xino” shakli ham uchrab turadi. Wikipedia ochiq online portalida xina so`ziga quyidagicha izoh keltiriladi:

I. Derbendoshlarga mansub butalar yoki daraxtchalar turkumi; shu turkumga oid qizg`ish gulli o`simlik.

II. Shu o`simlikdan olinadigan , qo`l, tirnoq, sochni bo`yash uchun ishlatiladigan qizg`ish-sariq rangli bo`yoq[6].

Demak, biz uchun zarur bo'lgan ma'nosi uning II ma'nosi hisoblanadi. Xuddi surma leksemasi kabi xina so'zi ishtirok etgan o'zbek xalq maqollari mavjud. Vaqtida amalga oshirilmagan ishga nisbatan qo'llaniladigan "To'ydan keyin xinani ketingga qo'y" yoki "Hayitdan keyin xinani orqangga qo'y" kabi maqollarda xina leksemasini uchratishimiz mumkin. Saida Zunnunovaning "Olov" asarida ham xina so'zi qatnashgan o'rin mavjud: "Ariq bo'yidagi, kichikroq supa atrofida rayhon, namozshomgul, xina gullari barq urib yotardi". "Erali va Sherali" asarida ham buning guvohi bo'lishimiz mumkin: "Ingichka bellaring tasma, Qo'lda xina, qoshda o'sma"[6].

O'sma – o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan qosh bo'yash uchun ishlatiladigan o'simlik hisoblanib, aytishimiz lozimki, uning ham o'ziga xos tarixi mavjud. Dastlab o'smadan Misr xalqlari nil bo'yog'ini olishda foydalanganlar. Ba'zi hududlarda o'smadan faqatgina bo'yoq vositasi sifatida foydalansalar, ba'zi joylarda o'smani davolovchi vosita sifatida qo'llaydilar. O'sma bilan bog'liq mistikalar ham xalqimiz orasida uchrab turadi, xususan, erkak kishining o'sma qo'yishi mumkin emas, agar o'sma qo'ysa, tandirga tushirib chiqarish kerak kabi. Yoki o'sma atrofida yuzaga kelgan diniy tushunchalar ham el og'zidan og'ziga ko'chib yuradi: inson agar qoshiga qancha ko'p o'sma qo'ysa, u vafot etganda qoshi uning tarafini (yonini) oladi kabi. Xalq orasida o'sma bilan bog'liq qo'shiqlar ham to'qilgan bo'lib, ular hozirda elimiz orasida keng tarqalgan:

O'smalar qo'ysam yarashar qoshimga,

Do'ppilar kiysam yarashar boshimga.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, kosmetologiyaga oid birliklarning tilshunoslikda o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, ularning izohi, tilshunosligimizda bevosita qo'llanilishi, etimologik jihatlari nuqtayi nazaridan bevosita ahamiyatga egadir. Kosmetologiyaga oid terminlarning lingvistik jihatlari to'g'risida ma'lumot berganda ular asosidagi misollarni keltirish, badiiy asarlar asosida dalillash atamalarining mazmunini yanada ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Евлоева З.И. Русская лингвистическая терминология в эволютивном аспекте: диссертация кандидата филологических наук. – Нальчик , 2006. – 150с.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002
3. Ermatov I.R. O'zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019
4. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015
5. Хамроева Ш.М. Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – 2020
6. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977
6. www.wikipedia.org
7. www.hozir.org
8. www.google.com

NUTQ TA`SIRCHANLIGINI OSHIRISHDA NUTQ USLUBLARINING O`RNI

S.O'.Jurayeva,

*BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)
ta'lim mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari hamda nutq ta`sirchanligini oshirishda nutq uslublarning o`rni haqida ma`lumot berilgan. Bilamizki, nutqning emotsional-ekspressivligini oshirishda nutq uslublarning o`rni beqiyos bo`lib, nutq jarayoniga munosib holda tanlangan nutq uslubi nutqiy muloqotning yanada samarador bo`lishiga xizmat qiladi. Ta`kidlash

lozimki, nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi vosita sifatida qayd etib o'tilgan nutq uslublaridan misollar keltirilib, dalillash maqsadida qo'llanildi.

Kalit so'zlar: nutqiy muloqot, nutq uslublari, ta'sirchanlik, nutq jarayoni, emotsional-ekspressiv, vosita.

Barchamizga ma'lumki, nutq – bu insonga xos jihat hisoblanib, Alloh taolo basharga nutq irod eta olishi uchun qobiliyat ato etdi. So'z gavhari ila ma'no xazinasiga topa olgan inson zoti har doim o'z nutqining go'zalligini ta'minlashga, uni o'zgalarga yetkazib berishda turli vositalardan foydalanishga harakat qilgan. Sababi, ta'sirchan nutq so'zlovchining mahoratini namoyish etish bilan birgalikda tinglovchining hislarini junbushga keltiradi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, nutq ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi qator vositalar mavjud bo'lib, ularga misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- a) Maqol, matal, hikmatli so'zlar va hokazo;
- b) She'riy baytlar;
- c) Nutq uslublari va boshqalar⁶¹.

Biz siz bilan tadqiq qilmoqchi bo'lgan bo'lgan ushbu maqolada nutq uslublari haqida so'z borib, ularning ta'sirchan nutqni yaratishdagi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

Nutq uslublari bu ma'lum bir nutqiy vaziyat talabidan kelib chiqib qo'llaniladigan, uslubiy xoslangan so'zlar, birikmalar, gaplarni jamlanmasi sanalib, o'zbek tilida beshta nutq uslubi mavjudligi manbalarda qayd etiladi, ya'ni:

- I. So'zlashuv uslubi.
- II. Badiiy uslub.
- III. Rasmiy uslub.
- IV. Publisistik uslub.⁶²
- V. Ilmiy uslub.

⁶¹ Galyashina E.I. Preliminaries in Forensic Speech Science. Moscow: STENCY, 2003. 236 p. (In Russ.)

⁶² Galyashina E.I. Forensic linguistic examinations in trademark disputes. The Russian Laws. Experience. Analysis. Practice = Zakony Rossii: opyt, analiz, praktika. 2006. No. 12. P. 77–94. (In Russ.)

Shu o'rinda bir savol paydo bo'lishi tabiiy: xo'sh, nutq uslublari nutqning ta'sirchanligini qanday ta'minlashi mumkin? Bu borada nutq uslublarini ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir, ya'ni:

- a) Passiv;
- b) Faol⁶³.

Passiv nutq uslublari, ya'ni nutq ta'sirchanligiga birozgina ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi, ilmiy va rasmiy uslub doirasida shakllanib, ular nutqiy vaziyat talabidan kelib chiqqan holda amal qiladi. Kamdan kam hollarda ularning nutq ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin. Sababi, ular majhul nisbat, tayyor qoliplar, ma'lum shaxsga qaratilmaganlik xususiyatlariga egadir. Biroq faol nutq uslublari to'xtaladigan bo'lsak, ular nutq ta'sirchanligini oshirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi: so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, publisistik uslub.

Bilamizki, so'zlashuv uslubi kundalik turmushimizda qo'llanadigan odatiy so'zlashuv usulini qamrab olgan bo'lib, ularni ta'sirchanlik doirasini hisobga olgan holda ikki yirik guruhga ajratib o'rganish maqbulroq: salbiy doirali so'zlashuv uslubi va ijobiy doirali so'zlashuv uslubi. Salbiy ma'nodagi so'zlashuv uslubi inson ruhiyatiga yomon ta'sir ko'rsatuvchi nutqiy muloqotni o'zida aks ettirishi bilan ajralib tursa, ijobiy ma'nodagi so'zlashuv uslubi kishiga yaxshi holatni baxsh etishi bilan ahamiyatlidir. Qiziqarli tomoni shundaki, har ikki turdagi so'zlashuv uslubi ham insonga ekspressiv-emotsional ta'sir qilish xususiyatiga ega. Quyida keltirilgan misollarga e'tibor bering:

Hoy, jinqarcha, hoy sen, menga qara, hozir abjag'ingni chiqaraman (so'zlashuv uslubidan). Ushbu gap so'zlashuv uslubining salbiy ma'noni o'zida aks ettirgan ma'noviy guruhiga mansub bo'lib, unda salbiylikni ta'minovchi qator vositalar mavjud⁶⁴, jumladan:

- a) Undov so'z: hoy – uni ikki marta takrorlash orqali salbiy ma'no kuchaygan;

⁶³ Baranov A.N., Linguistic Examination of Texts: Theoretical Grounds and Practice, Science, Moscow 2013 [In Russian].

⁶⁴ Galyashina E.I. Forensic linguistic examinations in trademark disputes. The Russian Laws. Experience. Analysis. Practice = Zakony Rossii: opyt, analiz, praktika. 2006. No. 12. P. 77–94. (In Russ.)

b) Undalma: jinqarcha;

c) Ibora : abjag`ingni chiqaraman.

Demak, salbiy ma`no ham , o`z-o`zidan qator vositalar orqali yuzaga chiqishi ma`lum bo`ldi.

Dilbar qizim, asal qizim, shirin qizim, borlig`im mening , hayotim mazmuni(so`zlashuv uslubidan). Keltirilgan gapdagi barcha so`zlar faqat ijobiy ma`nodagi so`zlar yig`indisidan iborat bo`lib, uni yuzaga keltirishda uyushiq undalma(dilbar qizim, asal qizim, shirin qizim) muhim rol o`ynagan. Uyushiq kesim vazifasini bajargan so`zlar ham (borlig`im mening, hayotim mazmuni) ijobiylikni ta`minlovchi vosita sifatida yuzaga kelgan.

Shu o`rinda qayd etib o`tish lozimki, badiiy uslub nutq ta`sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy manba sifatida qayd etiladi. Badiiy asarlarda qo`llaniluvchi badiiy tasvir vositalari nutq ta`sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qayd etiladi:

Nozuklik ichra yo`q tori gisuyi,

O`z haddini bilib belidin o`lturur quyi,-

She`riy misrasida qo`llangan husni ta`lil san`ati nutq ta`sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vosita vazifasini bajargan⁶⁵. Yoki bo`lmasa alliteratsiya qo`llangan ushbu satrlarga e`tibor bering:

Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing qiz,

Qilur qatlimga qasd qayrab,

Qilich qotil qaroshing, qiz, -

satrlari ham kitobxonni o`z ta`sirchanligi ila jalb qila oladi.

Publisistik uslub ham badiiy uslubga o`xshab ketsa-da , biroq ommaviy axborot vositalariga asoslanganligi bilan undan farq qiladi. Publilsistik uslub doirasida qo`llaniladigan nutqiy vositalarning barchasi nutqning emotsional-ekspressiv vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

⁶⁵ Galyashina E.I. Forensic evaluation of verbal extremism. Expert-criminalist. 2009. No. 2.P. 14–. (In Russ.)

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, nutq ta'sirchanligi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi badiiylikni, voqelikni yetkazib berishdagi mohiyatni ochib berishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Nutq uslublarning nutq ta'siridagi o'rni benihoyadir. Har bir nutq uslubining nutqni bezashdagi o'rnini nazarda tutadigan bo'lsak, xilma-xillikni, serjilo qirralariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ba'zi nutq uslublari nutq ta'sirchanligini oshirishda passiv bo'lsa, ba'zilari o'z faolligi bilan nutqimizda tez-tez ishtirok etadi.

Adabiyotlar:

1. Baranov A.N., Linguistic Examination of Texts: Theoretical Grounds and Practice, Science, Moscow 2013 [In Russian].
2. Coulthard M., Jonson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. New York: Routledge, 2007. 237 p.
3. Olsson J. Forensic Linguistics. 2nd.ed. London: Continuum International Publishing Group, 2008. 256 p.
4. Galyashina E.I. Preliminaries in Forensic Speech Science. Moscow: STENCY, 2003. 236 p. (In Russ.)
5. Galyashina E.I. Forensic linguistic examinations in trademark disputes. The Russian Laws. Experience. Analysis. Practice = Zakony Rossii: opyt, analiz, praktika. 2006. No. 12. P. 77–94. (In Russ.)
6. Galyashina E.I. Forensic evaluation of verbal extremism. Expert-criminalist. 2009. No. 2.P. 14–. (In Russ.)
7. DmitryV. BakhteeV Forensic examination of anonymous handwritten documents in order to obtain data on the identity of their author and performer.

JONDOR SHEVASIDAGI UY-RO`ZG`OR BUYUM NOMLARINING O`ZIGA XOSLIGI

N.B.Erkinboyeva

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jondor shevasida qo'llaniluvchi uy-ro`zg`or buyumlari nomlari to`planib, ularning har biri leksik jihatdan tasniflashga harakat qilingan. Bundan tashqari, uy-ro`zg`or buyumlarining tarixiy etimologiyasiga ham bir qadar to`xtalangan. Uy-ro`zg`or buyumlarining nomlarini tadqiq qilishda o`z va o`zlashgan qatlamga ajratib tadqiq qilingan. Ta`kidlash joizki, Jondor shevasidagi uy-ro`zg`or buyumlarining nomlarining yangi ko`rinishlari haqida ham bir qadar ma`lumotlar berib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Jondor shevasi, uy-ro`zg`or buyumlari, nom, etimologiya, neologizm, ma'no, qatlam, leksik tahlil.

Barchamizga ma`lumki, o`zbek tili lug`at manbalariga boy til hisoblanadi. Har bir so`zning o`ziga xos etimologik variant, tarixiy ko`rinishi, zamonaviy shakllari mavjud bo`lib, ularni alohida tadqiq qilish tilimizning mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borishimizga yordam beradi. Biz siz bilan tadqiq qilmoqchi bo`lgan ushbu maqolada Jondor shevasida qo'llaniluvchi uy-ro`zg`or buyumlari va ularning o`ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Ta`kidlash lozimki, har qaysi hududdagi narsa-buyum nomlari ana o`sha hudud madaniyati, ma`naviy qadriyat, an`analari bilan bevosita bog`liqdir. Jondor shevasida qo'llaniluvchi uy-ro`zg`or buyumlarining dialektik variantlari bugun yoki kecha paydo bo`lib qolgan hodisa emas. Ularning kelib chiqish tarixi mavjud bo`lib, ba`zi qadimgi yozma manbalarda uy-ro`zg`or buyumlari nomlariga duch kelishimiz mumkin. Xususan, Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit-turk” asarida ham uy-ro`zg`or buyumlarining nomlari salmoqli bo`lib, ularning ba`zilari hozirda nutqimizda qo'llanilsa, ba`zilari umuman boshqa ma`no kasb etadi⁶⁶. Jumladan, “manxul” elak ma`nosini anglatsa, “eshik” qozon

⁶⁶ M.Koshg`ariy. Devonu lug`otit turk. III tomlik. T. – 1960. – I tom, 17, 67 betlar.

so`zini ifodalagan. Bundan tashqari, “idish” – piyola , “ayaq” – kosa va shu kabi qator so`zlarni asarda uchratishimiz mumkin⁶⁷. Yuqorida ta`kidlaganimizdek, asarda ishlatilgan narsa-buyum nomlarining ba`zilari hozirda umuman boshqa ma`no kasb etadi. Asarda qo`llanilgan “idish” so`zi eski turkiy tilda piyola ma`nosini namoyon etgan bo`lsa-da, hozirgi kunga kelib ushbu ma`no tubdan o`zgargan. “O`zbek tilining izohli lug`ati” da idish so`ziga quyidagicha ta`rif beriladi: “*Narsa solish(solib qo`yish) uchun ishlatiladigan uy-ro`zg`or yoki xo`jalik buyumi. Don idish. Suv idish*”. Demak, hozirgi o`zbek tilida qo`llanilayotgan idish so`zi umumiy ma`no kasb etmoqda.

Jondor shevasida qo`llaniladigan uy-ro`zg`or buyumlari nomlarining ba`zilari adabiy tilga yaqinroq ko`rinish kasb etadi. Biroq ba`zi sheva elementlari borki, ularni izohsiz anglash qiyin. Masalan , “qazon” so`zini leksik jihatdan tahlil qiladigan bo`lsak, ovqat pishirish uchun mo`ljallangan idish ma`nosini anglatadi. Sheva elementi sifatida qo`llanilganda ushbu so`zda tovush o`zgarishi yuz berganini kuzatishimiz mumkin: adabiy tilda – qozon, shevada – qazon⁶⁸.

Jondor shevasida qo`llaniladigan uy-ro`zg`or buyumi nomlaridan biri bu “tarelka” dir. Tarelka rus tilidan o`zlashma so`z hisoblanib, o`zbek tilidagi muqobili likopcha hisoblanadi va ovqat suziladigan, tubi keng, cheti biroz ko`tarilgan yassi oshxona idishiga nisbatan ishlatiladi. Jondor shevasida uning mis tarelka, chinni tarelka kabi turlarini uchratishimiz mumkin.

Cho`mich- suyuq ovqatlarni shopirish va suzish uchun ishlatiladigan uzun dastali ro`zg`or asbobi. Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit-turk” asarida cho`michning “qamich” ko`rinishi uchraydi va muallif ushbu so`z ishtirokida maqol ham qo`llaydi : “Eshich ayur: tubum altun. Qamich ayur: man qanda-men/qaydaman-men?” , ya`ni qozon tubim oltin deb maqtansa, cho`mich men qaydaman deydi⁶⁹.Cho`mich Jondor shevasining turli hududlarida choygardon shaklida ham qo`llanilishiga guvoh bo`lishimiz mumkin.

⁶⁷ M.Koshg`ariy. Devonu lug`otit turk. III tomlik. T. – 1960. – I tom, 17, 67 betlar.

⁶⁸ Пшеничнова Н.Н. Лингвистическая география. –М.: Азбуковник, 2008.

⁶⁹ M.Koshg`ariy. Devonu lug`otit turk. III tomlik. T. – 1960. – I tom, 17, 67 betlar.

Jondor shevasiga xos yana bir soʻzlardan biri tikanch hisoblanadi. Tikanch-non yopish jarayonida non gul otmasligi uchun foydalaniladi, tikanchning har xil shakllari bor, naqshli, gulli tikanch kabi. Aholi orasida tikanch soʻzi parchuq atamasi ham yuritiladi⁷⁰.

Rapida-tandirga non yopish uchun ishlatiladigan matodan tikilgan qalin qoʻlqop. Jondor shevasida qoʻllaniluvchi ushbu soʻz, qiziqarli jihati shundaki, Surxondaryo shevasida ham xuddi shu koʻrinishda uchraydi. Rapida soʻzi oʻzbek tiliga fors-tojik tilidan oʻzlashgan boʻlib, asl koʻrinishi “rafida” shakliga ega hisoblangan. Soʻz oʻzlashtirish jarayonida tovush oʻzgarishi yuzaga kelib “rapida” shaklini olgan⁷¹.

Chorshoxa-xas-xashakni olish uchun moʻljallangan xoʻjalik asbobi. Xuddi shoxga oʻxshagan oʻrtacha uzunlikdagi toʻrtta tutqichdan iborat. Fors-tojik tilidan oʻzlashgan ushbu soʻz “chor” – toʻrt, “shoxa” – shoxli maʼnosini anglatadi. Qipchoq shevasiga qiyosan oladigan boʻlsak, ushbu shevaning “shoxa” koʻrinishi ham muvjudligini kuzatishimiz mumkin⁷².

Katman-adabiy tilda ketmon tarzida qoʻllaniladi, yuzi katta, orqa tomonida dasta suqib qoʻyadigan zoʻgʻatasi bor, yer chopish, loy qilish kabi ishlarda ishlatiladigan dastakli asbob. Ushbu soʻzning kelib chiqishi qadimgi turkiy manbalariga borib taqaladi. Qadimgi turkiy tildagi “kir->ker” feʼlining “bir-biridan ajrat” maʼnosidan “takror” maʼnosini namoyon etuvchi “-t” qoʻshimchasi bilan hosil qilingan shakliga “-man” qoʻshimchasini qoʻshish orqali yuzaga kelgan: kir->ker+it=kerit-+man=kertman>ketman⁷³.

Oftoba - suv solish uchun moʻljallangan roʻzgʻor idishi. Jondor shevasi leksikasida tez-tez ishlatiladigan ushbu leksemaning boshqa dialektlarga ham turli varianlari mavjud, yaʼni obdasta, qumgʻon va hokazo.

⁷⁰ Пшеничнова Н.Н. Лингвистическая география. –М.: Азбуковник, 2008.

⁷¹ www.google.com

⁷² www.google.com

⁷³ www.google.com

Choynakpo'shak – Jondor shevasidagi ushbu soʻz choynakdagi choy issiq turishi uchun choynakka moslab tikilgan mato ma'nosiga ega. Qarluq shevasida choynakpo'shakning “qalpoq” shakli mavjud.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Jondor shevasida qo'llaniladigan soʻzlar, ya'ni uy-ro'zg'or buyumi nomlari mahalliy hudud vakillarining ehtiyoji, milliy qadriyatlarini asosida yuzaga kelgan. Ularning har birining tarixan kelib chiqishi, hozirda qo'llanilish miqdori, salmoqdorligi mavjud bo'lib, bu ularning nutqida qo'llovchi mahalliy aholi vakillarining soni bilan belgilanadi. Kelgusida Jondor shevasida qo'llaniluvchi uy-ro'zg'or buyumlari nomlarini aks ettiruvchi soʻzlar lug'atini tuzish ularning kelgusi avlodga yetib borishini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

- Xo'ja Ahmad Yunus. “Turkiy tillar devoni” dagi bayonlardan uyg'urlarning XI asrdagi yemak-ichmak madaniyatiga nazar. // Urumchi, 2005. № 4, 21-b.
1. Пшеничнова Н.Н. Лингвистическая география. –М.: Азбуковник, 2008.
 2. Linguistic Geography. Atlas. –L.: People and Landscape, 2017.
 3. Raven I. Sociolinguistics and Linguistic Geography. Scientific article
 4. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I jild. 126, 159, 444, 445-b "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Issue 5 / 2020 ISSN 2181-063X 160 <http://oac.dsmi-qi.uz> 4.
 5. M.Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. III tomlik. T. – 1960. – I tom, 17, 67 betlar.
 6. Abdulaxatov N. va boshqalar.Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asaridagi leksik birliklar tadqiqi. Toshkent- 2013
 7. www.wikipedia.org
 8. www.hozir.org

BOBUR LIRIKASIDA O'XSHATISHLARNI HOSIL QILUVCHI VOSITALAR

R.B.Fattoyeva,

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatidagi o'xshatishlarni hosil qilgan vositalar yoritilgan. O'xshatish vositasi sifatida qo'llangan til birliklari, ularning variantlari va tarixiy shakllari aniqlangan.

Tayanch so'zlar: o'xshatish vositasi, affiksal ko'makchilar, leksik ko'makchilar, chog'ishtiruv bog'lovchilari, o'xshatish qaydi, adoti tashbih, o'xshatish etaloni.

Bobur she'riyati beqiyos badiiyati bilan qimmatli va o'ziga xosdir. Unda she'riy san'atlarning tashbeh, laffu nashr, mubolag'a, tashxis, istiora, husni ta'lil, tanosub kabi rang-barang turlarini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan shoir ijodida o'xshatish san'ati alohida ahamiyatga ega.

Bilamizki, o'xshatishlar to'rt uzvdan iborat. Abdurauf Fitrat bu uzvlarni o'xshag'an, o'xshatilg'an, o'xshatish qaydi, o'xshash deb (8, 52-53); Atoullah Husayniy mushabah, mushabah bihi, vajhu shibh (9, 212); Ishoqov Y. mushabah, mushabbahun-bih, adoti tashbih, vajhi shibh (4,230) ; Nizomiddin Mahmudov o'xshatish subyekti simvoli, o'xshatish etaloni simvoli, o'xshatishning shartli ko'rsatgichi, o'xshatish asosining simvoli (5, 66); M. Yoqubbekova o'xshatish asosi, o'xshatish timsoli, o'xshatish vositasi, o'xshatish belgisi (3, 39) tarzida ifodalagan.

Ko'rib turibmizki, o'xshatish uzvlari turli nomlar bilan atalib, ularning tarkibidagi vositalar o'xshatish qaydi, adoti tashbih, o'xshatish vositasi, o'xshatish etaloni kabi nomlar bilan yuritiladi.

Quyida muallif she'riyatidagi tashbehlarni hosil qilgan vositalarni ko'rib o'tamiz.

I. Ko'makchilar.

1) affiksial ko'makchilar:

a) -dek

Kuydurur otashida meni netay,

Otashin guldek ikki ruxsoring.

(2, 47)

Mazmuni: " Otashin guldek go'zal yuzing meni hasratida kuydiradi".

Baytda ikki ruxsoring o'xshamish, otashin gul o'xshatilmish, -dek o'xshatish vositasi. Demak, o'xshatish vositasi sifatida-dek affiksial ko'makchisidan foydalanilgan. -dek ko'makchisi o'xshatishlar hosil qilishda faolligi bilan xarakterlidir. Qolaversa, hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llaniladigan bu vosita olti asr avval ham iste'molda bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

b) -dek ko'makchisining tarixiy shakli -tek qo'shimchasi ham o'xshatishlar hosil qilganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Quyoshdek yuzungu durdek tishingning hajrida, ey oy,

Ko'zumning yoshidur yuz qatrau har qatra durdona. (2, 36)

Mazmuni: "Ey go'zal yorim, quyoshdek yuzing, durdek tishingning hajrida ko'zimning yoshi yuz qatra, har qatra esa durdonadir.

Baytda quyosh, durdona va dur o'xshatilmish, yuz, ko'zyosh qatrasini va tish o'xshamish, -dek hamda -tek o'xshatish vositasi. Quyoshdek yuzung, durdek tishing vosita ishtirok etgan o'xshatish, har qatra durdona vositasiz o'xshatish. O'xshatishlarda -dek hamda uning tarixiy shakli -tek qo'shimchasi teng ravishda tashbeh vositasi sifatida qo'llangan.

2) leksik ko'makchilar:

a) kabi ko'makchisining tarixiy shakli kibi

Yoz bo'ldiyu bo'ldi yana jannat kibi yozi,

Xush ul kishikim aysh ila o'tgay qishu yozi. (2, 59)

Mazmuni: " Yana jannat kabi yoz kirib keldi, qish-u yozi aysh bilan o'tgan kishiga qandayin rohat".

Baytda yoz o'xshamish, jannat o'xshatilmish, kibi o'xshatish vositasi. Boshqa g'azal yoki ruboiy, tuyuqlarda ham kibi vositasining qo'llanilganligini, kabi shaklidan foydalanilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

b) yanglig'

Aningdek bo'lmisham hayron quyosh yanglig' yuzunggakim,

Quyoshdek nayzalar tegsa ko'zumga, ko'z ola olmon. (2, 105)

Mazmuni: " Quyosh yanglig' yuzingga shunchalar oshiq bo'lamanki, ko'zimga quyoshdek nayzalar tegsa ham sendan (go'zal yordan) ko'z uzolmayman.

Baytda yuz o'xshamish, quyosh o'xshatilmish, yanglig' o'xshatish vositasi.

Bugungi badiiy adabiyotimizda ham yanglig' vositasidan o'xshatishlar hosil qilishda keng foydalaniladi.

II. Bog'lovchilar.

Chog'ishtiruv bog'lovchilari:

a) go'yo

Barcha parilar, ey jon girdingda zor-u hayron,

Go'yo erur namoyon oy tegrasida hola. (2, 35)

Mazmuni: " Barcha parilar girdingda zor-u hayrondir, go'yo oy tegrasida gardish namoyondek". Baytda barcha parilarning yor atrofida to'planishi oy atrofidagi gardishga o'xshatilyapti. O'xshatish vositasi go'yo chog'ishtiruv bog'lovchisi. Go'yo so'zi hozirda ham o'xshatishlar hosil qilishda faoldir.

b) go'yoki

Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasidagi o'xshatishlarda go'yo chog'ishtiruv bog'lovchisining varianti bo'lgan go'yoki so'zidan foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin.

Hijron aro yod etib meni shod etti,

Mahjur ko'ngulni g'amdin ozod etti,

Ne lutf edi ul huri parizod etti,

Go'yoki buzuq ka'bani vayron etti. (2, 149)

Mazmuni: " Yorim meni hijron ichra yod etib shod qildi, hajrdan o'rtangan ko'nglimni g'amdan ozod qildi hur-u paridek yorimning

bu lutfi go'yoki buzilgan ka'bani obod qilgandek bo'ldi.

Ushbu ruboiyda hijron aro yod etib meni shod etti o'xshamish, buzilgan ka'bani obod etti o'xshatilmish, go'yoki o'xshatish vositasi. Go'yoki so'zi bugungi kunda ham o'xshatishlar hosil qilishda faol vositadir.

d) go'yiyo

Go'yo, go'yoki chog'ishtiruv bog'lovchilarining tarixiy shakli bo'lgan go'yiyo so'zi ham o'xshatish vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Ganji husnida ko'rung zulfi bila gulgunasin,

Go'yiyo o't soldi har yon ganj uzra ajdare. (2, 62)

Mazmuni: "Go'zal husnida zulfi ila gulgun yuzini ko'ring, go'yo ajdar ganj-u xazina uzra o't sochdi".

Baytda yorning gulgun yuzi ganj-u xazinaga, zulfi ajdarga, ya'ni xazinani qo'riqlab o't sochgan ajdarga o'xshatilgan, o'xshatish vositasi go'yiyo.

Shoh va shoir ijodidagi o'xshatish vositalarini kuzatar ekanmiz, o'xshatish vositasi sifatida ko'makchilar, aniqroq aytadigan bo'lsak, - dek, -tek affiksali ko'makchilari hamda kibi, yanglig' leksik ko'makchilaridan foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. Undan tashqari, o'xshatish vositasi uchun bog'lovchilar, ya'ni chog'ishtiruv bog'lovchilari bo'lmish go'yo, go'yiyo, go'yoki birliklari qo'llanilganligini guvohi bo'lamiz. Zahiriddin Muhammad Bobur sodda, ravon, o'ynoqi satrli, xalq tiliga yaqin misralar bitganki, bu misralarni mana olti asr o'tgan bo'lsa-da, bugungi kun o'quvchisi tushuna oladi hamda muallif qo'llagan til birliklari hozirgi adabiy tilimizda ham umumiste'molda.

Adabiyotlar:

1.A. Asallayev, V. Rahmonov, F. Musurmonqulov. Badiiy san'atlar. - Toshkent: Tafakkur, 2015.

2.Бобур. Асарлар. Уч жилдлик.-Т.: Фан, 1965. I jild.

3. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. –Тошкент: Фан.
4. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. -Тошкент: Зарқалам, 2006.
5. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
6. Маҳмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013.
7. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Т.: Фан, 1976.
8. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. V жилдлик. - Тошкент: Маънавият, 2006. -IV jild.
9. Хусайний Атоуллоҳ. Бадойиъ-ус-санойиъ. (Форс тилидан Алибек Рустамов таржимаси). -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.

SHIFOKORLIK SIRLARINI SAQLASH MADANIYATI

M.F.Niyozova

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda shifokorlik sirlarini saqlash madaniyati tibbiy matnlar asosida tahlil qilingan. Mazkur matnlarda shifokorning bemor bilan muloqoti jarayonida “muqaddas yolg‘on”ning qanday vaziyatlarda foydalanish o‘rinli va samarali ekanligi, qanday o‘rinlarda ishlatish foydadan ko‘ra zararli ekanligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiy matn, tibbiy deontologiya, shifokor madaniyati, shifokorlik siri, muqaddas yolg‘on.

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2019-yilning 17-iyulida 161-sonli buyrug‘iga asosan, “Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi” tasdiqlandi. Bu kodeksning III bobida “Tibbiyot xodimlari xushmuomala, odobli, e’tiborli, fuqoralar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo‘lishi, ularni

hurmat qilishi shart. Tibbiyot xodimlari o'z faoliyatida ularga bevosita murojaat qilgan har bir fuqaroga nisbatan qo'pollik qilmasligi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi kerak." deb, VII bobda esa "Tibbiyot xodimi bemor qarindoshlarining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi va ularning ruhiy holatini inobatga olgan holda muloqatda bo'lishi, bemorning sog'ligiga g'amxo'rlik qilishga undashi, ularning shaxsiy hayoti ma'lumotlarining sir saqlanishiga bo'lgan huquqini hurmat qilishi lozim." deb belgilab qo'yilgan. Bu ham bugungi kunda shifokor nutqi madaniyatiga e'tibor nechog'lik kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Tibbiyot – bu ilmiy yoki san'atmi, degan fikr hozirgi davrga qadar tabobat olamida yechilmay kelayotgan masala. Uzoq va yaqin o'tmishdagi allomalar, bugungi olimlar e'tirof etishicha, tibbiyotga, avvalo, fan sifatida qarash kerakligi hech kimga e'tiroz yoki shubha tug'dirmaydi. Lekin uning amaliy ijrosi, tabobatchilik sir-asrorlari-ni hayotga tatbiq eta olish katta san'at ekanligini ham e'tirof etish joizdir.

Aslida, tibbiyot deontologiyasi keng falsafiy tushuncha bo'lib, bir qancha yo'nalishlardan iborat. Ular:

Shifokor va bemor o'rtasidagi munosabat;

Shifokor bilan bemorning yaqin kishilari (qarindoshlari, do'stlari, hamkasblari) orasidagi munosabat;

Shifokorlarning hamkasblari, hamshiralar va kichik tibbiyot xodimlari bilan munosabat;

Shifokor va bemorning davolash jarayonidagi huquqlari;

Shifokorlik sirlarini saqlash madaniyati;

Ustoz va shogird munosabati va boshqalar. [1, 39]

Tib xodimlari bemor bilan o'zaro munosabatda bo'lar ekan, kasalning shaxsiy xususiyatlarini, kasallik keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan asabiy ta'sirlanishni, madaniyat darajasini hisobga olishi va, albatta, shifokor sirini oshkor qilmasligi kerak. Shifokor siri deganda bemor to'g'risidagi ma'lumotlar, kasallikning noxush yakuni, bemor ruhiyatiga ziyon yetkazuvchi tashxis tushuniladi. Tibbiyot

xodimining faoliyatida ko'pincha shunday hollar bo'ladiki, shifokor siri “aldash” bilan bog'liq bo'ladi, bu “muqaddas yolg'on” deb ataladi. Masalan:

– Xirurgiya bo'limi palatalarini ko'zdan kechirayotgan vrach Sobirjon yotgan karavot oldiga kelib, uning yarasi bitib qolganiga ishonch hosil qildi. Bemorga iliqqina kulib qarab, ishlaring “besh” deganday qo'l ishorasini qildi.

– Rostdanmi?! Aldamayapsizmi?!

– Iye! Sen yosh bolamiding? Nega seni aldarkanman! Tez kunda butunlay sog'ayib, uyingga ketasan!

Bola hech narsa demasdan vrachga suyandi-da, o'ksib yig'lab yubordi. Bu quvonch yoshlari edi. U bir necha yillar davomida yig'ilib kelgan alamini, g'amini, dardini shu ko'z yoshlari bilan to'kmoqda edi. U otasiga ham, onasiga ham hech qachon bunchalik suyanib yig'lagan emasdi. U “tuzalasan” degan bir og'iz shirin so'zni umrida birinchi marta notanish odamdan – vrachdan eshitib turardi! [2, 45]

O'limi muqarrar bo'lgan bemorga sog'ayib ketishiga umid bildirib aytilgan bunday so'zlar tasalli beradi. Kasallikning kechish tarzi va uning qanday tugashi haqidagi ma'lumotlarnigina emas, shu bilan birga bemorlarning xufiyona hayoti haqidagi ma'lumotlarni ham oshkor qilib bo'lmaydi.

Tibbiyot xodimlari bemorga uning haqiqiy tashxisini ma'lum qilishi yoki qilmasligi haqida mulohaza yuritishi shartdir. Agar ular bemorga tashxisni bildirishga qaror qilsalar, uning bosqichi, asoratlarini yengil shaklda, bemorni asta-sekin tayyorlagan holda, bosqichma-bosqich aytishni o'ylab ko'rishi kerak. Albatta, unga hamma narsani ham aytib bo'lmaydi, ammo ziyoli, mulohazakor bemor oldida “sukut saqlash” yoki ikkilanish foydadan ko'ra ko'proq zarar keltiradi. Masalan: Xona jimjit. Unda ikki odam – vrach va bemor o'tirishardi. Vrach hozirgina bu yosh yigitning dardini eshitdi. U paxta zavodida muhandis bo'lib ishlardi. Bugun u hech kimga ochmagan dardini birinchi marta vrachga aytdi, chunki boshqa iloji ham qolmagan edi. Vrach qattiq xayolga cho'mdi:

“Nima qilsam ekan? Juda andishali, yumshoq ko'ngilli, ta'sirchan, ko'p istiloha qiladigan yigit ekan. Agar birdaniga, sizda falon dard bor ekan desam, qattiq iztirobga tushishi aniq. O'zini o'zi qiynashi turgan gap. O'sma ham ancha kattaygan.

Dardi og'ir! 28 yosh – yigitlik davrining eng gullagan payti, og'ir dardga muhtalo bo'libdi-ya! Qaniydi, men o'ylagan tashxis noto'g'ri bo'lib chiqsa! Yanglishgan bo'lsam ham mayli edi! Qiyinchilik bilan o'sgan, ota-onadan yolg'iz ekan-a! endi nima qildim. Bir qarorga kelishim kerak-ku..." [2, 48]

Inson boshiga tashvish tushib, sog'ligidan ayrilib qolganda, najot izlab, tibbiyot xodimlari huzuriga keladi. Shu vaqtdan boshlab bemorning hayoti shifokor qo'lida deyish mumkin. Shifokor o'rni kelganda bemorga uning kasalligi haqida ma'lumotni bermaydi, ma'lumot bersa ham, juda oz miqdorda beradi. Maqsad bemorning ruhiyatini cho'ktirmaslikdir. Yuqoridagi parchadan anglash mumkinki, shifokor bemorga dardini ro'yirost aytmaydi. Chunki bemor haqiqatni bilsa kasali battar og'irlashishi mumkin. Tibbiyotda bunday yolg'on "shifokor siri" deb ataladi. O'sma hech qanday metaztez bermagan bo'lsa ham u onkolog do'sti bilan maslahatlashib, yana obdon tekshirib va davolash kerakligi to'g'risida kengashganlarini esladi.

Mana oqibati! O'shanda u ota-ona tashvish chekmasin deb bolada xavfli o'sma bo'lganini aytmagandi, lekin barcha davo choralarini ko'rishni do'sti bilan kelishib olganlarini ko'z oldiga keltirdi. [2, 73]

Vaqtida davolanmasa, o'limga olib keluvchi kasallik bilan og'rigan bemorga sog'ayib ketishiga umid bildirib aytilgan so'zlar unga tasalli berishi mumkin. Ammo shunday vaziyatlar ham bo'lib turadiki, bemor yoki uning yaqinlariga kasallik haqida umumiy ma'lumot, agar davolanmasa, kasallik rivojlanishi mumkinligi to'g'risida aytilmasligi tuzatib bo'lmas xatoliklarga olib kelishi muqarrar. Demak, "shifokor siri" har doim ham ijobiy natija bermaydi.

Har qanday tibbiyot xodimi ona tilining imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan so'zamol shaxs bo'lishi lozim. Chunki shifokor bemor bilan muloqot jarayonida "muqaddas yolg'on"dan o'z o'rnida foydalana olish ko'nikmasining shakllanishi uning o'z ona tili imkoniyatlarini qay darajada egallagani bilan belgilanadi. Ammo shifokorlik siri madaniylik nuqtayi nazardan to'g'ri bo'lishi mumkin, ammo bemor hayoti uchun bunday yolg'onning qo'llanilishi har doim ham ijobiy natija bermaydi.

Adabiyotlar:

1. Qosimov.E.Y. Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 39 b.
2. Beknazar.J. Iztiroblar komida. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – B. 45-73.

RASMIY USLUBDAGI NUTQNING O`ZIGA XOS LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

N.S.Ibragimova

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi rasmiy uslub, uning shakllari, boshqa uslubdagi nutqlardan farq qiluvchi lingvistik xususiyatlari va matnlarda qo'llaniladigan o'ziga xos ibora va jumlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: rasmiy uslub, rasmiy yozishmalar, davlat hujjatlari, huquqiy qonular, morfologik, sintaktik, leksik, grammatik.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ish yuritishda ma'muriy va huquqiy ishlarda rasmiy ish qog'ozlari uslubidan foydalaniladi. Mamlakatimizda turli xil qonunlar, farmonlar, buyruqlar, har xil davlatlar, tashkilotlar va shaxslar o'rtasidagi shartnomalar, majlislar, hujjatlar, ariza, ma'lumotnoma kabilar, rasmiy ish qog'ozlari, bularning hammasi rasmiy ish qog'ozlari uslubida yoziladi. Rasmiy ish qog'ozlari uslubida so'zlashuv uslubiga xos erkinlik sezilmaydi. Unda qaytariqlar, takrorlar, uzun-yulug' jumlar uchramaydi. So'zlovchining sub'ektiv munosabatini ifodalovchi vositalar qo'llanilmaydi. Bunda so'zlovchi yoki yozuvchi so'z tanlash va qo'llashda rasmiy ish qog'ozlar uslubini talablaridan kelib chiqib, fikr ifodalaydi. Rasmiy mazmundagi yozma matnlarda shu uslubga xos bo'lgan xususiyat, ya'ni fikrlarni ma'lum bir qolipga solib ifodalash kuchli bo'ladi. Fikrlarni bu tarzda ifodalash rasmiy ish qog'ozlari uslubining talablaridan biridir. ¹ Fikrlarni sodda, qisqa, aniq va lo'nda ifodalash rasmiy ish qog'ozlari uslubining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Professional terminologiyaning mavjudligi va uning

qo'llanishi shart qilib qo'yilganligi bu uslubni boshqa vazifaviy uslublardan ajratib turadi. Tilning vazifaviy uslublari buyicha kuzatishlar olib borgan tilshunos olim R.Qo'ng'urov va boshqalar rasmiy ish qog'ozlari uslubi haqida fikr yuritir ekanlar, uning bir qator grammatik xususiyatlarini ko'rsatib bergan edilar. Bunda ular bu uslubda tilga olinayotgan kishilar o'z nomi bilan atalmasdan, buning o'rniga ularning belgisini yoki biror harakatini bir narsaga munosabatini ifodalovchi otlar ishlatilishini (m.: *guvoh, davogar* kabilar.), noaniqlikka yo'l qo'ymaslik maqsadida, odatda otlarning olmosh bilan almashtirilmasligini, fe'lning ishlatilishi boshqa uslublarga qaraganda farqlanib turishini, bu uslubda uyushiq bo'lakli sodda gaplar keng qo'llanilib, ayrim o'rinlarda ularning soni 8-10 taga yetishi mumkinligini, qo'shma gaplarda, xususan, shart ergash gapli qo'shma gaplardan keng foydalanishini, so'z tartibida hozirgi o'zbek adabiy tilidagi tartibga rioya qilinishini misollar yordamida tushuntirib berganlar.

Rasmiy uslubining frazeologiyasi ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Majoziy iboralar, qisqartirilgan stilistik rangga ega iboralar va boshqalar mavjud emas. Boshqa tomondan, stilistik jihatdan betaraf va uslublararo frazeologik birliklar juda keng ifodalangan (*ma'noga ega, rol o'ynaydi, mavqega ega, ko'lamni egallaydi, zarar keltiradi, joylashadi va hokazo*). Baholash bilan bog'liq bo'lgan, lekin hech qanday ifodalilikdan xoli bo'lgan iboralarning tez-tez ishlatilishi ham mavjud: *bo'lmoq, biror narsa darajasida bo'lmoq; to'siq; umumiy joy va hokazo*. Rasmiy ish uslubining lingvistik vositalari nisbatan yopiq tizimni tashkil qiladi, uning asosini uch darajadagi aniq birliklar tashkil qiladi: leksik, morfologik va sintaktik¹. Leksik darajada, umumiy va neytral so'zlardan tashqari, quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: a) asosan rasmiy hujjatlarda qo'llaniladigan va ma'muriy ish yuritish nutqida qo'llaniladigan so'z va iboralar (*to'g'ri, to'g'ri, yuqorida, pastki imzolangan, bajarilmagan, oldinga, topshiruvchi, kafillik, huquq va erkinliklarni himoya qilish, tenglikni ta'minlash va boshqalar*); b) rasmiy hujjatlarning mazmuni bilan bog'liq bo'lgan atamalar, kasbiy mahorat va terminologik iboralar (keng keng tarqalgan atamalar *yuridik, diplomatik, buxgalteriya, akt, yig'ish,*

qonunchilik, sudlanuvch chaqirib olish chaqirib olish (elchi), ratifikatsiya qilish, ariza beruvchi, va boshqalar.).

Adabiyotlar:

1. Karimov S., Jo'raev T. O'zbek tili uslubiyati va nutq madaniyati (bibliografik ko'rsatkich). – Samarqand: SamDU nashri, 2001. – 61 b.
2. Ne'matov Q., Bozorov O. Til va nutq. - Toshkent: O'qituvchi, 1993. - 32 b.
3. Nurmonov A. Nutqiy faoliyat va so'zlovchi shaxs \\\Rahmatulla Qo'ng'urovning ilmiy merosi va o'zbek tilshunosligi masalalari.– Samarqand. 2008. –B.10-13.
4. Jo'raev T.T., Halimov S.G`.Nutq madaniyati. qo'llanma. Samarqand. TIBBIYOT KO'ZGUSI, 2021. - 108 b.
5. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 1992. – 110 b.

70230502 – Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti

SIROJIDDIN SAYYIDNING “YUZ OH, ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR” DOSTONIDA BOBUR OBRAZINING YARATILISHI

F. Mamadova

BuxDU, Adabiyotshunoslik

(o'zbek) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy she'riyat namoyondasi bo'lgan Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostonida Bobur obrazining turli ko'rinishlarini mahorat bilan yaratilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *doston, memuar asar, roman, taxallus, firoq va ayriliq dostoni, hasrat dovoti, obraz, motiv, uslub, g'oya*

Bugunning ertasi bilan yashaydigan har bir inson o'tmishini, ajdodlarini, ular kim bo'lishgan-u qanday ishlarni amalga oshirishganini bilmog'i va ulardan ibrat olmog'i yoki bo'lmasa to'g'ri xulosa chiqarib yashamog'I lozim. Tarix bilan bugun

uyg'un bo'larkan mamlakat taraqqiyoti ham ravnaqi ham gullab yashnaydi. Bugungi fan- texnika taraqqiy etgan insoniyat qila oladigan ko'pchilik yumushlarni texnika amalga oshiradigan zamonda tarixga dahl qiluvchi asarlarning yaratilishi bugunning kitobxonlari uchun juda ham muhim. Xususan, Sirojiddin Sayyidning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostoni shular jumlasidandir.

S. Sayyid o'zining ko'pgina ijod namunalari singari "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostoni ham falsafiy teran ma'noga ega, didaktik mazmun kasb etadigan, tarixiy lavhalarni o'quvchi yodiga soladigan, hozirgi zamon o'quvchisini tarix bilan yuzlantiradigan nodir doston namunasi sanaladi. Adib dostonni "Boburnoma" bilan uyg'un holda yozadi. Iqtibos badiiy san'atidan foydalangan holda dostonga "Boburnoma" dan parchalar keltiradi. "Boburnoma" asarining o'zi ham chuqur ma'no- mazmunga ega bo'lgan, o'zida ko'p sohalarni qamrab olgan memuar asar. Xayriddin Sultonov aytganidek, "bu muazzam asarning har bir satri haqida bitta hikoya yozish mumkin"⁷⁴. A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ham Otabek "Boburnoma" mutolaasi bilan mashg'ul bo'lganligi lavhasi mavjud bo'lib, adib bosh qahramoniga bunday noyob va aniq detal orqali qahramonning ma'naviy qiyofasini ochib bermoqchi va qahramonni ideal darajaga ko'tarmoqchi bo'ladi⁷⁵. Shu sababli bo'lsa kerak, Sirojiddin Sayyid ham "Boburnoma" dan o'quvchi uchun yangilik qidirmoqchi bo'lgan va aniq detal – "Boburnoma" kitobi asnosida o'z yangiligini yaratgan. Ijodda "Aql aqldan quvvat oladi" degan an'ana hukm suradi. Bu degani badiiy ijod – an'ana va novatorlik asosida yaratiladi. Sirojiddin Sayyid ham "Boburnoma"dan ilhom va quvvat olib bu dostonini yaratdi. Buyuklardan ilhomlanish yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratilishiga sababchi bo'ladi. Sirojiddin Sayyid o'z dostonida Bobur obrazini katta mahorat bilan yaratgan bo'lib, biz uning "Boburnoma"dan ta'sirlanib yozgan asari orqali Bobur obrazining o'zgacha ko'rinishlarini ko'rishimiz mumkin.

Bobur Vatandan ayrilganidan so'ng doim yurt sog'inchi bilan yashadi. Sirojiddin Sayyid dostonida "hasrat dovoti"ni tutgan Bobur obrazi o'z aksini topgan

⁷⁴ Xayriddin Sultonov. Boburning tushlari. – T: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1993-yil, 230-bet.

⁷⁵ B. Karim. Ikki daho- ikki bevafo. – T: "O'zbek milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2020 y., 6-bet.

bo'lib, shoir dostonining ko'plab o'rinlarida bu mavzuga murojaat qilingan. Dostondagi to'qqizta she'rda "Vatan sog'inchi" "mavzusi yetakchilik qiladi. Biz uni "Samarqand yodi", "El tavri", "Hajr sahrosida", "Qovun birlan uzum hajri", "Noranj yanglig'", "Qovun sog'inchi", "Tole' yo'qki", "Firoq daryosi", "Mir Temuriy qovunlari" kabi she'rlarida ko'ramiz.

S.Sayyid Boburning bu obrazini yaratishda qovun bilan bog'liq motivni o'z dostoniga olib kirishi Bobur Mirzoning hijronli o'tgan kunlarini yanada yaqqol ochib bergan. Shoir S. Sayyid birgina qovun detali orqali shunday umumlashma xulosa yasaganki, Boburning yurtga bo'lgan muhabbati birgina qovun orqali aks ettirilgan.

Saltanat ham tutab bitdi ohimdan,
Duo aylang beklari sayyidlari.
To qiyomat anqir endi hokimdan
Mir Temuriy qovunlarning hidlari.⁷⁶

"Qismat taqozosi" nomli she'rda "Boburnoma"dan olingan parcha bilan Sirojiddin Sayyid yozgan she'r bir-birini to'ldirgan . Adib peshonada yozilgan taqdirdan hech kim qutula olmasligini, taqdir va taqdir egasi doim yonma- yon yurishini, hatto Bobur temuriy podshoh bo'lsa ham, peshonasidagi taqdir chiziqlarini o'zgartira ola olmasligini o'quvchiga g'azal ko'rinishida ifodalab bergan:

G'urbat bo'ldi oxir toj-u taxtingiz
Podshohlar ham yig'larkan-da, oh Bobur!
Qismat qattiq, alam bisyor, el g'ofil,
Bu dunyoda bormi dilxoh, Bobur

Adib dostonining har bir qismiga "Boburnoma"dan parchalar keltiradi va dostonini "Boburnoma" bilan uyg'un holda yaratadi. Shoir shu orqali Bobur Mirzo shaxshiyatini ochib berishga harakat qiladi. Adib bir o'rinda Boburni ota sifatida,

⁷⁶ S.Sayyid . Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur. -T.: "O'zbekiston", 2011-yil, -B. 147.

bir o'rinda farzand sifatida, yana bir o'rinda yurt boshlig'i - tayanchi sifatida o'z she'rlarida gavdalantiradi.⁷⁷

Shoir “Bu mirzolar”⁷⁸ she'rida Boburning mas'uliyatli davlat rahbari sifatidagi obrazini yaratgan bo'lib, har bir davlat podshohi o'zining qo'l ostidagi kishilarini sinchkovlik bilan nazoratda tutishi, farzandlari tarbiyasiga e'tibor berishi va asosan, shahzodalarning bir-birlariga bo'lgan munosabatini nazorat qilib turishi asosiy masala sifatida ko'rsatilgan. Yana ayrim shahzodalar ham borki, ular qilichni qilichga urib bilmaydilar-u, ammo so'zlaganda ham riyo aralash so'zlaydi, maydan bo'lak boshqa narsa bilan hayotdan zavq ola olmaydilar deydi. Va aynan mana shunaqa shahzodalarga yurt bermaslikni, agar bunday mirzolar qo'lida yurt qolib ketsa ham, yurtning falokati aniq ekanligini Bobur tilidan badiiy ifodalagan:

Bu mirzolarning ortida yana mirzolari bordir,

Bu mirzolarga yurt bermanki hargiz asray olmaslar.

Bundan tashqari, biz dostonda Boburni din arbobi, tariqat peshvosi sifatidagi qiyofasini ham ko'ramiz. Tarixdan ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur Xoja Ahror Valiy e'tiqod qilgan naqshbandiylik tariqati tarafdorlaridan biri bo'lgan. Shu sababli ham u diniy ilm bilan dunyoviy bilimni; diniy amallar bilan hayotiy amallarni hayotida barobar olib borgan. Bobur Mirzo nafaqat o'zi, balki farzandlari tabiatiga ham ilohiy ruh, naqshbandiya arboblariga nisbatan yuksak e'tiqod tuyg'usining singdirilishiga alohida e'tibor qaratgan.⁷⁹ Bobur Xoja Ahror Valiyga juda qattiq ixlos qo'yganligi sababli ham naqshbandiya tariqatining chizgilari asarlarida sezilib turadi. Bobur Mirzoning “Mubayyin” asari tarkibida sho'ro davrida yashirin yashab kelgan “Kitob ul-haj” kitobi ham mavjud bo'lib, boburshunos olim S. Hasanov uni mustaqillikdan so'ng alohida nomda nashr ettirdi.⁸⁰ Mana shu asarda Boburning haj amallarini qanday ado etish kerakligi haqidagi fikrlari nazm va nasrda aralash holda bayon qilingan. Bundan biz Boburning dinga bee'tibor bo'lmaganligini hamda din posbonlaridan ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shoir

⁷⁷ S.Sayyid. Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur. -T.: "O'zbekiston", 2011-yil, -B. 7.

⁷⁸ S.Sayyid. Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur. -T.: "O'zbekiston", 2011-yil, -B. 22.

⁸⁰ R. Vohidov. Biz bilgan va bilmagan Bobur. -T.: “Ma'naviyat”, 1999 y.

Sirojiddin Sayyid shunga e'tibor bergan holda o'z dostonida Boburning diniy arbob sifatidagi obrazini ham gavdalantirdi:

“El tavri” she'rida S. Sayyid Bobur Mirzo tilidan dil bilan dinni muvofiq keltirish kerakligini aytadi:

“Doim dil va dinim muvofiq keldi
Dinim ne buyursa – dil voqif keldi”

Yoki bo'lmasa, “Ishorat “ she'rida S. Sayyid Boburning dinga bo'gan munosabatini yaqqol ko'rsatib o'tib, Ollohga ishonish kerakligini agar nimanidir qilmoqchi bo'lsak-u u amalga oshmasa, bu ham Xudoning inoyati ekanligini aytadi:

Topmagay ko'ngling hidoyat, to ibodat bo'lmasa,
Bu ibodatga yana qat'iy rioyat bo'lmasa.
Bitta bug'doy doni ham aslo buyurmas bandaga,
To Yaratganning o'zidan bir ishorat bo'lmasa.

Shoir shu birgina to'rtligi orqali diniy arkonlarni eslatib o'tgan. Ya'ni hidoyat-to'g'ri yo'l va shu yo'lda qilingan Ollohga ibodat hamda shu ibodatimizga hayotda o'zimiz rioya qilishimizdir. Shu uchlikning o'zi ham odamizot uchun diniy hayot zarurati sanaladi.

S. Sayyid Boburning adolatli podshoh sifatidagi qiyofasini ham yaratgan bo'lib, uni so'zi va amali bir xil, xalqiga ularning millati-yu dinidan qat'iy nazar mehribon, siyosatda qat'iy, ayrim o'rinlarda mirzolarga ko'ngilchanlik qilib, pand yegan bo'lsa-da, tezda o'ziga munosib xulosa yasay olgan qiyofada tasvirlaydi. Shoir S. Sayyid “Yuz ming mulohaza”⁸¹ she'rida Bobur tilidan Davlatni nazorat qilishda shohda birinchi navbat ehtiyotkorlik, ogohlik va yuz ming mulohaza bo'lishi lozimligini aytadi:

Oson kechmagaydir hargiz podshohlik,
Yuz ming odam aro bor yuz ming kozib.
Bir ish zamirida yuz ming ogohlik
Yuz ming mulohaza vojib va lozim.

⁸¹ S.Sayyid. Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur. -T.:“O'zbekiston”, 2011-yil, -B. 39.

“Boburnoma”dan bizga ma'lumki, Bobur Mirzo boshqa shohlar singari ichkilikka mukkasidan ketadi va chog'ir Mirzoning jismi bilan birga mamlakat rivojiga ham salbiy ta'sir qiladi. Shundan so'ng u chog'ir tarki qiladi, umuman ichkilikni og'ziga olmaydi, mayxonalarni ham yoptiradi. May savdosiga ham chek qo'yadi:

Bor archi boisi yuz sho'ru yuz gunah chog'ir

Chog'ir firoqi qildi halok meni, oh chog'ir

Shoir Sirojiddin Sayyid bir qishloqning ayanchli ahvoli orqali butun mamlakat ahvolini bir chog'ir misolida ko'rsatib beradi. Dostondan o'rin olgan “Chog'ir bandalari “she'ri fikrimizning dalili bo'lib, qishloq aholisining barchasi o'tirganida ham, turganida ham, yori bilan o'ynaganida ham chog'ir ichishar ekan. Shu shaharni egallash Bobur uchun ham qiyin kechmagan ekan. U uzoqni ko'zlab ish tuta bilgan shoh edi. Chunki uning hayoti davomidagi ko'p qoqilishlari, yaqinlar aldovi murg'akkina bola bo'lgan paytlardan uning ko'zini ochgan edi. Uning aynan mamlakatda chog'ir ichishni taqiqlovchi qonunni chiqarishi yurt faravonligini ta'minlab berdi. S.Sayyid “Chog'ir bazmi” she'ri ham shu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir chog'irni har qanday manfur uqubatlardan battar kasofat ekanligi, may inson nomini o'chiruvchi dahshatli kuch ekanligini bayon etgan:

Halok etmas meni g'urbat va hijron,

Meni oxir ado qilg'ay chog'ir bazmi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, S.Sayyid birgina shu dostoni orqali Boburning umumlashma obrazini yarata oldi. Bugungi zamon o'quvchisini tarix manzaralariga yaqinlashtirdi. Boburning har bir obrazini yaratganda uning ijobiy xislatlarini kitobxonga ko'rsatib o'tdi va mustaqil fikrlashi uchun jumboqli xulosalar ham yasadi. Nosir Primqul Qodirov Bobur siymosini nasrda mahorat bilan gavdalantirgan bo'lsa, shoir Sirojiddin Sayyid qalami Bobur obrazini to'laqonli ravishda nazmda mohirlik bilan qayta jonlantirdi.

Adabiyotlar:

1.R. Vohidov. Biz bilgan va bilmagan Bobur. -T.: “Ma'naviyat”, 1999.

2. Vahob Rahmonov. Shoh, adib va shoir – Zahiriddin Muhammad Bobur. –T.: ”O’qituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017.
3. Valijon Qodirov, Akramjon Vahobov. “Boburnoma”dagi ta’rix-muammolar muammosi. Sharq Yulduzi, 2012-yil, 3-son.
4. S.Sayyid. Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur. -T.: ”O’zbekiston”, 2011-yil
5. B. Karim. Ikki daho- ikki bevafo. – T: “O’zbek milliy ensiklopediyasi “ davlat ilmiy nashriyoti. 2020 y.

ADIBNING IJOD LABORATORIYASI HAQIDA

N.S. Narzulloyeva,

BuxDU, Adabiyotshunoslik

(o’zbek) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Said Ahmad mohir yozuvchi, iste’dodli yumorist va adabiy-tanqidchidir. Maqolada O’zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning memuar-biografik asari “Yo‘qotganlarim va topganlarim” kitobining adibning shaxsiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bobi asosida uning ijodiy laboratoriyasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zi: avtobiografiya, biografiya, “Yo‘qotganlarim va topganlarim”, adabiy tanqid, laboratoriya, ijodiy munosabatlar.

Said Ahmad mohir yozuvchi, iste’dodli yumorist va adabiy jarayonga munosabat bildiruvchi o‘z davrining sergak adabiy tanqidchisidir. Said Ahmad ijod laboratoriyasiga nazar tashlagan tanqidchilar uning serqirra ijodkor ekanligini kashf etadi. Tanqidchi Umarali Normatov, Ibrohim G‘afurov, Shoiraxmedovalar uning ijodini o‘rganishgan. Lekin ularning izlanishlari Said Ahmad ijodiyotining bir qisminigina tahlil etadi. 1998-yilda taniqli yozuvchining yana bir kitobi nashr etildi. Ushbu kitob “Yo‘qotganlarim va topganlarim” nomlangan kitob bo‘lib, asar nosirning boshqa asarlaridan tubdan farq qiladi. Asarning kompozision xususiyati

betakror bo'lib, adabiy-tanqidning turli janrlarini o'z ichiga qamrab olgan. “Yo‘qotganlarim va topganlarim”da yigirmadan ortiq shoir va yozuvchilar ijodi, biografiyasi tadqiq qilinadi. Ushbu kitobning uchinchi bobi “Bag‘rim o‘rtar alamlar..” deb nomlangan bo‘lib, bunda yozuvchi bevosita o‘z avtobiografiyasi va ijod jarayonidan xabardor qiladi. Bobda Said Ahmad o‘z boshidan kechirgan azoblar, yozgan nomalari va ijodining gultoji bo‘lgan ayrim asarlarinig yozilishi tarixini qog‘ozga tushirgan. Said Ahmad haqiqiy o‘zbek adibi shuning uchun asarlarining qahramonlari o‘z yurtining mard farzandlaridir. Xususan, “Ufq” romanidagi Azizbek, Nizomjonlarni hali hanuz el ardoqlaydi.

“Men Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida 1920-yilning 10 iyun kuni tug‘ilganman. Dadamning dadasi Dadaxo‘jaboy Toshkentning eng katta boylaridan bo‘lgan. U boyligining ko‘pchilik qismini yurt obodonligiga, o‘zbek yoshlarini o‘qitishga sarflagan”⁸². Adib bobolari haqida keltirgan so‘zlaridan shu ma’lum bo‘ladiki, “Xalq dushmani” deya nohaq tuhmatlarga duchor bo‘lgan bu insonning tomirida elparvar bobolar qoni oqadi. U o‘z xalqini sevishni ota-bobosidan o‘rgangan. Unga mardlik, fidoyilik, halollik ota-bobosidan meros. “Onam Zulfiyaxon savodli, husnixati chiroyli ayol edilar. Fuzuliy. Huvaydo, Mashrab g‘azallaridan o‘qirdilar... Dadam Husanxo‘ja Dadaxo‘ja o‘g‘li rus tilini mukammal bilardi. Ruscha xatni mutlaqo bexato yozardi. Dadam mashhur pedagog olim Ismoilbek Gaspinskiy bilan yaqin do‘st bo‘lgan ekan”⁸³. Insonning kelajakda qanday inson bo‘lishi, avvalo, kichik mamlakat sanalmish oilaga borib taqaladi. Inson ilk tarbiyani, ilk ilmni oiladan oladi. Saidahmad Husanxo‘ja oilasidagi adabiy muhit uning porloq istiqbolidan dalolat berar edi. “1938 yilning erta bahorida dadamni NKVD qamoqqa olib ketdi. Durustgina ta’lim ololmadim. Qayerga borsam Dadaxo‘ja do‘ma bilan G‘ulomjon qozining nevarasi, xalq dushmanining o‘g‘li deb, ko‘kragimdan itarishardi”⁸⁴. Sobiq sho‘ro davridagi tuhmatlar yomg‘iri Saidahmad

⁸² Саид Аҳмад.Йўқотганларим ва топганларим. -Т.: “Sano-standart” нашриёти, 2019. Хотиралар. Адабий ўйлар.- 352 б. Б.306

⁸³ Саид Аҳмад.Йўқотганларим ва топганларим. -Т.: “Sano-standart” нашриёти, 2019. Хотиралар. Адабий ўйлар.- 352 б. 306

⁸⁴ Саид Аҳмад.Йўқотганларим ва топганларим. -Т.: “Sano-standart” нашриёти, 2019. Хотиралар. Адабий ўйлар.- 352 б. Б.307

oilasi ham chetlab o'tmadi. Sobiq sho'ro davridagi bu holat butun oila boshiga tushgan ofat edi. Sinovlar iste'dodli ijodkorning san'atini sayqaladi, mashaqqatlarni iroda bilan yengan nosir o'zining kitobxon-muxlisiga ega ijodkor bo'lib yetishdi. Uni butun xalq tan oldi. "Qator-qator kitoblarim bosildi. O'quvchilardan, adabiyotshunoslardan yaxshi gap eshitadigan bo'ldim, "Jimjitlik" degan romanim juda kata (150000) nusxada bosib chiqarishdi. "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyam hatto chet ellarda ham namoyish qilinyapti, "Kuyov" komediyam, Xudoga shukr, o'ynalib turibdi... "Buyuk xizmatlari uchun", "Do'stlik" va boshqa ordenlar bilan mukofotlandim. Xalq yozuvchisi degan unvonga sazavor bo'ldim. "Ufq" uchun laureat bo'ldim"⁸⁵.

Adib o'z ijodi haqida bayon etar ekan. U dastlab cho'llarni o'zlashtirish va ularni obod qilish mavzusidagi hikoyalariga to'xtaladi. Xususan, "Cho'l burguti", "O'rik domla", "Lochin" kabi hikoyalar shu jumlasidandir. Yozuvchi asarlarning yozilish tarixini bayon etar ekan, ularning nashr etilishi bilan bog'liq holatlarni yumorga boy holda tasvirlaydi. Adib "O'rik domla" nomli hikoyasini nashr etiliishi "qiyinchilikka duchor bo'lgan". "Kechirasan og'ayni, ashibka bo'pti. Redaksiya kattalaridan birining laqabi "o'rik" deb eshitgandim. Keyin bilsam laqabi o'rik emas, "Luchchak" ekan. Obkel hikoyangni"⁸⁶.

"Cho'l burguti" hikoyasida urushdan keyingi hayot va cho'llarni o'zlashtirish davri bayon qilingan. Adib "cho'l bo'risi" deb nomlangan real insonni o'z hikoyasiga "cho'l burguti" deb kiritadi. Said Ahmad hikoya yaratar ekan u o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealar, holatlar va shaxslarni asarga ko'chiradi. Bu esa asarni jonlantiradi, asarning mavqeini yuqori pog'onaga ko'taradi. "Cho'l burguti" dagi Rahimjon, No'mon, Oynisalar bu o'z hayot yo'lini cho'ldagi mashaqqatlar va og'ir mehnat bilan go'zal qilgani ko'rinadi. Hikoyalarda sobiq sovet tuzumi shamoli gohida esib turadi, asar qahramonlari mehnat sharoitini chiroyli qog'ozga o'ragan holda tasvir etiladi, aslini olganda o'z oilasini tashlab og'ir mehnatni va og'ir

⁸⁵ Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. -Т.: "Sano-standart" нашриёти, 2019. Хотиралар. Адабий ўйлар.- 352 б. Б.309

⁸⁶ Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. -Т.: "Sano-standart" нашриёти, 2019. Хотиралар. Адабий ўйлар.- 352 б. Б.312

sharoitni tanlash bu real hayot tasviridan biroz uzoqlashtiradi. “Ijodning onasi iztirob. Ijod iztirob farzandi. Biz buni juda yaxshi bilardik. Bilib turib kuymay, yonmay yozardik. Chunki proletar adabiyotiga she’r emas, shior kerak edi. Sosialistik realism metodi qo‘l-oyog‘imizni, hatto tilimizni ham bog‘lab qo‘ygandi. Bizda ochlar yo‘q, ochlar chet elda, desa ishonganmiz. Bizda kambag‘al yo‘q, kambag‘al inqilobning nariyog‘ida qolib ketgan, desa, chippa-chin ishonganmiz. O‘g‘rilikka, talonchilikka muhtojlik sabab ekanini ochiq aytishga tilimiz bormagan”⁸⁷. Nosir cho‘l mavzusi yoritilgan hikoyalari va romanida bu hol sezilishini tan oladi. “Bag‘rim o‘rtar alamlar” nomli bobda “Menga yetib kelmagan xat” sarlavhasi ostida adibning ayoli Saida Zunnunovanning eri Said Ahmadga yozgan xatlari keltirilgan. Bu xat mazmunidan bilish mumkinki, “xalq dushmani” deya nomi qoraga bo‘yalgan Said Ahmad qamoqqa jo‘natilarkan ekan, bu holat uning oilasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Bunday qaltis vaziyatda nafaqat nosirning o‘zi, balki uning oilasi ham tazyiq va bosim ostiga olindi. Vafo va sadoqat timsoliga aylangan Saidaxonim Zunnunovanning boshidan kechirgan og‘ir kunlari maktubda qisman bo‘lsa-da yoritilgan. Kitobda “Hajvchining iztiroblari” turkumi ostida suhbatlar keltirilgan. Suhbat janri bayonida adib o‘z avtobiografiyasini bolaligi, yigitlik davrini eslaydi. Bu 1994-yil Qulmon Ochil bilan bo‘lgan suhbat kitobning so‘nggi bobidan joy oladi.

“O‘zbekistonjonim! Jonim, jahonim! Men sening o‘g‘lingman. Buyur ona bo‘lib buyur, ota bo‘lib buyur! Jabhalarga Yo‘lla! Tog‘lardan oshay, daryolardan kechay, sahrolarni kezay. Buyur, buyur!”⁸⁸. Kitob so‘nggida nosir O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan berilgan “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni uchun o‘z minnatdorchiligini bildirgan holda o‘z kitobiga nihoya yasaydi.

Xulosa qilib aytganda, asardagi yozuvchi hayoti bilan bog‘liq o‘rinlarni o‘qir ekansiz, uning asarlarining yozilish jarayoni, boshidan o‘tgan mashaqqatli kunlar

⁸⁷ Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. -Т.: “Sano-standart” нашриёти, 2019. Хотиралар. Адабий ўйлар.- 352 б. Б.316.

⁸⁸ Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. -Т.: “Sano-standart” нашриёти, 2019. Хотиралар. Адабий ўйлар.- 352 б. Б.348.

tarixi bilan tanishasiz, o'quvchi o'sha davr voqealari chiga kirganday sezadi o'zini, bu esa adibning mahoratini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Б. Назаров, А.Расулов, Ш. Аҳмедов, Қ. Қаҳрамон. Ўзбек адабий танқиди тарихи.Т.:Тафаккур қаноти. 2012. -Б.380.
2. Саид Аҳмад.Йўқотганларим ва топганларим. -Т.: “Sano-standart” нашриёти, 2019. Хотиралар. Адабий ўйлар.- 352 б.

JO`RA FOZIL IJODIDA MAVZU, USLUB VA OBRAZ

S.T.Latipova,

BuxDU, Adabiyotshunoslik

(o'zbek) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot maydonida o'z o'rniga ega bo'lgan buxorolik adib Jo`ra Fozilning ijodidagi mavzular olami, yozuvchi uslubi, obrazlar masalasi haqida so'z yuritiladi, obrazlarning hayotiyliigi, ibratliligi, yorqinligi, yozuvchi mahoratining o'ziga xosligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Obraz, qissa, yozuvchi mahorati, uslub.

Buxoro farzandi bo'lmish yozuvchi Jo`ra Fozil qalami o'tkir ijodkorlarimizdan biridir. Yozuvchi tarix va bugungi kunning dolzarb mavzularida qalam tebratgan serqirra ijodkordir. Har bir adibning o'z ijod uslubi, o'z mahorati bo'ladi. Jo`ra Fozil asarlarini o`qish jarayonida uning o`zgacha uslubi borligiga guvoh bo`lamiz. Adib asarlarining aksariyati hajm jihatdan ixcham, tili sodda, katta-kichik kitobxon uchun birdek o`qishlidir. U turli mavzularda bir qator asarlar yaratgan.

Adibning “Xongul” qissasi, “Yo`lbarsdaraning so`nggi sultoni” hikoyasida tabiat va inson munosabatlari tasvirlangan. “Xongul” qissasida tabiatga zarar yetkazayotgan shaxslar va tabiat muhofazasi uchun kurashga otlangan oliyjanob insonlarning realistik obrazlari badiiy ifoda topgan. Adibning to`g`rilik, mardlik,

halollikni kasb qilib olgan insonlar xarakteri aks etgan asarlari kitobxonga kuchli ta'sir ko'rsatadi. "Yo'lbarsdaraning so'nggi sultoni" hikoyasida inson nafsi orqasidan tabiatga zarar yetkazganligi va buning oqibatida tabiatning bir bo'lagi bo'lgan hayvonot olamining talafotga uchrashi mahorat bilan tasvirlangan.⁸⁹

Adib "Kitob sotayotgan odam" hikoyasida bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan kitobxonlikni targ'ib qilganligini ko'rishimiz mumkin.⁹⁰ Yozuvchining "Buxoro malikasi", "Ibtido va intiho", "Qizil quyun" kabi asarlarida esa o'tmishga murojaat qilingan, ya'ni tarixiy voqealar yoritib berilgan.

Jo'ra Fozilning "G'oziyon zindoni" asari haqida gapiradigan bo'lsak, bu asarda sho'ro hukumatining o'zbeklar boshiga solgan qora kunlari, o'sha davrda dolzarb bo'lgan paxta siyosati tasvirlangan. Bu asar sarlavhasidanoq mavzu nima haqidaligini tushunishimiz mumkin. Yetti pirlar dargohi bo'lmish Buxoroi sharifda 1776-yilda bunyod etilgan 28 hujrali katta va kichik G'oziyon madrasalari bo'lgan. Tolibi ilmlar bu madrasalarda tahsil olish barobarida madrasaning hujralarida istiqomat qilishgan. Bu ilm dargohida tartib-intizom qattiq bo'lgan. Tartib-intizomga amal qilmagan talabalarga quyidagi jazo choralari ko'rilishi qayd etilgan: agar talaba darslarga bir oy sababsiz ishtirok etmasa, uni hujradan mahrum qilishgan. Agar talaba dangasalik qilib, darslarni yaxshi o'zlashtirolmasa va birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o'ta olmasa, unga nafaqa to'lash bekor qilinib, hujra tortib olingan.⁹¹ Shunday ilm dargohini sho'ro hukumati begunoh insonlar qonini to'kadigan zindonga aylantirishi ayanchli hol, albatta. Bilamizki, paxta kuz mavsumida yig'ib-terib olinadi. Belgilangan yillik rejani uddalay olmagan xo'jaliklar Stalinning buyrug' bilan qishning sovuq, qorli kunlarida ham paxta dalasida paxta terishga majbur edilar. Aravakash Azimjon terilgan paxtalarni hamma mahallalardan yig'ib, punktga olib borishi kerak edi, ammo yo'lda aravaning chap g'ildiragi o'qidan chiqib ketganligi sababli u paxtani vaqtida yetkaza olmaydi va natijada mahalla raisidan haqorat eshitadi, bu ham yetmaganday, Azimjon rais

⁸⁹ Fozilov J. Yo'lbarsdaraning so'nggi sultoni.- Toshkent.:Sharq, 2015.- 14 b.

⁹⁰ Fozilov J. Kitob sotayotgan odam. – Buxoro nashriyoti, 2016 . – 10 b.

⁹¹ www.xabar.uz

tomonidan qamchilanadi. Adolatsizlikka chiday olmagan sodda qishloq yigiti raisga qo'l ko'taradi. Natijada G'oziyonning sovuq, zax, qo'lansa hidli, tor xonasiga qamaladi. Azimjon bir necha kunlik og'ir qiynoqlardan so'ng shu hibsonada vafot etadi. Azimjon obrazi mehnatkash, halol, shu bilan birga, sodda inson sifatida tasvirlangan. U tergovchi ayol Varvaradan adolat kutardi. U sho'ro gumashtalarida diyonat yo'qligini hali ham bilmasdi. Azimjonga o'zbek tilida murojaat qilgan tergovchi ayol uning ko'nglida umid uchqunlarini paydo qilgan edi, sodda yigit tergovning oxiri fojiali tugashini bilmasdi. Noinsof rais o'z millatdoshining yosh umriga zomin bo'lganligini yozuvchi mahorat bilan ko'rsatgan. Bu asarni o'qigan har bir kitobxon hikoya shunchaki yozilmaganligiga guvoh bo'ladi.

Ayrim ijodkorlar asarning bosh qahramoni sifatida o'zini yoki o'ziga tanish bo'lgan biror shaxsni tanlaydilar. Adib ham shunday qalamkashlardan biridir. Uning asarlarida hayotda aynan bo'lgan voqealar bayon etilgan. Shunday asarlardan biri "Xongul" qissasidir. Bu asarning bosh qahramoni Anvar yozuvchining aynan o'zidir.

Yozuvchi Ekzyuperi: "Insonlar bir-birlaridan shunchalar yiroqlarki, bu yiroqliklar ming yillar bilan o'lchanadi", (7) - degan fikrni aytib o'tgan. Haqiqatan ham, bunday yiroqliklarni adibning bir qancha asarlarida, shu jumladan, "Oq olma" hikoyasida ham ko'rishimiz mumkin. Akaning ota-onadan erta ajralib qolgan, ko'ngli o'ksik, yosh, beg'ubor singlisiga bo'lgan yomon munosabati, qilgan zulmi fikrimizni tasdiqlaydi.

Ko'ryapmizki, yozuvchi asarlarining har biridan kitobxon o'ziga kerakli xulosalarni chiqarib oladi, dunyoqarashi kengayadi.

Adabiyotlar:

1. Fozilov J. G'oziyon zindoni .- Toshkent.:O'zbekiston, 2014.- 150 b.
2. Fozilov J. Xongul .- Toshkent.:Sharq, 2016.- 32 b.
3. Fozilov J. Kitob sotayotgan odam. – Buxoro nashriyoti,2016 . – 10 b.
4. Fozilov J. Yo'lbarsdaraning so'nggi sultoni.-Toshkent.:Sharq, 2015.- 14 b.
5. Fozilov J. Oshiq Buxoriy qissalari.- : Buxoro nashriyoti,2016 . – 250 b.
6. www.xabar.uz

SHOIRNING TASVIRLASH MAHORATI

G'.N.Murodov,

BuxDU, Filologiya fanlari

doktori, professor.

Annotatsiya: Maqolada taniqli buxorolik shoir Toshpo'lat Hamid lirik ijodiga xos ustuvor xususiyatlar yoritilgan, ijodkorning badiiy obraz, qalb va olam manzaralarini yaratish bo'yicha mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: lirik shoir, tashbih, istiora, ballada, doston, ko'chim, liro-epik ijod.

U shoir sifatida baxtli yulduz ostida tug'ilgan. O'tgan asrning elliginchi yillarida atoqli adib Abdulla Qahhorning nazariga tushib, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi rahbarligiga tavsiya etilgan edi. Dastlabki she'riy to'plami — "Quyosh sha'niga" (1960 yil) nashr qilingandan keyin ko'p o'tmay haqgo'y adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov "Zamon. Qalb. Poeziya" nomli kitobida uni iste'dodli ijodkor sifatida e'tirof etgan, she'rlarini tahlil qilib, iliq fikrlar aytgan edi (2.67). O'zbekiston xalq shoiri Uyg'un esa uni "Zarafshon bulbuli" deb atagan, taniqli olim Mahmudali Yunusov unga "hayotda ham, she'riyatda ham serzavq, jo'shqin shoir" deya baho bergan edi (4, 223—226). Adabiyotshunos T.Q. Qorayev bu iste'dodli qalam sohib hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotida uning milliy she'riyatimiz taraqqiyotida o'rni hamda hizmatlarini teran va atroflicha ochib bergan (3. 335-466)

Bu o'rinda iste'dodli lirik shoir va dostonnavis Toshpo'lat Hamid (1927-1984) haqida gap boryapti. Qiziltepa tumani Bo'ston qishlog'idagi ma'rifatli xonadonda tavallud topgan shoir hayotining asosiy qismi ilm-ziyo maskani bo'lmish Buxoroi sharif bilan chambarchas bog'liq (1, 257) Bu muqaddas shaharda u o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha oliy ma'lumot oldi, Shofirkon tumanida muallimlik bilan o'z mehnat faoliyatini boshladi. 1955 yildan umrining oxirigacha Buxoro shahrida yashab, mehnat va ijod qildi. Ish faoliyatining kattagina davri "Buxoronoma" (o'sha

vaqtlarda "Buxoro haqiqati" deb atalgan) gazetasi bilan bog'liq. Bu jamoada u bo'lim mudiri, muharrir o'rinbosari va bosh muharrir lavozimlarida ishladi.

Ilk she'riy to'plamidan so'ng birin-ketin uning "Mening asrim", "Asrorqulning qo'chqori", "Binafsha ufqlar", "Tilla darvoza", "Qora kiyik", "Quyosh zarralari" kabi kitoblari dunyo yuzini ko'rdi. Asarlari nufuzli gazeta-jurnallar, jamoa to'plamlari sahifalaridan o'rin oldi.

Shoirilar bo'ladiki, tirikligida yozgan asarlari o'qiladi. Keyin esa unutiladi. Boshqa toifa qalamkashlarning asarlari esa hayotligida ham hech kimning e'tiborini tortmaydi. Kitoblari do'kon peshtaxtalarida qolib ketadi. Toshpo'lat Hamid ijodi boshqacha taqdirga ega. Shoir adabiy merosi namunalarining aksariyatini hozir ham zavq bilan mutolaa etish, ulardagi go'zallik tuyg'usidan bahra olish mumkin. Fikrimizni dalillashga harakat qilamiz:

Oftob nuri shalola,
Qirlarda yonar lola.
Kel. Quchog'ing to'ldiray
Lolaqizg'aldoqlarga.
Tog'larga boq, tog'larga.

Shu she'riy parchaning o'zidayoq bir emas, uchta badiiy san'at — tashbeh, istiora, murojaat kabilar mahorat bilan qo'llangan. Ayniqsa, Quyosh shu'lalarining tepadan pastga shiddat bilan oqib tushadigan shalolaga qiyoslanishi she'rxon dilini beqiyos zavqqa to'ldiradi. "Yonish" aslida lolaga xos emas. Ammo cho'g'dek yarqirab turgan lolaqizg'aldoqlar lirik qahramonga gulxanning lovullab alanganishini eslatadi. Bunday ko'chimning o'z o'rnida istifoda qilinishi she'rga o'zgacha tarovat baxsh etgan.

Shoir lirik merosida shunday misra va baytlar borki, u kitobxon xotirasida bir umr muhrlanib qoladi: "Inson aqli Galaktika yo'lida chiroq" ("Mening asrim"), "Chiroqni yoqtirmas bir ko'rshapalak, Parvona nur deya bo'ladi halok" ("Chiroqlar"), "Ust-boshiga chang qo'nsa chertgan Oliftadan jirkanadi Yer" ("Tuproq o'yini"), "Zulmat qoplab yotgan ellarga Hayot, yog'du bo'lib kiraman" ("Quyosh zarrasi")...

Shoir liro-epik sohada ham barakali ijod qilgan. Uning "Ming yillik xayol va zarkokil", "Sohibjamol haqida" balladalari, "Tilla darvoza", "Tabarruk tuproq", "Qora kiyik" dostonlari o'z davrida she'riyat muxlislari tomonidan o'qilgan va yaxshi baholangan. "Tilla darvoza" dostonidagi mana bu misralar ona-Vatan — O'zbekistonga bo'lgan asl mehr-muhabbatning badiiy ifodasidir:

Rasul og'a, Qaysin og'alar
Tog'larini maqtasin, mayli.
Oy ko'rinar Qizilqum menga
Olov yurakligi tufayli.
Agar taqdir o'tsa yiroqqa,
Kesilsa-da hatto oyog'im.
Topar edim uni so'roqlab,
Mehri bo'lib qo'ltiqtayog'im.

Toshpo'lat Hamid faoliyatining yana bir muhim jihati borki, u shoirligidan ham ortiq bo'lsa ortiqki, aslo kam emas. U ijodiy hayotining hamma bosqichlarida yosh qalamkashlarga katta e'tibor bilan qaragan, ularning katta adabiyot yo'lida kirishlariga rahnamolik qilgan. Zamonaviy Buxoro adabiy muhitining yangidan shakllanishi va taraqqiy topishida ustoz shoirning katta xizmati bor. Ne'mat Aminov, Jamol Kamol, Maksim Karimov, Omon Muxtor, G'ulom Shomurod, Isroil Subhoniy kabi ijodkorlar o'tgan asrning elliginchi yillari o'rtalarida shoir tomonidan tashkil etilgan "Nulufar" adabiy-badiiy to'garagining faol a'zolari bo'lishgan va ijod saboqlarini o'zlashtirishgan. Ushbu ish muallifi ham o'sha, yetmishinchi-saksoninchi yillarda mazkur to'garak a'zosi bo'lgan va dastlabki she'r va maqolalari "Buxoro haqiqati" gazetasi sahifalarida bosilgan. Iste'dodli shoir tavalludining to'qson besh yilligi ayyomi biz — qalam ahlini fidoyi ijodkor xizmatlarini yana bir bor eslash va uning ezgu ishlarini davom ettirishga da'vat etmoqda hamda uning ikkinchi umri barqarorligidan darak berib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбек совет энциклопедияси. — Тошкент, 1987. — Т. 11. — С. 257.
2. Озод Шарафиддинов. Замон. Қалб. Поэзия. — Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 196. — 259 б.
3. Кораев Т. Танланган асарлар. 2-жилд. — Бухоро, 2020. — 465 б.
4. Юнусов М. Ташпўлат Хамид // Қуёш зарралари. — Ташкент: Ҳафур Гулом нормидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. — Б. 223—226.

XX ASRNING IKKINCHI YARMI O`ZBEK SHE`RIYATIDA TOG` VA TOSH OBRAZI

L.Sharipova,

BuxDU f.f.d. dotsent.

M.Bog'irova,

BuxDU adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida tog', tosh obrazi ko'p uchraydi. Bu obrazlarning ayrimlari ramziy obraz sifatida shoir nazarda tutgan ramziy ma'nolarni tashiydi. Tog` va tosh obrazi har bir ijodkorning o'z mahorati, ichki kechinmalari, so'zni idrok qilish darajasiga ko'ra yaratilgan. Maqolada shu haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ramziy obraz, tog', tosh, lirik kechinma, ramziylik, mahorat, shoir, badiiylik, ijod, tajohuli orif.

Ijodkor ramziylik, ramziy ma'no ko'magida ramziy obraz yaratadi. Ramziylik, ramziy ma'no shoirga fikrni yashirish, pardalash, ba'zi o`rinlarda tazyiqlardan himoyalaniş, zarur bo`lganda fikrni chuqurroq, yorqinroq, mukammalroq ifodalash imkonini beradi. Adabiyotshunos olim D.Quronov yozadi: “Ramz (ar. – imo, ishora, imlash) – simvol; ko`chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko`chma ma'no kasb etuvchi so`z yoki so`z birikmasi; obrazlilik turi” [2.244]. Shoirlar Shavkat Rahmon ham o`z she'riyatida tog`, tosh obrazini qayta-qayta yaratgan. Uning “Yana savol” she'riga diqqat qiling:

Oyog'imga
Botmon toshlarni
Bolalikdan bog'lab qo'ydi kim?
Endi xalos bo'lmoqqa yetmas
Yovuzlardan asragan umrim
Xudo bergan soniyalarni
Xarob qildi qaysi g'alamis?
Agarda shu tog'lar bo'lmasa
Uchar edik samolarda biz [4.46].

Shavkat Rahmon she'riyatining o'ziga xos ichki kechinmalarga boy ekanini, shuningdek, so'zning jozibasi, kuch-qudratini ijod maydonida obrazlarni gavdalantirishida ko'ramiz. "Yana savol" she'rida murg'ak qalb egasining oyoqlariga kim botmon toshlarni bog'lab qo'ygani lirik qahramonni qiynamoqda. Har qancha urinmasin, yovuzlardan asragan umri qutilmoqqa imkon topolmaydi. Chunki u dunyoning hoy-havasiga, g'am-tashvishiga o'ralashib qolgan.

Agarda shu tog'lar bo'lmasa
Uchar edik samolarda biz

Dunyoning o'tkinchi hoy-havasiga, nafsimizga bog'lanmaganimizda samolarda parvoz etishimiz mumkinligini ta'kidlaydi. Bunda lirik qahramon o'z o'ziga ritorik so'roq berish orqali tajohili orif san'atidan foydalanadiva holatni oydinlashtiradi. Ko'rinadiki, aksariyat o'rinlarda ijobiylik kasb etadigan to'g' obrazi bu she'rda salbiylik kasb etgan.

She'riyat ijtimoiy hodisa sifatida insonning ruhiy mohiyatidan ibtido oladi. Shu ma'noda odamzodning hozirgi holatga kelishi, ya'ni insonning insonga aylanishi faqat tashqi omil – insonning zoti bilan, unga joylashgan ruhiy mohiyatning ijtimoiylik shaklida namoyon bo'lishi bilan ham bog'liqdir. Ya'ni ijtimoiylik tashqaridan yopishtirilgan yorliq emas, balki insonning qonida mavjud mohiyat bo'lib, uning uzoq yo'lni bosib o'tishi natijasida bashariyat bugungi tamaddunni qo'lga kiritdi. She'riyat esa ana shu mohiyatning namoyon bo'lish shakllaridan biridir. Shoirlar bu mohiyatning, ta'bir joiz bo'lsa, kashshoflaridirlar. Har qanday

yaxshi she'ning markazida o'zining quvonch va tashvishi, orzu va armoni bilan inson turadi. She'r xuddi shu insondan, uning tabiati, maqsad va intilishlari, yanada to'g'risi, inson haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib tushuniladi.

Kaftlarim toshga to'la,

Otolmagan toshlarim...

Kimga otay? Kimga otay?

Ko'zlarim yoshga to'la

To'kolmagan yoshlarim...

Kimga sotay? Kimga sotay? [1.5]

Xalqning "tosh otmoq" iborasi bor: ko'chma ma'noda "malomat qilish" sanaladi. Shoir shu ma'noni va o'z ma'nosini birday qo'llab bilganki, bu ham shoir iqtidorini bildiradi. She'riyatda juda ko'plab ijodkorlar ijodida lirik kechinmalarning o'ziga xos ramziylikka oshuftaligini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan, Eshqobil Shukurning ijodini kuzatadigan bo'lsak, "O'ttizinchi yillar" she'rida ham tosh obraziga murojaat qilingan va bunda mustamlaka yillaridagi og'ir muhitga javob qaytarolmagan lirik qahramonning qalbi nafrat va g'azabga to'la. Kaftlariga toshlar olib bu g'ariblikdan chiqmoq istaydi-yu, biroq o'zbekning sabr- matonati, bardoshi tog'lardan-da yuksakligi, qon-tomirlarigacha singganligini ifodalash uchun shoir otilmay qolgan toshlar obrazini qo'llaydi. Quyidagi she'rida shoir tog' va tosh obrazlarini birga qo'llash bilan she'rdagi mazmunni ta'kidlashga urinadi.

Qani, sening ovozing?!

Chorlayman, bo'g'zimga tiqilar tog'-tosh.

Ko'zim qirg'og'ini to'lqinlar buzar.

Ko'ksimga medalday osilar bardosh,

Ovozga aylanar quloqlar, ko'zlar.

Qani, sening ovozing?.. [1.5.]

Eshqobil Shukur yuqoridagi she'riy parchasida ham tutqun bo'lgan xalqni hurlikka chorlar ekan, tashbeh hamda tanosub san'atlaridan unumli foydalanadi. Lirik qahramon bo'g'zidagi g'am-alamni tog'-u toshga tenglashtiradi va shu muammodan xalos qiluvchi, shijoat beruvchi, ichki yakdillikka chorlovchi ovozni

qidiradi. .Shuningdek, Rauf Parfining ijodida ham shu ruhda ifodalangan ramziylikni quyidagi misralarida uchratishimiz mumkin:

Vaqt quyunida ne davr-u davron,
Bu-toshga aylangan erkdir, bardoshdir
Bu turkiy yurt muqaddas armon [3.12].

Toshning g'am, dard yuk, tashvish kabi salbiy ma'nolaridan tashqari bir qator ijobiy mazmun olgan o'rinlari ham bor. Bunda toshning metinday mustahkamligi, qattiqligi, og'irligi inobatga olinadi. Har bir ijodkor o'zining lirik kechinmalarga boy obrazlar dunyosida ushbu ma'nolar doirasini yanada kengaytiradi, sayqallashtiradi.

Bilamizki, vaqt ta'sir eta olmaydigan kuch tog'-u toshlarda mavjud. Shunday ekan, yurt ozodligi uchun kurashgan zotlarning bardoshini shoir toshga qiyoslagan vaholanki, u oddiy tosh emas, u tarixdan so'zlaydigan, vaqtning hukmiga dosh bera oladigan toshlardan. Kelajak avlodga kimligini toshoyna qila oladi.

Unga qarayman-u bir his tuyaman,
Bu yurtim timsoli mangulik toshdir.
Yuragim toshiga she'rim o'yaman [3.12].

Lirik qahramon toshning vaqtlar aro muqimlik sifatini yurtiga timsol qiladi. Chunki elining mangu barhayot bo'lishini istaydi va hatto bu qalb so'zlarini yuragining toshiga o'yib yozadiki, tomirida kimlarning qoni jo'sh urayotganini unutmashlikni istaydi. Ota-bobolarining kuch-qudratini har bir yurak zarbida anglash maqsadida o'chmas bir naqsh o'yib chizishini shoir metofora orqali yetkazib beradi. Xulosa shuki, XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida tog', tosh obrazi tez-tez qo'llangan va bu obrazlar turli ramziy ma'nolarni tashigan.

Adabiyotlar:

1. Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni (she'rlar va dostonlar). – Toshkent: Sharq, 2002. – B.5.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.244.
3. Rauf Parfi. Tavba (she'rlar). – Toshkent: Yozuvchi, 2000. – B.46.
4. Shavkat Rahmon. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997. – B.46.

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA JANR STILIZATSIYASI

L.Sharipova,

BuxDU f.f.d. dotsent

X.Najimova

BuxDU adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Yozma she’riyat asrlardirki, folklordan ta’sirlanib, o’rganib, foydalanib keladi. Folklarga xos motiv, ritm, obrazdan foydalanish, folklor janrini o’zlashtirish orqali stilizatsion folklorizmni yuzaga keltirish an’anaga aylanib bormoqda. Bu holatning tadqiqi ham amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada istiqlol davri o’zbek she’riyatida janr stilizatsiyasi tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: stilizatsiya, ritm, motiv, janr, folklor, she’riyat, ohangdorlik, shoir, folklorizm, xalqona ruh.

Ezgulikka yo‘g‘rilgan adabiyotning o‘z oftobi, o‘z daryosi, o‘z qudrati bo‘ladi. U sizga ergashmaydi, siz unga asir bo‘lasiz. Dastlab og‘izdan og‘izga o‘tib shakllangan folklorimizga yondosh tarzda yuzaga kelgan milliy adabiyotimiz bugun o‘zining mustahkam qasriga ega. Zamonaviy adabiyotimiz, jumladan, o‘zbek she’riyati folklordan, dunyo adabiyoti, ayni damda, mumtoz she’riyatimizdan quvvat olib, sayqallanib, rivojlanib bormoqda.

Folklor janrlarini o‘zlashtirib, ularni yozma adabiyotga olib kirish janr stilizatsiyasi hisoblanadi. Folklor janrlarini aynan o‘zlashtirilish imkoni yo‘q, albatta. Negaki, bu ikki adabiyot o‘ziga xos qonun-qoidalarga ega. Janr o‘zlashuvi ikki tomonlamadir. Dastlab, yozma adabiyot folklordan janr o‘zlashtirgan bo‘lsa, keyinchalik og‘zaki adabiyot ham yozma adabiyot janrlaridan foydalangan [6.89].

O.Nosirov yozma va og‘zaki adabiyotlarning o‘zaro ta’sir shakllari juda ko‘p va xilma xilligini, biroq hech bir ta’sir shakli janrlardagi va vazndagi kabi yaqqol ko‘rinib turmasligini alohida e’tirof etadi [4.78-88].

Yozma adabiyotimizga ertak, doston, alla, yor-yor, topishmoq, o‘lan, lapar, aytishuv, askiya, latifa kabi folklor janrlari stilizatsiya qilingan. Folklordan o‘zlashgan, bugun yozma she‘riyat janriga aylangan qator janr namunalari istiqloq davri o‘zbek she‘riyatida ham uchraydi. Endilikda ijodkorlar folklor janrlaridan shunday mohirona foydalanishyaptiki, natijada xalq xazinasidan oziqlangan yangi, zamonaviy asarlar dunyoga kelyapti.

O‘zbek oilasida nikoh marosimi o‘zining an‘analari, urf-odatlar va qo‘shiqlari bilan alohida ajralib turadi. Millatimiz to‘ylari “To‘ylar muborak” turkum qo‘shiqlari, yor-yor-u laparlarsiz o‘tmaydi. Ushbu janrlardagi asarlar xalq og‘zaki ijodiga mansub marosim qo‘shiqlari sirasiga kiradi. Yozma she‘riyat “yor-yor”larni o‘zlashtirar ekan, adabiy yor-yor janri yaratildi [7.89-93]. Ikki yoshni qutlovchi “To‘ylar muborak” qo‘shiqlari yurtga, millatga qarata aytila boshlandi. Yurtimizning mustaqilligi arafasida yangrovchi bunday she‘rlar mustaqillik shodiyonalari shukuhini yanada oshirib kelmoqda. Taniqli shoir N.Narzullayevning “Chaman ichra” to‘plamidan o‘rin olgan “To‘ylar muborak!” nomli she‘ri shunday shukuhni yodga soladi. Ushbu she‘rda xalq og‘zaki ijodining “To‘ylar muborak” turkum she‘rlari janriga xoslik hamda folklorga xos ritm stilizatsiyasi bor:

To‘ylar muborak, ona diyorim,
Gulday ochildi baxtim, bahorim.
O‘zbekistonda to‘y-shodiyona,
Kunday yozildi ko‘ngil xumorim [3.22].

Folklorda yaratilgan “yor-yor”da oila quruvchi juftlik bilan bog‘liq tavsif, ta‘rif bor. XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan adabiy allalar ham mazmun mohiyatiga ko‘ra folklordagi “yor-yor”larga yaqin. Ammo XXI asrda yaratilgan adabiy allalarda ijtimoiylashuv yuz bergani seziladi. Shoirlarimiz xalqimizning yaxshi kunlarini, bayramlarini to‘ylarga qiyoslab yor-yorlar, o‘lanlar yarata boshladilar. Xususan, Mahmud Toir xalq qo‘shiqlaridan ilhomlanib “Navro‘z yor-yori” nomli she‘r yozdi:

Ko‘klam ko‘rki azaldan ko‘zga sig‘mas, yor-yor,
Navro‘z kelsa navosi so‘zga sig‘mas, yor-yor.
Sumalakning toshini tosh demanglar, yor-yor,

Quv qizlarning ko'z yoshin yosh demanglar, yor-yor [1.164].

Bundan tashqari ushbu she'rda folklarga xos ritm va motiv stilizatsiyasini ham uchratamiz. Sumalakka tosh solish, boychechakning boylanishi motivi shular jumlasidandir.

Xalq og'zaki ijodida chol-u kampir, yigit va qiz, bir necha qizlar aytishuvi alohida janr sifatida ajralib turadi. Avvallari to'y marosimlari shunday aytishuvlar bilan qizg'in tus olgan. Hozirgi kunda milliy bayramlarimizda yigit va qizlarning shunday aytimlariga guvoh bo'lamiz. Yozma adabiyotda esa shoirlar zamonaga mos aytishuvlarni yaratishdi. "Sartarosh qiz bilan mehmon yigit aytishuvi", "Oshiqlar manzili" (aytishuv) nomli she'rlar Narziy Normurodning xalq ijodiga qiziqishi kattaligidan dalolatdir:

– So'zning ko'rki – maqol, – derlar,

Yigit ko'rki – soqol, – derlar.

Yarashibdi sizga mo'ylov,

Ko'rmaganni uvol, derlar.

– Qizning husni xol bo'ladi,

Ko'ngil xolga lol bo'ladi.

Kuydirgani, hay-hay, yomon,

Mard yigit ham chol bo'ladi [3.65].

"Oshiqlar manzili" nomli she'rda shoir xalqona ohangga ham murojaat qiladi va o'z aytishuvini "Ko'zimni ko'rib nima qilasiz?" nomli folklor qo'shig'iga hamohang tarzda yaratadi:

– O'ng ko'zimni nima qilasiz,

Chap ko'zimni nima qilasiz?

Izlab borib topolmaysiz,

Manzilimni nima qilasiz?[3.116]

Aytishuv janri stilizatsiyasi Mahmud Toir ijodida ham uchraydi. Yigit va qiz dialogi tarzida bitilgan "Aytishuv" nomli she'rda folklarga xos ritm, janr hamda "Alpomish" dostonidagi beklar bilan bellashuv motivi stilizatsiyasi mavjud.

Qiz: – Men ko'klamning ko'ziman,

Bulbullarning soʻziman.

Yigit: – Beklar bilan bellashsam,

Allomishning oʻziman [1.24].

Hozirgi oʻzbek sheʼriyatida xalq yigʻi va yoʻqlovi xarakterida yaratilgan lirik asarlar “marsiya”, “yoʻqlov”, “xotira”, “...xotirasiga”, “bagʻishlov”, “giry”, “qoʻmsash” va hakazo kabi nomlar bilan yuritiladi. Ularda shunday motivlar va obrazlar uchraydiki, bevosita motam marosimiga aloqador ayrim urf-odatlarini, irim-sirimlarni, mifologik tasavvur-tushunchalrni oʻzida ifodalashi bilan diqqatni tortadi [6.98].

Shoirilar sheʼrlari orqali oʻz yaqinlari, zamondosh ijodkorlar dardlarini aytishga urindilar. Bir qarashda bunday sheʼrlar marsiyalarni yodga soladi. Faqat ulardan farqli oʻlaroq pand-nasihat, oʻgit, hayotiy tajribalar bilan oʻrtoqlashuv, armonli dunyo iztiroblari tarzida yangraydi. Halima Xudoyberdiyevaning “Aʼzam Oʻktam xotirasiga”, “Ketdi bizning Muhammadimiz”, “Muhammadning yoʻqlovi”, “Alvido, Otajonim!” (ustoz Sharof Rashidovning oʻlimi munosabati bilan), Said Ahmad va Saida Zunnunova xotirasiga bagʻishlangan “Mangu porlar oʻt – ikki shonim”, “Polvon daraxt qulasa”, “Shukur Burhon” nomli sheʼrlari marsiya xarakterida bitilgan boʻlib, yoʻqlov stilizatsiyasi asosida yaratilgan. Shoiraning “Muhammadning yoʻqlovi” nomli sheʼri isteʼdodli shoir sogʻinchi, bir koʻngilning alamli koʻz yoshlari ila bitilgan.

Koʻz yoshli koʻksin choklab

Jayron oʻzin tigʻlaydi.

Qabring uzra qizgʻaldoqlar

Qizlaringday yigʻlaydi [5.38].

Shoir Mahmud Toir ijodida Komiljon Otaniyozov xotirasiga “Sizni yod etarmiz”, Botir Zokirov xotirasiga “Hofiz nidosi”, Shermuhammadbek xotirasiga “Bobolarim”, Faxriddin Umarov xotirasiga “Elning ardogʻi” nomli bagʻishlanmalari ham marhumlar yodi tarzida yozilgan boʻlsa, “Bobur armoni” nomli sheʼri buyuk shoh va shoirning iztiroblari tarzida yangraydi.

Mahmud Toir qadim dostonchilik an'analarini uyg'otib, zavq-u shavqqa to'lgan baxshidek adabiyotimizga xalqona nazm va nasr almashinib turuvchi uch doston taqdim etdi. Bular "Oqib ketgan armonlar", "Otamning o'kinchi", "Ogoh bo'l, dunyo" nomli dostonlaridir. Shoirning "Oqib ketgan armonlar" nomli dostoni hayotiy voqea asosida yaratilgan bo'lib, unda Gulbahor va uning ikki bolasining fojiali halok bo'lishi tasvirlanadi. Bu ayriliq ko'plarni iztirobga solidi. Doston boshdan oxir marsiya ruhida bitilgan. Dostondagi marsiyalar soyning suvi, toshlari tilidan yangraydi. Jigarining vafotidan kuygan to'rt opaning aytimlari kishi ko'nglini larzaga soladi. Bu marsiyalar xalq yig'ilari ohangida shoir tilidan yaratildi.

Sochlari soyda qolgan,

Gulbahorim, ne qilding?

Qoshlari yoyda qolgan,

Gulbahorim, ne qilding?[2.18]

"Otamning o'kinchi" nomli dostonida esa ona sog'inchi farzand tilidan yo'qlov tarzida yangraydi. Umuman, bu davr she'riyatida janr stiliztsiyasining namunalari bisyor. Bu esa shoirlarimizning xalq ijodiga bo'lgan hurmati, e'tiboridan, o'rganishda davom etayotganidan darakdir.

Adabiyotlar:

1. Mahmud Toir. Ahli muhabbat, qaydasiz. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2013. – 220 b.
2. Mahmud Toir. Uch doston. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 96 b.
3. Narziy Normurod. Chaman ichra: (Qo'shiqlarim). — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1995. – 222 b.
4. Nosirov O., Sobirov O. Xalq ijodi xazinasi. – Toshkent : Adabiyot va san'at, 1986. – B.78-88.
5. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. IV jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, nomidagi NMK, 2018. – 340 b.
6. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – 153 b.

7. Sharipova L. She'riyat va folklor. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 204 b.

ABDULLA SHERNING “BUXORO MANZUMASI” TURKUM SHE'RIDA BUXORO TARIXI IFODASI

D.J.Xamroyeva

BuxDU adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada serqirra ijodkor - Abdulla Sherning “Buxoro manzumasi” turkum she'rlaridan bir nechta namunalar tahlilga tortilgan. Unda Buxoro tarixi masalasi, ijodkorning so'z qo'llash imkoniyati va badiiy mahorati o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Buxoro tarixi, Toqi Zargaron, shaxmat taxtasi, Iskandar, Rovshanak, Buxoro manzumasi.

Sharif shahar sanalmish qadim va navqiron Buxoro madhi, uni kuylash istagi, asrlardirki, ijodkorlar qo'liga qalam tutqazib keladi. Mashrabning Buxoro haqidagi betakror she'rini eslash kifoya. Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Sadridin Salim Buxoriy, Samandar Vohidov kabi qator ijodkorlar asarlari orqali Buxoroning beqiyos siymosi, o'ziga xos manzarasi namoyon bo'lgani she'rxonga ma'lum. Buxoro haqidagi asarlarni tahlil qilgan olimlar tadqiqotlarida bu haqda fikr yuritilgan. Tasavvufshunos olim N.Komilov “Buxoro kuychisi” nomli maqolasida yozadi: “Sadridin Salim o'nga yaqin she'riy to'plam nashr ettirgan bo'lsa, deyarli har bir kitobida Buxoro haqida she'r-u qasida bor”.⁹² Bunday asarlarning jozibasi hali-hanuz satrlar uzra jilvalanadi. Biz ismlarini eslaganimiz ijodkorlar asli Buxorodan, ammo ulug' Buxoro ta'rifida qalam tebratgan qalam ahli safi dunyo bo'ylab keng yoyilgan. Muhammad Yusufning “Ko'hna quduq” dostonini o'qir ekansiz, shoirning Buxoroni “ota makonim” deganiga guvoh bo'lish mumkin. Biz Buxoroni e'zozlab she'rlar bitgan, asli toshkentlik bo'lgan shoir, o'zbek adabiyotida

⁹² Komilov N. Buxoro kuychisi // Kitobda: Sadridin Salim Buxoriy. Hikmatdir dunyo. –T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011. –B.6.

o‘z ovozigaga ega bo‘lgan ijodkor Abdulla Sherning “Buxoro manzumasi” nomli turkum she‘rlarini tahlilga tortmoqchimiz:

Bulutlarni yenggan quyoshdek,
Nimtalangan xayollar aro
Goho beshik, goh yashim toshdek,
Qalqib chiqdi yaxlit Buxoro.⁹³

Ko‘rinadiki, shoir Buxoroni quyoshga qiyos qiladi. Yaxlit Buxoroning beshikka qiyos qilinishi bejiz emas, chunki u bashariyatga daholarni ulg‘aytirib bergan muborak joy, demakki beshik. Ushbu turkumdagi she‘rlarni o‘qir ekanmiz, Buxoro nafasini his qilamiz. Viqorli Ark, ma‘yus Minora, sehrli Labihovuz... Barcha-barchasi ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Buxoro tarixi mavzusi shoirni uzoq qiziqtirgan mavzulardan biri ekanligi ko‘rinib turibdi:

Suronli poytaxtning tunlarida men,
Ko‘hna kitoblardan goh ko‘tarib bosh...

Yoki:

...Muqaddas Buxoro, aziz shahrim deb
Seni quyosh atab sig‘inardim men.
Asrlar ortida qolgan faxrim deb,
Seni armon atab sog‘inardim men.

Abdulla Sher Buxoroni aziz shahrim deb atab, uni quyosh bilib sig‘inadi. Goh faxrga, goh yuragidagi armonga mengzaydi. Sog‘inch azobi uni qiynayotgandek bo‘ladi. Va nihoyat, shoir Buxoro jamolini ko‘rishga azm etadi:

Shunda ilk muborak vaslingni ko‘rib,
Nogoh, ona, dedim sezmay o‘zim ham.
Va qobil farzanddek qoshingda turib,
Quvonch-u g‘amingga bo‘loldim hamdam.

Asrlar beshigini tebratgan sharif Buxoroni shoir nogoh “ona” deb yuboradi. Bu so‘z shunchaki til uchida aytilmadi, balki inson qalbidan beixtiyor vulqondek otilib chiqdi. Yoki:

⁹³ Abdulla Sher. Qadimgi kuy. –T.: Adabiyot va san‘at, 1987. –B.67.

Men javob izladim, Toqi Zargaron

To'ntarilgan jomdek bermadi jarang.

To'rt unsur misoli Chorminor hayron,

Tutib turgan kabi olamni arang.

Shoir Toqi Zargaronni to'ntarib qo'yilgan jomga qiyos qiladi. Dunyo to'rt unsurdan bunyod bo'lganini anglagan shoir to'rt minorni to'rt unsurga mengzaydi va bu qiyos yordamida minorlarni tavsiflaydi. Banddagi “t” tovushi tavze' hosil qilib, she'rga ohangdorlik, jarang bag'ishlaganiga guvoh bo'lamiz.

Hazrat Alisher Navoiyning asarlarini anglash uchun, avvalo, Qur'oni Karimdan xabardor bo'lish kerak degan fikr hammaga ma'lum. Abdulla Sherning “Buxoro manzumasi” turkum she'rlarini tushunish uchun esa tarixni, xususan, Buxoro tarixini bilish maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki ushbu she'rlar shunchaki Buxoroga maqto'v tarzida emas, balki Buxoro boshidan o'tgan sinovli kunlar haqida ta'sirchan va takrorlanmas hikoya sifatida yaratilgan. Buni quyidagi satrlar orqali ham anglash mumkin:

Menga so'ylaydilar naql. Emishki,

Iskandar o'y surib ezgin ruh aro.

Rovshanak zulfini silab demishki:

“Shaxmat taxtasiga o'xshar Buxoro!”

She'rxon Iskandarning Buxoro tarixi bilan aloqasini o'ylab qoladi. Tarixdan ma'lumki, Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 329-yilda O'rta Osiyoga yurish qiladi. Bosib olingan hududlar orasida Baqtriya ham bo'lib, Buxoro uning tarkibiga kirardi. Rovshanak esa turonzamin go'zali, Baqtriya hokimi Oksiartning qizi edi. Rovshanakning go'zalligiga maftun bo'lgan Aleksandr unga uylanadi. Shoir Buxoroni shaxmat taxtasiga qiyoslaydi, ammo bu fikrni Rovshanak tilidan keltiradi. Zotan, asrlardirki, Buxoro ulug' zaminni o'yingoh deb biladigan hukmdorlar qo'lida qolib keldi va bu o'yinlar faqat vayronargarchilik, zahmat olib keldi. Ijodkor “Sening boshingdan oq va qora kunlar o'tdi, har bir kelgan podshoh sening ustingga yurish qildi”, - deyayotgandek go'yo.

Ilk masjid qo'ynida xos joynamozga

Qutayba bosh qo'yib, bir qo'rquv aro.

Titrab shivirlabdi ibn Muozga:

“Shaxmat taxtasiga o'xshar Buxoro!”

Arab sarkardasi Qutayba ibn Muslim 709-yil Buxoroni zabt etgach, aholini islomga da'vat qilgan. Aytish joizki, Movarounnahrda birinchi masjid ham aynan Buxoroda qurilgan. Sa'd ibn Muoz esa 31 yoshida Islomni qabul qilib, ezgu amallari bilan tarixda qolgan. Shoir shaxmat taxtasiga o'xshagan Buxoro ulug' joy bo'lgani uchun mustabdlar ham uning qarshisida titrab qolishini ifodalaydi. Yoki:

Ha, bunda o'ynadi Chingizning aspi,

Nodirshoh fillari - goh oq, goh qaro

Va lekin qisqadir manmanlik dasti

“Shaxmat taxtasiga o'xshar Buxoro!”

Shoir bir so'z bilan ikkita ma'noni berishning uddasidan chiqqan, ya'ni ot leksemasi bir qarashda tulpor ma'nosini bersa, aynan ushbu she'rda shaxmatdagi ot figurasini ham ifodalaydi. Birinchi misrada Chingizxonning bosqinchilik harakatlari tilga olingan bo'lsa, ikkinchi misra yana e'tiborni tortadi. Nodirshoh fillarini ham shunday sharhlash mumkin. Tarixdan ma'lumki, Nodir Muhammad (1642-1645) hukmronligi davrida Buxoroda siyosiy tarqoqlik yanada kuchayadi. Natijada bir guruh amirlar uning o'g'li Abdulazizni xon deb e'lon qiladi. Buning oqibatida Nodirshoh toj-u taxtni qaytarib olish maqsadida Hindiston podshohi temuriyzoda shoh Jahondan yordam so'raydi. Ma'lumki hind qo'shinlarida fillar alohida mavqega ega. Ushbu fikrlar masalaning bir tomoni. Ot va fil ikki ma'noda ham o'zini oqlaydiki, bu shoirning so'z qo'llashdagi mahoratini ifodalaydi.

Buxoro haqidagi bunday latif she'rlarni yaratgan Abdulla Sher Buxoro tarixi, havosi, uning orzu-armonlarini satrlarda mohirona jonlantirdi. Bu she'rlar sharif shahar haqidagi beqiyos she'rlar sifatida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. –T.: Adabiyot va san'at, 1987. –B.67.

2. Komilov N. Buxoro kuychisi // Kitobda: Sadridin Salim Buxoriy. Hikmatdir dunyo. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. –B.6.

O‘ZBEK XALQ MAQOLIDA ANQO TIMSOLI VA POETIKASI

B.M.Jo‘rayeva

BuxDU, f.f.d., prof.

M.J.Oromova

BuxDU filologiya fakulteti,

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqolida qo‘llanuvchi Semurg‘ qushining timsoli hamda poetikasi haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: anqo, “anqoga shafe”, “anqoning urug‘i”, simurg

Maqol xalq og‘zaki ijodining ajralmas bir qismi sifatida asrlar davomida xalq bilan birga yashab kelmoqda. Inson nutqini maqollar singari hech bir til birligi tushunarli, sodda, ravon yetkazib berolmaydi. Chunki, maqolda ifoda ravon, xulosa tugal, fikr aniq bo‘ladi. Maqollar har bir xalqning o‘zligini, hayot tarzi, etnografiyasi, madaniyati, tili va didaktik ruhini ko‘rsatadigan oynasidir. Maqollar turli mavzularda bo‘lib, ularda fikrlar turli xil ifodalar orqali namoyon bo‘ladi. Tilda shunday so‘zlar borki, ular maqollarda ham o‘z aksini topgan bo‘lib, o‘tmishda qo‘llanilgan, hozirda esa iste‘moldan chiqqan.

Dunyo xalqlari bilan bir qatorda sharq xalqlarida ham qadimdan mavjud bo‘lgan sayyor syujetlar, shuningdek, qushlar timsolidan xalq og‘zaki ijodida va badiiy adabiyotda keng foydalanilgan. Masalan: hind xalq eposi bo‘lmish “Kalila va Dimna” asarida qushlar obraziga keng o‘rin berilgan. Xususan, sharq xalqlarida ham qush timsoli bilan bog‘liq o‘rinlar uchraydiki, qush bilan bog‘liq bir qancha asarlar yaratilgan. Bulardan: Abu Ali ibn Sino “Tayr qissasi”, Imom Muhammad G‘azzoliy “Risolat ut-tayr”, Farididdin Attor “Mantiq ut-tayr”, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” kabilar. Bundan ko‘rinadiki, sharqda qush timsoli ancha ilgari kirib kelgan va badiiy

adabiyotda asosan, majoziy ma'noda qo'llanilgan bo'lib, u orqali muallif davr bilan bog'liq voqea-hodisalarni, ijtimoiy-siyosiy hayotni xalqqa tushunarli holda yetkazishni maqsad qilgan. Qadimda shunday qush nomlari bo'lganki, ulardan xalq og'zaki ijodida asosan, maqollarda keng foydalanishgan.

Chunonchi:

Anqoning oti bor – zoti yo'q.

Anqo – afsonaviy qush, samandar. Oti bor o'zi yo'q afsonaviy qush (go'yo Qof tog'ida podshoh bo'lib yashar emish) sifatida ta'riflanadi. Anqoning urug'i (tuxumi) yoki anqoga shafe kabi birliklar noyob, hech ham topilmaydigan narsalarga nisbatan qo'llangan. Bundan tashqari xalqda: "Kishida havas bo'lsa, anqoning tuxumi ham topiladi" singari hikmatli so'z ham uchraydi [1, 15]. Anqo timsolidan badiiy adabiyotda ancha keng foydalanilgan. XI–XII asrlarda yashab ijod etgan Imom G'azzoliyning "Risalat ut-tayr" asarida uchraydi. G'azzoliy anqo ramziy ifodasida tasavvufiy ma'noda Ollohning obrazini yaratadi.

Shu taxlit qay bir qush o'zining ul dargohga munosib emasligi gumoniga borsa, podshoh – Anqoga yarashadigan ish – o'shani o'ziga yaqinlardan qilmoq, panohiga olmoqdir (Imom G'azzoliy). Shuningdek, anqo timsolidan A.Navoiy "Layli va Majnun", "Hayrat ul-abror", shuningdek, g'azallarida ham foydalangan.

Sirri ishqim bilmagan el qolmadi, garchi manga,

Nomabar qush o'rniga Anqoni mahram qildingiz (Favoyid ul-kibar) [2].

Mifologik tasavvurlarga ko'ra, Anqoning bo'yni juda uzun, o'zi esa juda kata bo'lgan. Uning bo'yni oq patlar bilan o'ralgani uchun "anqo" ya'ni "bo'yinli" deb ataganlar. Anqo sharq xalqlari poetik ijodidan keng o'rin olgan bo'lib, uni "Semurg'" deb ham ataydilar. Anqo keyinchalik, nomi bor o'zi yo'q, noyob, topilmas narsa va hodisalarga nisbatan qo'llana boshladi. Anqo afsonalarga ko'ra o'ttiz qush rangiga kira olgan, shuning uchun ham uni eronliklar "simurg" deb nomlaganlar. Anqo ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan darajada yuksaklikka uchadi. U Qof tog'ining ustida yashaydi va ajdaholarni ovlab kun kechiradi. U qushlar hokimi bo'lib, hattoki, Sulaymon payg'ambar devoniga ham kelib turgan, ammo boshqalarning ko'zlariga ko'rinmagan. Afsonalarga ko'ra, anqo ikki boshli tarzida

ifodalangan bo'lib, uning bir boshi odam, hatto insonlarday gaplashgan ham. Anqoning o'limi yaqinlashganda quyosh inini yondiradi va u o'ziga boshqa bir in yasaydi. Keyinchalik, u inidan qaytib chiqmaydi, o'sha yerda o'ladi, suyaklari orasidan uzun dumaloq qurt shaklida anqoning bolasi chiqadi [3]. Anqo xalq orasida baxt, omad ramzi bo'lib kimning boshiga soyasi tushsa, o'sha odam baxtli hisoblangan. Badiiy adabiyotda anqo bilan bir qatorda semurg', humo, qaqnus kabi afsonaviy qush nomlari ham bo'lib, ular deyarli bir ma'noda qo'llangan.

Xulosa qilib aytganda, tildagi hech bir hodisa shunchaki paydo bo'lmaganki, maqollar ham, ularda ifodalangan so'zlar ham shunchaki paydo bo'lib qolmagan. Yuqoridagi maqolda ham anqo so'zining o'tmishda qay ma'noda ishlatilganligi va anqoga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda hozirgi kunda qaysi ma'noda qo'llanayotgani haqida ma'lumot berildi.

Adabiyotlar:

1. Shomaqsudov. Sh, Shorahmedov. Sh. Ma'nolar maxzani. – T.: “O'zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – 448 b.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/zuhra-mamadaliyeva-qaqnus-timsoli-talqinlari-mumtoz-adabiyotda-qushlar-obrazi.html>
3. <http://www.hozir.org/adabiyotshunoslik-kafedrasi-himoyaga-tavsiya-etilsin-v2.html?page=11>

ALISHER NAVOIY VA ULUG'BEK HAMDAM IJODIDA RAMZIY TALQIN MUSHTARAKLIGI

M.T.Saypidinova,

BuxDU adabiyotshunoslik

(o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Hozirgi o'zbek hikoyalarning bir qismi realistik ruhda bo'lib, qahramonlarning o'y-kechinmalari, mehr-oqibatlari, yoshlarning bir-biriga muhabbatlari aks etadi. Yana bir turkum hikoyalar borki, ular chuqur ramziy

xarakterga ega. Unda dunyoning kelib chiqishi, inson hayotining ma'nosi chuqur mushohada etiladi. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyoti vakili Ulug'bek Hamdamning ramziy xarekterga ega “Bir piyola suv” hikoyasi Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidan o'rin olgan “Suv izlagan baliqlar” hikoyati bilan qiyosiy tahlil qilish orqali mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Almisoq, Almisoqdan qolgan, arava, suv, karvonsaroy, sahro, safar, girdob.

Ko'plab yangiliklar unutilayotgan eskiliklardir. Shu ma'noda, bugungi zamonaviy adiblarning ijod namunalarida qadimgi mumtoz asarlardagi hikoyat va rivoyatlar mazmunini ko'rish mumkin. XXI asr adabiyotining yetuk vakillaridan biri Ulug'bek Hamdam qalamiga mansub “Bir piyola suv” mazmun-mohiyati Navoiy Hazratlarining “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Suv izlagan baliqlar” hikoyati bilan hamohangdir.

“Bir piyola suv” hikoyasida keltirilgan “Almisoq”, “Almisoqdan qolgan” iboralarini kundalik hayotimizda ko'p eshitganmiz. Bu so'z arab tilidan tarjima qilganda “va'da”, “ahd” degan ma'nolarni anglatadi. Qur'oni karimda aytilishicha, Tangri taolo o'z qudrati bilan Odam alayhissalomning belidan undan tarqaydigan barcha zurriyotlarini chiqarib, ularga: “Aytinglarchi, Men sizlarning Robbingiz emasmanmi?”, deganida, ular: “Parvardigoro, O'zing barchamizning Robbimizsan, bizlar bunga guvoh bo'ldik”, deb Tagriga ahd-u paymon, ya'ni misoq bergan ekanlar⁹⁴ (A'rof surasi, 172,173- oyatlar izohi) Xalq orasida keng tarqalgan bu so'z “Va'da berilgan kun” ni anglatadi. Tangi taolo va'da berilgan kunda Yaratganiga ibodat qilish haqidagi ahdni olgandan so'ng, insonlarni bu olamga bandalik safariga yo'lladi. Insonning dunyoga kelishi safar, bu safarning so'ngi manzili, asl Vatanda, ya'ni Allohning dargohidadir. Mazkur talqin safar tushunchasi bilan ko'plab poetik timsollarning ramziy mohiyatini anglab yetish imkonini beradi. “Saddi Iskandariy”dagi “Suv izlagan baliqlar” va “Bir payola suv” hikoyalarining har ikkalasini g'oyaviy zamin insonning dunyoga kelishdan maqsadini, tiriklikning mohiyatini anglash masalasidir. “Bir payola suv” hikoyasida voqealar safarga

⁹⁴ Qur'oni Karim. Alovuddin Mansur tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 1992, 110-bet.

chiqqan yo'lovchi tomonidan hikoya qilinadi. U o'z so'zini “menga vazifa yuklatilgan edi” deb boshlaydi va bu vazifa yuk ortilgan aravani shomga qadar manzilga yetkazishi kerakligini aytadi. Bu bandalik vazifasi edi. Hikoyadagi ikki otni tu va kun deyish mumkin. Almisoqdan qolgan arava Yaratguvchi o'z bandalariga ahd kunida in'om etgan umrdir. Tun o'z o'rnini kunga, kun esa tunga almashib umrning oxiri, shomga yaqinlashadi. Insonlar umrlari davomida qilgan amallarining mukofotini ham, jazosini ham so'nggi manzilda, albatta, topadilar. Hikoya qahramoni manzil tomon kelishda yosh va baquvvat, ko'ngli zavq-shavqqa to'la edi. Birozdan so'ng o'z vujudida horg'inlik, chanqoq hissini sezadi. Bundan umrning o'tayotganini, yo'lovchining yoshi ulg'aygani, ehtiyojlari esa ortib borayotgani seziladi. Hikoya qahramoni o'z vazifasini unutmasa-da, manzil tomon borishdan to'xtadi. Majozan foniyb dunyoni anglatuvchi karvonsaroyga kiradi. U karvonsaroyning ichidagi buloqqa kelib suv ichgunga qadar, o'z ehtiyojini juda ko'p deb o'ylaydi. Ammo bir piyola suvga chanqog'i qondi. G'oyasi safar mavzusi bilan bog'liq bo'lgan asarlardan biri – Ibn Sinoning “Tayr qissasi” da qushlar tilidan “agar ozgina chalg'isak, tuzoqqa tushamiz ovchi bizga yetib oladi” deb aytiladi.⁹⁵ Ya'niki, ozgina bo'lsa-da chalg'ish, vazifasini unutish bu foniyb dunyoning tuzog'iga tushiradi. “Bir piyola suv” hikoyasi qahramoniga mana shu bir piyola suv tuzoq bo'ldi. Endi suvning haqqini to'lash kerak. Karvonsaroyning ichida unga o'xshab manzil tomon ketishdan chalg'igan odamlar juda ko'p. Ularning katta qismi holidan shod, to'yib dunyo noz-ne'matlaridan bahramand, bir qismi esa haq to'lash bilan ovora holda tasvirlanadi. Yo'lovchi o'z-o'ziga men bir piyola suv uchun shuncha haq to'lasam, bular qanday haq to'lar ekan deya daxshatga tushadi. Agar tafakkur qilinadigan bo'lsa, bu undagi ma'naviy izlanish, mushohada jarayoning boshlanishidan nishon. Vaholanki, arziymasdek tuyilgan igna ham, katta jarohat yetkazishi muqarrar bo'lgan qoziq ham ko'zga ziyon yetkazadi. Bu bilan yozuvchi gunohning kattasi uchun ham, kichigi uchun ham Yaratganning oldida javob berilishini nazarda tutgan. Yo'lovchi haqni to'lab chiqqanda bildiki, umrini boy beribdi. Hikoya boshida keltirilgan, yo'lovchilarni karvonsaroyga kirishga

⁹⁵ Ibn Sino. Tayr qissasi. Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent: 2005. 78-83-betlar.

undayotgan ayolgina o'zgarmagan, hamom yosh, chiroyli bo'lib, sahroda toliqqan, manzil tomon ketishdan chalg'iganlarni dunyo lazzatlaridan bahramand bo'lishga chorlamoqda. "Hibbat ul-haqoyiq" asarida aytilganidek: "Dunyo kulib boqadi yana qosh va manglayi bilan xo'mrayadi; qo'li bilan asal yedirib, taomni lazzatli qilib, keying qadahga esa zahar qo'shib beradi. Uning mazali kechgan davri yeldek o'tib ketadi. Yangi eskiradi, yigit qariydi, quvvatli bo'lsa bukiladi, kuchi ketadi".⁹⁶

Hikoya qahramoni bildiki, o'zi olib ketayotgan arava to'la suv ekan. Aravadagi suvni inson umrining mazmuni deyish mumkin. Umrning mazmunini anglagan inson hamma narsani o'zidan izlamoqligi, ezgu ishlar qilishi, doimo ortga qarab yashashi, dunyoga nima uchun kelganini unutmasligi lozim. Yo'lovchi hayotning ma'nosini anglab yetganda kun botayotgan, ya'ni umrning oxiriga yaqinlashgan, vaqt boy berilgan edi. Hikoya voqealari kun chiqib, kun botishigacha o'tgan vaqtda bo'lishi ham inson umrining bir kun kabi o'tib ketishiga ishora qilmoqda.

Hazrat Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Suv izlagan baliqlar" hikoyatida "Bir piyola suv" hikoyasining g'oyaviy manbasi sifatida talqin qilish mumkin bo'lgan motivlar mavjud. Unda keltirilishicha, baliqlar doimo suv nima ekanligini bilmoqchi bo'lishadi. Kunlarning birida sabrsiz baliqlardan biri sheriklariga suv nima ekanligini girdob ichida yashovchi nahangdan so'rashni taklif qiladi. Ko'pdan beri suv nima ekanlini bilmoqchi bo'lgan, uning rangi-yu mazasini bilishni istayotgan baliqlar o'ylab ko'rmay yo'lga tushishadi. Ozgina o'ylab, tafakkur qilinsa girdob halokatga olib borishini bilish mumkin edi, lekin istaklar o'lim xavfidan ustun keladi. Girdobga yetib kelib baliqlar bir-biridan ajralib, nahangning ichiga tushib ketadilar. Suvdan ayrilgandan so'nggina ular butun umr suvning ichida yashaganliklarini anglab yetadi. Baliq uchun eng zaruriy narsa, albatta, suv. Baliqlar esa suvning ichida yashab turib, uni mo'jiza deb o'ylashdi. Mo'jiza deb o'ylab yurgan narsalari aslida hayotlarining mazmuni edi. Inson hayotidagi eng muhim kun bu – nima uchun dunyoga kelgan kunini anglab yetgan

⁹⁶ Yuknakiy Ahmad. Hibbat ul-haqoyiq. Akademik litseyning I bosqich o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: 2016. 93-bet.

kundir. Shuning uchun, inson hayotining ma'nosini uzoqdan yoki ko'zga sirli ko'ringan narsalardan emas, o'zidan izlamoqligi lozim. Zero, hamma narsa izlaguvchining o'zida jamdir. Har ikkala hikoyaning mazmun-mohiyati Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida keltirilgan:

O'z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o'zingdan istagil;⁹⁷

yoki Mavlono Rumiyning:

Narsa yo'qki, xoriyi olam erur,

Har ne istarsan o'zingda jam erur, baytlari bilan hamohangdir.⁹⁸

Qur'oni Karimda keltirilgan, “Jonlarini o'lim vaqtlarida, (hali-hanuz) o'lmaganlarini esa(shu) uxlayotgan paytlarida Alloh olur. Bas, o'zi o'limga hukm qilingan jonlarni (badanlariga qaytarmasdan) ushlab qolur, boshqalarini esa belgilangan bir muddatgacha (ya'ni ajallari yetgunicha) qo'yib yuborur. Albatta, bunda tafakkur qilgan qavm uchun oyat-ibrat bordir” (Zumar surasi, 42-oyat) aytilganidek, tirik ruhga rizqini komil qilish, bandalik vazifasini oxiriga yetkazish uchun izn berilar ekan, har bir inson har kunini g'animat bilib, bu dunyoga nima uchun kelganini unutmagan holda manzil tomon borishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, har ikkala hikoyadagi “suv” detail orqali yuzga chiqqan ramziy talqin inson umrining ma'no-mazmunini o'z vaqtida anglash, nafsning havoyi xohishlariga erk bermaslik va so'nggi manzil – Rabbisining huzuriga ahdiga sodiq turgan holda borish g'oyasini ilgari surishga xizmat qilgan.

Adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim. Alovuddin Mansur tarjimasini. – Toshkent: Sharq, 1992, 110-bet.
2. Hamdamov Ulug'bek. To'lin oy qissasi. – O'zbekiston: 2017.
3. Ibn Sino. Tayr qissasi. Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent: 2005. 78-83-betlar.

⁹⁷ Navoiy Alisher. Lison ut-tayr. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991. 151-bet.

⁹⁸ Fish Rashid. Jaloliddin Rumi. Tarixiy-biografik roman. – Toshkent: 1986. 154-bet.

4. Yuknakiy Ahmad. Hibbat ul-haqoyiq. Akademik litseyning I bosqich o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: 2016. 93-bet.

5. Navoiy Alisher. Lison ut-tayr. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991. 151-bet.

6. Fish Rashid. Jaloliddin Rumi. Tarixiy-biografik roman. – Toshkent: 1986. 154-bet.

“PAREMIYALARNING ADABIYOTDAGI O`RNI. PIRIMQUL QODIROVNING “AVLODLAR DOVONI” ROMANIDA QO`LLANGAN PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR TADQIQI”

Abduraxmonova M

BuxDU, adabiyotshunoslik (ingliz)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola paremiyalarning tilshunoslikdagi o`rni mavzusidan biroz uzoqlashib, ularning adabiyotdagi ahamiyati, vazifasi, muallifning ushbu birliklardan foydalanishdagi asosiy maqsadi haqida so`z yuritadi. Ularning tarixi, kelib chiqishi, turlari haqida so`z yuritib, bir qancha namunalar keltiradi. Asosiy maqsad sifatida o`zbek yozuvchisi Pirimkul Qodirovning “Avlodlar dovoni” asari badiiy tahlili bilan birga, unda muallif qo`llagan paremiologik birliklarni tahlil qiladi.

Kalit so`zlar: paremiya, paremiologiya, Pirimkul Qodirov, afsona, rivoyat, hikmatli so`z, hadis, jang shiori

Key words: paremia, paremiology, Pirimkul Kadirov, legend, folktale, aphorism and sayings, slogans

Til va adabiyot insoniyatning asrlar davomida erishgan buyuk tajribalari bilan yo`g`rilar ekan, shundagina u mazmundor va go`zaldir. Ilk adabiy birliklar ham avvalambor xalq og`zaki ijodi ya`ni folklyor bilan chambarchas bog`liqdir. Folklyor atamasi avvalambor maqol, matal va ibratli hikoyalar tushunchasini eslatishi tabiiy holdir. Maqol va folklor tushunchalari bevosita adabiyotshunoslikning

paremiyologiya yo'nalishi bilan uzviy bog'liqdir. Ularning kelib chiqish tarixiga qaraydigan bo'lsak, paremiologiya bu – yunoncha “paroimia” maqol, masal va logos so'z va ta'limot degan ma'noni anglatadi va tilshunoslik, frazeologiya va adabiyot bilan chambarchas bog'liq tushunchadir. Uning tub ma'nosida tinglovchiga dono maslahat berish, yo'l korsatish, ta'sir etish maqsadlari ko'zda tutilgan. Paremiyalar o'zining turli xususiyatlari bilan ahamiyatga molikdir. Paremiyalar adabiyotda muhim o'ringa ega bo'lib, muallifning bosh g'oyasi, asarni yozishdan maqsadi kabi muhim unsurlarni ochib berish vazifasini o'taydi. O'zining didaktik xususiyatini saqlagan holda, kitobxonga go'zal tarbiyaviy maqsadni yetkazib bera oladi. Asarda makon va zamon tushunchasini yoritishda paremiyalarga murojaat qilish muallifga keng imkoniyat yaratib beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, paremiyalar adabiyotda o'zining ajralmas o'rni va ahamiyatiga egadir. O'zining uzoq o'tmishga borib taqalishi bilan, paremiyalar insoniyat hayotining tugal tajribalariga guvohdir. So'zimizning isboti sifatida, o'zbek adabiyoti durdona namunasi hisoblanmish “Avlodlar dovoni” asarida muallif Pirmqul Qodirov qo'llagan paremiologik unsurlarni tahlil etdik.

P. Qodirovning tarixiy romanlarida temuriy hukmdorlar hayotining eng murakkab jihatlari qalamga olingan. Romanlarda millat hukmdorlarining tarixdagi qismati temuriylar davlatining yemirilish sabablari haqida tasavvur beruvchi omil sifatida tasvirlandi va bu hol romanga o'ziga xos ruh bag'ishladi. Pirmqul Qodirov romanini turli jabhalarda talqin qilish mumkin. Maqolamizning asosiy maqsadi sifatida tanlangan paremiyalarning romandagi ishtiroki, qahramonlar ruhiy holatiga ta'siri, muallifning ularni qo'llashdan maqsadini yoritish eng birinchi vazifamiz ekanligini hisobga olib, quyida paremiologiyaning romandagi o'rni va ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tamiz.

“Avlodlar dovoni” roman-dilogiyasi o'zining makon va zamon tasviri va turfa madaniyat va dinlar uyg'unligi o'zgacha ifodalanganligi bilan diqqatga sazovor. Izlanishlarimiz natijasi o'laroq, quyidagi paremiologik birliklarning asardagi roli va o'rni alohida e'tirofga sazovordir:

•Qaysi ulusning xudosi ko'p bo'lsa, unday ulusda yakdillik bo'lmagay, mamlakat hamisha parokandalikdan azob tortqay. Ammo nasoralar ham biz kabi xudoga sajda qilurlar. Iso alayhissalomga sig'inurlar. Muhammad alayhissalom o'z ummatlariga murojaat etib deydilarki, "Iso va Muso payg'ambarlardan ajralmanglar, imonda doim birga bo'linglar! "

Ushbu misolda paremiyalarning go'zal namunasi bo'lmish hadisdan foydalanilganligi, uning asardagi madaniy ta'siri va ahamiyatiga aloqadordir. Keyingi qismda buyuk shoh Akbarning dunyoga kelgani va uni turli diniy aqida egasi bo'lgan doylar qanday kutib olgani tasvirlangan:

•Bismillohir rahmonir rahim! (Buyuk va rahmdil Olloh nomi bilan boshlayman!) - deb birinchi doya bolaning kindigini kesdi. Ikkinchi doya esa : "Kalimayiki jay! (Ma'buda Kaliga sharaflar!)" - deb, chaqaloqning kesilgan kindigi uchini yaxshilab tugib qo'ydi.

Bu so'zlar bizga hind zaminida qoni to'kilgan Akbarning har ikki din bag'rida dunyoga kelgani va keyinchalik ularni bir xil e'zoz etganiga asosdek tuyiladi.

•Ammajon, og'a-ini adovati haqida mashhur "Yusuf-Zulayho" afsonasi bor. Lekin o'sha afsonadagi Yusufga o'gay og'alari qilgan yomonliklar ham mening o'z inilarimdan ko'rayotganlarim oldida bir halvo, xolos!(250-bet) Bu qismda mashhur afsona misolida, o'z hayotining muammolari naqadar jabrli ekanligini ta'kidlab o'tgan. Demak u afsona voqealari uning hoyot achchiqlari oldida hech narsa emas. Uning hayoti ham bir afsona aslida. Bu yerda afsona voqea mazmunini kuchaytiradi.

•Ahvolingiz juda yanchli edida, olampanoh! Krishna sizni panohida asrasin!(371-bet, Krishna qadimgi hind afsonalaridagi xudolardan biri, fillarning homiysi hisoblanadi. Bu jummalarda hind xalqining afsonaviy xudolarga sig'inishi tasvirlangan.) - Men hazrati Sulaymondan madad so'radim. Xayriyatki ikkovimizning ham iltijomiz ijobat bo'ldi. (Rivoyatlarga ko'ra hazrati Sulaymon barcha yovvoyi hayvonlar homiysi bo'lgan.) Bu qismda Akbarning mast filni minib o'rmon bo'ylab choptirgani va xavfli ishni qila turib rivoyatlardagi qahramondan madad so'ragani tasvirlangan.

•Bunday yuksak hurmatga sazovor bo'lgan kuyov otdan tushdi, Jodha Bay unga ta'zim qilib yaqinlashdi-yu, eng sara gullardan qilingan va “savyamvar” deb ataladigan katta gulshodani Akbarning bo'yniga osdi.(422-bet) Rivoyatlarga ko'ra qadimdan qizlar yigitlardan qaysi birini yoqtirsa, shu gulchambarni uning bo'yniga solgan. Savayamvar “o'z dilidagini tanlash” degan ma'noni anglatadi. Bu misolda hind ayoliga rasman uylangan Akbarning hind diniy aqidalariga nisbatan chuqur hurmatini anglatadi.

•Bizda “Elchiga o'lim yo'q” degan maqol bor!(451-bet) Mashhur xalq maqolining ishlatilishi jang va saltanat masalalari bilan bog'langan.

•Abulfazl “Injil”ni ochdi: Mana Odam Ato bilan Momo Havo haqidagi rivoyat nasoralarda ham bor. Faqat ular Odam Atoni Adam, Momo Havoni yeva deydilar. Yana bir narsaga e'tibor bering, hazratim: fотиha o'qigach, musulmonlar “omin” deydilar, nasoralar “amin” deydilar, yunonlar “amn” deydilar, hindlar “ouvmn” deydilar. Shuni hamma bilsa balki diniy adovatlar yo'qolib ketmasmidi? (484-bet) Ushbu bandeda biz diniy yakdillik yo'lidagi izlanishlar akbarni naqadar chuqur o'ygatoldirganini ko'rishimiz mumkin.

•Akbar oyatlarni yod bilardi. Hujurat surasini avval arab tilida, so'ng tarjimasini yoddan aytib berdi: “ Ey insonlar, biz sizlarni bir ota va bir onadan yaratdik va sizlarni turli millatlar va qabilalarga mansub qildik, toki bir-biringiz bilan yaqindan tanishgaysizlar.” (Qur'oni Karim, 49- sura, 515-517-sahifalar.)

•Axir kalimayi shahodat “Xudo bittadir. Allohdan boshqa iloh yo'qdir” degan ma'noni bildiradir-ku. Biz boshqa dinlar, boshqa xudolarni tan olsak, Allohning irodasiga qarshi borgan bo'lmaymizmi? (659-bet)

Yuqorida biz misol tariqasida keltirilgan parchalar orqali “Avlodlar dovoni” romanining naqadar mazmunan boyligi, xalq bilimlariga tayanib yozilganligiga guvoh bo'lamiz. Pirimqul Qodirov ijodida parmeiyalarning ahamiyat aslida buyuk bobokalonlarimizning nafaqat davlatni idora etish va jang san'atida yuksak mahorat egalari ekanligini, balki diniy qadriyatlar va insoniylik darslarini mukammal egallaganliklarini ifoda etadi. Pirimqul Qodirov asarida hind elining rasm-rusmlari, urf-odatlarini, diniy qarashlariga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lgani bizga

ushbu parchalardan ma`lum. Muallif o`z romanida paremiologiyaga murojaat etib, o`sha davr muhitini yaratishda asos sifatida foydalanadi. Temuriyzodalarning Hindistonni boshqarishdagi uslubiyatini ochib berish uchun, ularning turfa din va aqidalarni, ur-odat va g`oyalarni naqadar chuqur anglaganliklarini xalq donoligi timsoli sifatida rivoyat, oyat, hikmatlarni bilishlari va muhim lahzalarda to`g`ri ishlata olishlari bilan tarannum etadi. Pirimqul Qodirov “Avlodlar dovoni”ni yozishda o`z oldida o`ta mushkul vazifa turganini qalbining tub-tubidan anglar edi. Roman voqealarida hamma narsa butunlay hind diyoriga ko`chishi, qahramonlarning boshqa bir millat vakili va tarixiy a`zosi ekanligi naqadar muhim edi. Shu uchun ham shoh Akbarni o`z dilida ota-bobolar aqidalarinie`zozlagan holda, hind yurtining sevimli podshohiga aylangan shaxs sifatida bayon etadi. Roman tasvir-ifodasida hindcha ruh-koloritning ustunligi bilan muallifning boshqa tarixiy asarlaridan ajralib turadi. Biroq, o`zbekona nigoh bilan “Ramayana” va “Mahobxorat” eposlari, R.Tagor romanlariga xos hindcha manaviy tomchilar o`zimizning milliy kolorit bilan tutashib ketishi oqibati o`laroq asar betakror badiiy qiyofa kasb etadi. Kuzatishlarimiz natijasi shuni ko`rsatadiki, muallif xalq ijodi bilimdoni, turli madaniyatlardan xabardor shaxsdir. Buni asar ruhiyatida his qilish qiyin emas. Qolaversa, unda ishlatilgan paremiyalar va paremiologik birliklar ma`lum bir vazifa va maqsadga ega, hamda bu muqaddas vazifani to`la-to`kis ado eta olgandir!

Adabiyotlar:

1. Qodirov P. Avlodlar dovoni. – T.: Sharq, 2004.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O`zbekiston, 2002.
3. Mirvaliyev S. O`zbek adiblari. – T.: Yozuvchi, 2000.
4. Mirzayev I. Badiiy uslub sehri. – Samarqand: 2000.
5. Normatov U. Mahorat sirlari. (M. Qo`shjonov bilan hamkorlikda). – T.: 1972.
6. Normatov U. Nasrimiz ufqlari. – T.: Yosh gvardiya, 1974.
7. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.
8. Sanjar S. Roman va tanqid. – T.: Fan, 2008.
9. Паремииология узбекистана . выпуск 5 самарканд,1981

70230301- Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (tillar bo'yicha)

“BOBURNOMA” NODIR MANBA SIFATIDA

G.Shabonova,

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: “Boburnoma” asari nafaqat xalqimiz vaholanki, butun O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotida muhim o'rin tutadi. Asarda Markaziy Osiyo davlatlari jumladan, O'zbekiston, Afg'oniston, Hindiston xalqlarining tarixi, madaniyati, qadriyatlarini, urf-odatlarini, o'ziga xos xususiyatlaridan tortib tabiati, geografiyasi, hayvonot va nabobot olami to'g'risida bebaho ma'lumotlar jamlangan.

Kalit so'zlar. Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, boburshunoslik, qomusiy asar, geografik nom.

“Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkani, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi”, – deb qayd etgan edi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov [1. 31]. Qadim va boy tariximizni o'rganish, uni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Har bir xalqning tarixiy va milliy qiyofasini o'zida aks ettirgan buyuk siymolari bo'lishi chinakam faxrdir, albatta. Insoniyat tarixida Boburchalik shaxsiy fazilat va iqtidorga ega kishilar juda kam uchraydi. Yozuvchi Xayriddin Sulton aytganidek, Bobur yigirma besh yoshida Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Bangladesh mamlakatlarining aksariyat qismini egallagan ulkan saltanatga asos soldi. Uning mamlakatdorlik siyosati, harb ilmi asrlar davomida jahon hukmdorlari uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli uning noyob tajribalari Atilla, Yuliy Sezar, Bonapart Napoleon, Amir Temur singari mumtoz davlat arboblari

nomlari bilan bir qatorga qo'yib o'rganiladi [2, 4]. Birgina "Boburnoma" asari Bobur faoliyatining serqirraligi va bir qancha sohalarning bilimdoni ekanligiga yaqqol misoldir. Yirik boburshunoslardan biri Eyji Mano "Boburnoma"ni "ma'lumotlar xazinasi" deb atagan bo'lsa, angliyalik boburshunos Beverijxonim "butun tarixda yaratilgan yozma yodgorliklarning eng bebahosidir", –deydi. Germaniyalik boburshunos Klaus Shoning esa, "Boburnoma"ga baho berib, "mukammal tizimdagi xalq tilida yozilgan eng katta hajmdagi asardir", –deb ta'kidlaydi.

"Boburnoma"da 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o'ta aniqlik bilan, sodda, ravon tilda bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Asarda tarix, falsafa, etnografiya, tilshunoslik, fiqh, jug'rofiya, tabiatshunoslik va boshqa sohalarga oid hanuzgacha o'z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan.

"Boburnoma" XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko'plab tillari – ingliz, fransuz, nemis, fors, urdu, golland, italyan, rus, hind va boshqa tillariga tarjima qilinib, sharh va izohlar bilan nashr qilingan. Asarning dunyoga tanilishida, asosan, ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo'ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to'liq nashrini (ingliz tilida) 1826-yilda J.Leyden va V.Erskin amalga oshirdi. F.Talbot esa, mazkur nashr asosida ikki marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda ingliz sharqshunosi A.Beverij "Boburnoma"ni mustaqil suratda asl nusxadan qaytadan tarjima qildi. Birgina Angliyaning o'zida asar tarjimalari to'qqiz marta nashr etildi. Keyingi yillarda "Boburnoma"ning professor V.Takston tomonidan AQShda ikki jild hajmda, mukammal sharh va izohlar bilan Yaponiyada ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, ushbu qomusiy asar dunyo e'tirof etgan yodgorliklar qatoridan o'rin olgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati haqida ko'plab izlanish va tadqiqotlar olib borilgan. Ammo B.Valixo'jayev haqli ta'kidlaganidek: "...bu qutlug' ishni Boburning o'zi – "Boburnoma"da boshlab berganedi. Shundan so'ng

Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma'lumot berish kuzatiladi [3]. Shuningdek, Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarlarida ham ma'lumotlar uchraydi.

Rus sharqshunoslaridan N.I.Ilminskiy, N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, N.I.Veselovskiy, V.V.Vyatkin, A.Samoylovich, V.Bartold; afg'on olimlaridan Ahmad Ali Kohzod, Abdulhay Habibiy, Gulchin Maoniy; hind olimlaridan Zokir Husayn, Nurul Hasan, S.A.Sharmi, R.P.Tripatxi, P.Saron, Kanunga; turk olimlaridan Fuod Ko'pruluzoda, Rashid Rahmati Arad kabilar ham Bobur faoliyati va merosi bilan shug'ullandilar.

Jumladan, Boburning hayoti, faoliyati, ilmiy, badiiy merosini o'rganish, asarlarini nashr etish borasida o'zbek olimlari ham muayyan ishlarni amalga oshirdilar. Adibning shoh asari "Boburnoma"dan parchalar 1928-yilda Abdurauf Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasida e'lon qilindi. Shundan so'ng bu asar 1948-1949-yillarda 2 jildda, 1960, 1989-yilda tuzatilgan holda nashr etildi.

O'zbekistonda Bobur hayoti va ijodini o'rganish, asarlarining ilmiy, akademik va ommaviy nashrlarini e'lon qilish, asosan, XX asrning 40-yillaridan boshlandi. Boburning O'zbekistonda tanilishi va o'rganilishida olimlardan Abdurauf Fitrat, Maqsud Shayxzoda, Homil Yoqubov, Oybek, Olim Sharafiddinov, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Aziz Qayumov, Vohid Abdullayev, Natan Mallayev, Boturxon Valixo'jayev, Rahim Vohidov, Hamidulla Boltaboyev, Iqboloy Adizova, Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sulstonov, Qamchibek Kenja kabi olimlarning xizmatlarini e'tirof qilish mumkin. 60-yillardayoq Sabohat Azimjonova va Aziz Qayumov Bobur asarlarining uch jildligini e'lon qilganliklari, Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayev "Boburnoma"ning ilmiy-tanqidiy matnga yaqinlashtirilgan mukammal nusxasini nashr etganliklari, Saidbek Hasanov Boburning "Mufassal" nomli yirik aruz tadqiqotini "Muxtasar" nomi ostida aslining fotofaksimil nusxasini va matnini krill harflarida nashrga tayyorlab chop ettirgani, Iya Steblevaning "Bobur g'azallari semantikasi" tadqiqotining yaratilgani, Salohiddin Jamolovning "Boburnoma"ning badiiy xususiyatlari", Xosiyat

Nazarovanning “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug‘at”, Sabohat Azimjonovanning “Boburning Kobul va Hindistondagi davlati”, G‘aybulla Salomov va Ne‘matulla Otajonning “Boburnoma jahon kezadi” kitoblarning yaratilishi boburshunoslikka qo‘shilgan ilmiy hissalar bo‘ldi.

Keyingi yillarda bu yo‘nalishda T.Xo‘jayevning “Bobur she‘riyatining ayrim o‘ziga xos xususiyatlari”, D.Adilovanning “Bobur va Sa‘diy”, Z.Jo‘raboyevanning “Boburnoma”da ekologik tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar”, S.Rafiddinovning “Boburning irfoniy qarashlari”, D.Rajabovanning “Boburnoma”da qahramon portreti va ruhiy holat ifodasi”, D.Salohiyning “Bobur va naqshbandiya”, E.Umarovning “Bobur – turkiyshunos olim”, I.Boltaboyevning “Boburnoma”dagi oykonimlarni o‘rganishga doir”, B.Rajabovanning “Boburning bir g‘azali sharhi”, G.Xalliyevanning “Bobur g‘azallari semantikasi”ga oid tadqiqot, Sh.Hayitovning “Boburnoma”ning matniy-qiyosiy tahlili”, E.Hazratqulovanning “Boburnoma”da yumor va hajv”, Q.Ergashovning “Navoiy nasri va “Boburnoma” kabi yuzlab maqolalar yaratilishiga qaramay, bugungi kungacha ushbu yo‘nalish ilm ahlini o‘ziga qaratib kelmoqda.

Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan olimlar tadqiqotlarida Bobur shaxsi va “Boburnoma” asarini har tomonlama tadqiq etilgan. Asar qomusiy xarakterga ega bo‘lganligi uchun turli fan sohalarini qamrab olgan. Adabiyotshunos, tilshunos, yoxud tarixchi varaqlab ko‘radimi, har gal o‘zidan oldingi tadqiqotchining ko‘zi tushmagan yangi-yangi ma’lumotlarga duch keladi.

Bobur mirzo o‘zbek tilining barcha imkoniyatlarini ishga solgan va ustoz hazrat Navoiy an‘anasini davom ettirib, o‘zbek tilining sayqallanuvida katta iz qoldirgan ulkan so‘z san‘atkori bo‘lish bilan birga, tilshunoslikning grafika, onomastika, etimologiya, leksikografiya kabi sohalarining rivojiga munosib hissa qo‘shgan tilshunos olim hamdir.

Bobur tilga olgan ko‘plab geografik atamalar toponimlarning kelib chiqishini aniqlashda va o‘zbekcha terminologiyani ishlab chiqishda kata ahamiyatga ega. “Boburnoma” ning bu boradagi ahamiyati shundaki, undan toponimlarning qadimiy

shakllarini bilib olish mumkin: Dizak – Jizzax, Ko‘hak – Zarafshon, Sayxun, Xo‘jand suyi yoki Sir suyi – Sirdaryo, Chir –Chirchiq va h.k. [4, 47]

Bobur mirzo asarda har bir narsaga shunday sinchkovlik bilan qaraydiki, natijada hech biri uning nazaridan chetda qolmaydi. Bunday hassos qalb bilan u buyuk qomusiy asarni yarata oldi. Agarda, “Boburnoma” asari bo‘lmaganda edi, biz tarixning asl haqiqatini, ajdodlarimiz yashagan ona zamin va uning bepoyon sarhadlarini, har qarich yeridan tortib dala-dashtdagi ko‘z ilg‘amas har bir giyohini bilmagan bo‘lardik. Chunki hech bir manba insonni o‘z so‘zichalik tanita olmaydi. Hazrat Bobur xalqning so‘zi, xalqning o‘zi bo‘lib, tarix haqiqatini ko‘z oldimizda bor bo‘y-basti bilan gavdalantira olgan buyuk so‘z san’atkoridir.

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Шарқ нашриёти матбаа концерни бош тахририяти.1998, 31-б.
2. Хайриддин Султон. Бобурийнома. – Тошкент: Шарқ нашриёти матбаа концерни бош тахририяти. 1997. -Б. 4.
3. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги «Халқ мероси» нашриёти. 2002. -247 б.
4. Qorayev S. Toponimika. –Т., 2006. -В. 47.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи: П.Шамсиев. –Т.: Юлдузча, 1989. -367 б.

SO‘FI OLLOYOR IJODIDA HARF SAN‘ATI

Sh.T.Vaxobova

*Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
(tillar bo‘yicha) mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Maqolada So‘fi Olloyor hayoti va ijodiga bir nazar tashlab, uning “Sabot ul-ojizin” asaridan olinga matnlar asosida harf ya’ni kitobat san’ati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: didaktik, tasavvuf, kitobat, lug‘at, fors, arab, zamon, ziyon, ko‘z, xashm.

So‘fi Olloyor o‘zbek adabiyoti tarixida tasavvuf ta’limotini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan shoirdir. U o‘z she’rlarida so‘fiylikning axloqiy masalalarini keng targ‘ib qildi. Odam faqat shu yo‘l bilan haqiqat va komillikka erishadi, degan falsafani olg‘a surdi. So‘fi Olloyor asarlarini fors, arab tillarini puxta bilgan holda sodda o‘zbek tilida yozdi. Shuning uchun shoir asarlari xalq ommasi orasida keng tarqalgandir. Shoir asarlari Toshkent, Qozon, Boku, Istanbul va boshqa shaharlarda toshbosma yo‘li bilan bir necha marta bosilib chiqqan.

So‘fi Olloyor ijodida harf san’ati namunalaridan ko‘plab topish mumkin. Bu ijodkorning noyob mahoratidan dalolatdir.

Kalidi ganji maonikim zabondur,

Anga bir nuqta ko‘p bo‘lsa ziyondur.

Qilur qattiq takallum o‘ng ishing chap,

So‘zung tiklab ko‘ngul buzg‘uncha, tik lab.[1;85]

Ushbu keltirilgan ruboiyda So‘fi Olloyor hazratlari tildan keladigan ofatlar, undan ziyon ko‘rmaslik haqida arab harflarining o‘xshashligidan mohir foydalanilgan.

Ganji maoniy ya’ni ma’nolar boyligi, kaliti bu tildir, til orqali har qanday qalbga yo‘l topiladi, qalblar qulfi til kaliti bilan ochiladi. Ammo unga bir ortiqcha nuqta qo‘ysa u ziyonga aylanadi. Diqqatimizni zamon va ziyon so‘zlaridagi “b”)ب(va “y”)ي(harflariga qaratamiz. Bu harflar arab yozuvida bir nuqta bilan farqlanadi. Ya’ni “b” harfining nuqtasi bitta- ب. “y” harfida esa ikkita- ي. Agar bir nuqtani ko‘paytirsang, ya’ni ozgina ortiqcha gapirsang o‘zing ziyon ko‘rasan. Qattiq gapirganing bilan o‘ng ishingniyam ya’ni yaxshi ishingniyam chap, yomon ishga aylantirasan. So‘zingni tez qilib ko‘ngil buzguncha, ya’ni ko‘nglim og‘rinmasin, afsus qilmayin desang, so‘zing tiklagandan ko‘ra labingni tik ya’ni

tilingni tiy demoqchi shoir. Shoir o'z maqsadini ifoda etishda zamon "زين" va "زبن" so'zlaridan unumli foydalanib so'z o'yini qilgan.

"Sabot ul-ojizin" asarining Ko'zni haromdin yummoqni bayoni bobida:

Kel e mo'min, agar tarsanda bo'lsang,

Ko'zingni saqlagil, har qanda bo'lsang.

Quyi bo'lsun hamisha nuqtayi chashm,

Mabodo bo'lmag'ay bolo tushub xashm.[1;89]

Qalbingda iymoning, "mo'min" degan noming bor, yaqinroq kel va tingla: agar Olohdan qo'rqsang, qayerda bo'lishingdan qat'i nazar ko'zungni nomahramlarga tikishdan saqla. Ko'zing nuqtasini quyi qil, nigohingni ko'tarib, man qilingan narsalarga nazaring tushib, Olohning g'azabiga uchrab qolma. Qanda degan so'z "muayyan bo'lmagan joy, hudud" ma'nosini anglatadi, tilimizda qayda, qayerda shaklida qo'llaniladi.

E'tiborimizni chashm va xashm so'zlarining "ch" va "X" harflariga qaratamiz. Arab yozuvida ch harfi nuqtalari pastda, X)خ(harfi esa nuqtasi yuqorida qo'yiladi. Turkiyda ko'z ma'nosini anglatuvchi forscha chashm, so'zidagi x harfining nuqtasi mazkur harfning yuqorisiga tushib qolsa, خاشم so'zi, g'azab ma'nosiga aylanib qolishini ustalik mazmunga uyg'un tasvirlangan.

Nazar qilg'uncha bad, ey nafsi, ma'uyb,

Tushub ko'z nuqtasi ko'r bo'lg'oni xo'b.

Saodatdur nazar bo'lsa qadamda,

Tajovuz aylagach, bo'lsa nadamda.[1;89]

Ey aybli nafs! Oloh man etgan narsalarga qarab, yaxshi nazaringni yomonga aylantirgandan ko'ra ko'zing qorachig'i oqib, ko'r bo'lgani yaxshiroq. Qarash man etilgan narsalarning oldidan o'tayotganda nazaring pastda, bosayotgan qadamingda bo'lsin, shunda qoqilmaysan. Agar shu chegaradan chiqsang, dunyoda ham, oxiratda ham pushaymonlar ichida qolasan. "Tushub ko'z nuqtasi ko'r bo'lg'oni xo'b" misrasida ham harf o'yini mavjud: ko'z)كوز(so'zidagi ز harfidan nuqta tushib qolsa, ko'z- ko'r(كوز) bo'ladi.

Ismoil alayhissalom hikoyatidan olingan baytlarda ham harf o'yiniga duch kelishimiz mumkin.

Agar tuzluk bila barpo bo'lursan,

Alifdek jon ichinda jo bo'lursan.

Agar kaj bo'lsa af'olning bu dundek,

Qolursan, balki qon ostinda nundek.[2;75]

Agar to'g'rilik va rostlikda sobit bo'lsang, xuddi alif harfidek “jon” so'zining o'rtasidagi alif kabi bo'lasan, ya'ni hammaga jondek aziz bo'lasan. Agar fe'llaring va'daga xilof qiladigan pastkashlarnikidek qing'ir yoki ters aylanadigan dahri dundek teskari yoxud “dun” so'zidagi “dol”(د),”vov”(و) va “nun”(ن)dek egri bo'lsa, “qon”(قن) so'zining oxiridagi “nun”(ن) dek orqada qolasan ya'ni e'tibordan qolasan.

Arab yozuvi bu san'at, undan ham shaklda ham ma'noda so'z o'yini orqali qo'llash esa buyuk mutasavvufning mahoratligini anglatadi. Harf san'ati mumtoz matnlarimizning jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Сўфи Оллоёр.Саботул ожизин.Т.:<<Чўлпон>> 1991.
2. Сўфи Оллоёр.Саботул ожизин.Т.:<<Меҳнат>> 1991
3. Сўфи Оллоёр.Саботул ожизин шарҳи. Равойихур райҳон.Т.:<<Sharq >>2018
4. .Навой асарлари луғати(тузувчилар:П.Шамсиев, С.Иброҳимов)-Т.:Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти ,1972.-7826
5. Тожуддин Ёлчикул.Рисолайи Азиза(тузувчи:Б.Ҳасан)Т.:А.Қодирий номидаги халқ мероси нашр.2000.

BIR DEVONNING KO`CHIRILISH TARIXI

Sh.A.Hayitov

BuxDU, O'zbek tili va adabiyoti,

filologiya fanlari doktori

K.A. Akramova

BuxDU, (Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada ulug` fors-tojik shoiri, naqshbandiya tariqatining murshidi komili Nuriddin Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub bir devonning ko`chirilish tarixi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, «Xamsatul-muttahayyirin», naqshbandiya, Mavlono Abdussamad, Sulton Ya'qub .

Afv etish, kechirimli bo'lmoq komil insonga xos fazilatdir. Naqshbandiya tariqatining g'oyat ilg'or, xalqparvarlik tamoyillarini umr mazmuniga aylantirgan xojagon sulukining XV asrdagi buyuk rahnamosi Nuriddin Abdurahmon Jomiy hayotida kechirimlilik, shafqat va marhamat hamisha zuhur etib turgan. «Xamsatul-muttahayyirin»dan o'qiyimiz: «Bir qatla faqir alarning qadimiy devonin Mavlono Abdussamadg'akim, zamonning xushnavislaridindur va xush tab'i ham bor, buyurub erdim va ulcha maqdur takallufdur qililib erdi»⁹⁹. Shoir va o'z zamonasining xushxat kotibi Mavlono Abdussamad devonni ko'chirib tugatgach, qo'lyozmani asliyat matni bilan muqoyasa qilib o'qishni Alisher Navoiy ustoz Jomiyning o'zlaridan iltimos qiladilar. Alisher Navoiy istagi qondiriladi. «Alar ayttilar: «Bir-ikki kun munda turdik. Biz miqdore mulohaza qilali. Kotibin xushtab' kishi derlar. Shoyadki, ehtiyot qilib erkinkim, muqobala qilurg'a ehtiyoj

⁹⁹ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami . 20 jildlik. 15-jild.- Toshkent:"Fan",1999 .24-bet.

bo'lg'ay»¹⁰⁰. Ammo haqiqiy ahvol Mavlono Jomiy faraziga teskari bo'lib chiqadi. Kotib devonni ko'chirishda e'tiborsizlik oqibatida behad ko'p xatoga yo'l qo'ygan, ba'zi sahifalarda baytlar ham matndan soqit qilingan edi: «Tonglasi faqir alar xizmatig'a yettim, ayttilarkim: «Bu kitobni g'arib nav' bitibdur, anga o'xsharkim, iltizom qilmish bo'lg'aykim, g'alatsiz misra' bitmagay, ba'zi yerda biror-ikkiror, balki ortuq ab'yot ham tark qilibtur, o'zi-o'q munda bo'lsa, chun xushnavis kishidur, ko'p ehtiyot jihatidin shoyad xeyli ro'zgori zoe' bo'lg'ay»¹⁰¹. Bugungidek zamonaviy bosmaxonalar mavjud bo'lmagan Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy davrida xattotlarning o'rni va mavqei juda yuksak bo'lgan. Xattotlik kasbi oldiga qo'yilgan talablar ham shu soha kishilarining davr madaniy hayotida tutgan o'rniga qarab belgilangan. Alisher Navoiy qit'alaridan birida chalasavod kotibni mansabidan chetlashtirmoq, boshini yormoq, mamlakatdan badarg'a qilmoq kerakligini uqdirgan. «Mahbubul-qulub»da esa chiroyli yozadigan kotib ham ko'p xatoga yo'l qo'yadigan bo'lsa, uning qo'li falaj kasaliga yo'liqsin, deyilgan.¹⁰² Chunki insoniyat istiqbolining, kamolotining kafolatini beruvchi kitoblar kotiblar tufayli dunyoga tarqaladi. Xattot o'z faoliyati bilan jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga, ijtimoiy-ruhiy muhitiga jiddiy ta'sir o'tkazadi.

She'r - Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda shoirning «iste'dodi farzandi». Xattotning e'tiborsizligi oqibatida yuzaga chiqadigan sahvu xatolar ma'noga futur yetkazadi. Muallif g'oyaviy-badiiy niyatining yorqin namoyon bo'lishiga soya soladi. Fikrning joziba qudratini, badiiy ta'sir sur'ati va darajasini zaiflashtiradi. «Xamsatul-mutahayyirin»dan keltirilgan iqtibosdan ayon bo'layotirki, Nuriddin Abdurahmon Jomiy o'z «iste'dodi farzandi» - «so'z gavharlari»ni xor qilgan, tahqirlagan kotib sha'niga tavoze' ruknlariga xilof biror og'iz so'z aytmaydilar. Aksincha xushxat kotibning o'z umrini zoe' qilganligidan afsus chekadilar: «...chun xushnavis kishidur, ko'p ehtiyot jihatidin shoyad xeyli ro'zgori zoe' bo'lg'ay». Cheksiz andisha, xushfe'llik, xattot holiga achinish, uni ayash, shafqat va

¹⁰⁰ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami . 20 jildlik. 15-jild.- Toshkent:"Fan",1999 . 24-bet.

¹⁰¹ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami . 20 jildlik. 15-jild.- Toshkent:"Fan",1999 .24-bet.

¹⁰² Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami . 20 jildlik. 15-jild.- Toshkent:"Fan",1999,27-bet

mehribonlik borki Abdurahmon Jomiy soʻzlarida, aybdorga nisbatan muomalada bunday maqomda boʻlish oson ish emas. Naqshbandiya tariqati «Hush dar dam» aqidasi-ning axloq ziyosi bilan munavvar vujud, pokiza inson siymosidagina shunday odob nuri zuhur etadi.

Yangi ishga qabul qilingan, mashinka yoki kompyuter sohasida hali yetarli tajribaga ega boʻlmagan kotibasi bir-ikki xatoga yoʻl qoʻysa, xodimani jerkib, qogʻozni gʻijimlab otadigan serzarda toʻralar uchun bir dunyo ibrat bor Mavlono Jomiy shaxsiyatidagi bagʻri kenglik, daryodillikda.

Ikki ulugʻ alloma oʻrtasida uzoq davom etgan orifona munozarayu mubohasadan soʻng kotib tomonidan yoʻl qoʻyilgan xatolarni tuzatib chiqishni Mavlono Jomiy oʻz zimmlariga oladilar: «Guftu shunid koʻp oʻtti, oxiri faqir dedimkim: «Agar sizning muborak qalamingiz bila isloh topsa mujibi mubohot va zebu ziynat boʻlur». Oqibat qaror anga tuttikim, oʻz muborak qalamlari bila isloh qilgʻaylar» .¹⁰³Qattiq mehnat va vaqt sarflash evaziga deyarli har satrida qusur mavjud boʻlgan qoʻlyozma devondagi nuqsonlar bartaraf etiladi. Matndan soqit qilingan misralar tegishli oʻrinlarda tiklanadi: «Had va nihoyatda ortuq gʻalatlar erdikim, ham haq va ham isloh qildilar, ...» Ishni nihoyasiga yetkazgan Mavlono Jomiy «oʻz muborak qalamlari bilan isloh» qilingan devonlari nihoyasiga quyidagi qitʻani bitib, ilova qiladilar:

Xushnavise chu orazi xubon,
Suxanamro ba xatti xub orost
Lek har jo dar oʻ zi sahvi qalam
Goh chize fuzudu gohe kost.
Kardam islohi on bo xati xesh,
Garchi naomad chunonchi dil mexost.
Har chi u karda bud bo suxanam

¹⁰³ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami . 20 jildlik. 15-jild.- Toshkent:"Fan",1999.24-bet.

Ba xati u qusur kardam rost .¹⁰⁴

Qit'aning mazmuni:

Bir xati chiroyli (kotib) go'zallar yuzidek qilib,

So'zlarimni bezab chiqdi.

Lekin u har joyda qalami xatosi bilan,

Goh bir narsa orttirdi, goho esa tushirib qoldirdi.

Men o'z xatim bilan uni tuzatib chiqdim.

Garchi noqulay esa-da, ko'ngil tilagandek bo'ldi.

U mening so'zlarimni ne chog'lik buzgan bo'lsa,

Men uning xatiga shunday qusur yetkazdim¹⁰⁵.

Mashaqqatli va mushkul bir ishni hech ham minnatsiz amalga oshirish va shu ezgu amal vositasida boshqalarni (bunda xattotni va Alisher Navoiyni) xijolatning og'ir yukidan qutqazish oliyjanoblikdir. Yurakni siqadigan, xotirni parishon qiladigan bir vaziyatdan muloyim tabassum, lutfu madoro bilan chiqish mardlikdir. Birovlarning mahzun bir hissiyot uyg'otadigan harakatidan ranjimaslik sobirlik, o'zgaralar qalbi va qadrini avaylash murodida barcha og'irlikni o'ziga olish futuvvat, nasihatning achchiq dorilarini mutoyiba boliga o'rab berish (Shayx Sa'diy ifodasi) zariflikdirki, «Xamsatul-mutahayyirin»dan keltirilgan qit'a mag'zida va uning muallifi tabiatida barkamol inson axloqiga xos ana shu xususiyatlar mujassamdir.

Oqquyunli turkmanlar hukmdori Sulton Ya'qub kitob so'rab Hazrat Alisher Navoiyga murojaat qiladi. Fozil va zarif, darveshsifat bu hukmdor Alisher Navoiyga shaxsan ma'qul bo'lgan. Ulug' mutafakkir «Majolisun-nafois»ning yettinchi majlisida: «Ya'qub Mirzo-turkman salotinida aningdek pisandida zotlig' va hamida sifotlig' yigit oz bo'lg'ay», - deydi.¹⁰⁶ O'sha fursatda Mavlono Abdussamad qalami bilan kitobat qilinib, Hazrat Jomiy qalami ila isloh topgan devondan o'zga badiiy

¹⁰⁴ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami . 20 jildlik. 15-jild.- Toshkent:"Fan",1999.26-bet.

¹⁰⁵ Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". MAT. T. 14. –Toshkent: Fan, 1998.189-bet

¹⁰⁶ Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". MAT. T. 14. –Toshkent: Fan, 1998.167-bet

jihattan yuksak, go'zal va nozik asar nazarlariga tashlanmagan Alisher Navoiy shu she'riy to'plamni Sultonga yuborar ekanlar, kitobning ko'chirilish tarixiga oid lavhalarni izohlamoqni ham xotirdan faromush qilmaydilar: «Sulton Ya'qub faqirdin kitob tilaganda andin nafisroq kitobim yo'q erdikim, har misraida ul Hazratning muborak qalami kirib erdi va alarning-o'q qudsiy osor anfosi erdiyibordim-va bu bitilgan kayfiyatni sharh bila bitidim. O'qub, xushvaqtlig'lar qilib, qit'ani yod tutub, maktubda minnatdorchilik izhor qilib erdilar» .¹⁰⁷ Vujudi ma'rifat, zakovat, hikmat xazinasiga aylangan oriflar hayotiga daxldor har bir kichik lavha odamlar qalbiga beg'ubor samimiyat, mehru oqibat olib kiradi. Ellarni ellarga, dillarni dillarga bog'laydi. Asrlardan asrlarga, avlodlardan avlodlarga o'tib, ko'ngil olamini chog'lashda davom etadi...

Adabiyotlar:

1. Hayitov Sh. Barkamol inson timsoli. Monografiya.-Toshkent: Fan-2003.
2. Hayitov Sh. Murshidi komilning yoshlik yillari talqini// Buxoro universiteti ilmiy axborotlari. Buxoro,2008,-№
3. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami . 20 jildlik. 15-jild.- Toshkent:"Fan",1999
- 4 . Vohidov R." Navoiyning ikki durdonasi" .- Toshkent:"Fan",
5. Shamsiyev P. Ulug' do'stlik lavhalaridan.-Jomiy va Navoiy . .- Toshkent:"Fan",1966.

KOMRON MIRZO ADABIY MEROSINI O'RGANISHNING QO'LYOZMA MANBALARI

O.M. Abdurahimova

*BuxDU, (Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
mutaxassisligi magistranti*

¹⁰⁷ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami . 20 jildlik. 15-jild.- Toshkent:"Fan",1999 ,25-bet.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Komron Mirzo devonlari qo'lyozma nusxalarining o'rganilish manbalari xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Komron Mirzo, devon. Shafiqa, Yorqin, qo'lyozma, Z.M.Bobur, Gulbadanbegim „Humoyunnoma”, Abulfazal Allomiy „Akbarнома”, Mirzo Haydar Do'g'lat, „Tarixi Rashidiy” „Ravzatus salotin”, Hasanxo'ja Nisoriy „Muzakkiri ahbob”.

XVI asrdan to hozirgacha yozilgan tarixiy va adabiy manbalarda Komron Mirzo hayoti va ijodi haqida g'oyatda muhim ma'lumotlar berilgan. XVI asrning 30-yillaridan XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar Zahiriddin Muhammad Bobur asos slogan davlatda moddiy va ma'naviy jihatdan jiddiy yuksalishlar yuz bergan hayotning bir maromda davom etishi, til, millat, din erkinligi ma'naviy-ma'rifiy hayotning yuksalishiga mustahkam zamin bo'lib xizmat qilgan. Shundan bo'lsa kerak buyuk davlat va jamoat arbobi Javohir La'l Neru Bobur va Boburiylar zamonasigaa „Misli ko'rilmagan madaniy davr” deb baho beradi.

Bobur va boburiylar davrini o'rganishda Gulbadanbegimning „Humoyunnoma”, Abulfazal Allomiyning „Akbarнома”, Mirzo Haydar Do'g'latning „Tarixi Rashidiy” Shayx Abdul Qodir Badoyoniyning „Muntaqab-ut tavorix”, Hindushoh Muhammad Qosim Firishtaning „Tarixi firishta”, Sulton Muhammad Faxriy Hiraviyning „Ravzatus salotin”, Hasanxo'ja Nisoriyning „Muzakkiri ahbob” asarlari muhim manba hisoblanadi.

Hindistonlik olim M.Mahfuzulhaq ilk marta Komron Mirzo devonidagi forscha she'rlarni jamlab chop ettirdi. F.fanlari doktori Saidbek Hasanov esa Komron Mirzoning devonidagi o'zbekcha she'rlarini nashrga tayyorlab chop ettirdi. Bu sohada afg'onistonlik olim Shafiqa Yorqin ning amalga oshirgan ishlari alohida e'tiborga molik. Shafiqa Yorqin akademik Aziz Qayumov rahbarligida „Komron Mirzoning hayoti va ijodiy merosi” mavzuyida nomzodlik desertatsiyasini yozib, himoya qildi. Shafiqa Yorqin tomonidan yaratilgan tadqiqot Komron Mirzoning tarjimai holi hamda ijodiy merosini har tomonlama, yaxlit holda tahlil qilishga yo'naltirilganligi bilan muhim ilmiy qimmat kasb etadi. Olima Komron Mirzo

devonining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Shafiqa Yorqin „Humoyunnoma“, „Akbnaroma“, „Tarixi Rashidiy“, „Muzakkiri ahbob“ kabi tarixiy va adabiy manbalardan Komron Mirzo haqidagi mavjud ma'lumotlarni yagona o'ringa jamlagan va shoirning ilmiy tarjimai holini yaratishga harakat qilgan. Komron Mirzoning o'zbekcha va tojikcha she'rlarini sinchiklab o'rganib, ularning nashr nusxalarini qo'lyozma manbalar bilan chog'ishtirib o'tkazgan. Shafiqa Yorqin tadqiqotida Komron Mirzo she'riyatidagi an'anaviylik va ijodiylik masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Olimaning tadqiqoti sahifalaridan nazarga tashlanadiki Komron Mirzo o'zbek va fors-tojik adabiyoti namoyondalarining asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan. U Zahiriddin Muhammad Bobur, hazrat Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Kamol xo'jandiy, Haydar Xorazmiy, Hofiz Sheroziy, Jaloliddin Rumi asarlaridan kuchli ta'sirlangan.

Kamol Xo'jandiy, Amir Xusrav, Nizomiylarning asarlariga g'oyaviy jihatdan hamohang asarlar yaratgan bo'lsa, Hofiz Sheroziy, Mavlaviy, Mavlono Jomiy va Mirzo Bobur she'riyatiga shakl va mazmun nuqtai nazaridan o'xshash she'rlar yozgan. Hazrat Alisher Navoiy va Haydar Xorazmiy ijodidan misra va baytlarni esa tazmin qilgan. Komron Mirzo otasi Boburshoh shaxsiga yuksak hurmat- e'tibor, ixlos va muhabbat bilan qaragan, otasi devonlarini qayta-qayta o'qib, ularni yod olgan. Shuning uchun ham uning ijodi namunolari janr, vazn, tuzilishi, so'zlar va qofiyalar jihatidan Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatini eslatib turadi. Komron Mirzo she'riyatida go'zal tasvir joziba, samimiyat, shirin til va uslub mavjud. Ana shularni inobatga olgan tadqiqotchi Shafiqa Yorqin Komron Mirzoni: „O'zbek va fors –tojik adabiyotida yangi bir iz qoldirgan shoir,“ - deb e'tirof etadi.

Ishqiy mavzuda dilbar g'azallar yaratgan Komron Mirzo masnaviylarining katta qismi Ollohning ishqiga, payg'ambarning tavsifiga va islom dini targ'ibiga bag'ishlangan. Uning she'rlarida shunchaki yuzaki talqin emas, faol va ilg'or irfoniy yo'nalish ko'rinib turadi. U islom dini va Qur'on ahkomidan ilhomlanib tavozu, sadoqat-u yakdillik bilan xalqqa xizmat qilish, dunyoviy hirs-u ozdan voz kechib

hayotni yaxshi istaklar bilan boy etish, shuningdek , ma'naviyatni e'zozlash kabi g'oyalarni olg'a suradi.

Olimaning tadqiqotidan nazarga tashlanishicha Komron Mirzo qit'a janrida ham barakali ijod qilgan. Komron Mirzo qit'alarida vadagau xiyonat qilmaslik, vafoli bo'lish, hasad-ginadan voz kechish, odamlar bilan yumshoq muomala qilish ,sof ko'ngilli,ochiq yuzli va sadoqatli bo'lish kabi mavzular yoritiladi.

Shafiqa Yorqinning tadqiqotida Komron Mirzoning tanosib,murootun-nazir, tazod, tajnis,jinos,tajohuli orifona,tarsi',talmeh,mulamma',muddao masal,irsolul masal,laf va nashr , mushtaq, ta'miya, tazmin kabi badiiy unsurlardan keng foydalanganligi Shafiqa Yorqin tadqiqotida misollar asosida isbotlab berilgan. Komron Mirzo devonining janriy tarkibi haqida esa quyidagicha ma'lumot berilgan: „ Qirq g'azal yigirma bir fard,yigirma olti ruboiy, uch qit'a,9 masnaviy , bir tarkibband .Shuningdek devonning fors tilidagi she'rlari yigirma olti g'azal,yigirma ikki fard,uch qit'a,to'rt ruboiy,to'rt masnaviyni tashkil etadi''(17).

Olima tadqiqotlarida nazarga tashlanishicha Komron Mirzo ijodida madhiya va faxriya she'rlar ham uchrab turadi.Uning quyidagi baytlari akasi Humoyun Mirzo madhiga bag'ishlangan

Husni tu dambadam afzun bodo

Toliat farruxu maymun bodo...

Qilib chehrangda vajhullahni manzur

Ayon bo'ldi manga no'run alo no'r...(14).

Shafiqa Yorqin aniqlashicha,Komron Mirzo ijodida faxriya she'rlar ham mavjud.

Olima haq. Bizning tadqiqotimiz manbayi Hasanxo'ja Nisoriyning „Muzakkiri ahhob tazkirasida Komron Mirzo ijodidan ikki g'azal namuna sifatida keltirilgan. G'azallarning biri fors-tojik tilida, ikkinchisi esa,o'zbek tilidadir. Shoirning o'zbek ¹⁰⁸tilidagi g'azali faxriya bayt bilan xotima topgan:

¹⁰⁸ 11.Hasanxo'ja Nisoriy.Muzakkiri ahhob.-Toshkent:Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi,1993.-63-bet.

Komron, Xusrav kabi she'ring topar husni qabul,

Chunki bordur husn ahli vasfi ash'oring sening. (Muzakkir, 63)

Shafiqa Yorqinning tadqiqotidan nazarga tashlanishicha, Komron Mirzo devonining uch qo'lyozma nusxasi fanga ma'lum:

1. Pativ shahridagi Xudobaxshxon kutubxonasi nusxasi. Bu nusxa Komron Mirzo hayotida Mahmud ibn Is'hoq Shahobiy Xiraviy orqali kitobat qilingan. Ko'ragoniylar sulolasining Akbar, Shohjahon va boshqa shoh-u amirlarning muhr-u dastxatlari nusxada mavjud. Shuning uchun bu nusxa Ko'ragoniylar sulolasiga tegishli kutubxona mulki degan xulosaga kelishga imkon beradi. Nusxa chiroyli nasta'liq xati bilan yozilgan va boshqa qo'lyozmalar bilan solishtirganda unda xatolar juda kam uchraydi. Shuning uchun uni eng ishonchli mukammal qo'lyozma nusxa desak bo'ladi.

2. Rampur shahridagi Rizo kutubxonasi nusxasi. Bu nusxaning kitobat tarixi ma'lum emas, lekin ko'ragoniylar sulolasi namoyondalarining unga bosgan muhrlaridan kitobat tarixini XVII asrga yaqin deb taxmin qilish mumkin. Nusxaning xati chiroyli, matnda xato juda kam uchraydi, hoshiyada Aziziy taxallusli shoirning Komron Mirzo she'rlariga nazira bog'lagan bir necha she'rlari mavjud.

3. Kalkutta shahridagi Osiyo jamiyati fondi nusxasi. Bu nusxaning kotibi Fazlulboriy Jupuruniy bo'lib, kitobat tarixi ma'lum emas. Ammo uni XIX asrga oid deb taxmin qilganlar. Nusxa uncha chiroyli bo'lmagan nasta'liq xati bilan yozilgan bo'lib matnda juda ko'p xatolar mavjud. Hatto ba'zi bir xatolar noma'lum shaxs tomonidan nusxaning hoshiyasida to'g'rilangan.

Olimaning tadqiqotida shunday xulosa kelib chiqadiki: Komron Mirzo devonining qo'lyozmalari to'liq emas. Shuning uchun dunyoning adabiy muzeylari, kutubxonalari kataloglarini ko'rish, devonni qo'lyozma nusxalarini topish, va XVII asrga yaqin yozilgan tazkiralarda yordamida to'ldirish kerak.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2017.-113-bet.

2. Muhammad G'iyosiddin. G'iyos –ul –lug'at. Iborat az se jild, Jildi I.- Dushanbe: Adib, 1987.-480-sah.
3. Muhammad G'iyosiddin. G'iyos –ul –lug'at. Iborat az se jild, Jildi II.- Dushanbe: Adib, 1988.-416-sah.
4. Muhammad G'iyosiddin. G'iyos –ul –lug'at. Iborat az se jild, Jildi III.- Dushanbe: Adib, 1989.-304-sah.
5. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. I tom.-Toshkent: Fan, 1979.-416-bet.
6. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. II tom.-Toshkent: Fan, 1979.-448-bet.
7. A.Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati to'rt tomlik. II tom.-Toshkent: Fan 1983.-644-bet.
8. A.Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati to'rt tomlik. III tom.-Toshkent: Fan 1984.-624-bet.
9. A.Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati to'rt tomlik. IV tom.-Toshkent: Fan 1985.-636-bet.
10. A.Navoiy „Xamsa”si. Tadqiqotlar.-Toshkent: Fan, 1986.-142-bet.
11. Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob.-Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi, 1993.-343-bet.

O`ZBEK MANBASHUNOSLIK ILMINING NOZIKDID BILIMDONI

G.SH. Shoyimova,

*BuxDU, (Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ilmiy ishda filologiya fanlari doktori, professor Muhammadjon Hakimovning navoiyshunoslik faoliyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so`zlar: Alisher Navoiy, „Majolisun-nafois”, Samarqand, „Farhod va Shirin”, adabiyot, san`at, tarix.

Ustoz Muhammadjon Hakimov- matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasida ulkan maktab yaratgan olim. Ustozning adabiyotshunoslik faoliyati bilan

tanishar ekanmiz, olimning o'zbek adabiyoti tarixning muhim davrlari hozirgi adabiy jarayon va zamonaviy o'zbek adabiyoti, o'zbek xalq og'zaki ijodi, qoraqalpoq adabiyoti, o'zbek va jahon adabiy aloqalari sohasida ham mukammal ilmga ega bo'lganliklarini guvohi bo'lamiz.

Olimning Alisher Navoiy davri hayoti, ijodi va zamondoshlari faoliyatini yoritishga bag'ishlangan asarlari ham tahsinga loyiq. Muhammad Hakimovning Alisher Navoiy hayoti va uning adabiy merosi tahliliga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarining o'ziga xosligi shundaki, unda Navoiy ma'naviy merosi zamondoshlari asarlari bilan bog'liq holda olinib, yaxlit holda tadqiq qilinadi. XV asrda O'rta Osiyoda madaniyat va san'atning badiiy adabiyotdan boshqa turlaridan nafis kitobat, tasviriy san'at, xattotlik, naqqoshlik, musiqa, me'morchilikda erishilgan yutuqlar ham olimning e'tiboridan chetda qolmaydi. Ayni zamonda XV asrda Xuroson va Movorounnahrning madaniy muhitiga, san'at va adabiyotiga Alisher Navoiyning homiyligi, uning tarbiyasi va g'amxo'rlikida yetishgan adabiyot va san'at namoyondalari faoliyatini o'rnida va me'yorida aks ettirish diqqat markazida tutiladi. XV asrdagi Xuroson va Movorounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-marifiy hayotda puxta xabardor bo'lmay turib, buyuk Navoiy yashagan davr tavsifini berib bo'lmaydi. Muhimi shundaki, Muhammadjon Hakimov tarixiy, adabiy, manoqib asarlari aslyatda mutolaa qilib, manbalar bergan ma'lumotlardan yirik umumlashma xulosalar chiqara olishga qodir olim buyuk Navoiyning kindik qoni to'kilgan muhtasham Hirotdan Navoiy zamonasining tarixiy manbalaridan tez-tez tilga olinadigan yirik inshoot- Ixtiyoriddin qal'asigacha olimning e'tiboridan chetda qolmaydi. Alisher Navoiy yashagan davrdagi oddiy xalqning uy-joylari, yosh Alisherning bolalik va o'qish yillari, Husayn Boyqaro bilan maktabdoshligi, buyuk –“Zafarnoma” muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo'lgan muloqoti, burro-burro javoblari ham olim talqinida o'quvchida katta taassurot qoldiradi.¹⁰⁹Tahlillar mazmundorligi, ularda aniq manbalarga tayanilganligi, jonliligi va hayotiyiligi bilan o'quvchida katta taassurot qoldiradi. Alisher Navoiy ijodi bilan aloqador tahlillar badiiy qo'lyozma, xattotlik, miniatura san'atlari bilan nozik bog'lanadi. Bunday

¹⁰⁹ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 8-jild. – Toshkent: Fan, 1991.

o'ziga xos talqin faqat adabiyotshunoslik ilmda xabardorlik bilan ko'ngildagidek amalga oshmaydi. Tarix, arxeologiya, san'atshunoslik, matnshunoslik va manbashunoslik ilmdan ham chuqur bilim talab qilinadi. Ustoz Muhammadjon Hakimov yuqorida ayrimlari eslatilgan fanlar yuzasidan ham yetarli ilmga ega bo'lgan serqirra olim.

Ma'lumki, bundan salkam yuz yil oldin, aniqrog'i 1940-yilda yirik adib va olim, ustoz Sadridin Ayniy rahbarliklarida akademik Vohid Abdullayev hazrat Alisher Navoiy hayotining Samarqand davri 1466-1469 haqida nomzodlik dissertatsiyasi yozganlar. Olimning ana shu tadqiqoti yuzasidan Alisher Samarqandda, Alisher Navoiy Samarqandda risolalari chop etilgan. Buyuk Navoiy hayotining Samarqand davri haqida atoqli Navoiyshunos, ikki marta Beruniy mukofotining sohibi Abduqodir Hayitmetov, akademiklar Aziz Qayimov, Botirxon Valixojayev, filologiya fanlari doktorlari Abdurashid Abdug'afurov va Rahim Vohidovning tadqiqotlarida ham nozik kuzatishlar mavjud. Shunisi hayratlanarliki, zukko olim Muhammadjon Hakimov bir necha iste'dodli olimlar, takror-takror murojaat qilgan manbalardan ham o'ziga xos nazar bilan qarab yangi gaplar, topa oladi va ularni ohorli jumlalarda o'quvchiga taqdim qiladi. Hazrat Alisher Navoiyning Samarqand davri hayoti haqida mulohaza yuritar ekan, mavzuni moziy bilan nozik uyg'unlashtiradi, bunda nafaqat badiiy adabiyot va she'rshunoslik ilmi, balki, dunyo astronomiya va matematika faniga buyuk hissa qo'shgan o'zbek mutafakkir olimi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek kashfiyotlari bilan mavzu mohirona bog'lanib ketadi. Ustoz Muhammadjon Hakimov ming karra haq. Jilvadan suv ichib, chashmani unutish nonko'rlik bo'ladi. Hazrat Alisher Navoiyning salkam 5 yillik umri kechgan Samarqandning dunyodagi yirik ilmiy- marifiy markazga aylanishida jahongir Amir Temur va Temuriylarning o'zni beqiyos ayni ta'kid matematika va astronomiya sohasida o'ziga xos maktab yaratgan Muhammad Tarag'ay Ulug'bekka ham daxldordir. Hazrat Alisher Navoiy Ulug'bek madrasasida ham ta'lim olganlar, shunday ekan, ulug' mutafakkirning Samarqand davri faoliyati ham mulohaza yuritilar ekan, uning bu zoti bokaramning kamolotga yetishishida

munosib hissa qo'shgan o'quv dargohi va uning sohibi haqida mulohaza yuritish g'oyatda o'rinlidir.

“Xoja Fazlulloh Abulaysiy- Samarqand akobiridindur. Faqiq Abullays avlodidandir. Fiqhda ani Abu Hanifayi Soniy derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi.”¹¹⁰

Sayid Sharif ning shogirdi erdi va Sayid o'z xatlari bila ulumi dars ayturg'a ijozatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o'qib erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, farzand der erdilar”.¹¹¹ Ustoz Muhammadjon Hakimov mazkur iqtibosni tahlil qilar ekanlar, yozadilar O'sha vaqtda O'rta asr Sharqining mashhur huquqshunos arabiyot olimi Xoja Fazlulloh Abullays Samarqandda yashar va mudarrislik qilar edi. Alisher Navoiy uning xonaqosida istiqomat qilib, undan muntazam dars oladi. Shoirning qobiliyati va xushmuomalasiga maftun bo'lgan olim uni farzandim deb ataydi. Bugungi kunda hazrat Alisher Navoiy asarlarini oddiy xalqqa tushunarli tarzda yetkazish masalasi kun tartibida turgan dolzarb masala hisoblanadiki, ustoz Muhammadjon Hakimov ayni haqiqatni bundan yarim asr oldin anglab, ayni ezgu maqsad yo'lida fidoiylik bilan mehnat qilib keladilar. Yuqorida “Majolis un –nafois”ning ikkinchi majlisida keltirilgan iqtibosning talqini fikrimizga dalildir.

Muhammadjon Hakimov ilmiy uslubining yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, olim u yoki bu ijodkorning nazmiy va nasriy asarlaridan kerakli iqtiboslarni yagona o'ringa yig'ib, ulardan o'rnida va me'yorida mohirona foydalana oladilar. Ayni ta'kid hazrat Alisher Navoiy asarlariga ham daxldordir. Yuqorida kuzatilgani kabi so'z, hazrat Alisher Navoiyning Samarqand davri hayoti haqida borar ekan, “Majolis un- nafois” ma'lumotlariga murojaat qilgan olim o'z mulohazalarini Alisher Navoiy Xamsaning ikkinchi dostoni “Farhod va Shirin” dostonidagi quyidagi satrlar bilan quvvatlantiradi;

Temurxon naslidin Sulton Ulug`bek,

Ki olam ko`rmadi sulton aningdek.

¹¹⁰ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 8-jild. – Toshkent: Fan, 1991.

¹¹¹ .Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997.

Aning abnoyi jinsi bo`ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Valek ul ilm sori topti chun dast
Ko`zi ollinda bo`ldi osmon past
Rasadkim bog`lamish zebi jahondir
Jahon ichra yana bir osmondir
Bilib bu nav ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi “Ziji Ko`ragoniy”.¹¹²

Mazkur satrlar ulug` Navoiyning Samarqanddan olgan bitmas- tunganmas ilhomi, ilm-u ma`rifatga, ilm ahllariga, olimlarga bo`lgan behad ixlos-u e`tiborining ramzi sifatida talqin qilinadi.

Atoqli navoiyshunos Abduqodir Hayitmetovning “ Alisher Navoiyning ijodiy metodi masalalari”, “Sharq adabiyoti ijodiy metodi tarixida”, ”Hayotbaxsh chashma”, “Tabarruk izlar izidan”, ”Navoiyxonlik suhbatlari”, “Temuriylar davri o`zbek adabiyoti” kabi asarlarini sinchiklab mutolaa qilar ekanmiz, ulug` Navoiyning adabiyot, tarix, san`at, falsafa kabi fanlar bilan birga astronomiya, matematika, kimyo, tabobat, botanika, geografiya va boshqa tabiiy fanlardan ham mukammal xabardor ekanliklari haqida ishonch hosil qilamiz. Yuqorida ”Farhod va Shirin” dostonidan keltirilgan ixcham iqtibos mazmunidan ham buyuk Navoiyning astronomiyaga oid qarashlarini anglash qiyin emas. Yuqoridagi satrlar asosida dadil aytish mumkinki, Mirzo Ulug`bekning munajjimlik faoliyati va ilmiy merosi Navoiyga katta ta`sir ko`rsatgan. Ulug` mutafakkir asarlarida nujumiy hodisalarga berilgan ta`rif va tavsiflar keng o`rin tutadi. Osmon sayyoralarining harakat va holatlari, burj-oylarining ko`rinishi kabilar shunday turkumga kiradi. Xususan o`n ikkita burj- hamal, savr, javzo, saraton, asad, sunbula, mezon, aqrab, qavs, jadd, dalv, hutning ramziy tasviri, Alisher Navoiy nasriy va nazmiy merosida keng o`rin tutadi. Ulug` mutafakkir badiiy ijodining gultoji “Xamsa” dostonlarining muqaddimasida osmon sayyoralarining tamsiliy obrazlar mahorat bilan yaratilganki, mavzuning ayni qirrasini filologiya fanlari

¹¹² Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 8-jild. – Toshkent: Fan, 1991

doktori, professor Rahim Vohidovning “Alisher Navoiy va ilohiyot” monografiyasida teran yoritilgan. Ayni masalalarning baʼzi qirralari jiddiy talqin qilinganligini ustoz Muhammadjon Hakimovning Istiqlol davrigacha yaratilgan maqolalarida kuzatish mumkin.

Shoislom Shomammedov, Olim Sharafiddinov, Bertels, Bartold, Sadriddin Ayniy, Vohid Zohidov, Vohid Abdullayev, Botirxon Valixoʻjayev, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdugʻafurov, Sodir Erkinov, Najmiddin Komilov, Rahim Vohidov kabi olimlarning tadqiqotlarida buyuk Navoiyning ulugʻ shoir boʻlib yetishishida ulugʻ mutafakkirning oʻzidan oldin oʻtgan, yoki zamondosh boʻlgan, oʻzbek va fors- tojik adabiyotining mashhur namoyondalari samarali taʼsir koʻrsatganliklari haqida teran tahlillar mavjud. Ulugʻ Navoiyning fors-tojik adabiyotidagi ustozlari Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sadiy Sheroziy, oʻzbek adabiyotidagi salaflarida Mavlono Atoiy, Mavlono Lutfiy ijodi namunalari bilan Alisher Navoiy ulkan adabiy merosining qiyosiy tahlili yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ishlarida keng oʻrin tutadi. Yuqoridagi olimlarning roʻyxatiga ustoz Muhammadjon Hakimovni ham bemalol kiritish mumkin. Ustozning matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasidagi eng katta xizmatlari Sharq qoʻlyozmalariga doir terminlarining izohli lugʻatini yaratganliklaridadir. Biz keyingi ishlarimizda ayni masala xususida kengroq mulohaza yuritamiz.

Adabiyotlar:

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 8-jild. – Toshkent: Fan, 1991.-544b.
2. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997.-284b
3. Abdullayev B. Navoiy Samarqandda.- Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.-136b.
4. Abdugʻafurov A. Buyuk beshlik saboqlari.- Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1995.-184b

- 5.Valixojayev B, Vohidov R. Navoiy ijodi-ilhom manbai.- Toshkent: Fan, 1981.-74b
- 7.Vohidov R. XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning boshlarida o'zbek va tojik she'riyati/Adabiy aloqa va o'zaro ta'sir masalalari/.-Toshkent:Fan, 1983.-141b
- 8.Vohidov R. Sharqning buyuk allomasi.-Toshkent:Fan,1989.-72b
- 9.Vohidov R. Navoiyning ikki durdonasi.-Toshkent:Fan, 1992.-134b
- 10.Hakimov M. Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi. –Toshkent:Fan, 1983.-199b
- 14.Hakimov M. Sharq qo'lyozmalariga doir qo'lyozma terminlarning izohli lug'ati./Adabiy me'ros.1978 N3. B.92-102b.

70230101 – Lingvistika: ingliz tili

INGLIZ TILIDA METAFORANING BADIY USLUBDA IFODALANISHI

M.U. Saidova,

BuxDU, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

L.G`Narzulloyeva,

Lingvistika (ingliz) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Bu maqola metafora va uning ingliz tilida badiiy uslubda ifodalanishiga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi – zamonaviy tilshunoslikning metaforizatsiya jarayonlariga bo'lgan qiziqishining ortishi bilan bog'liq. Ushbu ishning maqsadi – ingliz tilida badiiy uslubda metaforaning ifodalanishi o'rganish.

Kalit so'zlar: metafora, ma'no o'tkazilishi, metaforizatsiya, o'xshashlik.

Jahon va o'zbek yozuvchilari o'z asarlarida metaforalardan juda keng foydalanadilar. Metafora – adabiyot uchun tomchi suvdek muhim. Chunki yozuvchilar yoki shoirlar o'z asarlariga badiiy bo'yoq berish uchun yoki bo'yoqdorlikni yaratish uchun metaforalardan juda ko'p foydalanishadi. Ba'zan esa

bir metafora butun bir gapning tarjimasini ham bo'lishi mumkin, agar bu vosita olib tashlansa, matn o'z ma'nosini yo'qotishi ham mumkin.

Misol tariqasida Oskar Uayld ijodiga nazar tashlasak, go'zal metaforalar uning qahramonlarini, ularning his-tuyg'ularini va fikrlarini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Oskar Uayld ertaklaridagi metafora voqelik hodisa va ob'yektlarini xarakterlashning kuchli vositasi bo'lib, muallifning dunyoqarashini ochib berishga, yozuvchining ushbu obyektiv voqelik faktlariga subyektiv-bahoviy munosabatini ochib berishga xizmat qiladi. Uayldning metaforalari o'quvchining tasavvurini rivojlantiradi.

Oskar Uayld metaforalarining ma'nolari har qanday yoshdagi, har qanday qiziqishdagi o'quvchiga tushunarli. Ular syujetning dinamik xarakterini yaratadi va Uayldni daho inson ekanligini ko'rsatadi. Eng mashhur ertaklardan biri – «The Happy Prince» («Baxtli shahzoda»). Ushbu ertakda Oscar Uayld tomonidan qo'llangan metaforalar va ularning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

«The Happy Prince» ertagi Baxtiyor shahzoda va Qaldirg'och haykali o'rtasidagi do'stlik hikoyasidir. Ushbu ertakdagi metaforalar birinchi navbatda Qaldirg'och obrazi bilan bog'liq. Oskar Uayld ham badiiy, ham lingvistik metaforalardan foydalanadi. «The Happy Prince» («Baxtli shahzoda») ertagida men quyidagi metaforaga oid misollarni topdim.[7]

«So he flew round and round her, touching the water with his wings, and making silver ripples». Bu gapda *«he flew making silver ripples»* iborasi badiiy metaforadir. Muallif kitobxonning e'tiborini tortmoqchi bo'lgan Qaldirg'och tasviriga rang qo'shish maqsadida «suvda kumush to'lqinlar qoldirish» metaforasini qo'llagan. Bu metafora janr shakllantiruvchi va emotsional-baholash funksiyalarini bajaradi.

«And certainly, whenever the wind blew, the Reed made the most graceful curtsies».» *Va, albatta, qachonki shamol essa, Qamish eng chiroyli qichqirardi.»* Ushbu jumlada metafora «the Reed made the most graceful curtsies» «Qamish eng nafis qichqiriqlarni qildi». Tuzilishi jihatidan u murakkab, badiiy va hissiy va rang

berish funksiyasini bajaradi. Muallif o'simlikning ta'zimini xonimning egilishi bilan solishtiradi.

«*You have been trifling with me, » he cried, «I am off to the Pyramids»* Bunday holda, bu «*sen mening his-tuyg'ularim bilan o'ynading»*. degan ma'noni anglatadi. Tuyg'ular to'pga qiyoslanadi, bu o'xshashlik asosida metafora paydo bo'ladi. Ushbu misol lingvistik metafora hisoblanadi. Bu metafora emotsional-baholash funksiyalarini bajaradi

«*The eyes of the Happy Prince were filled with tears, and tears were running down his golden cheeks. His face was so beautiful in the moonlight that the little Swallow was filled with pity»*. Bu yerda lingvistik metaforalar quyidagilar: «*the eyes were filled with tears, tears were running down, the Swallow was filled with pity»*. Bu yerda Oskar Uayld lingvistik metaforani nutqni yanada yorqinroq qilish uchun foydalangan.

«*Why are you weeping then?' asked the Swallow; you have quite drenched me»*. Bu gapda quyidagi ibora «*you have drenched me»* metafora hisoblanadi. Shahzoda Qaldirg'ochni ko`z yoshlari bilan ho'llay olmaydi. Muallif hissiy ta'sirni kuchaytirish uchun ushbu badiiy metaforadan foydalanadi.

«*How cool I feel, said the boy, I must be getting better; and he sank into a delicious slumber»*. «*he sank into a slumber»* bu metafora badiiy metafora hisoblanib, emotsional-baholash funksiyalarini bajaradi.

«*When the moon rose he flew back to the Happy Prince»*. «*Then the snow came, and after the snow came the frost»*. Bu gapdagi quyidagi metaforalar «*moon rose»* and «*the snow came, the frost came»* (“oy chiqdi” va “qor keldi, ayoz keldi») – lisoniy metaforalar hisoblanadi. Levin tipologiyasiga ko`ra, muallif obyektga oy, qor va ayozni insoniy xususiyatlar bilan bog'laydi. G.N. Sklyarevskaya bu metafora turini genetik deb belgilaydi, bu yerda u mavhum tushunchaga aylanadi.[4,151]

«*He is leaning over a desk covered with papers»*. Bu gapimizda «*a desk covered with papers»* badiiy metafora hisoblanadi va nominativ funksiyani bajaradi, bunda u tushunarsiz va oddiy ism o'rtasidagi muvozanatni tiklaydi.

«*So he plucked out the Prince's other eye, and darted down with it*». Bu jumlada «*darted down with it*» («pastga shoshildi») lingvistik metaforasi ishlatilgan. N.D. Arutyunovanning so'zlariga ko'ra, bu nominativ metafora hisoblanadi, chunki bir tavsiflovchi qiymatni boshqasiga almashtirishdan iborat.[1,158]

«*It is winter, answered the Swallow, and the chill snow will soon be here*». Qor jonlantirilgan obyekt bilan taqqoslanadi, uning asosida V.K. Xarchenko tasnifiga ko'ra nominativ funksiyani bajaradigan badiiy metafora paydo bo'ladi.

«*We have bread now!*» - *they cried*» Kontekstda «Baxtli shahzoda» ertagida bolalar Qaldirg'och sovg'a qilgan oltinni o'zlari sotib oladigan non bilan solishtiradilar. Bu metafora ham badiiydir va nominativ vazifani bajaradi.

«*I am going to the House of Death*» Bu metafora «o'lim» yoki «vafot qilmoq, o'lmoq» so'zi o'rniga qo'llanib, V.K.Xarchenko tasnifiga ko'ra marosim vazifasini bajaradi. Oskar Uayld uni hissiy rang berishni kuchaytirish uchun ishlatadi. [6,87]

«*Dear me! how shabby the Happy Prince looks! he said*». Baxtli shahzoda haykali juda kambag'al odamning ko'rinishi bilan taqqoslanadi.

«*This broken lead heart will not melt in the furnace*». «*singan yurak*» metaforasi lingvistik bo'lib, hissiy va rang berish funksiyasini bajaradi.

Oskar Uayld o'z ertaklarida ko'pincha personajlardan foydalanadi. I.R.Arnold tasnifiga ko'ra. shaxslashtirish o'ziga xos metaforadir.[2,384] «Baxtli shahzoda» ertagidagi bu hodisaga misollar keltiramiz. «*Stood the statue of the Happy Prince*», «*Swallow was in love with the Reed*», «*the Reed made him a low bow*», «*the Reed shook her head*», «*the town has made preparations*», «*The Reed used to like the rain, but that was merely her selfishness*», «*tears were running down his golden cheeks*», «*the Happy Prince looked so sad (haykal nazarda tutilyapti)*», «*Then the Swallow flew back to the Happy Prince, and told him what he had done*».

Shunday qilib, tadqiqot ishlari davomida olib borilgan tahlil natijalari Oskar Uayldning ertaklarida qo'llanilgan metaforalarning keng va rang-barang ekanligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Uning «Baxtli shahzoda» ertakdagi badiiy-lingvistik metafora va timsollarga misollar keltirilib, tahlil qilindi. «Baxtli shahzoda» ertagida biz yettita lingvistik metafora va o'n to'rtta badiiy metafora

topdik. Shuningdek, biz personifikatsiya (shaxslantirish yoki jonlantirish)ning juda ko'p sonli misollarini keltirdik. Demak, Oskar Uayldning ertaklari metafora kabi uslubiy vositaga boy bo'lib, qo'llanilgan badiiy metafora miqdori lingvistik metaforalar miqdoridan ustunligini aytishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Арутюнова Н.Д. Метафоры и дискурс. – М.: Просвещение, 2017. - 158 с..
2. Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык: учебник для вузов. – М.: Флинта: Наука, 2016. – 384 с.
- 3.Вербицкая О. Е. Метафора и ее функции.– <http://philosophy.ru/library/aristotle/poet.html>
4. Складаревская Г. Н. Метафора в системе языка. СПб.: Наука, 2016. С.151
6. Харченко В. К. Функции метафоры. — Воронеж: 2016.— 87 с.\

ВЕЖЛИВОСТЬ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ТИПЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Н.Х. Рузиева,

*Преподавательница английского языка кафедры
переводоведения и лингводидактики*

Аннотация: В английском языке принцип вежливости, выражающийся в стремлении ненавязчиво передать свое мнение, реализуется по-разному в речевых актах. Речевой акт, в свою очередь, структурируется разными способами, включая разные коммуникативные типы предложений: повествовательные, повелительные, вопросительные, каждое из которых имеет свою особую семантику и прагматику. в этой статье автор дает представление об этих вопросах.

Ключевые слова: коммуникативно-содержательный аспект, прямая стратегия, прямое указание, степень импозиции, перформатив, императивные конструкции, модификатор.

Изучение предложений в аспекте речеактовых свойств, а также соотношения их прагматических и структурно-семантических особенностей представляет особый интерес, поскольку, как нам представляется, должно существовать определенное соответствие между актами речи и языковыми характеристиками предложений.¹¹³ Таким образом, коммуникативно-содержательный аспект предложений оказывается двухплановым: с одной стороны, это общекоммуникативное содержание предложения, выраженное в понятиях «повествовательность», «побудительность», «вопросительность», находящееся в однозначных соответствиях с синтаксической формой предложения, с другой стороны, это возможное речеактовое содержание коммуникативных типов предложения, такое как совет, просьба, предложение, приглашение и т.п.

Исходя из того, что «между актами речи и языковыми характеристиками предложений, служащих средством выражения речевых актов, должны существовать системные отношения во всей совокупности показателей речеактовых характеристик предложений» /Почепцов, 1985: 14/, представляется целесообразным и важным для выявления особенностей «английской вежливости» рассмотрение средств смягчения категоричности высказывания в каждом из коммуникативных типов предложений. При этом, как и выше, в основном будут рассмотрены «реагирующие» на вежливость побудительные РА –просьба, совет, предложение.

Считается, что наиболее эффективным способом передачи содержания РА является прямая стратегия без компенсирующих действий (*bald on record*), а также известно, что при этом велик «повреждающий» эффект. И вполне естественно, что говорящий (адресант) в побудительных высказываниях как наиболее угрожающих лицу слушающего (адресата) речевых актах будет всеми способами стремиться избежать использования этой «опасной» формы,

¹¹³ Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации. Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. М.: Рук. памятники Др. Руси, 2009. – С. 50-182.

выражающей, прежде всего, прямое воздействие на собеседника. Не составляют исключения здесь и английские коммуниканты.

Исследователи отмечают, что повелительное наклонение является грамматическим средством, употребление которого может самым разным образом влиять на распределение ролей коммуникантов и их взаимоотношений, и предупреждают, что его следует употреблять с максимальной осторожностью, обращая внимание на то, чтобы был сохранен статус каждого из коммуникантов, так как, употребляя повелительное наклонение, говорящий изначально ставит себя выше своего собеседника, «опуская его на более низкую статусную позицию». Итак, прямая стратегия для побудительных РА, для просьбы, например, это употребление глагола в повелительном наклонении (Give me that book. / Lend me your pencil for a moment.) или перформатив (I want you to do this. / I ask you to do this. – “He’s my brother, Adam. I want you to meet my brother.”).

Синтаксис приказов практически такой же, как и у просьб (повелительное наклонение или перформатив), поэтому здесь лишь наличие аргументации (“To speed up processing of your claim, complete and mail this form today.”) или незначительность импозиции (когда действие не требует от адресанта больших затрат – “Hand me a beer.” / “Hand me the newspaper.”) свидетельствуют о том, что это просьба, а не приказ.

Употребление императива для выражения просьбы допускается в неформальном общении при очень близких отношениях (среди друзей и членов семьи). Часто он сопровождается модификаторами.

Литературы:

1. Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации. Сопоставление английских и русских лингво-культурных традиций. М.: Рук. памятники Др. Руси, 2009. – С. 50-182.
2. Brown, R., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge [Text] / R. Brown. - P. 312-318. 9. Fraser, C. Crosscultural differences

in politeness of excuses / C. Fraser //Australian Journal of Psychology. - 2002. - Vol.54 (2). - P. 117-117.

3. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). Politeness In Literary Works: An Overview. Eurasian Research Bulletin, 7, 200–206. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1300>

4. Ruziyeva Nilufar Xafizovna (2021).The category of politeness in different linguocultural traditions. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11 (2), 1667-1675

5. Kasimova, N. F. (2017). Communicative functions of the interrogative sentences in English. InПриоритетные направления развития науки(pp. 59-62). www.elibrary.ru/item.asp?id=29929516

6. Ruzieva, N. X., & Yuldasheva, F. E. (2017). The use of mingles in the communicative way of teaching. Міжнародний науковий журнал Інтернаука, 1(1), 138-139.

COGNITIVE FUNCTION IN CHILDREN

D.I.Xodjayeva,

f.f.f.d(phd), docent, Bukhara State University

M.A.Baxronova,

BukhSU, master of the faculty of translation studies and linguodidactics

Annotation. This article deals with the role of cognitive functions in a person life. In this article you can find out more about how to figure out if the child has any cognitive impairment, what cognitive impairments are associated with, what causes them, what are the main symptoms, and what modern science says about the possibility of correcting them.

Keywords: Cognitive impairments, expressive speech, speech disorder, speech development, dyslexia.

The word cognitive comes from the Latin verb cognoscente - to know. Cognitive abilities belong to any person and the degree of their development is individual. In a broad sense, "cognition" means the ability to absorb and reproduce information and it is closely associated to the development of the brain.

Cognitive skills are needed in order to understand what we see or hear, to be able to read or write text, to add or subtract, to plan our day, to analyze the situation. The cognitive sphere covers human's all activity and begins to form from the first months of life, so it is very important to identify cognitive impairment in children as early as possible. Cognitive abilities develop roughly. Because of cognitive functions, the child realizes the world. Almost any activity with destructions of the cognitive sphere, especially educational is difficult .

(ekvivalentlar: tonzillit-tonzilit, falaj-paralich, infeksiya-infeksiya, gematoma-gematoma, akne-akne va boshqalar). Tibbiy nutq lug'atining qolgan semantik guruhlari (tana va organlarning qismlari nomlari guruhlari, tibbiyot fanlari, dori vositalari va tibbiy aralashuv sohalari nomlari guruhlari) batafsil tahlilini ko'rsatdi. Oddiy tibbiy atamalarning ko'pchiligi tilda o'xshash va ekvivalentlarga ega bo'lib, tarjimon ishini ancha osonlashtiradi. Taxmin qilish mumkinki, bu hodisa tibbiyot terminlarining universal leksik birliklarining tor ixtisoslashuvi va yo'nalishi tufayli dunyoning aksariyat tillarida mavjud ekvivalentlari bilan izohlanadi va shuning uchun ularni boshqacha tarzda tarjima qilib bo'lmaydi (misol sifatida: fiziologiya – fiziologiya). terapevtik - davolash; farmakologiya - farmakologiya va boshqalar).

Tarjima jarayonida har bir gap ikki bosqichdan iborat: hayotiy ma'no va ahamiyatli so'zlar. Biroq, tarjimonlar uchun amaliy muammolar mavjud, chunki nutq faoliyatining ko'p madaniyatli shakli mavjud emas. Natijada, tarjimon tarjimada materialni to'g'ri etkazish uchun o'zining keng madaniy pragmatik bilimiga tayanishi kerak. Asl matn tilining semantik elementlari, so'zlarning ma'nolari, qo'llanilishi va boshqa so'zlar bilan aloqasi tarjimada pragmatik ekvivalentlikni olishda turli xil muammolarni keltirib chiqaradi. Tarjima asl nusxaga o'xshash shakl va mazmunda hosil bo'lishi uchun tarjimon o'z tilida bir xil lingvistik elementlarni tanlashi va qo'llashi kerak. Bu mas'uliyat unga, avvalo, o'z tilining madaniyati va an'analari asosida xotirasida mustahkamlanib qolgan tushunchani to'liq ifoda etish vazifasini yuklaydi. Tibbiyot birliklari tarjimasining ozgina qismini tahlil qilib, shuni ta'kidladikki, tibbiy atamalar ancha murakkab semantik tuzilishga ega bo'lishiga qaramay, unga kiritilgan tibbiy atamalarning aksariyati tabiatan sodda (bir so'zdan iborat) va murakkab (ikki so'z). Binobarin, ingliz tili nomi kategoriyasi bilan ifodalangan tibbiy lug'at uchun ham, o'zbek tili uchun ham tuzilishining soddaligi va nominativligi xarakterlidir.

Adabiyotlar:

1. Boltiqbo'yi gumanitar jurnali. 2017. V. 6. No 2(19).

2. Хайдарова Д. А. Особенности медицинской терминологии в таджикском и русском языках: дис. канд. филол. наук. Российско-Таджикский университет, Душанбе, 2007. 139 с.

3. Циммерман Я. С. Терминологические проблемы в кардиологии и других разделах медицины. Клиническая медицина 1998. С. 58-62.

4. Барсукова М. П. К вопросу изучения медицинско- го дискурса. Саратовский научно-медицинский вестник. 2002. 77 с.

5. Самойлов Д. В. О переводе медицинского текста [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.practica.ru/Articles/medical.htm>

6. Баева Т. А. Некоторые особенности медицинско- го перевода при обучении аспирантов [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://www.rusnauka.com/10_DN_2012/Philologia/6_107290.doc.htm

7. Комина О. А. Лексико-грамматические особенности перевода немецких медицинских научных статей на русский язык [Электронный ресурс]. – Режим доступа: conference.osu.ru/assets/files/conf_reports/conf9/284

8. Khodjaeva, D. (2021). Different viewpoints on lexicography and dictionary types. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 1255-1258.

9. Olimova, D. Z. (2021). Transfer of modality in translation (modal verbs and their equivalents, modal words). *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 220-22.

THE IMPORTANCE OF IT

Z.Bobokhujayeva,

*BuxDU, Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik
tarjimashunoslik mutaxassisligi magistranti*

Annotation. As we are living in a century called “The age of technology”, it is crucial to realize the roles of technologies in every aspect of our life. When it comes to education, we should use every gadget effectively to learn and teach new things in a creative way with the help of them. Day by day, electronics are coming into

every house, every school, every classroom and it is up to the person to make use of them.

Keywords: electronic devices, audiovisual education, flipped classroom, blackboard method, adaptive learning.

21st century is showing the power of technology in the life of humankind in all spheres like education, medicine, business and engineering. Nowadays computers, gadgets, robotics, internet and all electronic devices which are considered as crucial items in our daily life are being used not only young, but also by the old. Cory Doctorov said once “this is why I loved technology: if you used it right, it could give you power and privacy.” The whole idea is not about the choice between using or not using technology. The challenge is to use it right.

At the beginning of the century many technological terms appeared connected with education such as an educational technology, audiovisual education, activeboard, flipped classroom and adaptive learning appeared and computers offer a good solution¹⁵⁰.

Today IT is being widely used in teaching and learning any foreign language effectively and quickly. Why are computers and other electronic devices so helpful in a learning process? One of the answers is seventy-five percent of all information processed by the brain is derived from visual formats so individuals tend to learn something quickly by seeing it. Visual learning is the basic thing in the thought processes and a critical foundation for learning to read and write. Some early studies conducted in the 1970s explain how a child looks and recognizes before speaking.

¹⁵¹ Visual images, such as pictures and photos help children remember things quickly. Additionally, new technologies help to make a lesson interesting and interactive and to attract pupils' attention as well.

This is a well-known fact that our education system still relies on traditional methods and there is a need to combine the traditional teaching with modern teaching aids for a better and advanced education system. the usage of computers or

¹⁵⁰ “Cognitive Theory” by Rick Williams

¹⁵¹ “Reconsidering Research on Learning from Media” Clark, Richard E.

laptops with wi-fi connection in the classroom is the most important tool of modern teaching methods. Furthermore, visual media in teaching not only helps the pupils and students to understand the subject better and also helps students memorize the concept for longer time.¹⁵²

Another advantage of modern technology for teachers is that they don't have to waste their time on writing on the blackboard. But with the help of PPT presentations they save time for explanation the topic thoroughly and deeply. Videos, animations, flashcards, interactive games and lessons are more explanatory than the traditional blackboard methods.

This very century demands to know how to use new age technologies and put them into practice in every field as much as possible. Thereupon, the necessity to use modern technologies in teaching and learning, there comes out a need to learn how to use gadgets and computers for both teachers and students. If you want to be know-it-all, firstly you should engage on ITs.

As we know, learners are divided into types like visual, auditory and kinesthetic learners. As an educator, teachers should consider whether the current topic is understandable and precise for every type of learner or not. In this case ITs come to help. Visual learners prefer to see info and visualize the relationships among ideas. In order to attract these learners, teachers have a great chance to give them charts, graphics, colorful flashcards, interesting videos connected with the topic and make their presentation highly visual. Auditory learners prefer to hear info unlike reading or seeing it. So, teachers can use voice recordings, podcasts, short songs during their courses. For kinesthetic learners, white boards, active boards, active tables can be used by teachers to make a lesson more interesting and technical. This kind of learners can work with active boards and tables by touching, matching words, choosing pictures etc. Evidentially, educational technologies play an important role in these learners' lives.

¹⁵² “The Definition of Educational Technology: Summary. ” by Donald P. Ely and Tjeerd Plump.

In conclusion, modern age teaching is actually the need of the day. It will be very wrong to say that our past learning method or traditional teaching was not good enough. Many great men have been established and have made this world proud with the same old learning methods. But our age is waiting for techies who have a great interest to technology and ready for using them in every sphere of our lives. Even if we shouldn't forget that everything which is created by humankind is useful, both teachers and students shouldn't forget to use technologies in measure, clearly, all's well within measure.

References:

1. "Cognitive Theory" by Rick Williams
2. "The Definition of Educational Technology: Summary. " by Donald P. Ely and Tjeerd Plump.
3. "Reconsidering Research on Learning from Media" Clark, Richard E.
4. woulibrary. wou. edu. my
5. whitbyschool.org

A. QODIRIYNING "O'TGAN KUNLAR VA MEHROBDAN CHAYON" ASARLARINING INGLIZCHA TARJIMA TURLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING MADANIY XUSUSIYATLARI

O.I.Xolmurodova

*Adabiyotshunoslik (ingliz)
mutaxassisligi magistranti*

Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikda roman janri muammosi dolzarb bo'lishi barobarida uni tadqiqu-talqin qilish, hamda tarjima qilish muhim ahamiyat kasb etishi inkor etib bo'lmaydigan hodisa sanaladi. Jahon adabiyotida kuzatilgani kabi o'zbek adabiyotida ham roman janri bugungi kunda eng ommabop janr bo'lib, aksariyat yozuvchilar epik turning bu ko'rinishida ijod qilishni va turli uslublarda hayotni keng ko'lamda tasvirlashni, qahramon hayotidan katta davrni

olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishni, ko'plab va turfa kishilar taqdirleri orqali jamiyatning joriy xolatini aks ettirishga moyilligini kuzatish mumkin. Roman janrining sintetik xususiyati tufayli bunday asarlarning rangbarang ko'rinishlari yaratilmoqda. Kitobxon didiga mos keladigan, epik bayon orqali hayotiy g'oyalarni ilgari suradigan, estetik sayqal berilgan roman milliy adabiy muhitni boyitib kelmoqda. O'zbek romanining salkam bir asrlik taraqqiyot yo'li ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va adabiy muhitdagi keskin o'zgarishlar bilan bog'liqlikda kechgani sir emas. XX asr milliy romanchiligimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, avvalo, uch buyuk iste'dod sohiblari – Qodiriy, Cho'lpon va Oybek asarlarining ushbu janr imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdagi muhim o'rnini eslab o'tishimiz zarur. O'tgan asr boshlarida Hamza “Yangi saodat” asarini milliy roman deb atagan, bu boradagi ilk izlanishlarni boshlab bergan edi. Qodiriy “O'tgan kunlar”i bilan dunyodagi “oltinchi romanchilik maktabi”ga asos soldi. Yozuvchi romanida mumtoz adabiyotimiz va o'zbek xalk og'zaki ijodiga xos ifoda uslubidan, romantik va realistik tasvirning mushtarak usullaridan mohirona foydalandi. Tilimizning turli qatlamiga mansub so'z va iboralarni, ifoda va vositalarni asariga olib kirib, ularga qaytadan hayot bag'ishladi. O'zbek prozasida romanning janr sifatida o'rin egallashida beqiyos xizmat qildi.

1. A. Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani ham xalq tilidagi frazeologizmlarni mohirona qo'llash usuli bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Iboralar epik bayon, personajlar nutqi, obrazlar tasviri va boshqa qismlarda o'rinli keltirilib, asarning ta'sirchanligi, ekspressivligi, obrazlilikini oshirishga, badiiyligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu xususiyat romanning dastlabki o'rinlaridayoq ko'zga tashlanadi.

2. Ziyo shohichining xonadonida bo'lgan ziyofatda ishtirok qilayotgan Otabekning holati shunday tasvirlanadi: “...Xayol surar ekan, uning ko'zlari ixtiyorsiz kabi qarshisidagi qutidorg'a qaraydirlar, qutidorning ko'zi o'ziga tushdi deguncha ko'zini undan olib dasturxondagi ko'ngli tilamagan narsalarga urina boshlaydir...”¹⁵³

¹⁵³ A. Qodiriy “O'tkan kunlar” “Sharq” T. 201817 bet

3. Bu o'rinda ikkita iborani uchramiz: ko'zi tushmoq, ko'zini olmoq. Bu ikkita ibora asarda o'ziga xos uslubiy yuk ko'targan. Ya'ni ko'zi tushmoq iborasi qutidorning birdan Otabekka qarash holatini ifodalagan. Ko'zi tushmoq – lug'aviy ma'nosi bexosdan, birdan ko'rish degani. Ko'zini olmoq iborasining lug'aviy ma'nosi –qarashni to'xtatmoq degan ma'noni bildiradi. Romanda Otabekning qutidordan o'ng'aysizlanib, qarashga botina olmayotganlik holati shu yo'sin tasvirlangan.

4. Kumushning ham holatiga ta'rif- u tavsif berishda yozuvchi iboraga murojat qiladi. Adib Kumushbibini salbiy bo'yoq bilan gapga kirmaydir demaydi. Aksincha ijobiy bo'yoq bilan “quloq osmaydir” iborasini qo'llaydi. Ya'ni uning vujudi o'ziga bo'y sunmayotganligini ham anglab olishimiz mumkin.

5. Quloq osmaslik- 1. “Birovning gapiga kirmaslik; 2. Gapirilayotgan gapni eshitmaslik, idrok qilmaslik”¹⁵⁴

6. Bu o'rinda birinchi ma'noda, ya'ni yangalarning gapini eshitmaslikni, unamaslikni xohlayotgan Kumush tasvirlangan.

7. “ — O'ylash qayerda, siz bo'lursiz, deb ko'nglimga ham kelmagan edi, — dedi-da, tag'in kulib yubordi. . . ” ¹⁵⁵

8. “Kutilmagan baxt “ bobida Kumush tilidan “ko'nglimga kelmagan” iborasi qo'llangan.

9. Ko'ngliga keldi- 1)o'zicha o'ylaydi; 2) Biror munosabat bilan aytilgan gapni yoki qilingan harakatni og'rinib qabul qilish; 3)Xohlamoq.

10. Asarda birinchi o'rindagi bo'lishsizlik ma'nosi orqali yoritilgan. Ya'ni Kumush o'zimcha ham shunchaki o'ylamagandim demoqchi.

11. O'zbek xalqining boy meroslaridan biri bilgan Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" hamda, “Mehrobdan chayon ” romanlari o'zbek xalqining milliy urf-odatlarini ifodalabgina qolmay, o'sha davrda xalq boshidan kechirgan qiyinchiliklar, nohaqliklarni tasvirlagan. Asarda xonliklar o'rtasidagi taxt uchun kurashlar va bu kurashlar natijasida jabrlangan oddiy xalq turmushi yaqqol ochib berilgan. Badiiy

¹⁵⁴ Mengliyev “O'zbek tili iboralarinng o'quv izohli lug'ati” ” Yangi asr avlodi” T. 2007 37- bet

¹⁵⁵ A. Qodiriy “O'tkan kunlar” “Sharq” T. 2018 18 bet

tarjimada juda murakkab masalalardan biri ham jonli xalq tili, yani jaydari til xususiyatlarini ifodalashdir.

12. Bizning tarixan yaratilgan minglab durdona asarlarimiz to'gridan-to'gri O'zbek tilidan boshqa tillarga (vositasiz tillar orqali emas) tarjima qilinishi birinchi darajali masala va vazifa bo'lib turibdi. Biz tarjimashunoslikni puxta o'rganib, rivojlantirib uni mustaqil xalq xizmatiga jalb qilishimiz kerak.

13. “O'tkan kunlar” romani tilini badiiy nutqda so'z qo'llash jihatidan o'ziga xos ibrat maktabi deyish mumkin. Qodiriy tilidagi so'zlarning semantik qurilishida bir paytning o'zida aks etib turadigan ham ifodalanayotgan predmet, ham nutq subyektining bu predmetga o'z munosabati, uning so'zlash paytidagi hissiy holati, ruhiyati haqidagi axborotlarni nozik ilg'aganligi uchun bu axborotlarning barchasini o'z estetik niyatiga ustalik bilan xizmat qildirgan.

14. Qodiriy tildagi ma'nodosh so'zlar orasidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so'zni saylab qo'llash orqali mazmunning eng nozik nuqtalari, qahramon ruhiyati, tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko'rsatishga erishgan.

15. Qodiriy nafaqat tildagi iboralar, zid ma'noli so'zlar, balki xususiy-muallifiy zid ma'nolilik asosida ham tazod, zidlantirish, kontrastlik, qarshilantirish san'atining go'zal namunalari yaratilgan.

16. Qodiriy xalq donishmandligining nodir namunalari bo'lgan iboralardan, xususan, obrazli ifodalarning yetuk namunasi hisoblangan frazeologik iboralar va maqollardan juda katta mahorat bilan foydalangan. Roman matni o'zbek tilining nutqiy qoliplashgan obrazli ifodalarga naqadar boyligini yana bir bora namoyish etadi.

17. Adib o'zbek tilidagi ko'chimlarning milliy-ruhiy, badiiy-lisoniy voqelanish ildizlari, jarayonlari, mexanizmlarini to'liq anglaganligi uchun ham betakror tasviriy obrazlar yaratgan. Qodiriyning badiiy til borasidagi mahorati shunda ham namoyon bo'ladiki, o'zining obrazlilik va emotsional-ekspressivlik xususiyatlarini yoqotgan an'anaviy o'xshatishlarni ham tasviriylik, obrazlilikni yaratishga xizmat qildirgan.

18. Qodiriy metaforalarning konnotativ ma'no ko'lamlarini kengaytira olgan. Uning o'zigagina xos bo'lgan va eng muhimi, mantiqiy-estetik mohiyatining juda ham boyligi bilan kitobxon diqqatini tortadi.

19. Jonlantirishlar muallif nutqida qo'llanilib qahramon ruhiyati, muhit va tabiat tasvirining ta'sirchanligini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Adib yaratgan metaforalar asosida yuzaga kelgan g'ayriodatiy birikmalar o'zlarining yangiligi, odatiy emasligi bilan kitobxonni ayni o'ziga xos obrazlilik ustida to'xtalishga majbur qiladi.

Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” hamda “Mehrobdan chayon” romanlarida o'zbek tili frazeologizmlaridan voqea-hodisalarni aniq, ixcham, obrazli tasvirlashda, satira va yumor ruhini, kinoya, piching kabi salbiy jihatlarni uslubiy ta'sirchan ifodalashda mahorat bilan foydalangan. U faqat umumtil frazeologizmlarini qollash bilan qanoatlanmay, ozi ham yangi frazeologizmlar, perifrazalar yaratib, ozbek tili frazeologiyasini boyitgan. Romanlarining sahifasida u yoki bu qahramon nutqida, ba'zan adib nutqida qollangan maqol hamda matallar asarga ko'rk, milliylik, jozibadorlik, falsafiylik baxsh etish barobarida timsollar induvidalligini ta'min etgan.

Adabiyotlar:

1. Ma'rufov. Z. M. “O'zbek tilining izohli lug'ati” I tom , 1981-yil
2. Мукаррамов. М. Ўзбек тилида ўхшатиш- Т. : Фан, 1976.
3. Pinxasov. Ya. Hozirgi zamon ozbek tili leksikasi. Toshkent, 1960,167 bet.
4. Qoshjonov. M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. - T. : Fan, 1966.
5. Қўнғуров . Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. - Т. : Фан, 1977.
6. Mengliyev “O'zbek tili iboralarinng o'quv izohli lug'ati” ” Yangi asr avlodi” T. 2007
7. A. Qodiriy “O'tkan kunlar” “Sharq” T. 2018
8. www. arxiv. uz

SIYOSIY ATAMALARNING XUSUSIYATLARI (O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)

D.H.Ochilova,

*BuxDU, Qiyosiy tilshunoslik va
Lingvistik tarjimashunoslik
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Siyosiy terminologiya va uning soha mutaxassislari va mutaxassis bo'lmagan nutqda ishlashi siyosatchilar, filologlar va oddiy odamlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Siyosat sohasidagi atamalarning ishlash xususiyatlarini o'rganish nutqning ikki turida qanchalik farq qilishini ko'rsatadi. Mutaxassis bo'lmagan nutqdagi atamalar ko'pincha metaforalarga asoslangan va ifodali ma'nolarga ega. Ular jargon so'zlar yoki uslubiy rangli so'zlar bilan ishlatiladi. So'z o'yini ham keng tarqalgan. Ifoda jihatidan ular quyidagilardan iborat:

1. Atamalar noto'g'ri yozilgan.
2. Yangi atamalar ko'pincha mavjud bo'lganlar modeliga asoslanadi¹⁵⁶.

Uslub xususiyatlari masalalarida mutaxassis bo'lmagan nutqda rasmiy hujjatlardan olingan ta'riflar kabi mutaxassis nutq elementlari ham mavjud deb ta'kidlash mumkin. Umuman olganda, nutq uslubi norasmiydir, chunki so'z o'yini doimo atamalar, personifikasiya bilan bog'liq holda ishlatiladi.

Kalit so'zlar: tushuncha, siyosiy atama, kuch, lingvistik-madaniy jamiyat, dunyo qiyofasi, konseptual tahlil, nutq.

Siyosatni tor tushunish institusional nutqni nazarda tutadi, siyosatni keng ma'noda diskursiv amalga oshirish esa institusional bo'lmagan nutqda amalga oshiriladi. Siyosiy atamaning tezaurusi ushbu leksik guruh birliklari orasidagi tizim ichidagi konseptual aloqalarga asoslangan. "Power" tushunchasi ushbu lug'at uchun

¹⁵⁶ Budaev E. V. , Chudinov A. P. Kontseptual'naya metafora v politicheskoy diskurse: amerikanskii, evropeiskii i rossiiskii varianty issledovaniya

tarkibiy jihatdan shakllangan ma'nodir. Tezaurus ijtimoiy-siyosiy lug'atining asosiy tavsiflovchilari bo'lib, tushunchalar ularning bir qator xususiyatlarini ular tomonidan ¹⁵⁷tashkil yetilgan leksik guruhlariga ajratadi. Bundan tashqari, tezaurusning tegishli bo'limlarining tuzilishi asosan tushunchalarning ichki, tarkibiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Natijada, ijtimoiy-siyosiy lug'at uchun ushbu asosiy tushunchalarni, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy lug'at uchun muhim bo'lgan "odamlar" va "millat" tushunchalarini tahlil qilish zarur bo'lib tuyuladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, konseptual tahlil metodologiyasi hali to'liq ishlab chiqilmagan va asosan tahlil kabi o'ziga xos tajribalar shaklida taqdim etilgan.

Siyosiy nutqning konseptual-milliy qismida tushunchalar Power -hukumat, state -davlat, society -jamiyat, people and nation – xalq va millat asosiy tushunchalardir, ya'ni ular ijtimoiy-siyosiy lug'atining tezaurusining asosiy bloklarining tavsiflovchilaridir. Bir tomondan, "subject" metaforalarida 'mechanism' va "building" ma'nosi, shuningdek, xalq va millat tushunchalarida keltirilgan xususiyatlarga o'xshash xususiyatlarni aktualizatsiya qilish bilan personifikatsiya qilinsa, millat-boshqa ma'noda keladi. Demak, hokimiyat (power) tushunchasi uchun metaforaning har uch turi dolzarb, mamlakat (state) va jamiyat (society) uchun tarkibiy metafora va personifikatsiya ustuvor ahamiyat kasb yetadi, xalq, millat (people and nation) tushunchalari deyarli metaforizatsiya qilinmaydi, metonimiya va personifikatsiya ular uchun umumiydir. Biroq, different tushunchalari bir xil metaforalarni turli yo'llar bilan ishlatadi.

Hokimiyat tor ma'noda O'zbekiston davlat tizimining (ijro etuvchi xokimiyat, qonun chiqaruvchi hokimiyat, sud hokimiyati) soxasi sifatida tushuniladi. Keng ma'noda, bu tushuncha "davlat hokimiyati, xalq hokimiyati" va "hukumat, davlat va hokimiyat " ma'nodosh iboralarga (davlat hokimiyati, xalq homiyati) ega.

Personifikatsiya "hokimiyat" tushunchasiga xos. U faol sub'yekt sifatida namoyon bo'ladi va turli xil shaxslararo munosabatlarning ishtirokchisi va turli xil aqliy va og'zaki xususiyatlarning tashuvchisi sifatida fikr yuritiladi:

¹⁵⁷ Stepanov Yu. S. Al'ternativnyi mir, diskurs, fakt i printsip prichinnosti [The alternative world, discourse, fact and the principle of causality]. Yazyk i nauka kontsa 20-go veka: sbornik statei [Language and science of the end of the 20th century: a collection of articles]. Moscow, 1995, pp. 35-73. (In Russian)

Hukumat parlament so'roviga qanday javob byerdi? Amerika hukumati Oq Uydan turib, xalqqa murojaat qildi:...

Konseptual tizim tilda aks etadi, bu hatto ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan tushunilmasligi mumkin bo'lgan metafora. Hozirgi vaqtda konsepsiya va so'zning semantik tuzilishi o'rtasidagi munosabatni tushinishda bir xillik yo'qligiga qaramay, so'zning tildagi asosiy tasavvurlarini tahlil qilish asosida konsepsiyani o'rganish metodologiyasi o'rnatildi. so'zning konseptual tahlili uning turli jihatlarini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi: leksikografik tasvirlar, denotativ komponent, pragmatik ma'nolar, moslik, assosiativ aloqalar va ona tilida so'zlashuvchilarning "dunyo qiyofasi" bilan ushbu bog'liqlik asosida identifikasiya qilish, ularning butun dunyo haqidagi bilimlarining jamoaviy ongidagi g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlari tarkibiga kirdi.

Siyosiy nutqda til vositalarini tanlash ushbu nutq sub'yektlarining (siyosatchilarning) aloqa va kommunikativ niyatlari bilan belgilanadi. Ingliz tilshunosi V. Karasik ta'kidlaganidek: "Dunyodagi barcha insonlar yagona insoniyatni tashkil etsada, alohida madaniyatlar, odamlar, qabilalar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi farq ba'zan ahamiyatlidir ¹⁵⁸". Milliy madaniyatning yanada o'ziga xos va umumbashariy xususiyatlarini aniqlash orqali biz nutqidagi qoliplarni aniqlashimiz mumkin: Alohida lingvistik va madaniy jamiyat. Tarix buyuk voqealar yoki hukmdorlar faoliyatining tavsiflari nomlarida emas, balki til birliklari ma'nolarida qayd etilgan kundalik hayotning ko'plab nuanslarida aks etadi.

Xalq va millat tushunchalari, ijtimoiy-siyosiy lug'at tezaurusining jamiyat (society) blokida tavsiflovchilar bo'lib, ba'zi leksik guruhlarni ushbu lug'atning bir qismi sifatida loyihalashtiradi. Signifikativ qismdagi hollar soni, xalq va millatga to'g'ri kelib, ular bilan til qonunida sonlanadigan baho, qonun, metaforalar ancha farq qiladi .

Adabiyotlar:

1. Budaev E. V. , Chudinov A. P. Kontseptual'naya metafora v politicheskom

¹⁵⁸ Karasik V. I. Yazykovo krug: lichnost', kontsepty, diskurs (Language circle: personality, concepts, discourse) Volgograd, Peremena Publ. , 2002. 476 p.

diskurse: amerikanskii, evropeiskii i rossiiskii varianty issledovaniya [Conceptual metaphor in political discourse: American, European and Russian versions of the study]. Politicheskayalingvistika – Political linguistics, 2006, no. 17, pp. 35-77.

2. Stepanov Yu. S. Al'ternativnyi mir, diskurs, fakt i printsip prichinnosti [The alternative world, discourse, fact and the principle of causality]. Yazyk i nauka kontsa 20-go veka: sbornik statei [Language and science of the end of the 20th century: a collection of articles]. Moscow, 1995, pp. 35-73. (In Russian)

3. Karasik V. I. Yazykovoii krug: lichnost', kontsepty, diskurs (Language circle: personality, concepts, discourse) Volgograd, Peremena Publ. , 2002. 476 p.

4. Popova Z. D. , Sternin I. A. Ponyatie «kontsept» v lingvisticheskikh issledovaniyakh (Essayson cognitive linguistics) Voronezh, 2001. 189 p.

5. Shmeleva T. V. Morbual'naya optika [Mortuary optics]. Lingvistika: byulleten'. uralskogo lingvisticheskogo obshestva – Linguistics: bulletin of the Ural linguistic society, 2001. no. 7, pp. 4-15.

6. Kasimova, N. F. (2017). Communicative functions of the interrogative sentences in English. In Приоритетные направления развития науки(pp. 59-62).

7. Olimova, D. Z. (2021). Transfer of modality in translation (modal verbs and their equivalents, modal words). Middle European Scientific Bulletin, 12, 220-

TARJIMADA INVERSIYANING UZATILISHI

N.B.Baratova

BuxDU, Qiyosiy tilshunoslik va

Lingvistik tarjimashunoslik

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Tarjima bilan bog'liq bo'lgan har qanday soha, insoniyat tarixida o'zining muhimligi jihatdan ko'pgina izlanish va o'rganishlarga sabab bo'lib

kelgan¹⁵⁹. Sir emaski mamlakatimizda ta'lim sohasida chet tillarini o'rgatish va o'rganish tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar shiddat bilan amalga oshirilmoqda. Ushbu soha, xalqlar aro madaniy, ijtimoiy, do'stlik aloqalari va munosabatlarini yo'lga qo'yish, mustahkamlash, rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarjima bu shunday sohaki, unda dunyo xalqlari madaniyatini o'rganish, tafakkur qilish, anglash va bevosita uni tasavvur qilish imkoniga ega bo'lamiz. Ko'pgina xalqlarda tarjimashunoslik odatiy amaliyot bo'lishiga qaramay, o'z ona tilida so'zlashuvchidan tarjima qilish hali ham mavhumlikka ega bo'lgan sohalardan biridir. Ushbu ish, tarjima haqida xabardorlikni oshirishga yordam beradigan, tarjima nutqida inversiya hodisasi funkcionalligini qayta qurish bilan bog'liq masalalarga qaratilgan. Tezisning maqsadi tarjimani va inversiya ma'nosini tillar bo'ylab uzatish imkoniyatlarini o'rganishdir. Shuningdek, ushbu ish orqali bazi bir misollar ko'rinshida tarjimaning sifatini, teskari jumlaning asl pragmatikasi qanchalik yaxshi saqlanganligini tekshirish orqali muhokama qilamiz. Ilmiy ishning keyingi bosqichlarida ma'lum bir asardan foydalanib, inversiya hodisasi funkcionalligini yanada ochib berish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: mukammal tarjima, sintaktik qurilma, matn, vositasiz to'ldiruvch, tahlil, tarjima usuli, inversiya turlari, mavhumlik, til qurilishi, ritmik omil.

Har qanday mukammal tarjima ilmiy umumlashtirishga muhtoj bo'lib, ijodkor asl nusxaga oid barcha manbalarni to'liq ilmiy tushunishi, ular asosidagi barcha omillarni ongli ravishda o'z tilida aks ettiradi¹⁶⁰. Mukammal tarjima qilish mahoratiga ega bo'lish uchun, tarjimondan nafaqat umumiy til ko'nikmalariga ega bo'lish, balki tarjimaning belgilab qo'yilgan asoslarini ham egallash lozim¹⁶¹. Ingliz va o'zbek tillaridagi gaplarda berilayotgan so'z tartibidagi farq tarjima qilish jarayonida qayta qurilishni talab etadi. Ko'pgina vaziyatlarda ingliz va o'zbek tillaridagi grammatik qurilishning mos kelmasligi holatlari kuzatiladi. Odatda ingliz

¹⁵⁹ Chung Ch. Mixed Functional Properties in English Stylistic Inversion. Dongseo University, 2002. - <http://cslipublications.stanford.edu/HPSG/2/chung-inv1-pn.Pd>

¹⁶⁰ Саломов . Г. С. Таржима назарияси асослари. – Тошкент, 1989

¹⁶¹ Казакова Т. А. Практикум по художественному переводу. – СанктПетербург, 2003

tilida gapda so'z tartibi quyidagicha; ega, kesim, to'ldiruvchi, hol. O'zbek tilida ingliz tili bilan qiyoslanganda so'z tartibi ancha erkin. Bunday vaziyatda tarjimonning nafaqat o'z tilini, balki tarjima qilinayotgan matn, asar yoki material tilini ham ravon bilishi eng muhim talablardan biridir. Tilning eng kichik aloqa birligi gap bo'lib, u ozmi-ko'pmi to'liq fikrni ifodalaydi. Bir qator rollarni bajaradigan so'z tartibi ma'noni yetkazishning eng nozik usullaridan biridir. So'z tartibi estetik ahamiyatga ega, chunki u siljish, semantik vazni oshirish yoki kamaytirishda qo'shimcha semantik soyalarni yaratadi¹⁶².

Inversiya zamonaviy ingliz va barcha tillarning stilistik elementi bo'lib, standart til qoidalarini buzmaydi. Stilistik vosita sifatida inversiya har doim ma'noga asoslanadi. She'riyatda inversiyani hisoblashda ritmik omillardan foydalanish tendentsiyasi mavjud. Bu ba'zan to'g'ri bo'ladi, ammo mohir yozuvchilar kamdan-kam hollarda shakl uchun ma'noni qurbon qiladilar va she'rdagi inversiya ko'pincha ritm emas, balki mazmun nuqtai nazaridan aytiladi. Tilshunoslar va tarjima sohasi bilan tanish bo'lgan har bir kishi biladiki, "inversiya" atamasi bir-biridan sintaktik jihatdan farq qiladigan konstruktsiyalar uchun soyabon atama sifatida ishlatilgan. Inversiya - bu bir nechta grammatik konstruktsiyalarning har qandayida ikkala iboraning kanonik ko'rinish tartibini o'zgartirishi¹⁶³, ya'ni ular teskari holatda bo'lishidir. Ingliz tilida inversiyaning eng keng tarqalgan turi sub'ekt-ko'makchi inversiya bo'lib, bunda yordamchi fe'l o'z predmeti bilan almashtiriladi¹⁶⁴. I. V. Arnold inversiya kontsepsiyani quyidagicha izohlaydi: "Gap bo'laklalarining odatiy tartibining buzilishi va buning natijasida qandaydir emotsionallik yoki ekspressivlikning maxsus konnotatsiyalarini olishi, inversiya deb ataladi". V. N. Komissarov inversiyani shunday izohlaydi: "Inversiya - gap a'zolarining odatiy ("to'g'ridan-to'g'ri") tartibidan chetga chiqish, gapning emotsional xususiyatlarini ifodalashning samarali usuli sifatida ishlatilishidir". Ko'pgina inglizcha fe'l zamonlarida biz inversiyadan foydalanmoqchi bo'lsak, faqatgina fe'lni ega oldiga

¹⁶² Мусаев Қ. Таржима назарияси. – Тошкент, 2006. – 350 б.

¹⁶³ <https://greenforest.com.ua/journal/read/inversion-for-upper-levels>

¹⁶⁴ https://knowledge.allbest.ru/languages/3c0b65625b2ac69a5d53b88421216d26_0.html

o'tkazamiz. Agar bir nechta fe'l bilan tuzilgan gap bo'lsa, masalan, fe'l zamonida yordamchi fe'llar borligi sababli, birinchi fe'lni ko'chirish orqali inversiya hodisasiga duch kelishimiz mumkin. Bunda:

- You are tired (siz charchadingiz)
- Are you tired ? (Charchadingizmi?)

Bu ko'pincha egani yordamchi bilan almashtiradigan savollarda uchraydi. Ko'pgina boshqa tillarda, ayniqsa ingliz tiliga qaraganda erkinroq so'z tartibida - inversiya turli xil fe'llar (faqat yordamchilar) va boshqa sintaktik toifalar bilan ham sodir bo'lishi mumkin. Inversiya ma'lum bir maqsadda, ko'pincha ta'kidlash uchun ishlatiladi. Misol uchun: There may be another problem (boshqa muammo bo'lishi mumkin).

Maxsus adabiyotlarni tarjima qilish qonun hujjatlarida belgilangan standartlarga mos kelishi kerak. Tarjimada fikrni iloji boricha aniq va ixcham qilish muhim. Yozma ilmiy nutqning o'ziga xos xususiyati shundaki, u har qanday ilmiy matnli grafik ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash kerakki, tarjima ixcham bo'lishi kerak. Mashinalar, uskunalar, asboblardan yoki ishlab chiqarish jarayonlarining tavsifi tarjimada tasvirlangan bo'lishi kerak. Invert so'z tartibi mavjud bo'lgan ingliz jumlasini tarjima qilish usullari bunday inversiyaning tabiatiga, uning inglizcha matnda paydo bo'lish sabablariga bog'liq. Tarjimon uchun inversiyaning quyidagi uch turini farqlash muhim: grammatik, semantik va stilistik¹⁶⁵. Inversiyadan foydalanish kerakligini qanday aniqlash mumkin? Avvalo, bu tarjima qilinayotgan materialning maqsadiga bog'liq. Inversiya faqat ma'lum konstruktsiyalar, so'zlar va iboralar bilan ishlatilishi mumkin. Ko'pincha gapdagi birinchi so'zlar so'z tartibini o'zgartirish zarurati bor-yo'qligini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Tadqiqot olib boriladigan asar yuzasidan misolga etibor bersak, Shamollarda qolgan hislarim asarida bosh qahramonlardan biri Skarlet Oxara va Ret Batlarning kichik dialogida inversiya hodisasini kuzatishimiz mumkin:

-Scarlett: Sir, you are no gentleman. (janob, siz jentlmen emassiz)

¹⁶⁵ Birner, B. 1996. The discourse function of inversion in English. Outstanding Dissertations in Linguistics. NY: Garland.

-Rhett Butler: And you, Miss, are no lady. " (siz ham, xonim, leydi emassiz) yoki

- "What a cool liar you are, Melly! (Sen qanday zo'r yolg'onchisan, Melly)

Bu gaplarda inversiyaning asosiy vazifasi ma'no kuchaytirish va ta'kidlash bo'lib, hodisa gap bo'laklarining o'rin almashtirishi bilan yuzaga kelgan. Inversiya butun gapdagi intonatsiyani o'zgarishi bilan ifodalanadi va joyiga nisbatan boshqa joyga qo'yilgan so'z, intonatsion jihatdan ajratib aytilishi kuzatiladi.

Turli mualliflarning ushbu va boshqa ko'plab ta'riflarini tahlil qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, ingliz tilidagi inversiya jumlaning qurishda katta rol o'ynaydi, shuningdek uning ma'nosiga ta'sir qiladi, ya'ni gapda hissiyotni ifodalashning eng muhim vositasi bo'lib, inversiya ma'lumotni qadoqlash funksiyasini bajaradi ya'ni ilgari notanish bo'lgan axborot nutqidan nisbatan tanish bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish¹⁶⁶. Gapni taxlil qilish, bu matnni tununish uchun kerakli asosdir. Chet tilida gapni tahlil qilish ona tilidagidan farq qilishi, tilshunoslar va tarjimolar uchun sir emas. Buning asosiy sababi, ona tilida gapning mazmuni uni o'qish jarayonida kuzatiladi va shu jarayonda tushuniladi. Chet tilida esa, gapning mazmunini anglash va tarjima qilish avval ularning joylashish tartibi, bog'lanishi, predloglar, artikllar, suffiks va boshqa ko'plab elementlarga e'tibor berish bilan maromiga yetkaziladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tarjimadagi inversiya hodisasining ketma-ketligi hamon ba'zi mavhumliklarga ega hodisa sifatida namoyon bo'layotganini hisobga olib, ko'pgina izlanishlar qilinishi talab etiladi. Shunday qilib, ingliz tilidagi ma'lum turdagi matn yoki materialni tarjima qilishdan oldin, kerakli miqdorda lug'at boyligiga ega bo'lish, ayniqsa turli sohaga oid terminlarni tushunish va tarjima qilinayotgan til grammatikasi asoslarini bilish talab etiladi.

References

1. Chung Ch. Mixed Functional Properties in English Stylistic Inversion. Dongseo University, 2002. - <http://cslipublications.stanford.edu/HPSG/2/chung-inv1-pn>. Pd

¹⁶⁶ Greenbaum, S. and R. Quirk. 1990. A student's grammar of the English language. Harlow, Essex, England: Longman.

2. Саломов . Г. С. Таржима назарияси асослари. – Тошкент, 1989
3. Казакова Т. А. Практикум по художественному переводу. – СанктПетербург, 2003.
4. Мусаев Қ. Таржима назарияси. – Тошкент, 2006. – 350 б.
5. <https://greenforest.com.ua/journal/read/inversion-for-upper-levels>
6. https://knowledge.allbest.ru/languages/3c0b65625b2ac69a5d53b88421216d26_0.html[https://en.wikipedia.org/wiki/Inversion_\(linguistics\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Inversion_(linguistics))
7. Birner, B. 1996. The discourse function of inversion in English. Outstanding Dissertations in Linguistics. NY: Garland.
8. Greenbaum, S. and R. Quirk. 1990. A student's grammar of the English language. Harlow, Essex, England: Longman.
9. Bassnett Susan. Translation Studies. – Routledge, London and New York. 2002.

HOUSEHOLD REALIAS IN ENGLISH AND THE MAIN WAYS OF TRANSLATING THEM

U.N.Rashidova

*BuxDU, Qiyosiy tilshunoslik va
Lingvistik tarjimashunoslik
mutaxassisligi magistranti*

Abstract. This thesis examines the English-language realities within the framework of literary text and their translation into the Russian language. The goal is to determine the patterns of application of the various methods for translating realities from the English language based on the analysis of translation solutions. The selected from the original text routine realities are analyzed from the perspective of the ways of their translation (on the basis of classification of V. S. Vinogradov) for determining the most productive out of them.¹⁶⁷ In the course of research, the

¹⁶⁷ Влахов С. , Флорин С. Непереводимое в переводе. М. : Международные отношения, 1980. 343 с.

author uses the methods of continuous sampling for selecting the language material; linguistic observation and description; quantitative estimation; and comparative method. The analysis of language material demonstrates that the most productive means for translation of routine realities of the English language into the Russian language imply adaptation, periphrastic translation, and calquing; then follow the transcription and transliteration. The research materials can be valuable for pedagogical purposes and professional translation of English texts containing non-equivalent lexis into another language.

Keywords: culture, realias, translation theory, interpretation, literary text, translation, non-equivalent lexis, classification of realities, equivalent

Realias are called objects and phenomena that are characteristic only for a single country, people, linguistic community. Being nationally specific, non-equivalent units, realia words can cause difficulties in translation. In this regard, the practical aspects of the effectiveness of individual translation techniques and their combinations in the transfer of realities, the clarification of factors affecting the adequacy of the transfer of realities into another language, do not lose their relevance. Systematization and analysis of translation solutions on the material of various texts contribute to an in-depth understanding and solution of problems in the theory and practice of translating non-equivalent vocabulary.¹⁶⁸

V. S. Vinogradov, based on the developments of S. Vlahov and S. Florin, proposed the following classification:¹⁶⁹

1. everyday realities: a) housing, property; b) clothing, attire; c) food, drinks; d) types of work and occupation; e) banknotes and units of measure; f) musical instruments, folk dances and songs, performers; g) folk holidays and games; h) appeals;

2. ethnographic and mythological realities: a) ethnic and social communities, their representatives; b) deities and fabulous creatures, legendary places;

¹⁶⁸ Федоров А. В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): для институтов и факультетов иностр. языков: учеб. пособие. 5-е изд.

¹⁶⁹ Виноградов В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). М. : Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. 224 с.

3. realities of the natural world: a) animals; b) plants; c) landscape and landscape;

4. realities of the state-administrative structure and public life (current and historical): a) administrative units and state institutions; b) public organizations, parties, etc., their functionaries and participants; c) industrial and agricultural enterprises and trade establishments; d) military and police units, ranks; e) civil positions and professions, titles and titles;

5. onomastic realities: a) anthroponyms - common names and surnames and individual names and surnames of famous personalities; b) toponyms - ordinary and memorial, not only indicating a geographical object, but also having an additional meaning that is important in translation (for example, the ancient Spanish city of Numancia as a symbol of courage); c) the names of literary heroes; d) names of companies, museums, theaters, palaces, restaurants, shops, airports, etc.;¹⁷⁰

6. associative realities: a) animalistic / vegetative symbols; b) color symbolism; c) folklore, historical and literary-bookish allusions; d) linguistic allusions containing allusions to proverbs, sayings, phraseological units, winged expressions.

A. V. Fedorov identifies the following main ways of transferring realities from one language to another:¹⁷¹

1. transcription, transliteration, the essence of which is to write a word denoting a realia in the source language (in whole or only its root) using the alphabetic characters of the target language or in combined with target language suffixes;

2. descriptive (periphrastic) translation, which is expressed in the creation of a new word or phrase to designate the corresponding object or phenomenon (the elements and morphological connections that actually exist in the language are used);

¹⁷⁰ Шабанова Ю. Ю. , Привалова Ю. В. Проблема перевода слов-реалий // Успехи современного естествознания. 2012. № 5. С. 168—169.

¹⁷¹ Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): учебник для ВУЗов. М. : Альянс, 2013. 253 с.

3. assimilation, in which the chosen translation option is specified within the framework of the context (the word denoting a foreign language reality, while representing something close, but not identical to it in its function);

4. hyponymic (generalized approximate) translation, in which the lexical unit of the source language, denoting a specific concept, is transferred to the target language by a word that names the corresponding generic concept¹⁷²

In the course of the analysis of the translation of realities, representing the elements of the English life of the 30s. XX century, it was revealed that in this novel most of the realities of this kind are transmitted by the translator. Among everyday non-equivalent vocabulary, the most difficult to translate are the names of obsolete clothing items, as well as realia words denoting English cuisine dishes, kitchen utensils and other concepts related to the field of cooking, due to their huge variety and high specificity. This does not allow to fully convey their national and temporal flavor with the help of analogues available in the target language. In the case of these realities, there is a loss of color, the inability to convey the meaning of the realia in its entirety.

When translating a literary text, not only the original and translated languages are compared, but also different cultures. As a rule, such a translation is notable for its non-literalism. The translation of an artistic text containing a description of the life of a certain historical period requires a special approach, since it is necessary not only to convey the meaning of non-equivalent lexical units as accurately as possible, but also to preserve the historical (temporal) flavor of realia.

References

1. Влахов С. , Флорин С. Непереводимое в переводе. М. : Международные отношения, 1980. 343 с.

¹⁷² Collins Online English Dictionary. URL: <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/> (дата обращения: 20. 08. 2019).

2. Федоров А. В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): для институтов и факультетов иностр. языков: учеб. пособие. 5-е изд.
3. Виноградов В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). М. : Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. 224 с.
4. Шабанова Ю. Ю. , Привалова Ю. В. Проблема перевода слов-реалий // Успехи современного естествознания. 2012. № 5. С. 168—169.
5. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): учебник для ВУЗов. М.: Альянс, 2013. 253 с.
6. Collins Online English Dictionary. URL: <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/> (дата обращения: 20. 08. 2019).

LINGVOKULTUROLOGIYADA TADQIQ MASALALARI

N.X.Ruziyeva

*BuxDU, Tajimashunoslik va
lingvodidaktika kafedrasi o'qituvchisi*

M.B.Xolova

*BuxDU, Tajimashunoslik va
lingvodidaktika kafedrasi magistranti*

Annotatsiya. Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib til madaniyat bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki uning o'zi madaniyatdan o'sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir degan faraz qabul qilina boshlandi. Ayni paytda til madaniyatning yaratish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi va uning tarkibiy qismidir. Chunki til vositasida madaniyatning moddiy va ma'naviy asarlari yaratiladi. Ana shu g'oya asosida ming yillar mobaynida shakllangan lingvokulturologiya fanning yangi, maxsus sohasi sifatida XX asrning 90- yillarida vujudga keldi. Mazkur ishda til madaniyatning tarkibiy qismi, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida


qaratilgan. Shuningdek, ushbu tezis orqali til va madaniyat masalalarini o'rganuvchi Lingvokulturologiya fani, uning tavsifi, fanning tadqiq masalalari va o'zbek tilshunosligida olib borilayotgan lingvokulturologik tadqiqotlar xususida ko'proq ma'lumot berish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, xalq mentaliteti, lisoniy tasvir, lingvo-madaniy konsept, makrokomponent modeli

Til - madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlari, axloqi. qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Til - madaniyat xazinasi, sandig'i, majmuidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarini saqlab keladi"¹⁷³.

Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o'rinda turadi. Til birinchi navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo'yuvchi vosita bo'lishiga yordam beradi. Til - uning sohiblarining muayyan jamoaga tegishli ekanini ko'rsatadi. (1-rasm)



1-rasm.

So'nggi yillarda til va madaniyat masalalarini lingvokulturologiya fani atroflicha o'rganishga kirishdi. V. V. Vorobevning yozishicha, "bugungi kunda

¹⁷³ Bakhtiyorovna, I. F. . (2021). Translation of linguocultural peculiarities in hafiza kochkarova's translations. Middle European Scientific Bulletin, 12, 247-249

lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish, va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbivaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak. lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır”¹⁷⁴.

V. N. Teliyaga ko'ra, Lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo'llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentoliteti bilan aloqasini tadqiq qiladi.

X. Alefirenko lingvokulturologiyani quyidagicha tavsiflaydi'

- lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

- lingvokulturologiyaning asosiy e'tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillari o'qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin; lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qadriyatlarining semiotik gavalantirish tizirni hisoblanadi¹.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalarni tadqiq etilganligini ko'rish mumkin:

1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda miqlar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili o'rganilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asardagi lingvo- madaniy konseptning ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiv-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy yo'nalishdagi tadqiqotlar. Bunda ko'proq rus tilidagi birliklar ingliz, nemis. fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog'liq jihatlari. Bunda ijtimoiy

¹⁷⁴ Nafisa, K. . (2021). Semantics and Pragmatics of a Literary Text. Middle European Scientific Bulletin, 12, 374-378.

fanlarda o'quvchi va talabalarga lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish maqsad qilib olingan.

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar oxirgi o'n yilliklarda pavdo bo'la boshladi. Jumladan, Z. I. Soliyevaning nomzodlik ishida ozbek va ingliz tillaridagi sentensiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan'. D. Xudoyberganovanning "Matnning antroposentrik tadqiqi" nomli monografiyasining alohida bobi o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan².

V. A. Maslovaning yozishicha, "Har qanday ilmiy tadqiqotning aniq metodi o'zining qo'llanish chegarasiga ega. Biroq o'zaro aloqada bo'lgan til va madaniyat shunchalik ko'p qirraliki, ularning tabiati, funksiyalari va genezisini bir metod vositasida bilish mumkin emas. Shuning uchun ham bu sohada bir-birini to'ldiruvchi qator metodlarning qo'llanilishi g'oyat tabiiydir"¹⁷⁵.

Til va madaniyatning o'zaro munosabatini o'rganish uchun J. Lakoff metaforalarni tahlil qilish apparatini taklif qiladi. Chunonchi. metaforalarning kognitiv nazariyasi nima uchun chet tillaridagi ba'zi iboralar oson tushuniladi, hatto ular o'zlashtiriladi. boshqalarini esa tushunish qiyin ekanligini izohlab beradi. V. N. Teliya lingvokulturologik tasvir uchun ma'noning makrokomponent modelini taklif qiladi. Mazkur model informatsiyaning quyidagi yetti blokini o'z ichiga oladi: presuppozitsiya, denotatsiya, ratsional baho. belgining motivatsion asosi, emotsional va emotiv baholar haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, belgini qo'llash sharoitlari bahosi. Har bir blok mental strukturalrni qayta ishlash amallarini ko'rsatuvchi kognitiv operator tomonidan kiritiladi.

Adabiyotlar:

1. Brown, P & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press.

¹⁷⁵ Haydarova, N. (2021). Badiiy diskursda inson fiziologiyasi bilan bog'liq til birliklarining lingvomadaniy tahlili. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 6(6).

2. Рабиева, М. (2021). Дихотомия эвфемизма и фразеологизма: Дихотомия эвфемизма и фразеологизма. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 7(7).
3. Imamkulova, SA Imamkulova. "INTENSITY OF WORD MEANINGS AND LINGUA-CULTUROLOGY. " Eurasian Journal of Academic Research 2. 2 (2022): 344-348
4. Bakhtiyorovna, I. F. . (2021). Translation of linguocultural peculiarities in hafiza kochkarova's translations. Middle European Scientific Bulletin, 12, 247-249.
5. Haydarova, N. (2021). Badiiy diskursda inson fiziologiyasi bilan bog`liq til birliklarining lingvomadaniy tahlili. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 6(6).
6. Ruzieva, N. X. , & Yuldasheva, F. E. (2017). The use of mingles in the communicative way of teaching. Міжнародний науковий журнал Інтернаука, 1(1), 138-139.
7. Zokirova N. S (2020) TRANSLATOLOGY AND THE ANALYSIS OF ITS LINGUISTIC MECHANISM. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(4), 8-10.
8. Nafisa K. Cognition and Communication in the Light of the New Paradigm //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 214-217.
9. Xafizovna, R. N. . (2022). Discourse Analysis of Politeness Strategies in Literary Work: Speech Acts and Politeness Strategies. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 123-133.
12. Nafisa, K. . (2021). Semantics and Pragmatics of a Literary Text. Middle European Scientific Bulletin, 12, 374-378.
13. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). Politeness In Literary Works: An Overview. Eurasian Research Bulletin, 7, 200–206.

**ILMIY-TEXNIK MATNLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI, TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN
MUAMMOLAR VA UNING YECHIMLARI**

D.I. Mexmonova,

*BuxDU, Qiyosiy tilshunoslik va
lingvistik tarjimashunoslik
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Xalqaro miqyosda bilimlarni uzatish va almashish texnologik taraqqiyotning jadal sur'atlari tufayli zaruratga aylandi. Bundan tashqari, ushbu mahsulotlar chegaralarni kesib o'tganda, standartlashtirish va mahsulot qonunchiligi tobora rivojlanmoqda, shuning uchun ishlab chiqaruvchilar ko'plab hujjatlarni: patentlar, sertifikatlar, standartlar, yo'riqnomalar va boshqalarni tarjima qilishga buyurtma berishiga to'g'ri keladi. Bozorlarning globallasuvi bilan transmilliy kompaniyalar o'zlarining kuch va ta'sir qilish imkoniyatlarini oshirmoqdalar va biznes strategiyasining asosiy ustunlaridan biri sifatida tarjimaga murojaat qilmoqdalar. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, yirik xalqaro guruhlar turli millat vakillariga ega, turli mamlakatlardan yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qiladilar, o'z mahsulotlarini butun dunyo bo'ylab tarqatadilar va butun sayyora bo'ylab o'zlarining reklama tashkilotlarini yo'lga qo'yadilar. Ushbu ish, tarjima haqida xabardorlikni oshirishga yordam beradigan, ilmiy-texnik matnlarning o'ziga xos xususiyatlari, tarjima qilishdagi qiyinchiliklar haqidagi masalalarga qaratilgan. Ushbu tezisning asosiy maqsadi ilmiy-texnik matnlar tarjimasida xatolikka yo'l qo'ymaslik va turli millatlarga to'g'ri ma'lumot yetkazish usullari haqida ma'lumot berishdan iborat. Ilmiy-ishning keyingi bosqichlarida ma'lum bir texnik sohaning tarjimasi misolida yuzaga keladigan muammolar va uning yechimlari muhokamasi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy-texnik matnlar, tarjima jarayoni, tarjima jarayoni qiyinchiliklari, ilmiy-texnik sohalar.

Barcha tarjimalar ixtisoslashgan, masalan, badiiy tarjimalarda asar muallifi, qaysi davrga oidligi, madaniyati va hokazolar haqida keng ma'lumotlar talab qilinadi. Aslida, ushbu nomdan foydalanishni oqlaydigan kalit shundaki, u tegishli bo'lgan matn turi asosan "mutaxassislik tillari" bilan tavsiflanadi: texnik, ilmiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'muriy va boshqalar. Ulardan matnlarda foydalanish tarjimonni tegishli mavzu bo'yicha bir qator ko'nikmalarga ega bo'lishni va o'ziga xos terminologiyani o'zlashtirishni talab qiladi: bular barcha ixtisoslashtirilgan tarjimalarda mavjud bo'lgan umumiy jihatlardir.

Ilmiy-texnik tarjima deyarli hamisha tadqiqotda ham, o'qitishda ham bir yo'nalish sifatida qaralib kelgan. Buning sababi fan va texnologiya o'rtasidagi chegaralar har doim ham aniq emas. Shunday qilib, bir vaqtning o'zida ham ilmiy, ham texnologik fanlardan yondashiladigan o'rganish obyektlari mavjud; masalan, atom ham fizikadan, ham yadro texnologiyasidan o'rganiladi. Boshqa tomondan, ba'zi mualliflar fan va texnika o'rtasida amaliy fanlar (tibbiyot) kabi oraliq toifalar mavjudligini ta'kidlaydilar. Ta'rifga ko'ra, fan nazariy bilim va texnikalar majmuasidir, ya'ni bu bilimlarni sanoat ekspluatatsiyasi (texnologik fanlar) yoki yerdan foydalanish (qishloq xo'jaligi fanlari) uchun qo'llashdir. Olimlar tomonidan qo'llaniladigan matn turi, birinchi navbatda, bilimlarni tarqatish uchun mo'ljallangan (masalan, tadqiqot maqolasi), holbuki texniklar odatda yuqori darajadagi tijorat malakasi tufayli amaliy bilimlarini tarqatish uchun emas, balki bir qator qonuniy talablarga rioya qilish uchun yozadilar (patentlar, yo'riqnomalar va boshqalar) yoki o'z mahsulotlarini reklama qilish uchun (axborot risolalari). [1,85] Fan tili texnologiya tilidan ko'ra universalroqdir, chunki fandagi manbaa va maqsadli tillar o'rtasida texnologiyadan ko'ra ko'proq o'xshashliklar mavjud. Maxsus foydalanishdan tashqari, matn xarakteridagi farqlar ham mavjud. Foydalanishning bu o'ziga xosligi bilan bir qatorda matn farqlari ham mavjud. Shunday qilib, ilmiy matnlarda argumentatsiya va tavsif ustunlik qiladi, texnik matnlarda esa tavsif¹⁷⁶ va ta'rif aniq ustunlik qiladi. Lekin

¹⁷⁶ English translation "The task of translator" Chesterman, Andrew (ed.) 1989. "Readings on Translation Theory", Helsinki: Oy Finn Lectura, 13-24

mavzu matnning ixtisoslashgan yoki ixtisoslanmaganligini belgilaydigan yagona omil emas. Buning kuchli sababi bor: bir xil mavzu o'zi uzatgan havola xarakteriga qarab ixtisoslashgan va ixtisoslashgan bo'lmagan matnlarni keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun har bir mutaxassislik bo'yicha havolani o'zgartiruvchi funksional maqsadlarga duch kelganda, dastlab ixtisoslashgan mavzular bo'lgan matnlar maxsus bo'lmagan matnlarga aylanadi. Shunday qilib, mavzu faqat boshlang'ich nuqta bo'lishi mumkin va boshqa mezonlar kommunikativ vaziyatga, suhbatdoshlarga va matn funksiyasiga nisbatan qo'llanilishi kerak. [2,16]

Ilmiy matnlarning katta qismini farqlovchi jihati shundaki, ular tadqiqot natijalarini mutaxassislar jamoasi o'rtasida, masalan, maqolalar, kongresslar yoki konferensiyalarda chiqishlar orqali keng tarqatishga mo'ljallangan. Foydalanishning bunday holati hech qachon texnik sohada sodir bo'lmaydi. Boshqa kommunikativ vaziyatlar texnik matnlar bilan ajratiladi, chunki ular kabi ilmiy matnlar ham fanga xos bilimlar to'plamini mutaxassislar tayyorlashda (masalan, ma'lum bir soha bo'yicha qo'llanma, ilmiy yoki texnologik) ishlatilishi mumkin. Asosiy bilimlarni keng ommaga tarqatish (ma'lumotli monografiya, umumiy matbuot maqolasi, televideniye hujjatli filmi, ularning barchasi ilmiy yoki texnologik mavzular). Ammo bu yerda imkoniyatlar inventarizatsiyasi tugaydi, texnik matnlardan foydalanish doirasi ancha kengroq bo'lib, sanoat jarayonlarini (ishlab chiqarish rejasi, mahsulotni ishlab chiqish ilovasi va boshqalar) tashkil etishga yordam beradigan matnlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi, mahsulot foydalanuvchisi ma'lumotlarini taqdim etadi (yo'riqnoma, qo'llanma, dori paketi varaqasi), mahsulotlarni reklama qilish (texnik e'lonlar va boshqalar) va boshqalar.

Tarjimaning professional amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bozor ulushi bo'yicha texnik tarjima ilmiy tarjimadan oldinda ekanligini ko'rishimiz mumkin, chunki sanoat tomonidan yaratilgan talab tadqiqot organlarida ishlab chiqarilgan talabdan ancha yuqori. Ingliz, nemis va fransuz tillaridan boshqa tillarga texnik tarjima Yevropada ushbu uch tilda so'zlashadigan mamlakatlarning

sanoat kuchlari sifatidagi gegemon vaziyat tufayli tarjima faoliyatining eng katta hajmini keltirib chiqaradi.

Albatta, tadqiqot maqolalari texnik sohalarda ham yoziladi, ammo bu yerda mavzu va kommunikativ foydalanish sohasi o'rtasida ajralish mavjud. Bunday maqola ishlab chiqarilgan kommunikativ vaziyat texnik xususiyatga ega emas, chunki u sanoat doirasida yuzaga kelmaydi va uni chiqarishda texnik xodimlar ishtirok etmaydi, shuningdek, uning maqsadi nazariy bilimlarni amaliy qo'llash bilan bevosita bog'liq emas. Shuning uchun havo ifloslanishini nazorat qilish (ekologik muhandislik va texnologiya) bo'yicha ilmiy maqola ilmiy matn bo'lsa, ma'lum bir geografik hududda (bir xil tematik sohada) atrof-muhitni tez zararsizlantirish bo'yicha chora-tadbirlar loyihasi texnik matn hisoblanadi.

Ilmiy-texnik tarjimalarda xatoga yo'l qo'yish mumkin emas. Bu turdagi tarjima juda maxsus hisoblanadi. Aniqlik ushbu tarjimaning asosiy va eng murakkab jihati hisoblanadi. Tarjimonlar tarjimaning aniq bo'lishi uchun matnlarga ko'p e'tibor qaratishadi. Texnik atamalar, lug'atlar, so'z tuzulishlari, va qisqartmalar aniqlik bilan tarjima qilinishi kerak. Natijada faqatgina texnik tarjimonlar bu maqsadga erisha oladilar. [5, 293]

Xulosa qilib aytganda, ilmiy-texnik matnlar tarjimasida alohida maxsus o'rganishlardan so'ng, juda aniqlik bilan shug'ullanish talab qilinadi. Ushbu ishning ahamiyatidan kelib chiqib, ushbu ma'lumotga ega bo'ldikki, ilmiy-texnik matnlar tarjimasida yo'l qo'yilgan xato biror bir mahsulotning ishlatilishida yoki qo'llanilishida katta muammolarga olib keladi. Tarjimondan ushbu sohaning o'z mutaxassisi sifatida bilim va ko'nikma, shuningdek lingvistik bilim ham talab qilinadi. Tarjima sifati yuqoridagi elementlar natijasida aniqlanadi. Lingvistik bilim tarjimaning o'quvchiga aniq va tiniq yetib borishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Benjamin, Walter (1923). "Die Aufgabe des Ubersetzers" {The task of Translators}. Frankfurt: Suhrkamp (1972), 82-96

2. English translation “The task of translator” Chesterman, Andrew (ed.) 1989. “Readings on Translation Theory”, Helsinki: Oy Finn Lectura, 13-24
3. Cunningham, Dale S. 1970 (1971) “Interaction of Literary and Technical Translators”. Rabassa, Gregory (ed.) (1971) “The World of Translation and Its Teaching” New York: Pen American Center, 39-52.
4. Olimova, D. Z. (2021) Transfer of modality in translation (modal verbs and their equivalents, modal words). Middle European Scientific Bulletin, 12, 220-22.
5. Olimova Dilfuza Zokirovna. (2022). The specifics of translation actions in simultaneous interpreting. Middle European Scientific Bulletin, 22, 292-295.

TARJIMADA LEKSIK INTERFERENSIYA HODISASI

M.H.Safarova

*BuxDU, Qiyosiy tilshunoslik va
Lingvistik tarjimashunoslik
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Hozirgi kunda tarjimonlarga qo'yilgan asosiy talablardan biri tarjima qilinayotgan matn tilini va madaniyatini har tomonlama bilishdir. Tarjimonlar til qoidalarini, shu bilan birga u tilda so'zlashuvchi xalq madaniyatini ham yaxshi bilishlari talab qilinadi. Tillarning grammatik, sintaktik va leksik tuzilishidagi tafovutlar natijasida yuzaga keladigan chalkashlik va ishonchsizlik hatto eng tajribali mutaxassislar uchun ham tanish holatdir. Ushbu muammolardan biri so'zlar toifasi, tarjimonning "yolg'on" do'stlari yoki soxta qarindoshlari. Bizning ishimiz tarjima nazariyasining ushbu jihatini, shuningdek, leksik interferensiyani o'rganadi. “Tarjimonning soxta do'stlari”ning asosiy xususiyatlari ishimizning asosiy maqsadidir.

Kalit so'zlar: interferensiya, leksik birliklar, "tarjimonning soxta do'stlari", internatsionalizmlar, omonimlar, paronimlar, etimologik dubletlar.

So'nggi yillarda tadqiqotchilarning adabiyotda “tarjimonning soxta do'stlari” leksik hodisasiga qiziqishi ortib bormoqda. Bu qiziqish tasodifiy emas. Tarjimalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mutaxassislar tomonidan so'zlarning ushbu turkumiga tegishli xatolar soni juda ko'p. Ular ko'pincha yuqori malakali tarjimonlar tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy va texnik tarjimalar sohasida ham shunga o'xshash xatolar muntazam ravishda kuzatilishi mumkin. Shunday qilib, ushbu turkumdagi so'zlarni o'rganish tarjima amaliyotining ehtiyojlari bilan belgilanadi. Soxta do'stlar - bu ikki yoki undan ortiq tilda o'xshash bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin aslida turli ma'nolarni anglatuvchi so'zlardir. “Tarjimonning soxta do'stlari” tushunchasi noto'g'ri tarjimaga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan barcha leksik birliklar – tillararo omonimlar, tillararo paronimlar, etimologik dubletlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ingliz va o'zbek tillarida internatsionalizmlar korrelyatsiyasining quyidagi turlari mavjud.

1. Shakldagi o'xshashlik bilan ma'noga mos keladi:

parliament - parlament

monitor - monitor

speaker - spiker

geography - geografiya

2. Shakldagi o'xshashlik bilan ma'no mos kelmaydi:

magazine - gazeta (magazin emas)

fabric - mato (fabrika emas)

family - oila (familiya emas)

focus - diqqat (fokus emas)

artist - rassom (artist emas)

Shuni ta'kidlash kerakki, asosiy til muammosi bo'lgan soxta do'stlar interferensiya hodisasiga aloqador bo'lib, ba'zan esa salbiy ko'chish (negative transfer) deb ataladi. Interferensiya hodisasi bu bir so'zlovchida dominant bo'lgan bir til normalarining ikkinchi ya'ni yangi o'rganilayotgan tilga o'zaro aloqa jarayonida ko'chishidir. V. V. Alimov kasbiy madaniyatlararo muloqot va tarjimada til interferensiyasini o'rganar ekan, tarjimonlarga interferensiyaning psixologik

asoslarini ta'riflaydi: tarjimon tarjima qilishda birinchi navbatda asl tildagi nutq ifodasini idrok etish jarayoni bilan shug'ullanadi. Identifikatsiya bosqichidagi bu idrok tarjimon xotirasida saqlanadigan bunday ob'ektlarning idrok etuvchi me'yorlari bilan idrok qilinadigan ob'ektlarni solishtirish jarayoni sifatida amalga oshiriladi.¹⁷⁷

Tilshunoslikda interferensiya hodisasi tilning barcha darajalarida ro'y berishi mumkin. Shunga ko'ra interferensiyaning fonetik, grammatik, leksik, semantik, stilistik va madaniy kabi turlarga bo'linadi. shulardan eng ko'p uchraydigan shakli bu leksik interferensiya hodisasi. Leksik interferensiya deganda ikki tillilikdagi chet tili leksemalarining ona tiliga o'zlashtirilishi tushuniladi, bu esa fonematik o'xshashlikning bir tildan ikkinchi tilga o'tishi yoki ona tili leksemi ma'no tarkibidagi siljishlar bilan ifodalanadi. Ya'ni bu so'zlovchining o'z ona tilidagi o'xshash so'zlarni chet tiliga ko'chirish hodisasi. Leksik ko'chish asosan so'zlarda kuzatiladi. Ma'lumki, so'z semantik birlik bo'lib, har bir so'z o'ziga xos xususiyatga va ma'noga ega. To'g'ri ma'noda ishlatilmagan so'z tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Ko'pincha bu hodisa nutqda leksik xatolarga olib keladi, chunki ba'zi so'zlar fonetik yoki shakl jihatidan bir-biriga o'xshasada ma'no jihatdan farqlanadi. bu esa tarjimada bir qator xatoliklarga sabab bo'ladi. A. D. Shvaytserning fikriga ko'ra, xato - bu " ekvivalentlikning normativ talabidan asossiz ravishda og'ish".¹⁷⁸

Ayniqsa internatsionalizmlarni tarjima qilishning qiyinchiliklari shundan iboratki, tarjimon, ayniqsa yangi boshlovchi ko'pincha "so'zdan to'g'ri foydalanish" kabi tushunchani unutib qo'yadi va so'zning tanish grafik shakli taassurotiga ega bo'lib, tarjimada literalizmga yo'l qo'yadi va ona tili me'yorlarini so'z mosligi jihatidan buzadi. Ayni paytda, ikki tilda, mazmun jihatdan bog'liq bo'lgan so'zlar, ayni kontekstda ishlatilishida bir-biriga to'liq mos kelmaydi yoki hatto umuman mos kelmasligi mumkin.

¹⁷⁷Ibidem; V. V. Alimov, Interference in translation on the material of the professional-oriented cross-cultural communication and translation in the sphere of the professional communication, Moscow, Kom. Kniga Press, 2005.

¹⁷⁸ Швейцер А. Д. Перевод и лингвистика. / Швейцер А. Д. – Москва: Наука, 1988. – 415 с.

Birinchi marta bu hodisa 17-asrda Salgburg olimlarining ishlarida qayd etilgan, ammo bunday tillararo yozishmalarni chinakam tizimli va chuqur o'rganish 1928-yilda M. Kessler va J. Derkonilarning material ustidagi ishlari bilan boshlangan. Aynan ular "faux amis du traducteur" ("tarjimonning soxta do'stlari") atamasini fanga kiritish bilan birga "tarjimonning soxta do'stlari" ning ikki turini aniqladilar: 1) o'xshash imlo va farqli semantikaga ega bo'lgan "butunlay soxta" so'zlar 2) o'xshash imlo va asosan umumiy semantikaga ega "qisman yolg'on" so'zlardir.¹⁷⁹

Tarixiy jihatdan "tarjimonning soxta do'stlari" tillarning korrelyativ ta'siri natijasidir, ular kamdan-kam hollarda tasodifiy hodisalar natijasida paydo bo'lishi mumkin, bir-biriga yaqin tillarda esa tayanch tildagi umumiy namunalarga borib taqaladigan o'zaro bog'liq so'zlarga asoslanadi. Ularning umumiy soni va mumkin bo'lgan manbalarning har birining shakllanishidagi roli har bir o'ziga xos til juftligi uchun har xil bo'lib, tillarning genetik va tarixiy aloqalari bilan belgilanadi.

Har qanday til juftligida "tarjimonning soxta do'stlari" juda ko'p. Masalan, bazan bir inglizcha so'z bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin, ulardan biri boshqa bir so'zning ma'nosiga mos keladi. Bir nechta leksik ma'noga ega so'zlar yoki polisemantik so'zlar tarjimada xatolikka yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan keng tarqalgan variantlaridan biridir. Misol tariqasida Caucasian so'zini olaylik. Ha, bu so'z ba'zan Kavkaz aholisiga nisbatan xizmat qiladi, lekin ko'pincha u butunlay boshqacha ma'noda ishlatiladi va klassik antropologiyada kavkazoid irqi uchun nom sifatida xizmat qiladi. Yoki minister so'zi, ba'zan haqiqatan ham vazir degan ma'noni anglatadi, lekin boshqa hollarda u ruhoniylar ma'nosida keladi.

Shu munosabat bilan, so'zni to'g'ri tanlash uchun kontekstga e'tibor qaratilishi kerak. Ma'noni tanlashda tarjima matnining umumiy fikr mazmuni, uslubi va janridan kelib chiqish kerak.

Tarjima qilishda doimo ehtiyotkorlik talab qilinadi va so'zning shubhali ma'nosini ikki marta tekshirilishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, tarjima faoliyati jarayonida so'zning ma'nosini lug'atda tekshirish har doim ham mumkin emas,

¹⁷⁹ Миньяр А. П. – Белоручева, Миньяр К. В. – Белоручев. Английский язык. Учебник устного перевода. – М., 2005. – 203 с.

shuning uchun "soxta do'stlar" bilan bog'liq umumiy leksik birliklar tarjimonlar bilishi kerak bo'lgan muhim hodisadir. Muvaffaqiyatli xalqaro munosabatlar teng darajada ilg'or til bilimini va yuqori darajadagi madaniyatlararo malakani talab qiladi. Bu o'rinda ikki begona tillilar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi kasb egalari y'ni tarjimonlarning bilim va malakalariga tayanib ish tutiladi. Bugungi kunga kelib, ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatida keng tarqalishi, bir tomondan, bunday aloqalarni osonlashtirishga yordam beradi, ikkinchi tomondan, suhbatdoshlarning milliy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali, bu madaniyatlararo jarayonni yanada ommalashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Ibidem; V. V. Alimov, Interference in translation on the material of the professional-oriented cross-cultural communication and translation in the sphere of the professional communication, Moscow, Kom. Kniga Press, 2005.
2. Швейцер А. Д. Перевод и лингвистика. / Швейцер А. Д. – Москва: Наука, 1988. – 415 с.
3. Миньяр А. П. – Белоручева, Миньяр К. В. – Белоручев. Английский язык. Учебник устного перевода. – М. , 2005. – 203 с.
4. М. V. Dyachkov, Problems of bilingualism (multilingualism), Moscow, Institute of National Problems in the Ministry of Defense of the RF Press, 1992.
5. Канонич С. И. 300 ложных друзей переводчика. Испанско-русский словарь-справочник. -М. : Издательство "Менеджер", 2001. - 112 с.
6. Акуленко В. В. Англо-русский и русско-английский словарь «ложных друзей переводчика». – М. , 1969. – 384 с.
7. Борисова Л. И. «Ложные друзья» переводчика с английского языка. – М. : ВЦП, 1982. – 184 с.
8. Будагов Р. А. «Ложные друзья переводчика». // Человек и его язык. – М. , 1976. – 276 с.
9. Готлиб Н. Проблемы перевода. – 1979.

10. Миньяр А. П. – Белоручева, Миньяр К. В. – Белоручев. Английский язык. Учебник устного перевода. – М. , 2005. – 203 с.
11. Мурвьев В. Л. Фах amis или «ложные друзья переводчика». – М. : Просвещение, 1969. – 48 с.

LINGUISTIC ANALYSIS OF RELIGIOUS TEXTS ISSUES

M.B.Nurmuxammedova

BuxDU, Qiyosiy tilshunoslik lingvistik
tarjimashunoslik mutaxassisligi magistranti

Annotation. The article deals with the issues of establishing a correlation between the nature of the perception of missionary texts by recipients and the emotional and semantic the dominant of these texts, the impact on its perception and evaluation by recipients. are being explored directions of missionary discourse, tasks and strategies of religious influence on recipient.

Key words: missionary direction; preaching discourse; recipient; sermon; metalinguistic function; speech strategy; linguistic study; religious doctrine.

In the recent history of Russia, the former Soviet space came to Various public organizations, bearing various directions Protestant confessions. This is new pluralistic space the emergence of many texts of the missionary direction, which complicated the modern the flow of information for the assimilation of the recipient. It seems important to analyze not only the direct content that they carry, but also the linguistic means of indirect speech influences they use. Research interest is genre classification of missionary texts, their psychological content and implementation of cognitive and emotive structures in them, emotional and semantic dominant.

It is necessary to highlight in various studies [1] the experimental checking the dependence of semantic transformations in the retelling of missionary texts on the personal characteristics of the persons performing the retelling, establishing a correlation between emotional perception recipients missionary texts, potential

impact and the coincidence or mismatch of the dominant texts and personal dominant of the recipients. The high degree of agitational orientation of the preaching style due to the desire to directly and openly influence the audience, the minds of listeners, indeed, it brings it closer to the journalistic style. I would like to note the moment propaganda orientation in the absence of high information content: preaching the word of God, the clergy seek to influence the minds of the listeners and convince them in existence immutable religious truths which guide a person in everyday life” [2]. The preaching look stands out religious discourse, defines it as “a text offered by a preacher on behalf of a certain denomination and containing its teachings, intended to change consciousness and behavior of the listener and implemented through appropriate strategies and tactics that dictate the choice of linguistic means with the necessary meaning” [3]. An excursion into the history of the genre helps to understand the features of its development in different historical stages. As the researchers note, the genre of sermon has been transformed from over time under the influence of the inevitable changes that accompanied the social development. “Instruction and exhortation of the primate to imitate this or that beautiful things - this is the early Christian preaching. She was called homilia (Greek omilia– assembly, community; conversation, teaching). Later, the term homiletics arose - "rules writing sermons; the science of church eloquence”[4]. In medieval preaching, little attention was paid to the technical sides and speeches, rhetorical delights. Church eloquence (lat. ars praedicandi – art sermons) appeared in XIII–XIV centuries in result development secular providing the ability to write letters and business papers. It has acquired features "university" sermon (thematic sermon, built on certain logical laws).

Sermon,

being a free genre, is less obligatory and responsible than worship, gives the preacher some freedom, which is manifested, first of all, in the possibility of choosing both the content and the means of its presentation -compositional and actually verbal. The choice of means is determined by the individual rhetorical skill of the preacher, which means that the study of textual units leads to comprehension of his linguistic personality and preaching discourse in general. Reasons for the restriction of

preaching by the Orthodox and Catholic churches lie in the possibility of distorting the original meaning of the Divine Word - by virtue of spontaneity and unpredictability of the genre. Personal, authorial beginning in the discursive process is extremely strong, and the skillful possession of the word of one or another preacher could captivate parishioners with false interpretations. "Religious norms give prohibitions have a sacred character, more precisely, they give the prohibitions an expression of divine will. In this case, the axiomatic nature of the prohibition is emphasized: to ask a question about the reason religious prohibition means to blaspheme"[5]. Protestantism, on the other hand, developed preaching, perceiving preaching as a means to return to the roots of Christianity. "Having renounced all the sacraments except baptism and communion, it was in the sermon that Protestants sought to see a kind of new sacrament - sacramentum audibile, i. e. an audible sacrament"[6]. Strategies religious discourse determined his goals and genres. To the most important goals of religious communication, clarifying its main goal - to attach man to God, are the following:

- 1) get support from God;
- 2) cleanse the soul;
- 3) to call neighbors to faith and repentance;
- 4) confirm believers in faith and virtue;
- 5) explain the dogma;
- 6) to realize through the ritual their belonging to a particular confession.

Accordingly, the following strategies of religious discourse can be distinguished: prayerful, confessional, calling, affirming, clarifying and ritual[7]. Consider further their essential features. Speech strategy of self-identification in religious discourse, and in sermons in particular, it is aimed at understanding the commonality of fellow believers and their differences from others. Identification understood as process identifying identity, uniqueness, otherness groups believers them segregation from others "alien" groups. In the sermon, "their own" refers to all members of a group of a religious society, opposed to the rest of the society. The speech strategy of explanation is "a sequence of intentions, focused on informing a

person, giving him knowledge and opinions about the world"[8]. In the process of explanation, the metalinguistic function of communication is realized. Under metalanguage is understood as "the language of the "second order", in relation to which the natural human language acts as a "language-object", i. e. as a subject of linguistics research"[9]. The task of communication participants is to check the effectiveness the language code they use. The metalanguage function is interpretation of what one of the participants in the communication intended to convey. Speech the explanatory strategy characterizes the sermon as an enlightening text that informs about events in the past, for example, in the time of Jesus, and analyzing the causes behavior of people in situations described in the Bible. Evaluative speech strategy expresses the social significance of the preacher as a representative of the institution of the church, a mediator between people and God, a mentor, revealing the meaning of religious doctrine. It is realized in the right of the priest evaluate the events, circumstances and characters that are discussed in communication with parishioners, as well as to judge the actions of parishioners themselves. During implementation of the evaluation strategy preaching acts as a key element in the process of confessionalization of religious discourse clients. Like an edifying speech preaching forms the worldview of listeners through religious axiology. The use of the speech strategy of invocation is determined by the purpose of the preaching. The use of the speech strategy of invocation is determined by the purpose of the preaching speech, which consists in calling the listeners to faith and repentance. The preacher not only reveals the meaning of the Holy Scriptures, but also calls to live according to the laws of the Christian faith. Like the evaluative strategy, the speech strategy appeal reflects the essence of preaching as a genre of institutional discourse. Establishing a correlation between the nature of the perception of missionary texts recipients and emotional and semantic dominant, these texts affect its perception and evaluation recipients causing emotional-evaluative attitude recipient to the text, ranging from rejection to active approval [10]. Theoretical provisions of the study by E. A. Sarakaeva allowed the author to come to the following conclusions: 1. Religious texts of the missionary direction are

a special genre of religious literature, which has its own content area, formal organization, peculiar methods of argumentation and a system of figurative means.

2. In the texts of the missionary direction, the basic rules are often violated argumentation; they appeal not only to logic, but primarily to emotional the realm of readers. 3. missionary texts structure religious picture peace their creators. 4. The religious picture of the world inherent in the creators of missionary texts finds expression in the emotional and semantic dominant, isolated from the text by analyzing it linguistic and figurative means. 5. On the basis emotional and semantic dominants missionary texts can be divided into 4 main types - "sad", "beautiful", "bright", "dark", each of which has its own basic plot models and a set of semantic components. 6. Emotional and semantic dominant comes to light in missionary texts, created on the different languages; she is Seems phenomenon universal, not dependent from national accessories, founded on the universal psychological mechanisms. 7. The nature of the recipients' perception of missionary texts is influenced by the emotional-semantic dominant verbalized in them. 8. The nature of the recipients' perception of missionary texts can be identified from their retellings of these texts. 9. At retelling missionary texts going on row semantic transformations, as common to all subjects, reflecting the properties of human memory, text compression, etc., and personally determined. 10. Personally determined semantic transformations in addition to everything other positively correlate with dominant behavioral plan, psychological characteristics of the persons performing the retelling. 11. The greatest emotional response from recipients is received by missionary texts whose dominant coincides with the dominant of the recipient's personal plan. 12. Emotional perception by recipients of religious texts, whose dominant corresponds to the personal dominant of the recipients, positive reviews, which are such texts receive, forced to talk about the greatest suggestive possibilities of such texts in terms of missionary tasks.

With so highlighting not possibly not will agree This displays scientific research work to a new level of study of preaching texts. Main the goal of all missionary texts is similar - to encourage the reader to believe in the proposed set of

religious doctrines. And we focus on the consideration of missionary texts in connection with their functional role, i. e. ability to evoke an emotional response recipient and encourage him to certain predictable reactions. Findings. Linguistic studies of religious texts today, in terms of information society with advanced Internet technologies linking the world in a single global space, require consideration of the religious picture of the world, inherent no longer to individual preachers, but to religious groups as a whole, in due to the increase in religious pressure on society. The creation of such linguistic portraits seems useful, since in the second half of the 20th century the number of totalitarian sects (otherwise called "destructive cults") has expanded, endangering the physical and mental health of adherents[11].

References:

1. Sarakaeva E . BUT. Psycholinguistic analysis missionary texts. Abstract of Cand. , dis. for the Cand. Phil. Sciences. M. , 2000; Zuev M. B. Linguistics intertext in translated American preaching discourse as metaphysical discourse of success, Ph. D. dis. for the Cand. Phil. Sciences. Nalchik, 2009
2. Zakharenkova O. S. Genre features of modern preaching (based on texts Krasnoyarsk and Zheleznogorsk clergy) // Linguistic yearbook of Siberia. Issue. 6 Krasnoyarsk,2008,pp. 169–176.
3. Samoilova A. D. The pronoun as a means of speech impact missionary varieties of preaching discourse // Russian Linguistic Yearbook (Linguistic Yearbook of Siberia). Issue. 1(8). 2006 pp. 148–156.
4. Mechkovskaya N. B. Language and religion. M. : FAIR, 1998 S. 258
5. Karasik V. I. Religious discourse // Language circle: personality, concepts, discourse. Volgograd: Change,2002 477 p. pp. 318–330.
6. Mechkovskaya N. B. Language and religion. M. : FAIR, 1998 S. 352
7. Karasik IN AND. Religious discourse // Language personality: Problems linguoculturology and functional semantics: Sat. scientific works Volgograd: Change,1999S. 5–19.

8. Karasik V. I. Language circle: personality, concepts, discourse. Volgograd: Change, 2002p. 477

9. LES1990S. 297

BADIIY ASARLARDA SHIFOKOR QAHRAMONLAR NUTQIDA UCHRAYDIGAN EVFEMIZMLARNING DENOTATIV VA KONOTATIV MA'NOLARI

S.U.Mustoqova

BuxDU Qiyosiy tilshunoslik va

Lingvistik tarjimashunoslik

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Bugungi zamonaviy, ilm-fan taraqqiy etgan, texnika-texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan innovatsiya va axborot asrida tarjimashunoslik sohasi yuqori ahamiyatga ega sohalardan biriga aylandi. Sababi, tarjimon ijodkorlar yaratgan asarlar, ularning ijod mahsuli bo'lgan maqola va qo'llanmalar tufayli boshqa rivojlangan davlatlarda amalga oshirilayotgan innovatsiya, turli sohalarda yaratilgan ixtiro va so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish imkoniyati yaratildi.

Ushbu tezisda adabiy asarlarda tibbiyot qahramonlari nutqida uchraydigan evfemizmlarning ingliz va o'zbek tillaridagi denotativ va konnotativ ma'nolari tarjimasida haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Ushbu ishning maqsadi tibbiy nutqda evfemizmlarning denotativ va konnotativ ma'nolarini adabiy parchalardan olingan gaplar yordamida o'zbek va ingliz tillariga tarjima qilish orqali o'rganishdir.

Kalit so'zlar: denotativ va konnotativ ma'no, evfemizmlar, tibbiy nutq, shifokor va bemor muloqoti, sog'liqni saqlash, adabiy vosita.

Evfemizm yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "yumshoq ifodalash" degan ma'noni anglatadi. Evfemizm - nutqdagi o'rinsiz, nojo'ya yoki qo'pol so'zlarni yanada mos va maqbul variantga aylantirish demakdir.¹⁸⁰ Odatda ular sog'liqni

¹⁸⁰ www.wikipedia.com

saqlash sohasidagi turli holatlar, kasalliklar, jinsiy yaqinlikka oid so'zlar, o'lim holatlarini ifodalovchi salbiy yoki aytish noqulay bo'lgan masalalarni to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilishdan qochish uchun ishlatiladi. Shuningdek, evfemizmlardan badiiy adabiyotda ham keng foydalaniladi. Bunda muallif noqulay so'z yoki iborani mos keladigan boshqa bir so'z yoki ibora bilan almashtiradi. Evfemizm, denotativ va konnotativ atamaları har doim birga qo'llaniluvchi atamalar hisoblanadi. Shu bilan birga, denotativ ma'no leksik birlik sifatida so'z yoki iboraning asl, real ma'nosini ifodalasa, konnotativ ma'no so'zlarning kontekstdagi ko'chirilgan ma'nosidir. Bunday holatda so'zlar asl ma'nosini yo'qotib, ko'chma ma'noda qo'llanila boshlaydi.

Masalan, “Ra’noni egasiga topshirmagunimizcha, - dedi Nigor oyim, - quyilmaydiganga o’xshaydi”. (A. Qodiriy) jumlasida nutq odobi nuqtai nazaridan “erga bermoq” iborasi o’rnida “egasiga topshirmoq” shaklidagi evfemizm ishlatilgan¹⁸¹.

Tibbiy muloqotda evfemizmlar vaziyatni yumshatishda va ba’zi “yomon” xavfli kasalliklarni izohlashda muhim rol o’ynaydi. Tibbiyotda "muvofiq til" atamasi mavjud bo'lib, u individual bemor va shifokorning tegishli nutqni to'g'ri bayon etishni anglatadi. U og'ir xastalikka chalingan kasal yoki juda keksa bemorlar bilan suhbatlashganda, inson tanasining a'zolari haqida gapirilganda, abort, urug'lantirish, homiladorlik bilan bog'liq nomaqbul so'zlardan qochish maqsadida boshqa so'zlardan foydalanishni bildiradi¹⁸².

Bundan tashqari, Tachevaning so'zlariga ko'ra, to'g'ri va maqbul til salbiy vaziyatlardan qochish, bemorning savollariga oson javob berish, bemorning ayni vaqtdagi ahvolini tushunishini baholash, keyingi muolajalarga rozilik olish, bemorlarni o'z fikrlarini baham ko'rishga undash uchun muhim hisoblanadi.

Ba'zi odamlarning ta'kidlashicha, sog'liqni saqlash sohasida evfemizmlardan foydalanish ko'pincha tavsiya etilmaydi, chunki ular muhokama qilinishi kerak

¹⁸¹ Omonturdiyev A. , O'zbek nutqining evfemik asoslari, T. , 2000.

¹⁸² Haydarova Nodirabegim Axtamjon qizi. (2020). LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK MEDICAL PHRASEOLOGICAL UNITS DESCRIBING PHYSIOLOGICAL PROCESSES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 1(4), 15-17.

bo'lgan aniq masala ma'nosini chalg'itishi mumkin¹⁸³. Bemorni yoqimsiz yangiliklardan himoya qilish uchun shifokorlar ko'pincha evfemizmlardan foydalanadilar. Buning sababi shundaki, yomon xabarning o'zi azob-uqubatlarni kuchaytiradi va bemorning umidini yo'qotishiga sabab bo'ladi.

Tibbiy suhbatda shifokorlar ko'pincha quyidagi evfemizmlardan foydalanadilar,

Quyida ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan tibbiyot xodimlari nutqidagi o'lim holatlarini ifodalovchi evfemizmlarga misollar keltiramiz:

“Passed away” (Olamdan o'tdi), “Passed on” (O'tib qoldi), “Gone to a better place” (Chin dunyoga rixlat qildi), “Is gone” (Foniy dunyoni tark etdi), “Kicked the bucket” (Oyog'ini uzatdi).

Bu evfemizlar bemorning yaqinlariga hamdardlik, muloyimlik maqsadida va to'g'ridan-to'g'ri “u o'ldi” demaslik uchun qo'llaniladi.

Tibbiyotda ayollar salomatligi bilan ham bog'liq bir nechta evfemizmlar mavjud:

“Each month women have a bad week” - (Ayollar har oyda qiyin haftani boshdan kechirishadi). Bu vaziyatda “bad week” - “qiyin hafta” evfemizmi o'zbek tiliga “hayz davri” deb tarjima qilinadi.¹⁸⁴

"Homilador bo'lish" kabi homiladorlikni tasvirlash uchun qo'llaniladigan evfemizmlarning yana bir guruhi quyidagilardir:

“She is in the family way” - "U oilaviy hayot bo'sag'asida" evfemizmi o'zbek tilida quyidagicha talqin qilinadi: “U ona bo'lish arafasida”, “U boshqorong'u”, “Ular tez orada ko'payishadi”.¹⁸⁵ Bu misolda homilador ayolni tasvirlash uchun “in the family way – oilaviy hayot bo'sag'asida” evfemizmi qo'llanilgan. Bundan tashqari, bu yerda "oilaviy hayot bo'sag'asida bo'lish" ayolning axloqiy jihatdan bolalarga g'amxo'rlik qilish va tarbiyalashga tayyorligini anglatadi.

¹⁸⁴ Манакова Мария Сергеевна. (2018) Эвфемизмы в англоязычных и русскоязычных женских и мужских журналах. Екатеринбург. 2018

¹⁸⁵ Cosmopolitan Journal 2016, 134p

“She is in delicate condition” - "U nozik holatda"- "U boshqorong'u", "U endi ko'proq e'tibor va g'amxo'rlikka muhtoj".¹⁸⁶ Bu yerda “nozik holatda bo'lish” evfemizmi “bunday holatdagi ayol alohida e'tibor va g'amxo'rlikka muhtoj”ligini o'quvchilarga tushuntirish uchun qo'llanilgan.

Evfemizmlarning qo'llanilishi psixologik omillarga bog'liq, ammo sog'liqni saqlashda ular axloqiy va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunday holatda bemorlar yoshi va pozitsiyasiga qarab o'ziga xos yuqori ta'sirchanlik ko'rsatadilar. Muvofiq ravishda tanlangan til tashxis va davolashda ijobiy natijalarga erishishga katta hissa qo'shadi. Tibbiy jarayonlarda evfemizmlar mavjud voqelikni, salbiy ma'noni keltirib chiqaradigan tushunchalarni va faktlarni tasvirlashda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Antrushina G. B. English Lexicology/ G. B. Antrushina, O. B. Afanasyeva, N. N. Morozova. – M. : Drofa, 2004. – 288p.
2. Boyko T. V. Evfemiya i disfemiya v gazetnom tekste: avtoref. dis. Boyko T. V. phd. – Sankt – Peterburg, 2005. - 19p.
3. Vildanova G. A. Evfemiya I prinsip vejlivosti v sovremennom angliyskom yazike: genderniy aspekt. - M. : Direkt-media, 2015. - 48p.
4. Shomaqsudov A. , Rasulov I. , Qo'ng'urov R. , Rustamov H. , O'zbek tili stlistikasi, T. , 1983.
5. Qosimova Nafisa Farxadovna, Rabiyeva Mohidil G'ayratovna. DOI:10.48047/IJIEMR/V10/I03/92 Title: Euphemism, political correctness and language change: The case of 'people first' Volume 10, Issue 03, Pages: 384-390. <https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/Special>
6. Haydarova Nodirabegim Axtamjon qizi. (2020). LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK MEDICAL PHRASEOLOGICAL UNITS DESCRIBING PHYSIOLOGICAL PROCESSES. European Journal of Research Development and Sustainability, 1(4), 15-17.

7. Манакова Мария Сергеевна. (2018) Эвфемизмы в англоязычных и русскоязычных женских и мужских журналах. Екатеринбург. 2018
8. Omonturdiyev A. , O'zbek nutqining evfemik asoslari, T. , 2000.
9. www.wikipedia.com
10. www.pubmed.ncbi.nlm.nih.gov

70230502 - Adabiyotshunoslik: rus adabiyoti

ДИАЛОГИЧЕСКИЕ СВЯЗИ И АЛЛЮЗИИ НА РУССКУЮ КЛАССИКУ В ДИСКУРСЕ РОМАНА «РУССКАЯ КРАСАВИЦА» ВИКТОРА ЕРОФЕЕВА

Ф. Э. Тагаева

БухГУ, Магистр

Литературоведение (русский)

Аннотация: В статье рассматриваются диалогические связи и аллюзии на русскую классику в дискурсе романа «Русская красавица» Виктора Ерофеева.

Ключевые слова: Диалог, аллюзия, дискурс, интертекстуальность, постмодернизм, неомифология, реминисценция.

Интертекстуальность в постмодернистском дискурсе обусловлена состоянием диалогичности текста с различными фактами культуры. Роман Виктора Ерофеева «Русская красавица» находится в состоянии диалога с литературным наследием, классической мифологией, а также с неомифологией современной, конца XX века, культуры.

Роман был написан в 1980-1982 годах, напечатан лишь в 1990. Уже само название романа неоднозначно, точнее, многозначно. Исследователь также говорит о провокационном и полилогичном значении заглавия. Автор предусмотрел два варианта названия: русский «Русская красавица», английский «Russian beauty». Некоторые издания совмещают оба варианта: «Russkaja красавица». Это ироническая двойность происходит от

заклученного в названии бинарного смысла: известное мнение о том, что русская красота загадочна, как и русская душа, это категория высшего порядка, иностранцам недоступная и непереводаемая. С другой стороны, главная героиня романа, женщина признанной красоты, победительница конкурса красоты в Париже, публикует в иностранном глянцевоm журнале для взрослых весьма откровенные фотографии, являя миру не просто скрытую физическую красоту женского тела, но собственную страдающую от утраты душу через демонстрацию интимных частей. Мы видим, как автор приводит национальный миф о русской красоте и душе в «вывернутом» состоянии в виде фотографий и одновременно ведет эстетический диалог с мифом массовой культуры, декларирующем стандарты красоты (конкурс красоты).

Надо сказать, что Красота в физическом ее смысле в романе фигурирует постоянно. Главная героиня, чей рассказ от первого лица и составляет повествование, говорит о своей красоте, проявляя нарциссистские наклонности:

«...ваша <...> прелесть гораздо более эффективна, чем многие в этом роде иноземные подделки, <...> мы бы и здесь, в этой области, рассуждая в сугубо патриотическом смысле, могли бы иметь известное преимущество и перевес»¹⁸⁷.

Вообще, диалогичность романа В.Ерофеева уже становилась предметом исследования ученых-литературоведов, так как широкий спектр разных пластов мифологии заслуживает отдельного разговора. Это античный миф (архетип Афродиты), библейский миф (блудницы-праведницы, воскрешения Лазаря), исторический миф (фамилия главной героини Тараканова), национальный миф (таинственная русская красота), современный культурный миф (о торжестве социалистического общества)¹⁸⁸. Нельзя не согласиться с мнением Добренко Е., утверждавшим, что в прозе Ерофеева, в особенности, в романе «Русская красавица» выдвигается провокационная эстетическая и этическая коллизия¹⁸⁹.

¹⁸⁷ Ерофеев В. Русская красавица./https://mir-knig.com/read_260126-2, с.2

¹⁸⁸ Скоропанова И.С. Русская постмодернистская литература/ И.С.Скоропанова – М.,1999. С.238

¹⁸⁹ Добренко Е. Не поддадимся на провокацию/Е.Добренко//Октябрь. – 1990. - №8. С.199

Однако, нас в данном случае интересует диалог с русской литературной традицией. Ерофеев намекает на нее через самовосприятие героини:

«... высоко себя чту и красота моя неподвластна, ибо только та женщина может меня судить, что красивее меня, а мужчины и вовсе судить не имеют права, а только восхищаться, ...»¹⁹⁰

И далее, со свойственной героине уверенностью, заявляет: «красивее себя я не встречала»¹⁹¹.

Автор дает пространный портрет своей героини, отсылая таким образом читателя к известному литературному факту символисткой поэтики начала XX века:

«... хрупкая шея <...>, руки <...> с особой тонкостью запястий»¹⁹²;
зауженные щиколотки, лодыжки, глаза цвета морской волны <...>¹⁹³;
красивые пальцы ног, столь же музыкальные, как и на руках»¹⁹⁴.

Надо отметить явную отсылку к поэзии А.Блока, его воспеванию женской красоты и изящества. Ирина Тараканова, надо полагать, неплохо знакома с творчеством поэта, поскольку сама считала себя «женщиной начитанной с уклоном в поэзию»¹⁹⁵.

Упоминание поэта-символиста А.Блока часто встречается в романе в связи с различными ситуациями. Эти упоминания передают рефлексия героини по поводу самой себя. Ирина рассказывает, что «полюбила Блока... На память выучила его стихи»¹⁹⁶. Автор намеренно занижает пафосное значение блоковской Прекрасной Дамы, вплетая ее образ в житейский контекст:

«Пила исключительно только шампанское, предпочитала брют. <...> Ах, брют! Ты брутален, ты ганкстер, ты – Блок-гамаюн! Ты божествен, брют!»¹⁹⁷

¹⁹⁰ Ерофеев В. Русская красавица/В.Ерофеев – М., 1994. С.84

¹⁹¹ Ерофеев В. Русская красавица/В.Ерофеев – М., 1994. с.84

¹⁹² Ерофеев В. Русская красавица/В.Ерофеев – М., 1994. С.38

¹⁹³ Ерофеев В. Русская красавица/В.Ерофеев – М., 1994. С.63

¹⁹⁴ Ерофеев В. Русская красавица/В.Ерофеев – М., 1994. С.200

¹⁹⁵ Ерофеев В. Русская красавица/В.Ерофеев – М., 1994. С.99

¹⁹⁶ Ерофеев В. Русская красавица/В.Ерофеев – М., 1994. С.91

¹⁹⁷ Ерофеев В. Русская красавица/В.Ерофеев – М., 1994. С.20

Имя Ирина – греческое. В древнегреческой мифологии Иринии – божества мирной благополучной жизни. Ерофеев проводит связь античного мифа с пушкинской традицией. Монолог Ирины во много схож по звучанию с монологом Татьяны Лариной о женском счастье:

«Да, я бы отдала всю эту знаменитость, весь шум и суету на тихий семейный уют под крылышком мужа»¹⁹⁸.

Однако, звучат эти слова со свойственной постмодернизму заниженной смысловой коннотацией: распутная женщина, кичащаяся успехом и властью над мужчинами, пытается убедить в чистоте своих желаний.

На протяжении повествования мы замечаем некоторые трансформации в духовном состоянии Ирины. Поначалу люди, не одаренные внешней красотой, вызывают у нее лишь чувство отвращения. Неслучайно, одна из женщин, описанных в романе, Вероника, некрасивая, химик, работает в лаборатории, ездит на работу на метро, слывет между подругами ведьмой:

«Вероника мне объяснила: не Ксюшина это епархия, Ксюше театр и радость отпущены, а тебе, Ира, - смерть. <...> и остались мы с Вероникой, только с нею дружить нельзя, это из другой жизни, а в метро: баба бабой, с кандидатским дипломом...»¹⁹⁹.

Согласно теории М.М.Бахтина о мифе в художественном произведении, образы мифологии, имеющие сакральное значение, в реализме приобретают художественное выражение, метафорическую форму символа. Однако постмодернизм намеренно занижает эти значения, при помощи иронии и сарказма доводя их до фарсовой формы²⁰⁰. Так, отец Валериан после откровений Ирины проникается ее красотой и завораживающими подробностями личной жизни, объявляет ее мученицей, а все ее похождения – это муки на ее пути к духовному величию. Подчеркивает двусмысленность

¹⁹⁸ Ерофеев В. Русская красавица/В.Ерофеев – М., 1994. С.11

¹⁹⁹ Ерофеев В. Русская красавица/В.Ерофеев – М., 1994. С.13

²⁰⁰ Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. 2-е изд. М.: Худож. Лит.-ра. 1990. 543 с., с.125

ситуации и фраза Ирины, обращенная к Богу после крещения: «...если ты есть».

Еще один значительный реминисцентный аспект связан с образом Жанны д'Арк. Русская красавица Ерофеева отождествляет себя с героиней французской истории в плане жертвенности ради великой цели и связью с высшими силами (и той, и другой «был голос»). Мотив жертвенного подвига реализуется через монолог главной героини:

Nutq jarayonida o'pkadan chiqqan havo nutq apparati orqali bo'linib-bo'linib o'tib ketadi. Bu bo'linish ba'zan bir tovushdan keyin, ba'zan bir necha tovush birikmasidan so'ng yuzaga keladi. O'pkadan chiqayotgan havoning muayyan oraliqda bir zarb bilan o'tib ketishi bo'g'in hosil qiladi.

Bo'g'in bir yoki bir necha tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Bo'g'in asosan unli tovush bilan belgilanadi.

Odatda bo'g'inning boshlanishida tovush past bo'lib, so'ngra kuchayadi, bo'g'in oxiriga borib, yana pasayadi. Bu hol bir necha tovushli bo'g'inlarda aniqroq seziladi. Havoning o'tishida zarbga duch kelgan fonema bo'g'inni yuzaga keltiruvchi nutq tovushi hisoblanadi. Nutq jarayonida fonemalar emas, amala bo'g'inlar bir-birlaridan ajralib turadi. Shu sababli so'zning eng kichik tovush birligi bo'g'in hisoblanadi.²²²

²²² D.A.Nabiyeva, H.R.Zokirov. O'zbek tili fonetikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon – 2016.

Bo'g'inlar unli yoki undosh bilan tugaydi, shunga qarab, ular ikki xil bo'ladi: ochiq bo'g'in yoki yopiq bo'g'in. Masalan, *o-ta, o-na, a-ka, u-ka, mak-tab, meh-natkash*.

Hozirgi o'zbek tilida bo'g'inlar ichki va tashqi xususiyatlariga ko'ra beshta asosiy tipga ajraladi.

1. Bir unlining o'zidagina tuzilgan bo'g'inlar: *o (-ta), o'(-tin)* kabi. Bu tipagi bo'g'in V bilan ifodalanadi.

2. Bir unli va bir undoshdan tuzilgan bo'g'inlar. Bu tipdagi bo'g'inlarning ikki xil ichki turi bor: 1) bo'gin boshida unli, bo'g'in oxirida undosh: *osh, at(-las)* kabi. Bu bo'g'inlar yopiq bo'g'inlar bo'lib, formulasi VC; 2) bo'g'in oxirida unli, bo'g'in boshida undosh: *bo-la, ta-na* kabi. Bular ochiq bo'g'in bo'lib, formulasi CV.

3. Bir unli va ikki undoshdan tuzilgan bo'g'inlar. Bu tip bo'g'inning uch xil ichki turi bor: 1) bo'g'in boshida unli, oxirida ikki undosh: *ost, art* kabi. Bular yopiq bo'g'in bo'lib, formulasi VCC; 2) ikki chetda undosh, o'rtada unli: *bor, par* kabi. Bular ham yopiq bo'g'in bo'lib, formulasi CVC; 3) bo'g'in boshida ikki undosh, oxirida unli: *blo(-kada), dra(-ma)* kabi. Bular ochiq bo'g'in bo'lib, formulasi CCV. Bu tip bo'g'inlar internatsional so'zlardagina uchraydi.

4. Bir unli uch undoshdan tuzilgan bo'g'inlar. Bu tipdagi bo'g'inlar unli bilan emas, undosh bilan boshlanadi va undosh bilan tugaydi, demak, bular yopiq bo'g'inlarni tashkil qiladi. Bunday tipdagi bo'g'inlarning ikki xil turi bor: 1) bo'g'in boshida bir undosh, oxirida ikki undosh, orada bir unli: *tort, barg* kabi. Formulasi CVCC; 2) ikki undosh, keyin unli, oxirida yana undosh: *prob(-lema), plan* kabi. Formulasi CCVC.

5. Bir unli va to'rt undoshdan tuzilgan bo'g'inlar, bunday bo'g'inlar yopiq bo'g'inni tashkil qiladi, ya'ni unli bilan tugamaydi. Bu bo'g'inlar ham o'z ichida to'rt turga bo'linadi: 1) boshda bir, oxirida uch undosh, o'rtada unli: *tekst, punkt* kabi. Formulasi CVCCC; 2) boshda va oxirida ikkitadan undosh, o'rtada bir unli: *sport, kross* kabi. Formulasi CCVCC; 3) boshda uch oxirida bir undosh, orada bir unli: *shprot, skrip(-ka)* kabi. Formulasi CCCVC; 5) chet el kishi nomlarida bo'g'inning VCCCC turi ham uchraydi: *Ernst* kabi.

Ko'rinadiki, hozirgi o'zbek tili bo'g'in turlari o'zga tillardan qabul qilingan so'zlar hisobiga ko'paygan.

Fransuz tilida so'zlarda bo'g'in tuzilmalarining 16 turi mavjud²²³:

1. V – *où, à.*
2. CV – *qui, cha-ri-té.*
3. VC – *art, homme.*
4. CVC – *foule, robe.*
5. VCC – *ombre, tarte.*
6. CVCC – *peuple, double.*
7. VCCC – *arbre, ordre.*
8. CVCCC – *cercle, monstre.*
9. CVCCCC – *dextre.[ks]*
10. CCV – *clé, drap.*
11. CCCV – *scrupule, stra-tégie.*
12. CCVC – *drôle, prime.*
13. CCCVC – *struc-ture.*
14. CCVCC – *triple, propre.*
15. CCCVCC – *strict.*
16. CCVCCC – *spectre, plectre.*

Ajratilgan so'zlardagi turli xil bo'g'inlarning tarqalish xarakteri shundan dalolat beradiki, zamonaviy fransuz tilida bo'g'inning boshlang'ich va yakuniy qismidagi undoshlar sonining kamayish tendensiyasi mavjud. Shuning uchun undosh yuklangan tuzilmalar birdan ortiq bo'g'in bo'lgan so'zlarda ishlatilmaydi.

P.Delattre ma'lumotlariga ko'ra, fransuz tilida CV tuzilmalarining 54,9%, CVC tuzilmalarining atigi 17,1%, CCV uchun 14,2% va VC uchun 1,9% mavjud ekanligini aniqladi²²⁴. Shunday qilib, undoshlardan tashkil topgan tuzilmalar fransuz tilida kamdan-kam uchraydi.

²²³ Andreychikova A.P, Ubaydullayev M, Yusupova N.A “Fransuz tili fonetikasi” O'zbekiston 1992-y.

²²⁴ Pierre Delattre « Les Difficultés phonétiques du français », Middlebury College, Vermont, 1948.

Adabiyotlar

1. Abduazizov A.A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – T.:O'qituvchi, 1992.
2. Andreychikova A.P, Ubaydullayev M, Yusupova N.A “Fransuz tili fonetikasi” O'zbekiston 1992-y.
3. D.A.Nabiyeva, H.R.Zokirov. O'zbek tili fonetikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon – 2016.

O`ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA O`TIMSIZ FE`LLARNING TIPOLOGIK TAHLILI

R.R. Bobokalonov,

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Z. S. Saidova,

Lingvistika (fransuz) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`zbek va fransuz tillarida o`timsiz fe`llar qiyosiy-tipologik o`rganilgan. Ularga doir har ikkala tilda misollar keltirilib izohlab berilgan va o`zbek va fransuz tillarida o`timsiz fe`llarning jadvallar asosida o`xshashlik tomonlari ko`rsatib berilgan.

Kalit so`zlar: fe`l, o`timli fe`l, o`timsiz fe`l, harakat fe`llari, holat fe`llari, vositali to`ldiruvchi, shaxssiz fe`llar.

Til o`rganish hozirgi kunda davr talabi bo`lib kelmoqda. Turli tillarni bilish esa ularni qiyosiy o`rganishni talab qilmoqda. Quyida biz o`zbek va fransuz tillarida o`timsiz fe`llarni qiyosiy-tipologik o`rganishga harakat qildik va misollar, jadvallar bilan to`ldirdik.

Fe`l ish-harakatning bajaruvchisi (subyeksi) bilan bajariluvchisi (obyekti) o`rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Ish-harakatning obyektga bo`lgan munosabatiga qarab fe`llar ikki guruhga bo`linadi. 1. O`timli fe`llar. 2. O`timsiz fe`llar.

O`timli-o`timsizlik avvalo biror grammatik ko`rsatkich olmagan fe`l

leksemaning o'zidan anglashiladi, harakat bilan ushbu harakat qaratiladigan predmet – vositasiz to'ldiruvchi orasidagi munosabat asosida belgilanadi. O'timli yoki o'timsiz bo'lish fe'l anglatadigan leksik ma'noga bog'liq.

Masalan, *tashla*- leksemasi nimanidir bir joydan boshqa bir joyga kuch bilan yo'naltir-ma'nosini anglatadi. Ushbu ma'no ta'rifi tarkibidagi nimanidir semasi bu fe'l leksema o'timli ekanini ko'rsatadi. *Yot*- leksemasi ma'lum bir sathni yotiq holatda egalla- ma'nosini anglatadi. Ushbu ma'no ta'rifi tarkibida harakat qaratiladigan predmet (vositasiz to'ldiruvchi) mavjudligini ko'rsatadigan sema yo'q, shunga ko'ra bu leksema o'timsiz deyiladi.²²⁵

Ikkala tilda ham harakatni (venir-kelmoq, aller-bormoq, arriver-yetib kelmoq, tomber-yiqilmoq.), holatni (naitre-tug' ilmoq, mourir-o'lmoq, s'amuser-quvnamoq, se coucher-uxlamoq) anglatadigan fe'llar va shaxssiz fe'llar o'timsiz fe'llar (verbes intransitifs) hisoblanadi. Masalan fransuz tilida buni quyidagicha ifodalash mumkin:

-Demain, des l'aube, je *partirai*. Vois-tu, je sais que tu *m'attends*. Je penserai à toi toute la journee. (Victor Hugo).

Victor Gyugoning she'ridan olingan parchadagi *partir* ya'ni jo'nab ketmoq fe'li o'timsiz fe'l bo'lib kelyapti.

-Do'konga chiqqan edilar. Iftorga kelurlar. (P.Qodirov "Yulduzli tunlar") "Yulduzli tunlar" romanidan olingan parchamizda *chiqmoq* va *kelmoq* fe'llari o'timsiz fe'l bo'lib kelyapti.

Il pleut-yomg'ir yog'yapti gapimizda *pleuvoir* – *yomg'ir yog'moq* fe'li o'timsiz bo'lib kelyapti.

Fransuz tilida ba'zi harakat fe'llari o'tgan tugallangan zamonda (passé composé) *être* yordamchi fe'li bilan tuslanadi va gapda o'timsiz fe'l bo'lib keladi.

Masalan : *Sortir (vi) de la classe*. Sinfдан chiqmoq.

Je suis *sortie de la classe*- men sinfdan chiqdim.

Descendre (vi) du tram. Tramvaydan tushmoq.

Je suis *descendue du tram*- men tramvaydan tushdim.

²²⁵ Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiyo'zbek tili (darslik) Toshkent: "Universitet" 2006y-159b.

O'zbek tilida o'tgan tugallangan zamonda yordamchi fe'llar yetakchi fe'l bilan asosan *-(i)b* yoki *-a, -i* ravishdosh yasovchilar yordamida birikadi va gapda o'timsiz fe'l bo'lib keladi. Bunga quyidagilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.²²⁶

Borib keldi, kelib tushdi, ketib qoldi.

Ma'lumki, o'timli-o'timsizlik turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida lug'aviy xarakterga ega. Tadqiqotchilar uning dastlab sintaktik tabiatga ega bo'lganini, keying davrda lug'aviy xususiyat kasb etganligini ta'kidlashadi.

Olimlar o'timsiz fe'llarni ma'naviy sintaktik xossasiga ko'ra ikki guruga bo'lishadi : faol va nafaol o'timsiz fe'llar.

O'timsiz faol fe'l bajaruvchi tomonidan his qiluvchi harakat, shuningdek, ruhiy holat fe'li hisoblanadi. U, asosan, ikki kengaytiruvchili bo'lib *kishna, gujurla, yugur, yo'rg'ala* kabi.

[Bajaruvchi +Fe'l]

Fransuz tilida :

[S+V]

Pierre dort.

va *yot, tur, ket, qoch, yasha, ranji, kul, yig'la, ishon, sig'in.* [Bajaruvchi + F'l + Ochiqish/jo'nalish/o'rin-payt kelishigi] qolipida voqelanadi.²²⁷

Fransuz tilida : *vivre, habiter, pleurer, sourire, croire, fuir, s'en aller.*

O'timsiz nafaol fe'l biror tashqi kuch ta'sirisiz bajaruvchida yuz beruvchi va unda qandaydir o'zgarish hosil qilish harakatini ifodalovchi fe'l bo'lib *quri, ivi, qizar, oz, qayna,* [Бажарувчи + Феъл] qolipida voqelanadi. Bu, fe'l asosan bir kengaytiruvchi.

Fransuz tilida: *la terre tourne.* [S+V]

Ko'rinib turibdiki o'zbek va fransuz tillarida o'timsiz fe'llarning o'xshashlik tomonlari juda ko'p. Buni quyidagi jadvallarda ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilida o'timsiz fe'llar ro'yxati			
jiringlamoq	boshlamoq	charchamoq	Kelmoq

²²⁶ M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent: "Iqtisod - Moliya" – 2007 yil. 143-b.

²²⁷ Zamonaviy o'zbek tili. I jild. Morfologiya. (Mualliflar jamoasi). -T.:MUMTOZ SO'Z, 2008. 293-bet.

O`xshatmoq	bormoq	yugurmoq	Zavqlanmoq
jilmaymoq	Yig`lamoq	Sirg`anmoq	qolmoq
yuzlanmoq	kulmoq	yashamoq	qizarmoq
quvonmoq	uxlamoq	Tug`ilmoq	Mavjud bo`lmoq
joylashmoq	turmoq	O`lmoq	yiqilmoq

Fransuz tilida o`tsiz fe`llar ro`yxati			
aboyer	commencer	exagérer	pleurer
abréger	compter	exister	rentrer
agir	conduire	festoyer	rester
agrandir	courir	fondre	retentir
aller	crever	gagner	retourner
apparaître	crier	guérir	revenir
arriver	croître	jouer	ruisseler
avancer	demeurer	marcher	rougir

Biz o`zbek va fransuz tilida o`tsiz fe`llarni o`rganish jarayonida har ikkala tilda o`tsiz fe`llarning farqli tomoniga nisbatan o`xshashlik tomonlarini ko`p uchratdik. Buni maqolada keltirilgan misollar va jadvallardan ko`rishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Zamonaviy o`zbek tili. I jild. Morfologiya. (Mualliflar jamoasi). - T.:MUMTOZ SO`Z, 2008 yil.
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili (darslik) Toshkent: "Universitet" 2006 yil.
3. Victor Hugo. "Les contemplations"- Paris. 1856 yil.
4. P.Qodirov "Yulduzli tunlar" - "Yangi ast avlodi" nashriyoti .2015 yil.

5. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G`ulomova, Sh. Yo`ldosheva. Ona tili. Toshkent: "Iqtisod - Moliya" – 2007 yil.

O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI

O.I. Adizova,

Filologiya fanlar nomzodi, dotsent

Z.K. Berdiyeva,

Lingvistika (fransuz) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklarning o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z yuritilgan. O‘zbek va fransuz tillaridagi somatik frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili bir qancha misollar yordamida yoritilgan. Nazariy ma’lumotlarga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: ibora, frazeologizm, frazeologiya, somatizm, frazeologik birlik, frazeologik birlashma va frazeologik chatishma.

O‘zbek va fransuz tillarida frazeologizm keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. U har doim jahon tilshunoslarining e’tibor markazidadir. Frazeologiya nazariyasiga dastlab Fransuz tilshunosi Sh.Balli asos soldi. Keyinchalik Ferdinand de Sossyur o'z davrida frazeologizmlarni tildagi birliklar sifatida ta'kidlagan edi.

Shu o‘rinda Amerikalik tilshunos olim Uolles L.Cheys frazeologik birliklar haqidagi quyidagi so‘zlarini yodga olish joizdir: "... til taraqqiyotining ma’lum bosqichi yuzaga kelgan o‘zgarishlar yangi ma’nolarni yaratadi, ularni ifodalashda alohida qoliplar shart bo’lmay, balki biror eski, ya’ni tilda avvaldan mavjud bo‘lgan materiallardan foydalaniladi”.

Frazeologiya sohasida rus tilshunoslarining ham o‘rni kattadir. A.Peshkovskiy, V.Vinogradov, B.Larin, N.Shanskiy, A.Smirnitskiy, A.Kunin,

V.Jukov, I.Arangeliskiy, A.I.Molotkov, Usmonova SH.R kabilar frazeologizmlar haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.²²⁸

Turkiyshunoslar S.K.Kesenbayev, F.R.Ahmedjanova, R.E.Jaykasaova, R.M.Tayeveva, G.A.Bayramova, Ch.G.Sayfullin, S.Navro'zboyeva va S.I.Muratov kabilar tomonidan frazeologizmlar haqida ma'lumot berilgan va tahlil qilingan.

O'zbek tilshunoslari Sh.Raxmatullayev, B.Yo'ldoshev, Y.D.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainovlar nomzodlik dissertatsiyalarida o'zbek frazeologiyalarining tahlil qilinganini ko'rishimiz mumkin.²²⁹

“Frazeologiya” yunoncha so'zdan olingan bo'lib, “phrasis” - ibora, ifoda va “logiya” - o'rganaman degan ma'nolarni anglatadi. Ibora ikki va undan ortiq so'zdan tashkil

topgan lug'aviy birlik bo'lib, so'z kabi lug'aviy ma'no anglatadi. So'z kabi yaxlit bir ma'noni anglatadigan til birligi frazeologik birlik deyiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'zbek va fransuz tillaridagi somatik frazeologizmlar va ularning qiyosiy tahlilini ko'rib chiqishdir.

Somatizm grekcha so'zdan olingan bo'lib, “soma” – “tana” ma'nosini anglatadi. Frazeologik birliklarning insoniyat va uning hayotiy faoliyati va inson tana a'zolari bilan uzviy bog'liq va bunday tematik guruhlariga birikkan frazeologizmlar somatik frazeologiyalar deyiladi. Jahondagi ko'pchilik tillar frazeologiyasining asosiy qismini somatik frazeologizmlar tashkil etadi.

Oxirgi yillarda somatik frazeologizmlar turli xil tillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning bosh mavzusi bo'lib kelmoqda. Somatik frazeologizmlarda har bir xalqning turmush tarzi, tajribasi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlar va an'analari o'z aksini topadi.²³⁰

Somatizmlar qatnashgan iboralarni o'rganishda qiyosiy tahlil usuli rivoj topgan bo'lib, bu yo'nalishdagi ishlar soni salmoqlidir.

²²⁸ Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар..ф.ф. н. дисс. - Тошкент, 1998. 136 б.с

²²⁹ Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологизмларнинг изоҳли луғати. Тошкент: Университет, 1978. — 406 б.

²³⁰ Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка Дисс, , канд фил наук -Т ., 1976. 146 с

Rus va fransuz tillaridagi somatizmlar ishtirok etgan iboralarni qiyosiy tahlil qilgan I.B.Gorodeskaya “bosh”, “ko‘z”, “oyoq”, “yurak”, “qo‘l” somatizmlari ishtirok etgan iboralarni organish davomida “qo‘l” somatizmi qatnashgan iboralar har ikki tilda eng keng tarqalgan iboralar ekanligini qayd etgan.

Lenka Chiklova rus va chex tilidagi “qo‘l” somatizmi ishtirok etgan iboralarni qiyosiy tahlil qiladi. Muallif “qo‘l” somatizmi ishtirok etgan iboralarni 4 guruhga ajratadi:

- 1) ikki tilda ham mavjud ma'no jihatidan sinonim “qo‘l” somatizmi qatnashgan iboralar;
- 2) faqat bir tilda “qo‘l” somatizmi qatnashgan ibora ikkinchi tilda boshqa somatizm ishtirok etgan ibora bilan ma'nodosh;
- 3) bir tilda “qo‘l” somatizmi qatnashgan ibora ikkinchi tilda boshqa usulda ifodalanishi;
- 4) bir tilda “qo‘l” somatizmi qatnashgan iboraning ikkinchi tilda yo'qligi.

T.S.Spirina maqolasida ingliz, rus va nemis tilidagi somatik frazeologizmlarni tahlil qilgan va “qo‘l” leksemasiga alohida to'xtalib o'tilgan .

O'zbek va fransuz tillarida ham somatik frazeologizmlar haqida ko'plab ilmiy ishlar, maqolalar bor. O'zbek va fransuz tillarida tana a'zolari bilan bog'liq somatik frazeologizmlar muhim o'rin tutadi. Quyida somatik taqqoslash uchun bir nechta somatik iboralarni misol tariqasida ko'rishimiz mumkin:

Avoir des fourmis dans les jambes- ko'p o'tirish natijasida oyoqlarning “uxlab qolishi”

En avoir par-dessus la tête – biror narsadan charchamoq, kasal bo'lmoq, joniga tegmoq

Dévoré des yeux- nimadandir ko'z uzolmaslik, ko'zi bilan yeb qo'ymoq

Faire les gros yeux - ta'na qilmoq, jahli chiqmoq

Jeter un oeil/Jeter un coup d'oeil – ko'z yugurtirmoq, tezgina qarab chiqmoq.

Les murs ont des oreilles – devorning ham qulog'i bor (hech kim eshitmasin, ma'nosida)

Se creuser la tête – juda ko'p(chuqur) o'ylamoq

Se mordre la langue – tilini tishlamoq, gapirishdan o'zini tiymoq

S'en laver les mains – mas'uliyatni bo'yniga olmaslik, biror ishdan qo'lini yuvmoq

Tordre le bras – biror ishni qilishni istamasada majburiy bajarish

Angionimik - inson organizmining qon aylanish sistemasi bilan bog'liq so'zlar bilan ifodalanuvchi frazeologik birliklar.

Garder son sang-froid – sovuqqon bo'lmoq, tinchlik saqlamoq

Se faire du mauvais sang - tashvishlanmoq

Splanchnonimik - inson organizmning ichki organlari bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar.

Avoir le coeur gros - xafa bo'lmoq

Avoir le coeur dur/avoir un coeur de pierre – toshyurak bo'lmoq

En avoir le coeur net – ishonch hosil qilmoq

Sensonimik - inson organizmining sezish a'zolari bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar.

avoir l'oreille dure - yaxshi eshitmaslik, qulog'i kar

Fransuz va o'zbek tillarida somatik frazeologizmlar muhim ahamiyatga ega. Bu tillar turli tizimga mansub bo'lsada, ularda tana a'zolarini nomlovchi leksik birliklar semantik jihatdan muqobil keladi. Jahon va o'zbek tilshunoslar somatik frazeologiyalar haqida fikr yuritgan va bular ustida ilmiy ishlar olib borgan. Somatik frazeologiklar yordamida har bir xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va insonning ruhiy va jismoniy holatlarini namoyon qilish mumkin. Somatik frazeologizmlarni ifodalashda “bosh”, “qo'l”, “ko'z”, “oyoq” leksemalari alohida o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. Усмонова Ш.П. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар..ф.ф. н. дисс. - Тошкент, 1998. 136 б.

2. Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологизмларнинг изоҳли луғати. Тошкент: Университет, 1978. — 406 б.

3.Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка Дисс, , канд
фил наук -Т ., 1976. 146 с

III-SHO‘BA

IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR

5A111701 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

Y.M.G’aybulloyeva,

BuxDU Pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalari ta’limning universal vositasi hisoblanib, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkonini berishi, bundan tashqari, ularning shaxsiy xususiyatlarini, bilishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi to‘grisida bayon qilingan. AKT o‘quvchilarning nazariy, ijodiy tafakkuri rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada o‘quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o‘quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o‘zlashtirilishiga yordam berishi pedagogik va psixologik tadqiqotlarda namoyon bo‘lishi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, kompyuter, axborot muhiti, ko‘rgazmali-mashq, animatsiya, taqdimot.

Yurtimizda ta’lim tizimida maktab fanlarini o‘qitishda AKT dan samarali foydalanish dolzarb hisoblanib kelinmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishdan asosiy maqsad — aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo‘lgan o‘quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo‘lishidir.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim — ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi.²³¹ O'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qarab kelingan. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. O'quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta'lim jarayoniga Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lamiz.

O'quv jarayonida uni muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi; o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi.[1]

AKTdan foydalanilganda ta'limda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ladi²³². Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi, masalan ona tili va rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar. Bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan

²³¹ <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5386.htm>

²³² Alikulova, Muxayyo Sherovna SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM BOLA IMKONIYATLARI POYDEVORIDIR // ORIENSS. 2021. №9. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shaxsga-yo-naltirilgan-ta-lim-bola-imkoniyatlari-poydevoridir> (дата обращения: 10.05.2022).

grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.[2]

1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovozli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Matematika darslarida boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallardan foydalanish mumkin. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi.

Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat. Boshlang'ich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo'llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinkalardan foydalanish mumkin.[3]

Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKTdan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3-sinfgacha matematika, badiiy o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterning o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'diradi. Bular:

antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o'quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini topishga, sinonimlarni to'g'ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga o'rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag'ishlangan testlardan foydalanish o'quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta'sir etadi.

Asosiysi: test topshiriqlarini bajarishda o'quvchining ko'zi, miyasi va qo'llari ishtirok etadi, o'yin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni rivojlantirishga va demak, ta'lim jarayoni jadalligi kerakli darajasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Testlardan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, o'quvchilar dars materiallarni mustaqil o'rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar. Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish juda samarali shakl hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi — axborotlilik, ko'rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin.[4]

Shunday qilib, dars jarayonida AKTdan oqilona foydalanish boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini modernizatsiyalash, samaradorligini oshirish bilan birga, har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olib, uni tabaqalashtirishga imkon beradi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi; o'quv jarayonida olgan bilimlarini birlashtiradi va o'quvchilarni aniq hayotiy muhim masalalarni hal qilishda ishtirok ettiradi, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilar va o'quvchilar munosabati uslublarini demokratlashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Ziyomuhamedov B. Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.-T.; Ibn Sino, 2001.
2. Yo'ldoshev J. G' Usmonov S Ta'lim menejmenti. T. 2016.
3. Yo'ldoshev tahriri ostida Zamonaviy dars T. 2017.
4. Mavlayanova R. A. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya T.-2019.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING INNOVATSION TA'LIM JARAYONIDA KASBIY MAHORATI

N.T.Tosheva,

p.f.f.d., (PhD), dotsent

A.M. Ibodullayeva,

BuxDU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashda ularning innovatsion ta'lim jarayonida kasbiy mahorati va pedagogik faoliyatini mazmunli va sifatli tashkil etish, o'quvchilarning bilimini oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatishning zaruriy jihatlari yoritilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirishning zaruriy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kompetensiya, o'quvchi bilimi, zamonaviy texnologiya, intellekt, adekvat.

Mamlakatimiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, bu xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi oldiga ham muayyan vazifalar qo'yadi. Mazkur vazifalar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi.[1] O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohaslarida aks etadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar,

zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish zamonaviy ta'limni innovatsion jarayonlarga yo'naltirish va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion o'quv jarayonini amalga oshirishga doir nazariy va uslubiy tayyorgarligi, boshlang'ich sinf o'qituvchisini uzluksiz kasbiy rivojlantirish zarurati va mavjud holatda bu jarayonga ilmiy-metodik yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmaganligi o'qitishning an'anaviy bilimga asoslangan yondashuvi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishda kompetentlikka asoslangan, faol va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni talab qiladigan ta'limdagi zamonaviy innovatsion tendensiyalar o'rtasida o'qituvchilarning innovatsion metodik tayyorgarligi sifatini oshirish zaruriyati va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.[2]

Hozirgi kunda maktab o'qituvchilarining axborot texnologiyalari bo'yicha ham malakasini oshirish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Har bir pedagog o'z kasbiy faoliyatida kompyuter imkoniyatlaridan erkin va faol foydalanishni, dars jarayonida tatbiq qilishini nazarda tutadi. Pedagoglarning axborot texnologik tayyorgarligi bir necha komponentlarni o'z ichiga oladi. Ulardan biri axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish asoslari va ularni kasbiy faoliyatda qo'llash metodikasini egallash hisoblanadi.

Jamiyatimiz hayotida yuz bergan ijobiy o'zgarishlar ta'limning maqsadi, mazmuni va vazifalarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Buning natijasida o'quvchi dars jarayonida faol ishtirokchiga aylandi, uning fikrlash doirasi kengaydi, undan ijodkorlik, tashabbuskorlik talab etila boshlandi. Dars jarayonida o'qituvchi emas, o'quvchi faol bo'lishi, savol topshiriqlar va bahs-munozaralarda ko'proq ishtirok etib, bilimni oshirishi fanlararo uzviylik ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyasida muhim rol o'yiaydi. Darslarda mustaqil mutolaa, malaka va ko'nikmalar hosil qilish, o'quvchining zehni o'stirish, atrof olamga nisbatan mehr

va e'tiborni, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda zamonaviy dars o'tish usullaridan foydalanishda o'qituvchining faolligi zamon talablaridan biridir.

Shunday ekan, har bir o'qituvchi avvalambor yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lsagina, biz yosh avlod ta'lim va tarbiyasini a'lo darajaga yetkazishga erishamiz.

Jamiyatning ehtiyojlari, fan va amaliyotning rivojlanishi, inson shaxsini rivojlantirishga tobora ortib borayotgan talablar, o'zgaruvchan ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarga tez va adekvat javob berish qobiliyati, o'z faoliyatini qayta qurishga

tayyorligi va yangi, yanada murakkab muammolarni mohirona hal qilishga tayyorligi bilan belgilanadi. O'z-o'zini rivojlantirishning ma'nosi bilim faoliyati qoniqishida, o'qituvchining ortib borayotgan ehtiyojida, uzluksiz ta'lim orqali o'zini o'zi anglashda namoyon bo'ladi.

Innovatsion ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini uzluksiz oshirish o'quvchilarning mustaqilligi va faolligini pedagogik qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama rag'batlantirish, o'quv jarayonining barcha jabhalarida ularning ishchanligini ta'minlash imkonini beradi.[3] Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini uzluksiz oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: nazariy bilish metodlarini jalb qilish, jarayonlarni imitatsion o'yinlar asosida modellashtirish, amaliy tajribalar va metodikalarni izchil o'zlashtirish.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni <https://lex.uz/pdfs/5841063>

2.O'roqov Sh. Pedagogikani o'qitishda fanlararo aloqadorlik muammolari// Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy uslubiy muammolari. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari (27-28 may). -Samarqand: SamDU, 2010. –B.50-52

3.O'roqov Sh. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassisni innovatsion tayyorlashning didaktik xususiyatlari// Ta'limda innovatsiyalar: strategiya, nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy maqolalar to'plami. – Samarqand: 2018. I qism. – B.48-52.

**5A111801 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim)**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OILADA SOG'LOM
TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

S.F.Mehmonova,

*BuxDU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish omillari va usullari haqida bo'lib, sog'lom turmush tarzining sport va jismoniy faoliyat yo'nalishlariga bolalarni qanday qilib jalb qilish hamda ularda jismoniy tarbiya bilan doimiy shug'ullanib borish ko'nikmalarini shakllantirish usullari bayon qilingan .

Kalit so'zlar: oila, sport, jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzi, ovqatlanish, kun tartibi, ertalabki badantarbiya, musiqa

Har jabhada rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi yoshlar qo'lidadir. Shu sababli ham yurtimizda yosh avlodni har tomonlama sog'lom, barkamol, aqli teran, yetuk farzand qilib tarbiyalash uchun maqsadli ishlar olib borilmoqda. Xalqimiz sog' tanda- sog'lom aql deya bejizga aytmagan, aqlli, bilimli yurt koriga yaraydigan yoshlarimiz avvalo jismonan sog'lom bo'lmoqligi lozim. Ayniqsa hozirgi pandimiya COVID-19 va boshqa shu kabi virusli kasalliklar avj olgan zamonda bu davr talabiga aylangan. Insonlar salomatligini mustahkamlash borasida keyingi bir necha yilda ko'pgina chora tadbirlar yo'lga

quyilib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishni tizimli yo'lga qo'yish, jamiyatda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni zararli odatlardan asrash hamda har bir mahalla, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari va boshqalarda jismoniy tarbiya va sport faoliyatini samarali tashkil etish tizimini shakllantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-sonli "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida"²³³ qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"²³⁴ 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-farmoni ijrosi yuzasidan yurtimizda ko'pgina ustuvor vazifalar amalga oshirildi. Prezidentimizning yuqoridagi farmoni ijrosi doirasida aholini kunlik yurish va yugurishga targ'ib qilish maqsadida "Sog'lom turmush tarzi" platformasi tashkil qilindi. Bu mobil ilovani har bir fuqaro o'z shaxsiy qo'l telefoniga yuklab olinadi va bu orqali aholining kunlik yurish va yugurishi hisoblab boriladi hamda pul mablag'i bilan rag'batlantiriladi. Shu va shunga o'xshash dasturlarning maqsadi aholi salomatligini mustahkamlashdir.

Aholi orasida bunday sog'lomlashtiruvchi dasturlar, amallar targ'ib qilinayotgan bir paytda maktabgacha ta'lim muassasalarida ham bolalar salomatligini mustahkamlashga doir keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilishi, talablar qo'yilishi tabiiy hol albatta. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni sog'lom ovqatlantirish, sayr, rejali kun tartibi bilan birga jismoniy faoliyat orqali ham ular salomatligi mustahkamlanadi hamda ularda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllanib boradi. Jismoniy faoliyat o'sib borayotgan organizmning barcha a'zolari sog'lom o'sishini ta'minlaydi hamda bolani aqliy va jismoniy mehnatga tayyorlaydi. Shu sababli ham bolalar maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga jalb qilinadi.

²³³ Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-sonli "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida" qarori

²³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"²³⁴ 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-farmoni

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.02.2019- yil 78-sonli “Davlat ta’lim muassalarining sport inshootlarida pullik xizmat ko’rsatuvchi sport to’garaklarini tashkil etish chora tadbirlari to’g’risida” gi²³⁵ qarori ijrosi doirasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham sport va gimnastika to’garaklari tashkil qilinib, bolalar jalb qilinmoqda. Bunday to’garaklar bolalar qiziqishlarini oshirib, sog’lom qilish bilan birgalikda ularni chiniqishga, tezkorlik hamda chaqqonlikka ham undaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasida jismoniy tarbiya mashg’ulotlari yosh xususiyatlariga mos holda tashkil qilinadi. Kichik va o’rta guruh bolalariga 10-15 daqiqa oralig’ida, katta va tayyorlov guruhi bolalariga esa 20-25 daqiqadan mashg’ulotlar tashkil qilinadi.²³⁶ Jismoniy tarbiya mashg’ulotlarni qiziqarli hamda bolalar zerikishining oldini olish maqsadida jismoniy tarbiya yo’riqchilari bolalarni guruhlarga taqsimlab musobaqa tarzida yoki o’yin ko’rinishida tashkil qilishlari maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunda bolalar qiziqishi yanada ortib uyda ham buni davom ettiradilar. Jismoniy tarbiya mashqlarini bolalarga o’rgatishning yana bir samarali usuli bu musiqa sadolari orqali mashqlarni bajarishdir. Bu bilan bolalar quvnoq musiqa so’zlarini xirgoya qila turib, o’sha musiqa so’zlarida qanday harakat qilgan bo’lsa shu orqali o’sha harakatni o’zi bilmagan holda takrorlaydi. Va shu orqali sport bola turmush tarziga kirib borib, uyda ham shuni bajarishga o’rganib qoladi. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolalar ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya mashg’ulotlari, sport to’garaklarida jismoniy faoliyat bilan albatta shug’ullanadilar, ammo uydachi? Uyda qanday qilib jismoniy faoliyatni yo’lga qo’yish mumkin?

Uyda ham bola jismoniy faoliyat bilan shug’ullanishi, chiniqib borishi uchun tarbiyachi va ota-ona hamkorligi talab etiladi. Tarbiyachilar ota- onalar majlislarida, yakka suhbatlarda, ertalabki qabul suhbatlarida jismoniy faoliyat muhitini uyda ham tashkil qilish va buning bola salomatligidagi ahamiyatini tushuntirib bersa maqsadga muvofiq bo’lardir. Bundan tashqari jismoniy tarbiya yo’riqchilari hamda tarbiyachilar bolalar o’rtasida “Kim chaqqon”, “Quvnoq startlar” kabi musobaqalar

²³⁵ O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.02.2019yil 78-sonli “Davlat ta’lim muassalarining sport inshootlarida pullik xizmat ko’rsatuvchi sport to’garaklarini tashkil etish chora tadbirlari to’g’risida” gi qarori

²³⁶ Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari. Toshkent-2018

tashkil qilib, ota-onalarni ham musobaqaga jalb qilish va bolasi bilan birgalikda musobaqada ishtirok etish orqali ularda sportning kundalik hayotimizdagi o'рни beqiyos ekanligi haqida tushunchalar shakllantiriladi.

Oilada bola kattalardan o'rnak olib tarbiyalanadi, shu sababli ham uyda ota-onalar sog'lom turmush qoidalariga amal qilsalar bu oilada tarbiyalanayotgan bola ham shu muhitda voyaga yetadi. To'g'ri hamma oilada ham ota-onalar ertalabki badantarbiya, sport, yugurish bilan shug'ullanmaydi, lekin bolasi salomatligi uchun ota-onalar uyda bolalari uchun jismoniy faoliyat muhitini tashkil qilmoqliklari lozim. Bu esa ota-onadan vaqt, e'tibor talab qiladi. Ota-onalarimiz 15-20 daqiqa vaqt ajratib, ertalabki badantarbiya mashqlarini birga bajarishlari kerak. Agar bolalar ertalab uyqusirab badantarbiyadan bosh tortsa, ularni quvnoq musiqalar orqali raqsga jalb qilish ham bola organizmi uchun juda foydalidir. Jismoniy faoliyat, jismoniy harakat bilan shug'ullangan bolaning immun tizimi mustahkam, mushaklari baquvvat, qomati tekis, ichki organlari sog'lom bo'lib voyaga yetadi. Shu sababli ham maktabgacha ta'lim yoshidagi har bir bola nafaqat maktabgacha ta'lim muasasasida balki uyda ham muntazam sport bilan shug'ullanishi kerak. Bunga esa ota-ona, tarbiyachi-pedagoglar, jismoniy tarbiya yo'riqchilari ham mas'uldirlar.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, bolalarimiz salomatligi davlatimiz tomonidan muhofazalangan hamda bolalar salomatligini mustahkamlash uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biz ota-onalar ham bolalarimiz salomatligiga doim e'tiborda bo'lishimiz va sog'lom voyaga yetishilari uchun qo'limizdan kelgancha harakat qilishimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent-2018.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-sonli "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'rida" gi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.02.2019-yil 78-sonli "Davlat ta'lim muassalarining sport inshootlarida pullik xizmat ko'rsatuvchi sport to'garaklarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-farmoni.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA SENSOR TARBIYA VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Z.B.Jalilov,

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

D.S.Toyirova,

BuxDU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirishda sensor tarbiyaning ahamiyati va o'rni, markazlardagi mashg'ulotlar, ayniqsa, "Til va nutq markazi" da bolalar nutqini sensor tarbiya vositasida rivojlantirish usullari va ularning mazmuni haqidagi tushunchalar batafsil o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar. Sensor tarbiya, nutq o'stirish, shakl, xususiyat, maktabgacha tarbiya, buyumlar, qo'l motorikasi, tevarak, atrof-olam, fazoviy joylashuv, tasavvuri, tovush madaniyati, amaliy mashqlar.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish,

intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi.

Olib borilayotgan bu islohotlarning tub mohiyati - har tomonlama yetuk barkamol mustaqil fikrlashga qodir,irodali,fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga qaratilgandir. Bugungi kunga kelib,"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablari asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy yetuk va jahon andozalari talablariga javob bera oladigan, mustaqil, bilim olish, o'rganish va ijodiy ishlash qobiliyatiga ega ,kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qiladigan yuksak ma'naviyatli shaxs qilib tayyorlash ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir.Bu vazifalar albatta pedagoglar,tarbiyachilar,murabbiylar va ota-onalar oldiga yuksak mas'uliyatni qo'yadi.

Davlatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bugungi kunda olib borayotgan barcha yangi islohotlari, xalqimizning farovon yashashi uchun , yoshlarimiz dunyo yoshlari bilan raqobat qila olishlari uchun, barcha qulaylik sharoitlarni yaratmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning 2020 yil dekabr oyida o'tkazilgan yoshlar forumida so'zlagan nutqlarida "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asr bu masalalar haqiqatdan ham,hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.."Tarbiya qancha mukammal bo'lsa,xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi dono xalqimiz . Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi" deb ta'kidlaydilar. Bu esa o'z navbatida yoshlar tarbiyasi davlatimiz siyosatiga aylanganligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini shakllantirish va muntazam rivojlantirish, bunda sensor tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish alohida pedagogik ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda sensor tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Sensor tarbiya asosan bolalarda tuyg'u, sezgi, idrok va nutq kabi qobiliyatlarning shakllanishida ayniqsa ahamiyatlidir. Shuningdek, ko'rish, eshitish, obrazli fikrlash, xotiraning rivojlanishida sensor tarbiyaning o'rni beqiyos.

Hissiy bilish maktabgacha yoshidagi bolalikda alohida ahamiyatga ega. Fikrlash va nutq yetakchi o'rin tutadigan mantiqiy bilish hissiy tajribadan kelib chiqadi. Sensor rivojlanish har qanday amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli egallashning sharti hisoblanadi.²³⁷

Bola tasavvurining asosini bevosita sezish orqali idrok qilish mumkin. "Sensor" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, uning ma'nosi "sensuz"- tuyg'u, sezgi, idrok ma'nolarini anglatadi. Sensor tarbiya sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir. Borliqni bilish, avvalo, sezish va idrok qilishdan boshlanadi. Inson ko'rish, sezish va eshitish yordamida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida bilimga ega bo'ladi, Faqat shular asosidagina unda xotira, nutq, tafakkur, xayol kabi jarayonlar hosil bo'ladi. Sezgi va idrok insonda qanchalik boy bo'lsa, insonning tevarak, atrof-olam haqidagi tasavvurlari shunchalik keng bo'ladi. Bolalarning sensor madaniyati, unda sezgi va idrokning rivojlanish darajasi bilish faoliyatining muvaffaqiyati uchun muhim shart-sharoitdir.

MTTlarda bolalar nutqini rivojlantirishda tarbiyachi bolalarga biror bir narsa, predmet, voqea hodisa haqida tushuncha berar ekan, eng avvalo o'sha narsaning rasmini ko'rsatadi. Surat yordamida bola o'sha narsaning faqat ko'rinishini ko'radi, ammo uning xususiyatlari haqida yetarlicha bilimga, ma'lumotga ega bo'lmaydi. Sensor tarbiya orqali esa bola tevarak-atrofdagi narsalarni sezish orqali idrok qiladi hamda egallangan bilimlarga tayangan holda uni nutqida ifodalaydi. Masalan, yomg'irning yog'ishi, bola ko'rsatilgan su'rat orqali oddiy tasvirni ko'rishi mumkin, ammo bolalarni yomg'ir yog'ayotgan pallada tabiat qo'yniga chiqarib sayr qilish jarayonida yomg'irning shitirlagan tovushini, uning hidini, havo harorati biroz

²³⁷ Maktabgacha pedagogika F.Qodirova va b., 2019.177-bet

sovuq bo'lishini, yomg'irdan hosil bo'lgan ko'lmakchalarni bevosita o'z ko'zlari bilan ko'rishi orqali bolalarda yomg'ir haqidagi aniq bilim va tasavvurlar paydo bo'ladi. Bu undagi mayda qo'l harakatlarini rivojlantirishga, bo'shliqda chamalab ko'rish ko'nikmasini shakllanishiga yordam beribgina qolmay, uning nutqida "uzoq-yaqin, katta-kichik, baland-past..." kabi so'zlarni qo'llashiga yordam beradi. Sensor tarbiya jarayoni bolalarga katta zavq beradi, u yangi-yangi narsalarni o'rganayotganidan behad quvonadi. Masalan, bola dumaloq shaklni halqa ichidan o'tkazganda qoniqish hissi uyg'onadi, o'yin jarayonida tengdoshlari bilan do'stona muloqot o'rnatadi. O'zini bu ishni uddalay olganidan xursand bo'ladi. Yangi va qiziqarli bilimlarni shuning uchun ham faqat og'zaki emas, balki, jonli, aniq xususiyatlari bilan tushuntirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni buyumlarning shakli, katta –kichikligi va rangi bilan tanishtirish hamda ularda bu xossalarni to'g'ri idrok qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi sensor tarbiya sohasiga kiradi. Bu tarbiya qanchalik to'g'ri hal qilinsa, bolalarning faqat aqliy tarbiyasiga emas, estetik, jismoniy, va xatto axloqiy tarbiyasi ham shunchalik ahamiyatli bo'ladi. Masalan: bir yarim yashar bola devorning balandligini ko'rib, sakrash mumkinmi yo'qmi anglay oladimi? Yo bo'lmasa, ikki yashar bola daraxtni barglarini shakli va rangiga qarab farqlay oladimi? Bir yashar bola kubiklarni ustma –ust qo'yib taxlay oladimi? Bularning hammasi ma'lum darajada bolaning idrok qilishning qanchalik rivojlanganligiga bog'liqdir. Komenskiy – aytilgan narsalarni faqat narsalarda emas, real voqeilikda ko'rsatish juda foydalidir, deya tavsiya qiladi.

Rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash hamda idrokning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish bilan birga buyumning shaklini, rangini o'ziga xos xususiyatlarni bilib olishga ham imkon beradi. Bu mashg'ulotlar bolalarda mayda qo'l harakatlarini va teri orqali sezish tuyg'ularini rivojlantiradi. Bolalar plastilindan predmet va narsalar, o'yinchoqlar yasash orqali yangi bilimlar egallaydi, nutqi rivojlanadi. O'yinchoqlar yasash tasviriy faoliyatning boshqa turlari singari, estetik didni shakllantiradi, go'zallikni his qilishga, uning rang-barangligini tushunishga o'rgatadi. "...Tasviriy san'at sohasidagi ishlar

oilasida, — degan edi haykaltarosh I.Y. Ginsburg, — o‘yinchoq yasash xuddi matematika fanlaridagi arifmetika kabi rol o‘ynaydi. U predmet to‘g‘risidagi tasavvurning alifbosidir. U predmetni o‘qish, uni bayon etishning dastlabki shaklidir”. Kattalar bolalarning yosh xususiyatlarini bilib, o‘rganib, shunga muvofiq ravishda plastilindan narsalar yaratish va tanlashi, ularni yasash yo‘llarini ham bolalarga o‘rgatishi lozim.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashg‘ulotlar muayyan vazifaga ega – ya‘ni u bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlashni ko‘zda tutadi. Mashg‘ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o‘quv faoliyatini yo‘lga qo‘yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e‘tiborli bo‘lish, pedagog topshirig‘ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr oldira olish, tengdoshining javobiga oddiy baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.²³⁸

Ilk maktabgacha yoshdagi bolada sensor rivojlanishning mazmunini belgilash haddan tashqari baholash qiyin. Bu sezgi faoliyatini yaxshilash, atrof-muhit haqidagi fikrlarni to‘plash uchun eng qulaydir.

Bolaning maktabga tayyorligi asosan uning hissiy rivojlanishiga bog‘liq. Bolalar psixologlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bolalardan boshlang‘ich o‘rganish paytida kelib chiqadigan qiyinchiliklarning muhim qismi (ayniqsa 1-sinfda) idrokning yetarli emasligi va moslashuvchanligi bilan bog‘liq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bola nutqini sensor tarbiya vositasida rivojlantirishda usullaridan foydalanish orqali nafaqat sezish jarayonlari va nutq malakalari, balki, nutq orqali axloqiy va aqliy dunyoqarash, mustaqil fikrlash kabi malakalar rivojlantiladi.

Adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi-T.2018.
2. F.Qodirova va b., Maktabgacha pedagogika 2019.177-bet
3. Babayeva D.R.”Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent 2018

²³⁸ Babayeva D.R.”NUTQ O‘STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI” T.:,2018,25-bet

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA O'YIN FAOLIYATINI TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

G. Q. Hasanova,

BuxDU, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

G. A. Toirova,

BuxDU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi

va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatini tizimli yondashuv asosida tashkil etishning ahamiyati shundaki, bunda bolalarning aqliy imkoniyatlari safarbar qilinadi, tashkilotchilik qobiliyati rivojlanadi, o'zini tuta bilish ko'nikmalari singdiriladi va birgalikdagi harakatlardan quvonch keltiradi.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kommunikativ, intellekt, psixoterapevtik, korreksiya, modellash, loyihalash

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha ta'lim tashkilotining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilanishicha, o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Mazkur hujjatda maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim 4ta kompetensiyalari aks ettirilgan:

kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi;

o'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi bo'lib, u o'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi;

ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati;

bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni bajarish uchun foydalanish²³⁹.

“Ilk qadam” o'quv dasturi asosida 3 yoshdan 7 yoshga qadar ilk bora mavzuviy rejalashtirish ishlab chiqilgan. Mazkur mavzuviy rejalashtirish asosida tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantiruvchi muhitda tashkil etilishi tavsiya etilgan. Faoliyatlar pedagogning ijodiy yondoshuvi asosida bolaning extiyoji va imkoniyatidan kelib chiqqan holda 2 va undan ortiq rivojlantiruvchi muhitlarda olib boriladi. Rivojlantiruvchi muhitning asosiy faoliyat turi – o'yin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi muhit mazmuni: madaniy- tarixiy qadriyatlar, milliy va hududiy an'analar, tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim. Muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirishi, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

Rivojlantiruvchi muhitlarning 5 xil turi tavsiya etilgan:

1. Qurish-yasash va matematika;
2. Nutq va til;
3. Fan va tabiat markazi;
4. San'at markazi;
5. Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan o'yinda bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy sifatlari rivojlanishi, o'quv faoliyatiga tayyorlik shakllanishi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi.

²³⁹ “Ilk qadam ” Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi Toshkent -2018 yil

Bolaning uch o'zaro bog'liq yo'nalishlari – hissiyotlari, tushunchasi va ijodiy-barkamolligi bolaning tabiiy muhiti – o'yinga moslashadi. O'yin bola uchun bir vaqtda ham vaqtichog'lik hamda insonlar, predmetlar, tabiat olamini anglash usuli, shuningdek o'z fantaziyasini qo'llash shakli hisoblanadi. O'yinning asosiy afzalligi uning faol va mustaqil faoliyat ekanligi hisoblanadi. Ta'lim va suhbatlarda emas, balki aynan o'yinda bolaning qobiliyatlari rivojlanadi va uning shaxsi shakllanadi. O'yin bolada yaxshi kayfiyatni ta'minlaydi, uning hissiy tajribasini boyitadi, ko'rgazma-obrazli tafakkuri, tasavvuri, nutqini rivojlantiradi. Tasavvuri yaxshi rivojlangan bolalar yuqori intellektga ega bo'ladilar. Nostandart vaziyatlarda tez yo'l topadilar, yaxshi ta'lim oladilar.

O'yin – bolaning ijtimoiy rivojlanishining muhim shartidir. Unda bolalar kattalarning turli faoliyatlari bilan tanishadilar, boshqa insonlarning his-tuyg'ulari va holatlarini tushunish, ularga hamdard bo'lishni o'rganadilar, tengdosh va katta bolalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

O'yinlarning asosiy maqsadi – kichik insonni rivojlantirish, undagi mavjud va namoyon bo'lgan hislatlarini korreksiyalash, uni ijodiy tadqiqot xulqiga yo'naltirishdir. Bir tomondan, bolaga amal qilish uchun “ozuqa”, boshqa tomondan – fantaziya va shaxsiy ijod uchun maydon taklif etiladi²⁴⁰.

O'yin tufayli bolada barcha psixik jarayonlar, aqliy operatsiyalar, modellar va loyihalash qobiliyatlari rivojlanadi, matematik tushunchalar to'g'risidagi tasavvurlari shakllanadi, maktabga muvaffaqiyatli tayyorgarlik amalga oshiriladi.

O'yin jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Rang, shakl, o'lcham, hajm va h.k. tushunchalar bilan tanishuv.
2. Fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish.
3. Mantiqiy tafakkurni shakllantirish (taqqoslash, tasniflash, mavhumlashtirish, umumlashtirish operatsiyalarini egallash).

²⁴⁰ Джанпеисова Г.А. Деятельностный подход педагога к организации игровой деятельности – залог социальной успешности педагога // Гармонично развитое поколение – условие стабильного развития Республики Узбекистан. – Сб. научн.-мет. статей под общей ред. проф. Р.Х.Джуроева. УзНИИПН, Ташкент, 2014. С.107-110.

4. Obyektlardagi xususiyatlarni aniqlash, ularning nomini aytish, predmet va buyumlarning o'xshashlik va farqlarini tushuntirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

5. Mustaqillik, qat'iyat, maqsadga erishishga intilishni tarbiyalash.

6. Tashabbus, ijodiy fantaziya, tasavvurni namoyon etish uchun sharoit yaratish, loyihalash va modellashtirish ko'nikmalarini hosil qilish.

7. Nutqiy faoliyat va kommunikativ ko'nikmalar bilan bog'liq psixik funksiyalarini mustahkamlash.²⁴¹

Zamonaviy, jadal rivojlanuvchi dunyo, universal kompyuterlashtirish jarayoni pedagoglarni bolalarning maktabgacha tayyorgarliklari mazmunini modernizatsiyalashga undamoqda. Bola ertangi maktab hayotiga dadil kirib borishi va unda muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashishi uchun, uni MTTdayoq kompyuter bilan tanishtirish va undan o'yinlar uchun foydalanish imkoniyatini ko'rsatish zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, to'g'ri tanlangan yaxshi o'yin psixoterapevtik ta'sirga ega, chunki o'yindagi harakatlar orqali bolalar yig'ilib qolgan salbiy hissiyotlarini anglamagan holda va beixtiyor chiqarib yuboradilar. O'yin bolaga barchasiga qodirlik va erkinlik hissini beradi

Adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi Toshkent - 2018 yil.

2. Джанпеисова Г.А. Деятельностный подход педагога к организации игровой деятельности – залог социальной успешности педагога // Гармонично развитое поколение – условие стабильного развития Республики Узбекистан. – Сб. научн.-мет. статей под общей ред. проф. Р.Х.Джураева. УзНИИПН, Ташкент, 2014. С.107-110.

3. Nargiza Kayumova Maktabgacha pedagogika Toshkent 2013 yil 115 bet

²⁴¹ Nargiza Kayumova Maktabgacha pedagogika Toshkent 2013 yil 115 bet

5A110901 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo'yicha)

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA KIMYO FANIGA OID ATAMALARNING ISHLATILISHI

M.B.Davronova,

BuxDU, Kimyo fan yo`nalishi

bo`yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Tezisdagi o'zbek xalq maqollaridan iborat PISA testlari asosida kimyoviy boshqotirmalar berilgan bo'lib, ularning namunaviy tahlili ham qilib berilgan.

Kalit so'zlar: PISA ,temir, kumush, suv, oltin, osh tuzi.

PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.

PISA testlari bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma'lumotlarni hosil qila olish, maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

PISA testlari 5 ta yo'nalish bo'yicha o'tkaziladi: ***O'qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik yo'nalishlari.***

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi: Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushinish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish bu bo'limning asosiy maqsadidir.

PISA sinovlarida to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

1. Bir javobli testlar;
2. Bir nechta javobli testlar;

3. Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;

4. Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzivchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab-quvvatlanadi.

Quyida tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi oshirish maqsadida o'zbek xalq maqollarining kimyoviy formulalar asosida integratsiyalashgan bir javobli PISA testlaridan namunalar keltirilgan bo'lib, o'quvchining kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish ko'nikmasini rivojlantiradi. Maqollarda bo'sh nuqtalar o'rnini test kalitlaridagi to'g'ri javob yozilgan kimyoviy formula orqali to'ldiriladi. Masalan,

Inson umri – daryo i.

A)Fe B) Ag C)H₂O D)Au

Izoh: Inson umri – daryo H₂ O i.

Inson umri – daryo suvi. (Javob:C)

“O'zbek xalq maqollarida kimyo” deb nomlangan PISA testlaridan namunalar

1. Ignachining ming urgani,

.....chining bir urgani

A)Fe B) Ag C)Hg D)Au

2. O'tgan vaqt yo'qolgandan qimmat

A)Fr B)Mg C)H₂O D)Au



3. Arpa-bug'doy bo'lar,

..... - tosh bo'lar

A)Fe;Cu B) Ag;Fe C)CaCO₃ D)Au;Ag

4. Tegirmonni buzar,

Odamni odam buzar

A)Fe B) Ag C)H₂O D)Au



5. *Vaqt* *ni yemirar*

..... *toshni kemirar*

A)Fe B) Ag C)H₂O D)Au

6..... *ni qizig'ida bos*

A)Fe B) Ag C)H₂O D)Au

7. *Odob*.....*dan qimmat*

A)Fe B) Ag C)H₂O D)Au



8. *kattadan,kichikdan*

A)Fe B) Ag C)H₂O D)Au

9*halqadan kech,quloq og'ritsa*

Zardo'zi etikdan kech, oyoq og'ritsa

A)Fe B) Ag C)H₂O D)Au



10. *Do'stsiz* *im,.....siz* *im.*

A)NaCl B) MgO C)H₂O D)Au

Javoblar:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	D	D	C	C	A	D	C	D	E

Adabiyotlar:

1. Suvonqulova H. O'zbek xalq maqollari.- T.: "Adabiyot uchqunlari", 2014. 152 b
2. Avvalboyeva I. Maqollar bolalar uchun.- T.: "Adabiyot uchqunlari", 2017. 112 b
3. <https://googol.uz/post/pisa0>

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA STEAM TA'LIMINI JORIY ETISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

H. T. Avezov,

BuxDu, kimyo fanlari

nomzodi.dotsent

F.J.Xojiyeva,

BuxDU, Kimyo (fan turlari bo'yicha)

yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM ta'lim tizimini o'rganish va tadbiiq etishdagi jarayonlar, tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM haqidagi tarixiy bosqichlar va amaliyot bilan bog'liqlik taraflari aks etgan.

Kalit so'zlar: STEAM, Ta'limdagi samarali o'qitish metodi. STEAM tarixi.

Bugungi fan va texnika ilg'or rivojlanib borayotgan bir vaqtda mashg'ulotlar jarayonida ta'lim berishning ilg'or usullaridan foydalanishning samaradorligi haqida juda ko'p fikrlar bildirilyapti. Turli xil ta'lim dasturlari, baholash usullari bugungi ta'lim tizimizga kirib kelgani ham bejizga emas. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi sababli barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talab yanada oshmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatlarini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyasiga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

2021-yilda O'zbekiston Respublikasi qaysi xalqaro dasturlarda ishtirok etadi: (PISA) — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash, (PIRLS) — boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash. Bunday baholash tizimiga bolalarni tayyorlash va ularning tabiiy fanlardan bilimni rivojlantirish uchun esa bugungi kunda yurtimizda STEAM ta'lim dasturi fanga tadbiiq qilib kelinmoqda.

STEAM Education o'sib borayotgan ta'lim fanlari tarmog'ini, biznes va jamiyatni bog'lash uchun foydalaniladigan asosni ta'minlaydi, bunda fuqarolar ishtirok etadigan, global mas'uliyatli, voqelikka asoslangan dasturlarni yaratish mumkin. Ushbu yondashuv samarasi o'laroq olingan bilim o'z tajribalari va ta'lim, ixtiro, tadbirkorlik va hayotga ta'siri haqida yangi va chuqurroq yo'llar bilan o'ylashga majbur qiladi. Steam ta'limi o'zi nimani anglatadi? Ushbu savolga javob quyidagicha ta'limni integratsiyalashgan holda olib borish yani barcha sohalarni ta'lim ,fan va texnologiyani va ishlab chiqarish, biznes sohalari aloqasini e'tirof etgan holda, muhokama va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'rganadigan tizimdir. Jahondagi ta'lim bo'yicha ekspertlarning ta'kidlashicha, STEAM ta'limi o'quvchilarda quyidagi qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

- O'ylab tavakkal qiling
- Ma'noli o'quv faoliyati bilan shug'ullaning
- Bardoshli muammolarni hal qiluvchilarga aylaning
- Hamkorlikni quchoqlang va qadrlang
- Ijodiy jarayon orqali ishleng.

Ta'limda STEAM – ta'limning vazifasi o'quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

- S - science (tabiiy fanlar)
- T - technology (texnologiya)
- E - engineering (muhandislik ishi)
- A- art (san'at)
- M - mathematics (matematika)

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bog'liq bo'ladi. Shu maqsadda yoshlarni bilim olishga katta e'tibor qaratish lozim. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, yoshlarni erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo'naltirishimiz kerak. Bu borada STEAM texnologiyasi bizga qo'l keladi. STEAM – tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish uslubidir. STEAM

texnologiyasida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga e'tibor qaratiladi. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Milliy dastur asosida ishlab chiqilgan ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy, matematika darsliklarida berilgan mavzularga STEAM texnologiyasi asosida yondashib, darslar tashkil etsa bo'ladi. Xususan tabiiy fanlarda har bir mavzu nazariy ham amaliy tarzda berilgan. Jumladan tabiiy fanlarda Yer-sayyora mavzusi berilgan. Bu mavzuni o'rganishda o'quvchilar nazariy bilim bilan birga amaliy mashg'ulot ham o'tkazishadi. O'quvchilar yer shari, quyosh modelini yasashadi. Bu bilan ular yer shari quyosh atrofida aylanishini amaliy bilib oladilar shu bilan birga yer sharining global muammolarini bartaraf etish choralarini o'ylab topishadi. Bir shu mavzu asosida o'quvchilarni bilishga, fikrlashga, mustaqil ishlashga, ijodkorlikka undash mumkin. Nafaqat darslarda balki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham STEAM texnologiyasidan oqilona foydalanish kerak. Mashg'ulotlarni tashkil etishda kasb, hunar egalari taklif etilsa, ular o'z kasblari haqida nazariy bilim bilan birga amaliy ko'rsatib bersa, bu bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi. Kelajakda kasb tanlashda, o'z yo'nalishini topib oladilar. Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil fikrlashga, g'oyalarni ilgari surishga undaydi.

STEAM – ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Ilmiy-texnik biimlarni real hayotda qo'llash

STEAM – ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyon qilinadi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi.

Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish STEAM – dasturi bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan: bolalar tez yuradigan mashina modelini yig'adilar, so'ngra uni sinovdan o'tkazadilar. Birinchi sinovdan so'ng kutilgan natijaga erishilmasa uning sabablari haqida o'ylaydilar va topadilar. Balkim, g'ildiraklarining kattaligi yoki aerodinamikasi to'g'ri kelmagandir. Har bir sinovdan so'ng ular kamchiliklarini bartaraf etib boradilar.

O'z kuchiga ishonish hissining ortishi

Bolalar ko'prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadga yaqinlasha boradilar. Har bir sinovdan so'ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o'z kuchlari bilan yengib maqsadiga erishadilar. Bu bolalar uchun ruhlanish, g'alaba va quvonch demakdir. Har bir g'alabadan so'ng ular o'z kuchlariga yanada ishonadilar.

Faol kommunikatsiya va komandada ishlash

STEAM – dasturi faol kommunikatsiya va komandada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot qilishga o'rganadilar. Bolalar doimo o'qituvchi va sinfdoshlari bilan qatnashsalar, mashg'ulotni yaxshi eslab qoladilar.

Texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi

STEAM – mashg'ulotlari juda dinamikva qiziqarli bo'lganida bolalar mashg'ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o'tganligini sezmay qoladilar.

STEAM kundalik hayotning ilmiy tadqiqot, texnika taraqqiyotikonsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini taqozo etadi.

Bunday yondashuvdan maqsad ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o'rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi

bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi.

Adabiyotlar:

1. G'aniyeva, H. (2021). COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING APPROACH IN EFL CONTEXT. *Мактабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal). Retrieved
2. Aliev A. (2021). About the features of the perspective of simple geometric shapes and problems in its training. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
3. Jabbarov R., & Rasulov M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОС*.
4. Avazbayev A., Jo'rayev Y., & Tursunxo'jayeva Z. (2021). Условия организации процесса технологического образования на основе кредитно-модульной системы. *Общество и инновации*, 2(4/S), 171–176. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp171-176>
5. Critical Review of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) Page 18 of 22 PRINTED FROM the OXFORD RESEARCH ENCYCLOPEDIA, EDUCATION (oxfordre.com/education).
6. STEAM-tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish uslubi. <https://ictschool.uz>
7. L.T.Ochilova L.Ch.Rajabova .STEAM ta'lim asosida matematika masalalarini yechishning ilg'or usullari. Boshlang'ich ta'lim innovatsion klasteri va raqamli ta'lim: ehtiyoj, zarurat, natija. 2021-yil 10-mart

STEAM-TA'LIM YONDASHUVI VA UNING O'QUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

M. F. Sharopova,

BuxDU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(texnologik ta'lim) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi.

Kalit so'zlar: Ijodiy fikrlash, fan, STEAM, texnologiya, nazariya

STEAM - ta'limni real hayot bilan bog'lovchi texnologiya

STEAM an'anaviy o'qitishga muqobil zamonaviy yondashuv hisoblanadi.

STEAM – so'zining bosh harflari - Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika)ni anglatadi. O'quvchilar bu fanlarni uyg'unlashgan holda, ular orasidagi bog'lanishlar va amaliy yondashuvga asoslangan holda o'rganadilar. Boshqacha qilib aytganda, STEAM - fanlararo integrasiya yondashuvga asoslangan o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati. Bu jarayonda o'quvchi va o'qituvchi ijodiy fikr yuritadi.

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM yondashuvi dastlab AQShda ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar o'zlarining bitiruvchilarining karyeralarini rivojlantirishga e'tibor berishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi, ya'ni STEM ni tashkil etildi. (Tabiiy fanlar, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik unga Art (san'at) qo'shildi va STEAM tashkil etildi. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi Massachusetts Texnologiyalar Instituti (MIT)da ishlab chiqilgan. Bu mashhur universitetining shiori "Mind and hand" – "Aql va qo'l" dir. Massachusetts Texnologiya instituti STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba'zi

o'quv yurtlarida STEAM ta'lim markazlari yaratildi.

STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi: amaliyotning nazariy bilim kabi juda muhim ekanligi hisoblanadi. Ya'ni, o'rganish vaqtida biz nafaqat miya, balki qo'llarimiz bilan ham ishlashimiz kerak. Dars vaqtida bilim olish tez o'zgaruvchan dunyo bilan mos kelmaydi. STEAM yondashuvi bilan an'anaviy yondashuv o'rtasidagi asosiy farq, bolalar turli mavzularni muvaffaqiyatli o'rganishi uchun ularning aqli va qo'llarini baravar ishlatishidir. Ular bilimlarni o'zlari uchun "o'zlari" o'rganadilar.

Iqtidor (aql, intellekt) nima? Aql-idrok - maqsadga eng samarali tarzda erishish mumkin bo'lgan, ya'ni vaqt va resurslarni kam sarflash bilan erishish mumkin bo'lgan bilishni tashkil etish qobiliyati. Maktab o'quvchilarining aqliy rivojlanishi va mazmuniga zamonaviy nuqtai nazar kognitiv tuzilmalar haqidagi nazariy g'oyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u orqali inson atrof muhit haqida xulosa chiqaradi, keladigan barcha yangi taassurot va ma'lumotlarni tahlil va sintez qiladi. Ular qanchalik rivojlangan bo'lsa, ma'lumot olish, tahlil qilish va sintezlash imkoniyati shunchalik yaxshi tushunadi, idrok etadi.

STEAM yondashuvi nafaqat o'rganish metodi, balki fikrlash usuli hamdir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'lib, shu bilimdan foydalanishni darhol o'rganadilar. Shuning uchun ular o'sib, haqiqiy dunyoda istalgan hayot muammosiga duch kelganda, bu xoh ifloslanish yoki iqlimning global o'zgarishi bo'lsin, bunday murakkab masalalarni faqat turi fanlardan olgan bilimlarga tayanish va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Faqat bitta fandan olingan bilimga tayanish yetarli bo'lmay qoladi.

STEAM o'quvchilarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- Muammoni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuvi;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash;

- Dizayn asoslarini tushunish.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar quyi sinflarda matematika fanini o'rgana boshlaganlarida darsda o'rgatiladigan dastlabki mavzularga qiziqish ko'rsatadilar, o'qituvchining savollarini muhokama qilishda faol ishtirok etishadi. Biroq, vaqt o'tgan sari matematikaga hali ham ishtiyoqli bo'lgan 1-2 gina o'quvchi qoladi. O'qituvchilarning ish uslublarining bir xilligi o'quvchilar orasida qiziqishning pasayishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Жураев А.Р., Тешаева И.М. Методические основания оптимизации содержания предмета «Технология». “Проблемы науки” научно-методический журнал № 6 (30) / 2018 г. Россия, Москва с 88 – 89.
2. Sharopova Mahliyo Fozilovna “IMPROVING THE TEACHING PROCESS OF MATERIALS SCIENCE ON THE BASIS OF FOREIGN EXPERIENCE.
<http://www.ijeais.org/ijamsr/index.php/ijamsr-5-2-2021/>
3. Sharopova M.F., Hazratova Sh. «СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ СОДЕРЖАНИЯ И ПРОЦЕССА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ» В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ»
<http://problemspedagogy.ru/images/PDF/2021/54/Problemy-pedagogiki-3-54-.pdf>
4. Sharopova M.F., Sharopova D. “INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/4” USE OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN INCREASING THE EFFICIENCY OF EDUCATION QUALITY Page No.: 415-423 <http://researchedu.org/index.php/cf/issue/view/7/5>

HAMKORLIK PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING JIHATLARI

N.N. Musayeva,

S.A. Ikromova,

*BuxDU, Pedagogika va Psixologiya
mutaxassisligi magistrantlari*

Annotatsiya: Maqolada ta'lim jarayonida hamkorlik pedagogikasining nazariy asoslaridan unumli tarzda foydalanishi, hamkorlik pedagogikasi shakllari, mohiyati va mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, hamkorlik, hamkorlik pedagogikasi.

Hamkorlik pedagogikasi jahon amaliyotida an'anaviy o'qitish texnologiyalariga eng muvaffaqiyatli muqobil sifatida qaraladi. U 80-yillarda mashhur bo'ldi. 20-asr, lekin uning g'oyalari zamonaviy ta'limga asoslanadi.

Hamkorlik - bu o'zaro tushunish, bir-birining ma'naviy dunyosiga kirish, ushbu faoliyatning borishi va natijalarini jamoaviy tahlil qilish bilan muhrlangan bolalar va kattalarning birgalikdagi rivojlanish faoliyatining gumanistik g'oyasi.

Hamkorlik strategiyasi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning kognitiv qiziqishlarini rag'batlantirish va yo'naltirish g'oyalari asoslanadi. Ta'limni tashkil etishning bu shaklining ahamiyati shunchalik kattaki, butun pedagogik jarayonni hamkorlik pedagogikasi sifatida ko'rib chiqish tendentsiyasi mavjud²⁴².

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir. Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini har kunlik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr- qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Pedagogika – psixologiya fanida hamkorlikning quyidagi shakllari mavjud:

²⁴² Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T., Voris-Nashriyot, 2012. 167

1. Faoliyatga kirish;
2. Mustaqil harakatlar o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradilar;
3. O'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi;
4. Taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi);
5. Madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi);
6. O'zini – o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
7. O'zini – o'zi ko'rsatuvchi harakatlar;
8. O'zini – o'zi uyushtiruvchi harakatlar.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

Hozirgi kunda hamkorlik pedagogikasi muammosining dolzarbligiga quyidagilar asos bo'lmoqda²⁴³:

*Birinchi*dan, jamiyatda ijtimoiy va pedagogik jarayonlar amalga oshirilayotganligi (munosabatlarning insonparvarlashuvi va demokratlashuvi, inson faktori rolining kuchayayotganligi, innovatsion jarayonlar asosida ta'lim-tarbiya sifatining oshayotganligi, butun xalqning ta'limga, maktabga uning muammolariga e'tiborining oshayotganligi va h.k.);

²⁴³ Avliyaquov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Darslik.-T.: Tafakkur Bo'stoni, 2012.- 208s

Ikkinchidan, umumiy, ommaviy pedagogik amaliyotning holati (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarga yetarli darajada pedagogik qo'llab-quvvatlashning berilmayotganligi, ularning o'quv-tarbiya jarayonidan qoniqmayotganliklari, ta'lim beruvchilar tomonidan ta'lim oluvchilarga munosabatlarni o'zgartirish zarurligini tushunmasliklari, bilmasliklari va ayrim hollarda xohlamasliklari va h.k.);

Uchinchidan, pedagog – amaliyotchilarning innovatsiyalarga intilishlari (bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya berishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish).

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni bola shaxsiga yo'naltirishga asoslanganligi. Ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi.

Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani qurish, yasash masalalar yechish va boshqalar²⁴⁴.

Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining tashkiliy shakllari: tarbiyachi - bola, tarbiyachi- kichik guruh, tarbiyachi - katta guruh, kichik guruh - kichik guruh, kichik guruh – bola va boshqalar.

Bola umumiy rivojlanishi uchun barcha kerakli sharoitlarni yaratib beradigan bunday shakllardan biri hamkorlik qilish, boshqa odam bilan birgalikda harakat qilishni nazarda tutadi. Bu o'quv hamkorligi sanalib, uning maqsadi bolalarni maktabga tayyorlash o'zini bilishga o'rgatishdan iboratdir.

Hamkorlikda o'qitish yoki kichik guruhlarda saboq berish pedagogikada gumanistik yo'nalishdagi texnologiyaga mansub bo'ladi. Bunday texnologiyaning asosiy maqsadi – bolalar uchun turli o'quv vaziyatlarda faol birgalikdagi o'quv faoliyatini yuritish uchun sharoitlar yaratib berishdan iborat.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – bir nimalarni birga bajarishgina emas, balki birgalikda o'qitishdir!

²⁴⁴ Мусаева Н.А. Таълим жараёнида ишбилармонлик ўйинларининг ўрни “Scientific progress”. Журнал.- Бухоро, 2022. № 1.- Б.

Xulosa qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasidan foydalanish o'quvchi yoshlar va talabalar bilimlarining oshishida, ta'lim sifatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida hamkorlik pedagogikasidan foydalanish bilim darajasining oshishiga asosiy omillardan sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T., Voris-Nashriyot, 2012. 167
2. Avliyaquov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Darslik.-T.: Tafakkur Bo`stoni, 2012.- 208s.
3. Мусаева Н.А. Таълим жараёнида ишбилармонлик ўйинларининг ўрни “Scientific progress”. Журнал.- Бухоро, 2022. № 1.- Б.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKA DARSLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI

M.I. Daminov,

Buxoro davlat universiteti

dotsenti, ped.f.nomzodi

S.O. Halimova,

BuxDU, Fizika (yo`nalishlar bo`yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maktablarda fizika darsligidan foydalanish samaradorligini oshirishning uslubiy kontseptsiyasini qurishdan iborat bo'lib, u darslikning invariant mazmuniga - ilmiy bilish usuliga e'tiborni kuchaytirish tendentsiyasini aniqlashdan iborat; darslik bilan maxsus o'quv faoliyatini tashkil etishning yetakchi tamoyillarini aniqlash (darslikning barcha tarkibiy elementlari uchun ijodiy topshiriqlardan foydalanish, obyektlar va hodisalar haqidagi bilimlarga boshqacha munosabatda bo'lish va ularni tavsiflash vositalari haqidagi bilim); maktab o'quvchilarining darslik bilan ishini tashkil etish metodikasini o'zlashtirish bo'yicha faoliyat usullarini aniqlandi.

Kalit so'zlar: fizika darsligi, fundamental didaktik asoslari, biologiya, geografiya, kimyo, fizika, tabiiy fanlar sohasi.

Maktab darsligi eng muhim didaktik o'quv qurollaridan biridir. U didaktikaning asosiy talablari va qoidalariga javob berishi, zamonaviy maktabda o'qitish (ta'lim va tarbiya) maqsadlariga, umumiy va alohida fanlar bo'yicha ta'lim mazmuni, ta'limning umume'tirof etilgan tamoyillari, ta'limning tashkiliy shakllariga javob berishi kerak. Darslikni qurishning fundamental didaktik asoslaridan biri ta'lim mazmuni va prosessual jihatlarining birligini, shuningdek, o'qitish va o'qitishning birligini hisobga olishdir. Shu munosabat bilan darslik bir vaqtning o'zida ta'lim mazmuni va ta'lim mazmunining turli elementlarini belgilash shakllarining tashuvchisi va o'quv jarayonining loyihasi (model) sifatida ishlaydi.

Fizika jadal rivojlanayotgan fanlardan biri bo'lib, so'nggi bir necha o'n yilliklar ichida eng yuqori darajadagi juda ko'p fizik kashfiyotlar amalga oshirildi. Bu bir tomondan, yangi kuchli nazariy tushunchalar va usullarning paydo bo'lishi bilan ikkinchi tomondan, prinsipial jihatdan yangi ilmiy asboblar, usullar va texnologiyalardan foydalanishga asoslangan eksperimental texnikaning jadal rivojlanishi bilan bog'liq.

Uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim maktablari bosqichida o'quv jarayonini tashkil etishning davr talablariga muvofiq yondashuvlarni izlash zarurati ta'limni takomillashtirishga va optimallashtirishga olib keldi. Fizika ta'limini takomillashtirish muammolari umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari tomonidan fundamental fizika ta'limini mukammal o'zlashtirishini tashkil etish va uning tarkibiy tuzilishi va mazmunini davr talablariga muvofiq ravishda: zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish tizimini tashkil qilish hamda ta'lim sifatini oshirishda shaxsning kompetentligini shakllantirishdan iborat.

Bir qator rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida tabiiy fanlar (biologiya, geografiya, kimyo, fizika) 1 sinfdan 6 sinfgacha SCIENCE dasturi asosida o'qitiladi. Endilikda Xalq ta'limi tizimida ham 2021/2022 o'quv yilidan boshlab 1 sinfdan boshlab 6 sinfni tugatganga qadar (biologiya, geografiya, kimyo, fizika) tabiiy fanlarni o'zida jamlagan "Tabiiy fan"i joriy etiladi.

Ushbu fanning afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, ushbu fan orqali o'quvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada, PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyati kengayadi.

Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Respublika ta'lim markazi tomonidan "Tabiiy fan"i bo'yicha Milliy o'quv dasturi loyihasi yaratilib, muhokamaga qo'yildi. Agarda ushbu o'quv dastur hamda darslik kelgusida zarur tajriba sinovdan o'tkazilmasdan amaliyotga joriy qilinsa, ushbu fan ham kelgusida xuddi o'n bir yillik majburiy ta'limdan voz kechilib uni yana qayta amaliyotga joriy qilinganidek holat bo'lishi mumkin.

Shu munosabat bilan uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim maktablari bosqichida "Tabiiy fani" kiritilishi munosabati bilan amaldagi fizika ta'limi tarkibiy tuzilishi va mazmuni qanday bo'lishi haqida maqola muallifi o'z fikr mulohazalarini bildirishni maqsadga muvofiq deb biladi. Maqolada amaldagi uzluksiz ta'limning o'n bir yillik umumiy o'rta ta'lim maktablari bosqichida yuqoridagi "Tabiiy fan"i joriy etilishi munosabati bilan amaldagi fizika ta'limi tarkibiy tuzilishi va uning mazmuni qanday bo'lishi mumkinligi haqidagi o'z mustaqil taklifini tahlil qilish va tizimlashtirishga harakat qilingan. Amaldagi har qanday o'quv dasturi va darsliklari-ning muqobillari bo'lishi lozimligi hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Ushbu bosqichda fizikani tahlil qilish va o'qitish uchun foydalangan tasavvurlarni shakllanishining psixologik jihatlari, kognitiv aqliy faoliyat usullari, o'quvchilarning aqliy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va o'rganishda L.S.Vigotskiy, M.G.Davletshin, S.L.Rubinshteyn, N.F.Talizina, E.G'oziev va G'.B.Shoumarovlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2021 yildagi «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-5032-son qaror bilan 2021–2023 yillarda Fizika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini oshirish va fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning

natijadorligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Qarorga ko'ra quyidagilar asosiy vazifalari etib belgilandi: maktablarda fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish; fizika fani bo'yicha kadrlarni, xususan, qishloq joylardagi maktablarning o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish; ta'lim jarayoniga axborot – kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy qilish; yangi va ta'lim bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish orqali yoshlarning fizika ta'limi bilan qamrab olish darajasini oshirish; fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash.

Fizika elementar zarrachalardan to g'alaktikagacha bo'lgan — ob'ektlar va turli tuman hodisalarni o'rganadi. Fizika tabiiy fanlar sohasiga mansub bo'lib, tabiat haqida sifatiy va miqdoriy bilimlarni egallashga imkon beradi. Fizikani o'rganish insonlarning bilish va mantiqan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Hozirgi jamiyatda har bir insonning muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun fizikadan sifatli bilimga ega bo'lishi davr talabi hisoblanadi. Fizika ilmiy — texnika taraqqiyoti va tabiiy–ilmiy bilimlarning asosi hisoblanadi.

Mamlakatimizning XXI asrdagi muvaffaqiyoti, tabiat resurslaridan samarali foydalanish, ekologik muammolarni yechish, kosmosni o'zlashtirish, mudofa salohiyati, texnika va energetikaning rivojlanishi, fan manbalari uchun materiallar hamda zamonaviy texnologiyalarni yaratish kabi barcha yo'nalishlar fizika fani va fizika ta'limi darajasiga bog'liq.

Fizikadan davr talablariga mos ravishdagi bilimlarga ega bo'lmasdan Vatanimiz ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli maqsadi va vazifalarini yechishda erishib bo'lmaydi. Mamlakatimizning rivojlanishi va hozirgi davrda texnologik jadal taraqqiyotga erishishda fizika ta'limi va fizikaning fan sifatida rivojlanishiga mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanishga asosiy e'tibor qaratilishi lozim.

Jahon hamjamiyatining hozirgi rivojlanish davrida fizika na faqat tabiiy–ilmiy ta'limning rivojlanishiga asos bo'lib qolmasdan balki ,ijtimoiy–iqtisodiy–gumanitar

ta'limning bir qismi sifatida zamonaviy ilmiy fikrlashning paradigmasi ham bo'lib hisoblanadi. Hozirgi davrda fizika ta'limi saviya (daraja) sini oshirish mamlakatimiz aholisini munosib sifatli kasbiy (ixtisosli) mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirishni ta'minlaydi. Fizika o'zining rivojlanish tarixida tabiatni o'rganish (bilish) ning barcha samarali usullari haqida ko'pgina foydali ma'lumotlarni to'pladi. Kuzatish, tajriba va modellashtirish fizikaning ilgari o'tkazilgan barcha tadqiqotlarida foydalanilgan va bundan keyin ham foydalaniladi. Ushbu usullar nafaqat fizikada, balki boshqa fanlarda ham qo'llaniladi. Shuning uchun yillar davomida o'rganilgan olamni o'rganishning fizik usullari har tomonlama qadriyatga ega.

Zamonaviy kompyuterlar, shu jumladan, Internet tarmog'i ta'limda fizikani o'rganishda bir qator ijobiy xususiyatlarga ega. Xususan, animatsion fizik modellar bilan o'qitish dasturlari, kompyuterda namoyish etiladigan videolavhalar, avtomatlashtirilgan laboratoriya qurilmalari va boshqalar uzluksiz ta'lim tizimida fizika fanini o'qitishni zamonaviy darajasini oshiradi.

Davlat ta'lim standarti nafaqat ta'lim mazmunini balki o'qitishning rejalashtirilgan natijalarini, axbortlashgan ta'lim muhitiga ma'lum talablarni joriy qilishning tarkibiy qismi bo'lib, moddiy–texnik va axborot bilan ta'minlashi hisoblanadi. Jumladan, ushbu sharoitda olingan u yoki bu ta'lim natijalari, ta'lim dasturi mazmuniga bog'liq. Agarda fizika dasturlari hamin qadar XIX–XX asr qobig'ida shakllantirilgan bo'lsa, davr talablariga muvofiq ravishdagi sifatli ta'limni egallash imkoniyati bo'lmaydi. Ta'limning hozirgi kundagi muhim ko'rsatgichlaridan biri, uning sifati, qaysiki, xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, ta'lim jarayonini tashkil qilishga bog'liq. So'ngi yillarda bir qator rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida o'z qarashlariga qarshi o'laroq asta sekin aniq va tabiiy–ilmiy fanlar sohasiga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Lekin so'ngi yillarda mamlakatimizda aniq va tabiiy–ilmiy ta'lim sifati pasayganligi kuzatilmoqda. Bilimlarni bunday pasayib borish tendensiyasi butun dunyo bo'ylab ildiz otib oxir oqibat ta'lim krizisiga olib kelishi olimlar tomonidan e'tirof qilinmoqda.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi, shu jumladan umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fani ta'limiga salbiy ta'sir qiluvchi omillardan biri –bu uni o'rganish uchun ajratilgan soat miqdorining kamligi bo'lib hisoblanadi. Mazkur soat miqdorini sinflar kesimida ko'paytirib uluksizlik va uzviylik prinsipi asosida o'rganilishini yo'lga qo'yish lozim deb hisoblayman.

Muhim muammolardan yana biri–fanlararo ichki bog'lanishning yetishmasligidir. Ya'ni, fizikani o'rganishni amaldagi 6–sinf dan emas, 7–sinf dan boshlash maqsadga muvofiq shunda fanlararo o'zaro ichki bog'lanish yuzaga kelib, uzluksiz va uzviylik prinsipi asosida tayyorlangan fizika ta'limi o'quv dasturi va darsliklari yaratiladi. Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizikaning mexanika, molekular fizika va termodinamika asoslari, elektrodinamika, kvant fizikasi elementlari kabi bo'limlari o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga moslashtirilgan ma'lumotlar o'rganiladi. Bunda fizikaning har bir bo'limi “o'z” tushuntirish apparatiga ega bo'lib, ko'pchilik fizik hodisalarni sifatli qarab chiqishda ularning ko'pincha takrorlanish imkoniyatlarini chegaralaydi. Natijada moddiy olam jarayonlari va ob'ektlari o'rtasidagi tabiatda mavjud ichki bog'lanish o'quvchilar uchun aniq bo'lmagan bo'lib, ular diqqatidan chetga qolishga sabab bo'ladi. Birinchi navbatda 9–11–sinf o'quvchilari bilan ishlash amaliyotidan ma'lum bo'lishicha, fizikadan masalalar yechishda matematik qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Ushbu qiyinchiliklar quyidagi bir qator sabablardan kelib chiqadi: Masalan fizikadan masala yechishda zarur bo'lgan o'quv material matematika kursidan o'rganilmagan yoki o'rganilgan bo'lsa ham u kerakli bo'lgan darajadi qayta ishlanmaganligi tufayli o'quvchilar ushbu materialni fizikadan masala yechishda qo'llay olmaydi yoki “buni matematikadan o'rganilganku deb” e'tibordan chetga qoldiradilar. Birinchidan ushbu muammo “fizika–matematika” o'rtasidagi fanlararo bog'liqlik e'tiborga olinmaganligi bo'lsa, ikkinchidan ushbu fanlar o'quv dasturlari mazmuni o'rtasidagi mavzularni o'rganishdagi o'zaro bog'liqlik e'tibordan chetga qolganligidir.

Matematikadan quyidagi mavzularni ajratib ko'rsatish mumkin: – to'g'ri burchakka doir masalalarni yechishda; – vektorlar ustida amallarni bajarishda (qo'shish, ayirish, songa ko'paytirish, koordinatalar o'qidagi vektorlar

proeksiyalari, vektor modulini tushinishda); – bir va ikki noma'lumli tenglamalarni yechishda; – quyidagi bog'liklar ko'rinishida (chiziqli, qayta proporsional, kvadrat ildiz) va ularning grafiklarini tuzish ko'nikmasi; – trigonometrik almashtirishlarda, trigonometrik ayniyatlarlardan foydalanishda; – aylana uzunligini, yuzasini va shakl hajmini hisoblashga doir ishlarda. Test sinov nazorati tahlillaridan ma'lum bo'lishicha, bitiruvchilarning ko'pchiligi fizikaviy hodisalarni tushuntirishda jadval yoki grafik ko'rinishidagi ma'lumotlarni qayta ishlashda, turli jarayonlarni sodir bo'lishida fizik kattaliklarni o'zgarish tavsifini aniqlashda fizikaviy hodisalarni tushuntirishda topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Fizika o'qitishda yuqori darajadagi muvafaqiyatga erishishning muhim sharti bo'lib, barqaror darsliklarning mavjud emasligi hisoblanadi. Muammoning mohiyati shundan iboratki, amaldagi mavjud darsliklar davr talablariga javob bermaydi, o'quvchilar uchun qiziqarli emas, olam va texnika haqida yangi tasavvurlarni aks ettirmaydi, o'quvchilarni shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam bermaydi. Kadrlar muammosi ham mavjud bo'lib, Oliy ta'limni bitiruvchilari pedagogik yo'nalishda kerakli pedagogik institutlarda pedagogik bilim va ko'nikmalarga ega emaslar. Fizika va pedagogik mutaxassisliklar intellektual o'sishiga qodir emas umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog va fizika fani o'qituvchisi talablariga javob bera olmaydi. Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fani o'qituvchilari yetishmaydi.

Konsepsiyaning maqsadi va vazifalari. O'quvchilar uchun fizikani o'rganish tushunarli va ichki intiluvchan jarayon bo'lishi talab etiladi. Buning uchun atrofdagi olamning universal tadqiqot metodlarini o'zlashtirish, ushbu fanning tamoyillari va asosiy qonunlarini mohiyatini tushunadigan fizika tilini mukammal egallagan o'quvchi va o'qituvchiga yordam beradigan mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak. Umumiy o'rta ta'lim maktablari fizika ta'limi nafaqat kelgusida fizikani professional kasb qilib olgan mutaxassisga zarur, balki o'z kelajagini oldindan ishonchli aniq to'g'ri harakat va samarali aytib bera oladigan va o'ylaydigan har qanday madaniyatli inson uchun zarur. Fizikani o'qitish va o'rganish o'quvchilarni fizikadan olgan bilimlarini amaliyotga va boshqa sohalarda qo'llashga

tayyorgarliklarini ta'minlaydi. Shuningdek, boshqa fanlarni mazmuniga va o'qitishda, o'quvchilarning intellektual tayyorgarliklariga ta'sir qiladi.

Fizika o'qitishda loyihalashtirish va tadqiqot usullari asosiy usul bo'lishi ularning vazifalari o'quvchilarning kompetentligini rivojlanishidan iborat bo'lishi zarur. Loyihalashtirish fizika ta'limi bilan birgalikda — taxminan kundalik turmushdagi amaliyotga yaqin o'quv muammolarni yechish bo'yicha o'quvchini mustaqil ijodiy ishlashga majbur qiladi. Loyiha — laboratoriya sharoitida pedagog tomonidan tashkil qilingan yetarli darajada ishlab chiqilgan muhim harakatdir. Loyiha bilan ishlash natijasida quyidagi: kommunikativ, ijtimoiy va fan kompetensiyalar shakllantiriladi. O'quvchilarning mustaqil ravishda ishlashlari: umumlashtirilgan jadvallarni to'ldirishda, fizik praktikum ishlari va frontal laboratoriya ishlarini bajarishda, masalalar yechish jarayonida asosiy nazariy materialni mustahkamlash va mustaqil ravishda takrorlashga asosiy e'tibor qaratilishi zarur. Dars jarayonida o'quvchilarning darslik bilan mustaqil ishlashlari katta e'tibor qaratilishi kerak. Darslik bilan ishlash jarayonida o'rganilgan hodisa va jarayonlarni tushunirish, material ichidan mantiqan bog'liqlikni tushunish va ko'rish, matndan asosiy materialni ajratish ko'nikmasini shakllantirish zarur. Asosiy o'quv material o'quvchilar tomonidan dars jarayonida o'zlashtirilishi zarur. Ushbu holat esa o'qituvchidan har doim dars o'tish metodikasini o'ylab tashkil etishni talab qiladi. Yuqori sinflarda o'quv materialini suhbat shaklida yoki ma'ruza shaklida o'quv muammolarni ilgari surish orqali bayon qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quv eksperimentidan keng foydalanish (namoyish tajribalari, frontal laboratoriya ishlari, shu jumladan qisqa muddatli) o'quvchilarni mustaqil ishlashi. Darsning asosiy vaqti yangi mavzuni mustahkamlashga va tushuntirishga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilar bilimni nazorat qilish va takrorlash usullarini takomillashtirish zarur. Bularning hammasi tayanch vazifani yechishga — fizika darsi samaradorligini oshirishga yordam beradi.

1. Fizika ta'limi eksperimental bazasini tubdan yangilash va umumiy o'rta ta'lim maktablarini davr talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy pedagogik adabiyotlar bilan ta'minlash zarur.

2. Tadqiqotlar mamlakatimizda 12 yillik ta'limga asossiz tez o'tishdan yana asossiz o'n bir yillik ta'limga o'tishda yo'l qo'yilgan kamchiliklardan jiddiy tashvishda ekanini bildiradi. Bunday o'tishning zarur pedagogik tajriba sinovdan o'tkazilishi va uning natijalarini ilmiy va pedagogik jamoatchilik keng ishtirokida chuqur va har tomonlama muhokama qilinishi lozim. Hamda 2021/2022 o'quv yilidan boshlab mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablari 1-6 sinflarida joriy qilinadigan "Tabiiy fan" ni ham amaliyotga zarur pedagogik tajriba sinovdan o'tkazilmasdan amaliyotga joriy qilinishi haqidagi Xalq ta'lim vazirligi tashabbusi tubdan o'ylab tegishli xulosa chiqarilishi zaruriyati namoyon bo'lmoqda. Chunki Xalq ta'limi boshqaruvi sohasidagi turli mutaxassislar tomonidan bunday shoshma shosharlikda amaliyotda joriy qilingan holatlardan mutaxassis mansabdan ketganidan keyingi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari qanday holatlarni boshidan kechirishini esdan chiqarmaslik zarur.

3. Xalq ta'lim tasarufidagi barcha darajadagi o'quv dasturlarida ochiq ta'limning ulushini oshirish, barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarning global Internetga ulanishini ta'minlanishi mamlakat aholisining bilim darajasini oshirishda va juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim.

4. Fizika ta'limiga: umumiy o'rta ta'lim maktablari - pedagogika institutlari - universitetlarning integrastiyasiga alohida e'tibor berish zarur. Turli darajadagi ta'lim standartlari va dasturlarini birgalikda muhokama qilinishi tavsiya etiladi.

5. Fizika ta'limining ustuvor vazifasi mukammal va puxta chuqur fan bilimlariga ega bo'lish va mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirishdir. Fizika, informatika va iqtisodiyot fanlari bilimlarini birlashtirgan va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan yangi mutaxassislar - texnologiya menejerlarini tarbiyalash kerak. Bunday mutaxassislar jamiyatning texnologik elitasini shakllantirishlari mumkin.

6. Amaliyotga "Tabiiy fan"ni joriy etilishi munosabati bilan amaldagi fizika ta'limi o'quv dasturi va darsliklari muqobillari yaratilishi va ular uchun ochiq tanlov o'tkazish va ularni ommaviy nashrlarda nashr etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Алексашкина, Л.Н. Методы анализа отдельных элементов аппарата ориентировки в школьных учебниках истории Текст. / Л.Н. Алексашкина, Н.К. Боголюбова, Л.Ю. Кораблева // Проблемы школьного учебника: вып. 5 — М.: Просвещение, 1977. — С. 110-123.
2. Ананьев В.Г. Психология педагогической оценки Текст. / В.Г. Ананьев. М.:Педагогика, 1980. - 339 с.
3. Андреев, О.А. Учись быстро читать Текст. : кн. для уч-ся старших классов / О.А. Андреев, Л.Н. Хромов, -М.: Просвещение, 1991. — 160 с.
4. Анофрикова, С.В. и др. Методика преподавания физики в средней школе Текст. /. -М.: Просвещение, 1987.— 335 с.
5. Анофрикова, С.В. Не учить самостоятельности, а создавать условия для ее проявления Текст.7 С.В. Анофрикова // Физика, в школе. 1995. — № 3. — С.38-45.
6. Атепалихин, М.С. Вопросы- методологии физических измерений при обучении физике Текст.?: монография / М.С. Атепалихин, Ю.А. Сауров: — Киров: КИПК и ПРО; 2005. 106 с.
7. Бабанский, Ю.К. Оптимизация процесса обучения Текст. / Ю. К. Бабанский. М.: Педагогика, 1977. - 254 с.
8. Бардин, К.В. Как научить детей учиться Текст. : кн. для учителя / К.В. Бардин. — М.: Просвещение, 1987. 112 с.
9. Башарин, В.Ф. Фундаментальные методы познания физики Текст. : ч. 1 / В.Ф. Башарин. Казань: ИСПО РАО, 1999. - 52 с.
10. Башляр, Г. Новый рационализм Текст. / Г. Башляр. М., 1987. - 600 с.

RAQOBATBARDOSH FIZIKLARNI YETISHIB CHIQISHIDA OLIY TA'LIMDA TO'G'RI TASHKILLASHTIRILGAN MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI

Sh.F. To'rayev,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Anotatsiya: maqolada oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirishda, shuningdek tahliliy tafakkuri rivojlangan, ijodkor, raqobatbardosh zamonaviy fizik kadrlarni yetishtirishda to'g'ri yo'lga qo'yilgan mustaqil ta'limning muhim ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, innovatsion texnologiyalar, ta'lim sifati, yetuk mutaxassis, tahliliy tafakkur.

Muttasil o'zgarishda, rivojlanishda bo'lgan dunyoda hal qilinishi kerak bo'lgan har bir masala o'zining yangicha yechimlari bilan murakkab va diqqatga sazovordir. Endilikda, oliy ta'lim tizimi ham o'z oldiga faqat mutaxassisligi bo'yicha chuqur ilmga ega bo'lgan kadrlarni yetishtirib berish vazifasinigina qo'yolmas ekan, jamiyat har tomonlama rivojlanib yuksak maqsadlariga erishishi uchun zamonaviy kadrlardan talab qilinadigan qo'shimcha xususiyatlar ham bor ekan, "yetuk kadr" hatto "yetuk mutaxassis" tushunchalari ham o'z mohiyatini biroz o'zgartiradi, yangilaydi. Bu xususiyatlarning eng asosiylari esa zamonaviy mutaxassislar qabul qilingan axborotlarni o'zining rivojlangan tahliliy tafakkuri orqali mustaqil tahlil qilish, saralash va sara axborotlarni ilm-fan rivoji, yurt ravnaqi, xalq farovonligi uchun ishlata bilishidir. Bu maqsadga erishishning to'g'ridan to'g'ri va asosiy yo'llaridan biri esa ta'lim tizimidagi, ayniqsa oliy ta'lim tizimidagi har bir bo'g'inning mustaqil ta'limning ahamiyatini chuqur his qilishi va mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil qilinishi uchun yuqori ma'suliyat bilan yondashishidir. Deyarli har bir sohada ko'plab o'quv va ilmiy adabiyotlar o'zbek yoki boshqa tillarda anchagina bo'lishi bilan birgalikda har bir sohada ma'lumotlar yanada ko'payib borayotgan hamda har bir talabada internet tizimidan foydalanish imkoni bo'lgan bir davrda

mustaqil ta'lim butun boshli ta'lim jarayoning eng muhim qismiga aylanishi kerak. O'z-o'zidan, o'qituvchilarning ham eng asosiy vazifasi mustaqil ta'limni to'g'ri tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish bo'lishi kerak. Xo'sh, mustaqil ta'lim nima va u qanday tashkillashtirilishi kerak?

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va talabada shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikma va malakaga qaratilgan ta'lim shakllaridan biri bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida asosan auditoriyadan tashqarida bajariladi [4].

Talabalar mustaqil ta'limidan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- Talaba yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, o'rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanishi;
- o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlashi;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlashi;
- internet tarmog'idan samarali foydalanishi;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashishi;
- o'quv va ilmiy adabiyotlaridan mustaqil holda ilmiy axborotlarni ola bilishi;
- amaliy mashg'ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq (mustaqil ish) larni bajarishi va mustaqil ishlarni mas'ul o'qituvchi va guruh talabalari o'rtasida himoya qila bilishi kerak va h.k. [3].

Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlar talabadan “ko'proq eslab qolishni emas, ko'proq fikrlashni” talab qilar ekan bu fanlardan ko'proq mustaqil ishlar, referatlar, mustaqil tajribalar, laboratoriya ishlari, kurs ishlari, maxsus tipdagi masalalar, kerak bo'lsa, fan asoslarini mustahkamlash va kengaytirishlari uchun qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati mustaqil o'zlashtirishlari uchun talabalarga berilishi kerak. Albatta, biror sohaga har qanday yuqori samarali bo'lgan yangicha ishlash tizimi kirib kelar ekan bu jarayon to'g'ri tashkillashtirilmasa, bu tizimni sohaga tadbiq qilish uchun zaruriy sharoitlar yaratilmasa, sohada hech qachon va hech qanday ijobiy rivojlanish

bo'lmaydi. Oliy ta'limda ham asosiy e'tiborni mustaqil ta'limga qaratar ekanmiz, ayniqsa bu jarayonning boshlanishida bir qancha muammolarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, aksariyat talabalarda mustaqil o'qib o'zlashtirish ko'nikmasi yaxshi shakllanmaganligi, fanlardan o'zbek tilida sifatli o'quv qo'llanmalarining yetarli emasligi, talabalar sifatli internet bilan to'liq ta'minlamaganligi, qolaversa o'qituvchilar mustaqil ta'limni tashkillashtirishda zamonaviy, eng yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishi kerak bo'lgan bir paytda, bu jarayonda talabalarga to'g'ri yo'llanma berishga, ular o'rganib kelgan yangi bilimlarni ular bilan tahlil qilish va ularga o'zining nuqtai nazarini yetkazishga tajriba va bilimi yetmasligi mumkin va h.k.

Oliy ta'limda ilmi, zamonaviy, ijodkor, tahliliy va tanqidiy fikrlashi rivojlangan, sohadagi bilimlarini butun kasbiy faoliyatida ham rivojlantirish ko'nikmasiga ega bo'lgan fiziklarni yetishtirishda mustaqil ta'limning ahamiyati juda yuqoriligini ta'kidlagan holda, quyidagilarni taklif qilaman:

Auditoriyadagi dars mashg'ulotlarida talabalarni ko'proq mustaqil fikrlashga majbur qiluvchi metodlar orqali ta'lim jarayonini tashkil qilish. Masalan, fizik qonuniyatni talabaga doimo axborot ko'rinishida yetkazish shart emas, avval talabalarga savol ko'rinishida taqdim qilinsa, talabada mustaqil va kreativ fikrlash rivojlanadi.

Talabalarda mustaqil ta'lim va auditoriyadagi ta'lim soatlari nisbatini kurslar kesimida qayta ko'rib chiqish. Birinchi kurs talabalariga ko'proq ma'ruza darslari o'tilgan holda mustaqil ta'limga tayyorlab borilishi kerak. Yuqori kurs talabalari adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, qanday tartibda bilimlar ketma-ketligini o'zlashtirish kerakligini yaxshiroq bilishadi, fanning nazariy asoslarini anchagina mustahkamlashgan bo'lishadi va ularda mustaqil ta'lim soatlarini ko'paytirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bu yo'lda ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar tajribalarini chuqurroq o'rganish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash ham samarali usullardan biri hisoblanadi.

Aynan shu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 20.04.2017-yildagi PQ-

2909-sonli qarori imzolandi va unda jahonning yetakchi universitetlaridan tajriba o'rganish masalasiga ham jiddiy urg'u berilgan [1;2]. Masalan, Yevropa va AQSH oliy ta'lim tizimida butun boshli ta'limning 60-70% idan kam bo'lmagan qismi, birgina mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar ekanligi ham ko'p narsani anglatadi. Faqat ko'proq soat ajratish orqali natijaga erishib bo'lmashligini anglagan holda aytish mumkinki, bizda esa bu ko'rsatgich 40%.

Mustaqil ta'limda o'zlashtirish kerak bo'lgan axborot hajmi va o'zlashtirilishi uchun berilgan muddat proporsionalligi qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'limda mustaqil ta'limga hali hamon auditoriya darslariga nisbatan e'tibor kam. **Talabalarning oraliq va yakuniy nazorat biletlarida mustaqil ta'lim mavzularidan ham yetarli savollar kiritilishi shart.**

Pedagoglarni bu sohada malakasini oshirish kerak. O'qituvchi motivatsiya berishi kerak, qanday o'zlashtirishni o'rgatishi kerak, qisqasi talabaga mustaqil ta'lim olishida yordam bera olishi kerak.

Biz oliy ta'limda mustaqil ta'limga asosiy e'tiborni qaratgan holda, ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarini kerak bo'lsa, biroz qisqartirishga erishar ekanmiz, o'qituvchilarni ham o'z ustida ishlashi, sohaga doir sifatli o'quv va ilmiy adabiyotlar yaratishiga ham ko'proq imkon beramiz. Natijada, oliy ta'lim muassasalaridan yuksak ilm, keng tahliliy tafakkur va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlar yetishib chiqib Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadi deb umid qilamiz.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5032 son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 - apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son qarori.

3. Turaev Shukhratjon. The role of independent education in teaching physics. Society and innovations Special Issue -12(2021). 115-121.
4. Siddik Kakhkharovich Kakhkharov, Shukhratjon Farmonovich Turaev, (2021). Pedagogical and Psychological Aspekts Of Independent Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05) 240-246.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA O'QITISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK SHARTLARI

U.H. Hayitov,

Buxoro Davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitish usullarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishini yoritishga xizmat qiladigan o‘qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, o‘qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari.

O‘quvchilar kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning konseptual asosi sifatida pedagogik jarayon loyihasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish metodologiyasini ajratib ko‘rsatish muhim. Bu tegishli yordamni – jarayonlar, ta’lim texnologiyalari, tashkiliy-pedagogik muhitni aniqlash va takomillashtirish usullari ishlab chiqishni talab qiladi.

Zamonaviy o‘qitishni tashkil etishda pedagogik jarayonni tavsiflashda pedagogik shart-sharoitlar tushunchasi juda faol qo‘llanilganligi sababli pedagogik shart-sharoitlar haqida alohida gapirish mantiqan to‘g‘ri keladi. Shu sababli, tadqiqotimizda pedagogik shartlar tushunchasini har tomonlama tahlil qilish, o‘rganilayotgan toifani tushunish uchun muhim bo‘lgan bir qator qoidalarni aniqlab, ularni nazariy asoslash va dalillarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi:

- pedagogik jarayonning tashkil etilishi va samaradorligi uning tashkiliy-pedagogik sharoitlariga bog‘liq;

- pedagogik jarayonning innovasion texnologiyalardan foydalangan holda namunali tashkil etilishi innovasion ta'lim muhitining imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi, bu ta'lim muassasasi va mas'ul muassasalarning o'zaro hamkorligida, shuningdek, ta'lim muassasasining maqsadli faoliyatida o'z ifodasini topadi;

- pedagogik jarayonning tashkiliy-pedagogik shartlari uning tashkiliy elementlari bilan tavsiflanadi, bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonining mansabdor shaxslarining ta'lim jarayonini rivojlantirishga e'tiborini aks ettiradi;

- adekvat tanlangan pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish zamonaviy pedagogik jarayonlarning samarali ishlashi va rivojlanishini belgilaydi[1].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotimizda boshlang'ich ta'lim darslarining pedagogik shart-sharoitlarni pedagogik jarayonning yetakchi tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraymiz. Bu o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini maqsadli rivojlantirishda, shuningdek, o'quvchilarning kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi boshqa omillar bilan birga, ularning boshlang'ich ta'lim sohasidagi imkoniyatlarini aks ettirishda namoyon bo'ladi. Bizning tadqiqotimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishni takomillashtirish nuqtai nazaridan hal qilinishi mumkin bo'lgan vaziyatdan kelib chiqamiz, bunda o'quvchilar kompetensiyasini shakllantirish muammosini hal qilishning ikkita asosiy jihati hisobga olinadi:

Birinchi, ta'lim jarayoni sub'yektlari, ya'ni o'quvchi-o'quvchi va o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro ta'sirining mazmuni va mohiyatini ochib berish;

Ikkinchi, ta'lim jarayonida innovasion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayonida kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish omili sifatida qarash;

O'z o'rnida, ta'lim jarayonida innovasion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayonida kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish tadqiqotimizda asosiy o'rin tutadi.

Tadqiqot tahlilidan umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich sinf o'quv jarayonining pedagogik shart-sharoitlar konsepsiyasining quyidagi xususiyatlari aniqlandi:

- pedagogik shart-sharoitlar ta'lim jarayonining tashkiliy-pedagogik imkoniyatlarini namoyon etish, uning ta'lim jarayoniga ta'sirini aniqlash bilan tavsiflanadi;

- pedagogik shart-sharoitlar olimlar tomonidan pedagogik jarayonning metod va shakllari bo'lgan, uning oldida turgan muammolarni hal etish muvaffaqiyatini belgilovchi ob'yektiv imkoniyatlar yig'indisi sifatida belgilanadi;

- pedagogik jarayonning asosini tashkil etuvchi yoki jarayonni boshqaradigan pedagogik shart-sharoitlar ma'lum vaziyatlarda o'zaro bog'liq bo'lgan ta'sir choralari o'z ichiga oladi;

- pedagogik shart-sharoitlar pedagogik jarayonning ta'minot bazasi sifatida tavsiflanadi.[2] Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning umumiy nazariy va amaliy asoslarining yo'qligi o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun universal tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarning yo'qligidan dalolat beradi. Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda zamonaviy ta'lim mazmuni va turli xil sharoitlarning mavjudligini hisobga olish kerak. Shuning uchun ham tadqiqotimizning vazifasi boshlang'ich sinf o'quvchilari kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashdan iborat. O'qitishda innovasion texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-pedagogik shartlari bu pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyati bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining salohiyati namoyon bo'ladi. Shuningdek, u pedagogik jarayonni tartibli va muvaffaqiyatli olib borishga, o'quvchilarning kompetensiyasini samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1.Эргашев Б.Б. Профессионал таълим йўналиши талабаларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг педагогик стратегиясини лойиҳалаштириш. Пед. фан.док.(DSc)дисс. – Наманган: – 2022. – Б. 211.

2.Шуткина Ж.А. Организационно-педагогические условия формирования конкурентоспособности выпускников негосударственного вуза: Автореф. дис. к.пед.н. по специальности 13.00.01. – Нижний Новгород, 2008. – С. 22.

IQTIDORLI O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI MODULLI TA'LIM ASOSIDA YANADA TAKOMILLASHTIRISH

D.I.Maxmudova,

BuxDU, Pedagogika va Psixologiya

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada maktab o'quvchilarining iqtidorini yanada takomillashtirish va rivojlantirishda talab qilinadigan ko'rsatkichlar hamda maxsus bir necha bosqichli moduldan foydalashning xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Iqtidor, intellekt, aqliy rivojlanish, o'zligini anglash, qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual ijodiy salohiyat, o'quv rejasi modeli, kasbiy rivojlanish, iste'dodni rivojlantirish, iqtidorli o'quvchilar, loyihaga asoslangan faoliyat, ijodkorlik, loyiha, iqtidorlilik.

Mamlakatimizda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim tizimini kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvga qayta yo'naltirishdir. Asosiy kompetensiyalar maktab ta'limining eng dolzarb natijasi sifatida qaraladi. Bu shuni anglatadiki, maktabdagi ta'lim jarayonini shunday o'zgartirish kerakki, kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratilsin. Kashf et, izla, bu so'zlar zamonaviy ta'limning kalitiga aylanmoqda. Bu vazifani amaliy amalga oshirishda juda qiyin, chunki iqtidorli odamni topish va undan ham ko'proq uni individual xususiyatlariga muvofiq tarbiyalash juda qiyin. Iqtidorlilik ijodkorlik, motivatsiya va aqliy ustunlik nuqtai nazaridan tengdoshlaridan farq qiladigan o'ziga xos narsalarni yaratish qobiliyatini va bu xususiyatlarning kombinatsiyasini anglatadi. Iqtidorli va iqtidorli o'quvchilar oddiy tengdoshlaridan farqli xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarning bu jihatlarga e'tibor berishlari zarur.

Iqtidorli va iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash uchun boshqa o'quv dasturi va jarayonini amaliyotga joriy etish zarur. Shu munosabat bilan o'qitishni boyitish muhim strategiya va loyiha ishi uning muhim qismidir. Buning ahamiyatini oshirish, loyiha kutganlarini baham ko'rish, atrof-muhitni qo'llab-quvvatlash, ta'lim muhitida loyiha tarkibiy qismlarining hamkorligi, o'quvchilarga doimiy yordam ko'rsatish, rejalashtirish va ijobiy fikrlar o'quvchilarning qiziqishlari va umidlarini oshiradi va bu muvaffaqiyatga ta'sir qiladi.

Modulning maqsadi bu shaxs va jamiyatning dolzarb muammolarini hal qilishda bilim, ko'nikma, sub'ektiv tajriba va qadriyat yo'nalishlarini kompleks qo'llash asosida o'quvchilarning asosiy kompetentsiyalarini (loyiha, aks ettiruvchi, texnologik, ijtimoiy, kommunikativ, axborot) shakllantirish.

Modul vazifalari:

- muammolarni hal qilish uchun proyektiv ko'nikma va qobiliyatlarni (faoliyat usullarini) o'zlashtirish uchun barqaror manfaatlar va ijtimoiy ahamiyatga ega motivlarni shakllantirish.

- qadriyat yo'nalishlari va ma'nolarini shakllantirish.

- mustaqillikka bo'lgan ehtiyojni, kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va o'zgartirish qobiliyatini rivojlantirish.

- jamoada ishlash qobiliyatini, kommunikativ faollikni shakllantirish.

- ijodiy fikrlash va texnologik madaniyatni rivojlantirish.

- nutq intellektini rivojlantirish.

Taklif etilayotgan modul asosiy maktab o'quvchilarining yoshining psixologik va pedagogik xususiyatlariga nisbatan eng organik faoliyatdir. Muayyan yosh uchun eng muhim ta'lim natijasi - bu turli xil faoliyat turlarini farqlash qobiliyatidir. Bu yoshdagi o'quvchilar asta-sekin o'z harakatlarini rejalashtirishni o'rganadilar va loyihalash niyatini amalga oshirish sari harakat qiladilar, ularga maqsad qo'yish asosida muayyan faoliyat usullarini o'zlashtira oladilar. O'z tuzilishiga ko'ra kurs alohida modullardan iborat:

1. "Ma'lumotlar bilan ishlash"

2. "Axborot texnologiyalari asoslari"

3. "Madsadga qarab birgalikda harakat"
4. "Nutq san'ati"
5. "Eng yaxshi fikr"
6. "Isbotlash va ishontirish"
7. "Mustaqil bilim olishni shakllantirish".

Kutilgan natija:

1. Bolalarning ayrim faoliyat turlariga moyilligini aniqlash va qobiliyatlarini rivojlantirish.

2. Iqtidorli bolalar bilan ishlashni tashkil etishda o'qituvchilar, maktab ijtimoiy-psixologik xizmati mas'uliyatini oshirish.

3. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda ota-onalar va atrofdagi jamiyat ishtirokini faollashtirish.

4. Iqtidorli bolalar bilan ishlashning kompleks dasturini yaratish va amaliyotga tatbiq etish.

5. Iqtidorli bolalarga nisbatan qiziqish muhiti va xayrixoh munosabatni shakllantirish.

6. O'quvchilar o'zlashtirishlarining sifat ko'rsatkichlarini oshirish.

7. Turli darajadagi olimpiada va musobaqalarda sovrinli o'rinlar sonini ko'paytirish.

Kutilayotgan natijalar samaradorligini baholash mezonlari:

1. Maktab o'quvchilarining turli darajadagi olimpiadalarda va ijodiy tanlovlarda ishtirok etishining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari.

2. O'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishining ijobiy dinamikasi.

3. O'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishining ijobiy dinamikasi.

4. Iqtidorli bolalar bilan ishlaydigan o'qituvchilarning kasbiy mahoratining o'sishi fan o'qituvchisining "portfelida" aks ettirilgan.

5. Bitiruvchilarning ijtimoiy muvaffaqiyat darajasi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday qobiliyat tug'ma emas, balki faoliyat natijasida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti muayyan faoliyat turiga bo'lgan ehtiyojni

tarbiyalashdir. Shuningdek, ma'lum bir qobiliyatni rivojlantirish uchun moyillik va qulay shart-sharoitlarni tashxislash va ijobiy hissiy fonni yaratish kerak. Shu sababli, ularning rivojlanishidagi maxsus qobiliyat va tendentsiyalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar juda muhimdir. Har bir bola individualdir va uning qobiliyatlarini rivojlantirish faqat o'z xohishiga va takomillashtirishga tayyorligiga bog'liq.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” – T- “O'zbekiston” – 2017-yil.
2. Azizxo'jayev N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi ,Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006y.
3. Do'stmuhamedova SH.A., Nishanova Z.T. va boshqalar.”Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” – Toshkent:” O`qituvchi”, 2013.
4. Мишарева Н.Ю. “Как учить интеллектуально и педагогически одаренных старшеклассников” -2009.- № 4.- С.108-116.
5. Julie Dingle Swanson , Laura Brock , Meta Van Sickle , C. Anne Gutshall , Lara Russell & Lindsey Anderson “A Basis for Talent Development: The Integrated Curriculum Model and Evidence-based Strategies” 2017.
6. Jane Piirto Talented Children and Adults: Their Development and Education From the Selected Works July 2007.
8. Сиденко Е.А. Тренинг мотивации достижения в зарубежной психолого-педагогической практике. // Инновационные проекты и программы в образовании. - 2010. - №5

OLIV O'QUV YURLARIDA OLIV BORILADIGAN TARBIYAVIY ISHLARNING TALABA YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Y.U. Narzulloyev

BuxDU, Pedagogika va Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning talaba-yoshlar tarbiyasidagi o'rni to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, dunyoqarash, tarbiya, muomala, ma'rifat, madaniyat, axloq, odob.

Yurt taqdiri, vatan ravnaqi yoshlar ta'lim-tarbiyasiga chambarchas bog'liq. Ularning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishi mamlakat kelajagining barqarorligini ta'minlovchi asosiy omildir. SHaxs ma'naviyatining uzviy bir bo'lagi muomala madaniyati bo'lsa, xulq-atvor, odob-axloq, nutqiy faoliyat tushunchalari uning zamiriga kiradi. Asrlar osha har bir xalqqa xos bo'lgan, milliy-ma'naviy qadriyatlar yuksak madaniyat ramziga aylangan urf-odatlar, yurish-turish, yashash tarzi barchasi kishi shaxsiyatida aks etishi tabiiy.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va ta'lim sifatini yaxshilash, bunda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini inobatga olish, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalarni tarbiyaviy ishlarga innovatsion yo'naltirish, sifatli ta'limga yo'naltirilgan motivatsiyasini faollashtirish imkoniyatlari kengaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish"²⁴⁵ kabi vazifalar belgilangan. Bu borada oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini aniqlashtirish, tarbiyaviy ishlar jarayoni uchun axborot-metodik ta'minotni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyatning asosiy negizi bo'lgan yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lmog'i talab etiladi. Chunki, ma'naviy jihatdan

²⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son,1-modda.

shakllangan yoshlar jamiyatga to'g'ri, odilona munosabatda bo'la oladi, mehnat jamoalarida ishni tashkil etadi, mehnat unumdorligini oshirishning ilmiy-amaliy omillarni puxta egallaydi.

Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarni tarbiyaviy ishlar faoliyatga tayyorlashda ularning bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy talablarga mos shakllantirish muammosi bo'yicha qator pedagogik olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Shulardan, B.H.O'razovning ilmiy tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik asoslari va ularni amaliyotda qo'llash yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishning pedagogik va axborotli texnologiyasi tizimi yaratilib, o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning bir qator omillar va shart-sharoitlari aniqlangan va asoslangan.

J.A.Hamidovning "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi" nomli ilmiy izlanishlarida bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari o'rganilgan, shuningdek kasb ta'limi o'qituvchisi shaxsining kasbiy xislatlari va shaxsiy fazilatlarini tadqiq qilgan. Yangi ijtimoiy iqtisodiy sharoitda mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari uchun mutaxassis tayyorlash jarayonining ilmiy asoslari yaratildi, yangi mazmun va yo'nalishda faoliyat yurutuvchi uzliksiz ta'lim tizimi shakllantirildi. Hozirgi sharoitda respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarga tayyorlash mexanizmini yaratish oliy pedagogika ilm maskanlari oldida turgan eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'quv jarayoniga kasbiy ma'naviy sifatlarning kiritilishi hamda ularning kasbiy qobiliyatini ma'naviy shakllantirish lozim bo'ladi. Bunda bo'lg'usi o'qituvchilarda yuqoridagi hislatlarni tarkib toptirishda oliy o'quv yurtining asosiy vazifasi ma'naviyat va ma'rifat markazlari, ilmiy targ'ibot markazlari, jamoatchilik tashkilotlaridagi ma'naviyat va ma'rifat markazlari, mahalla, oila va maktablar faoliyatini izchil jonlantirishdan iborat bo'lishi kerak. Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishni takomillashtirish

va ularning samaradorligini oshirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Ular:

- ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishning nazariyasi va amaliyoti orasidagi pedagogik psixologik ziddiyatni bartaraf etish;
- talabalarning bo'sh vaqtini foydali tashkil qilishga qaratilgan tarbiyaviy, ma'naviy- ma'rifiy ishlarning yangi tizimini ishlab chiqish;
- talabalar kasbiy ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni bartaraf etishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- mazkur ta'lim yo'nalishida oliy ta'lim muassasasi va oila, mahalla hamkorligining samadorligini oshirishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. Avloniy.A Turkiy guliston yoxud axloq.T,O'qituvchi,1992.
2. Mahmudov.Y.G'. va boshq.Milliy g'urur –ma'naviy komillik mezoni-T.:Dizayn-Press,2011.-276 bet.
- 3.M.Mahmudov.Abdug'affor Xon. Ma'naviy yetuklik qadri-T.:Muharrir.2011,138 bet
4. SH.SH.Olimov.B.J.Umarov.Oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya asoslari-T.:Fan.2004,-84 bet

ABU ALI IBN SINONING INSON RUHIYATI, TA'LIM VA TARBIYA JARAYONI BORASIDAGI YONDASHUVLARI AHAMIYATI

D.A.Sobirova,

Psixologiya kafedrasi dotsenti

M.H.Haydarov,

BuxDU, Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi mdgistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sinoning shaxs borasidagi psixologik qarashlari, jumladan, shaxs temperamentining (mijoz)

tuzilishi, tashqi sabablar va unsurlar, ularning shaxs xatti-harakatiga ta'siri borasidagi fikrlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: asab, mijoz, shaxs, unsur, quvvat, kayfiyat, axloq.

O'rta asrlar Sharqida psixologik qarashlarning paydo bo'lishida buyuk Sharq mutafakkirlarining roli katta bo'lgan. Ular orasida Abu Ali ibn Sinoning ruh, asab tizimi haqidagi qarashlari katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning temperament xususiyatlariga qarab yondashish zarurligi haqidagi fikrlari ming yildan so'ng ham zamonaviy psixologiyada o'z qimmatini yo'qotmagan. Abu Ali ibn Sino dunyoda birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llab ko'rgan olimlardan biridir.²⁴⁶

Ma'lumki, uning eng mashhur asarlaridan biri "Kitob al fit-tib" ("Tib qonunlari") asari hisoblanib, unda odam salomatligi va kasalliklari borasida juda ko'p ma'lumotlar berilgan. "...ana shunday noyob fazilatlar sohibi bo'lmish mashhur alloma Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqyosida «Meditsina», «Sog'lom turmush tarzi» degan tushunchalarning fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni, ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor".²⁴⁷

Unda aytilishicha, har bir narsani bilish, u narsaning sabablari bo'lsa, shu sabablarni o'rganish orqali hosil bo'ladi. Agar sabablari bo'lmasa, unga xos va xos bo'lmagan belgilarini o'rganish orqali hosil bo'ladi.

Moddiy sabablar shunday negizlarki, sog'liq va kasallik shu negizlarda barpo bo'ladi. Alloma eng asosiy negizni ruh deb hisoblagan. Ta'sir qiluvchi sabablarga havo, suv, ovqat, ichimliklar va shu narsalarga aloqador fiziologik va jismoniy harakatlar, jumladan, uyquni ham faol ta'sir etuvchi sabab deya izoh berilgan. Ibn Sino shakliy sabablarga mijoz, ularda paydo bo'ladigan quvvatlar kirishi,

²⁴⁶ Xaydarov F.I, Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. -T.: TDPU, 2009. 54-bet.

²⁴⁷ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti. 2008, 27-bet.

tugallovchi sabab shaxs faoliyatidan iboratligini ta'kidlagan. U inson ruhiyatini tushuntirish uchun unsurlarga e'tibor qaratish kerakligini aytib o'tgan. Unsurlar to'rtta bo'ladi: yer, suv, havo va olov. Ularning ikkitasiyengil va ikkitasi og'ir. Yengillari olov va havo, og'irlari suv va yerdir.

Qomusiy olim o'z asarida: Yer oddiy jism bo'lib, uning tabiiy o'rni hamma jismlarning o'rtasida turadi. U o'zining sovuq va quruq tabiatliligi bilan ajralib turadi. Suv oddiy bir jism bo'lib, yer va havoni o'rab turadi, buning sababi uning nisbiy og'irligidandir. Tabiati sovuq va ho'ldir. Havo ham oddiy bir jismdir. Uning o'rni suvdan yuqori, biroq olovdan pastdir, buning sababi uning nisbiy yengilligidir, tabiati esa, issiq va ho'ldir. Olov mutlaq yengil bo'lib, tabiati issiq va quruqdir. Uning tabiiy o'rni unsurlarga tegishli haamma jismlarning yuqorisida turadi. Ikki og'ir unsur (yer va suv) a'zolarining paydo bo'lishiga va tinch turishiga yordam beradi, ikki yengil unsur (havo va olov) esa a'zolari harakat qildiruvchi nafsning o'zi bo'lib, ruhning paydo bo'lishiga va harakatlanishiga yordam beradilar, - deb hisoblagan.

Uning quyidagi mijoz haqidagi qarashlari tahlil qiladigan bo'lsak, u mijozga quyidagicha ta'rif bergan: "Unsurlarning nihoyat darajada mayda bo'laklaridagi qarama-qarshi kayfiyatlarning bir-biriga ta'siri ma'lum bir chegaraga yetganda paydo bo'lgan kayfiyat mijoz deyiladi". Unsurlarning eng kichik bo'laklaridagi kayfiyat har bir unurning aksar bo'laklari bilan aralashishi uchun lozimdir. Bu unsurlar o'z quvvatlari bilan bir-birlariga ta'sir qilishlari natijasida ularning hammasida o'ziga xos kayfiyat vujudga keladi. Ana shu kayfiyat bu mijozdir. Mijoz yuqoridagi unsurlarning quvvatlari: issiqlik, sovuqlik, ho'lilik va quruqlikdan vujudga keladi.

Alloma tabib sifatida mijoz turiga jiddiy e'tibor berilishi kerakligini quyidagicha ifodalagan: "Ma'lum bir dorini issiq yoki sovuq deyishdan murodimiz, bu doridan odam gavdasida bo'lib turadigan yuqoriroq isslik yo sovuqlik paydo bo'ladi degan ma'nodadir. Shuning uchun goho dori odam gavdasiga qaraganda sovuq, ba'zan issiq bo'ladi, balki bir dori Eshmat gavdasiga nisbatan issiq bo'lishi

bilan birga Toshmat gavdasiga nisbatan kamroq issiq bo'lishi mumkin. Shuning uchun muolaja paytida doim birgina o'sha dorini qo'llayvermaslik buyuriladi".²⁴⁸

Ibn Sino psixologiya fani taraqqiyotida qo'shgan hissasi shundan iboratki, olim izlanishlari va tajribalari orqali temperament va inson xarakteri haqida o'z ta'limotini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, inson mijozi to'rtga bo'linadi: issiq, sovuq, nam va quruq (zamonaviy psixologiyadagi temperament - to'rt mijozga mos ravishda).²⁴⁹ Mazkur mijozlar turg'un emas, balki meteorologik va havo o'zgarishi kabi tashqi yoki ichki omillar natijasida o'zgaradi. Organizmdagi suyuqlik darajasi ham inson mijoziga o'zgarishlar kiritishi mumkin. Oddiy mijoz turlari bilan birga, yana to'rt mukammal mijozni ajratib, ular organizmdagi to'rt suyuqlikdan biri (qon, shilliq, sariq va qora safro) ustun kelishiga ko'ra tuslanishini bayon qilgan. Har bir tirik mavjudotning o'ziga xos mijozi bo'ladi. Eng mo'tadil mijozga ega bo'lgan mavjudot odamlardir. Har bir odamning o'ziga xos mijozi bo'ladi. Har xil mintaqada yashovchi odamlarning mijozlari turlicha bo'ladi.

Quruq-issiq mijozli kishilarning alomatlari. Bu mijozdagi odamlar, odatda ko'z oqi sarg'ishroq, og'iz ta'mi achchiq, tili quruq, ko'p suyuqlik iste'mol qilishga moyil, tanasining harorati baland bo'lib, ochiq havoda yurishni va sovuq taomlarni xush ko'radi. Bunday kishilarning tomiri kuchli va tezroq uradi, shuningdek, asabiy, sezgir, hovliqma, o'zini tutish qobiliyati zaifroq va kam uyqu bo'ladi. Bu toifa odamlar ko'proq asab kasalliklari, jigar va hazm a'zolari dardlariga oson chalinadi.

Ho'l-issiq mijozli kishilarning alomatlari. Bu xildagi mijoz eng yaxshi mijoz hisoblanadi. Tana harorati baland, terilari silliq va tipik, qizil, tetik va quvvatli, og'zi shirin, ko'p esnaydigan, seruyqu bo'ladi. Shuningdek, xushfe'l, ochiq ko'ngil, oqil va fikrlash qobiliyati o'rtacha, sirtqi ta'sirlarga beriluvchan hamda o'zini tuta oladigan kishilardir. Bu mijozdagi odamlar ko'proq teri, yurak-tomir va buyrak kasalliklari bilan tez-tez og'riydi.

²⁴⁸ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (Uch jildlik saylanma). 1-jild. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993, 17-bet.

²⁴⁹ Sh.R.Baratov, L.Y.Olimov, O.R.Avezov. "Psixologiya nazariyasi va tarixi". – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. 2019.– 510 b.

Ho'l-sovuq mijozli kishilarning alomatlari. Bu mijozdagi odamlarning rangi oq tiniq, lablari qalin, tanasi yumshoq va sovuqroq bo'ladi. Bunday insonlar og'ir-bosiq, beg'am, uncha ta'sirlanmaydigan ko'rinadi. Jismonan va aqlan quruq-sovuq mijozli kishilarga qaraganda ojizroq bo'ladi. Bunday mijozdagi kishilar asosan, suyuq, xamir ovqat, ho'l mevalar iste'mol qiladi. Odatda, bu mijozli odamlar sovuqlik ta'sirida paydo bo'ladigan bo'g'im og'riqlari, falaj kasalliklariga tez chalinadi, ammo davolanishi oson kechadi.

Quruq-sovuq mijozli kishilarning alomatlari. Bu xildagi mijozlarning eti qattiq, sovuq va ozg'in, kam uyqu bo'lib, sekin ta'sirlanuvchi, xayolparast ekanliklari kuzatiladi. Hissiyotlari kuchli bo'lgandan amaliyotdan yiroq fikrlarga beriladi. Aql-farosatli, to'g'ri fikr qilish iqtidori tubanroq, salbiy fikrlashga hamda ruhiy azob chekishga moyilroqdir. Odamovi bo'lganliklaridan ruhiy kasalliklar va asab buzilishi oqibatida yurak xastaliklariga ko'p chalinadi.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha, mijoz kishi tanasining o'ziga xos xususiyatini belgilovchi omil.²⁵⁰ Shuningdek, Ibn Sino ovqatlarning ham mijozlarini ko'rsatib o'tgan. Uning yozishicha, to'yimli (yuqori kaloriyalı), o'tkir va achchiq, mazali taomlar, qovurilgan ovqatlar va shirinliklarning ko'p xili issiq mijozli, kam kaloriyalı, to'yimsiz ovqatlar sovuq mijozlidir. Odam mijozı xususiyatıga ko'ra issiq va sovuqqa hamda turıga ko'ra 4 xil – quruq-issiq, ho'l-issiq, ho'l-sovuq va quruq-sovuqqa ajraladi.

Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalab bergan hamda buni o'zining maxsus risolalarda talqin etgan. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi. Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, olim ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;

²⁵⁰ Sobirova D.A. "Sotsial intellektning psixologik asoslari".– Toshkent: "Fan" nashriyoti. 2019, – 152 b.

- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta'lim beradi. Demak, Ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ilmlarni o'rganish haqidagi ta'limotlari, talim-tarbiya haqidagi mulohazalari umuminsoniy pedagogik fkr taraqqiyotida yuksak o'rinni egallaydi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: “Ma'naviyat” nashriyoti. 2008, 27-bet.
2. Xaydarov F.I, Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. -T.: TDPU, 2009. 54-bet.
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (Uch jildlik saylanma). 1-jild. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993, 17-bet.
4. Sh.R.Baratov, L.Y.Olimov, O.R.Avezov. “Psixologiya nazariyasi va tarixi”. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. 2019.– 510 b.
6. Sobirova D.A. “Sotsial intellektning psixologik asoslari”.– Toshkent: “Fan” nashriyoti. 2019, – 152 b.
6. Ziyonet jamoat axborot ta'lim tarmog'i www.ziyonet.uz

FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL TA'LIMDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

M.M. Maxmudova,

BuxDU, Fizika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda interfaol ta'limning o'rni va dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: fizika, interfaol ta'lim, interfaol metodlar, zamonaviy ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ 5032-sonli²⁵¹ Qarorining qabul qilinishi bugungi kunda umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirishga, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, shuningdek, fizika fanini turli interfaol metodlar asosida o'qitishni tashkil qilishga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirmoqda.

Ilgari fizikani o'qitish an'anaviy ta'lim asosida olib borilib, talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan, hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta'lim ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, talabalarning o'zlashtirish darajasiga o'qitish metodlarining ta'sir darajasi quyidagicha ortib boradi, ya'ni ma'ruza - eshitganimizning 5% ini, o'qish - o'qiganimizning 10% ini, videousul, namoyish - ko'rganimizning 20% ini, tajribani namoyish qilish - ko'rgan va eshitganimizning 30% ini, bahs-munozara - muhokama qilganimizning 40% ini, ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash - mustaqil o'qiganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, himoya va namoyish qilganimizning 75% ini va muammoli vaziyat, keyslar orqali o'qitish - mustaqil o'rganganimiz, tahlil va muhokama qilganimizning 90% ini tashkil etadi. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida interfaol metodlarning qo'llanilishi talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib borishi, shuningdek, bilish imkoniyatining rivojlanishi, mustaqil ishlashi, bilish faoliyatlarining izlanuvchan va ijodiy harakterga ega bo'lishiga zamin yaratayapti.

²⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ 5032-sonli Qarori

Ma'lumki, zamonaviy o'qitish texnologiyalari shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslanadi va talabaning shaxsi-o'quv jarayonining markaziy figurasi hisoblanadi. Interfaol ta'lim esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sifatida²⁵² talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim bo'lib, o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Interfaol ta'lim (ingl. "interact", rus. "interaktiv"; "inter" – o'zaro, "act" – harakat qilmoq) o'qituvchining talabalar bilan, talabaning talaba bilan, ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari bilan faol o'zaro fikr almashuvlarini ko'zda tutadi. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni talabaga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, talaba bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahoratni talab etadi. O'qituvchi fizikani o'qitish jarayonida turli interfaol metodlar, jumladan, aqliy hujum, klaster, idrok xaritasi, Venn diagrammasi, «Bilaman, bilishni istayman, bilib oldim» (BBB), T-chizma, mosini top, bahs-munozara, toifalash jadvali, baliq skeleti, keys topshiriqlari, loyiha ishi, hamkorlikda izlanish kabilardan foydalanib, talabalarda kommunikativ qobiliyatning o'sishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhda ishlashni, o'z fikrini mustaqil bayon etishni o'rgatibgina qolmasdan, unda o'ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga hamda keng fikrlashga olib keladi²⁵³.

Dars jarayonida interfaol ta'limdan foydalanish quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi²⁵⁴:

²⁵² Avliyoqulov N.X., Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.- Buxoro. Matbaa, 2001

²⁵³ Xamraeva G.I., Maxmudova M.M. Umumta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol ta'lim texnologiyalari roli. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Buxoro, 2020-yil

²⁵⁴ Ziyomuxammedov B., Abdullaeva Sh. «Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot» uslubiy qo'llanma T. «Abu Ali Ibn Sino» 2001-yil

- *belgilangan maqsadning vazifalarni hal etish uchun mosligi;*
- *usulni qo'llashning soddaligi va osonligi;*
- *eng yaxshi natijalarni ta'minlashi va ularning kafolatini ta'minlay olishi.*

Fizika darslarida interfaol usullar asosida ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni, shuningdek, quyidagilarga e'tibor berish kerakligini talab qiladi:

- Qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi;
- Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun talabalar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur;
- Interfaol mashg'ulotda talabalarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta'lim texnologiyasi har bir o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilar o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi. Dars jarayonida nafaqat fizik hodisa va fizik qonuniyatlarni, balki fizik terminlarni o'rganishda ham interfaol ta'limni qo'llash talabalarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning amaliy faoliyatda tatbiq etishiga zamin yaratadi hamda fanni o'zlashtirish sifatini oshiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, umumta'lim maktablarida fizikani o'qitishda interfaol ta'limdan foydalanish:

- ✦ *talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;*
- ✦ *ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;*

- ✦ *har bir talabaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;*
- ✦ *o'quv materialining puxta o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;*
- ✦ *talabalarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;*
- ✦ *talabalarda mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;*
- ✦ *talabalarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;*
- ✦ *talabalarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi.*

Ta'lim jarayonini bunday tashkil qilish o'qituvchining mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha talabalarni faol va ongli ishlashlariga erishmog'i lozim.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 5032-sonli Qarori
2. Avliyoqulov N.X., Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.- Buxoro. Matbaa, 2001
3. Ziyomuxammedov B., Abdullaeva Sh. «Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot» uslubiy qo'llanma T. «Abu Ali Ibn Sino» 2001-yil
4. Xamraeva G.I., Maxmudova M.M. Umumta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol ta'lim texnologiyalari roli. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Buxoro, 2020-yil.

O'QITUVCHI KASBIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA AKMEOLOGIK YONDASHUV

T.T. Shikarov ,

BuxDU, Pedagogika va psixologiya

yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratning yuksak darajasiga erishish jarayonlari va pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy-uslubiy jixatdan asoslanganligi; pedagogik mutaxassisliklarda yuksak kasbiy bilimlarni egallash bosqichlari, kasbiy moslashganlikning mavjud holati diagnostikasi; tizimli

yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish modelining ishlab chiqish, amaliyotda tajribadan o'tkazilganligi bilan tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: akme, akmeshaxs, pedagogik, metodik hamda kasbiy ta'lim; pedagogik kuzatish; pedagogik tajriba; aqliy va jismoniy komillik, kompetentlik, pedagogik mahorat.

Ko'pgina ilmiy tasniflarda ontogeneza inson rivojlanishi bolalikdan to qarilik davrigacha o'rganiladi. Fanlar doirasida bolalik davridagi odamni o'rganish bilan pedologiya fani shug'ullanadi, qarilikni esa gerontologiya o'rganadi. So'nggi yillarda insonni o'rganish borasidagi qarashlardan asosiy maqsad inson shaxsining yetukligini, uning kamolga yetganlik darajasini, manaviy, aqliy va jismoniy jihatdan yetuklikka yaqinlashish jarayonlarini o'rganish va o'sha darajani egallash borasida izlanishlar qilish talab etilmoqda. Bu borada akmeologiya fani izlanishlar olib boradi. Akmeologiya maqsadi: yetuk insonlar rivojlanishining qoidalarini o'rganish insonni kamol toptirish, uning jismoniy, axloqiy, kasbiy takomillashuvga erishish qonunlari, mexanizmlarini o'rganishdan iborat.

Pedagogik akmeologiya maqsadi: ta'lim jarayoni ta'sirida yetuk professional pedagog shaxsining rivojlanish qonuniyat va mexanizmlarini o'rganishdan iborat.

Akmeologiyaning tadqiqot ob'yekti – komil insonning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni qonuniyatlari, mexanizmlari, shart-sharoitlari hamda omillarini o'rganuvchi, shuningdek inson taraqqiyotiga monelik qiluvchi holatlarni o'rganish jarayonidir.

Akmolik bilimlar aynan shaxs qobiliyatlari tizimiga qaratilgan bo'lib uning fan, madaniyat, ijtimoiy hayotdagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi.

Pedagogik akmeologiya esa o'qituvchi shaxsini qobiliyatlari, o'qituvchining kasbiy yutuqlarga erishishi uchun zarur omillarni yaratishga xizmat qiladi.

Bu fan tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnika fanlar chorrahasida paydo bo'lgan ilmiy bilim sohalari va u fenomenologiyani maqsadli va izchil ochib beradi, erta, o'rta va kechki yetuklik bosqichlarida inson rivojlanishining qonuniyatlari va mexanizmlari shaxs sifatida (eng murakkab tirik organizm), shaxs sifatida (bu holda, birinchi navbatda, mavjud ong, shaxs tomonidan voqelikga munosabat) va sub'ekt

sifatida to'g'ri munosabat shakllanadi. Insonning balog'at yoshini bazi olimlar yetuklikning dastlabki bosqichi deya baholaydilar bunga sabab oilaviy munosabatlari to'liq shakllanib borishi, ijtimoiylashuv darajasi ortishi, kasb va mahorat darajalarini egallash, intellektual bilish jarayonlarining shakllanishini misol keltiradilar. Akmeologiyada ob'ektiv va sub'ektiv omillarga katta e'tibor beriladi.

Kishi turfa faoliyat turlari bilan bant ekan unda acme darajasi rivoj topib boradi. "Akme" tushunchasi akmeologiya ilmiy fanning asosiy tushunchasidir. "Acme" tushunchasi turli nashrlarda tobora ko'proq foydalanilmoqda, shaxsning akmeshaxs darajasiga yetishishi turli tuman talqin qilinadi. Ba'zi hollarda mualliflar "Akme" haqida gapirganda, ular inson salomatligining eng yuqori cho'qqisini yoki uning shaxs sifatida rivojlanishidagi cho'qqisini, inson sub'ekt sifatida qandaydir faoliyat bilan shug'ullanib, o'zi uchun eng katta natijaga erishganidagi holatlar bilan tushuntiriladi.

Bo'lajak o'qituvchilar faoliyatlarini rivojlantirish masalasida akmeologik bilimlarda ta'lim tarbiya jarayonlarining muhim amalga oshirilishi zarur bo'lgan, muammolari ustida fikr yuritiladi. Akmeologik yondashuvlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish didaktik xususiyatlarini aniqlash; o'quv bilish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarga nisbatan qadriyat darajasidagi munosabatda bo'lish, o'qituvchi tajribasini orttirish, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'p yo'nalishli o'quv-bilish jarayonini loyihalashga tayyorlash, bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayonining konseptual asoslari va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari bilan qurollantirish kabi masalalar ustida akmeologik yondashuvlar muhim orin egallaydi.

O'qituvchi shaxsi yetuklik darajasi akmeshaxs sifatida shakllanishi uchun o'z ustida ishlashi o'z-o'zini tarbiyalash borasidagi bilimlarni egallashi, o'z ustida kasbiy mahorati, kasbiy kompetentligi darajalarini rivojlantirishi muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik akmeologiya sohasida akmeologik yetuklikka erishishning asosiy ikki jihati mavjud:

- 1) Shaxsiy komillik darajasiga erishish;
- 2) Kasbiy mahoratning yuksak darajasiga, mukammaligiga erishish;

Shu jihatda kasbiy mukammallikka erishish ma'lum bir davrlardan, bosqichlardan o'tishni talab etadi desak adashmaymiz.

Kasbiy yetuklik ko'rsatkichlari:

- 1) Shogirtlik bosqichi (20-23) yoshlar;
- 2) Mutaxassislik darajasi (24-40) yoshlarda;
- 3) Usta (30-50) yoshlarda;
- 4) Ustoz (ta'lim bera oluvchi va yangiliklarni o'rganishga intiluvchi yangilik yarata oluvchi) bosqichlari

Pedagog kasbini egallash va akmologik jihatdan ham yetuk pedagog bo'lishi uchun ketma-ket turli davrlardan o'tib boradi. Pedagogning kasbiy yetuklik darajasini egallashi bosqichlari:

Kasbni egallaganligi – o'z kasbiga doir nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirganligi, kasbiy salohiyatni shakllantirishga intilishi;

Kasbiy mahorat bosqichi – bunda o'qituvchi shaxsi o'zining nazariy amaliy bilimlarni o'quvchi shaxsiga yetkaza olish ko'nikmalarining shakllanishi bosqichi sanaladi;

Pedagogik ijodkorligi bosqichi – pedagog o'z kasbi bilimlariga asoslangan holda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirishi va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishi;

Pedagog kasbining faollashuvi – pedagogik mahoratning yukask darajisiga chiqishi hamda o'z kasbini yanada rivojlantirishga intilishi.

Pedagogik akmeologiya fani bugungi kunda qator turdosh fanlar bilan aloqadorlikda shakllanib rivojlanib bormoqda. Uning asosiy maqsadi pedagog shaxsining professional darajasiga yetishish jarayoni, uning shakllanishi, mohiyati, yetuklik darajasining qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

O'qituvchi o'z ustida ishlashi, yangi bilimlarni egallab borishi hamda kasbiy malakalarini rivojlantib borishi zarurdi. O'z-o'zini o'zgartirish qator harakatlarni talab qiladi:

O'zidagi mavjud kamchiliklardan uning kelib chiqish sabablarini o'rganish orqali qutulish mumkinligini anglab yetish;

Kamchiliklarni yo'qotish metod va vositalarni tanlash;

Belgilangan rejani bajarish;

O'zidagi barcha o'zgarishlar natijalarini belgilab borish.

Pedagogik akmeologiya ta'lim jarayoni mohiyatiga kirish orqali shaxsning rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishni loyihalash; pedagogik faoliyatda yetuklikka erishishning individual yo'llarini aniqlash; kasbiy pedagogik mezonlarni aniqlash va qabul qilish; sifat darajasida o'sishni ta'minlash uchun akmeologik yondashuvning shakl va metod, usul va uslublarni o'rganish; pedagogik vositalar orqali kompetentlik yo'llarini belgilash va boshqalar maqsadlar ustida ish olib bormoqda.

Adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003yil
2. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida
3. ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi.
4. Monografiya –Toshkent. "Fan va texnologiya", - 2017.
5. Isaev I.F. O'qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyati. M., 2002 yil
6. Tillayeva G.H Akmeologiya asoslari. O'quv qo'llanma - : "Tafakkur bo'stoni" Toshkent, 2014.
7. Акмеология: учебник / под общ. ред. Деркача А. А. — Москва: РАГС, 2002.
8. Головкин-Гаршина Н.В. Предмет акмеологии. Акмеологическая теория специалиста образования. СПб, 2006

VATAN RAVNAQI UCHUN CHET ELGA O'QISHGA YUBORILGAN “YOSH BUXOROLIKLAR” VA ULARNING ACHCHIQ QISMATI

U. G`. Sobirov,

*BuxDU Pedagogika va psixologiya
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: ushbu maqolada 1922-yilda Germaniyaga yuborilgan bir guruh yosh talabalar orasida o'qish uchun brogan Buxoro farzandlari, “Yosh Buxoroliklar” firqasi a'zolari Omonullo Nusratullo o'g'li va Maryam Sultonmurodovlarning hayoti, faoliyati, o'qishga yuborilishi, o'qish mobaynida va o'qishdan keying doimiy zahmatli hamda achchiq hayot yo'li haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: “Yosh Buxoroliklar”, “Shaxhido” maktabi, Germaniya, tahsil, qizil terrorchilar, madrasa, jadid maktabi, mashinasozlik zavodi, aksil inqilob, jinoyat, anti siyosat.

1922-yilning kuzida Germaniyaga tahsil olish uchun yo'l olgan o'zbekistonlik 55 talaba orasida sobiq Buxoro amirligining e'tiborli mulozimlaridan bo'lgan Nusratullo Nizomiddin o'g'lining farzandi Omonullo ham bor edi. Omonullo Nusratullo 1906 yili o'sha vaqtdagi Kitob viloyati begi Nusratullo Nizomiddinov oilasida dunyoga kelgan. Omonulloning bolaligi Kitob va Buxoro shaharlarida kechgan. U dastlab Buxoroda jadid maktabida so'ng madrasada ta'lim oladi. 1922 yil kuzida Germaniyaga jo'natilgan yoshlar qatorida Omonullo Nusratullo o'g'li ham bo'lgan.

Omonullo Berlin shahrida to'rt oylik til kursini bitirgach, amaliy tajriba orttirish maqsadida Berlindagi Lyudvig – Le mashinasozlik zavodiga ishga joylashtiriladi. Ma'lum bilim va malakaga erishgach, do'stlari Atoulla Sayfulmulk, Normurod Muhammadshoyev va Muhammad Xo'jayev kabi bir guruh yoshlar bilan Bronshveyge shahriga yo'l oladi. Bu yerda o'zlarning amaliy mahoratini yanada oshirish bilan birga fabrikalar qoshidagi maktablarda o'qib, oliy maktablarga o'qishga topshirish uchun o'rta maxsus shahodatnomalarni qo'lga kiritadi.

Omonullo Nusratullo Shtreylis shahrida joylashgan Texnika oliy maktabining injener-mexanik fakultetiga o'qishga kiradi. 1928-yil oxirida Omonullo Nusratullo o'g'li uchun ham sovetlar O'zbekistoni stipendiya berishni to'xtatadi. O'quv yilini zo'rg'a yopgan Omonullo Shtreylis shahridan Berlinga keladi. U 1929-yilning aprel oyida sobiq SSSRga xat yozib, O'zbekiston Xalq maorif komissarligidan so'nggi kursni yakunlab olishi uchun yordam so'rab murojaat qiladi. Biroq hech qanday javob qaytmaydi. Ilojsiz qolgan Omonullo Turkistonlik talabalarning yetakchisi bo'lgan Ahmad Naimdan yordam so'raydi. U Afg'onistonga Buxoro amiri Olimxon va uning mulozimi bo'lgan qarindoshlariga xat yo'llab, yordam so'rashi mumkinligini aytadi. Omonullo keyinchalik "O'zbekistonga qaytishim uchun muammo tug'diradi" degan mulohaza bilan bu fikrni rad etadi. Ayni paytda Germaniyadagi turkistonlik talabalarga siquv avj oladi va ularning arzimagan harakatlari ham antisovet faoliyat deb baholana boshladi. 1929-yilning yozida Ahmad Naim bilan amalga oshirilgan barcha izlanishlari bekor ketadi. Bu paytda Germaniyada qora ish topish ham oson kechmasdi. Omonullo Berlindagi bir arxitektorlar birlashmasiga 80 marka evaziga zo'rg'a ishga joylashadi. Biroq bu pul bilan o'qishni davom ettirishning ilojini topa olmadi. 1929-yil o'qishni davom ettirilmayligi aniq bo'lgach, O'zbekistonga qaytishga qaror qiladi. Omonullo Nusratullo o'g'li Germaniyada Erika Emilevna Bulman degan olmon qizi bilan oila qurgan edi. Ular birgalikda vatanga qaytadi.

Ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan yot unsur bo'lgan Omonullo Nusratullo o'g'lini avvaliga hech joyga ishga olishmadi. Ishga olgach esa Moskva, Samarqand, Toshkent va viloyatlararo xizmat safarlari, uning bir joyda qo'nim topishiga imkon bermadi. Oilasi Erika Bulman 1931-yilda "Chirchiqqurilish" tashkilotiga ishga kirib, nemis tilidan dars bera boshlaydi. Biroq har bir qadamini kuzatib yurgan maxsus xizmat vakillari ta'qibidan bezgan Erika 1936-yil o'z vataniga – Germaniyaga qaytib ketadi. Omonullo Nusratullo o'g'li 1933-1934-yillarda O'rta Osiyo Plan institutida dars beradi. Biroq u yerda ham uzoq ishlay olmadi. Uni germonofil g'oyalarni ilgari surdi, degan bahona bilan ishdan haydashadi. 1935

yilga kelib Toshkent shahrida yashashga to'liq ruxsat olgach, 1936 yildan Toshkent transport temir yo'l injenerlari institutiga ishga kiradi.

1937-yil 4-sentabr kuni Omonulla Nusratullo o'g'li aksilinqilobiy tashviqot, aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik kabi ayblovlar bilan qamoqqa olindi va uning pasporti, guvohnomalari, 2 ta albom to'la surat, kitoblari, xatlari barcha-barchasi uning jinoyatini isbotlovchi dalillar sifatida olib ketildi. 1937 yil 6 sentabr kuni to'ldirilgan shaxsiy anketasiga ko'ra, bu vaqtda uning oila a'zolari sifatida turmush o'rtog'i o'sha vaqtdagi Hamza teatri aktrisasi Tomat Ziyaxonova, 4,5 oylik qizi Surayyo va singlisi – Hamza teatri aktrisasi Muattar Hamzayevalar nomlari keltirilgan. 1937-yil 20-sentabr kuni o'tkazilgan so'roqda unga qarshi aksilsovet targ'ibot, aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik moddalarni qo'llayotganiga Omonullo qarshilik ko'rsatdi va “men 1922-29-yillarda Germaniyada o'qigan talabalar orasida birorta aksilinqilobiy tashkilot bo'lganligiga ishonmayman. SSSRga kelganimdan keyin ham hech bir tashviqot olib bormaganman. Faqat kimlardir mening nomimdan gapirsa javobgar bo'lib yuraman” deydi. 1937-yil 7-dekabr kuni chiqarilgan qarorda biror-bir dalil ko'rsatilmagan holda Omonulla Nusratullo o'g'liga o'ng trotskiychi, terrorchi, qurolli kuch yo'li bilan hokimiyatga qarshi chiqish uyushtirishga intilgan diversiyachi, degan ayblarni qo'yib, vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, shpionaj, aksilinqilobiy tashviqot va aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik aybini qo'llaydi. Omonulla Nusratulloning “jinoyatchi” ekanini so'zsiz isbotlaydigan tuhmat va uydirmalardan iborat qog'ozlar imzolatilganidan so'ng ish yakuniga yetkazildi. Uning aksilsovet kayfiyatidagi shaxs ekanligini sovet matbuoti sahifalaridan Yaponiya va Germaniya davlatlarining harbiy salohiyati haqidagi yozilgan maqolalarni o'qigani, Germaniyada tahsil olgan kimyogar olim Sattor Jabborning qamoqqa olinganidan norozi bo'lgani kabi misollar bilan “isbotlab” berildi. Omonullo o'ziga qarshi tuhmat va bo'htonlarning barchasini qat'iy rad etdi, biroq bu gaplarga hech qanday ahamiyat qaratilmadi.

O.Nusratulloning ayblov bayonnomasida 1922-1923 yillarda Germaniyada “Ozod Turkiston” tashkilotiga a'zo bo'lgan, 1928 yildan Ahmad Naim va Olimjon Idrisiylar foydasiga josus sifatida ishlagan, O'zbekistonda faol gemanofil targ'ibot

olib borgan deb, vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, shpionaj, qurolli qo'zg'olonga harakat, davlatga qarshi terakt, aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik aybi qo'yilgan. O.Nusratulloning ishi 1938-yil 9-oktabr soat 9:20 dan 9:30 gacha ko'rib chiqildi. "Uchlik" sudida unga o'lim hukmi o'qildi. Sud hukmi o'sha kuniyoq ijro etiladi. 1958-yil 14-avgustda Omonullo Nusratulloning turmush o'rtog'i Tomat Ziyaxonova Moskvaga shikoyat yo'llaydi. Unda erining 1937-yil 6-sentabrda qamoqqa olingani va uning keyingi taqdiri haqida hech qanday ma'lumotga ega emasligini ma'lum qiladi. 1958-yil 23-oktabrdan Omonullo Nusratulloning ishini qayta ko'rib chiqish ishlari boshlab yuborildi. 1958-yilda 19-dekabr kuni bu paytda Muqimiy teatrida aktrisa bo'lgan Tomat Ziyaxonova so'roqqa chaqirilganda: "Omonullo bilan bor yo'g'i bir yildan ko'proq yashaganman, lekin biror marta uning hukumatga qarshi faoliyatini ko'rmaganman. Uni o'z kasbini chuqur biluvchi, halol, vijdonli, keng dunyoqarashga ega, bilimdon inson, deb bilganman" deydi.

1958-yil 19-dekabrda Pedagogika instituti o'qituvchisi Mahmud Akbarov qayta so'roqda quyidagilarni hikoya qiladi. Biz Omonullo bilan Transport institutida birga ishlaganmiz. U mashinasozlik va nemis tilidan dars berar edi. Men u kishini tushunaman. Yevropada ta'lim olgan, sovet turmush tarzini ko'p qabul eta olmas edi. Rostgo'yiligi uchun ko'pchilikka yoqmasdi. U kishi o'ta bilimdon, o'z ishining ustasi, intizomli, haqiqiy ziyoli inson edi. Faqat o'z qarashini bizga tushunarsiz misollar bilan dalillardir. Menimcha, shuning uchun ko'pchilik u kishini antisovet kayfiyatga ega deb bilar edi, deydi. Chaqirilgan guvohlarning ko'rsatmalari asosida 1959-yil 20-aprelda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi jinoyat alomatlari yo'qligi uchun Omonullo Nusratulloni oqladi.²⁵⁵

Sultonmurodova Maryam Jumaniyozovna 1905-yil 13-fevralda Xiva shahrida tug'ilgan. Dastlab Chandir Qiyot qishlog'ida dehqonchilik bilan shug'ullangan otasi Jumaniyoz Sultonmurodov 1916-yilgi xalq qo'zg'olonida ishtirok etib Xiva xonining ta'qibiga uchradi. 1917-yil u oilasi bilan xonlikni tark etib, 1919-yilgacha To'rtko'lda yashashga majbur bo'lgan. Jumaniyoz Sultonmurodov taraqqiyparvar

²⁵⁵ Toshkentdagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi Bahrom Irzaevning 1920-yillarda xorijda ta'lim olgan o'zbek yoshlari va ularni vatanda kutgan qatag'onlar haqidagi maqolasi

inson sifatida 1911 yil qizi Maryamni Urganchda yangi usuldagi no'g'oy (tatar) maktabiga bergan. Maryam u yerda besh yil o'qigach, oilasi ko'chishi sabab To'rtko'ldagi jadid maktabida ta'limni davom ettirdi.

Maryam Sultonmurodova Toshkentdagi maorif maktabi gimnaziyasida o'qidi, so'ngra oliy ma'lumot olish maqsadida Orenburg tatar pedagogika institutiga o'qishga kirdi. 1921-yil yozgi ta'tilda Xorazmga kelgan Maryam Xorazm kompartiyasi Markaziy Kengashida avval adabiy bo'limga, so'ng ayollar bo'limiga rahbarlikka tayinlandi. U 1922-yil Toshkentga qaytib, O'rta Osiyo davlat universitetining Ishchi fakultetiga hujjat topshirdi. 1922-yil oktyabrda Maryam Sultonmurodova Buxoro hukumati tomonidan Germaniyaga o'qish uchun yuborilayotgan talabalar safiga kiritildi. Xorazm Xalq Respublikasining Moskvadagi muxtor vakilligi xodimi Karim Safaev yordamida Maryam xorij uchun pasport olib, Leningradga yo'l oldi. Leningrad portidan Xayrinisa Majidxonova va To'lagan Mo'minovlar bo'lgan guruh bilan paroxodda Germaniyaning Shtetsin shahriga yetib bordilar. Maryam Sultonmurodova avvaliga Berlin universiteti qoshidagi olti oylik tayyorlov kursida o'qidi. So'ng Darmshtadt shahridagi «Viktoriya» o'qituvchilar seminariyasiga kirib ikki yil ta'lim oldi. 1926-27-yillarda esa Potsdamdagi «Fraunschul» ayollar maktabida amaliyot o'tadi. 1927-yil yozgi ta'til vaqtida dugonasi Xayrinisa Majidxonova bilan Frantsiya poytaxti Parijga sayohat qilar ekan, ularning Parij opera teatri oshxonasida Ahmad Naim va Mustaf Cho'qaylar bilan ikki daqiqalik tasodifiy uchrashuvi keyinchalik qatag'on etilishi uchun asosiy bahona bo'ldi.

«Turkiston» gazetasining 1924-yil sentyabr sonida e'lon qilingan maqolasida Ertoy shunday yozgan: «...Xivalik Maryamxon moddiy tomondan yaxshi ta'min qilinmagani uchun yo'llarida ko'p chatoqliklar ko'radir. Chindan hayot xotini bo'lmoq va Turkistonda qolg'on opa-singillarimizning istiqboli uchun hech kim ko'rsatmas qahramonlik qilib kelgan qimmatlik qizimizga Xorazm jumhuriyatimizning shunday sovuqqonlik bilan qarashig'a Turkiston yoshlari taassuf etolmay turolmaydurlar»²⁵⁶. Maktabdagi amaliyoti izidan Maryam

²⁵⁶ Ertoyning «Turkiston» gazetasi 1924-yil sentyabr sonida e'lon qilingan maqolasida

Berlindagi professor Genrix Finkelshteynning olti oylik hamshiralik kursini o'qib bitirdi va 1928 yil SSSRga qaytdi. Maryam Sultonmurodova O'zbekistonga kelishi bilan so'roq ta'qiblar boshlanib ketdi. Avvaliga hech joydan ish berilmadi. Faqat 1929 yil fevralida Germaniyada ta'lim olgan Badri Sayfulmulk yordamida O'zbekiston Sog'liqni saqlash komissarligiga qarashli bolalik va onalikni asrash institutiga hamshira bo'lib ishga kirishga muvaffaq bo'ldi.

Maryam 1929 yil oxirida Asqar Axmadbekov bilan oila qurib, to'rt yil Kattaqo'rg'onda yashadi. Eri qamoqqa olingach, 1933 yil Toshkentga qaytib O'rta Osiyo davlat universitetida, «Guliston» va «Yorqin turmush» jurnallarida ishladi. Yosh jurnalist Davron Madaminga turmushga chiqib, baxtli hayot ostonasida turgan paytida haqiqiy ayanchli kunlar yetib keldi.

1937-yil sentyabrda Maryam Sultonmurodova olti yil Germaniyada o'qigan, «Turkiston» josuslik tashkiloti a'zosi deb, O'zSSR Jinoyat Kodeksining 60 (aksilinqilobiy tashviqot), 67 (aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik) moddalari bilan ayblanib qamoqqa olindi. Tintuv jarayonida uning pasporti, diplomlari, mehnat daftarchasi, xatlari, kitoblari, 35 ta shaxsiy suratlari xatlanib tortib olindi. Maryam olti oylik norasida qizi Anora bilan qamoqxona azoblariga giriftor etildi. Maryam Sultonmurodova 1938-yil 4-oktyabrda so'nggi bor so'roqda ham «Germaniyada «Ozod Turkiston» degan tashkilot hech qachon bo'lmagan va bu haqida men vatanga qaytib eshitdim. Boshqa hech narsa qo'shimcha qila olmayman. Mening hech qanday aybim yo'q,» dedi. Uzoq vaqt davom etgan azobli tergov davomida unga qo'yilgan birorta ayb o'z isbotini topmadi. Biroq, Maryam vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, shpionaj, qurolli qo'zg'olonga harakat, Sovet davlatiga qarshi terakt, aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik kabi o'ta xavfli ayblovlarga loyiq deb topildi. Shu oy o'tkazilgan «Uchlik» sudi atigi 20 daqiqa davom etdi. Maryam Sultonmurodova 10 yillik qamoq jazosiga hukm etildi.

U jazoni dastlab Toshkent, so'ng Qozon va Suzdal turmalarida o'tadi. Keyin uzoq Kolima oblastiga yuborilib, Magadandagi «Dalstroy» qurilishida 1947-yil 13-sentyabrgacha azob-uqubat chekdi. Jazo muddati tugagach vatanga qaytib Urganch tumanidagi, Yangibozor fuqarolar yig'inida hamshira bo'lib ish boshladi. Biroq,

uning xursandchiligi yana uzoqqa bormadi. U 1949-yil 30-martda qayta qamoqqa olindi va bu gal ham eski «jinoyatlari» uchun O'zSSR JKning 57-moddasi 1 qismi (Vatanga hiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, shpionaj), 67- (aksilinqilobiy tashkilotga a'zolik) moddalari qo'llanib u uzoq Krasnoyarsk O'lkasiga surgun qilindi.

1954-yil 1-sentyabrda uyiga yozgan xatini u shunday yakunlaydi:

«Azizlarim! Bizlar bugun surgundan bo'shadik. Uy va mollarni o'z bahosiga sota bilsak, oktyabr oylarina ketamiz. Sota bilmasak, bu yerda qishlaymiz. Sog' bo'ling. Sog'liqda ko'rishaylik. Xat yozinglar, hammangizga salom bilan Maryam.». Maryam Sul-tonmurodovanning 1956-yil 10-may kuni yozgan arizasi asosida uning ishi qayta ko'rib chiqishga topshirildi. 1956-yil sentyabrda o'tkazilgan so'roq davomida u boshidan kechirgan barcha ko'rgiliklarni birma-bir hikoya qildi. Jumladan: «... 1949-54 yillar Krasnoyarsk o'lkasida surgunda bo'lib qaytdim, hozirda Qaraman qishlog'ida hamshira bo'lib ishlayman. Berlinda «Turkiston talabalar uyushmasi» degan tashkilot bo'lgan. Ammo, uning tadbirlarida faqat ilmiy munozaralar bo'lar, talabalarning ta'lim jarayonidagi muammolari va iqtisodiy masalalarini muhokama qilar edik...». Tashkilot rahbarlaridan To'lagan Mo'minov juda bilimdon, Sul-ton Matqul nihoyat bosiq va mulohazali, Temur Kazbekov sho'x va hazilkash, Sattor Jabbor esa yetuk olim va adabiyotga oshno inson sifatida umrbod xotirasida qolganini eslaydi.²⁵⁷ Ikki surgundan omon qolgan ziyoli Maryam Sul-tonmurodova 1957 yil 2 avgustda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oqlandi. Biroq, u to'liq oqlanganidan keyin ham ro'shnolik ko'rmadi.

Maryam qorong'u kechalarda o'zining erksiz, baxtsiz hayotini quyidagicha qog'ozga tushirgan: «... 1957-yil meni oqlashgan. Mendan baxtli odam yo'q edi. Axiyri orzuyim ushaldi! O, mening xursand bo'lganlarim... Hayotimda katta bir o'zgarish kuta boshladim va axiyri to'la huquqli sovet grajdani bo'laman deb o'yladim! Lekin afsus, ko'p o'tmay ixlosim qaytdi. Men hamon nazorat ostida ekanligimni, sharmisorlik tamg'asining yuki hamon bosib yotganini angladim...

²⁵⁷ Maryam Sul-tonmurodovanning esdaliklaridan.

O'zligingni pastga urishlarini his etishdan ortiq alam yo'q olamda. O, bu qanchalar og'ir! Agarda menga yuqoridan, masxaromuz qarayotgan mana shu kimsalar mendan yaxshiroq va mendan pokroq bo'lishganida-ku, balki bu holga chidardim. Lekin aslo unday emas edi. Aksincha, ularning biri chayqovchilik, ichkilikbozlik, buzuqlik qilardi. Ikkinchisi, birovning erini tortib olgan, farzandini otasiz qoldirgan edi... Hech bo'lmasa mana shu kimsalar meni tinch qo'yishsa edi, ko'nglimga g'ulg'u solishmasa edi...»²⁵⁸.

«Nahotki men shunchalar xayfli jinoyatchi bo'lsam, nainki meni nazorat qilish uchun butun boshli shtat belgilansa? Nahotki shunday qilishga ular haqli bo'lsalar?» deb yozgandi u oqlanishi ortidan ham davom etgan kuzatuvlardan nolib. Bu haqsizliklar ham Maryamning irodasini sindira olmadi. U o'zini bir lahza bo'lsin aybdor deb bilmadi. Haqiqatga ishondi, insoniyligini yo'qotmadi. Bu bilan sho'rolar tuzumining sharmandali tarixida inson matonati timsoli sifatida qoldi. Maryam Sultonmurodovanning ta'qiblar va tazyiqlarga to'la umri 1971 yilda nihoyasiga yetdi. Undan «Rahmat desinlar», «Majnuntol», «Qalbim nidosi», «Mehr ko'zda», «Karvonlar kelganda», «Kutilmagan baxt», «Betamiz yigit» nomli hikoyalar qolgan.

Adabiyotlar:

1. Nusratillo Naimov- “Buxoro jadidlari” –“Fan”. Tosh-2000y
2. Jamolova Dilnoza-“Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri-XX asr boshlari)”-Tosh-2019
3. Ertoyning «Turkiston» gazetasi 1924-yil sentyabr sonida e'lon qilingan maqolasi
4. Toshkentdagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi Bahrom Irzaevning 1920-yillarda xorijda ta'lim olgan o'zbek yoshlari va ularni vatanda kutgan qatag'onlar haqidagi maqolasi
5. <http://.Jadidlar.uz>

²⁵⁸ Maryam Sultonmurodovanning esdaliklaridan

5A110902 – Pedagogika va psixologiya

O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA ULARNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING AHAMIYATI

X.J. Siddiqova,

BuxDU, Pedagogika va psixologiya

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maktab o'quvchilarining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishda ko'maklashiladigan metodlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, tarbiyaviy ishlar, psixologik xususiyatlar, bolalar psixologiyasi, fiziologiya, aqliy rivojlanish.

Bugungi tez o'zgarayotgan zamonda, barcha o'qituvchilar sinf rahbarlari, otionalarning tarbiyaga oid bilim va malakasini muntazam oshirib borish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Uzlaksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarning ilm-fan sohasida faol ishlash, yoshlar tarbiyasiga oid loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-metodik dasturlar yaratish kabilar o'quvchi – yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyati, kuch-qudrati va olijanob fazilatlarini ulug' va ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan xam yoshligidanoq bolalarda "Aql va fikr tarbiyasini yaxshilash uchun uning fikrlashi, zakovati, xotirasi va qobiliyatini takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlar o'tkazish, turli ibratli ertak va hikoyalar so'zlab beriladi, zarur bilim va ma'lumotlar berish muhim hisoblanadi. Odatda, bolalar kichik yoshda har bir ko'rgan narsasi haqida so'raydigan, ularni tekshirtirib, sinab ko'radigan, tinimsiz savollar beradigan bo'ladi. Bunday paytda ularning savollariga erinmay, hafsala bilan, tushunarli, sodda qilib javob qaytarish va tarbiyalash zarur. Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma'naviy va estetik sifatlarini shakllantirishni nazarda

tutadi. Tarbiya oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar asosida o'quvchi ongi va bilimi darajasini shakllantiradi.

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda o'qituvchi, ota-ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqarish kabilar uning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlari hamda ijodiy faoliyatining tashkil etilishiga ham bog'liqdir. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarga kundalik hayotiy voqealar, jamoadagi tartib-qoida va xulq-atvor masalalarining aniqligi va ta'sirchanligi jarayonini loyihalashtirish, shakl, metod, shart-sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish, ularning ruhiy holatlari, muloqot va munosabatlari, ma'naviy shart-sharoitlarning yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarning axloqiy talablarga javob berishida, ularning faolligi ixtiyoriyligi, tashkilotchiligi va ijodkorligiga ahamiyat beriladi.

Tarbiyaviy ishlar mazmunida sog'lom hayot, sog'lom turmush tarzi, sog'lom e'tiqod, barkamollik, milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabilar asosiy o'rinni egallaydi.

Bolalar psixologiyasi predmetining muhim tomonlaridan biri - turli yoshdagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, hissiyot, xayol va iroda kabi psixik jarayonlarining namoyon bo'lishi, taraqqiy etishi hamda takomillashuvining qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir. Bolalar psixologiyasi bola shaxsiy psixologik xususiyatlarini qanday tarkib toptirishni chuqur analiz qiladi. Bunda bolalar psixologiyasining bolalar shaxsini tarkib topishiga faol ta'sir qiluvchi omillar qiziqtiradi.

Ma'lumki, bola shaxsi va uning psixologik xususiyatlari qandaydir tasodifiy omillarning tartibsiz ta'sir etishi natijasida emas, balki muayyan konkret omilning qonuniy ta'sir etishda tarkib toptiradi. Ana shu muhim qonuniy tarzda ta'sir qiladigan omillarni ochish va isbotlash bilan bolalar psixologiyasi shug'ullanadi. Bolalar psixologiyasi bolalar shaxsi va shaxsiy psixologik qonuniyatlarning tarkib topishi

kabi muhim ilmiy malakalarni o'rganib, mamlakatimizda yangi tipdagi odamlarni tarbiyalab yetishtirish qonuniyatlarini ochib beradi.

Bolalar psixologiyasi o'zining murakkab predmetini o'rganishda falsafaga tayanadi. Ma'lumki, tabiat va jamiyatlardagi narsa hamda hodisalar taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, hamda inson ongining ijtimoiy hayotga bog'liqligini isbotlab beradi.

Tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlaridan xabardor bo'lish bolalar psixologiyasiga bolalar psixik taraqqiyotini o'rganishda va «tabiiy zot» bo'lib tug'ilgan bolaning inson ijtimoiy tajribasini egallab, shaxs bo'lib yetishini o'rganish to'g'ri yo'l topishga yordam beradi.

Bolalarda psixik jihatdan taraqqiy etish muammosini o'rganish falsafa uchun ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, bilish nazariyasi va dialektika qonuniyatlarining tarkib topishida lozim bo'lgan bilim sohalarini sanab ko'rsatar ekan, psixologiyaning uch sohasini «bolalarning aqliy rivojlanish tarixi, hayvonlarning aqliy rivojlanish tarixi, til tarixi, psixologiya, sezgi organlari fiziologiyasi»ni ko'rsatgan. Demak, bolalar psixologiyasi bolalar psixikasining taraqqiy etishi tarixi va qonuniyatlarini o'rganib filofofiyaning yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Bolalar psixologiyasi o'z predmetini o'rganishda umumiy psixologiyaning inson psixikasi haqida qo'lga kiritilgan yutuqlariga asoslanadi. Masalan, umumiy psixologiyaning psixik jarayonlar, psixologik holatlar, inson shaxsi va uning faoliyati haqidagi ta'limotlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanadi. O'z navbatida, umumiy psixik holat ham bolalar psixologiyasining yutuqlariga asoslanadi.

Bolalar psixologiyasi anatomiya va fiziologiya fanlari tomonidan qulga kiritilgan yutuqlardan ham keng foydalanadi. Bunda bolalar psixologiyasi, xususan bolalar nerv sistemasi va oliy nerv faoliyatining ma'lumotlaridan foydalanadi. Bolalar nerv sistemasining normal taraqqiyoti va normal ishlashi bola psixikasi rivojlanishining muhim shartlaridandir. Shuning uchun psixolog mutaxassislar bola nerv sistemasining taraqqiyoti masalalari bilan bevosita tanish bo'lishlari lozim.

Bolalar psixologiyasi pedagogika fani bilan ham yaqindan aloqadadir. Pedagogika fani yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni xar tomonlama garmonik tarzda rivojlantirish haqidagi fandır. Bolalar psixologiyasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi, yo'l-yo'riqlari va vazifalariga doir fikrlarni pedagogika fanidan oladi, xamda unga yaqindan yordam beradi.

Bolaning aqliy taraqqiyoti qonunlaridan xabardor bo'lish turli yoshdagi bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil qilish imkoniyatini beradi.

Bolalar psixologiyasi bolalar gigiyenasi, bolalardagi kasalliklarni o'rganuvchi pediatriya va bolalar texnologiyasi bilan ham bog'liqdir. Bu fan bolalar psixologiyasi namoyondalariga bolalar psixik taraqqiyotining normal borayotganini chuqurroq bilish va normal taraqqiyotda burilish sabablarini aniqlash imkonini beradi. Bolalar psixologiyasi esa, o'z navbatida, bolalarning normal psixik taraqqiyotini aniqlab berish bilan birga vrachlarning bola psixologiyasini yanada yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi.

Bolalar psixologiyasi bola shaxsi va shaxsiy psixologik xususiyatlarning tarkib topishini o'rganishda (bir qator) bolalar adabiyotidan, xususan, avtobiografik asarlardan keng foydalandi. Shunday kilib, bolalar psixologiyasi bolalarning murakkab psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarini o'rganishda bir qator fanlarning qo'lga kiritgan yutuqlaridan foydalanadi va ularga yordam beradi.

Ma'lumki, har bir fanning o'z predmeti va vazifalari, uni o'rganish hamda tekshirishga qaratilgan bir qator metodlari bo'ladi. Metod lotincha- so'zdan olingan bo'lib, konkret masalalarni hal qilishga qaratilgan voqelikni amaliy yoki nazariy bilish usullari hamda amallarining majmuidir. Agar har bir alohida fanga nisbatan oladigan bo'lsak, u paytda metod ayni shu fanning predmetini tekshirish, o'rganish va tushuntirish usullarining yig'indisidir.

Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyaning deyarli hamma metodlaridan foydalanadi. Umumiy psixologiyaning metodlari - kuzatish, eksperiment, suhbat,

faoliyat maxsulotlarini o'rganish kundalik va biografik materiallarni o'rganish, sosiometrik, test va shu kabi metodlardir.²⁵⁹

1. Foydalanilgan adabiyotlar: E.G'oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
2. G`oziyev E.G`. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.
3. Foydalanilgan adabiyotlar: E.G'oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
4. G`oziyev E.G`. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.

А.ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АДЛЕРА: СИБЛИНГ И ТЕОРИЯ ДЕФИЦИТА

М.Ш.Усманов,

БухГУ, Психология (по видам деятельности)

Аннотация: В этой статье А.Психологические взгляды Адлера:разговор о природе теории сиблинга и дефицита.

Ключевые слова: старший ребенок, средний ребенок, сиблинг, дефицит,

По мнению Адлера, порядок рождения — основная детерминанта установок, сопутствующих стилю жизни. Он утверждал, что, если у детей одни и те же родители и они растут примерно в одних и тех же условиях, у них все же нет идентичного социального окружения.

Опыт старшего или младшего ребенка в семье по отношению к другим детям, особенности влияния родительских установок и ценностей — все это

1. ²⁵⁹ Foydalanilgan adabiyotlar: E.G'oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.

меняется в результате появления в семье следующих детей и сильно влияет на формирование стиля жизни.

Позиция ребенка в семье имеет решающее значение. Особенно важно восприятие ситуации, что, скорее всего, сопутствует определенной позиции. То есть от того, какое значение придает ребенок сложившейся ситуации, зависит, как повлияет порядок его рождения на стили жизни. Однако в целом определенные психологические особенности оказались характерными именно для конкретной позиции ребенка в семье.

Согласно А. Адлеру, положение первенца можно считать завидным, пока он — единственный ребенок в семье. Родители обычно сильно волнуются по поводу появления первого ребенка и поэтому всецело отдают себя ему, стремясь, чтобы все было «как полагается». Первенец получает безграничную любовь и заботу от родителей. Рождение второго ребенка, по Адлеру, драматично меняет положение первенца и его взгляды на мир. Автор описывает положение первенца при рождении второго ребенка как положение «монарха, лишённого трона». И утверждает, что этот опыт может быть очень травматичным.[4]

Тоумен полагал, что для первенца, которому еще не исполнилось пяти лет, появление младшего брата или сестры — шокирующее переживание. После пяти лет у первенца уже есть свое место вне семьи и хорошо сформированная идентичность, поэтому он оказывается менее ущемленным пришельцем. Если рождается второй ребенок другого пола, для первенца это событие не является столь драматичным, так как между ними отсутствует прямое соревнование.

В этом случае характеристики старшего ребенка выражены слабее. Если второй ребенок — того же пола, его воздействие на первенца очень сильно. По Тоумену, оно стимулирует один из общих стереотипов поведения старшего ребенка: он очень старается быть хорошим, чтобы родители продолжали его любить больше, чем новорожденного. Родители неосознанно усиливают эту тенденцию, говоря старшему, что он больше и умнее, и ожидая

от него помощи. Вследствие этого старшие дети часто обладают многими родительскими качествами: они умеют быть воспитателями, способны брать на себя ответственность и играть роль лидера. У них отмечается упор на высокие достижения, добросовестность и неприятие критики. Чувство ответственности в семье может быть часто тяжелым бременем и приводить к тревожности, так как первенец не смеет ошибиться, расстроить родителей. Более половины президентов США были старшими сыновьями в своих родительских семьях, а 21 из 23 первых американских астронавтов — старшими или единственными детьми (то есть тоже первенцами) в семье (Ричардсон Р., 1994). Первенцев было особенно много среди членов Конгресса США (Крайг Г., 2001), также они преобладали среди женщин, имевших научные степени в области медицины и философии.

Мнение Адлера о первенцах (старших детях) несколько отличается от мнения Тоумена. Адлер писал, что когда старший ребенок наблюдает, как его младший брат или сестра побеждает в соревновании за родительское внимание и нежность, он, естественно, будет склонен отвоевывать свое верховенство в семье. Однако Адлер считал, что это обречено на неудачу: прежнего не вернуть, как бы первенец ни старался. Скоро ребенок осознает, что родители слишком заняты или слишком равнодушны, чтобы терпеть его инфантильные требования. У них также больше власти и больше возможностей наказания. В результате первенец приучает себя к изоляции и осваивает стратегию выжи вания в одиночку, не нуждаясь в чьей-либо привязанности или одобрении. Адлер также полагал, что старший ребенок вырастает консервативным, стремящимся к власти и предрасположенным к лидерству.[2]

Старший ребенок становится хранителем семейных установок и моральных стандартов, в этом мнения Адлера, Тоумена и Ричардсона совпадают.

Ричардсон даже утверждает, что старшие дети первыми преподают семейные традиции и мораль своим младшим братьям и сестрам, так как они

научены идентифицировать себя с родителями. Кроме того, считается, что для старших детей характерна нетерпимость к чужим ошибкам.

А. Я. Варга связывает нацеленность родительскими функциями старшего ребенка с законом о майорате, по которому все наследство переходило к старшему ребенку, а активность и авантюризм младших — отсутствием у них наследства. «В тех странах, где закон о майорате был принят позже и не был принят вообще, такого характерологического разделения нет. В России, например, закон о майорате был принят чуть ли не в XVII веке и тотального, повсеместного значения не имел», — пишет автор (Варга А. Я., 2001, с. 19).

Достаточно сложно судить о психологии людей прежних веков. Можно проследить некоторые закономерности отношений в семьях начиная с рубежа XIX-XX веков на основе изучения биографии рода.[1]

В России этого времени большинство семей составляли крестьянские хозяйства. Известно, что был обычай строить дом старшему сыну и отделять его с женой еще при жизни родителей (в достаточно зажиточных хозяйствах), строили дома (по возможности) и средним сыновьям, младшему полагалось жить с родителями и лелеять их старость. Так как младший часто бывал моложе своих племянников — детей старшего брата, то слова «старики родители» можно понимать буквально. Но это при благоприятных условиях развития семьи, когда никто не пострадал от социальных катаклизмов (войн) и просто бедствий (например, потери кормильца в мирное время). При различного рода лишениях, которые часто бывали в семьях, старшие дети становились опорой семьи и играли родительскую роль. Соответственно, и черты характера у них были несколько отличные от младших, что во многом соответствует мнению Тоумена, Ричардсона и других.

Средний ребенок — второй из трех или один из средних в большой многодетной семье — трудно поддается описанию.

Он одновременно является и старшим и младшим. Адлер полагал, что второму ребенку (среднему) задает темп его старший сиблинг. Темп развития

среднего оказывается часто более высоким, чем у первенца (может начать раньше разговаривать, ходить). «Он ведет себя так, как будто состязается в беге, и если кто и вырвется на пару шагов вперед, он постарается его опередить. Он все время мчится на всех парах» (Адлер А., 1931, с. 148). В результате ВТО" рой ребенок вырастает соперничающим и честолюбивым, так как его стиль жизни — стремление доказать, что он лучше старшего брата или старшей сестры. В особенности это применимо к сиблингам одного пола. Второй ребенок в семье часто ставит непомерно высокие цели, что повышает вероятность неудач. Интересно, что Альфред Адлер сам был средним ребенком в семье. Вероятно, на его концепции сказался личный опыт.[3]

Несколько иное мнение о среднем ребенке в семье исходит от исследований Уолтера Тоумена. Он полагал, что на среднего ребенка не накладывает отпечаток то, что он привык быть всегда впереди, но он и не может играть роль малыша, как это делает рожденный последним. Одно из исследований, проведенное на многодетных семьях, показало, что старший и младший всегда являются любимцами семьи. Поэтому среднему ребенку в семье приходится во многом сложнее других, так как он «вынужден соревноваться как со старшим — более умелым, сильным, так и с младшим — более беспомощным и зависимым. Ричардсон отмечает, что средний ребенок в своем поведении может колебаться между попытками походить на старшего и попытками снова вернуться к роли опекаемого младенца, в результате он не имеет твердых ориентиров для выделения своей индивидуальности. Средние дети в зрелом возрасте, в соответствии с этими взглядами, менее способны проявлять инициативу и мыслить независимо (из них часто получаются «бунтари» против любых авторитетов). В отличие от Адлера, Ричардсон считает, что у средних детей самая низкая мотивация к достижениям среди детей с разным порядком рождения, особенно к учебе.

ЛИТЕРАТУРЫ

Адлер А. Индивидуальная психология как путь к познанию и самопознанию человека, Киев: "Наука жить", 1997. - 27 с.

1. А. Адлер Наука жить, М.: «Наука», 1978. - 63 с.
2. Адлер А. О нервическом характере. -- СПб., 1997. -82 с.
3. АндрееваТ. В. . Семейная психология: Учеб. пособие. — СПб.: Речь. — 244 с. . 2004

BO`LAJAK PSIXOLOGLARDA KASBIY REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

A.N.Xudoyorov,
BuxDU, Psixologiya
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixolog sifatida faoliyat yuritayotgan kadrlarda refleksiya jarayonini rivojlantirish haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Refleksiya, psixolog, metapozisiya, interiorizatsiya, intellektual refleksiya, shaxsiy refleksiya, kommunikativ refleksiy, kooperativ refleksiya

Bugungi rivojlangan bir davrda ta'lim-tarbiya jarayoniga katta e'tibor berilmoqda. Zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanish davrida ta'lim tizimiga va unda faoliyat olib borayotgan zamonaviy psixologlarga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda psixolog kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda.

Psixolog kasbiy kompetensiyasi komponentlaridan biri kasbiy refleksiyadir. Shu sababli psixologlarning ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish psixologning kasbiy mahoratiga bog'liqdir. [3]

Refleksiya (lotincha “reflexio”–ortga qaytish) – subyektning o‘z (ichki) psixik tuyg‘u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi. Refleksiya tushunchasini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirishni talab etadi.

Refleksiya–har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o‘z xatti-harakatlari ularning qonunlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyati shaklidir, inson ma’naviyat dunyosining o‘ziga xos yashirin hislarini ochib beradigan o‘z-o‘zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir. Ilk bor “refleksiya” tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o‘z ongida kechayotgan mulohazalari haqida fikr yuritish jarayoni o‘z fikrlari mazmunini tahlil qilishiga e’tiborini jalb qilishini anglatgan. Dekart, Sokrat, Platon va boshqa yunon faylasuflari refleksiyani insonning o‘zini-o‘zi bilishiga, nimalarga qodir ekanligini e’tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanini ta’kidlashgan. Lokk, Kant, Gegel, Fikste, Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiyaga insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar.

G.M.Kadjaspirovaning fikricha, “psixologik refleksiya insonni o‘z-o‘zini anglashi deb, bunda nafaqat psixolog o‘z xatti-harakatlariga to‘g‘ri baho berishi balki, psixolog bilan psixolog muloqot chog‘ida o‘zaro hamkorlik qiladigan o‘quvchi-talabalar jamoasi, pedagogic jamoa, ta’lim-tarbiyaga mas’ul shaxslar, ota-onalar uni qanday qabul qilishini tushuna olish qobiliyatidir”. Demak, refleksiya psixologning o‘zini-o‘zi anglashi, bilishi, xulosa chiqarish zamirida o‘zining ijobiy va zaif tomonlarni bilib, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

L.E.Pleskach refleksiyani shunday ta’riflaydi: “refleksiya o‘zini-o‘zi tahlil qilish bo‘lib, o‘zini-o‘zi belgilangan maqsadga erishishi emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga kasbiy jihatdan takomillashtirishga nisbatan rag‘batlantirishdir”.

“Psixolog kasbiy mahoratini rivojlantirishida psixologik refleksiyaning ahamiyati” nomli ushbu nazariy metodik maqola asosida bugungi psixologlarning faoliyatida ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyatlarini o‘zlari baholab, kelajak faoliyati haqida tavsiyalar berishdan iboratdir.[2]

Hozirgi zamonaviy psixologik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

Intellectual refleksiya–muammolarni fikrlasha sosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

Shaxsiy refleksiya–psixologning nizoli (konfliktlar) psixologik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.

Kommunikativ refleksiya–muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.

Kooperativ refleksiya–jamo'a a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

O'z-o'zini bilish jarayoni psixologning psixologik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. Psixolog psixologik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni shunchaki qayd qilib boradi.[4]

O'z-o'zini anglash jarayoni psixologning o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan “metapozisiya” (noaniq pozisiya)da turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsada niqlanadi, reflektiv-«MEN» shakllanadi. Bu psixologning dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liq.

O'z-o'zini belgilash jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy «MEN» va ideal «MEN» nisbatlanadi. Bu psixologning eng yaqin rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

O'z-o'zini rivojlantirish jarayonida psixologning kasbiy faoliyat davomida takomillashtirilgan psixologik mahorati, reflektivlangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodikalarini o'sishi sodir bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish psixolog faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z-o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, psixologik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Bizning fikrimizcha, psixologning doimiy psixologik faoliyati mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha psixologik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, psixologning kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o'ynaydi.[1]

Zero, kasbiy refleksiya jarayonida psixolog o'zi tanlagan psixologik kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqidagi mavjud tasavvurlarini psixologik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi, va ixtiyoriy ravishda shaxsiy psixologik mahorat zanjirini hosil qiladi.

Psixolog olimlar G.A.Golisinva G.P.Shedroviskiyning ishlarida refleksiyaga psixolog psixologik faoliyati rivojlanishining asosiy omili va tabiiy mexanizmi sifatida katta ahamiyat berilgan. G.P.Shedroviskiy refleksiyani insonning «ijobiy faoliyatlari majmuasi» nuqtai nazaridan o'rganishni taklif qiladi. U qandaydir psixologik faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'lmasa, bu g'oya asosida ushbu faoliyat doirasidan tashqariga «refleksiv chiqish» tizimi quriladi, deb hisoblaydi. Bunda inson amalga oshirilmagan faoliyatdan, yangi faoliyat pozitsiyasiga o'tadi va «fikran ma'nolar qurish» vositalariga ega bo'ladi, ulardan kelib chiqib, birlamchi faoliyatni tushunadi va tavsiflaydi. Bunda ikkinchi yangi faoliyatda birinchisidan muhim «material» sifatida foydalanadi.

Demak, psixolog psixologlarga xos kasbiy mahoratga, psixologik odobiga, mas'uliyatli va burchiga ega bo'lgan, psixologik jarayonning ehtiyojlarini ob'ektiv ravishda bajarayotgan shaxs bo'lishi lozim. Biz ushbu maqolada psixologning kasbiy mahorati, uning xalq oldidagi, Vatan oldidagi burchi, vazifalarini tahlil qilib, ular faoliyatini refleksiya qilib ba'zi nazariy, amaliy va metodik tavsiyalar berilishi joiz deb, bildik. Bugungi psixolog-professorlarni xalqimiz hurmat qiladi, ular elning nazarida. Bugungi psixologning kasbiy pedagogik mahorati va bilim darajasi yoshlarni ilmga chanqoqligini qondirmoqdami? Bugungi psixolog kundalik darsga konspekt

yozmayapdi, elektron jurnal va elektron kundalikka o'tildi, bu imtiyozlar psixologlarni o'z burchlari yuqori kompetentlik darajasida tashkil etishiga olib kelmoqdamiz? Shu kabi qator savollarni siz hurmatli hamkasblar bilan maslahatlashmoqdamiz. Berilgan imtiyozlardan, imkoniyatlardan ruhlanib, jonbozlik, fidoyilik bilan yuqori kompetentlik darajasida dars beradigan professor psixologlarimiz ko'p, xalq va hukumatimiz ularning xizmatlarini doimo refleksiya qiladi va taqdirlaydi. Ilmiy mezonning qo'yilishi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida: "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ta'lim va fan sohasini rivojlantirish muhokamalari ko'ndalang qo'yilgan.[5]

Xulosa sifatida bizning nazarimizda bugungi psixologlarga quyidagilarni tavsiya etamiz:

Psixolog jamiyatda ro'y berayotgan islohotlarni his etgan holda o'zining faoliyatini doimo refleksiya qilib borishi lozim;

Zamonaviy psixolog ilm-fan, texnika yangiliklaridan xabardor bo'lgan holda, bugungi psixologik jarayonni tashkil eta olishi zarur.

Psixolog o'z bilim, malaka, ko'nikmasini doimo refleksiya qilib, ertangi kunga tayyorgarlik ko'rishi lozim.

Psixolog falsafa, psixologik mahorat, psixologik xizmat asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini bilib, taxmin qilib faoliyatni tashkil etishi lozim.

Adabiyot:

1. Абульханова К.А. Сознание как жизненная способность личности // Психологический журнал, 2009. Т. 30. № 1. С. 32–43.
2. Василюк Ф.Е. Психология переживания. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1984.
3. Деева Н.А. Рефлексивные механизмы самопонимания // Личность в современном мире: от стратегии выживания к стратегии жизнотворчества: Научное издание.

4. Кемерово. Комплекс «Графика» 2002. 308 с. С. 123-124.
5. Дейкман А. Наблюдающее Я: Мистицизм и психиатрия. М.: Эннеагон пресс, 2007.
6. Карпов А.В. Психология рефлексивных механизмов деятельности. М.: ИП РАН, 2004.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA TARBIYA TEXNOLOGIYALARIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

M.SH. Ismoilova,

*Pedagogika va psixologiya
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Jamiyat yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilgan islohotlar samarasi taqdiri, mos ijtimoiy – iqtisodiy siyosatni shakllantirish – bularning barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liq. Ushbu tezisdan biz tasniflashni istagan mana shu mavzu ham yuqoridagi muammoni yechish va o'ziga xos yangi yo'nalishni yaratishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, innovatsion texnologiya, tarbiya texnologiyalari munozara, dialog, JII, pedagogik yordam, tanqidiy fikrlash, shou texnologiyasi.

Mamlakatimizda istiqbolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, jismonan va ma'nadan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat bugun ta'lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil qilish har qachongidan ham dolzarb bo'lib turibdi. Bunda innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shu bo'yicha zarur huquqiy mexanizmlarni yaratishga ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgani

muhimdir. Prezidentimizning 2022-yil 29 - yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, innovatsion loyiha va tashabbuslarni qo'llab quvvatlash, zamonaviy mexanizmlarini joriy etish borasida qator vazifalar belgilangan. [1]

Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi esa yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash hamda mamlakatning kelajagini yuksaltirish ekanligi aniq. Jamiyat yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilgan islohotlar samarasi taqdiri, mos ijtimoiy – iqtisodiy siyosatni shakllantirish – bularning barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liq.

Biz tasniflashni istagan mana shu mavzu ham yuqoridagi muammoni yechish va o'ziga xos yangi yo'nalishni yaratishga qaratilgan. Muhokama avvalida men pedagogika va psixologiya fanlarida texnologiya, pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, tarbiya texnologiyalari va ularni amalda qo'llash uslubiyoti haqida qisqacha nazariy fikr bildirib o'tsam.

Demak, "Texnologiya" - tushunchasi yunoncha «mahorat», «san'at», «tushuncha», «o'rganish» demakdir. Texnologiya tushunchasi ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik operatsiyalar va mahsulotni tayyorlash mazmuni (sirlari) bilan bog'langan. Texnologiya so'zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalar haqida bilimlar yig'indisi, shuningdek, ob'ektda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlari tushuniladi.

«Pedagogik texnologiya» iborasi birinchi marta 1970 yilda yapon olimi T.Sakamoto tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha- pedagogik texnologiya (o'qitish texnologiyasi) o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasidir.

«Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Evropa va AQShda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda

innovatsion faoliyat yangilik va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.[3]

Tarbiya texnologiyasi - 1) tizimli va izchil amaliyotda yuzaga chiqadigan, oldindan loyihalashtirilgan tarbiya jarayoni; 2) tarbiyaviy faoliyatni mahorat darajasiga ko'tarishga yordam beruvchi ilmiy jihatdan ishlab chiqilib, amaliyotda sinovdan o'tkazilgan metod. usullar, ish tartibi tizimi.[6]

Texnologik yondashuv ixtiyoriy bosqichlarda tuzatish imkonini beruvchi, doimiy qaytar aloqaga ega tarbiya jarayonining turli vaziyatlarga tez moslashtiriladigan va izchil anglab olinadigan tarkibiy tuzilmasining ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyat jarayoniga tarbiya texnologiyasini bosqichma-bosqich tatbiq etilishi barcha uchun o'zlarida ijobiy sifatلامي hosil qilish, rivojlantirish borasidagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritilishiga yordam beradi.

Tizim sifatida tarbiya texnologiyasi ko'zda tutilgan natija va sifatni kafolatlaydi. Yosh avlodni voyaga yetkazish, unda ijobiy sifatلامي hosil qilishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini yorituvchi tarbiya texnologiyasi o'zida loyiha ko'rinishida aks etuvchi taxminiy g'oya (faraz)ni ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 –yil 31- dekabrda 1059 – son “ Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora –tadbirlari to'g'risida” gi qarori mazmunida

“Tarbiya va ta'limni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un ,uzluksiz asosda tshkil etilgandagina odobli,axloqiy fazilatlarga ega ,yuksak ma'naviyatli,shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom ,keng dunyoqarash va tafakkurga ega ,zamonaviy kasb- hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berish” ga qaratilganining o'zi ham ta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va muvofaqqiyatli davom ettirish uchun zarurligini ifodalaydi.[2]

Buning uchun esa, ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ish samaradorligini oshirish tarbiya texnologiyalarini to'g'ri tashkil etish va qo'llashga bog'liq. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasalari uchun tarbiyaviy

ishlarni amalga oshirish uslubiyotining zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiya ishlanmalarini yaratishni talab etadi.

Tarbiyaviy ishlar asosida ikkita: faol va majmuaviy yondashuvlar yotadi. Yondashuvlarning birinchisi, faoliyatning bilish, mehnat, ijtimoiy, badiiy, sport va erkin muloqot kabi turli urinishlarni tashkil etishni talab etadi. Ikkinchi majmuaviy yondashuv esa faoliyatning barcha ko'rinishlarining yagona jarayonga ta'siri bilan tabiiy qo'shilib ketishida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy ishlar ayni paytda o'ziga axloqiy, estetik, siyosiy va aqliy (intellektual) ta'sirlarni qamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo'nalishiga ishora bo'lsa, majmuaviy yondashuv uning mazmun tabiatini pedagogik maqsad vaziyat, tarbiyaviy maqsadning asosiy va bog'liq tomonlarini shakllantirishni, rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlashni bevosita amalga oshirishni erishilgan ishlar tahlilini belgilaydi.[5]

Endi fikrlarimizni aynan tarbiya texnologiyalari ularning mazmuni, amalga oshirish mexanizmlarini yoritib berish bilan davom etamiz.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda tarbiya texnologiyalarini tasniflashning o'nlab variantlari tasvirlangan (V.P.Bespalko, M.V.Klarin, F.A.Mustaeva, L.E. Nikitina, I.P.Podlasy, G.K.Selevko va boshqalar).

Tarbiya texnologiyalari quyidagilarga bo'linadi:

- falsafiy asosda:
- materialistik,
- pragmatik,
- gumanistik,
- antroposof;
- ilmiy tushuncha bo'yicha:
- xulq-atvor,
- faoliyat,
- interyerlashtirish,
- neyrolingvistik dasturlash;
- obyekt toifasi bo'yicha:
- individual,

- guruh,
- jamoaviy,
- massa.

Ammo har qanday tasnif shartli bo'lib qoladi, chunki ular turli xil tarbiya texnologiyalariga xalaqit bermaydi.

Yana bir guruh pedagog-texnologlar ta'lim sohalarida tarbiya texnologiyalarining quyidagi turlarini farqlaydilar (V.I.Zagvyazinskiy, S.D.Polyakov, G.K.Selevko, N.E.Shchurkova va boshqalar). Ijtimoiy va fuqarolik tarbiya texnologiyalari, kasbiy tarbiya texnologiyalari, ekologik va valeologik tarbiya texnologiyalari, badiiy-estetik tarbiya texnologiyalari va boshqalar.[7]

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish va undan amalda natijaga erishish ko'p vaqt va yangilanishlarni talab etadi, bunga sabab esa shaxs individualligi hisoblanadi. Chunki tarbiya texnologiyalarining namoyon bo'lishi insoniyatning madaniy va sivilizatsiya tajribasi bilan chambarchas bog'liq. Bu vaqt va jamlangan pedagogik tajriba filtridan o'tgan transformatsion mexanizmlarni tanlash tufayli uzoq jarayondir. Bir necha avlodlar tajribasida tasdiqlangan va mazmunli bo'lgan eng maqsadga muvofiq va samarali harakat tizimlari asta-sekin ob'ektivlashtirilmoqda. Ular shaxssiz, instrumental xususiyatga ega bo'lib, tegishli tayyorgarlikdan so'ng har qanday mutaxassisning faoliyatida takrorlanishi mumkin. Bularning barchasi ishlab chiqarish hodisasini antropologik va sotsiogenetik qonuniyatlarning harakat maydoniga "kirish" ta'siri sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. O'quv faoliyati sub'ekti harakatlarining ishlab chiqarish qobiliyati, birinchi navbatda, pedagogik jarayonlarni qurish qonuniyatlarini tushunish bilan bog'liq. O'qituvchining faoliyati texnologik bo'lishi uchun u maqsadni aniq ko'rsatishi kerak. U o'zgartirish ob'ektining dinamikasi tilida ifodalanadi va ma'lum bir vaziyatda rivojlanishni, o'zgartirishni, tuzatishni, qurishni xohlaydigan xususiyatlari va jihatlarini bildiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda pedagogik jarayonlar, har bir dars jarayonlarida va maqsadli foydalanish uchun , darsdan tashqari individual va

guruhiy ishlashda ushbu tarbiya texnologiyalarini o'rganish hamda qo'llashni tavsiya etamiz.

Pedagogik yordam texnologiyasi – bu o'sib borayotgan odamning boshqalardan o'zining farqini anglab yetishiga yordam beruvchi o'zining bo'shligi va o'z kusbi - jismoniy, intellektual, ma'naviy, ijodiy vositalardan foydalanishi tizimidir. Bu ta'lim olishda mustaqil va muvafaqqiyatli ilgari bo'lishi, shaxsiy hayot yo'li va hayot mazmunini tanlashi uchun zarurdir. Ushbu texnologiyani amalga oshirish o'quvchining savolidan boshlanadi: "Men kim bo'laman!", "Qanday bo'lishim kerak?". Pedagog bilan birgalikda mana shu savollarni muhokama qilish yana boshqa bir mustaqil savolni ham keltirib chiqaradi: "Qanday yashash kerak?" Maxsus tashkil etilgan maslahatlar orqali aynan mana shu o'quvchiga xos bo'lgan individual hayot tarzi asta-sekin tuziladi, intellektual, emotsional, jismoniy yuklamalarning qulay rejimi tanlanadi.

O'quvchi pedagog yordamida muvafaqqiyat va baxtsizliklarga bardosh berishning o'zi uchun mos usullarini topadi, mehnat faoliyatining mos turini aniqlaydi, bo'sh vaqtini, uzluksiz ish shakllari, odamlar bilan munosabatlar xususiyatlarini belgilaydi.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi. Bu texnologiya o'quvchi va o'qituvchining ijodiy hamkorligiga, o'quvchilarning har qanday materialga analitik yondashishini rivojlantirishga asoslangan. Ushbu texnologiya materialni yodlash uchun emas, balki muammoni shakllantirish va uning yechimini izlash uchun mo'ljallangan. Metodologiyaning asoslari uch bosqichni o'z ichiga oladi. Bular qiyinchilik, fikrlash va mulohaza yuritish bosqichlari. Birinchi bosqich talabalarning mavjud bilimlarini dolzarblashtiradi, mavzuga qiziqish uyg'otadi; bu yerda materialni o'rganish maqsadlari aniqlanadi. Buning uchun turli xil usullar qo'llaniladi: "aqliy hujum" texnikasi, o'rganilayotgan materialga nisbatan turli xil versiyalarni ishlab chiqish. Mavjud bilimlar asosida talabalar o'zlarining prognozlarini tuzishlari, ushbu darsda kognitiv faoliyatning maqsadlarini amaliy bajarishlari mumkin.

Munozaralar texnologiyasi. Munozaralar texnologiyasining maqsadi: maktab o'quvchilarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ularda muloqot va munozara

madaniyatini shakllantirish. Munozara - tinglash, navbatma-navbat gapirish, bag'rikenglikni tarbiyalash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatidir. Munozara ochiq bo'lishi uchun sinfda ishonch va o'zaro hurmat muhitini yaratish muhim. Jahon pedagogik tajribasida munozaralarning qatlamli shakllari bo'lgan fikr almashishni tashkil etish usullari keng tarqalgan. Bularga quyidagilar kiradi: “Davra suhbat” - talabalarning kichik guruhi (odatda 3-5 kishi) “teng asosda” ishtirok etadigan suhbat, bunda ular o'rtasida ham, tinglovchilar bilan ham fikr almashiladi (qolganlari). sinfdan). Ekspertlar guruhi yig'ilishi (“panel muhokamasi”) (odatda 4-6 nafar talaba oldindan tayinlangan rais bilan), unda barcha guruh a'zolari birinchi navbatda ko'zda tutilgan muammoni muhokama qiladilar, so'ngra butun sinfga o'z pozitsiyalarini bayon qiladilar. Har bir ishtirokchi qisqacha taqdimot qiladi.

Shaxsni rivojlantiruvchi dialog texnologiyasi - ikki kishi o'rtasidagi suhbat, fikr almashish; muzokaralar, ikki tomon o'rtasidagi shartnomalar. "Dialog - bu shaxsga - uning erkinligi va to'liqligini saqlaydigan shaxsga munosabatning yagona shakli" (M. M. Baxtin). Bu yerda muloqot ko'p qirrali hodisa sifatida ishlaydi: shakl, mazmun va usul. O'lchov birligi dialogik vaziyatdir. Dialogik vaziyat - bu odamning "boshqa" bilan uchrashishi, aloqasi va o'zaro munosabati, bu boshqasi o'z ehtiyojlarini qondirish uchun "shart" ga aylangan (va ko'rilgan), registrda "boshqa" idrok etilganda, individual va "ommaviy" bir vaqtning o'zida amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lganda, nizolarni konstruktiv hal qilish imkonini beradi. Dialogik vaziyat quyidagi shartlarda yuzaga keladi: 1) u shaxsning ehtiyojlarini qondiradi - u psixologik himoyani olib tashlaydi, o'zini xavfsiz his qilish imkonini beradi; 2) talaba yaxlit shaxs sifatida qabul qilinadi - "qisman" emas, balki "to'liq"; 3) har qanday qarama-qarshilik, ziddiyat zaruriy, muqarrar hodisa sifatida tan olinadi; 4) to'qnashuvda taqdim etilgan qarama-qarshilikning yechimini izlash orqali qarama-qarshiliklar birligini saqlashga imkon beruvchi maxsus tashkil etilgan o'zaro ta'sir sifatida tan olinadi.

Shou texnologiyasi bugun telekanallar orqali turli shou dasturlari namoyish etilmoqda.” Yosh kitobxon tanlovi”, ” Zakovat intellectual o'yini”, "Artist" loyihasi, klassik QVZ bellashuvi - bu dasturlarning barchasi tomoshabinlarga yaxshi ma'lum.

Ularni amalga oshirishda biz nimani umumiy ko'ramiz? Kamida uchta xususiyat: ishtirokchilarning ma'ruzachilarga ("sahna") va tomoshabinlarga ("zal") bo'linishi, sahnada raqobat, tashkilotchilar tomonidan tayyorlangan ssenariy. Har uch xususiyat ham majburiy xususiyatdir. Shuning uchun shou-dasturlarga oddiy kontsert (tanlovsiz), klassik bellashuv o'tkazish ("zal" va "sahna" ga barqaror bo'linish yo'q), jamoaviy ijodiy faoliyat (ssenariy alohida tashkilotchilar tomonidan emas, balki ishning barcha ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqilgan). Ko'rinib turibdiki, har qanday kengaytirilgan pedagogik harakatda uchta blok mavjud: tayyorgarlik - amalga oshirish - natijalarni tahlil qilish.

JII texnologiyasi Jamoaviy ijodiy ish (JII) ijtimoiy pedagogika kontekstida ko'rib chiqiladi, bu odamlarning manfaati va quvonchiga qaratilgan faoliyatning ma'lum bir yo'nalishiga asoslangan qat'iy tashkiliy shakldir. Ammo amalda JII diqqat markazidan yo'qoladi va uning o'rnini muloqotga, kognitiv faoliyatga intilish egallaydi. Jamoaviy ijodiy ishni malakali amalga oshirish natijasi maktab o'quvchilarining ijobiy faolligi, tomoshabin emas, balki kollektiv mualliflik hissi bilan birga bo'lgan faollikdir. Kengaytirilgan shaklda JII 6 bosqichga ega: 1. Ishni o'tkazish bo'yicha birgalikda qaror. 2. Jamoani rejalashtirish. 3. Jamoaviy tayyorgarlik. 4. Ishni olib borish. 5. Jamoaviy tahlil. 6. Keyingi ta'sir haqida qaror. Jamoaviy ijodiy ishlashning minimal texnologiyasi: jamoaviy rejalashtirish - tayyorlash - amalga oshirish - jamoaviy tahlil.

Talaba yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, ularni hayotda, jamiyatda o'z o'rnini, mavqeiini topishga yordam berish va kasbiy qiziqishlarini, tasavvurlarini kengaytirish uchun suhbat, munozara va erkin muloqotlarda quyidagi texnologiyalardan foydalanish kerak. Bu esa ularning mahoratli, bilimli va axloqiy jihatdan namuna bo'la oladigan kadrlar bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi – deb hisoblayman.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 29 - yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi 60- sonli farmoni.www.lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 –yil 31- dekabrda 1059 – son “ Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora –tadbirlari to’g’risida” gi qarori. www.lex.uz
3. Azizxo’jayeva N.N “ Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” T/2006 51 bet
4. Ishmuxammedov R,A. Abduqodirov , A.Pardayev “ Tarbiyada innovatsion texnologiyalar” 2010. 24 bet
5. Mavlonova R, B. Normurodova,N. Rahmonqulova va Y .R asulova, D.M aqsudova. “ Tarbiyaviy ishlar metodikasi” 2010.25- bet
6. Xo’jaev B.Q., Olimov Sh.Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. –Buxoro, Yoqub Dovud, - 2004. -164 b.
7. Г.К.Селевко “Воспитательные технологии ” М. 2005.46 ст.
www.wikipedia
www.google

O'QUVCHILARDA ART TERAPEVTIK VOSITALARNI QO`LLASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

A.M. Nazarov,

BuxDU, Psixologiya fanlari nomzodi dotsent

M.K. Muhamedova,

BuxDU, Pedagogika va Psixologiya

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. O`quvchilarda art terapiya muammosining tadqiq etilishi va mazkur muammo yuzasidan nazariy-amaliy tadqiqotlar tahliliga bag`ishlanadi. Shuningdek, o`quvchilarda kreativlik qobiliyatni art terapiya vositasida rivojlantirish usullari haqida ilmiy va empirik ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: art terapiya, empirik, kreativlik, status, sublimatsiya, diagnostika, intellekt, ambivalentlik, komponent, mexanizm.

Dunyoda jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual imkoniyatlari bilan belgilanadi. Chunki ilmiy yutuqlari yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'ladi. Jahon davlatlarining ijtimoiy-tarixiy rivojlanishida yoshlarga bo'lgan e'tibor muhim o'rin egallaydi. Yoshlarning huquqlarini himoya qilish, ularga imkoniyatlar yaratish, ularning manfaatlarini ifoda etuvchi huquqiy baza yaratilishi davlatning kelajakda taraqqiyot darajasini belgilab beradi .

Mamlakatimizda ta'lim tizimida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar sababli yangi qoidalarning, yangicha tizimning paydo bo'lishi ijodkor shaxsning rivojlanishiga ulkan talablar qo'yadi. Ijodkor shaxs o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat tomonidan tan olinadi va ma'lum ijtimoiy statusiga ega bo'ladi. Psixologik tadqiqotlarda ijodkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq sohalar – o'quvchining ijodiy muammolarni hal etish muvaffaqiyatini belgilovchi xususiyatlari alohida o'rin tutadi.

Kreativlikni o'rganishda bir necha yo'nalishlarni ko'rsatib o'tish mumkin [3]. Birinchi yo'nalish kreativlikni o'zining mahsulotlari bo'yicha o'rganiladi, ya'ni bunda ijodiy mahsulotning asosiy xususiyatlari: miqdori, sifati va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Bulardan M.Ferson, K.Teylor, D.Teylor va boshqalar tadqiqotlarini kiritish mumkin. Ikkinchi yo'nalish esa, kreativlikni ijodiy jarayon sifatida o'rganilgan. Har qanday jarayon, shu jumladan, ijodiy jarayon ham boshlanishi, uzoq vaqtga cho'zilishi, o'zgarishi va shunga mos ravishda qandaydir yakuniga ega bo'lishi kerak. Bunday holda biz ob'ektiv yoki ideal (fikr)dan iborat ijodiy mahsulot haqida gapira olmaymiz. Shuning uchun ushbu yo'nalish ijodiy fikrlash jarayonining turli bosqichlarini, darajalarini va turlarini aniqlaydi va ko'rib chiqadi. Ijodiy jarayon sathlarini o'rganish psixoanalitik yo'nalish bilan chambarchas bog'liq. Z.Freyd ijodiy harakatni libidoz energiyaning sublimatsiyasi natijasida tasvirlagan. Demak, shaxsning ijodiy salohiyatini o'rganish uchun proyeksion metodlardan foydalanishning asosiligi belgilangan.

Uchinchi yo'nalish kreativlikni oldindan berilgan qobiliyat muammo sifatida o'rganilgan. Bu sohada birinchilardan bo'lib K.Simpsonning tadqiqot ishini ko'rish mumkin, u kreativlikni stereotipik fikrlash usullaridan voz kechish qobiliyati

sifatida baholagan. E.From esa kreativlikni (ijodni) hayratga tushish va o'rganish, nostandart vaziyatlarda yechim topish, yangi narsalarni kashf etish va o'z tajribasini chuqur anglash qobiliyati sifatida ko'rib chiqqan. Chet el psixologiyasida J.Gilford va E.Torrenc tadqiqotlari alohida o'rganish muhi sanaladi. J.Gilford kreativlikni oldindan berilgan qobiliyat deb bilgan va uning tajribalari asosan kreativlik diagnostikasi va shaxsiyatning ba'zi bilish omillari bilan aloqalari darajasini o'rganishga qaratilgan. Torrenc tadqiqotlarida kreativlikni dinamikada o'rganishga bag'ishlangan. U kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli ta'sir etish ehtimolini qobiliyat sifatida talqin qilgan [4].

To'rtinchi yo'nalishda K.Goldshteyn, K.Rojers, N.Rojers, A.Maslou va boshqalar ijodiy jarayonni shaxsning “o'zini o'zi aktuallashtirish” bilan bog'lashgan. “O'zini o'zi aktuallashtirgan odamning ijodkorligi madaniyat ta'sirida buzilmagan bolaning kreativligiga o'xshaydi. Kreativlik inson tabiatining eng asosiy xarakteristikasi bo'lib, u tug'ilishidanoq har bir insonga beriladigan salohiyatdir”. A.Maslou. R.Stenberg ijtimoiy yo'nalishda kreativlikni “sog'lom aql va intellektning dialektik o'zaro ta'siri” deb hisoblaydi. Intellekt jamoa ehtiyojlarini qondirish uchun keng qo'llaniladi. “Kreativlik o'zini jamoa muammolariga shubha bilan qaraydi va o'zini unga qarshi qo'yadi, yanglilarini taklif qilib boradi. Sog'lom aql esa “eski va yangilar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi”, “jamiyat kontekstidagi o'zgarishlar va barqarorlik”ka erishadi [1].

Intellektni R.Stenberg “atrof-muhitga moslashish qobiliyati” deb hisoblaydi. Muvaffaqiyatli moslashish belgisi esa mukofot olishdir (keng ijtimoiy-iqtisodiy ma'noda). Kreativlik “sifat jihatidan yuqori emas, balki yangi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati” deb ta'riflanadi. “Intellektli odamlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati yuqori, lekin, albatta, yangi bo'lishi shart emas”. Shundan kelib chiqib, muallif “kreativlik faqat uni hukm qiluvchi tizim kontekstida ahamiyat kasb etadi”, “bir tizimda kreativ bo'lgan narsa boshqa bo'lishi mumkin emas”, degan xulosaga keladi. Intllektni kreativlikning sharti deb hisoblaydi, “chunki ijodiy mahsulotlar yuqori sifatga ega. Kreativlik qaror qabul qilish bilan bog'liqdir, ya'ni “istalgan kishi kreativ ustanovkani qabul qilishi, kreativ fikrlashi

mumkin”. Biroq turli sabablarga ko'ra, “odamlar buni qilmaydi”. Ba'zilar olomonga yon bosish uchun aqliy qobiliyatlaridan foydalanadi, boshqalari esa olomonga qarshi chiqish uchun bu imkoniyatidan foydalanishadi. Ular, ehtimol, yetakchilik lavozimlarida eng samarali bo'lishlari mumkin, ular o'zgarish zarurligini va barqarorlik o'rtasida muvozanat saqlay olishadi. chunki. “Kreativ odamlar sog'lom fikrlay olmaydilar va hatto boshqa odamlar bilan munosabatlarda ahmoqona ishlarni qilishlari mumkin”. R.Stenbreg “ijodkorlik” quyidagi xususiyatlarga ega degan xulosaga keldi: hukmlar va harakatlar noan'anaviyligi; rivojlangan estetik ko'nikmaga ega; moslashuvchanlik; “o'yin qoidalariga” ambivalentlik (asosiy noaniqlik)ni kiritish; avtoritetlarga va tan olingan “haqiqatlar”ga qarshi tanqid bilan chiqish [2].

J.P.Gilford o'z tadqiqotlarida konvergent fikrlash bilan divergent fikrlash o'rtasidagi sifatli farqqa e'tibor qaratdi. Uning ishlari tufayli bu mavzu tadqiqotchilar e'tiboriga tushdi va amaliy ta'lim muammolarini hal qilish borasida muhokama qilinmoqda. Konvergent fikrlash chiziqli, mantiqiy (diskursiv) fikrlashni nazarda tutadi, bu muammoni yagona to'g'ri yechimini o'z ichiga oladi. Divergent fikrlash butunlay boshqa yo'nalishga ega. Bu holda bir nechta yechimlarning printsiplial imkoniyati birinchi o'ringa chiqadi. “Divergentli” ong innovatsion yo'llar, noan'anaviy g'oyalarni topishga qaratilgan. Dj.Gilfordning bu yondashuvini kreativlik xususiyatlarining asosiy nazariy asosi sifatida baholash mumkin. Bizningcha, ravonlik (tezlik, unumdorlik) ko'rsatkichi so'z yoki chizmalarda ifodalanadigan ko'plab g'oyalarni hosil qilish qobiliyatini aks ettiradi. Bu qobiliyatga ega bo'lgan insonning tafakkuri deyarli qiyinchiliklarsiz amalga oshadi. Biz bu ko'rsatkichni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin: 1) alohidalangan so'z darajasidagi ravonlik. Bunda kishi muayyan harf yoki birikmalarni o'z ichiga olgan so'zlarni osonlikcha topa oladi, berilgan so'z uchun sinonimlarni osonlik bilan tanlaydi; 2) g'oyalar va yechimlarni o'z-o'zidan ishlab chiqarish. Misol uchun, bir vaqtning o'zida qattqlik, oqlik va yegulik belgilari predmetlarni aytish yoki matn mohiyatini ifoda etuvchi sarlavha tanlash kerak bo'ladi [1].

Biz moslashuvchanlik ko'rsatkichini muammoning bir jihatdan boshqasiga o'tish, muammolarni hal qilishda turli yondashuvlardan foydalanish qobiliyati bo'yicha baholaymiz. Bu qobiliyatga ega bo'lgan odam yangi yondashuvlarni osonlik bilan o'rganadi. Kreativ fikrlashning bu ko'rsatkichi yana ikkiga bo'linadi: amaliy ahamiyatga bir necha g'oyalarni taklif qilish qobiliyati. G'oyalarning o'ziga xoslik ko'rsatkichi ko'pchilik psixologlar tomonidan kreativlik fikrlashning asosiy xususiyati sifatida e'tirof etiladi. Originallik deganda yaqqol va oddiydan farq qiluvchi g'oyalarni ilgari surish qobiliyati tushuniladi. Misol tariqasida uzoqdan assotsiatsiyalashgan fikrlashni ko'rsatish mumkin: inson o'xshatishlarni keltiradi, bir-biridan ma'no jihatidan (mantiqiy jihatdan) yoki makon-zamon nuqtai nazaridan uzib yulingan elementlarni birlashtira oladi [5].

Y.P.Torrens sub'ektlarning muayyan namunasini sinab ko'rishda muayyan javoblar yuzaga keladigan chastota bo'yicha originallikni aniqlash usulini ishlab chiqdi. Javob qanchalik siyrak bo'lsa, uning o'ziga xosligi uchun ball shuncha yuqori bo'ladi. Y.I.Sheblanova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yuqori darajadagi o'ziga xoslikka ega kishilar odatda yuqori intellektual faolligi bilan ajralib turadi. Ular yechim qidirishda katta aqliy “sakrashlar” qilish yoki “burchaklarni kesib o'tishga” qodir. Y.I.Sheblanovanning tadqiqotlarida kreativ shaxsni tavsiflovchi bir qator fazilatlar ko'rsatib o'tilgan: qobiliyatlilik, aqlning reaktivligi, hazilkashlik. Bu fazilatlarni boshqalardan ko'ra ob'ektiv baholash bir oz qiyin, biroq odatda ekspertlarning baholashlarida katta farq sezilmaydi. Bu ham aqlning bir qirradi hisoblanib, unga kundalik kuzatuvchanlik, fikrlashning paradoksligi xos bo'lib, intellektual qobiliyatning chuqurligi va quvvati ko'zga tashlanmaydi.

G.Alder kreativ odamni tasvirlab, unda umumiy printsiptni, g'oyani yoki fikrni bilish sharti bilan yo'qolgan aloqalarni, tafsilotlarni osongina tiklash, ba'zi rag'batlantiruvchi ma'lumotlar asosida to'ldirish qobiliyati mavjudligini ta'kidlaydi.

G.Alder insonning konvergent fikrlash qobiliyatini ta'kidlab, uni faqat to'g'ri javobni topishga qaratilgan aqliy faoliyat, kerak bo'lganda, tafsilotlarga e'tibor berish qobiliyati deb ta'riflaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, divergent fikrlash

qobiliyati konvergent tafakkurning teskarisidir. U hech narsa bilan chegaralanmagan bo'lib, bu holda yagona to'g'ri javob yo'q. Bu xususiyat ijodiy fikrlashning immanent (ichki) xususiyati maqomiga ega. Kreativlikni o'lchashning psixometrik usullari aynan shunga asoslanadi. G.Alderga ko'ra, eng qiyin vazifalarni oldindan aytib bo'lmaydigan natijalari bilan hal qilishda tavakkalchilikka tayyorlik, umum e'tirof qilingan fikrlarga qarshi borish kreativli shaxslarning eng yorqin xususiyatlaridan biridir.

Veysbergning nuqtai nazari ham juda qiziq. Unga ko'ra, “ijodkorlik” degan tushuncha mavjud emas, divergentli fikrlash, daholik, noyob badiiy iste'dod ijod fani tomonidan yaratilgan afsonalardan boshqa narsa emas. Kreativlikning birinchi tadqiqotchilari orasida L.Terstoun (1935) bo'lib, u ijodiy qobiliyat va o'rganish qobiliyatlari o'rtasidagi farqga e'tibor qaratdi. U ijodiy faoliyatda nointelektual omillar, birinchi navbatda temperamentning rolga e'tibor bergan. Insonning yangi g'oyalarga bo'lgan moyiligi muammoni hal qilish paytida emas, balki, eng avvalo, diqqatning beqarorligi paytida yuzaga keladi. Kattalardagi kerativlik va intellekt o'rtasidagi munosabatlarning ko'pgina tadqiqotlar bu borada mualliflarning talqinida juda katta tafovutlar borligini ko'rsatgan. Ch.Bert va Ye.Torndayk bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik, albatta, past bo'ladi, lekin divergent fikrlashni umumiy qobiliyatini o'rganadigan test batareyasiga kiritish zarur va muhim, deb hisoblashgan”.

Yuqoridagilardan kelish chiqib, kreativlik muammosi psixologiyada dolzarb muammolardan biri bo'lib, bu yillar davomida tadqiqotlar muammosi bo'lib o'rganilib kelinmoqda. Psixologiyada kreativlik va kreativlikni o'rganish muammosi bo'yicha tadqiqotlarni nazariy tahlil qilish, ular o'rtasidagi farqlarni aniqlashga imkon berdi. Ijodiy faoliyat ko'proq umumiy bo'lib, kreativlikni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilar "kreativlik" atamasini divergent tafakkur xususiyatlari, umumiy qabul qilingan, stereotipik fikrlardan farq qiladigan g'oyalarni yaratishga imkon beradigan qobiliyatlar to'plami bilan bog'laydilar. Art-terapiya vositalari orqali o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish psixologik muammo sifatida o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish orqali kreativlikka ta'sir etuvchi

omillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda o'quvchilar kreativlik omillarini tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatdi. Buning uchun esa eng avvalo, kreativlikning komponentlari va mexanizmlarini o'rganish hamda ular orasidagi uyg'unlikni tadqiq qilish talab qilinadi. Shuningdek ushbu muammo bo'yicha olingan ilmiy natijalar va xulosalar psixologiya fanini yangi ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Гатанов Ю.Б. Курс развития творческого мышления (по методике Дж. Гилфорда и Дж. Рензулли): Первый год обучения (для детей 6-10 лет). - СПб: ГП «Иматон», 1996.
2. Козленке, В. Н. Проблема креативности личности / В. Н. Козленко // Психология творчества; под ред. Я. А. Пономарева. - М. : Наука, 1999.
3. Фрейд З. Художник и фантазирование/ Пер. с нем.; Под ред. Р.Ф. Додельцева, К.М. Долгова. - М.: Республика, 1995.
4. Фромм Э. Искусство любить/ пер. с англ. - М.; АСТ; АСТ МОСКВА, 2010.
5. Шумакова Н.Б., Щепланова Е.И., Щербо Н.П. Исследование творческой одарённости с использованием тестов Е.П. Торренса у младших школьников // Вопросы психологии. - 1991. - №1.

O`SMIRLARDAGI EMOTSIONAL ZO`RIQISHLARNI KORREKSIYALASHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

A.M. Nazarov,

BuxDU, Psixologiya fanlari nomzodi dotsent

D.T. Umarova

*BuxDU, Pedagogika va Psixologiya
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. O`smir shaxsida emotsional holatlarning kechishi va ularni korreksiya qilish usullari haqidagi ma`lumotlar keltirilgan. Shuningdek, o`smirlarda mazkur muammo yuzasidan olib borilgan nazariy hamda empirik tadqiqotlarning sharhlari berilgan.

Kalit so'zlar: o`smir, korreksiya, hissiy toliqish, empirik, sindrom, diagnostika, intellekt, ambivalentlik, depersonalizatsiy, kognitiv, intensiv, psixiatrik, stress.

“Hissiy toliqish” atamasi 1974-yilda amerikalik psixiatr X.J.Freydenberger tomonidan kiritilgan. Bu jarayon pirovardida sog`lom odamlarning psixologik holatini tavsiflash, mijozlar va bemorlarga professional psixologik yordam ko`rsatish, hissiy jihatdan toliqqan muhitda haddan tashqari intensiv, yaqin aloqada bo`lishni nazarda tutadi. U hissiy toliqishni o`z resurslari va kuchlariga keskin oshirilgan talablar tufayli kelib chiqadigan charchoq deb ta`riflangan. Keyinchalik, u ushbu holat “muvaffaqiyat kasalligi” deb atalgan [1].

Jahon Sog`liqni saqlash tashkilotining ta`rifiga ko`ra, “hissiy toliqish sindromi” - bu ishdagi mahsuldorlikning buzilishi, charchoq, uyqusizlik, somatik kasalliklarga duchor bo`lishga bog`liq jismoniy, hissiy yoki motivasion charchoqdir. Hozirgi vaqtda doirasida ko`rib chiqilgan stress muammolari o`z hayotini boshqarishdagi qiyinchiliklar bilan bog`liq muammolar Xalqaro kasallanish tasnifida ko`rsatilgan.

Dastlab, bu atama madorsizlik holati, o`z foydasizligi hissi bilan charchoq deb ta`riflangan. Zamonaviy tadqiqotchilar ta`kidlashlaricha, hissiy toliqish surunkali charchoq sindromining shakllanishi bilan bog`liq bo`lishi mumkin.

1980-yilda C.Cherniss hissiy toliqish sindromini psixologik parvarish va hissiy charchash natijasida yuzaga keladigan ortiqcha majburiyatlarga, norozilikka javoban ishlash motivatsiyasini yo`qotish deb ta`rifladi.

C.Maslachning aytishicha, mijozlarga nisbatan g`ayriinsoniy munosabat bilan birgalikda hissiy qo`zg`alish va ishga qiziqishni yo`qotish insonning kasbiy o`ziga xosligi va ishdagi xatti-harakatlariga ta`sir ko`rsatadi. Keyinchalik, u hissiy toliqishni ishga qiziqish va ehtiyotkorlikni yo`qotish deb ta`rifladi. Kelajakda ushbu

alomatlarga hissiy charchoq, depersonalizatsiya va umumiy ishga layoqatning pasayishi qo'shildi.

Shu tariqa, ushbu holat namoyon bo'lishining uchta asosiy guruhi aniqlandi: hissiy charchoq, depersonalizatsiya va shaxsiy kasbiy yutuqlarni qisqartirish. Hissiy charchoq odatda kasbiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan hissiy bo'shliq va charchoq hissi sifatida tushuniladi. Bunday holda depersonalizatsiya ushbu atamani klassik psixiatrik atama sifatida emas, balki kasbiy faoliyatda shaxsiy ishtirokning pasayishi sifatida talqin etiladi. Depersonalizatsiya o'z faoliyati ob'ektlariga (bemorlarga/mijozlarga) munosabatning degumanizatsiyasi shaklida namoyon bo'ladi. Xususan, sovuqqonlik, aloqalarning rasmiyligi, shavqatsizlik va surbetlikni ko'rsatish mumkin. Yuzaga kelayotgan salbiy munosabatlar dastlab yashirin xarakterga ega bo'lishi mumkin va oxir-oqibat tashqariga chiqadigan va nizolarga olib keladigan ichki bezovtalikda o'zini namoyon qiladi.

Shaxsiy kasbiy yutuqlarni soddalashtirish kasbiy muvaffaqiyatni kam baholash, o'z kasbiy sohasidagi kompetensiyasizlik hissi yuzaga keladi. Toliqish - bu ijodkorlikni yo'qotish yoki zerikish reaksiyasi emas, aksincha "shaxslararo muloqot natijasida paydo bo'lgan va stress fonida yuzaga keladigan hissiy charchoq". S. Maslachning ta'kidlashicha, erkaklarga ko'proq depersonalizatsiya va degumanizatsiyaning yuqori darajasiga xos, ayollar esa ko'proq hissiy charchash bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, aytish kerakki, turmush qurmagan erkaklar toliqishga ko'proq moyil bo'ladi.

A. Shirom va boshqalar (1989) hissiy toliqishni jismoniy, hissiy va kognitiv charchoq yoki charchoqning kombinatsiyasi deb hisoblaydi, bunda hissiy charchoq asosiy omil hisoblanadi. Toliqishning qo'shimcha tarkibiy qismlari shaxsiy yutuqlarning pasayishida ifodalanadigan depersonalizatsiya yoki kognitiv-emotsional charchashga olib keladigan xatti-harakatlar (stressni bartaraf etish) natijasidir. Rus adabiyotida charchash hodisasini o'rganish uchun turli atamalar qo'llanilgan: masalan - "hissiy holdan toyish" yoki "hissiy toliqish" (Formanyuk T.V., 1994; Boyko V.V., 1996), "ruhan toliqish" (Oryol V.E., 2001; Vodopyanova N.E., Starchenkova Y.S., 2005), "professional toliqish" (Ronginskaya T.I., 2002).

K.A. Abdulxanova bu holatni psixotravmatik ta'sirga javoban his-tuyg'ularni to'liq yoki qisman chiqarib tashlash (ularning energiyasini pasaytirish) shaklida psixologik himoya qilish mexanizmi sifatida belgilaydi. Shu munosabat bilan, toliqish hissiy, ko'pincha professional xatti-harakatlarning o'zlashtirilgan stereotipi bo'lib tuyuladi, bu odamga energiya manbalarini dozme'yorlash alash va tejamkor sarflash imkonini beradi. O'z-o'zidan V.V.Boyko hissiy toliqishni konstruktiv deb hisoblaydi va uning oqibatlari disfunktsional bo'lib, bu hissiy toliqish kasbiy faoliyat va sheriklar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, hissiy toliqish shaxsning kasbiy deformatsiyasiga olib keladi. Ushbu holatga insonparvar kasb vakillari va boshqaruv xodimlari: tibbiyot xodimlari, menejerlar, o'qituvchilar, psixologlar, sotuvchilar, advokatlar, ijtimoiy ishchilar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari ko'proq moyil [1].

Hozirgi vaqtda hissiy toliqish hodisasini tavsiflovchi bir nechta modellar mavjud. Bir omilli modelga ko'ra, hissiy toliqish - bu hissiy sohaga yuqori talablar qo'yadigan vaziyatda uzoq vaqt kirishi natijasida kelib chiqadigan jismoniy, hissiy va ruhiy toliqish holati, shaxsning stressga chidamliligi. Unda asosiy sabab charchash, boshqa ko'rinishlar esa oqibatdir. Ta'rifga energiyaning past darajasi, zaiflik, surunkali uyqusizlik va ko'plab jismoniy va psixosomatik shikoyatlar bilan charchoqni tavsiflovchi alomatlar kiritilgan. Hissiy charchoqqa nochorlik, umidsizlik va aldanib qolish hissi kiradi; o'ta og'ir vaziyatda bu hissiy portlashga olib kelishi mumkin. Ruhiy charchoq o'ziga, o'z ishiga va umuman hayotiga salbiy munosabatni rivojlantirish deb hisoblanadi. Ushbu yondashuv mualliflarining fikriga ko'ra, odamlar nafaqat turli xil kasbiy guruhlarda, balki ishdan tashqarida ham "toliqish" ga duch kelishadi. Misol uchun, A.Pines va E.Aronson (1988) bir o'lchovli konstruksiya sifatida ko'rib, uni emotsional ortiqcha yuk sharoitida uzoq vaqt qolishdan kelib chiqqan jismoniy va ruhiy charchoq holati" deb ta'riflaydi. Ikki omilli model mualliflari D.V.Dierendonk va V.B.Schaufeli (1994) hissiy charchoq va depersonalizatsiyani o'z ichiga olishini aniqladilar. Birinchi komponentda (affektiv) ular sog'liq, jismoniy kayfiyat, asabiy taranglik, hissiy charchoq haqida shikoyatlarni o'z ichiga olgan. Ikkinchisida - depersonalizatsiya, bu bemorlarga yoki

o'ziga bo'lgan munosabatni o'zgartirishda namoyon qiladi. P.Brillning fikricha, hissiy toliqish, ko'rsatiladigan ish bilan, hissiy talablari va kutishlari, shaxsning hissiy talablari o'rtasidagi nomuvofiqlik tufayli rivojlanadi; u disforik alomatlardan iborat bo'lib, asosan hissiy charchoqni o'z ichiga oladi, u psixopatologiya belgilari bo'lmagan, ilgari adekvat ishlaydigan shaxslarda uchraydi (Brill P.L., 1984) [2].

C.Maslach va S. Jaksonning (1986) uch omilli modelini tasvirlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, odamlar bilan ishlashda paydo bo'ladigan hissiy charchoq, depersonalizatsiya va kasbiy shaxsiy yutuqlarni kamaytirishni o'z ichiga oladi. Hissiy charchoq ular tomonidan hissiy toliqishning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi, bu hissiy fonning pasayishi, befarqlik yoki hissiy to'yinganlikda namoyon bo'ladi.

Ikki omilli model mualliflari D.V.Dierendonk va V.B.Schaufeli (1994) hissiy charchoq va depersonalizatsiyani o'z ichiga olishini aniqladilar. Birinchi komponentda (affektiv) ular sog'liq, jismoniy kayfiyat, asabiy taranglik, hissiy charchoq haqida shikoyatlarni o'z ichiga olgan. Ikkinchisida - depersonalizatsiya, bu bemorlarga yoki o'ziga bo'lgan munosabatni o'zgartirishda o'zini namoyon qiladi. P.Brillning fikricha, hissiy toliqish, ko'rsatiladigan ish bilan, hissiy talablari va kutishlari, shaxsning hissiy talablari o'rtasidagi nomuvofiqlik tufayli rivojlanadi; u disforik alomatlardan iborat bo'lib, asosan hissiy charchoqni o'z ichiga oladi, u psixopatologiya belgilari bo'lmagan, ilgari adekvat ishlaydigan shaxslarda uchraydi (Brill P.L., 1984). S.Maslach va S.Jaksonning (1986) uch omilli modelini tasvirlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, odamlar bilan ishlashda paydo bo'ladigan hissiy charchoq, depersonalizatsiya va kasbiy shaxsiy yutuqlarni kamaytirishni o'z ichiga oladi. Hissiy charchoq ular tomonidan hissiy toliqishning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi, bu hissiy fonning pasayishi, befarqlik yoki hissiy to'yinganlikda namoyon bo'ladi. Boshqa odamlar bilan munosabatlarning deformatsiyasida, boshqalarga qaramlikning kuchayishi yoki negativizmning kuchayishi, mehnatga va ularning ish ob'ektlariga kinoyali munosabatda, ular ishlashi kerak bo'lgan odamlarga nisbatan salbiy yoki befarq munosabatlarning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Shaxsiy yutuqlarni qisqartirish - bu o'z-o'zini

hurmat qilishning salbiy tendensiyasi, kasbiy yutuqlari va yutuqlarini past baholash, rasmiy xizmatlari va imkoniyatlariga nisbatan negativizm yoki o'z qadr-qimmatini pasaytirish, boshqalarga nisbatan o'z imkoniyatlari va majburiyatlarini cheklash. Bu norozilik va o'zini o'zi kasbiy past baholash his-tuyg'u bilan birga keladi. So'nggi tadqiqotlar bunday tuzilmaning qonuniyligini tasdiqladi, bu hissiy toliqishni nafaqat uning jarayonida shaxslararo munosabatlar bilan emas, balki umuman ish bilan bog'liq bo'lgan kasbiy inqiroz sifatida tushunishga olib keldi. Ushbu depersonalizatsiya tushunchasi mijozlarga, o'z ishiga va uning ijtimoiy roliga salbiy munosabatni anglatadi. V.V.Boykorni tanlangan psixotravmatik ta'sirlarga javoban hissiyotlarni to'liq yoki qisman chiqarib tashlash (energiyani, intensivlikni pasaytirish) shaklida shaxs tomonidan ishlab chiqilgan psixologik himoya mexanizmi sifatida tushunadi; bu hissiy, ko'pincha kasbiy xatti-harakatlarning orttirilgan stereotipi.

D.H.Xarrisoning (1983) fikriga ko'ra - bu shaxsning o'z ijtimoiy kompetensiyasini va mijoz bilan shaxslararo munosabatlardagi samaradorligini idrok etishi bilan bog'liq hodisa. Muallif "ijtimoiy kompetensiya"ni insonning boshqalar bilan muvaffaqiyatli munosabatda bo'lish va shu orqali ijtimoiy muhitga ta'sir o'tkazish qobiliyati hissi deb hisoblaydi. Ushbu modelning asosida professionalning boshqalarga yordam berishga bo'lgan motivatsiyasi yotadi. Agar mutaxassis boshqalarga foydali bo'lish qobiliyatini yo'qotsa, toliqish paydo bo'ladi [3].

Bundan tashqari, o'smirlarning har xil yo'l-yo'riqlari bilan ajralib turadigan narsa, charchash xavfi yuqori bo'lgan o'quvchilarni aniqlashda yordam beradi. Shu sababli, tadqiqotning yana bir ahamiyati shundaki, o'smirlarning ruhiy salomatligi va uning stressga bardoshlilikini bilan bog'liqligini o'rganish tadqiqotlar muammosi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Абульханова-Славская К.А. Развитие личности в процессе жизнедеятельности // Психология формирования и развития личности: Сб. статей / Ин-т психологии; Отв. ред. Л. И. Анцыферова. М.: Наука, 2015.

2. Ананьев В.А. Введение в психологию здоровья. СПб., 2018.

3. Архиреева Т.В. Самосознание и Я-концепция ребенка. Великий Новгород, 2012.

PEDAGOGIK YO'NALISHDAGI FANLARNI O'QITISHDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MA'NAVYIY-AXLOQIY TARBIYALASH TEXNOLOGIYASI

D. K. Hotamova,

*BuxDU, Pedagogika va Psixologiya
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Tezisdagi Pedagogik yo`nalishdagi fanlarni o`qitishda bo`lajak o`qituvchilarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi haqida atroflicha mulohaza yuritilgan.

Kalit soʻzlar: Manaviyat, axloq, ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish, pedagogik texnologiya, o'qituvchi, vatanparvarlik, burch, mas'uliyat.

Ma'lumki, tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayon yotadi. Bu jarayon o'qituvchilar faoliyatini tashkil etib, ular tomonidan amalga oshiriladigan o'quv faoliyatini rejalashtirish va unga erishish usullari, bu usullarni modellashtirish, ishlab chiqilgan reja va modellarni amaliyotda sinab ko'rish hamda talabaning ma'naviy-axloqiy faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi. Texnologiyalashtirish, shu jumladan, tarbiya texnologiyasi - obyektiv jarayon bo'lib, pedagogning talabalarga tarbiyaviy ta'sir etishni tashkil etish, amalga oshirish va ularning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash metod va usullarini belgilab beradi.²⁶⁰

Oliy ta'lim muassasalarining Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan «Pedagogika nazariyasi va tarixi», «Pedagogik mahorat», «Ijtimoiy

1. ²⁶⁰ Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1991. – 67 b.

pedagogika”, “Oila pedagogikasi”, “Pedagogik texnologiya”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Pedagogik konfliktologiya” fanlari va boshqa barcha ta’lim yo’nalishlarida o’qitiladigan “Umumiy pedagogika” fani talabalarni ma’naviy-axloqiy shakllantirishda o’ziga xos o’ringa ega. «Pedagogika» fanining asosiy mazmuni bilan tanishar ekanmiz, barkamol shaxsni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, unga axloq haqida tushuncha berish, axloqiy tushunchalar: savob-gunoh, uvol kabilarni tavsiflash, vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi, bolalarda shaxsga nisbatan ochiq ko’ngillik, mehribonlik, g’amxo’rlik, diqqat-e’tibor, yaxshi munosabat va muomala, o’rtoqlik va do’stlik tarbiyasi. Ongli intizom va intizomlilikni tarbiyalash talabalarning madaniyatligi ma’naviy dunyoqarashlarini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy yo’nalishlari: milliy g’urur, vatanparvarlik, birodarlik, qon-qarindoshlik his-tuyg’ularini tarkib toptirish; ma’naviy madaniyatning asosi hisoblangan «hadis»lar, xalq pedagogikasi namunalaridan foydalanish; ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirishda ma’naviy-estetik vositalarning o’rni; sog’lom avlod tarbiyasida jismoniy, ekologik madaniyatni tarbiyalash masalalariga e’tibor qaratiladi.²⁶¹

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy va eng muhim manbai ta’lim-tarbiya ekan, bu borada “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo’nalishlarida “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani ham katta ahamiyatga ega. Chunki inson, uning har tamonlama uyg’un

kamol topishi shaxs manfaatlarini ro’yobga chiqarishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o’zgartirish amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Xalqimizning boy intellektual merosi, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalar yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini yaratish O’zbekiston taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Zero, ta’lim tizimida milliy tajribaning muhim

2. ²⁶¹ Akramova Sh., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari – T.: Ma’naviyat, 2015. – 30 b.

namunalari va jahon ta'limidagi yutuqlar asosida, umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirish pedagogika fanini o'qitishning asosiy maqsadi etib belgilangan.

Shunga ko'ra talabalarda hosil bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarning eng asosiylari sifatida:

- mutaxassisning chuqur bilim va keng dunyoqarashga ega bo'lish va shu bilan birga o'z bilimini doimiy ravishda boyitib borish;
- umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida pedagogik ta'limni takomillashtirib borish;
- buyuk mutafakkirlarning ta'limiy-axloqiy qarashlarini o'rganish va ulardan o'z faoliyatida foydalanish;
- ta'lim va pedagogik amaliyot jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ilg'or shakl va metodlarini qo'llay olish malakasiga ega bo'lish;
- ta'lim jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali zamonaviy mutaxassisning yuksak ma'naviy siymosini yaratish.²⁶²

Mazkur bilim, ko'nikma va malakalar «Shaxsning rivojlanishi, shakllanishi va tarbiyasi», «Barkamol shaxs tarbiyasining maqsad va vazifalari», «Barkamol shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi», «Barkamol shaxsning estetik tarbiyasi», «Barkamol shaxsning mehnat tarbiyasi», «Jismoniy tarbiya», «Ekologik tarbiya», «Iqtisodiy tarbiya» barchasi ma'lum tizimda loyihalashtiriladi.

Shunga ko'ra, "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanidan "Talabalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi" mavzusini o'rganishda esa quyidagi texnologiya asosida dars mashg'uloti tashkil qilindi:

Mavzu	Talabalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi
--------------	---

1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

3. ²⁶² Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1991. – 67 b.

2.

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot vizual ma'ruza B.B.B. texnikasidan foydalangan holda
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<p>1. Axloq - ijtimoiy ong, inson kamolotining muhim tomoni sifatida.</p> <p>2. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyati, mazmuni, funksiyasi.</p> <p>3. O'tmish diniy va dunyoviy bilim egalari, axloqiy- ma'naviy tarbiya to'g'risida.</p> <p>4. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada milliy o'yinlar, bayram va marosimlarning o'rni.</p> <p>5. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ongli intizom.</p> <p>6. Madaniy xulq va ongli intizomni tarbiyalash.</p>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning shakllanish xususiyatlari va o'zaro ta'siri haqida bilimlarni shakllantirish.	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <p>- Axloq - ijtimoiy ong, inson kamolotining muhim tomoni ekanligini ochib beradi.</p> <p>- Axloqiy tarbiyaning mohiyati, mazmuni, funksiyasi tushuntiriladi.</p>	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <p>- «Axloq», «ma'naviyat» tushunchalariga ta'rif bera oladi;</p> <p>- axloqiy tarbiyaning mohiyati, mazmuni, funksiyasini izohlay oladi;</p>

<p>- O‘tmish diniy va dunyoviy bilim egalari, axloqiy- ma’naviy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlariga to‘xtalib o‘tiladi</p> <p>- Axloqiy-ma’naviy tarbiyada bayram va marosimlarning o‘rni ifodalanadi.</p> <p>- Ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimida ongli intizom masalasi yoritiladi.</p> <p>- Madaniy xulq va uning ongli intizomni tarbiyalash bilan aloqasi mazmuni yoritiladi.</p>	<p>- o‘tmish diniy va dunyoviy bilim egalari, axloqiy- ma’naviy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini sanab beradi;</p> <p>- axloqiy-ma’naviy tarbiyada bayram va marosimlarning o‘rnini izohlaydi;</p> <p>- ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimida ongli intizomni tavsiflaydi;</p> <p>- Madaniy xulq va uning ongli intizomni tarbiyalash jarayonlarini tavsiflaydi.</p>			
<p>O‘qitish uslubi va texnikasi</p>	<p>Ma’ruza, vizuallashtirish, aqliy hujum, muhokama, texnikalari: test o‘tkazish, blis so‘rov, grafik organayzer: B/B/B jadvali</p>			
<p>O‘qitish vositalari</p>	<p>Konspekt, slaydlar, o‘quv materiallari, proektor, informatsion ta’minot</p>			
<p>O‘qitish shakli</p>	<p>Frontal, alohida, jamoa bo‘lib ishlash, juftlikda</p> <p>Ishlash</p>			
<p>O‘qitish shart-sharoiti</p>	<p>Informatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan auditoriya</p>			
<p>Bosqichlar, vaqti</p>	<p>Faoliyat mazmuni</p> <table border="1" data-bbox="555 1957 1505 2020"> <tr> <td data-bbox="555 1957 1139 2020">O‘qituvchi</td> <td data-bbox="1139 1957 1505 2020">Talaba</td> </tr> </table>		O‘qituvchi	Talaba
O‘qituvchi	Talaba			

<p>1-bosqich. Kirish (5 daqiqa)</p>	<p>1.1. Mavzu uning maqsadi o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum qiladi.</p>	<p>Eshitadilar, yozadilar.</p>
<p>2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (15 daqiqa)</p>	<p>2.1. Ekranga B/B/B jadvalini chiqaradi va unga izoh beradi (1- ilova). Topshiriq beradi: hamma jadvalni chizib olsin va ma'ruza rejasini bo'yicha 2-ustunni to'ldirsin. Talabalarni juftlikka ajralishlari so'raladi, savollar bo'yicha alohida fikr yuritish va juftlikda</p>	<p>2.1. Jadvalni chizadi va 2-ustunni to'ldiradi. Juftlikka ajraydilar savollarni muhokama qiladi va javob beradilar. B/B/B jadvalining 3 va 4 ustunlarini to'ldiradilar.</p>
	<p>muhokama qilish va javob berish tavsiya etiladi: (1) ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risida nimalarni bilasizlar? (2) sizning fikringizcha ushbu mavzu bo'yicha nimani bilish kerak? Blis so'rov o'tkazadi. B/B/B jadvalining 3 va 4 ustunlarini to'ldirish bo'yicha topshiriq beradi.</p>	

<p>3-bosqich. Axborot (55 daqiqa)</p>	<p>3.1. Konspektni tarqatadi (3- ilova). Ma'ruza o'qiydi, vizual materiallardan foydalanadi. Tushuntirish jarayonida mavzu bo'yicha asosiy nazariy tushunchalar va qonuniyatlarni muhokama qiladi, e'tiborni jalb etuvchi va muammoli savollardan foydalanadi (2-ilova). 3.2. Olingan bilimlarni mustahkamlash uchun testlarni yechishni tavsiya etadi (4-ilova). Testlarni ekranga chiqaradi muhokamani uyushtiradi yechimlarni jamoa bo'lib topadilar. Muhokama bo'yicha yakuniy xulosalar chiqaradi. 3.3. Topshiriq beradi: B/B/B jadvalining 5 –ustunini juftlikda muhokama qilgan holda to'ldirishlarini so'raydi. Blis so'rov o'tkazadi.</p>	<p>3.1. Eshitadilar, muhokamada ishtirok etadilar. 3.2. Testlarni yechadi va ularni asoslaydilar. 3.3. B/B/B jadvalining 5-ustunini juftlikda muhokama qilgan holda to'ldiradilar.</p>
---	--	--

<p>4-bosqich.</p> <p>Yakuniy (5 daqiqa)</p>	<p>4.1. Ma'ruzaga yakun yasaydi, o'quv faoliyati natijalarini umumlashtiradi,</p> <p>Olingan bilimlarning kelajak uchun ahamiyatini aytib o'tadi.</p> <p>4.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi:</p> <p>1) Ma'naviyat va axloqning bir-biridan farqini izohlang;</p> <p>2) Axloqiy tarbiyaning vazifalari va yo'nalishlarini aytib bering.</p>	<p>4.1. Eshitadilar va topshiriqni yozib oladilar.</p>
---	--	--

O'quv materiallari

B/B/B texnikasini qo'llash bo'yicha ko'rsatma

1. Ma'ruza
rejasiga mos holda 2-ustunni to'ldiring.
2. O'ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo'yicha nimani bilasiz, 3-ustunni to'ldiring.
3. O'ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo'yicha nimani bilish kerak, 4-ustunni to'ldiring.
4. Ma'ruzani eshiting.
5. 5-ustunni to'ltiring.

	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
	2	3	4	5

Muhokama uchun e'tiborni jamlovchi va muammoli savollar

1. «Axloq» tushunchasining mohiyati nimalardan iborat?
2. «Ma'naviyat» tushunchasiga ta'rif bering.
3. Axloqiy tarbiyaning mohiyatiga ta'rif bering.
4. O'tmish diniy va dunyoviy bilim egalari, axloqiy-ma'naviy tarbiya to'g'risidagi fikrlaridan misollar keltiring.
5. Axloqiy tarbiyalanganlikning mezonlariga nimalar kiradi?
6. Axloqiy-ma'naviy tarbiyada milliy o'yinlar, bayram va marosimlarning o'rni qanday?
7. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ongli intizom qanday izohlanadi?
8. Madaniy xulq va uning ongli intizomni tarbiyalash bilan aloqasi qanday ta'sir etadi?
9. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari qaysilar?
10. Ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan din o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhdagi har bir talaba:

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'rganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- “Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz, yoki birga qutilamiz” atamasini yaxshi bilishlari lozim.

Ishlash reglamenti va tartibi

Guruhda ishlash va qog'ozda prezentatsiyani yozish – 25 daqiqa.

Ish natijalari prezentatsiyasi bilan taqdimot – 8 daqiqa.

Guruh faoliyatini baholash va jamoa bo'lib muhokama qilish – 5 daqiqa.

O'qituvchi tomonidan umulashtirish – 2 daqiqa.

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)

Guruh	Yechim (to'liqligi, to'g'riligi)			Tushuntirish (aniqligi, mantiqiyliqi)	Guruh faolligi	Ballar yig'indisi
	Savol (0,5)	Jadval (0,5)	Masala (1,0)	(0,6)	(0,4)	(3,0)
1						
2						
3						

O'qituvchi ma'ruzadan so'ng amaliy mashg'ulotlarda bahs-munozara uchun badiiy, ilmiy-ommaviy adabiyotlarni o'qish, kinofilm yoki spektakllarni ko'rish va ularni muhokama etish, ma'naviyat kunlarida maxsus suhbatlar uyushtirish orqali ma'naviy-axloqiy tushunchalar mustahkamlanib boradi. Talabalar o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini baholay boshlaydilar. Buning uchun turli ma'naviy-axloqiy mavzularda talabalar mustaqil fikr yuritish, o'ylashga yo'naltiriladi. Masalan, «Mahalladoshimiz S.. qanday qilib narkomanlar davrasiga tushib qoldi?», «Siz erkinlik deb nimani tushunasiz?», «Zamonaviy yoshlar deganda kimlarni tushunasiz?», «Oilangizda qanday qadriyat ulug'lanadi va u qanday qilib an'anaga aylangan?» kabi mavzular muhokama etilib, ulardagi yaxshi odatlarga bo'lgan qiziqish va intilishlar tarkib toptiriladi.

Shuning uchun ham bahs, munozara, suhbatlar ma'naviyatning, axloqlikning eng dolzarb muammolariga bag'ishlandi.

Bo'lajak o'qituvchilar faoliyatini tashkil etishda xulq-odobni shakllantirish metodlaridan mashqlar bajarish, o'rgatish, pedagogik talab qo'yish, topshiriqlar berish, tarbiyaviy vazifalar hosil qilish samarali natijalar berdi. Bu borada ma'naviy-axloqiy tarbiya estetik tarbiya, ekologik, mehnat tarbiyasi bilan bir tizimda uzviy tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ldi.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini yanada yuqori saviyaga ko'tarish maqsadida "Ma'naviy-axloqiy barkamollik – yurt kelajagi" maxsus kurs reja va dasturi tuzib chiqildi. Ushbu maxsus kurs reja va dasturi 8 soat ma'ruza, 8 soat seminar va 8 soat mustaqil ta'lim jami 24 soatga mo'ljallangan bo'lib, oliy ta'lim muassasasida fakultativ mashg'ulot sifatida olib borildi. Natijada talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni samarasi sezilarli darajada oshdi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik yo'nalishdagi fanlarni o'qitishda ularning talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash imkoniyatlarini aniqlash va muammo nuqtai nazaridan umumiy texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ta'limning noan'anaviy shakllaridan foydalanish talabalarning qiziqishlarini oshirish, mustaqil, erkin, ijodiy fikr yuritishga yo'llashi, eng muhimi madaniy muloqot yuritishga o'rganishi bilan ijobiy natijalarga olib keldi. Ishbop o'yinlar, musobaqa darslari, intellektual ring, teatrlashgan mashg'ulotlar, guruhlarga bo'linib ishlash, ijodkorlar tanlovlari, auksion darslar, bayt-baraklar, bahs-munozara darslari, ekskursiya darslari, mo'jizalar maydoni kabilar shular jumlasidan edi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2019. – 48 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. " // Xalq so'zi 2020 yil 24-sentabr
3. Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1991. – 67 b.
4. Akramova Sh., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari – T.: Ma'naviyat, 2015. – 30 b.
5. Amir Temur o'g'itlari. – T.: "Navro'z", 1992. - 45 b
6. Anvarova D.M. O'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari: Psix. fan. nomdis. avtoref. – T.: TDPU, 2011. - 26 b.

O'SMIRLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

L.Y.Olimov,

BuxDU, Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.O'.Bahronova,

BuxDU, Pedagogika va Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy psixologik ahamiyati sohasida olib borilgan izlanishlar asosida to'plangan ma'lumotlarga tayangan holda ilmiy mushohada yuritilgan bo'lib, asosan xorij psixolog olimlarining bu boradagi psixologik qarashlari o'rtasidagi aloqadorlik tahlil qilinadi, muammoni o'rganishga oid tadqiqot metodi asosida olingan natijalar bo'yicha xulosa beriladi.

Kalit so'zlar: o'smir xulq-atvori, ma'naviyat, axloqiy normalar, qadriyat.

Shaxsning axloqiy jihatdan intensiv tarkib topishi, axloqiy ongining shakllanishi, hatti-harakatlarning etik normalarini o'zlashtirishi o'smirlik yoshining muhim psixologik xarakteristikalaridandir. O'smirlik yoshi - o'z hatti-harakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashning, ma'naviy e'tiqod, prinsip hamda ideallarni baholash mulohazalari tizimining tarkib topish davridir. Agar bola kichik maktab yoshi davrida kattalarning, o'qituvchilarning va ota-onalarning bevosita ko'rsatmalari bilan yoki o'zining tasodifiy, impulsiv istaklari ta'siri bilan harakat qilgan bo'lsa, endilikda uning uchun o'z hatti -harakatlarining prinsipi, o'zining qarashlari, e'tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi.

O'smirning qanday axloqiy tajriba orttirishiga, qanday axloqiy faoliyatni amalga oshirishiga qarab uning shaxsi ham tarkib topa boshlaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'smirlik yoshi axloqiy jihatdan intensiv rivojlanish yoshi bo'lganligi tufayli ko'pincha o'smir ongida, tarbiyachi o'quvchi ongiga

singirdimoqchi bo'lgan hislatlarga qarama-qarshi axloqiy tushunchalar tarkib topishi mumkin²⁶³.

Psixologlar o'z oldilariga o'smirlar ma'naviy ongining mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o'rganish vazifasini ko'rganlar. Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'smirlar ma'naviy ongining yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi²⁶⁴. O'smirlarning ko'pchilik qismi yoshlariga munosib ma'naviy tushunchalarni to'g'ri tushunadilar.

E'tiqod va dunyoqarashning tarkib topishi bilan chambarchas bog'langan holda o'smirlarning axloqiy ideallari xam yuzaga kela boshlaydi. Bu ideallar yetarli darajada chuqur mazmundor, faoldir va bu ideallar o'ziga xos axloqiy namuna bo'lib xizmat qiladi, o'smir esa hatti-harakatlarini ana shu namuna bilan tenglashtiradi. Kichik yoshdagi o'smirlar uchun odatda qandaydir bir kishi ideal bo'ladi. Bu odam o'smir yuksak darajada baholaydigan sifatlarni o'zida gavdalantirgan bo'ladi. Ko'pincha bunday ideal ota-onalar, o'qituvchilar yoki yaxshi ko'radigan kitobidagi va kinofilmidagi qahramonlardir. Katta yoshdagi o'smirlarda ideal sifatlar majmui umumlashgan obrazlar ideallar sifatida yuzaga chiqa boshlaydi.

Ko'pgina axloqiy tushunchalarni noto'g'ri anglab, shaxsning ayrim sifatlarini xato tushunib va baholab, qaram bo'lmaslik va mustaqillikka intilib, o'z irodasini ko'rsatishga noto'g'ri harakat qilib, ayrim o'smirlar ba'zan ataylab o'zlarida ob'ektiv jihatdan salbiy bo'lgan sifatlarni rivojlantiradilar va o'zlaridan ijobiy sifatlarni siqib chiqaradilar. Tarbiyaning vazifasi mohirlik bilan o'smirlarning noto'g'ri qarashlarini yengish, ishning mohiyatini tushuntirish va o'smirlarning adashishlariga yo'l ko'ymaslikdan iboratdir. Ammo, bu ishni zerikarli nasihatgo'ylik va quruq jonga tegadigan aql o'rgatishlar bilan emas, balki samimiy, chin qalbdan va do'stona olib boriladigan suhbatlar bilan amalga oshirish kerak. Predmet o'qituvchilari to'g'ri axloqiy tushunchalarni tarkib toptirishda o'z fanlarining imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin.

²⁶³ Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya.. [Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya](#). "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 600.

²⁶⁴ Olimov L.Ya. [Psixodiagnostika va psixometrika asoslari](#). Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 204.

Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar jamiyat va shaxs ongida aks etadi. Ikkinchi tomondan, ma'naviyat sohasidagi o'zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarning miqyosiga, yo'nalishiga va sur'atlariga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin²⁶⁵. Shuning uchun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar jamiyatimiz, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar ongida o'z in'ikosini topmoqda. O'z navbatida mamlakatimizdagi islohotlar ko'lami va sur'atlari ma'naviyatimizning ham tez sur'atlar bilan rivojlanishini, aksariyat hollarda esa ijtimoiy-iqtisodiy soha rivojidan ildamroq va oldinroq yurishini taqozo etmoqda. Bunday vazifani bajarish uchun ma'naviyat yuksalishiga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan baracha imkoniyatlarni ishga solish zarurarti sezilmoqda. Ayni paytda ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa o'smir yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish ko'lami va sur'atlariga kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan psixologik omillarning imkoniyatlaridan yetarli foydalanilmayapti.

Shaxsni ma'naviy tarbiyalash uning butun umri davomida amalga shirilishi lozim. Biroq bu vazifa individning o'smirlik davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bu davrda shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviyatning negizi bo'lgan qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni juda tezlashib ketadi. Shaxsning ma'naviy rivojlanishiga mana shu davrda ozgina e'tiborsizlik qilinsa, u aksilijtimoiy yo'nalishga burilib ketishi, jamiyatimiz uchun yot bo'lgan mafkuralar, g'oyalar ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Ma'naviy tarbiyani samarali amalga oshirish uchun ma'naviyatning metodologi va umumiy jihatlarini aniqlab olish zarur. Bu yo'nalishda jahon va mamlakatimiz olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilgan. Ma'naviyat va ma'naviy tarbiya masalalarining O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi shu yo'nalishda ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar kengayishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Bu sohada, ayniqsa, mamlakatimiz faylasuflari, siyosatshunoslari, pedagog-olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar

²⁶⁵ Olimov L.Ya. [Umumiy psixodiagnostika](#). "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

amalgga oshirildi. Ayni paytda mamlakatimiz psixologlari tomonidan shu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarni yetarli, deb bo'lmaydi.

Shaxsning ma'naviy axloqiy rivojlanishi jarayoni uning ma'naviy ehtiyojlari doirasi kengayishi, ideallari va qadriyatlari yuksalishi bilan uyg'un tarzda kechadi. Shuning uchun o'smirlarning ma'naviy-ahloqiy ehtiyojlarini shakllantirish va mavjudlarini yuksaltirish orqali ma'naviy ahloqiy tarbiya samaradorligini oshirishga erishish mumkin²⁶⁶. O'smirlarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashga kirishdan avval ularning shu jihatlarini aniqlash bo'yicha psixodiagnostika tadbirlari o'tkazish mutlaqo zarur. Psixologik tashxis natijalariga qarab o'smirlarni ma'naviy ahloqiy tarbiyalash bo'yicha aniq reja va dastur tuzish mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya jarayonidan ko'zdangan maqsadlarga faqat tarbiyani o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni bilan uyg'unlashtirilganda erishish mumkinligini hisobga olib, o'smir o'zini-o'zi tarbiyalashga yo'naltirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun o'smirlar ongida ma'naviy ahloqiy qadriyatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlaydigan tadbirlarni amalga shirish maqsadga muvofiq. Jumladan, tarbiya jarayonida o'smir irodasini va empatiya tuyusini rivojlantirishga qaratilgan samarali tadbirlar amalga oshirish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya.. [Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya](#). “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 600.
2. Olimov L.Ya. [Psixodiagnostika va psixometrika asoslari](#). Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
3. Olimov L.Ya. [Umumiy psixodiagnostika](#). “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
4. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. [Психологические механизмы девиантного поведения](#). Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.
5. Elov.Z.S. [Қадимги халқлар урф-одатлари ва ривожланган жамиятда ўз жонига қасд қилишнинг ижтимоий психологик сабаблари. Тарих ва бугун](#)

²⁶⁶ Олимов Л.Я., Махмудова З.М. [Психологические механизмы девиантного поведения](#). Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.

[\(қадимги халқлар урф-одатлари ва бугунги замон\)](#) Jamiyat va innovasiyalar. 10.2021 169-173.

6. F.F.Usmonov, Z.S.Elov. [Suicide – as a global problem facing humanity](#). Web of scientist: international scientific research journal. Volume 3, Issue 2, Feb., 2022. 349-354

7.

ORZU - MAQSADLARIGA ERISHISH JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLI VAZIYATLAR

N.F.Ubaydullayeva,

*BuxDU, Psixologiya (faoliyat turlari
bo`yicha) mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Maqolada, maqsad qo'yish va unga erishish jarayonida intilayotgan insonlar orzularining asl keraklilik mazmun-mohiyatini anglashga bo'lgan intilishi va bu faoliyatidan ma'no izlashi doimo dolzarbligi, psixolog insonga bu ma'noni yoki mazmuni bera olmasligi ammo psixolog insonga buni anglashga va kerakli joydan izlashga yordam bera olishi to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so`zlar: Ma'no-mazmun, maqsad, ijodiy faoliyat, inson, mavjudlik

Insonning o'z hayotining ma'nosini topish va amalga oshirish istagi - bu xatti-harakat va shaxsiyat rivojlanishining asosiy dvigateli bo'lgan shaxsning tug'ma motivatsion yo'nalishi hisoblanadi. Ma'no ob'ektiv dunyoda; inson uni tanlamasligi yoki "ixtiro qilmasligi" kerak, balki uni hayotda va faoliyatda o'zini anglash orqali topishi kerak. Hayotning mazmuni har bir inson uchun o'ziga xosdir. Inson o'z hayotining ma'nosi nima ekanligini atrofdagilardan izlamasligi kerak, aksincha, savol berib yuzlanayotgan odam o'zi ekanligini tushunishi kerak.

"Ma'no va mazmun" deganda nimani tushunamiz? Ma'no izlash doimo dolzarbdir, chunki inson hayot sharoitlari doimo o'zgarib turadi²⁶⁷. Ma'no obyektiv ravishda hayotning har bir daqiqasida, shu jumladan eng fojiali paytda ham mavjud. Psixolog odamga bu ma'noni yoki mazmuni bera olmaydi, bu har kimning o'zida bor. Ammo psixolog odamga buni topishda yordam beradi ya'ni insonga turli yo'nalishlarni ko'rsatishi mumkin va qaysi birini tanlash har doim insonning o'ziga bog'liq.

Inson o'z rivojlanishining uchta asosiy usulini amalga oshirish va uchta qadriyatlar guruhiga²⁶⁸ e'tibor qaratish orqali o'z hayotini mazmunli qilishi mumkin:



Inson hayotga nima berishi mumkinligi bilan - ijodiy faoliyat (ijodkorlik qadriyatlari) bog'liq, bunga birinchi navbatda mehnat faoliyatida namoyon bo'ladi.

Insonning dunyoda ortiradigan qadriyatlari (tajriba qadriyatlari), xususan, sevgi tajribasiga kiritilganligi bilan bog'liq.

O'z hayotining taqdiri va sharoitlariga nisbatan tutgan pozitsiyasi orqali (munosabatlar qadriyatlari) namoyon bo'ladi

Inson o'z mavjudligining ma'nosini faqat shaxsiy "men" dan tashqariga chiqish, e'tiborni o'z shaxsining ichki tajribalaridan haqiqatga o'tkazish orqali topishi mumkin.

²⁶⁷ O.R.Avezov. N.F. Ubaydullayeva Logotherapy: how psychotherapy helps a person to find meaning in life.4/2022 ISSN 2181-0842

²⁶⁸ O.R.Avezov. N.F. Ubaydullayeva Frankl logoterapiyasi va uning inson hayotida tutgan o'rni. Science and education scientific journal.4/2022.ISSN 2181-0842

Ma'no vaziyat yoki hodisaga xos bo'lgan holat parametri emas. Ma'no dinamik tushuncha bo'lib, xuddi vektor yoki o'q kabi rivojlanish va shakllanishni ko'rsatadi.

Ma'no-mazmun masalasida biz ikkita o'lchovni uchratamiz, ulardan biri orqaga ya'ni o'tmishga, ikkinchisi oldinga ya'nikim kelajakka yo'naltirilgan. Bu ikki qutblilik ma'no masalasiga o'ziga xos keskinlik va "Baxt" tushunchasi kabi paradokslarga to'la²⁶⁹, u ko'p yo'nalishli mulohazalarni o'z ichiga olganligini guvohi bo'lamiz. U boshi va oxiri (yakuni), boshlang'ich nuqtasi va maqsad o'rtasidagi bo'shliqda joylashgan. Ma'noli hayot "o'z yo'lida" davom etmoqda va hali "oxirgi manziliga etib bormagan".

V. Franklning fikricha, insonning asosiy istagi - uning mavjudligining ma'nosini topish yoki tushunishdir²⁷⁰. Agar buning iloji bo'lmasa, u holda odam umidsizlikni yoki ekzistensial vakuumni²⁷¹ (bo'shliq, mavjudlikning ma'nosizligi) his qiladi. Mavjudlik ma'nosini topish jinsi, yoshi, aql-zakovati, xarakteri, muhiti, diniy va mafkuraviy e'tiqodidan qat'i nazar, har bir oddiy odam uchun mavjud.

Buni o'rgatib bo'lmaydi, chunki borliqning ma'nosi har doim individualdir va har bir kishi uni o'zi topishi yoki tushunishi kerak va har qanday hayotiy sharoitda o'z hayotini o'zi va boshqalar oldida tushunish uchun javobgarlikdan qochmasligi kerak.

Nimaga? - bu savol sabablar haqida, aslida bizning borlig'imiz suyanadigan va bizni hayotda ushlab turadigan asliyatimiz haqida. Demak, ma'no masalasi hamisha "asosiy savol"ni ham nazarda tutadi.²⁷² Faoliyat ma'nosi haqida so'rash "asosiy" hisoblangan, asliyatini izlash demakdir.

Xuddi "nimaga?", "nima uchun?" degan savollar inson hayot mohiyati jihatini o'z ichiga oladi. "Nima uchun?" degan savol bu maqsad va shuning uchun kelajak

²⁶⁹ Ubaydullayeva N.F. Baxt psixologik muammo sifatida. "XXI asr psixologiyasi

²⁷⁰ Франкл В. Человек в поисках смысла: Сборник / Пер. с англ. и нем. Д. А. Леонтьева, М. П. Папуша, Е. В. Эйдмана. — М.: Прогресс, 1990. — 368 с.: ил. — ISBN 5-01-001606-0

²⁷¹ *On the Theory and Therapy of Mental Disorders. An Introduction to Logotherapy and Existential Analysis*, Translated by James M. DuBois. Brunner-Routledge, London & New York, 2004. ISBN 0415950295

²⁷² Франкл В. Воля к смыслу = The will to meaning. — М.: Апрель Пресс; ЭКСМО-Пресс, 2000. — 97 с. — ISBN 5-04-005753-9.

haqidadir. Shunday ish tutsak, shunday yashasak, buni qilsak, boshqasini qilmasak, nimaga kelamiz? Bu yo'l bizni qayoqqa olib boradi? Balki boshqasi yaxshiroq bo'larmidi? Umuman bu dunyoda hayot qayerga olib boradi?

Albatta, har bir inson o'z hayotiy bosqichlarida, turli vaziyatlarda ushbu savolni vaqti-vaqti bilan o'ziga berib turadi. Va hayotning turli bosqichlarida u har xil javoblarni oladi, bunga asosiy sabab qadriyatlarni tushunish o'zgaradi, dunyoqarash o'zgaradi. Masalan maktabda, universitetda o'qishdan yoki til o'rganishdan, biron bir faoliyat bilan shug'ullanishdan, doimiy harakatda bo'lishimizning asl maqsadi nima!? Hayotning ma'nosi vaziyatdan vaziyatga qarab o'zgaradi.

Kasbim taqozosidan ko'plab insonlar bilan suhbatda bo'laman. Chet tili kursiga borishim davomida ko'plab til o'qiyotgan o'quvchi talabalar bilan suhbatda bo'ldim va ulardan ko'pchiligi til o'rganishdan asosiy sabab faqat o'qishga kirishi yoki xalqaro imtihonlardan yuqori ball olishlikni maqsad qilib, shuni qanchadir muddatga hayotlarining mazmuniga aylantirishadi va ko'pchiliklari buni o'zlar xohlab emas, balki qiziqishlardan tashqari zamon talab va taklifga binoan bajarishadi.

Shunday talabalardan biri bilan suhbatda bo'lgan jarayonimizda unga til o'rganish qiyin bo'layotgani, kursga borishni boshlaganiga 2 hafta bo'lgan bo'lsa shu davr mobaynida tushkunlik holatida bo'lib zerikayotgani va ishtiyoq yetishmayotganini aytib qoldi. Men undan qiziqishi nimada ekanligini va ingliz tilini o'zi xohlab o'qiyaptimi yo boshqa sababdanmi deb bir nechta odatiy savollarni so'radim.

U esa: “men o'zi pishiriq pishirishni yoqtiraman, shirinlik pishiradigan do'kon ochishni xohladim uyimdagilar ruxsat berishmadi ingliz tilini o'qi deb aytishdi”deb javob berdi.

Men aytdimki “o'ylab ko'ringchi ingliz tilini bilsangiz sizga qanday foydali tomonlari bor, qo'lga kiritgan IELTS sertifikatigizni siz nima maqsadda foydalana olasiz?”

Bu savolimga u o'ylanib qoldi bir necha ishonarsiz javoblarni aytdi ya'ni unda IELTS olishdan aniq bir maqsad mavjud emas, mavjud bo'lsada unga erishgandan keyin nima qilishi to'grisida o'ylab ham ko'rmagan.

Motivatsiyani inson oddiy narsalardan ham ola oladi agar xohlasa, uning maqsadi qattiy va aniq bo'lsa u maqsadiga boradigan yo'llarni o'zi chizib yura oladi.

Qiziqishning bo'lmagani, o'zi xohlamay biror faoliyatning bajarilishi va bu faoliyatning amalga oshishida ongda qattiy qarshiliklar yuzaga keladi. Umuman olganda, bugungi kunda insonlar yashashi uchun barcha narsa yetarli, ammo ular yashashga arziydigan narsa va uni bajarish uchun yetarli sabab topa olmaydilar.

Bu talabani 2haftadan keyin darsga kelganini ko'rdim va u menga kulib xol ahvol so'radi, men undan o'zlashtirilishi qanday ketayotganini, “bergan savolimga javob topdizmi?” deb so'z kelganda so'radim. U esa 2hafta davomida bu kursga kelmagani va boshqa bir hammaga ma'lum va mashxur bo'lgan ingliz tili o'quv markaziga borganini va u yerda ham vaziyat xuddi shunday hatto bundan battar tushkunlikka tushib ishtiyoqi so'nganligi, keyin o'tirib rostanam menga bu nima beradi uni o'rgansam hayot faoliyatimda qanday foydalana olaman degan savollarga javob topshga harakat qilibdi va uning aytishicha, bu unga u o'ylaganidan ham ko'proq narsalarda o'qiyotgan sohasida ham qiziqishlari bilan bog'liq holda ham hayot faoliyatida kerak bo'lishini anglagani aytdi. Mazmun mohiyat maqsad aniq bo'lgandan keyin, intiladigan obyektga qarab motivatsiya muammosi ham o'z o'zidan hal bo'ldi va ana shu mohiyatlar unga yashashni davom etishida, maqsadlarga erishishga intilishda turtki vazifasini o'taydi. Hozirda kurs vazifalarini o'zi xohlab, ishtiyoq bilan o'rganyapti va tushkunlikka tushganda ham aniq maqsadga erishishga bo'lgan xohish uni davom etishga turtki bo'ladi.

Oldimizga ko'plab maqsadlar qo'yamiz va bu maqsadlarga erishish jarayonida ba'zan o'zimizga savol beramiz: “Erishilgan natija aslida menga nima beradi? Nima uchun bunga erishishga harakat qilyapman?” Maqsad qo'yish va unga erishish jarayonida bu savollarga o'zimiz uchun aniq javoblarni topishga urinamiz va ba'zan intilayotgan orzuyimizning asl keraklilik mazmun-mohiyatini anglamaymiz. Bunda esa maqsadning natijasi samarali bo'lmaydi yoinki bo'lsa ham yuqori natijaga erishgan bo'lsada insonlarning xursandligi uzoqqa cho'zilmaydi.

Bunday holatdan yiroq bo'lish uchun hayot mazmuningizga aylantirayotgan orzu va maqsadlaringiz sizga erishish jarayonida va erishilgandan keyin nima berishi to'g'risida mulohaza qilib ko'ring.

Adabiyotlar:

1. *Франкл В.* Человек в поисках смысла: Сборник / Пер. с англ. и нем. Д. А. Леонтьева, М. П. Папуша, Е. В. Эйдмана. — М.: [Прогресс](#), 1990. — 368 с.: ил. — [ISBN 5-01-001606-0](#).
2. *Франкл В.* Воля к смыслу = The will to meaning. — М.: Апрель Пресс; ЭКСМО-Пресс, 2000. — 97 с. — [ISBN 5-04-005753-9](#).
3. [Viktor Frankl Yes to Life: In Spite of Everything](#) Beacon Press, Boston, 2020. [ISBN 978-0807005552](#)
4. *Франкл В.* Логотерапия и экзистенциальный анализ: Статьи и лекции = Logotherapie und Existenzanalyse. — М.: [Альпина нон-фикшн](#), 2016. — 344 с. — [ISBN 978-5-91671-542-2](#).
5. Ubaydullayeva N.F. Baxt psixologik muammo sifatida. “XXI asr psixologiyasi” //Xalqoro ilmiy–amaliy anjumani materiallari//. 2021. Tom-4. B- 242-244
6. O.R.Avezov. N.F. Ubaydullayeva Frankl logoterapiyasi va uning inson hayotida tutgan o'рни. Science and education scientific journal.4/2022.ISSN 2181-0842
7. O.R.Avezov. [PSYCHOLOGICAL RELATIONS BETWEEN FAMILY MEMBERS](#). Innovative, educational, natural and social sciences, 202

DIN PSIXOLOGIYASIDA SHAXS AXLOQINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI HAQIDA

N.N. Ashrapov,

BuxDU, Psixologiya

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada dinimizning ruhiy-ma'naviy va axloq – o'dobga oid ta'limotlarining bayoni, ruhiy tarbiya, qalbni poklash, axloqni sayqallash hamda uni ilm bilan g'izolantirishlik kerakligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Din, ishonch, e'tiqod, qalb, nafs, ruh, axloq, ilm, shaxs, poklik, tafakkur, madaniyat.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, ko'plab ishlar amalga oshirildi, jumladan, diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi hamda ularni yoshlarning qalbiga singdirish, ruhan his qila olishiga katta ahamiyat berildi. Mustaqillikdan keyingi davrda ko'plab diniy qadamjolarimiz: jumladan, masjid madrasalar qayta tiklandi. Diniy bayramlarimiz: Ramazon hayiti, Qurbon hayiti qayta tiklandi. Bundan tashqari biz yoshlarning ham diniy ham dunyoviy ilim olishimiz uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratib berildi. “Din” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi “ishonch”, “e'tiqod”dir. Din bu insoniyatni yaxshilikka buyuradi, halolikka undaydi, axloqni sayqallaydi va haromdan tiyadi. Bir so'z bilan aytganda shaxsni shaxs qilib tarbiyalaydi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov Islom dini haqida shunday deganlar: “Menga O'zbekistonda nima uchun madaniyat qadimiy, deb savol berishsa shunday derdim. Avvalambor dinimiz tufayli. Islom dini bo'lmasa agar, bizlar hech qanaqa bunday madaniyatga ega bo'lmas edik. Xalq qachon xalq? Uning ma'naviyati bo'lsa, muqaddas dini bo'lsa, o'ziga xos va o'ziga mos ming yillar davomida shakillangan tafakkur hamda e'tiqodi bo'lsa, ongi, iymoni bo'lsa. Bu bo'lmasa agar, hech narsa bo'lmaydi”.^[273] Demak, Islom dini shaxsning

²⁷³ Karimov I.A. “O'loh qalbimizda, yuragimizda”. T. «O'zbekiston», 1999-y

shakillanishida, xulqida, odobida namoyon bo'lmog'i hamda uning xulq - atvorini bezovchi omil ekanligini har bir shaxs bilmog'i lozimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Elimizga islom dinini to'g'ri tarannum etish - juda katta tarbiya” ekanligini bejizga ta'kidlamaganlar. Bu birinchidan bizning tafakkurimizni o'zgartiradi, ikkinchidan o'z ustimizda ishlashimizga, boshqa yomon illatlarni otib, yuksalishga yetaklaydi.

Bugungi kunimizda dinning shaxsning axloqini sayqallashda hamda uning fikrlash, tafakkur qilishini to'g'rilashda juda o'rni katta hisoblanadi. Bugungi tarqqiyot zamonida Sharq mutafakkirlarining yoritib bergan va meros qoldirgan ma'naviy meroslari din psixologiyasining shakillanishida tutgan o'rni beqiyosdir. Jumladan o'zimizning diyorimizda yetishib chiqqan olim, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Ruhiy tarbiya” asarlarida yaxshi xulq fazilati va yomon xulq

mazammati haqida, qalb xastaligi va uning tuzalish alomatlari, bola tarbiyasining boshlanishi, o'z aybini bilish yo'llari, axloqni sayqallash yo'llari to'liq bayon qilingan. Ibn Sinoning falsafiy asarlarida ham axloq masalasi keng yoritilgan bo'lib, xususan, “Risolatun fil hikmati”, Kitobut-toyr”, Asrorus-solati, Al-Insof” nomli kitoblarida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib shaxsning shakillanishda, uning xulqining go'zal bo'lishida, bir so'z bilan aytganda uni tarbiyalashda beqiyos o'ringa egadir.^[274]

Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ta'kidlaganidek, Bolaning yetuk tarbiya topishida ijtimoiy muhit, oilaning o'rni, shuningdek, sog'lom insonni tarbiyalash, tafakkurini rivojlantirish, o'quvchini fikrlashga o'rgatish, yanada muhimi - axloq tarbiyasi - yaxshi xulq va odatlarni tarkib toptirish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Din Psixologiyasining XX asrdagi muvaffaqiyatlari chindan ham buyukdir, u inson tabiat sirlarini tobora chuqur anglash imkonini bermoqda. Hozirgi vaziyatda ilmiy psixologiyaning amaliy yutuqlari va mamlakatimizdagi diniy tashkilotlarning

²⁷⁴ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. «Ruhiy tarbiya», 2020-y.

g'oyaviy va amaliy ish faoliyatini hisobga olganda – bu asosan dinimizning buyuk din ekanligidandir. Din psixologiyasi, avvalo insonga oid bo'lgan diniy hayotning turli jihatlarini psixologik jihatdan o'rganadi. Ya'ni din psixologiyasi dinning psixologik jihatini, shaxsning diniy tajribasini va bu tajribaning turli ko'rinishlarini bayon qilishga harakat qiladi. Dinning psixologik xususiyatlariga esa diniy his - tuyg'u , diniy marosim, xatti - harakat, sajda va shu singarilar kiradi.

Din psixologiyasi inson psixikasiga ta'sir o'tkazadi va asosan yoshlarga bolalikdan biz psixologik ta'sir o'tkaza bilishimiz hamda yaxshi xulqni shakillantira bilishimiz lozimdir. Din shaxsni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir. Shuningdek shaxsning tafakkuriga ta'sir etib, insonni fikrlashga chorlaydi. Shaxsning faoliyatida namoyon bo'ladi. Shaxsning bolaligidan biz dinni faoliyatida shakillantirib borishimiz lozimdir. Bola birinchi ta'lim-tarbiyani uyidan oladi va bunda asosiy rolni ota-ona o'ynaydi . Shunda ular bolaga to'g'ri tarbiya bera olsa ya'ni unga Allohni tanitsa, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning sunnatlari hamda Imom Buxoriyning hadislarini o'rgatsa, doimo o'zidan kattalarga hurmat ko'rsatib, salom bermoqlikni, yaxshilikni, ehson qimoqlikni o'rgatsa, tog'ri ta'lim bersa, ko'proq kitob o'qib bersa hamda she'rlar yodlatsa bu bola albatta katta bo'lgan sayin ham ilmi ham axloqi yaxshi bo'lib boradi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari shunday ta'kidlaganlar: Bola ota-onasi huzuridagi omonat bo'lib, uning qalbi pokiza gavhardir. U har qanday naqshni qabul qilaveradi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa o'shanday o'sadi. Agar yomonlikka o'rgatilsa o'shanday o'sadi. Shuning uchun ham biz bolalarni tarbiya bermoqlikka go'dakligidan e'tabor bermog'imiz, eng avvalo, o'zimizni tarbiyalamog'imiz lozimdir.^[275]

Olimlarning aytishicha, odam geni ma'lumotlarni tashish xususiyatiga ega ekan. Ya'ni erkakning har bir urug'ida 15 megabaytgacha ma'lumot bo'lar ekan. Bu degani sizning har bir qilgan ishingiz o'z geningizda ma'lumot bo'lib saqlani qolar ekan. Demakki, biz qilgan har qanday yaxshi –yomon amallar shunchaki unutilib ketmaydi. Balki genimiz xotirasida saqlanib qoladi va kelgusida zurriyodlarimizda

²⁷⁵ Abdurahmanov F, Abdurahmanova Z (2011). "Psychology of religion".

fe'l o'laroq shakllanishi mumkin.^[276] Shuning uchun yaxshi amallarimizni ko'paytirishimiz lozim, chunki har qanday amalimiz farzandimizda aks etishi mumkin. Insonni eng avvalo, go'zal qiladigan narsa bu uning xulqidir. *Abdullox ibn Amr (r.a) dan rivoyat qilinadi:*

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Sizlarning yaxshingiz husni xulqingizdir”, dedilar”. Demak, har bir shaxsning xulqi go'zal bo'lsa, bir-biroviga siylayi rahim qilsa, doim yaxshilik ulashsa, nafsni poklasa unda axloq sayqal topadi.^[277]

Har bir shaxs takrorlanmas hisoblanadi. Ular turlicha fikr yuritishadi va tafakkur qilishadi. Ko'pchilik shaxslarda biz asosan dunyoviy tashvishlarni deb hissiy - emotsional qo'zg'alish boshlanganini sezishimiz mumkin. Bunda bizga birinchi o'rinda din psixologiyasi yordam beradi. Va shunda insonlarga dunyo tashvishlari o'tkinchi bir matoh ekanligini eslatishimiz va bu matoh esa bizni bunday holatlarga tushishimizga arziyas ekanligini tushuntirishimiz kerak. Chunki ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab insonlar shu dunyo sababdan o'zlariga ko'plab stresslarni qabul qilib olishadi, bu esa asosan dunyoga bo'lgan muhabbatdan paydo bo'ladi. Inson buning uchun avvalo Yaratuvchini eslamog'i va uning buyrug'lariga itoat qilmog'i darkor hisoblanadi. Shundagina insonning dunyoga bo'lgan muhabbati yo'qoladi. Bu esa insonlarni ortiqcha stressdan qutqaradi va doimo ruhiy sog'lom bo'lib yurishiga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Allohga ibodat qilgan vaqtda, inson sajda qiladi va shu sajda holatida uning bosh miyasida qon aylanish yaxshilanadi va bundan inson rohatlanadi. Din psixologiyasi avvalo insonning faoliyatida namoyon bo'lishi lozimdir. Faoliyatning o'zi nima? Anglanilgan maqsad bilan boshqariladigan ichki (aqliy), tashqi (jismoniy) faolikka faoliyat deyiladi. Kishining diniy his, tushuncha va yashash tarzi din psixologiyasining asosiy mavzusidir. U shaxsda din tuyg'usi va hissining qanday qilib kelib chiqqanligi va shakllanishini, hidoyat topish yoki inkor hodisalarini, dindan kelib chiqqan ruhiy keskinlik va shubhalarni tadqiq qiladi.

²⁷⁶ Akramova F.A. “Insoniy munosabatlar psixologiyasi”. T., „Shams-A“, 2005.68- b.

²⁷⁷ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. «Ruhiy tarbiya», 2020y.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlaymanki, din bu insonning shakillanishida buyuk bosqich hisoblanadi va to umrining oxiriga qadar rohat bag`ishlaydi. Insonni yuksak cho`qqilarga olib chiqadi, go`zal axloqni shakllantiradi, nafsni poklaydi hamda yomon ishlardan tiyadi. Bu esa ruhiy barkamol yoshlarning shakillanishida muhim bosqich bo`lib xizmat qiladi. Inson tug`ulganidan gavharga qiyoslanadi, unga esa ota - ona tomonidan sayqal beriladi. Mana shunday ekan hurmatli ota-onalar har bir bolaga sayqal bermoqlikda kamchiliklarga yo`l qo`ymaylik, aks holda bolada psixologik bo`shliq hosil bo`ladi. Bu esa kelajakda o`zingizga ham bolangizga ham jamiyatga ham ziyondir.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Olloh qalbimizda, yuragimizda". T. «O'zbekiston», 1999y.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. «Ruhiy tarbiya», 2020y.
3. Muminov A, Yoldashkhujayev H, Rahimjonov D (2003). "Religious studies".
4. Abdurahmanov F, Abdurahmanova Z (2011). "Psychology of religion".
5. Akramova F.A. "Insoniy munosabatlar psixologiyasi". T., „Shams-A“, 2005.68- b.

MAKTAB O'QUVCHILARINING IJODIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA CHET EL OLIMLARINING YONDASHUVLARI VA NAZARIYALARI

D.S Qaxorova

BuxDU, Psixologiya fanlari falsafa doktori (PhD)

G.F. Adizova

BuxDU, Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab o`quvchilarining ijodiy kompetentligini oshirishda chet el olimlarining yondashuvlari va nazaryalari haqida so`z boradi. Ayniqsa Amerika psixologlarining nazaryalari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar. Qobiliyatlar, IQ koeffitsenti, tafakkur, klassifikatsiya, assotsiativ psixologiya, dezadaptatsiya, D.Veksler, G.Ayzenk, L.Termen.

Dunyoda qaysi soha bo'lmasin, albatta har bir sohada ijodiy kompetentlik juda zarur. Har qanday ishning amalga oshishida, avvalo, g'oya birinchi o'rinda turadi. Inson qandaydir g'oyani amalga oshirishi uchun kreativlik muhim sanaladi. Ijodiy kompetentlikni va kreativlikni o'rganish bo'yicha Rossiyada A.M.Matyushkin, A.V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy, V.N. Drujinin kabi olimlar ish olib borganlar.

Psixologiyada intellekt va kreativlikni aloqasini tushuntiruvchi 3 ta nazariya mavjud.

D.Veksler, G.Ayzenk, L.Termen, R.Stenberg va boshqalar intellekt va kreativlikni oliy darajadagi insoniy qobiliyatlarning birligi deb bilishadi. Intellekt kreativlikning yuqori bosqichidir. Bu degani nafaqat ular birlikda, balki ijodkorlik intellektning hosilasidir. Yuqori darajadagi intellekt- yuqori darajadagi qobiliyatning asosisi hisoblanadi. Quyi intellekt- quyi darajadagi intellektni yuzaga keltiradi. Gans Ayzenk kreativlikni qobiliyatning o'ziga xos ko'rinishi deb hisoblagan. Kreativlik intellektning yuqori bo'lishi bilan belgilangan.

Intellekt bu inson va hayvonlarni yangi muhitga moslashishi hisoblanadi. V.Shterni, J. Piaje, D. Veksler va boshqa avtorlar ham intellektni insonlarni yangi hayotiy sharoitlarga moslashashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qarashgan. Ular o'z tadqiqotlarida amerikalik minglab maktab o'quvchilarini logityud metodi orqali tadqiq etishgan. Tadqiqot jarayonida, dastlab ularni IQ (intellekt koeffitsenti) aniqlab olindi. O'quvchilarni IQ koeffitsentiga qarab guruhlariga ajratildilar va 30, 40, 50, 60 yil oralig'ida kuzatishgan. Yillar davomida intellekt koeffitsenti yuqori bo'lgan sinaluvchilar hayotda, faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatishgan. IQ koeffitsenti pastroq bo'lgan sinaluvchilar ulardan farqli o'laroq 30 marta kam yutuqlarga erishishgan.

Lekin intellekt va kreativlikning bir biriga bog'liq emasligini boshqa tadqiqotlarda tadqiq etilgan. Kreativlik- bu insonni hayotga moslashishi emas, balki uni o'zgartirishidir. Kreativlikning asosiy omili bu insonning dezadaptatsiyasi, ya'ni uni atrof olam va ijtimoiy muhitga moslasha olmasligida deb qaralan nazariyalar

ham mavjud. Ba'zi olimlar shaxsning kreativlik xususiyatini tashqi olam va insonlardan yolg'izlanish deya ta'rif berishgan. Aynan real olamga nisbatan dezadaptatsiyasi mavjud bo'lgan, moslasha olmagan inson o'zidagi yolg'izlikni yengib o'tish uchun ijod qilish va yangilik yaratishni boshlar ekan. A. Adlarning fikricha, insondagi kreativlik o'zida mavjud bo'lgan noto'liqlik kompleksini to'ldirish vositasi deb bilgan. Empirik tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, ijodkor qobiliyatli bolalar shaxsiy va emotsional sohada jiddiy muammolarga duch kelishadi. Tadqiqotlarda bunday bolalarning maktabda erishayotgan natijalari ularning imkoniyatlaridan past chiqanini kuzatishimiz mumkin.

Kreativlik va intellektni qarama-qarshi qo'ygan olimlardan yana biri Dj. Gilvord bo'lib, u o'z nazariyasini ikki xil tafakkur asosida quradi. YA'ni konvergent va divergent tafakkur. Konvergent tafakkur masalani echishda mavjud barcha vositalarni tahlil qilib, ulardan yagona maqbulini tanlashdir. Konvergent tafakkur intellekt asosida quriladi. Divergent tafakkur – masalani echishning turli variantlarini yaratishdan iborat tafakkur turidir. Divergent tafakkur- kreativlik asosida quriladi.

Demak intellekt va kreativlik umumiy ko'rinishdagi ikki xil qobiliyatlar bo'lib, ularni ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog'lash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularning cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Intellekt esa o'sha ma'lumotni real amaliyotda qo'llashga va atrof muhitga moslashishga javob beradi.

Uchinchi nuqtayi nazar egalari intellekt va kreativlik o'zaro uzviy bog'langan ikki xil faktor deb qarashadi. Shaxsni orientirlashtirgan bu psixologiya vakillari A.Maslau va boshqalar ijodiy qobiliyatni tan olishmagan. Ijodiy faollik shaxsda qobiliyatga qaraganda, ba'zi shaxsiy xususiyatlarni (qiziqish, tavakkalchilik) shakllantiradi. Lekin bu faollikning namoyon bo'lishi uchun shaxsda yuqori darajadagi intellektual qobiliyat mavjud bo'lishi kerak. Ularning fikricha, quyi intellektga ega bo'lgan kishi hech qanday kreativlikka ega bo'lmaydi. O'rta intellekt sohiblari o'rtacha kreativlik, IQ koeffitsenti 120 dan ortiq bo'lgan kishilar a'lo darajadagi kreativlikka ega bo'lishishadi.

Evolyusiya nuqtai nazaridan intellekt va kreativlikning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib ko'raylik.

Intellektni go'yo qolipga solingan, buyuk kashfiyotlarni yaratmaydigan moslashuvchi qobiliyat sifatida ko'ramiz. Intellektga faqat qaytarish xosdir. Psixologlarning fikricha bu g'oya noto'ridir . Sababi evolyusion rivojlanish nazariyasida insoniyatning antropogenez rivojlanishning asosiy omilini intellektning rivojlanishidir deb aytib o'tilgan. Olovni o'zlashtirish va qurollar yasash bunga misol bo'la oladi.

Intellektni kreativlikdan yiroq qilish, shaxsdagi yaratuvchanlik , originallik kabi sifatlarni kreativlikka moslab qo'ymoqda . Kim birinchi bo'lib buyuk kashfiyotni, o'q-yoylarni yaratgan, kim olovni o'zlashtirish mumkinligini o'ylab topgan? Intellektni? yoki Kreativlikmi? Agar kreativlik bo'lsa, unda intellekt qayerga ketdi. Demak, bunday mulohazalar intellektni insoniyatning texnik va ilmiy muvaffaqiyatlarini yaratishdagi o'rnini pasaytirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, har bir inson o'zingizning ijodiy kompetentligidan nafaqat yangi qiziqarli g'oyalarni (hayotni yoki uning individual jihatlarini yaxshilash uchun), balki o'zini takomillashtirish va umuman shaxsni rivojlantirish uchun ham ishlatishi mumkin. Har qanday ijodiy faoliyat shaxsiy mazmunga ega bo'lishga va o'z qadriyatlarimizni anglashga yordam beradi. Va bu insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan eng muhim ma'naviy ehtiyojdir. Inson hayotda baxtli va muvaffaqiyatli yashashi uchun unga ijodkorlik, kreativlik juda zarur bo'ladi. Ayniqsa bolalarda ijodiy kompetentlikni shakllantirish, ularning maktabda yaxshi ta'lim olishi hamda o'zlashtirishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. А.Х.Югай, Н.А.Мираширова “Общая психология” – Ташкент 2014.
3. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
4. Bogdanova T.G. Kornilova T.V. Bolaning kognitiv sohasini diagnostikasi. - M.: Rospedagenstvo, 1994 y.

5. Epifani D.B. Ijodkorlik psixologiyasi. Darslik. Foyda. - M.: Akademiya, 2002.- 320s.
6. Vygotskiy L.S. Bolalikdagi tasavvur va ijod // Psixologiya. - M.: Eksmo-Press, 2000. -S.807-819.
7. Dorfman L.Ya., Kovaleva G.V. Ilm-fan va san'atdagi ijodkorlik bo'yicha tadqiqotlar. // Psixologiya savollari. 1999. № 2.
8. Dyachenko O.M., Veraksa N.E. Dunyoda nima bo'lmaydi. -M.: Bilim, 1994.157 b.
9. Efremov V.I. TRIZ asosida bolalarni ijodiy tarbiyalash va o'qitish.- Penza: Unicon-TRIZ.

GLOBALLASHISH JARAYONI VA OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI XUSUSIDA

U.S.Jumayev,

*BuxDU "Psixologiya" kafedrasi dosenti,
psixologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi globallashuv sharoitida yoshlar ongini zaharlayotgan ommaviy madaniyat qusurlari va ulardan psixologik muhofaza mexanizmlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Globallashuv, ommaviy madaniyat, axborot, genofon, psixologiya, ijtimoiy muammo, madaniyat.

XX asrning ikkinchi yarmi va, ayniqsa, XXI asr boshlanishida tezkor, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikasiya texnologiyalari zamonaviy rivojlanishning asosiy belgisi sifatida barcha jabhalarga kirib keldi. Shu boisdan ayni paytda axborot makonining globallashuvi butun dunyo taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etiladi. E'tiborli jihati shundaki, mamlakat ichkarisidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlarning ehtiyoji ham jadal ortib bormoqda. Axborot sohasining bunday tezlik bilan

rivojlanishi va undagi keng ko'lamli imkoniyatlarning o'sishi, jamoatchilik va davlat hayotidagi turli yo'nalishlarda keng tarzda ishlatilishi bugun kishilar ongiga, ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta'sir etmay qolmayapti.

Har bir millat - o'zini tashkil qilgan kishilar uchun avvalo tabiiy- tarixiy birlik sifatida qadrlidir, u olamdagi boshqa turli-tuman xalq, elat va millatlarga o'xshamaydigan o'ziga xos, betakror xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, har qanday millat tarixiy taraqqiyot va rivojlanish jarayonida yangilanib, o'zgarib boradigan rang-barang qatlamlar uyg'unligini ifodalaydigan ijtimoiy birlik hamdir. Millatning o'ziga xosligi, betakrorligi, rang-barangligi va ijtimoiy jarayonda o'zgarib borishi bilan bog'liq eng asosiy qadriyati - uning genofonidir. Genofon - faqat irsiyat orqali o'tadigan tabiiy o'ziga xoslik emas, balki tarixiy belgilar, ijtimoiy xususiyatlar, milliy rang-baranglik va o'zgaruvchanlikni ham o'zida ifodalaydi. Aynan biror xalq, millat, elatni yo'qotish uchun qilingan tajovuz - "genosid" deb atalishi bejiz emas. Millat genofoni - uni eng asosiy tarixiy, milliy qadriyatlaridan biridir. Hammamizga ma'lumki, XXI asr axborot texnologiyalar asridir. Texnika, elektronika va shunga o'xshash murakkab texnologiyalarning yaratilishi inson va uning bevosita kundalik xayotidagi muammolarning ko'payib borishi va millat genofondiga tajovuzi bilan xarakterlanadi. Tan olish kerakki, bu texnika va texnologiyalar inson xayotidagi murakkabliklarni ancha yengillashtirib, bebaho vaqtini tejashga sabab bo'lmoqda. Hozirgi "Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integrasiyasida intellektual salohiyatli yoshlar mamalakat taraqqiyotining muhim omili" dir. Jadallashish jarayoni, tezkorlik davri bir so'z bilan aytganda globallashish insoniyatga, yoshlarning xulq-atvoriga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi. Bu mavzuda so'z yuritar ekamiz, avvalam bor globallashishning o'zi nima? Uning qanaqa oqibatlari bor? U kanday yuzaga keladi, uning oldini olish mumkinmi? Uning inson psixikasi va xulqiga ta'siri qanday, degan qator savollar tug'ilishi tabiiy. Globallashish, GLOBAL – lotinchadan olingan bo'lib, umumiy, borliqni qamrab oluvchi, barchaga taallukli degan ma'noni anglatadi. Shundan kelib chikadigan bo'lsak, globallashish jarayoni nafakat bizning shahrimiz yoki mamlakatimizda, balki butun dunyo, jahon mamlakatlarida kechayotgan xodisadir.

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin jahonda rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga qo'shilgan ekanmiz, dunyoda sodir bo'layotgan voqea- hodisalardan, yaratilayotgan kashfiyotlardan, eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lib turishimiz lozim. Bu yangiliklardan tezkorlik bilan xabar topishimiz globallashtirish natijasidir. Demak, bizning mamlakatimizda ham bu jarayon - globallashtirish jarayoni kechmokatda. Globallashtirish jarayoni turli ko'rinishlarda sodir bo'ladi. OAV, televideniye, radio, global tarmoq bo'lmish internet, gazeta, jurnallar, uyali aloqa vositalari, insonning ijtimoiy hayotda qulaylikka intilishi, o'zining mustaqilliligiga intilishi, o'zligini namoyon etishi va bunda turli xil yo'nalishlardan foydalanishi kabi xodisalarda globallashtirish jarayonini sababchi qilib ko'rsatishimiz mumkin. Globallashtirish jarayonining bir turi bo'lmish ommaviy madaniyat real hayotga kaysi bir jixatlari bilan o'xshash, ammo ayni paytda undan bir muncha uzoq bo'lgan hayot manzarasini yaratadi. Qarashlar va qadriyatlar tizimini, xulq modelini yaratishga xizmat qiladi. Ommaviy madaniyat o'zining mana shu xususiyatlari bilan insonning idealga bo'lgan ehtiyojini qondirishga intiladi. Globallashtirish jarayonlari va ommaviy madaniyat ekspansiyasi ta'sirida qadriyatlar tizimida sodir bo'ladigan tub o'zgarishlar, ijtimoiy mavjudot hisoblangan insonda muayyan o'zgarishlar keltirib chiqaradi, inson va jamiyat ma'naviy-axlokiy tayanchlardan mahrum etiladi, jamiyat inqirozga uchraydi. Tan olish kerakki, globallashtirish jarayoni inson uchun, uni jamiyatdagi o'z o'rnini egallashi uchun bir muncha qulayliklar yaratdi. Lekin shuni xam unutmaslik kerakki, bu jarayon ta'sirida ko'plab salbiy oqibatlar yuzaga kelmokatda. Insoniyatning mustaqillikka erishishi, hayotdagi o'z o'rnini egallashi, o'z mulkiga erishishi va uni himoya qila olishi maktovga loyik, lekin bu mustaqillik yoki xayotdagi o'rni nima evaziga qo'lga kiritilishi e'tibordan chetda qolmoqda, bu ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Globallashtirish jarayoni birinchi navbatda inson ongiga ta'sir qiladi. Globallashtirishning salbiy oqibatlari insonning faqatgina shaxsiy manfaatini qimoya qilishiga undaydi, insonlar o'rtasidagi qadr-kimmat, mexr-oqibat, iymon-e'tiqod, milliylik kabi tushunchalar yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'zbek xalqiga xos farzandga bo'lgan instinkt darajasiga ko'tarilgan mehr g'arbona dunyokarash tufayli ota-onalarda, ayniqsa onalarda ko'proq o'zini o'ylash,

«o'z hayotini» yo'lga qo'yish, «o'z hayoti» bilan yashash holatlariga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida yoshlar tomonidan g'arbga taqlid qilish, ya'ni ularning kiyinishida, so'zlashuvlarida, eng achinarlisi ularning ma'naviyati va tarbiyasidagi illat katta yoshdagilarga nisbatan hurmatsizlik, hayotning ma'nosini faqat qimmatbaho kiyim-u, qimmat uyali telefon, avtomashinali bo'lish, kunini bar-u, diskotekalarda o'tkazishdan iborat deb bilishlarida.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz globallashish jarayonini yo salbiy, yo ijobiy jarayon sifatida baholamasligimiz kerak. Har bir kashfiyotning, yangilikning xam salbiy va ijobiy tomonlari bo'lgani singari globallashish jarayonining xam ikki xil xislati mavjud. Bu ikki xil xislatlarning ijobiysini kengaytirib, salbiy okibatlarini oldini olishimiz darkor. Buning uchun birinchi navbatda biz yoshlar ham o'z tengdoshlarimizning hayotda o'z o'rnini topishi uchun, kelajakka bo'lgan intilishi yo'qolmasligi uchun, oldiga qo'ygan maqsadi to'g'ri va bu maksadga erishishda to'g'ri yo'l tanlashlari uchun ularni to'g'ri yo'naltirishimiz, ularning xulq-atvoriga nisbatan befarq va loqayd bo'lmasligimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. Брандман Э.М. Глобализация и информационная безопасность общества. Монография. – М.: ГПИБ, 2007.
2. Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. – 2-стереотип нашри. – М.: Горячая линия-Телеком, 2006.
3. Мўминов Ф. Ахборот хавфсизлиги ва ижтимоий тараққиёт// “Ўзбекистон матбуоти”, 2007, №5.
4. Проблемы безопасности в Центральной Азии. Материалы международной научно-практической конференции 21-22 октября 2005 г. – Т.: “Turon-Iqbol”, 2006.
5. Самаров Р., Назаров Д. Терроризм - маънавий маҳдудлик оқибати// “Жамият ва бошқарув”. – 2006, №1.

б. Мўминов Ф. Очиқ ахборот тизимларида ахборот психологик хавфсизлик. Дарслик. Тошкент, 2013 йил.

ПСИХОЛОГИК КОНСУЛТАТСИЯ, UNING IJTIMOIIY SOHADA QO'LLANILISHI VA UNGA MUROJAAT QILUVCHI SHAXSLAR TURLARI

Sh. M. Ulug'ova,

*BuxDU, Psixologiya fanlari
nomzodi, dotsent*

N. Kozimova,

*BuxDU, Psixologiya (faoliyat turlari
bo'yicha) mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya. Psixologik konsultatsiya o'zi nima, uning kelib chiqish tarixi, tadqiqot metodlari, texnikasi va unga murojaat qiluvchi kishilar guruhi haqida so'z boradi. Shuningdek psixologik konsultatsiyaga murojaat qiluvchi shaxslarning psixologik holatlarini tahlil qilish va ularning individual xususiyatlari o'rganish.

Kalit so'zlar: Konsultatsiya, texnika, tadqiqot, xarakter, psixologik tip, temperament, inqiroz, integral, kontakt, xulq- atvor.

Bugun hammamiz ma'lumki, axborot texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, har bir narsada jaddallikni sezamiz. Shuningdek har sohada inson omili, insonlar bilan o'zaro muloqot kamayib boryapti. Bu esa turli psixologik buzulishlar, insonlar o'rtasida turli ziddiyatlarga olib kelyapti. Hattoki jamiyatda ham buning ta'siri sezilyapti. Shu uchun ham stress asri degan yangi tushuncha paydo bo'ldi.

Avvalo psixologik konsultatsiya o'zi nima va u bizga nima uchun kerak?

Psixologik konsultatsiya psixologning mijoz bilan amaliy psixologning barcha faoliyatini o'z ichiga olgan nisbatan qisqa vaqt ichida uchrashishidan iboratdir.

Shuningdek, diagnostika faoliyati ham mavjud bo'lib, uning davomida mijoz tomonidan berilgan ma'lumotlar va ekspress diagnostika natijalari asosida mijoz kelib tushgan muammolarning mohiyati aniqlanadi. Shuningdek, psixolog tomonidan mijozga ko'rsatiladigan turli xil maslahatlar, tavsiyalar va hatto

to'g'ridan-to'g'ri psixoterapevtik ta'sirlar shaklida tuzatuvchi faoliyat mavjud. Va nihoyat, bu mijozni hayot nuqtai nazariga va ochilish imkoniyatlariga yo'naltiradigan rivojlanish faoliyati.

Maslahatlashuvda faoliyatning qaysi tomoni eng katta darajada namoyish etilishiga qarab, quyidagi konsalting turlari ajratiladi:

a) tarbiyaviy (savollarga javob) yoki profilaktik xarakterga ega bo'lishi mumkin bo'lgan profilaktik maslahat (tematik munozaralar);

b) diagnostikaning mumkin bo'lgan variantlari aniqlanadigan diagnostika bo'yicha maslahat;

c) buzilishlarni tuzatishning mumkin bo'lgan variantlari aniqlangan tuzatuvchi maslahat;

d) mijozning ruhiyatiga tuzatishdan ko'ra chuqurroq aralashish bilan bog'liq psixoterapevtik maslahat;

e) mijozning shaxsini rivojlantirish yo'llarini aniqlash bilan bog'liq rivojlanish bo'yicha konsalting;

f) barcha turdagi maslahatlarni birlashtirgan keng qamrovli maslahat.

Maslahatlangan kontingentning yosh holatiga qarab quyidagilar ajratilishi mumkin:

a) chaqaloqlarga maslahat,

b) yosh bolalar uchun maslahat,

v) maktabgacha ta'lim,

d) kichik maktab o'quvchilari uchun maslahat,

e) o'spirinlarga maslahat,

f) yoshlar bo'yicha maslahat,

g) kattalarga maslahat berish,

h) gerontologik maslahat.

Shubhasiz, ayrim yoshga oid maslahat turlari birlashtirilgan, ammo bir kishining amaliy psixologi barcha yoshdagi mutaxassis bo'lishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin.

Tematik e'tiborga qarab, maslahatning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- a) oilaviy maslahat,
- b) jinsiy maslahat,
- c) ta'lim masalalari bo'yicha konsultatsiya,
- d) kasbga yo'naltirish,
- e) nizolarni hal qilish bo'yicha konsultatsiya va boshqalar.

Konsultatsiya qilinganlarning soniga qarab konsultatsiyalar quyidagilarga bo'linadi.

- a) individual,
- b) guruh.

Shaxsiy konsultatsiyalar guruh konsultatsiyalariga qaraganda ko'proq vaqt talab etadi va samaraliroq bo'ladi. Ikkinchisi, o'z navbatida, yetarlicha ko'p odamlarni qamrab olishga imkon beradi va shu bilan vaqtni, kuchni tejaydi va ommaviy miqyosda katta ta'sirga erishadi.

Konsultatsiya jarayonida mijozni rivojlantirish bosqichlari:

yechim

tilak(harakatlar rejasi)natija

shikoyat niyati / harakati

maqsad

quyidagilarni ajratib ko'rsatish muhimdir.

istak (mijoz hayotda nimani xohlasa),

niyat / maqsad (mijoz nimani xohlasa + nima qilishi mumkin)

so'rov (mijoz psixologdan maslahat uchun nimani talab qiladi),

kasbiy shartnoma (psixologning birgalikdagi ishi va

mijoz mijozning hayotdagi maqsadlariga erishish uchun),

mijozning ma'lum bir hayot uchun haqiqiy o'zgarishlarga tayyorligi

Psixologik konsultativaga odatda kimlar murojaat qiladi?

1. Haqiqiy muammosiga yechim izlayotganlar
2. Faqat tinglovchiga muhtoj bo'lganlar
3. Mutaxassisni kompetentligini aniqlovchilar
4. 3 shaxs tomonidan olib kelingan patsientlar

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qadim zamonlarda ham har bir kishi psixologga muhtoj bo'lgan, faqat ular boshqa nomlarda atalgan. Lekin psixologning vazifasini bajarishgan. Ularni qadimda faylasuflar, donishmandlar deyishgan. Bundan kelib chiqadiki, azaldan inson insondan yordam olib kelgan. Va bu an'ana hozirga qadar davom etib kelyapti, keyinchalik ham davom etadi. Bugungi zamonaviy psixologning jamiyatdagi bir shaxsga beradigan ko'magi, jamiyatga boradigan ko'magi bo'ladi. Shunday ekan, psixologik konsultatsiyaning roli juda muhim sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Aleksandrov A.A. Psixoterapiya: darslik. - SPb: Piter, 2004. - 480 p.
2. Braim M.N. Ishbilarmonlik aloqasi axloqi. - Minsk, 1996 yil.
3. Amaliy ma'lumot ijtimoiy psixologiya... Ed. Jukova Yu.M. 1996 yil
4. Golub I.B., Rosenthal D.E. Kitob yaxshi nutq haqida. - M.: 1997 yil.
5. Debolskiy M. Ishbilarmonlik aloqalari psixologiyasi. - M., 1991 yil.
6. Cori D. Guruh maslahatining nazariyasi va amaliyoti / Per. ingliz tilidan E. Rachkova. - Moskva: Eksmo nashriyoti, 2003. - 640 p.
7. Kochyunas R. Psixologik maslahat va guruh psixoterapiyasi. - M.: Akademik loyiha: Gaudeamus, 2005. - 464 p.
8. Insoniy aloqaning hashamati A. Borisov, 1998 yil
9. Amaliy psixologning ma'lumotnomasi: Psixoterapiya / komp. S.L. Solovyov. - M.: AST, 2005.- 575 p.

TIBBIYOT XODIMLARIDA SOTSIAL – PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK ASOSLARI

H. N. Saidov,

*BuxDU, Psixologiya (faoliyat turlari
bo'yicha) mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Maqolada siz kompetentlik nima? degan savolga javob topishingiz mumkin bo'ladi. Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda kompetentlikning

lug'aviy ma'nosi, namoyon bo'lish holatlari, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlikning sifatlari va har bir mutaxassis qachonki o'z bilimlarini izchil boyitib, yangi axborotlarni o'zlashtirib, davr talablarini chuqur anglab, yangi bilimlarni izlab topib, ularni qayta ishlab o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llasa biz ularni hech qanday e'tirozlarsiz kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis deyishimiz mumkinligi haqidagi bilimlarga ega bo'lishingiz mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetentlikning namoyon bo'lish holatlari, kompetentlikning sifatlari, tibbiyot xodimlari faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlik omillari.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlari aks etadi? Ayni o'rinda shu va shunga o'xshash g'oyalar yuzasidan mulohaza yuritamiz. Kompetentlik lotincha "Competentia" so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda uning lug'aviy ma'nosi "yaxshi biladigan inson", "tajribaga ega bo'lgan kishi" kabi ma'nolarni anglatishi barchamizga ma'lum. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan tushuncha hisoblanadi.²⁷⁸ Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni

²⁷⁸ Андреева Г. М. Психология социального познания. 2-е изд., перераб. и доп. М., 2000

o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'lishi mumkin:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Har bir mutaxassis qachonki o'z bilimlarini izchil boyitib, yangi axborotlarni o'zlashtirib, davr talablarini chuqur anglab, yangi bilimlarni izlab topib, ularni qayta ishlab o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llasa biz ularni hech qanday e'tirozlarsiz kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis deyishimiz mumkin bo'ladi.

Tajribalar natijasida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati yoritilgan bo'lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish;

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy - pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma, malakani izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi;

2.1. Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2.2. Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va

vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

2.3. Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

2.4. Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

2.5. Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

2.6. Kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma, malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.²⁷⁹

Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasida dotsenti, Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasi muxbir a'zosi Sobirova Dilafroz Abduroziqovna olib borgan ilmiy-nazariy tahlillar, bugungi kunda sotsial-psixologik kompetentlik muammosi, o'zining nazariy metodologik bazasiga ega ekanligini ko'rsatsa - da, aynan mavzu doirasidagi tadqiqotlarning yetarli emasligi va dolzarbliligi to'g'risida aytib o'tdi. Bu esa tibbiyot xodimlarida sotsial - psixologik kompetentlik bilan uning omillari orasidagi korrelyatsion munosabatlar tizimini tahlil qilishni, tibbiyot

²⁷⁹ “Psixologiya” ilmiy jurnal * научный журнал * scientific journal № 4, 2021

xodimlari faoliyatida adekvat mulohazalar, adekvat emotsional munosabat va kommunikativ kompetentlik kabi komponentlarning yetakchi ichki psixologik mexanizm sifatidagi o'rni va ahamiyatini tadqiq qilishni taqozo etishini ta'kidladi.

Xulosa qilish mumkinki, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug'aviy jihatdan "qobiliyat", mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ma'nosini anglatuvchi kompetentlik negizida muayyan sifatlar namoyon bo'ladi. Kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayon hisoblanadi. U oliy ta'lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmash kerakki, yuqori sotsial - psixologik kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko'nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlari hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. "Psixologiya" ilmiy jurnal * научный журнал * scientific journal № 4, 2021
2. Sobirova D.A. Practical and psychological bases of researching the social intellect of medical attendant. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.7№3, 2019. (19.00.00. №2).
3. Собирова Д.А. Интеллект как профессионально значимое качество врача //Вестник интегративной психологии. – Ярославль, 2018. №16. – С. 260–263. (19.00.00. №2).
4. Собирова Д.А. Psychological and practical aspects of the social research on the intelligence of the medical staff. //Психология. – Бухоро, 2019. №2. – Б. 28–31. (19.00.00. №5).
5. Диагностика социального интеллекта. Тест Дж. Гилфорда и М. Саливана. СПб., 1999;

6. Русалов В. М. Биологические основы индивидуально-психологических различий. - М.: Паука, 2011.

СУБЪЕКТИВНЫЙ КОНТРОЛЬ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЛИЧНОСТИ

Б. Ш. Каримов,

Доктор социологических наук

А.Н. Исматуллоев

Магистр специализации по психологии БухГУ

Аннотация. Уровень субъективного контроля может быть отнесен к одной из важнейших характеристик самосознания, определяющей особенности поведенческих реакций в широком спектре социального взаимодействия и проявляющейся в чувстве ответственности, уровне активности и степени воздействия на обстоятельства жизни.

Ключевые слова: локус контроля, экстернальный, интернальный, деятельность.

Проблема локуса контроля изучается в разных аспектах в психологии, философии, социологии при рассмотрении возможностей и способностей человека управлять своим поведением (конформизм, отчуждение, самодетерминация, самоактуализация, аномия и др.). В современном понимании, понятие локуса контроля, было введено в психологию американским психологом Джулианом Роттером в 1954 году. Представляет собой склонность человека приписывать ответственность за происходящие в жизни события и результаты своей деятельности внешним факторам (экстернальный, внешний локус контроль) либо внутренним (интернальный,

внутренний локус контроля). Локус контроля еще называют «локализацией контроля волевого усилия» [1].²⁸⁰

К внутренним факторам относятся: положительные и отрицательные качества человека, его усилия, наличие или отсутствие у него необходимых знаний, навыков и умений, а также опыта и тому подобных вещей. А внешние факторы – это стечение обстоятельств, поведение других людей, наличие или отсутствие тех или иных ресурсов и в целом различные проявления внешней среды [4].

Психологические аспекты локуса контроля отражены в концепции компетентности Р. Уайта, которая рассматривает способность человека, а иногда и потребность, эффективно влиять на свое социальное окружение. В теории мотивации достижения Д. Маккеланда и Дж. Аткинсона фиксируется связь высокой потребности в достижении с верой в свои силы и способности[2].

Другой аспект проблемы локуса контроля отражен во фрустрационной теории С. Розенцвейга. Согласно его подходу в обычных житейских ситуациях люди по-разному реагируют на трудности в достижении своих целей. Одни обвиняют себя (интрапунитивная реакция), другие связывают неудачи с внешними обстоятельствами (экстрапунитивная реакция) [3].

Роттером была разработана специальная шкала определения локусов контроля и проведены исследования установок и поведения людей как с внешним, так и с внутренним локусом контроля. Соответственно, Дж. Роттер выделяет два типа локализации контроля: экстернальный и интернальный. В ходе исследований выяснилось, что люди, в зависимости от ощущаемой ими способности контролировать жизненные обстоятельства, различаются, и часто

²⁸⁰ Локус контроля // Социология: Энциклопедия / Сост. А. А. Грицанов, В. Л. Абушенко, Г. М. Евелькин, Г. Н. Соколова, О. В. Терещенко. — Минск

² Калинина А.О. Факторы, влияющие на формирование субъективного контроля / А.О. Калинина. - М.: ВЛАДОС, 2004. - 383 с.

³ Аракелов Н.Е., Лысенко Е.Е. Локус контроля и методы его исследования // Психологический журнал, 1997. - Т. 4. - №2 - С. 34 - 38.

⁴ Социальная психология. Словарь / Под. ред. М. Ю. Кондратьева. — М.: ПЕР СЭ, 2006. — 176 с.

- значительно, в своих подходах и отношениях к миру. Одно из ключевых различий, отличающих экстерналов от интерналов - это способы, какими они ищут информацию об окружении.

Основная задача теории Дж. Роттера - прогноз поведения в ситуации выборов из четко определенных альтернатив. На основании анализа литературы, можно выделить следующие характеристики интерналов: оптимизм, уверенность в себе, благожелательность, общительность, напористость. Экстернальный локус контроля имеет противоположные характеристики: \отсутствие самостоятельности, неуверенность, подозрительность. [5].²⁸¹

Умение личности преодолевать жизненные трудности также зависит от ее локуса контроля. Интернальный локус контроля обеспечивает защиту от развития состояния тревожности, депрессии, положительно коррелирует с лечением соматических заболеваний. Интерналы чаще применяют превентивные меры по отношению к угрозе заболеваний, трудным жизненным ситуациям. Большую стойкость проявляют интерналы к внешним социальным воздействиям. Суждения интерналов более независимы от мнений окружающих людей. Уступчивость экстерналов находится в зависимости от статуса источника информации. Чем выше статус источника, тем больше экстерналы изменяют свои аттитюды. На мнение интерналов статус информации практически не влияет. Интерналы не испытывают острых негативных переживаний по поводу постигших их несчастий, быстро восстанавливают достигнутый уровень жизни при возрастании общей интернальности.

Таким образом, субъективный контроль - это свойство личности, которое закладывается еще в детстве и сопровождает человека на протяжении всей жизни, от него зависят такие характеристики, как самостоятельность, ответственность, уверенность, независимость. Это понятие, отражающее склонность человека приписывать причины событий внешним или

⁵ Брушлинский А.В. Проблема субъекта в психологической науке // Психологический журнал. 1991. № 6.

внутренним факторам. Разработкой данной проблемы занимались различные исследователи, среди которых можно назвать Дж. Роттера, Р. Уайта, Д. Рисмена и других. Выделяются два крайних типа локализации локуса контроля: интернальный и экстернальный. В зависимости от того, какой тип субъективного контроля преобладает у человека, выделяются и определенные личностные особенности.

Литературы:

1. Локус контроля // Социология: Энциклопедия / Сост. А. А. Грицанов, В. Л. Абушенко, Г. М. Евелькин, Г. Н. Соколова, О. В. Терещенко. — Минск
2. Калинина А.О. Факторы, влияющие на формирование субъективного контроля / А.О. Калинина. - М.: ВЛАДОС, 2004. - 383 с.
3. Аракелов Н.Е., Лысенко Е.Е. Локус контроль и методы его исследования // Психологический журнал, 1997. - Т. 4. - №2 - С. 34 - 38.
4. Социальная психология. Словарь / Под. ред. М. Ю. Кондратьева. — М.: ПЕР СЭ, 2006. — 176 с.
5. Брушлинский А.В. Проблема субъекта в психологической науке // Психологический журнал. 1991. № 6.

THE EMERGENCE AND APPLICATION OF ART THERAPY

N.N. Boymurodov,

BuxDu, Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotation. It is devoted to the origin of art, its manifestations and interpretation in different societies, as well as the use of art as a therapeutic tool.

It also covers art forms in the West and East, as well as the definitions of art therapy by scientists in the UK, America and Australia.

First of all, it needs to be clarified the conception of art. What is art?

Art is a diverse range of human activity, and resulting product, that involves creative or imaginative talent expressive of technical proficiency, beauty, emotional power, or conceptual ideas.

There is no generally agreed definition of what constitutes art, and its interpretation has varied greatly throughout history and across cultures. The three classical branches of visual art are painting, sculpture, and architecture. Theatre, dance, and other performing arts, as well as literature, music, film and other media such as interactive media, are included in a broader definition of the arts. Until the 17th century, art referred to any skill or mastery and was not differentiated from crafts or sciences. In modern usage after the 17th century, where aesthetic considerations are paramount, the fine arts are separated and distinguished from acquired skills in general, such as the decorative or applied arts.[1]

The nature of art and related concepts, such as creativity and interpretation, are explored in a branch of philosophy known as aesthetics. The resulting artworks are studied in the professional fields of art criticism and the history of art.

In the perspective of the history of art, artistic works have existed for almost as long as humankind: from early pre-historic art to contemporary art; however, some theorists think that the typical concept of "artistic works" doesn't fit well outside modern Western societies. One early sense of the definition of art is closely related to the older Latin meaning, which roughly translates to "skill" or "craft", as associated with words such as "artisan". English words derived from this meaning include artifact, artificial, artifice, medical arts, and military arts. However, there are many other colloquial uses of the word, all with some relation to its etymology.[2]

The nature of art has been described by philosopher Richard Wollheim as "one of the most elusive of the traditional problems of human culture". Art has been defined as a vehicle for the expression or communication of emotions and ideas, a means for exploring and appreciating formal elements for their own sake, and as mimesis or representation. Art as mimesis has deep roots in the philosophy of Aristotle.

The theory of art as form has its roots in the philosophy of Kant, and was developed in the early 20th century by Roger Fry and Clive Bell. More recently, thinkers influenced by Martin Heidegger have interpreted art as the means by which a community develops for itself a medium for self-expression and interpretation. George Dickie has offered an institutional theory of art that defines a work of art as any artifact upon which a qualified person or persons acting on behalf of the social institution commonly referred to as "the art world" has conferred "the status of candidate for appreciation". Larry Shiner has described fine art as "not an essence or a fate but something we have made. Art as we have generally understood it is a European invention barely two hundred years old."

In the east, Islamic art's rejection of iconography led to emphasis on geometric patterns, calligraphy, and architecture. Further east, religion dominated artistic styles and forms too. India and Tibet saw emphasis on painted sculptures and dance, while religious painting borrowed many conventions from sculpture and tended to bright contrasting colors with emphasis on outlines. China saw the flourishing of many art forms: jade carving, bronzework, pottery (including the stunning terracotta army of Emperor Qin), poetry, calligraphy, music, painting, drama, fiction, etc. Chinese styles vary greatly from era to era and each one is traditionally named after the ruling dynasty. Japan names its styles after imperial dynasties too, and also saw much interplay between the styles of calligraphy and painting. Woodblock printing became important in Japan after the 17th century. [3]

Now, it may be relected to art therapy. Definitions of art therapy are in flux, and it would be an interesting exercise in itself to look at the ebb and flow of these over time. Here is the current definition from the British Association of Art Therapists' (BAAT) practice: Art Therapy is a form of psychotherapy that uses art media as its primary mode of communication The overall aim of its practitioners is to enable a client to effect change and growth on a personal level through the use of art materials in a safe and facilitating environment. The front page of the American Art Therapy Association's (AATA) website describes art therapy thus: Art therapy is a mental health profession that uses the creative process of art making to improve

and enhance the physical, mental and emotional well being of individuals of all ages. It is based on the belief that the creative process involved in artistic self-expression helps people to resolve conflicts and problems, develop interpersonal skills, manage behaviour, reduce stress, increase self-esteem and self-awareness, and achieve insight. In a section entitled 'Defining Art Therapy', the AATA explains:

Art therapy integrates the fields of human development, visual art (drawing, painting, sculpture, and other art forms), and the creative process with models of counselling and psychotherapy. Art therapy is used with children, adolescents, adults, older adults, groups, and families to assess and treat the following: anxiety, depression, and other mental and emotional problems and disorders; substance abuse and other addictions; family and relationship issues; abuse and domestic violence; social and emotional difficulties related to disability and illness; trauma and loss; physical, cognitive, and neurological problems; and psychosocial difficulties related to medical illness.

The Australian and New Zealand Arts Therapy Association (ANZATA) offer this definition in its 'What is arts therapy?' section: Arts therapy uses creative processes, including art making, drama, and movement to improve and enhance physical, mental and emotional well being. It is suitable for all ages and many life situations, and can be done with individuals or groups.[4] Arts therapy works by accessing imagination and creativity, which can generate new models of living, and contribute towards the development of a more integrated sense of self, with increased self awareness and acceptance. Some art therapists also offer phototherapy, play and sand tray work, as well as diagnosis. Art therapy is a therapeutic and diagnostic tool where therapist and clients develop a dynamic interpersonal relationship, with clear boundaries and goals. It differs from traditional art in that the emphasis is on the process of creating rather than on the end product. The most common misconception held about art therapy is that it involves the therapist interpreting the art work, and deciphering and unravelling the meanings hidden within; on the contrary, it is the creator of the image, not the therapist, who has this pleasure. The role of the therapist is primarily an insightfully enabling one.

However, there are different models of art therapy and these will be explained. In the 'interactive model', for example, the therapist's role does encompass articulating group themes and dynamics.

Art therapy involves working towards some understanding of this, the process of communication between therapist, patient and image – the 'triangular relationship' (Case 2000). Following the ideas of Wilfred Bion, Donald Winnicott and the later psychoanalysts, the idea of mother–infant relationships moves us closer towards understanding the complexity of the process of interpretation or making unconscious processes conscious. [5]

In conclusion, Art therapy is a creative process, suitable for all ages, and particularly for those who may be experiencing life changes, trauma, illness or disabilities causing distress for the individual and for their family.

References:

1. Jerrold Levinson, *The Oxford Handbook of Aesthetics*, Oxford University Press, 2003, p. 5.
2. Oxford Dictionaries. Archived from the original on 1 September 2016
3. William Watson (1995). *The Arts of China 900–1620*. Yale University Press. ISBN 978-0-300-09835-8. Archived from the original on 5 August 2019. Retrieved 26 May 2018.
4. *The introductory guide to art therapy : experiential teaching and learning for students and practitioners* / Susan Hogan and Annette Coulter. 2014
5. *The handbook of art therapy* / Caroline Case and Tessa Dalley. —Third edition. 2014

5A112001- Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi

YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI

R.R. Raxmonov,

BuxDU, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası dotsenti

R. A. Rahimboyev,

BuxDU, Jismoniy madaniyat fakulteti 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish samaradorligi, mashg'ulotning tuzilishi, yosh futbolchilarning funksional tayyorgarligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Texnik-taktik tayyorgarlik, funksional tayyorgarlik, futbol o'yin texnikasi, to'p uzatishlar, futbol mutaxassislari, darvoza tomon zarba berish.

O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash, qobiliyatli yoshlarni sportga jalb etish, milliy futbolimizni yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh futbolchilarni tanlab olish va ularda professional mahorat hamda ko'nikmalarni chuqur rivojlantirishni ta'minlash, shuningdek, ulardan futbol bo'yicha mamlakat klublari va terma jamoalariga ishonchli zahirani shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir qator farmon va qarorlari qabul qilingan. Bu hujjatlarda yosh futbolchilarning nazariy tayyorgarligi va texnik-taktik ko'nikmalarni takomillashtirish, professional fazilatlarini rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy futbolni rivojlantirish xalqaro talablariga muvofiq holda yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonini ilmiy-uslubiy tavsiyalar asosida tashkil etish vazifalari belgilangan. Mamlakatimizdagi bir qancha futbol mutaxassislarning fikricha yosh futbolchilarning texnik-taktik ko'nikmalarni egallashda ortda qolishlari, eng avvalo yosh futbolchilarni tayyorlashning dastlabki bosqichlaridayoq

yuzaga keladigan muammolar bilan izohlash mumkin. Futbol o'yinida yuqori malakali futbochilarni tarbiyalash har doim ham dolzarb muammo hisoblangan. Yuqori malakali futbolchilarni jismonan yetuk, texnik-taktik tomonlama tayyorlash voyaga yetkazish, yoshlikdan futbol sport maktablarida, internatlarida o'quv mashg'ulotlarini to'g'ri yo'naltirish bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda futbol sport turining kun sayin rivojlanishi, jismonan baquvvat va iste'dodli o'yinchilarni tayyorlab berishni taqozo etmoqda. Bolalar-o'smirlar sport maktablari hamda futbol yo'nalishidagi maktab-internatlar nizomida ko'rsatib o'tilganidek, iste'dodli va umidli futbolchilarni tarbiyalash butun o'quv mashg'ulot davomida olib boriladi. Keyingi yillarda futbolga doir ko'pgina ilmiy maqolalar, uslubiy ko'rsatmalar va qo'llanmalarda yosh futbolchilarni iqtidorli futbolchi qilib tarbiyalash masalalari keng yoritilmoqda. Murabbiylar futbolchilarning yoshlik davridan texnik-taktik harakatlarga katta e'tibor qaratishni ta'kidlaydilar. Yosh futbolchilarning dastlabki tayyorgarligi o'yin texnikasidagi xatolarni tuzatish, texnik tayyorgarlikda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa bu boshlovchi o'yinchilar uchun ahamiyatlidir. Texnikani yomon o'zlashtirish oxir oqibat mahoratni keyinchalik takomillashtirishga to'sqinlik qiladi. Futbol mutaxassislari, futbolga endi kirib kelgan bolalarda texnik harakatlarni tarbiyalashda, to'pni his qilish qobiliyatini rivojlantirish, bunda to'p bilan oddiy mashqlar, to'pni olib yurish, to'pni tepish va janglyorlik qilishni, har mashg'ulotda olib borishni e'tirof etishadi. Futbol o'yinida asosan texnik harakat to'pga oyoqda zarba berishdir.

Texnika turidagi mashg'ulotlarni o'tkazish tezligi quyidagilarga bog'liq:

- yosh futbolchilarning yoshi;
- ularning tayyorgarlik darajasi;
- mashg'ulot davri;
- mashg'ulot sharoitlari.

Haftadagi mashg'ulotlar soni uch marta yoki undan ortiq bo'lgan jamoalarda, mashg'ulot davridan qat'i nazar, haftadagi kamida bitta mashg'ulot «sof» texnika bo'yicha o'tkazilishi kerak. O'smirlar va o'spirinlik yoshidagi futbolchilar gavda

tuzilishi hamda markaziy asab tizimi holati nuqtai nazardan, harakatlarni juda yaxshi egallab olish xususiyatiga ega. Yangi futbolchilar mashg'ulotlarda jismoniy va asab tizimiga tushadigan yuklama o'yinchining texnika darajasiga mos bo'lishi mumkin. Haddan tashqari ko'p bo'lgan yuklamalar zo'riqish yoki tezlik yaxshi o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi, buning natijasida harakatlarda ma'lum bir xatolar mustahkamlanib qoladi. O'yin texnikasiga boshlang'ich o'rgatishda sharoitlarni yengillashtirish va tegishli uslublar bilan texnikani tez egallashda o'yinchilarga yordam ko'rsatish lozim. O'rgatishdagi xatolik, bir tomondan, qo'llaniladigan o'rgatish uslublaridan, ikkinchi tomoni esa texnikani egallash paytida futbolchilar ba'zan tegishli jismoniy tayyorgarlikka ega emaslar, xatolikning tez-tez yuzaga kelishi yana shunga bog'liqki, o'yin texnikasi bo'yicha mashqlar ham jadallik bilan bajarilmaydi. Ko'pchilik futbolchilar, ularga hech kim halaqit qilmagan paytlarda, to'p bilan a'lo darajada o'ynaydilar, ammo o'yinda esa ularni tanib bo'lmaydi.

Kuchli kurashish vaziyatlari futbol o'yini uchun xosdir, shunga ko'ra yuqorida aytib o'tilgandek, gavda bilan kurash olib borishga futbol qoidalarida ruxsat beriladi. Bu o'yinda raqib tomonidan faol qarshilik ko'rsatish vaziyatida texnika usullarini har vaqt va har yerda bajarish lozim demakdir. Shuning uchun yosh futbolchilarni bunday o'yinga tayyorlab borish juda muhimdir. O'yin texnikasiga o'rgatish va mashg'ulot uslublari o'yin mohiyatiga zid bo'lmasligi lozim, aksincha, texnikaga o'rgatishda o'yin talablarini har doim hisobga olish zarur. O'yin vaziyatlariga yaqinlashtirilgan va o'yinchilarning o'yindagi majburiyatlarini hisobga olib tanlangan mashqlar juda muhim bo'lib, mashg'ulotlar o'quv materiallarining 50-60% ni tashkil etadi.

Futbolchilar sport mahorati darajasining bundan keyingi rivojlanib borishi bolalar va o'smirlar futbolining o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, mamlakatimizda bolalar va o'smirlar futbolini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator tadbirlar orasida futbol mashg'ulotlarni, tayorgarliklarni to'g'ri rejalashtirish alohida o'rin tutadi. M.A.Godik, D.V.Kuzmichevlar bolalarga futbolning oddiy sirlarni o'rgatishdan boshlab, ularni yuqori malakali futbolchilar qilib tarbiyalash butun bir tizim hisoblanadi va u aniq reja asosida olib borilishi kerakligini

ta'kidlaydilar. Rejalashtirish sportchini tayyorlashning ko'p yillik bosqichida natijalarning o'sishini ta'minlovchi asosiy va muhim talablardan biridir.

Sport maktablarida o'quv mashg'ulotlari jarayonini tashkil qilish mashg'ulotning zamonaviy uslubiyoti asosida, yosh futbolchilarning yuqori mashg'ulot yuklamalarini o'zlashtirishi orqali amalga oshiriladi. Mutaxassislar futbol maktablaridagi vazifalarni quyidagicha ta'kidlaydilar:

- o'quv rejasini bajarish shartligi,
- amaliy va nazariy mashg'ulotlarni uzluksiz bajarish,
- yosh futbolchilarni tanlash tizimni yaxshi tashkil qilish,
- musobaqalarda muntazam ishtirok etish,
- tiklanish profilaktik tadbirlarni amalga oshirishlarni qat'iy rioya etish.

Sport maktablaridagi bo'limlar boshlang'ich tayorlov va o'quv mashg'ulot guruhlaridan shakllanadi. Sport tayyorgarligida yuqori natijalarga erishilgan va zarur sharoitlar yaratilgan BO'SMLarda sportni takomilashtirish guruhlarini tashkil etiladi. Boshqa sport turlari kabi futbol uchun ham raqibga qarshi jamoaviy yakka kurashlar xarakterlidir. Bu yakka kurashlar nafaqat individual, balki jamoaviy o'yin harakatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu asoslarni hisobga olib, o'quv mashg'ulot jarayonida ketadigan vaqt taxminan shunday bo'linadi:

- jismoniy tayyorgarlikka 20–25 %,
- texnik tayyorgarlikka 30-35%,
- taktik o'yin va musobaqa tayyorgarligiga 40-45%.

Bu raqamlarga yosh o'zgarishi, o'yinchilar mahorati va tayyorgarlik davriga qarab albatta o'zgartirishlar kiritiladi. Futbol jamoalarini va alohida o'yinchilarni tayyorlashni rejalashtirish mashg'ulotning umumiy obyektiv qonunlariga qarab bazalashtiriladi. Uning tarkibiga umumiy va maxsus tayyorgarlikning birligi mashg'ulot jarayonining uzviyligi maksimal yutuqqa yo'nalish cheklangan yuklamalar tendentsiyasi davriylik jarayoni kiradi. O'yinchilarning bir mavsum davomida ortirgan funktsional imkoniyatlarining rivojlanish bochqichi keyingi mavsumlarda ham mustahkamlanib, rivojlantirib borishi kerak. Rejalashtirishda, shuningdek sportchining gormonik rivojlanishi uning jismoniy va ruhiy

imkoniyatlarini inobatga olish zarur. Undan tashqari, sportchining yoshi, jinsi, professional salohiyati, jismoniy rivojlanish bosqichi, tayyorgarlik yo'nalishi, bo'lajak musobaqalar taqvimini moddiy baza mashg'ulotlarini tashkillashtirishning boshqa talablarini ham ko'zda tutish lozim. Avvalambor ko'zlangan ishning tuzilishi va hajmini aniqlab olish vaqtni, davrni to'g'ri taqsimlash, shuning yakuniy natijani belgilab qo'yish lozim. Rejalashtirishga albatta vaqt va sharoitga qarab o'zgartirishlar, aniqliklar va qo'shimchalarni kiritish mumkin. Rejalar tuzishda rejaning vazifalar, tuzilishi, bajarilish bosqichi, yo'l qo'yilgan xatolar tahlil qilinadi. Har bir yaratilgan reja tadbirlari sekin oshib boradi. Futbol o'yini texnik harakatlarga boshlang'ich o'rgatishda sharoitlarni yengillashtirish va tegishli uslublar bilan texnikani tez egallashda o'yinchilarga yordam ko'rsatish lozim.

Yosh futbolchilarning jamoaviy, indivudal texnik-taktik harakatlari, futbol bo'yicha o'tkazilgan Kogon shahar birinchiliklarida, o'rtoqlik uchrashuvlarida kuzatildi.

O'yin davomida futbolchilarning quyidagi texnik-taktik harakatlari qayd qilindi:

- to'pni uzatishlar;
- to'pni olib yurish;
- aldash harakatlari;
- to'pni olib qo'yish;
- bosh bilan o'ynash;
- darvoza tomon zarba berish;
- jarima to'plardan foydalanish.

Yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini tarbiyalash tadqiqot davomida ularning hujum faoliyatlari o'rganildi. Yosh futbolchilarning hujumdagi harakatlari o'rganilganda, ular o'yinda o'rtacha 40-50 ta hujumlarni tashkil etishdi va bu hujumlarning 10-15 tasi xavfli ko'rinishga ega bo'ldi. Kogon shahar birinchiligi o'yinlarni kuzatganimizda, BO'SM futbol jamoasi asosiy hujumlarni qanotdan amalga oshirishdi. Ko'pgina hollarda bu hujumlar samarali bajarilib, gol bilan yakunlandi. Qanotdan uyushtirilgan hujumlar, qanotdan jarima maydoniga

jamoadoshiga to'pni to'g'ri yetkazib berilgani va jamoadoshi tomondan darvozaga boshda, oyog'da to'g'ri yo'naltirilgan zarbalari, samarali hujum sifatida yakun topdi. Futbolchilarning hujum uyushtirish faoliyatini o'rganish bilan birga, ularni darvoza tomon bergan zarbalari ham nazorat qilindi. Yosh futbolchilarning darvozaga zarba berish yo'nalishlari samaradorliklari aniqlashtirildi.

Xulosa: Yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarni tarbiyalash ko'pgina mutaxassislar tomonidan o'rganilgan, tahlil qilingan ishlarda futbolchilarning 10-14 yoshlarida texnik-taktik harakatlarni o'zlashtirish, rivojlantirish mashg'ulotlarda birinchi darajali bo'lib qaralishi ta'kidlangan. O'yinchilarning musobaqa faoliyati to'g'risidagi axborot asosida murabbiy jamoa tayyorgarligini joriy rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritishi kerak. Ma'lumki, musobaqa faoliyatini o'rganish jarayoni har bir o'yin davomida futbolchilar tomonidan namoyish etiladigan juda ko'p ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 1-maydagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-338-qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-iyundagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida"gi qarori.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori. O'zbekiston, 1997
4. Айрапетянс Л.Р., Годик М.А. Спортивный игри. Т., изд. Ибн Сино.
5. Акрамов Р.А. Игровое и тренировочное нагрузки в футболе. Учебное пособие. -Т., изд. Ибн Сино, 2002.
6. Raxmonov R.R. O'quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda o'rta masofaga yugurish dinamikasini tahlil qilish

ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy metodik jurnali. Toshkent. 2020 3-son may-iyun. 78-81-bet

BOLALARDA YENGIL ATLETIKA BILAN SHUG'ULLANISHNING AHAMIYATI

H. N. Ismoilov,

BuxDU Pedagogika Instituti, Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi mutaxassisligi magistranti

Anotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi bolalikdan yengil atletika mashqlarining sog'liqqa ta'sirini o'rganishdir. Hozirgi kunda texnologik o'zgarishlar bilan bir qatorda harakatsiz turmush tarzi tobora ko'proq qabul qilinmoqda. Ayniqsa, o'yin yoshidagi bolalar ko'p vaqtlarini kompyuterda o'tirib o'tkazadilar. Biroq, ma'lumki, bolalikdan olingan jismoniy mashqlar odati keyingi hayotda sog'likka ham sezilarli ta'sir qiladi. Bolaligidan muntazam ravishda yengil atletika mashqlar bilan shug'ullanadigan kishilar keksa yoshda tengdoshlariga qaraganda surunkali kasalliklarga kamroq chalinadilar.

Kalit so'zlar: Bolalar, jismoniy mashqlar, sog'liq, jismoniy mashqlar yetishmasligi, yengil atletika.

Ushbu maqolada, avvalo, kelajagimiz garovi bo'lgan farzandlarimizni yengil atletika bilan tanishtirish, maqsad "kichik chempion" qilish emas, balki bolalarning sport bilan yaqindan tanishishi, baxtli bo'lishi va sog'lom avlod bo'lishiga hissa qo'shishi masalasini muhokama qildim. Agar biz muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsak, farzandlarimizni astoydil himoya qilishimiz va qo'llab-quvvatlashimiz kerak. Bizning asosiy maqsadimiz bu bolalarda yengil atletikaga bo'lgan muhabbatini shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak.

Yengil atletikani bolalar dunyosiga olib kirishning yanada samarali usuli bo'lishini bilishimiz kerak. Bunga erishish usuli ularning ehtiyojlarini qondiradigan materiallardan foydalanish, asosiy mahorat elementlarini bolalar o'yinlariga joylashtirishdir. Bolalar uchun o'rganishning eng yaxshi usuli, o'yin bizni bolalar

uchun "qiziqarli bolalar atletika mashg'ulotlari" ni jozibador qilish maqsadiga olib boradigan vositadir. Biz uchun qanday faoliyatni amalga oshirishimiz vazifasi qoladi.

Bu yoshdagi bolalar energiya bilan to'la. Dasturlar olomon guruhleri bo'yicha va ta'limiy o'yin usulida tayyorlanishi kerak. Jamoalar ishlaydigan ko'plab stantsiyalar tashkil etilishi bilan, hatto eng kam iste'dodli bolalarga ham o'z hissalarini qo'shish imkoniyati berilishi kerak. Jamoa oladigan va o'zlarini foydali his etadigan natijalarda bu bolalarning ham ulushi bo'lishini ta'minlash katta ahamiyatga ega. Shuni har doim ta'kidlash kerakki, jamoaviy faoliyatda ishtirok etish va ko'ngilochar element ajralib turadi. Keyingi maqolada yosh guruhleri uchun yugurish, uloqtirish va sakrashlar haqidagi o'yinlarni amalga oshirish yo'nalishida bo'ladi.

Hozirgi kunda ko'plab omillar, ayniqsa texnologik o'zgarishlar tufayli harakatsiz turmush tarzi qabul qilinmoqda. Ushbu harakatsiz turmush tarzi bolalikdan boshlab odatga aylanmoqda. Harakat bolaning jismoniy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Bolalarda jismoniy rivojlanishga ta'sir qiluvchi irsiy omillar: genetika, bu irq, gormonlar va jins. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, jismoniy yashash sharoitlari, ovqatlanish, kasalliklar va umuman atrof-muhit omillar quyidagilar. Yashash sharoitining o'zgarishi, ekologik, ijtimoiy omillar, texnologiyalar va ovqatlanish odatlari maktab yoshidagi bolalarning jismoniy faolligi darajasiga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, maktab yoshidagi bolalarning jismoniy faoliyati so'nggi yigirma yil ichida ularning darajasi sezilarli darajada pasayganligi ko'rsatildi.

Muayyan yosh o'z farzandlarining rivojlanishida asosiy ko'nikma va qobiliyatlarni egallash uchun juda muhimdir. Keyingi davrda ushbu tanqidiy davrda

egallanmagan mahoratni butunlay yo'q qilish mumkin emas. Shuning uchun har bir koinotning o'ziga xos tanqidiy qobiliyatlari bor.

Muntazam harakat va jismoniy faoliyat odati uni oldindan davrda sotib olish kerak. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'smir bolalarga qaraganda mashq qilishni odat qilish osonroq.

Bolalarda Yengil Atletika jismoniy mashqlarining yetishmasligi

Yengil Atletikada jismoniy mashqlar ta'siri

Yengil Atletika Jismoniy mashqlar ta'siriga kelsak, biz o'zimizga quyidagi savollarni berishimiz mumkin:

1. Bolalikda mashq qilishning ta'siri qanday?
2. Bolalarga jismoniy mashqlar qanday ta'sir qiladi?

Yengil Atletika Jismoniy faoliyatning xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi ushbu tuzilmalar:

Individual xususiyatlar-bolaning do'stlari bilan muloqoti, o'ziga ishonch, jasorat kabi individual xususiyatlari.

Maktab; maktabdagi jismoniy faoliyat yo'nalishlari, maktab jamoalari, dars doirasidagi tadbirlar bolaning jismoniy faolligi darajasiga ta'sir qiladi.

Jismoniy va ijtimoiy muhit; bola yashaydigan park kabi jismoniy va ijtimoiy muhit, u yerda do'stlari bilan tashqarida vaqt o'tkazishi mumkin, u yerda o'yin o'ynashi mumkin, sport zali jismoniy faollik darajasiga ta'sir qiladi.

Yengil Atletikaning kasalliklar bilan aloqasi

Bolalik-bu sog'lom yoki nosog'lom xatti-harakatlar paydo bo'lganda va psixologik va fiziologik o'zgarishlar yuz berganda hayotning eng sezgir davri. Faol bo'lmagan tengdoshlari bilan taqqoslaganda, bolalikda faol bo'lgan bolalar; mushaklar kuchi, yurak-qon tomir funksiyalari va metabolizm yaxshiroqdir bu isbotlangan.

Semirib ketish: ko'plab xalqaro va milliy sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan muntazam jismoniy mashqlar semirish va surunkali sog'liq muammolarini hal qilishda samarali ekanligi ta'kidlangan.

Kelajakdagi turmush tarzi sog'lom va uzoqroq bo'lishi uchun bolalikdan boshlab muntazam ravishda bajariladigan mashqlar muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun maktablarda sport vafaoliyatni ko'paytirish va bolalar bu haqda sport olimlari va oilalar tomonidan yoshligidan xabardor bo'lishlari kerak.

Adabiyotlar:

1.Krekelberg, B. va boshqalar. (2006). Moslashuv: bitta hujayradan BOLD signallarigacha.Neurosciences,<http://faculty.washington.edu/gboynton/publications/krekelberg-TINS06.pdf>

2.Janssen, I., Katzmarzyk, P. T., Boyce, W. F., ve Pickett, W. (2004) 6-10-sinf Kanadalik yoshlarning sog'lig'iga shikoyat qilishda jismoniy harakatsizlik va semirishning mustaqil ta'siri. Jismoniy faollik va salomatlik jurnali, 1, 331-343.

3.Dits, W. H. (2004). Bolalik va o'smirlik davridagi ortiqcha vazn. New England Journal of Medicine, 350, 855-857.

4.Hallal, P.C., Andersen, L.B., Bull, F.C., Guthold, R., Xaskell, V., Ekelund, U. (2012). Global jismoniy faollik darajasi: kuzatuv taraqqiyoti, tuzoqlar va istiqbollari. Lancet, 380 (9838), 247-257.

5. Abdullaev M. J. Turli yoshdagi sportchilar bilan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning xususiyatlari, shakllari va usullari //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8.

YOSH VOLEYBOLCHILARDA KUCHNI RIVOJLANTIRISH MASHQLARI

E. B. Rustamov,

*BuxDU, Pedagogika Institutining Jismoniy Tarbiya va Sport Mashg'ulotlari
Nazariyasi va Metodikasi mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Voleybolda kuch rivojlanish jarayonida ba'zi muhim bosqichlar mavjud. Voleybolda sport bilan shug'ullanish bilan rivojlanadigan eng muhim vosita xususiyatlaridan biri bu kuchdir.Voleybolda kuchni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarning eng yaxshi samaradorlikka erishish va voleybolda har qanday

nogironlikni keltirib chiqaradigan xatarlarni bartaraf etish uchun psixomotor rivojlanish tamoyillarini hisobga olish kerak. Ushbu tadqiqotda voleybolda kuchni rivojlantirish, sport bilan shug'ullanishning kuchni rivojlantirishga qo'shgan hissasi.

Kalit so'zlar: Voleybolchi, Psixomotor rivojlanish, Kuchni rivojlantirish, Jismoniy mashqlar, Tarbiya, Individual

Psixomotor rivojlanish odamlar hayoti davomida davom etadigan vosita mahoratida yuzaga keladigan xatti-harakatlarni boshqarish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Psixomotor harakatlar bu sezgi organlari, ong va mushaklar birgalikdagi ishi bilan amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, psixomotor xatti-harakatlarni boshqarishga imkon beradigan jarayon psixomotor rivojlanishni anglatadi. Voleybolda sport bilan bog'liq harakatlar davri psixomotor rivojlanish davrida muhim bu bir joyga ega. Bu davr ham ko'p ko'nikma va malakalarni talab qiladigan harakatlar boshlangan va rivojlangan davrdir.

Sport bilan shug'ullanish vosita xususiyatlaridan biri bo'lgan kuchni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. O'tkazilgan tadqiqotlarda sport bilan shug'ullanish inson organizmiga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi ko'p sohalarda ijobiy hissa qo'shishi va kuch-quvvat rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi aniqlandi. Bundan tashqari, ilmiy o'lchovda baholanganda sport bilan shug'ullanish yoki amaliy kuch mashqlarining Voleybolda kuch rivojlanishiga ta'sirini o'rganadigan ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga baho bersak, ko'pgina olimlar kuch tushunchasini bir xil narsani anglatuvchi turli ifodalar bilan aniqlashgandek tuyuladi. Kuch tushunchasi fizikada ob'ektlarning pozitsiyalarini, harakatlarini va shakllarini o'zgartiradigan ta'sir, biomexanikada esa harakat va muvozanatni ta'minlaydigan ta'sirlar sifatida tavsiflanadi.

Sport ma'nosida olingan ishlash testi natijalari baholanganda, kuch xarakteristikasi ba'zi sport tarmoqlarida ishlashga bevosita yoki bilvosita ta'sir qilishi aniqlandi. Ayniqsa, og'ir vaznli sport turlarida kuch sifati va miqdori katta ahamiyatga ega. Og'ir va engil vaznlilarni taqqoslashda, o'lchovlar va musobaqalarda olingan natijalarga ko'ra, engil vaznlilar og'ir vaznlilarga qaraganda

kuchliroq va muvaffaqiyatliroq ekanligi aniqlandi. Bu jamoaviy sport bilan shug'ullanadigan shaxslarga ham tegishli bu haqiqiy ekanligini bildiradi.

Voleybolda kuchning rivojlanishi yoshga parallel ravishda, suyak tizimidagi balandlik, vazn, mushakalar nisbati va mushak massasining rivojlanishi bilan parallel ravishda ortadi. Ushbu rivojlanish tananing sport tuzilishiga ega bo'lishiga yordam beradi. Biroq, kuch darajasining yaxshilanishi nafaqat qo'llar tizimining mosligiga bog'liq. Chunki Voleybolda kuchning rivojlanishi gormonal rivojlanishning rivojlanishiga bog'liq.

Kuchning rivojlanishini baholasak, voleybolchilarning yosh paytida kuch darajasi pastligi ma'lum bo'ladi. Kuchda doimiylik xususiyatining rivojlanishi o'g'il va qiz bolalar voleybolda o'xshash darajalarda sodir bo'ladi va o'n yoshdan keyin erkaklar foydasiga rivojlanish farqi paydo bo'ladi. Boshqa tomondan, tez kuch maksimal kuch bilan parallel ravishda rivojlanmaydi.

Voleybolchilar uchun kuch mashqlari

Voleybolda muvaffaqiyatli kuch mashqlari uchun birinchi tavsiya har bir voleybolchi jismoniy mahorat darajasiga qarab individual o'quv dasturini tashkil qilishdir. Kuchni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarda kuch-quvvat mashqlarini endigina boshlayotgan shaxslar avval umumiy kuch xususiyatini rivojlantirishlari kerak. Bu yerda mushaklarning kuchini emas, balki mushaklarning sifatini yaxshilash va jarohatlardan himoya ta'sirini ta'minlashdir. Bundan tashqari, rivojlanish yoshidagi voleybolchilar kuch-quvvat mashg'ulotlariga moslashish muhim masaladir. Chunki voleybolchilarning kuch-quvvat mashqlariga moslashishi ularning sog'lig'i va ish faoliyatini rivojlantirish uchun muhimdir.

Yosh voleybolchilar avvalo asosiy kuch xarakteristikasini tarbiyalash kerak. Shu sababli, yuk ko'tarish xususiyatini yaxshilash uchun kuch uzluksizligini o'rganish va tezkor kuch tadqiqotlari qo'llanilishi kerak. Mushakalar uchun asosiy holatlar uchun muhim rol o'ynaydigan orqa, qo'l va oyoqlarning va bu mushak guruhlarining nurlari birinchi navbatda mustahkamlanadi. Ushbu davrda kuch-quvvat mashqlarini endigina boshlayotgan Voleybolda ko'p qirrali kuchlarning

rivojlanishini ta'minlash, charchoqqa qarshilik va yuk ko'tarish qobiliyatini rivojlantirish maqsad qilingan.

Mushaklarda to'g'ri voleybolda kuch ta'lim amaliy, mushak kuchi rivojlantirish, suyak rivojlanishiga ijobiy ta'sir va o'sish salohiyati qo'llab-quvvatlash kutilgan natijalar. Bundan tashqari, voleybolda yoshga mos keladigan kuch-quvvat mashqlari nogironlik va jismoniy stress bilan bog'liq salbiy ta'sirlarni kamaytiradi. Shu sababli, mashq qilish usuli va kuch-quvvat mashqlaridagi yuk mezonlari mashg'ulot maqsadlariga muvofiq belgilanishi kerak. Bundan tashqari, kuch-quvvat mashqlari yoshidan katta bo'lganlar kuch-quvvat mashqlari tarixiga ega bo'lmaganlarga qaraganda tez-tez mashq qilishlari mumkin.

Kuch-quvvat mashqlarini bajarishdan oldin, bajariladigan mashg'ulot mazmuniga muvofiq isitish ishlari olib borilishi kerak. Ayniqsa, cho'zish mashqlaridan foydalanish kerak. Kuchni o'rganish va o'spirinlarda yangi boshlanuvchilar uchun mo'ljallangan o'quv dasturlarining asosiy maqsadlaridan biri bu mustahkam tarkibiy va fiziologik asosni ishlab chiqishdir. Shuning uchun, mushaklar bu kuch-quvvat mashqlari haqida, murabbiylar tananing asosiy mushak guruhlariga qaratilgan kuch-quvvat mashqlarini bajarishlari kerak. Kuch o'rganishdan oldin qo'llaniladigan harakatlarni tushunadigan tarzda tushuntirish va o'rgatish kerak.

Voleybolda kuchning rivojlanishi yosh guruhlariga qarab farq qiladi. Bundan tashqari, muhim munosabatlar mavjuddek voleybolchilarda qo'llaniladigan kuch-quvvat mashg'ulotlarining mazmuni va kuchni rivojlantirish. Bundan tashqari, ayrim davrlarda voleybolchilar kuch-quvvat rivojlanishi bir-biridan farqli darajada bo'ladi. Shuning uchun bu muhim masaladek voleybolchilar qo'llaniladigan kuch mashqlarini bolalar o'rtasidagi individual farqlarga va psixomotor rivojlanish

davrlariga qarash kerak. Natijada, kuch voleybolchilar uchun qo'llaniladigan aytishimiz mumkinki, ularning mashg'ulotlari kuch rivojlanishini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Smith, M.S., Dyson, R.J., Hale, T. and Janaway, L. (2000) Development of a boxing dynamometer and its punch force discrimination efficacy. *Journal of Sports Sciences* 18, 445-450.
2. Zazryn, TR, McCrory PR, Cameron PA. (2008). Neurologic injuries in boxing and other combat sports. *Neurol Clin*, Feb; 26(1): 257–270.
3. Zhang L, Ravdin LD, Relkin N, et al. (2003).

GANDBOLDA OTISH TEZLIGI TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI TIZIMLI KO'RIB CHIQISH

Z.T. Axmedova

*BuxDU, Pedagogika Institutining Jismoniy
Tarbiya va Sport Mashg'ulotlari Nazariyasi va
Metodikasi mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Gandbolda jamoaviy sport turi sifatida maksimal kuch, kuch, tezlik, chidamlilik va bo'g'inlar harakatchanligi kabi jismoniy sifatlar ustunligida gol urish va g'alaba qozonish asosiy musobaqa sharti bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqolamning maqsadi gandbol sport o'yiniga xos ustuvor qobiliyatlarni tahlil qilish va uni rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: Otish texnikasi, tezkor harakat, yelka kuchi, bo'g'inlar harakatchanligi. Jamoaviy sport turi bo'lgan gandbolda mashg'ulot va musobaqa paytida itarish yoki kuch ishlatish va qisqa/yuqori intensivlikdagi jismoniy harakatlarga qarshi tura oladigan jismoniy kuch qobiliyatiga ega bo'lish talab etiladi. Raqobat paytida yuzlab marta yuqori intensiv jismoniy faoliyatni boshdan kechirish holati yuqori darajadagi kuch talablarini, shuningdek, egalik qilgan kuchni uzoq

muddatli saqlashni talab qiladi. Maksimal kuch, tezlik, chidamlilik gandbolda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan asosiy omillardan biridir. Qo'l to'pi, beysbol, nayza uloqtirish va voleybol, bu yerda zarbalar yelkama-yelka (ortiqcha) amalga oshiriladi, tezlik va chaqqonlik juda muhim omil hisoblanadi.¹ Gandbolni boshqa tortishish sport turlaridan ajratib turadigan xususiyati shundaki, to'p turli xil variantlarda yo'q qilinadi. Ya'ni, tortishish ko'p qirrali va murakkab tuzilishga ega. Ushbu xilma o'z ichiga oladi; otishdan oldingi qadamning uzunligi, otish sakrash orqali amalga oshiriladimi va boshqa xususiyatlar qamrab oladi. Ammo bu tortishish biomexanikasiga qanday ta'sir qilishiga turli xil yondashuvlar mavjud.

Gandbol o'yinida tortishish, ya'ni raqib guruhdan to'pni olish, asosiy qobiliyat bo'lsa-da, unga tortishish samaradorligi jihatidan "tortishish tezligi" va "urish" kabi ikkita asosiy omil ta'sir qiladi.² Gandbolda muvaffaqiyatli bo'lgan zarbalarni tahlil qilishda zarbalar tezligi ularning aniqligi bilan birga birlashtiriladi uni baholash kerakligi tushuniladi.

Gandbolda asosiy maqsad raqibga qaraganda ko'proq gol urishdir. Gol urish va g'alaba qozonish usuli samarali tortishish ko'rsatkichidir. Samarali tortishish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan tortishish tezligi tushunchasi ko'p yillar davomida tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan; shuningdek, bu gandbol murabbiylari, sportchilar va olimlar uchun zarur bo'lgan mavzu hisoblanadi.

Otish texnikasi. Ma'lumki, qo'l to'pi musobaqasida ishlatiladigan zarbalarning 73-75% sakrash, 14-18% yugurish (qadam tashlash) dan keyin ushlab qadam bilan, 6-9% esa 7 metrdan, 2-4% yiqilish va 0-1% erkin uloqtirishlar bilan otiladi. Qadam bosishdan keyin sodir bo'ladigan sakrash va ushlab turish bosqichi tufayli gorizontaal tezlikni oshirib, mudofaaning zarbaga xalaqit berish ehtimolini kamaytiradi va zarba tezligi oshiradi. Qal'aning markaziga qarab harakatlanish natijasida sodir bo'lgan zarbalar yuqori tezlikka ega; ammo, tortishish tezligiga qadam va tos-magistral harakati ijobiy ta'sir ko'rsatishi ayon bo'ladi.

Yelka kuchi. Gandbol-bu boshning tepasidan (tepadan) zarbalar kuchli bo'lgan va sportchi o'yin davomida 100 ga yaqin pas va zarbalardan foydalanadigan sport turi. Yuqori tezlikda sodir bo'lgan zarba, yelka bo'g'imida sodir bo'ladi, bu

muvaffaqiyatli harakatlar bilan tavsiflanadi. Otish paytida barcha bosqichlarda yelkaning ichki va tashqi rotatorlari konsentrik/eksantrik ravishda ishlatiladi. Boshqa tomondan, shikastlanish xavfi va uzoq reabilitatsiya davriga ega bo'lgan yelka sohasi sportchida surunkali og'riq keltirib chiqaradi. Ushbu muammoga duch kelgan gandbolchi tabiiy ravishda urish va tortishish tezligi jihatidan ham muammolarga duch kelishi mumkin.

Gandbolda zarbaning samaradorligi ko'p jihatdan zarbaning tezligi va aniqligiga bog'liq. Mavzu bilan bog'liq tadqiqotlar o'rganilganda, pastki va yuqori ekstremitalarning mushaklarini muvofiqlashtirish va maksimal portlovchi kuch bilan birlashtirilganligi ta'kidlandi. Ushbu yo'nalishda yurak urishi va aniqligini oshirish uchun ba'zi o'qitish usullaridan foydalanish majburiy bo'lib qoldi. Gandbolda noyabr oyi uchun mushaklarning, ayniqsa qorin, paraspinal va gluteal mintaqalarda joylashgan mushaklarning rivojlanishi juda muhimdir.

To'g'ri mashg'ulot sharoitlarini ta'minlash va sportda ishlashni yaxshilash maqsadida, shuningdek, psixologik holatning roli katta. Xususan, maqsadlarni belgilash, tasavvur qilish, qulaylik, o'z-o'zini gapirish, hissiyotlarni boshqarish va o'ziga ishonch sportdagi psixologik qobiliyat bilan bog'liq.

Gandbolda zarba berish tezligining g'alaba qozonishning asosiy sharti bo'lgan "ko'proq gol urish" maqsadiga erishishdagi o'rni yaqqol ko'rinib turibdi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yurak urishi faqat mezon emas, balki u doimo aniqlikka moslashishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Aloui, G., Hermassi, S., Hammami, M., Gaamouri, N., Comfort, P., Shephard, R. J., Schwesig, R. ve Chelly, M.S.(2019). Effects of an 8-week in-season upper

limb elastic band training programme on the peak power, strength, and throwing velocity of junior handball players. *Sportverletzung Sportschaden*, 33(3), 133-141.

2. García, J. A., Sabido, R., Barbado, D. ve Moreno, F. J. (2013). Analysis of the relation between throwing speed and throwing accuracy in team-handball according to instruction. *European Journal of Sport Science*, 13(2), 149-154.

3. Eriksrud, O., Sæland, F. O., Federolf, P. A. ve Cabri, J. (2019). Functional mobility and dynamic postural control predict overhead handball throwing performance in elite female team handball players. *Journal of Sports Science & Medicine*, 18(1), 91-100.

O‘SMIR VOLEYBOLCHILARDA SAKROVCHANLIK SIFATINI BAHOLASH TEXNOLOGIYASI VA UNI RIVOJLANTIRISH USLUBIYOTI

Z.A.Sheraliyeva,

*BuxDU, Pedagogika Institutining Jismoniy
Tarbiya va Sport Mashg‘ulotlari Nazariyasi va
Metodikasi mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘smir voleybolchilarda sakrovchanlik sifatini baholash texnologiyasi va uni rivojlantirish uslubiyoti, tezkor-kuchlilik sifatlarini rivojlantirishda turli uslublar bilan birga harakatli o‘yinlardan foydalanish samaradorligini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: voleybol, sakrovchan, harakatli o‘yinlar, samaradorlik, tezkor-kuchlilik sifati.

O‘zbekiston Respublikasining yetakchi mutaxassislari, xorijiy tajribali pedagoglar, ko‘pchilik olimlar tomonidan sport o‘yinlarida texnik taktik elementlarni rivojlantirish muammolari ko‘pdan-ko‘p ilmiy-uslubiy adabiyotlarda o‘z yechimini topgan. L.R. Ayrapetyans (2006), A.A.Pulatov (2012), Sh.X. Isroilov (2014), Z.B. Boltaev (2019), jumladan, chet el olimlaridan V.M.Zatsiorskiy (1995), L.P.Matvyev (1997), V. N. Sokolov (1999), David Lavalley, John Kremer (2004),

Edmunds J, Ntoumani N (2006), V.Ya.Ignateva, A.V. Ignatev A.A.Ignatev (2015), YU.D.Jeleznyak (2018) yillarda ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Voleybol musobaqalarida barcha turdagi kuch sifatleri (umumiy va maxsus, mutloq va nisbiy, statik va dinamik, tezkor-portlovchi, kuch chidamliligi) hal qiluvchi ahamiyatiga ega bo'lishi isbotini talab qilmaydi. Shuning uchun o'quv-mashg'ulot jarayonida kuch va kuchlanish turlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish malakali voleybolchilar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir.

Yosh voleybolchilarda har xil turdagi kuch sifatlarini o'rganish qayd etilgan ko'rsatkichlar malakali yosh sportchilar nisbatan sezilarli darajada sayoz ekanligini ko'rsatdi (1-jadval). Jumladan, ikki guruhdagi bolalarni qo'shib hisoblaganda ham ularning ko'rsatkichlari tadqiqot boshlanmasdan avval deyarli farq qilmadi.1

Yosh voleybolchilarda tezlik-kuch sifatining darajasi (18 kishi)

Kuch turlari	Kuch
ko'rsatkichlari XL	
Gavda kuchi, kg	54,2±2,7
Turnikda tortilish	5,3±1,2
Brusyada qo'llarni bukish-yozish	4,5±1,7
Gorizontal holatdan qo'llarni bukish-yozish (30 s)	8,1±1,3

Chunonchi, qo'l-qorin-bel mushaklari kuchi tekshiriluvchi bokschilarda 54,2±2,7 kg ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichni taqqoslash maqsadida shu narsa ravshan bo'ldiki, 15-16 yoshdagi dzyudochilarda bu ko'rsatkich 142-182 kg oralig'ida bo'lishi mumkin. 11-12 yoshga to'lgan malakali voleybolchilarda bu ko'rsatkich ancha yuqori darajada qayd etilgan.

Ma'lumki, malakali voleybolchi-larni tayyorlashda bel, qorin, qo'l va oyoq mushaklariga xos tezlik-kuch sifati nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bu borada portlovchi kuch (tezlik-kuch) hal qiluvchi xususiyatga egadir. Bizning tadqiqotimizda ishtirok etgan yosh voleybolchilarda eguvchi va yozuvchi mushaklar kuchining sezilarli farq, asosida kam rivojlanganligi shu bolalarning bog'cha

yoshidan boshlab tezlik-kuch mashqlari bilan juda kam shug'ullanganligidan dalolat beradi.

Binobarin, olingan tadqiqot natijalari yosh voleybolchilarning o'quv-mashg'ulotlarda kuch va tezlik-kuch mashqlari hajmini orttirish chorasini ko'rish taqozo etiladi. Aytish zarurki, bunday mashqlar hajmini oshirish faqatgina standart mashqlar hisobiga bo'lmasdan, balki ko'proq nostandart maxsus mashqlarni musobaqa tariqasida qo'llash yaxshi natija beradi.⁴ Bundan tashqari, dastlab o'rgatish bosqichida yosh voleybolchilar tarkibidan tezroq iste'dodli voleybolchi tayyorlash maqsadida kuchni rivojlantirishga oid mashqlarni zo'rma-zo'raki qo'llash ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi diqqat markazida bo'lishi kerak.

Demak, tezlik-kuchga oid mashqlar bolalarning jismoniy funktsional imkoniyatlariga mos bo'lishi darkor.

Adabiyotlar:

1. Usmonxo'jaev T.S., Xo'jaev F. Harakatli o'yinlar. T.: O'qituvchi, 1992.-80-b.
2. Pulatov A.A. Yosh voleybolchilar tezkorlik-kuch sifatlarini shakllantirish uslubiyati. Uslubiy qo'llanma. –T., 2008.
3. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati//Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012.
4. Boltayev Z.B.Volleybol//Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.-SamDU nashiryoti 2020.

5A111101 – Musiqa ta'limi va san'at

O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNI MA'NAViy-AXLOQIY SHAKLLANTIRISH

F.G`Nurullayev,

BuxDU "Musiqa ta'limi"

kafedrasi dotsenti (PhD)

N.K.Nurullayeva,

BuxDU, Musiqa ta'limi va san'at

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq qoshiqlarining yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashidagi orni va ma'naviy-axloqiy shakllantirishi haqida bayon etilgan. Xalq qo'shiqlari inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyatiga ega bo'lib, axloqiy tarbiyaning muhim manbaidir.

Tayanch so'zlar: Xalq qo'shiqlari, madaniyat, submadaniyat, musiqa, qo'shiq, hissiyot, ma'naviyat, axloqiy madaniyat, san'at, adabiyot, bola, mahorat

Musiqa san'ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa yagona san'at bo'lib, inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega.

Shuningdek, ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o'rni borligi ayni haqiqat. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va musiqiy estetik tarbiyasining muhim vositasi hisoblanadi.

Qo'shiqchilik san'ati o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning musiqiy-estetik tarbiyasidagi eng kuchli vositalaridan biridir. Qo'shiq- sehrli sadolardan

uyushgan mo'jizalar dunyosi. U insonning eng birinchi san'ati, o'zini o'ragan dunyoga ilk munosabati. Inson dunyoga kelib, ko'z ocharkan, onaning ilk allasi bilan shu dunyo ohanglari olamiga kirib boradi va umrbod u bilan nafas oladi. Hoh alladir, hoh yalladir, lapardir, o'landir, yor-yordir—agar u chinakam san'at asari bo'lsa, unda inson degan buyuk zot, uning boy ma'naviy olami Vatanga muhabbati sadoqati, kayfiyati, taraqqiyot darajasi o'ziga xos tarzda nafas bilan aks etadi. Yoshlarni tarbiyalashda ayniqsa xalq yo'lida yaratilgan qo'shiqlar yoshlar ongini ezgulikka to'ldiradi. Bundayin tarbiya uslubi orqali yoshlar xarakterlanib boradi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatish orqali qo'shiqlar mazmunidagi axloq-odob, pand-nasihati, vatanga, xalqqa muhabbat, millatimizga xos bo'lgan hayo, ibo, andishalik, muomala madaniyatiga oid insoniylik fazilatlarini singdirib borishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning xalq musiqa ijodiga bo'lgan qiziqishini, muhabbatini vamehrini yanada orttirish uchun o'qituvchi quyidagi fikr va tavsiyalarga e'tibor bersa, jumladan:

- o'zbek xalq musiqa ijodi turli ifoda vositalariga boy bo'lib, xalqimizning milliy g'urur va iftixori ekanligi to'g'risida;

- asrlar davomida xalqimizning yashashida, mehnatida tuy-tomoshalarida, sayllarda va quvonchli kunlarida, xamda ijodida asosiy omil bo'lib xizmat qilganligi;

- xalq qo'shiqlarida xalqning boshidan kechirgan tarixiy voqealar to'g'risida ma'lumotlar berilgandagina, dars samaradorligi ancha yuqori saviyada bo'ladi. O'zbek xalq kuy va qo'shiqlari shunchalar xilma-xilki, ular orqali bolalarni ma'naviy va axloqiy dunyosini har tomonlama o'stirish, oliyanob fazilatlarini kamol toptirish mumkin. Bunday asarlarga misol qilib, "Alla", lapar, lirik termalar, bolalar qo'shiqlari, "Yomg'ir yog'oloq", "Lolacha", "Boychechak", "Laylak keldi", "Sust xotin", "Lola", mehnat qo'shiqlari, katta ashula, lirik, epic qo'shiqlar, mumtoz asarlarni aytib o'tish mumkin²⁸². Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darsliklariga kiritilgan ushbu qo'shiqlar o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va

1. ²⁸² Nurullayev F.G. "Musiqi ta'limida Buxoro folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari (5-7-sinflar misolida)" -(PhD)diiss.ishi BuxDU.2021y.

axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarimizdan foydalanishning muhim ahamiyati shundaki, avvalo asrlar bo'yi yaratilgan milliy qo'shiqlarining insonlarga kuchli ta'siri yuksakligidadir. Biroq bugungi kunda yoshlarning musiqaga qiziqishlari biroz muammolar keltirib chiqarmoqda. Ko'plab yoshlar xorijiy musiqalarga taqlid qilgani holda o'zlarining ko'rinishlariga ham g'arbona tus bermoqdalar.. An'analarga sodiqlik tushunchalarini yoshlar ongiga sindirib borishda ularni g'arbliklarga taqlid qilib kuylashni emas, balki milliy kuy va qo'shiqlarini tinglashni, o'zlariga tarbiyaviy saboq chiqarish lozimligini o'rgatish zarur.

Ayniqsa, o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlardan oqilona foydalanib, milliy ohanglarni, xalq qo'shiqlarini his eta bilishni shakllantirish lozim. Insonning qaysi millatga mansubligi faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Yigit-qizlarni aqliy-axloqiy, madaniy-ma'naviy jihatdan tayyorlamasdan mamlakatimiz ma'naviyatini rivojlantira olmaymiz. Shunday ekan, ularni ma'naviy barkamolikka erishishlarida milliy musiqamizning kuch-qudratiga tayangan xolda ibratli pand-nasihatga boy, xalqona yaratilgan kuy va qo'shiqlaridan foydalanishimiz zarur. Har bir inson bolaligidan boshlab san'at og'ushida yashaydi. Uning qulog'iga kiradigan birinchi san'at namunasi ona allasidir. Demak, axloqiy tarbiyaning xalq qo'shig'i shaklidagi birinchi omili-bu ona allasidir. Ayniqsa, o'zbek onalarining allasi ma'naviy-ruhiy jihatidan o'ta ta'sirchan vositadir. Inson ulg'aya borgan sari uning g'oyaviy, axloqiy va madaniy saviyasi shakllanishiga imkon oshib boradi. Estetik saviyani shakllanishi va rivojlanishi ham ana shu jarayon bilan birga kechadi. Bu o'z navbatida tarbiyaning barcha jihatlari bilan birga chambarchas bog'liq bo'lib, yuksak insoniy dunyoqarashning shakllanishi bilan uyg'unlashib ketadi. Shuning uchun ham o'quvchilarga ma'naviy tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagoglar bu ishni umumlashgan holda olib borilishi zarurligini unutmashliklari kerak. Bu ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya bilan shug'ullanadigan pedagog o'qituvchilarga taalluqlidir. O'quvchilarni

xalq qo'shiqlari vositasida tarbiyalash bir qancha maqsadlarni ko'zda tutadi. Bizningcha, badiiy havaskorlik, ashula darslariga jalb etilgan o'quvchi yoshlar bilan bu borada ish olib borishda avvalo quyidagi jihatlarga alohida ahamiyat berish lozim:

1. O'zbek xalq qo'shiqlari va kuylari yoshlarning ma'naviy olamiga emotsional ta'sir ko'rsatishi va bu borada etarlicha samara berishiga erishish.

2. San'at bilan voqelikning ijtimoiy roli va ahamiyatini ta'kidlagan holda ularning sertarmoq turlarida folklor qo'shiqlarining o'rnini, badiiy qimmatini, umum madaniyatimizdagi mohiyatini to'g'ri anglab olishga ko'maklashish.

3. O'quvchilarda san'atga oid bilimlarni mustahkamlash bilan birga ularda bu boradagi engil-elpi, mazmunan sayoz, ta'sirsiz va chet el ohanglariga solib aytilgan, o'zbek musiqa madaniyati an'alariga zid bo'lgan qo'shiqlarga nisbatan murosasizlik tuyg'ularini hosil qilish.

4. O'quvchilarni xalq qo'shiqlarini ma'naviy-axloqiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tomonidan to'g'ri baholay olish, ularni tarbiyaviy xususiyatlarini anglashga o'rgatish.

5. Maqsad xalq qo'shiqlari bilan ishlash bo'lsa-da, o'quvchilarda san'atning boshqa turlariga ham mehr-muhabbat uyg'otish, ularning umumiy madaniy saviyasini kengaytirish.

6. Xalq qo'shiqlaridagi nazmiy matnning mazmunini tarbiyaviylik nuqtai-nazaridan tahlil qilib uni talablar ongiga to'laligicha etkazish.

O'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida yuqorida sanab o'tilgan pedagogik omillarni inobatga olish ko'zlangan maqsadgi erishishni kafolatlashi mumkin.

Adabiyotlar:

1. X. Нурматов. "Музыка ва эстетик маданият-Тошкент. Т.Д.П.У. 1995 йил
2. Nurullayev F.G. "Musiqqa ta'limida Buxoro folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari(5-7-sinflar misolida)"-(PhD)diiss.ishi BuxDU.2021y

MUSIQIY USLUBNING FILM DRAMATURGIYASIGA TA'SIRI

F.X. Fayziyeva,

San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

H.A.Karimova,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Kino va televidenie rejissyorligi”

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola musiqiy uslubning film dramaturgiyasiga ta'sirini o'zbek badiiy filmlari misolida o'rganadi.

Kalit so'zlar: Kino, musiqa, uslub, dramaturgiya, film, bastakor;

Har bir filmning o'ziga xos vizual konsepsiyasi mavjud. U nafaqat musiqaning kadr bilan birlashishini, balki ushbu musiqani ifodalashning uslubiy vositalarini ham belgilab beradi. Zamonaviy musiqa ko'p jihatdan kinoning o'ziga xos xususiyatlariga mos keladi. U filmdagi turli epizod va kadrlarning tez o'zgarishi bilan talab qilinadigan aforistik (aforizmdan iborat) tilni yaratish imkonini beradi; qarama-qarshiliklarga boy xarakterli personajlarni yoki vaziyatlarni tavsiflash uchun juda mos; ovozing keskinligi, dissonanslarning boyligi kino kadrlarining qisqa musiqiy xarakteristikasini dinamik qiladi. Eyslarning fikricha: “eski uslublarning shirin ohanglaridan voz kechish kerak”. Bu yerda u o'zining psixologik asosiga ega, chunki romantik ohanglardagi musiqa o'ziga e'tiborni tortadi, birinchi o'ringa chiqadi, bu kinoda, oxir-oqibat, tasvir va musiqa nomutanosibligiga olib keladi. “Hayrat” kinokartinasida (rej.: Zulfiqor Musoqov) ishlatilgan musiqalar tasvir bilan uyg'unlashmaganligi sababli musiqa yetakachilik qilib, tasvir musiqa fonida qolib ketadi. “Tomoshabinning musiqadan foydalanishga munosabati ikki xil bo'lishi mumkin: u yoki faqat tasvirlangan kino olamiga qaratilgan bo'lib, musiqani film qahramonlari va syujeti bilan bog'laydi yoki tomoshabin tasvirlangan dunyoni rad etib, ovozni plastinkaga yozilgan musiqa hamda ijrochining qiyofasini boyitayotgan tovush sifatida qabul qiladi.”

Kinoda tarixiy uslub muammosi bo'lib, u operadagi kabi qiyinchiliklarga duch keladi. Tarixiy filmlarda vizual sohaning rekvizitlari tarixiy haqiqatga imkon qadar yaqin bo'lishi mumkin, ammo musiqa uslubini ko'rsatilayotgan davr bilan bir xil qilib bo'lmaydi. U 19-20-asrlarning musiqiy me'yorlari bilan o'zgarib turadi va eng yangi elektro-akustik texnologiya yordamida amalga oshiriladi. Ammo tarixiy filmlarda alohida parchalarni musiqiy arxaizatsiya qilish ko'lami juda keng. U tarixiy aniqlik bilan boshlanadi va ba'zida musiqa uslubi va kadrlarda ko'rsatilgan vaqt o'rtasidagi beo'xshov tafovut bilan yakunlanadi. Ya'ni, juda olis tarixiy davrdagi operalarda o'sha davrning o'ziga xos musiqiy uslubidan foydalanish mumkin emas. “Djuzeppe Verdi “Bitva pri Len'yano” operasidagi “Lida” ariasida yoki Rixard Vagner “Tangeyzer” operasida fir'avnlr yoki salib yurishlari davridagi haqiqiy musiqani taqdim eta olmaganlar, chunki bunday musiqa bugungi tinglovchi uchun estetik ahamiyatga ega bo'lolmaydi. Sababi Misr musiqasiga oid hech qanday yodgorlik bizgacha yetib kelmagan. Bu operalar bugungi kundagi kino muxlislarini hayratda qoldiradigan va hatto quloqqa yoqimsiz bo'lgan turkumlardan iborat.” Ekranda ko'rsatilayotgan juda qadimiy davrga tegishli musiqa, aslida biz o'rganib qolgan, doimiy eshitib yuruvchi musiqalarimizdan tubdan farq qilishi mumkin. Shuning uchun musiqa haqida “Aynan shu davrning musiqasi” emas, balki “O'sha davr kayfiyatini berdi”, “Zamon ruhiga mos” degan iboralar ishlatiladi.

Bugungi kundagi musiqa uzoq o'tmish voqealari aks ettirilgan tarixiy film syujetida o'zining ko'plab funksiyalarini o'sha davrning asl musiqasiga qaraganda ancha yaxshi bajara oladi. Misol uchun, “Tohir va Zuhra” kinoklassikasidagi (rej.: Nabi G'aniev, bast.: Aleksey Kozlovskiy) partituralarning ko'pi simfonik orkestr ijrosidagi musiqalardir. “Tohir va Zuhra” XV asrga taalluqli sharq xalq ertaklari turkumiga tegishlidir. XV asr sharq musiqasida violonchel, skripka, fleyta kabi musiqa asboblari esa umuman bo'lmagan. Aleksey Kozlovskiy film afsonaga asoslanganligini hisobga olib unda sharq milliy kuylaridan emas balki simfonik ohanglardan to'g'ri foydalangan. Filmda tomoshabin tarixiy dekoratsiya va liboslar hamda simfonik kuylarning kollaboratsiyasidan o'sha davr nafasini sezadi. Bularning aksi qilib, balki qadimgi musiqiy shakllarni hozirgi davrimiz musiqasiga

kiritish ham mumkin. "General Rahimov" filmida (rej.: Zohil Sobitov, bast.: Rumil Vildanov) biz orkestrda ritsslarga xos bo'lgan tovushlarni eshitamiz; "Yolg'iz yodgorim"da (rej.: Sobir Nazarmuhamedov, bast.: Dmitriy Yanov-Yanovskiy) XVIII asr musiqasi motivlari yangraydi; Muayyan tarixiy davrning asl musiqasi elementlari bu yerda o'sha davrni, uning muhitini, odamlarini va hokazolarni tavsiflash uchun xizmat qiladi. Kino musiqasining odatiy uslubi bilan kesishgan holda, ular bizning davrimiz tinglovchilarining musiqiy tafakkur me'yorlariga mos keladi. Bunday filmlar ko'pincha tegishli davrlarning original asarlarini o'z ichiga oladi. Masalan, "General Rahimov"da Raxmaninov, Shostakovich kabi bastakorlarning asl asarlari ishlatilgan.

Shu o'rinda savol berish o'rinli: kino musiqasi ma'lum bir milliy xususiyatga ega bo'lishi mumkinmi? Deyarli barcha filmlar milliy xarakterga ega ekanligiga shubha yo'q. Dublyaj qilingan filmlarda ularning milliy xarakterining eng muhim mezoni bo'lgan milliy til o'rnini boshqa til bilan almashtirish mumkin, ammo bunga qo'shimcha ravishda filmning milliy atmosferasi uning mavzusi, tasvirlangan muhit, personajlar, liboslar, hatto konflikt turlari yoki manzara turlari (landshaft) bilan belgilanadi.

Musiqqa bevosita milliy muhitni belgilovchi omil sifatida xizmat qiladi. U tomoshabin mavzuni, syujetni, personajlarni aniqlab olishdan oldin unga atrof-muhitni ta'riflab beradi. "Yo'l bo'lsin" (rej.: Qamara Kamolova, bast.: Mustafobofoev) va "Faridaning ikki ming qo'shig'i" (rej.: Yolqin To'ychiev) yoki "Dilhiroj" (rej.: Yusuf Roziqov, bast.: Jamshid Izomov) filmlarida milliy uslubni birinchi navbatda, folklor elementlari beradi. Ba'zan musiqqa tomoshabinga tasvirning milliy lazzatini tushuntiradi. Masalan, "Faridaning ikki ming qo'shig'i" filmidagi kirish partiturasida ishlatilgan qo'shiq millat, zamon va makon haqida ma'lumot beradi. Sharq xalqlari musiqasidagi g'ayrioddiy tovush birikmalari va musiqiy asboblari, noodatiy qo'shiq aytish usullari g'arb va yevropalik kino tomoshabinlariga mutlaqo yot bo'lishi mumkin. Tomoshabinni larzaga solish uchun musiqqa bastalashda ana shu komponentlarga e'tibor qaratilsa film qiymati yanada oshishi, shubhasiz.

O'zbek kinosiga ovoz kirib kelganiga sakson yildan oshgan bo'lsa-da, kino musiqasi uslubining rivojlanishi haqida gapirish qiyin. Eng katta to'siq shundaki, kino musiqasi hozirgacha asosan o'rta-miyona bastakorlar tomonidan yoziladi. Ularda aniq individual uslub yo'q, umuman olganda ular musiqadan oson pul topish haqida ko'proq o'ylaydilar. Kino ishlab chiqarishning sanoat xarakteri, filmlarning ommaviy ishlab chiqarilishi, ularning fikricha, kino musiqasini eng yuqori standartlar bilan o'lchash majburiyatidan ozod qiladi. Shu yo'l bilan ular bu janrni ko'plab taniqli bastakorlar oldida obro'sizlantirishadi. Shuning uchun kino musiqasi uslubini o'rganishni o'z vazifasiga jiddiy yondashadigan taniqli kompozitorlar ijodidan boshlash kerak. Kino ishlab chiqarishda ortiqcha odamlarning aralashuvi bo'lmagan, kinoda musiqaning muhim o'rnini to'g'risida tushunchalar kuchaygan, zamonaviy bastakorlar o'z yutuqlarini kino musiqasiga o'tkazayotgan joylardagina bu sohada qiziqarli topilmalar yaratila olinadi.

Bastakorlarning bu borada individual uslubga ega bo'lishlari bir necha jihatlar bilan belgilanadi:

1. Birinchidan, musiqa yozishga qaror qilgan bastakor filmni o'zi tanlashi kerak. Ba'zilar psixologik filmlarni yoqtirsa, Dmitriy Yanov-Yanovskiy kabi kompozitorlar epik turdakisini afzal bilishi, Doniyor Agzamov kabi bastakorlar qo'shiqli filmlarni tanlashi mumkin.

2. Musiqani tasvir bilan uyg'unlashtirganda o'ziga xos ijodkorlik xususiyatlar namoyon bo'lishi kerak.

3. Ishlatiladigan tovush vositalari, ularning imkoniyatlari, yuqorida aytib o'tganimizdek, har doim filmning o'ziga bog'liq bo'lishi lozim.

Har bir san'at turida durdona asarlar bilan bir qatorda muvaffaqiyatsizlikka ucharaganlari ham mavjud. Kino san'atida ham ko'plab kamchiliklar bor. Yaxshi filmlarda musiqa ko'pincha yomon ishlatilganligi juda achinarli, bu tabiiyki, butun asarning qiymatini pasaytiradi. Bunga sabab, kino musiqasida tanqidning yo'qligi, musiqaning o'rnini va ahamiyatiga ijodkorlarning o'zi tomonidan yetarlicha baho berilmasligi va kino musiqasi nazariyasining yo'qligidir. Kino musiqasini to'g'ri tanqid qilish uchun uning o'ziga xos xususiyatlarini, chegaralari va imkoniyatlarini

tushunish, avtonom musiqaga qo'llaniladigan me'zonlardan farq qiladigan aniq baholash me'zonlarini ishlatish lozim. Kino musiqasi ma'lum ma'noda bir nechta san'at chorrahasida joylashgan oraliq hodisa bo'lib, unga turli xil san'at turlarining qonuniyatlarini va eng muhimi, ularning kinodagi o'zaro ta'siri tamoyillarini yaxshi biladigan mutaxassislar kerak.

Adabiyotlar:

1. Лисса Зофья. “Эстетика киномузыки”. М.:Музыка, 1970. - 445 с. - 192 б.
2. Theodor W. Adorno, Hanns Eisler. Composing for the Films (Continuum Impacts) Paperback – December 11, 2007. 63 b.
3. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/>
4. <https://uz.wikipedia.org/>

FORTEPIANO ANSAMBLI SINFIDA BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH TEXNOLOGIYALARI

M.O'. Jo'rayeva,

*Buxoro davlat universiteti musiqa ta'limi
va san'at mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fortepiano ansambli ijrosi, o'quvchilarning polifonik eshitish qobiliyatini hamda ritmik his etish qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy asarni chuqur anglash, uning obrazli-she'riy mantig'ini chuqur tushunib olish, notadan o'qish chog'ida hamkorlik uchun bir xil yoshdagi va bir xil tayyorgarlik darajasidagi bolalar tanlanlashning xususiyatli jihatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Fortepiano, ansambl, garmonik eshitish, melodik eshitish, tembr-dinamik eshitish, shtrix, musiqa asari.

Fortepiano ansambli ijrosi musiqiy adabiyot bilan keng va har tomonlama tanishuv uchun eng yaxshi imkoniyatlarni yaratadi. Bunda musiqachi turli badiiy uslub va tarixiy davrlarga oid asarlarni o'rganadi. Shuningdek, ijrochi fortepiano uchun yozilgan asarlardan tashqari, opera, simfonik, kamer-cholg'u hamda vokal

asarlarning klavirlari bilan ham tanishishga muyassar bo'лади. Boshqacha qilib aytganda, ansambl ijrosi - musiqiy tasavvurning doimiy yangilanib turishi, boy va turli xarakterdagi musiqiy axborotning oqib kelishini ta'minlaydigan faoliyat turidir. U yangi va turli-tuman tasavvurning kirib kelishini ta'minlab, musiqaga nisbatan "musiqiy salohiyatning markazi va hissiy munosabat"ning taraqqiy etishiga omil bo'lib xizmat qiladi. Musiqa asarini tinglash natijasida qo'lga kiritilgan ko'plab yorqin tasavvurlarning jamlanishi badiiy xayolning rivojlanishiga turtki beradi. Hissiy to'liqlanishning avjida musiqiy-aqliy harakatning umumiy ko'tarilishi yuzaga keladi. Ansambl ijrosi o'quvchidagi boshqa xususiyatlarning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, musiqiy eshitish qobiliyati, ritmik hissiyot, xotira, harakat ko'nikmalari. Ushbu xususiyatlarning rivojlanishi musiqiy faoliyatning boshqa turlarida ham az qotadi. Garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantiruvchi eng kuchli vosita, bu- turli kuylarga garmonik jo'rlik qilishdir. Bunda garmonik jo'rlik ustoz tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa o'quvchiga ilk qadamdanoq ko'p ovozli musiqaning ijrosida qatnashish imkoniyatini beradi. Garmonik eshitish qobiliyatining rivoji melodik eshitish qobiliyatining rivoji bilan bir xil olib boriladi.

So'nggi yillarda yuzaga kelayotgan musiqiy-tarbiyaviy ishlar natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarning eshitish qobiliyatini murakkab garmonik tuzilmalarga o'rgatish misollarini ham ko'rish mumkin. Polifonik eshitish qobiliyatini rivojlantirish - musiqiy tarbiyaning eng murakkab qismlaridan biridir. Zero, yosh o'quvchi polifonik asarlarni ijro etish, bir vaqtning o'zida bir necha melodik yo'llarni tinglash ko'nikmasiga ega emas. Bunda ansambl ijrosi jarayonida polifonik asarning ovozlarini juft-juft qilib chalish tavsiya etiladi. Shu tahlit, ansambl ijrosi ilk mashg'ulotlardananoq polifoniyani tinglash, uning tarkibiy qismlariga quloq solish, ohangning alohida qurilmalarini yorqinroq ifodalash ko'nikmasini beradi.

Musiqiy eshitish qobiliyati tembr va dinamikaga ko'ra tembr-dinamik eshitish deb ataladi. Ushbu eshitish qobiliyati musiqiy amaliyotning barcha turlarida, shuningdek, musiqiy ijrochilikda muhim o'rin tutadi. Ansambl ijrosi o'zining boy

musiqiy matosi hisobiga tembr-dinamik eshitish qobiliyatini rivojlantiruvchi keng imkoniyatlarga ega. Ustoz bilan bir qatorda shogird ham turli xil tembr va dinamik bo'yoqlarni, shtrix samaradorligini izlab, polifonik ijroning alohida guruhlariga xos yangrash xususiyatlarini, ohangdor tutti xususiyatlarini ifodalashga harakat qiladi.

Ansambli ijrosi ritmik his etish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Ritm - musiqaning markaziy unsurlaridan biridir. Ritm hissining shakllanishi - musiqiy pedagogikaning muhim vazifalaridandir. Musiqadagi ritm - nafaqat vaqt-o'lchovli, balki, hissiy-ifodaviy, obrazli-she'riy, badiiy mazmunli kategoriyadir. Ritm hissi uchta asosiy tuzilmaviy unsurdan tashkil topadi: sur'at, aktsent va cho'zimlar munosabati. Bularning barchasi ritmik ko'nikmani tashkil etadi. Ilk qadamlardan o'quvchi bir xil cho'zimlarning ravon ketma-ketligini ifodalay olishi - muhim ko'nikmalardan biridir. Zero, ravon harakat hissining rivojlanishi ansambldagi ijrochilardan har birining musiqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ustoz bilan hamkorlikda ijro etish chog'ida o'quvchi muayyan metr-ritmik ravishda chegaralanadi. Ritmni ushlab turish zarurati turli ritmik tasvirlarning tabiiy ravishda o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ansambli ijrosi musiqiy-ijrochilik qobiliyatining muhim ajralmas tarkibiy qismlaridan bo'lmish xotiraga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Ansambli ijrosi asarni yod olish xususiyatiga egadir. Yakka ijro chog'ida o'quvchi asarni ahamiyatsiz ravishda mexanik mashq sifatida yodlab olsa, ansambli ijrosi chog'ida esa maskur jarayon tubdan o'zgaradi. Ansambli ijrochisining xotirasi yanada tez shakllanadi. Musiqiy asarni chuqur anglash, uning obrazli-she'riy mantig'i, shakl xususiyatlarini tushunib olish - musiqani muvaffaqiyatli ravishda badiiy barkamol qilib yod olishning asosiy shartidir. Ansamblda yoddan chalish asarni mexanik ravishda yod olishda emas, balki, tahliliy-mantiqiy, aqliy xotiraning rivojlanishiga yo'l ochib beradi. Ansamblni o'rganishdan avval hamkorlar asarning shaklini tushunib olishi, so'ngra esa tarkibiy qismlar ustida ularni bir-biridan farqlagan holda ishlashni boshlashi kerak.

Keyingi ish jarayoni frazirovka, dinamika ustida boradi. Yuqorida ta'kidlanganlarni anglab yetish avvalambor ikkinchi partiya ijrochisi uchun o'ta muhim hisoblanadi. Zero, uning partiyasi akkordli mato yoki arpedjio holatida

ifodalangan bo'lishi mumkin. Bu holda, u birinchi partiyaning materialini bilmay turib, asarni o'zi uchun aqliy ravishda tuzib ola olmaydi. Ikkinchi partiya ijrochisi, ayniqsa, garmonik tahlilga e'tibor qaratishi lozim. Shunga qarab, u asarning umumiy musiqiy matosini xayolan tinglay olishga o'rganishi kerak. Bu esa ichki tinglash tasavvuriga asoslanadi. Ansambl ijrosi o'quvchining harakat-motor xususiyatlarini ham rivojlantiradi.

Amaliyot shuni ko'rsatdiki, ansambl ijrosida o'quvchining rivoji yanada tezroq yuz beradi va ko'nikmalar ham tezroq mustahkamlanadi. Notadan o'qish - o'quvchining yangi musiqiy material bilan mustaqil tanishish ko'nikmasi bo'lib, keyingi ish jarayonini mazmun va quvonch bilan to'ldiradi. Yangi asar bilan ilk tanishuv o'quvchida qiziqish uyg'otishi katta ahamiyatga ega. Buning uchun notadan o'qish ko'nikmasini yanada rivojlantirish zarur. Shunga ko'ra, e'tiborning uzoq vaqt jam bo'lishiga erishish va ijrodan ancha oldinda ketayotgan matnni uzluksiz ravon egallash ko'nikmasini qo'lga kiritish zarur. Boshlang'ich bosqichning o'zidayoq yengil pyesalarni to'rt qo'l bo'lib (ustoz yoki boshqa o'quvchi bilan) chalish tavsiya etiladi. Murakkabroq pyesalarga avvalgi materialni mustahkamlagandan so'nggina o'tish kerak bo'ladi. Materialning murakkablashuvi asta-sekin, o'quvchiga bilinmaydigan holda yuz berishi zarur. Notadan o'qish chog'ida hamkorlik uchun bir xil yoshdagi va bir xil tayyorgarlik darajasidagi bolalar tanlanadi. Bunday holda, o'quvchilar orasida norasmiy musobaqalashuv yuzaga kelib, ijroga nisbatan e'tiborning yanada oshishi kuzatiladi. Bunda o'quvchilarning e'tiborini asarni yaxlit anglashga qaratish lozim bo'ladi. Ansamblda notadan o'qish chog'ida asarning murakkab joylarida o'quvchini to'xtatish mumkin emas. Chunki, bu holat hamkor bilan bog'liqlikning buzilishiga olib keladi. Qolaversa, ijro vaqtida tez-tez to'xtash notadan o'qish quvonchini buzadi. Shuning uchun ham ish jarayonida nisbatan oson bo'lgan musiqiy material tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi o'quvchining to'xtagan paytida ikkinchi o'quvchi ijroni to'xtatmasligi talab etiladi. Bu esa, birinchi o'quvchini o'zini yo'qotmay ijroga yana qo'shib ketishiga imkon beradi. Ansambl ijrosiga tegishli aksariyat to'plamlarda ko'p qirrali repertuarining keltirilganini ko'rish mumkin.

Ammo ularda uslubiy yo'naltirilganlik ko'zga tashlanmaydi hamda o'quvchi bilan ishlashning o'quv-tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilmaydi. Musiqiy materialni tanlashda asosiy omillarga asoslangan prinsiplar quyidagicha:

- estetik - zamonaviy g'oyaviy-estetik ahamiyatga ega bo'lgan asarlarni tanlashni taqozo etadi. Bunda musiqiy madaniyatda qaror topgan janr va uslub xilma-xilligi aks etadi;

- ruhiy - o'quvchilarning hayotiy va musiqiy tajribasiga mos keladigan mazmundagi asarlarni tanlash. Shu bilan birga, o'quvchilarning keyingi rivojini taqozo etadigan asarlar tanlanishi kerak bo'ladi;

- musiqiy-pedagogik - dasturning tematik mazmuniga tegishli asarlarni tanlashni taqozo etadi.

Repertuar tanlash vaqtida ustoz o'quvchining xohish-istagini, uning munosabati va fikrini inobatga olishi zarur. Aslida yangi repertuar tanlanishiga bolalar hech qachon qarshi bo'lishmaydi. Shunday qilib, ansambl sinfidagi repertuar tanlash imkoniyati qator pedagogik hamkorlik prinsiplarini shakllantiradi: ilgarilash, erkin tanlash, majburiyatsiz o'qitish. Bunday shakl esa o'quvchining har tomonlama rivojiga qaratilgan erkin repertuar siyosatini taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Azimov H. Fortepiano darsligi. O'qituvchi.- T.: 1998 yil
 2. Альспектор И. Воспитание пианиста-исполнителя в классе. Т.А.Попович. –Т.: 1986 г
 3. Bahriyev A.R. O'quvchilarda musiqiy tinglovchilik madaniyatini shakllantirish. Zamonaviy ta'lim / Современное образование 2019, 10(83).В. 39-45.
 4. Jo'rayev F. Становление и развитие массового музыкально- эстетического воспитания учащейся молодежи в кружках узбекских народных инструментов. Автореферат дисс.к.п.н. Т.:1979 г.
- Rajabova D. Fortepiano mashg'ulotlari.-Toshkent .: O'qituvchi, 1994.yil.

5A110801 – Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING BOSHLANG'ICH SINFLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHNING METODIK IMKONIYATLARI

A.Shukurov,

BuxDUPI, San'atshunoslik kafedrasi dotsenti

D.R.Rahmatova,

Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Tasviriy san'at" o'quv fani o'z mazmuniga ko'ra integrativ fan hisoblanadi. Chunki uning mazmunida Tasviriy san'atdan tashqari amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik, me'morlik va dizaynga oid o'quv materiallarini o'zlashtirish belgilab qo'yilgan. Shuningdek, tasviriy san'at ta'limining mazmunini 1-4, 5-7-sinflarda o'qitishida muayyan tafovutlar mavjud va bunda tasviriy san'atning uzluksiz tizimi mantiqiy rivojlanib borish prinsipi asosiga quriladi.

Kalit so'zlar: san'at, tasviriy san'at, integratsiya, natura, idrok, kompozitsiya, estetika.

Tasviriy san'at ta'limi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-7-sinflarida haftasiga 1 soatdan o'qitilib, uch turdagi faoliyat (san'atshunoslik asoslari, tasviriy faoliyat (naturaga qarab tasvirlash) hamda kompozitsion faoliyat) va olti yo'nalish (san'atshunoslik asoslarining yetakchi yo'nalishi – suhbat, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, me'morlik, amaliy va dizayn san'ati)dagi dars turlariga bo'linadi. Ayrim dars turlari 1-4-sinflarda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir-biridan farq qilishi nazarda tutiladi. Jumladan, 5-7-sinflarda o'qitiladigan hamda o'quvchilarda san'at asarlarini badiiy-estetik idrok etishga o'rgatuvchi san'atshunoslik asoslari darslari boshlang'ich sinflarda suhbat tarzidagi borliqni va san'atni idrok etish shaklida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan Tasviriy san'at o'quv fani o'z mazmuniga ko'ra integrativ fan hisoblanadi. Chunki uning mazmunida Tasviriy san'atdan tashqari amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik, me'morlik va dizaynga oid o'quv materiallarini o'zlashtirish belgilab qo'yilgan. Shuningdek, tasviriy san'at ta'limining mazmuni 1-4, 5-7-sinflarda o'qitilishida muayyan tafovutlar mavjud va tasviriy san'atning uzluksiz tizimi mantiqiy rivojlanib borish prinsipi asosiga quriladi. Masalan, boshlang'ich sinflardagi borliqni idrok etish darslari 5- sinfdan boshlab san'atni idrok etish tarzida davom ettirilib, asosiy e'tibor bevosita o'quvchilarda san'at asarlarini badiiy-estetik idrok etishga oid bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiriladi va faoliyatning bu turi tasviriy san'atdan Davlat ta'lim statsdarti hamda o'quv dasturida San'atshunoslik asoslari bloki tarzida beriladi.

Faoliyat turlari bo'yicha "Tasviriy san'at" o'quv fani quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Borliqni idrok etish. Bu yo'nslishdagi darslarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrof-muhitni estetik idrok etishga o'rgatish vositasida insoniyat uchun dolzarblashib borayotgan inson va tabiat munosabatlarini teranroq anglash, tevarak-atrof va voqelikdagi go'zallikni idrok etish ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quvchilarda estetik va ekologik madaniyat elementlari tarkib toptirib boriladi. Bu bo'lim tasviriy san'at ta'limi mazmunida alohida o'rin egallaydi. U san'atning hayot bilan aloqasini tushunishga, kuzatilayotgan voqealarning turli-tuman holatlar, undagi shakllar, ranglar xilma-xilligini ko'ra olishni o'rgatadi. Bu bo'limda tasviriy san'atda tasvirlangan voqealarning shuningdek, me'morlik obidalarini tabiat bilan hamohanglikda borliqning bir qismi sifatida anglash, estetik idrok etish obyekti tariqasida o'rganiladi.

San'atni idrok etish. San'atshunoslik faoliyatining asosiy shakli sifatida bu turdagi darslarda keng ma'noda Tasviriy san'at o'quv fani mazmuniga kiritilgan barcha san'at turlari bo'yicha namunalarni, shu jumladan umuminsoniy va milliy qadriyat darajasida e'tirof etiladigan mumtoz maqomdagi san'at asarlarini o'rganish orqali o'quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalash bilan bir qatorda ularni

vatanparvarlik hamda baynalminallik fazilatlarini tarbiyalash ko'zda tutiladi. Zero, tasviriy san'at ta'limi mazmunida O'zbekiston tasviriy va amaliy san'ati, me'morligiga oid o'quv materiallari bilan bir qatorda Sharq va jahon tasviriy san'ati, ularning muhim tendensiya va ana'analari, mashhur rassomlarning hayoti va ijodi bilan tanishtirib borish jarayonida ularda vatanparvarlik va baynalminallik sifatlari tarkib toptirib boriladi. Shuningdek, san'atni idrok etish darslari san'at turlarining spesifik xususiyatlari, o'ziga xos ifodaviy vositalari, ularni tarixiy an'analari, zamonaviy texnologiyalar asosida yaratish prinsiplarini o'rgatish yo'sinida tasviriy san'at ta'limini takomillashtirish, muayyan yo'nalishlarini rivojlantirish istiqbollari belgilanadi.

Tasviriy faoliyat darslari, asosan, tasviriy san'at turlari (rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik) bo'yicha naturaga qarab tasvirlash darslari shaklida tashkil etilib, bu turdagi darslarda o'quvchilarning tasviriy savodxonliklari shakllantirib boriladi, ya'ni naturaga qarab tasvirlash darslarida o'quvchilarda ob'ekt (natura)ni maqsadli kuzatish, tahlil qilish, buyumlarning konstruktiv tuzilishi va boshqa parametrlariga ko'ra tasviriy vosita va material tanlash va amaliy tasviriy faoliyatda maqsadga muvofiq tarzda qo'llash kompetensiyalari tarkib toptiriladi. Bu darslarda olingan nazariy bilim va egallangan amaliy malakalar kompozitsion faoliyat darslari bilan uzviy aloqadorlikda tashkil etiladi.

Kompozitsion faoliyat tasviriy san'at darslarining asosiy qismini tashkil etadi. Unda rangtasvirda kompozitsiya, grafikada kompozitsiya, haykaltaroshlikda kompozitsiya, dizaynda kompozitsiya, amaliy bezak san'atida kompozitsiya yo'nalishlarida darslar tashkil etilib, asosiy e'tibor o'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish, naturaga qarab tasvirlash darslarida egallagan bilimlari, borliqni idrok etish jarayonida olgan tasavvur va taassurotlari, qolaversa, Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturida ko'rsatilgan namunaviy mavzular, topshiriqlar, adabiy asarlar (ertak, rivoyat, she'r, hikoya va h.k.) syujetlari asosida kompozitsiya yaratishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish orqali bolalarda ijodkorlik kompetensiyalari rivojlantirib boriladi. Shuni qayt qilib o'tish joizki, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, umumta'lim maktablarining boshlang'ich

sinflarida tasviriy san'at darslari soatini haftasiga hech bo'lmaganda 2 soat qilib belgilash zarur. Bu esa o'quvchilarda ijodiy fikrlash, mantiqiy tafakkur hamda tasavvurlarini boyitishda xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O'zbekistan, 2017. – 488 b.

2. Abdirasilov S. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2011.

3. Abdirasilov S., Tolipov N. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Aloqachi, 2007.

4. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012.

5. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2010.

I-SHO`BA
ANIQ VA TABIIY FANLAR

70530901 – Fizika (yo`nalishlar bo`yicha)

<i>O.X.Xamidov</i>	<i>Muqaddima.....</i>	<i>3</i>
<i>A.A.Turayev</i>	<i>Oliy ta'lim tizimida magistrnlarning o'rni.....</i>	<i>5</i>
<i>A.A.Turayev</i> <i>O.G'.To'rayev</i>	<i>Kupratlar elektr o'tkazuvchanligining magnit maydon bilan bo'g'liqligi.....</i>	<i>8</i>
<i>Q.S.Saidov</i> <i>M.A. Fayziyeva,</i> <i>B.J.Arashov</i>	<i>Zamonaviy texnologiyalarda yarim o'tkazgichli materiallar qo'llanilish afzalliklari.....</i>	<i>13</i>
<i>Ш.Ё. Амиров,</i> <i>Н.Ж. Нурматов,</i>	<i>Определение значения энергии ширины запрещенной зоны тонкой пленки ито ($In_2O_3 / SnO_2, 90 / 10 \%$) с помощью спектрофотометра.....</i>	<i>18</i>
<i>U.U.Usmonov,</i>	<i>O'ta o'tkazuvchanlik hodisasining kashf qilinish tarixi, buguni va istiqbollari.....</i>	<i>22</i>
<i>O.B. Jumaboyeva,</i>	<i>Elektr xotiraga ega bo'lgan integro-differensial maksvell tenglamasi uchun teskari masala.....</i>	<i>26</i>
<i>A.M.Xalxujaev</i> <i>D.S.Rahmatova</i>	<i>Bir o'lchamli panjarada kompakt qo'zg'alishli Bilaplasianning xos qiymatlari asimptotikasi.....</i>	<i>30</i>
<i>B.E.Niyazxonova,</i> <i>R.I.G'afforova</i>	<i>"Suyuqliklarda elektr toki" mavzusini namoyishli tajribalar asosida o'qitish.....</i>	<i>33</i>
<i>M.I.Daminov,</i> <i>S.S.Salimov,</i>	<i>Frenel linzasi asosidagi suv nasosini o'rganish.....</i>	<i>36</i>
<i>M.I.Daminov</i> <i>U.A.Narzullayev</i>	<i>Quyosh konsentratorlari energiya zichligini o'rganish.....</i>	<i>40</i>
70540101 – Matematika (yo`nalishlar bo`yicha)		
<i>Sh.B.Ne'matova</i>	<i>Umumlashgan Fridrixs modelining sonli tasviri haqida.....</i>	<i>44</i>
<i>Z.Y.Jalilova</i>	<i>Оценки для числа собственных значений модельного оператора на решетке.....</i>	<i>48</i>
<i>A.M.Xalxujayev,</i> <i>Sh.Sh.Ramazonova</i>	<i>Bir o'lchamli qo'zg'alishli diskret bilaplasianning xos qiymati uchun yoyilma.....</i>	<i>50</i>

<i>Sh.F.To'rayev, A.M.Avazxonova</i>	<i>Kasr-ratsional va o'zaro nisbati ratsional son bo'lgan irratsional sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi va eng kichik umumiy karralisi tushunchasi hamda ularning ba'zi masalalarda qo'llanilishi.....</i> 52
<i>K.D Kuliyeu, M.M. Nurillayeva</i>	<i>Hardy operatori normasi uchun baholar</i> 56
<i>Sh.Sh.Sayfullayeva</i>	<i>Buzilish chizig'iga ega elliptik tenglama uchun chegaraviy masala yechimining yagonaligi haqida</i> 59
<i>M.F.Shukurova</i>	<i>Kasr tartibli integrallarni hisoblashga ayrim doir metodik tavsiyalar</i> 61
<i>S.U.Isayev</i>	<i>Kasr tartibli diffuziya tenglamalasi uchun teskari masala</i> 64
<i>I.N.Bozorov, G.B.Po'lotova</i>	<i>Оценки для числа собственных значений двухчастичного оператора шредингера на решетке</i> 71
<i>D.Sh.Bozorova</i>	<i>Elliptik tenglama uchun chegaraviy masala haqida</i> 74
70540201 – Amaliy matematika (sohalar bo'yicha)	
<i>F. R. Karimov</i>	<i>Aniq integralni taqribiy hisoblash.....</i> 77
<i>M. N. Qodirova</i>	<i>Informatika o'qitish metodikasi va axborot texnologiyalarining jamiyat hayotidagi ahamiyati.....</i> 79
<i>A.B.Malikov</i>	<i>Classification based on decision tree algorithm classification based on decision tree algorithm.....</i> 83
<i>F.SH. Eliyeva, M.M. Nurillayeva</i>	<i>Diskret hardy tengsizligi uchun ekvivalent shartlar.....</i> 89
<i>D.Q.Sodiqova</i>	<i>Multimedia resurklarini yaratish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar. multimedia resurklarini yaratish bo'yicha o'quv loyihalari</i> 94
<i>M.B.Gadoyeva</i>	<i>Ayrim nosimmetrik kriptotalgoritmlarni takomillashtirish. RSA algoritmini parametrlar algebrasi yordamida takomillashtirish... 98</i>
70530101 – Kimyo (fan yo'nalishlar bo'yicha)	
<i>O.U.Nurova, D.T.Qurbonova</i>	<i>To'qimachilik korxonalarini oqova suvlarining fizik-kimyoviy tarkibi</i> 101
<i>F.M. Nuritdinova, U. U. Hafizov</i>	<i>Universitet fizik kimyo fanini o'qitishda metodik yo'nalish</i> 104
<i>С. Ф. Салимова, Д.З. Каримова</i>	<i>Применение возможностей виртуальных лабораторий в учебном процессе</i> 108
<i>M. Y. Ergashov, S. Z. Sattorova</i>	<i>Umumiy o'rta ta'lim maktablarida organik kimyo fanini o'qitishda modul texnologiyasining o'rni.....</i> 112
70510101-Biologiya (fan yo'nalishlar bo'yicha)	
<i>N.H.Xasanov, M.M.To'yboev, F.T.Valiyeva</i>	<i>XIX-XX asrlarda Biotexnologiyaning fan sifatida rivojlanishining asosiy xususiyati</i> 117
<i>A.A.Yuldashev,</i>	<i>Amaranthus o'simligining dorivorlik xususiyatlari</i> 123

<i>M.A.Abduxalilova</i>	
<i>H.M. Toshov, F.I. Asadova</i>	<i>Buxoro shahri suv havzalarining tasnifi va undagi shoxdormo 'yovli (cladosera) qisqichbaqasimonlar faunasi..... 126</i>
<i>Sh.M Sharipova, U.O. G'apurova, G. Ostonova</i>	<i>Turli darajada sho'rlangan tuproqlarning chigit unuvchanligiga ta'siri..... 130</i>
70530402 – Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha)	
<i>X.R.Toshov, Z.G'.Qodirova</i>	<i>Landshaft ta'limoti va amaliyot..... 132</i>
<i>G.S.Halimova, M.S.Muhammadova</i>	<i>Talabalarda ilmshunoslik fanidan savodxonlikni oshirishda ko'rgazmali metodning afzalliklari 138</i>
<i>X.R.Toshov, D.J.Qo'chqorova</i>	<i>Jondor tumani qishloqlari va ularni ko'kalamzorlashtirilishining geografik xususiyatlari</i>
<i>M.O'. Hamroqulova</i>	<i>Buxoro viloyati cho'l landshaftlarida yuzaga keladigan geoekologik vaziyatni yaxshilash yo'llari.....147</i>
<i>U.N. Qahhorova</i>	<i>Namangan viloyati ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati yoki „Baxt indeksi”..... 150</i>
II-SHO'BA FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	
70230101 - Lingvistika (o'zbek tili)	
<i>B.Jo'rayeva, N.Ashurova</i>	<i>“Ot” lmg'i asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarining pragmatik xususiyatlari (“ot kishnagan oqshom” asari matni asosida)..... 158</i>
<i>Sh.R.Atoyeva</i>	<i>O'zbek tilida ayrim tarixiy murojaat shakllari xususida162</i>
<i>M. Sh. Boltayeva</i>	<i>O'zbek tilining jondor shevasi..... 167</i>
<i>Sh. Niyozov</i>	<i>Tohir malikning “murdalar gapirmaydi” asarida qo'llangan metaforalarning o'rni va pragmatik tahlili..... 171</i>
<i>M. Rustamova</i>	<i>Tilshunoslikda lingvopoetik tahlil 174</i>
<i>Sh.Sh.O`dayeva</i>	<i>Tinish belgilar paradigmasi 177</i>
<i>Jo'rayeva Ch.B</i>	<i>6 sinf ona tili darslarida zoologiya mavzularidan foydalanish usullari180</i>
<i>Sh.I.Akramova</i>	<i>Yomg'irning inson ruhiyatiga ta'siri va uning nutqda aks etishi183</i>
<i>N.Bafoyeva</i>	<i>«O'tgan kunlar» romanidagi antropoindikatorlarning semantik-uslubiy xususiyatlari.....187</i>
<i>Z.Y.Jo'rayeva</i>	<i>Gender tushunchasi va lingvistik talqini 191</i>

M.A.Mustafojeva	<i>Ingliz va o'zbek tillari antroponimlarning ifodalanishi</i>194
M.A.Tilavova	<i>Tohir Malikning frazeologik birliklardan mahorati (“Odamiylik mulki” asari asosida)</i> 197
M.Q.Sa'dullayeva	<i>“Muhabbat” konseptida metaforizatsiya</i> 200
H.Hodiyeva	<i>O'zbek tilida so'roq gaplarning tasniflanishi</i> 204
X.F.Saidova	<i>Internet tarmog'ida ot turkumiga oid so'zlar taraqqiyoti</i> 208
N.Q.Yo'ldosheva	<i>Tilshunoslikda “mehnat” konsepti</i>213
L.J.Jo'rayeva	<i>Tilshunoslikda til va madaniyat masalasi</i> 217
S.T.Toshtemirova	<i>Tibbiy nutqda tasviriy vositalardan foydalanish (metaforalar misolida)</i> 221
G.A.Salimova	<i>So'roq gapning pragmatik vaziyatga bog'liq xususiyatlari</i> 226
T.H. Asadov, A.O'. Azimova	<i>Samandar vohidov she'riyati fonostilistikasi xususida</i> 229
N.B. Obloberdiyeva	<i>Bola nutqining psixolingvistik xususiyatlari(6-7 yosh)</i> 234
D.R.Qahhorova	<i>Kosmetologiyaga oid terminlar</i>238
S.O'.Jurayeva	<i>Nutq ta'sirchanligini oshirishda nutq uslublarning o'rni</i>241
N.B.Erkinboyeva	<i>Jondor shevasidagi uy-ro'zg'or buyum nomlarining o'ziga xosligi</i> 246
R.B.Fattojeva	<i>Bobur lirikasida o'xshatishlarni hosil qiluvchi vositalar</i>250
M.F.Niyozova	<i>Shifokorlik sirlarini saqlash madaniyati</i> 254
N.S.Ibragimova	<i>Rasmiy uslubdagi nutqning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari</i>258
70230502 – Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti	
F. Mamadova	<i>Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, zahiriddin muhammad bobur” dostonida bobur obrazining yaratilishi</i> 260
N.S. Narzulloyeva	<i>Adibning ijod laboratoriyasi haqida</i> 266
S.T.Latipova	<i>Jo'ra Fozil ijodida mavzu, uslub va obraz</i> 270
G'.N.Murodov	<i>Shoirning tasvirlash mahorati</i> 273
L.Sharipova, M.Bog'irova,	<i>XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida tog` va tosh obrazi</i>276
L.Sharipova, X.Najimova	<i>Istiqlol davri o'zbek she'riyatida janr stilizatsiyasi</i>280

D.J.Xamroyeva	<i>Abdulla sherning “Buxoro manzumasi” turkum she’rida Buxoro tarixi ifodasi.....</i>	285
B.M.Jo‘rayeva, M.J.Oromova	<i>O‘zbek xalq maqolida anqo timsoli va poetikasi.....</i>	289
M.T.Saypidinova	<i>Alisher Navoiy va Ulug‘bek hamdam ijodida ramziy talqin mushtarakligi.....</i>	291
M.Abduraxmonova	<i>“Paremiyalarning adabiyotdagi o‘rni. Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” romanida qo‘llangan paremiologik birliklar tadqiqi” ..</i>	296
70230301- Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (tillar bo‘yicha)		
G.Shabonova	<i>“Boburnoma” nodir manba sifatida</i>	301
Sh.T.Vaxobova	<i>So‘fi Olloyor ijodida harf san‘ati</i>	305
Sh.A.Hayitov, K.A. Akramova	<i>Bir devonning ko‘chirilish tarixi</i>	309
O.M. Abdurahimova	<i>Komron Mirzo adabiy merosini o‘rganishning qo‘lyozma manbalari.....</i>	313
G.SH. Shoyimova	<i>O‘zbek manbashunoslik ilmining nozikdid bilimdoni.....</i>	318
70230101 – Lingvistika: ingliz tili		
M.U. Saidova, L.G`Narzulloyeva	<i>Ingliz tilida metaforaning badiiy uslubda ifodalanishi</i>	324
H.X. Рузиева	<i>Вежливость и коммуникативные типы предложений.....</i>	328
D.I.Xodjayeva, M.A.Baxronova	<i>Cognitive function in children</i>	331
G.I. Khamraeva	<i>Benefits of implementing group work activities in teaching foreign languages.....</i>	334
70230502 – Adabiyotshunoslik: ingliz adabiyoti		
L.D. Djalilova, D.H.Salimova	<i>Satire in English literature</i>	338
M.B.Jamolova	<i>Ingliz afsona va mifologiyasida mifologik obrazlar talqini</i>	342
D.R.Isamova	<i>Expression of human conditions in fiction novels in somerset maugham`s works</i>	348
L.J.Jalilova, R.S.Nematova	<i>Adabiy janr rivojida psixologizmlar o‘rni.....</i>	354
70230201 - Qiyosiy tilshunoslik va Lingvistik tarjimashunoslik		
Z.M.Asadova	<i>Badiiy matnlar tarjmasida leksik va grammatik transformatsialarining qo‘llanilish usullari.....</i>	358
D.I.Xodjayeva, S.R.Mirzoyeva	<i>Idioma va iboralarning taqqoslanishi.....</i>	362
N.R.Abdurakhmono va	<i>Comparative analysis of color-related idioms in uzbek and english.....</i>	365
D.E.Beknazarova	<i>Transmission of lingvocultures in the translation of v. Shakespeare's sonnets</i>	368

S.G.Khamroyeva	<i>The features of translation of Anthropological terms 372</i>
N.A.Qo'ldosheva	<i>Ingliz va o'zbek tibbiy birliklari lingvopragmatik xususiyatlarining umumiy tushunchalari 376</i>
Z.Bobokhujayeva	<i>The importance of it..... 381</i>
O.I.Xolmurodova	<i>A.Qodiriyning "O'tgan kunlar va mehrobdan chayon" asarlarining inglizcha tarjima turlaridagi frazeologik birliklar va ularning madaniy xususiyatlari..... 384</i>
D.H.Ochilova	<i>Siyosiy atamalarning xususiyatlari (o'zbek va ingliz tillari misolida) 389</i>
N.B.Baratova	<i>Tarjimada inversiyaning uzatilishi..... 392</i>
U.N.Rashidova	<i>Household realias in english and the main ways of translating them..... 397</i>
N.X.Ruziyeva, M.B.Xolova	<i>Lingvokulturologiyada tadqiq masalalari..... 401</i>
D.I.Mexmonova	<i>Ilmiy-texnik matnlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar va uning yechimlari... 406</i>
M.H.Safarova	<i>Tarjimada leksik interferensiya hodisasi..... 410</i>
M.B.Nurmuxammedova	<i>Linguistic analysis of religious texts issues..... 415</i>
S.U.Mustoqova	<i>Badiiy asarlarda shifokor qahramonlar nutqida uchraydigan evfemizmlarning denotativ va konotativ ma'nolari..... 421</i>
70230502 - Adabiyotshunoslik: rus adabiyoti	
Ф. Э.Тагаева	<i>Диалогические связи и аллюзии на русскую классику в дискурсе романа «Русская красавица» виктора ерофеева 425</i>
Л.Р.Сидоркова	<i>Двоичность и троичность в структуре романа М.Булгакова «Мастер и маргарита» 430</i>
М.Ш.Одинаева	<i>Своеобразие поэтики "Слова о полку игореве" 434</i>
70230101 – Lingvistika: rus tili	
С.Ш. Умарова	<i>Теория прецедентности в современной русской лингвистике.. 439</i>
А.А.Давронова	<i>Общая характеристика тюркизмов в толковых словарях XVIII – XX веков 444</i>
Т.Л. Чхетиани	<i>Особенности колоративной лексики в романе д. рубиной «Белая голубка кордовы» 449</i>
М.И.Ханнанова	<i>Понятие «Корневой повтор» в теоретическом освещении... 454</i>
К.К.Niyazova	<i>Verbal derivation in the work of igor severyanin..... 459</i>
А.А. Акрамова	<i>Образ человека в зеркале русских фразеологических единиц и фольклоре 462</i>
З.З. Жумаева	<i>Военная метафора как система агональности современного публицистического дискурса..... 467</i>
М.Х. Аскарлова	<i>Концепт «Красота» в русской и узбекской фразеологии 472</i>
Ш.Б.Хасанова	<i>Лингвокультурологические исследования русских пословиц... 476</i>
М.С.Умарова	<i>Система согласных русского и узбекского языков 480</i>

Г.О. Хамраева	<i>Лексико-грамматические разряды, морфологические и синтаксические признаки имени существительного в русском и узбекском языках.....</i> 485
Д.Э. Каримова	<i>Окказионализм как объект изучения в современном языкознании.....</i> 490
О.О.Шукурова	<i>Употребления фразеологизмов библейского происхождения в русском литературном языке</i>
З.Т.Назарова	<i>Новая заимствованная лексика в русском языке как фактор динамики языковой картины мира.....</i> 500
Н.Н. Латипова	<i>Концепт гора в лингвокультурологическом аспекте (на материале русского фольклора)</i> 504
Б.Н.Латипова	<i>Характеристика концепта «добро» в русской лингвокультуре.....</i> 508
70230101- Lingvistika: fransuz tili	
M. M. Jo`rayeva, F.S.Nasimova	<i>O`zbek va fransuz tillarida bo`g`in tuzilishi.....</i> 511
R.R. Bobokalonov, Z. S. Saidova	<i>O`zbek va fransuz tillarida o`timsiz fe`llarning tipologik tahlili....</i> 514
O.I. Adizova, Z.K. Berdiyeva	<i>O`zbek va fransuz tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy tahlili.....</i> 518
III-SHO`BA IJTIMOIIY GUMANITAR FANLAR	
5A111701 – Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang`ich ta`lim)	
Y.M.G`aybulloyeva	<i>Boshlang`ich sinflarda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari.....</i> 523
N.T.Tosheva, A.M. Ibodullayeva	<i>Boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion ta'lim jarayonida kasbiy mahorati</i> 527
5A111801 - Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta`lim)	
S.F.Mehmonova	<i>Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada sog`lom turmush tarzini shakllantirish omillari.....</i> 530
Z.B.Jalilov, D.S.Toyirova	<i>Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda sensor tarbiya vositasida rivojlantirish usullari.....</i> 534
G. Q. Hasanova , G. A. Toirova	<i>Maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida o`yin faoliyatini tizimli yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....</i> 539
5A110901 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo`yicha)	
M.B.Davronova	<i>O`zbek xalq maqollarida kimyo faniga oid atamalarning ishlatilishi</i> 543

H. T. Avezov, F.J.Xojoyeva	<i>Umumta'lim maktablarida steam ta'limini joriy etish va uning samaradorligini oshirish546</i>
M. F. Sharopova	<i>Steam-ta'lim yondashuvi va uning o'quv samaradorligini oshirishdagi ahamiyati551</i>
N.N. Musayeva, S.A. Ikromova	<i>Hamkorlik pedagogikasidan foydalanishning jihatlari..... 554</i>
M.I. Daminov, S.O. Halimova	<i>Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darsliklarining qiyosiy tahlili.....557</i>
Sh.F. To'rayev	<i>Raqobatbardosh fiziklarni yetishib chiqishida oliy ta'limda to'g'ri tashkillashtirilgan mustaqil ta'limning o'rni 567</i>
U.H. Hayitov	<i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari571</i>
D.I.Maxmudova	<i>Iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyatini modulli ta'lim asosida yanada takomillashtirish.....574</i>
Y.U. Narzulloyev	<i>Oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning talaba yoshlar tarbiyasidagi o'rni.....577</i>
D.A.Sobirova, M.H.Haydarov	<i>Abu Ali ibn Sinoning inson ruhiyati, ta'lim va tarbiya jarayoni borasidagi yondashuvlari ahamiyati..... 580</i>
M.M. Maxmudova	<i>Fizika fanini o'qitishda interfaol ta'limdan foydalanishning ahamiyati585</i>
T.T. Shikarov	<i>O'qituvchi kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishda akmeologik yondashuv589</i>
U. G`. Sobirov	<i>Vatan ravnaqi uchun chet elga o'qishga yuborilgan "Yosh buxoroliklar" va ularning achchiq qismati.....594</i>
5A110902 – Pedagogika va psixologiya	
X.J. Siddiqova	<i>O'quvchilarni tarbiyalashda ularning individual psixologik xususiyatlarining ahamiyati 602</i>
M.Ш.Усманов	<i>А.Психологические взгляды Адлера: Сиблинг и теория дефицита606</i>
A.N.Xudoyorov	<i>Bo'lajak psixologlarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning psixologik mexanizmlari611</i>
M.SH. Ismoilova	<i>Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitishda tarbiya texnologiyalariga innovatsion yondashuvlar616</i>
A.M. Nazarov, M.K. Muhamedova	<i>O'quvchilarda art terapevtik vositalarni qo'llashning psixologik mexanizmlari624</i>
A.M. Nazarov, D.T. Umarova	<i>O'smirlardagi emotsional zo'riqishlarni korreksiyalashning o'ziga xos xususiyatlari 630</i>
D. K. Hotamova	<i>Pedagogik yo'nalishdagi fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi.....636</i>
L.Y.Olimov, M.O'.Bahronova	<i>O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 647</i>

N.F.Ubaydullayeva	<i>Orzu - maqsadlariga erishish jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar 651</i>
N.N. Ashrapov	<i>Din psixologiyasida shaxs axloqini shakllantirish masalalari haqida 657</i>
D.S Qaxorova, G.F. Adizova	<i>Maktab o'quvchilarining ijodiy kompetentligini oshirishda chet el olimlarining yondashuvlari va nazariyalari..... 661</i>
U. S. Jumayev	<i>Globallashish jarayoni va ommaviy madaniyatning yoshlar xulq-atvoriga ta'siri xususida..... 665</i>
Sh. M. Ulug'ova, N. Kozimova	<i>Psixologik konsultatsiya, uning ijtimoiy sohada qo'llanilishi va unga murojaat qiluvchi shaxslar turlari..... 669</i>
H. N. Saidov	<i>Tibbiyot xodimlarida sotsial – psixologik kompetentlik asoslari.. 672</i>
Б. Ш. Каримов, А.Н. Исматуллоев	<i>Субъективный контроль и его влияние на деятельность личности 677</i>
N.N. Boymurodov	<i>The emergence and application of art therapy 680</i>
5A112001- Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi	
R.R.Raxmonov , R.A.Rahimboyev	<i>Yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish samaradorligi 685</i>
H.N.Ismoilov	<i>Bolalarda yengil atletika bilan shug'ullanishning ahamiyati 691</i>
E. B. Rustamov	<i>Yosh voleybolchilarda kuchni rivojlantirish mashqlari..... 694</i>
Z.T. Axmedova	<i>Gandbolda otish tezligi tushunchasi va ahamiyati tizimli ko'rib chiqish..... 698</i>
Z.A.Sheraliyeva	<i>O'smir voleybolchilarda sakrovchanlik sifatini baholash texnologiyasi va uni rivojlantirish uslubiyoti..... 701</i>
5A111101 – Musiqa ta'limi va san'at	
F.G`Nurullayev, N.K.Nurullayeva	<i>O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish 704</i>
F.X. Fayziyeva, H.A.Karimova	<i>Musiqiy uslubning film dramaturgiyasiga ta'sir 708</i>
M.O`. Jo'rayeva	<i>Fortepiano ansambli sinfida bolalarga ta'lim-tarbiya berish texnologiyalari..... 712</i>
5A110801 – Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati	
A.Shukurov, D.R.Rahmatova	<i>Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida tasviriy san'at fanini o'qitishning metodik imkoniyatlari..... 717</i>